



UDK: 42:111

Zamira ABDUJABBAROVA,
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti professori, PhD
E-mail: zamirahon85@mail.ru

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, PhD D.R.Sayitxanova taqrizi asosida

THE EXPRESSION OF EXTRALINGUISTIC MEANS IN THE REALIZATION OF SPEECH ECONOMY WITHIN THE GLOBAL LINGUISTIC LANDSCAPE OF THE ENGLISH LANGUAGE

Annotation

This article explores the expression of speech economy in the English language through extralinguistic means within the global linguistic landscape. Speech economy, the principle of conveying information with minimal linguistic means, is significantly enriched by gestures, facial expressions, intonation, and contextual factors. These elements play a crucial role in effective communication and intercultural understanding. The study analyzes various communicative contexts—daily conversations, academic discourse, and digital communication – highlighting how nonverbal cues and emojis enhance clarity, emotional expression, and message efficiency. Emphasis is placed on the contrast between high-context and low-context cultures in interpreting these tools accurately.

Key words: speech economy, extralinguistic means, intercultural communication, gestures, intonation, emoji, high-context culture, nonverbal communication.

ВЫРАЖЕНИЕ ЭКСТРАЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В РЕАЛИЗАЦИИ РЕЧЕВОЙ ЭКОНОМИИ В МИРОВОМ ЛИНГВИСТИЧЕСКОМ ПРОСТРАНСТВЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В статье рассматривается реализация принципа речевой экономии в английском языке через экстралингвистические средства в контексте глобального языкового пространства. Речевая экономия, как принцип передачи информации с минимальными языковыми средствами, обогащается жестами, мимикой, интонацией и контекстуальными условиями. Эти элементы играют ключевую роль в эффективной коммуникации и межкультурном взаимопонимании. Анализируются различные коммуникативные контексты – повседневные диалоги, академические тексты и цифровая коммуникация, где используются невербальные знаки и эмодзи для уточнения смысла и выражения эмоций. Отдельное внимание уделено различиям между высококонтекстуальными и низкоконтекстуальными культурами.

Ключевые слова: речевая экономия, экстралингвистические средства, межкультурная коммуникация, жесты, интонация, эмодзи, высококонтекстуальная культура, невербальная коммуникация.

INGLIZ TILIDA NUTQIY TEJAMKORLIKNING OLAM LISONIY MANZARASIDA VOQELANISHIDA EKSTRALINGVISTIK VOSITALARNING IFODALANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz tilida nutqiy tejamkorlikning ifodalanishida ekstralingvistik vositalarning o'rni o'rganiladi. Nutqiy tejamkorlik – bu axborotni eng kam lingvistik vositalar bilan samarali yetkazish prinsipidir. Imo-ishora, mimika, intonatsiya va kontekstual holatlar bu jarayonda muhim o'rin tutadi. Maqolada kundalik suhbatlar, akademik matnlar va raqamli kommunikatsiya (ijtimoiy tarmoqlar)dagi misollar orqali bu vositalarning muloqot samaradorligiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, yuqori va past kontekstli madaniyatlar o'rtasidagi tafovutlar orqali bu vositalarning madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: nutqiy tejamkorlik, ekstralingvistik vositalar, madaniyatlararo muloqot, imo-ishora, intonatsiya, emoji, yuqori kontekstli madaniyat, neverbal muloqot.

Kirish. Nutqiy tejamkorlik – bu axborotni minimal vositalar bilan samarali yetkazish tamoyili bo'lib, tilshunoslikda kommunikativ samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarida nutqiy tejamkorlik faqat lingvistik vositalar bilan cheklanmay, balki ekstralingvistik vositalar, ya'ni imo-ishora, mimika, intonatsiya, kontekstual holatlar kabi unsurlar bilan ham boyitiladi. Bu ekstralingvistik vositalar milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilida nutqiy tejamkorlikning olam lisoniy manzarasida voqelanishida ekstralingvistik vositalarning roli o'rganilishi, madaniyatlararo muloqotda to'g'ri talqin qilish uchun zarurdir [3]. Ekstralingvistik vositalar – bu imo-ishora, mimika, intonatsiya, kontekstual holatlar kabi tilga oid bo'lmagan unsurlarni o'z ichiga oladi. Ushbu vositalar muloqotda axborotni yanada aniq va samarali yetkazishda muhim rol

o'ynaydi. Masalan, biror so'zni qattiq ovozda yoki yumshoq ovozda aytish, yuz ifodalari yoki qo'l imo-ishoralari orqali qo'shimcha ma'lumot berish mumkin. Bu vositalar muloqotda noaniqliklarni bartaraf etishda, his-tuyg'ularni ifodalashda va madaniy farqlarni hisobga olishda yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. Nutqiy tejamkorlik va ekstralingvistik vositalar mavzusi tilshunoslikda dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib, uni ko'plab xorijiy va o'zbek olimlar ilmiy jihatdan tahlil qilganlar.

Xalqaro miqyosda bu sohada George Yule o'zining “The Study of Language” asarida pragmatik omillar va kontekstning nutq mazmuniga ta'siri haqida fikr yuritgan. U nutqiy qisqalik (speech economy) tushunchasini samarali axborot yetkazish vositasi sifatida ko'rsatadi. Deborah Tannen esa madaniyatlararo farqlarning muloqotdagi ahamiyati haqida yozar ekan, ekstralingvistik vositalarning madaniy

kontekstdagi o'rni tahlil qiladi. R.L. Trask va Peter Stockwell kabi tilshunolar ham nutqdagi qisqartirish jarayonlarini, noverbal elementlar va kontekst orqali qanday samarali muloqot yuzaga kelishini izohlab bergan. Ayniqsa, digital kommunikatsiyada emoji va GIF'lar orqali ifodalayotgan his-tuyg'ularning tahlili bugungi kunda ijtimoiy lingvistik doirasida keng o'rganilmoqda.

O'zbek tilshunosligida bu mavzu bo'yicha professor Mahmudov N. o'zining "Til va tafakkur uyg'unligi" asarida til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ochib beradi [3]. Tilning ma'no tashuvchi vosita sifatidagi funksiyasi bilan bir qatorda, uning kontekstda qanday talqin qilinishi haqida chuqur tahlillar keltirilgan.

Professor Asqarova M. o'zining "O'zbek tilida metafora va ramziy ma'no" nomli tadqiqotida ekstralingvistik vositalarning (jumladan, ramzlar va imo-ishoralar) milliy tafakkurdagi o'rni ochib beradi. Bu vositalar til orqali beriladigan ma'lumotdan ko'ra chuqurroq, semantik va kognitiv ma'no tashuvchi elementlar sifatida qaraladi [2].

Yana bir muhim manba – professor Alimova M.X. tomonidan yozilgan "Semantik nazariyalar tarixi" nomli kitobdir. Unda tilshunoslikdagi asosiy semantik oqimlar va ularning zamonaviy kommunikatsiyadagi ahamiyati tahlil qilinadi. U ayniqsa, nutqiy qisqalik va kontekstual yondashuvlarning semantik darajadagi tushunchalarini ochib beradi [1].

Shuningdek, Tazhimbetova G. tomonidan 2024-yilda chop etilgan "Лингводидактические трудности овладения прагматической компетенцией в педагогическом вузе" maqolasida ekstralingvistik vositalarning o'rgatishdagi murakkab jihatlari ko'rsatib berilgan. U pedagogik ta'lim kontekstida pragmatik kompetensiyani shakllantirishda madaniyatlararo farqlarning e'tiborga olinishi lozimligini urg'ulaydi [6].

Bundan tashqari, o'zbek tilshunosligida Yo'ldoshev B., Xudoyberganova D., va Sayfullayev A. kabi olimlar kommunikatsion pragmatika va madaniyatlararo muloqot masalalariga oid ilmiy izlanishlar olib borganlar [7].

Shu asosda, ekstralingvistik vositalarning nutqiy tejamkorlikda tutgan o'rni ko'p darajali, ko'p madaniyatli va multimodal xususiyatlarga ega bo'lib, bu mavzuni zamonaviy lingvistika va ta'lim metodikasi nuqtai nazaridan o'rganish dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Madaniyatlararo muloqot esa bu turli madaniyatlar vakillari o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni bo'lib, til va madaniyatning o'zaro ta'sirini o'rganadi. Madaniyatlararo muloqotda ekstralingvistik vositalarning roli katta. Chunki imo-ishora, mimika, intonatsiya kabi vositalar madaniy farqlarni aks ettirib, muloqotning samaradorligini oshiradi [1]. Masalan, biror madaniyatda salomlashish uchun qo'lni ko'tarish odat bo'lsa, boshqa madaniyatda boshni egish orqali salomlashish mumkin. Agar bu farqlar hisobga olinmasa, muloqotda noaniqliklar yuzaga kelishi mumkin.

O'zbek tilida nutqiy tejamkorlikda ekstralingvistik vositalar muhim rol o'ynaydi. Masalan, o'zbek tilida salomlashishda "Assalomu alaykum" so'zlari bilan birga boshni egish yoki qo'lni ko'tarish kabi imo-ishoralar ishlatiladi. Bu imo-ishoralar salomlashishning samimiyligini va hurmatini ifodalaydi.

Ingliz tilida ham nutqiy tejamkorlikda ekstralingvistik vositalar muhimdir. Masalan, ingliz tilida salomlashishda "Hello" yoki "Good morning" so'zlari bilan birga yuz ifodalari, qo'lni siqish yoki boshni egish kabi imo-ishoralar ishlatiladi. Bu vositalar muloqotda his-tuyg'ularni ifodalashda va muloqotning samaradorligini oshirishda yordam beradi.

Ushbu maqolada ingliz tilidagi nutqiy tejamkorlikning ekstralingvistik vositalari tahlil qilindi. Tahlil uchun ingliz tilidagi turli kommunikativ kontekstlar, jumladan, kundalik

suhatlar, akademik matnlar va raqamli kommunikatsiyalar (masalan, ijtimoiy tarmoqlar) dan namunalar tanlandi. Ekstralingvistik vositalar sifatida imo-ishora, mimika, intonatsiya, emoji va boshqa vizual belgilarning qo'llanilishi o'rganildi [4]. Tahlilda yuqori va past kontekstli madaniyatlar o'rtasidagi farqlar ham inobatga olindi. Masalan, raqamli kommunikatsiya — bu internet va mobil texnologiyalar orqali amalga oshiriladigan axborot almashinuvi jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, xabar almashish dasturlari kabi vositalarni o'z ichiga oladi. Raqamli kommunikatsiyada imo-ishora, mimika, intonatsiya kabi ekstralingvistik vositalar mavjud bo'lmasa-da, ular emoji, GIF, video va boshqa vizual vositalar orqali ifodalanadi.

Emoji - bu raqamli kommunikatsiyada his-tuyg'ularni, kayfiyatni yoki fikrni ifodalash uchun ishlatiladigan vizual belgilardir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, emoji ishlatish xabarlarining ma'nosini aniqlashtirishga yordam beradi va muloqotning samaradorligini oshiradi. Masalan, biror xabar oxiriga qo'yilgan kulgu yuzining emoji'si xabarni do'stona va samimiy qiladi.

Ekstralingvistik vositalarning ishlatilishi turli madaniyatlarda farq qiladi. Masalan, yuqori kontekstli madaniyatlarda imo-ishora, mimika, intonatsiya kabi vositalar ko'proq ishlatiladi, chunki bu madaniyatlarda muloqotda kontekst va noverbal belgilar katta ahamiyatga ega. Boshqa tomondan, past kontekstli madaniyatlarda muloqotda aniq va to'g'ridan-to'g'ri so'zlar ishlatiladi, shuning uchun ekstralingvistik vositalarga kamroq e'tibor beriladi [4].

Yuqori kontekstli madaniyatlar - bu madaniyatlarda muloqotda kontekst, munosabatlar va noverbal belgilar katta ahamiyatga ega. Bunday madaniyatlarda imo-ishora, mimika, intonatsiya kabi vositalar ko'proq ishlatiladi. Masalan, Yaponiya, Xitoy kabi mamlakatlar yuqori kontekstli madaniyatlarga misol bo'ladi.

Past kontekstli madaniyatlar - bu madaniyatlarda muloqotda aniq va to'g'ridan-to'g'ri so'zlar ishlatiladi. Bunday madaniyatlarda ekstralingvistik vositalarga kamroq e'tibor beriladi. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya kabi mamlakatlar past kontekstli madaniyatlarga misol bo'ladi [5].

Tahlil va natijalar. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilida nutqiy tejamkorlikning ekstralingvistik vositalari quyidagi xususiyatlarga ega [2]:

- ingliz tilida imo-ishora va mimika kommunikatsiyada ma'lumotni to'ldirish va aniqlashtirish uchun ishlatiladi. Masalan, yuz ifodalari va qo'l harakatlari so'zlarning ma'nosini kuchaytiradi yoki noaniqlikni bartaraf etadi;

- so'zlarning ohangi va urg'usi nutqning ma'nosini o'zgartirishda muhim rol o'ynaydi. Intonatsiya orqali savol, ta'kid yoki shubha kabi ma'no qatlamlari ifodalanadi;

- raqamli kommunikatsiyada emoji va boshqa vizual belgilar axborotni tez va samarali yetkazishda ishlatiladi. Bu belgilar hissiy holatlarni ifodalashda va muloqotni jonlantirishda muhim ahamiyatga ega;

- ingliz tilida kontekstual holatlar, ya'ni vaziyat va atrof-muhit, nutqiy tejamkorlikni ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. Kontekstni to'g'ri talqin qilish kommunikativ xatoliklarni kamaytiradi.

Ingliz tilida nutqiy tejamkorlikning ekstralingvistik vositalari milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettirishda muhim ahamiyatga bo'lib yuqori kontekstli kommunikatsiya uslubi keng tarqalgan. Bu esa imo-ishora, mimika va intonatsiyaning ahamiyatini oshiradi. Bundan tashqari, raqamli kommunikatsiyada emoji va vizual belgilarning qo'llanilishi nutqiy tejamkorlikni ta'minlashda samarali vosita hisoblanadi [3].

Biroq, yuqori va past kontekstli madaniyatlar o'rtasidagi farqlar kommunikatsiyada tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Masalan, ingliz tilida bevosita va aniq

ifodalashga urg'u berilgan bo'lsa, boshqa madaniyatlarda kontekstual va noaniq ifodalar afzal ko'riladi. Shu sababli, madaniyatlararo muloqotda ekstralingvistik vositalarning to'g'ri talqin qilinishi muhimdir.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, ingliz tilida nutqiy tejamkorlikning ekstralingvistik vositalari kommunikativ samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Imo-ishora, mimika, intonatsiya, emoji va kontekstual holatlar nutqni qisqartirish va ma'nosini aniq yetkazishda samarali vositalardir. Madaniyatlararo muloqotda bu vositalarning to'g'ri talqin qilinishi kommunikativ xatoliklarni kamaytiradi va muloqotni samarali qiladi. Shu sababli, til o'rgatuvchilar va tarjimonlar uchun ekstralingvistik vositalarni o'rganish va ularni to'g'ri qo'llash zarurdir.

Ushbu tadqiqot natijasi sifatida quyidagi takliflar beriladi:

Ta'lim jarayonida multimodal yondashuvni kuchaytirish: Ingliz tilini o'qitishda ekstralingvistik vositalarni, jumladan emoji, gesture, intonatsiya, mimika, va interaktiv GIF'larni o'rgatish amaliy mashg'ulotlar bilan boyitilishi kerak.

Madaniyatlararo kommunikatsiya kurslarida ekstralingvistik vositalar bo'yicha maxsus modul ishlab chiqish: Nutqiy qisqalikni ifodalovchi noverbal vositalarning turli madaniy kontekstlarda qanday qabul qilinishini o'rgatish foydali bo'ladi.

Raqamli muloqot vositalaridan samarali foydalanish: Telegram, WhatsApp, Instagram kabi platformalarda ekstralingvistik belgilar (emoji, reaksiyalar) orqali muloqot qilish ko'nikmalarini o'rgatish kerak.

O'zbek tilshunosligida nutqiy tejamkorlik va ekstralingvistik vositalarni chuqurroq o'rganishga ehtiyoj mavjud: Xususan, bu vositalarning O'zbek tili va madaniyatidagi shakllanishi, qiyosiy tahlili bo'yicha mustaqil tadqiqotlar olib borilishi lozim.

Darslik va o'quv qo'llanmalarga ekstralingvistik vositalarni aks ettiruvchi bo'limlar kiritish: Amaliy dialoglar, multimodal matnlar, video va audio misollar orqali bu vositalar real kontekstda o'rgatilishi kerak.

O'qituvchilarning kasbiy rivojlanish kurslariga ekstralingvistik kompetensiyani rivojlantirish modullarini kiritish: Bu orqali nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilarning ham raqamli va madaniyatlararo savodxonligi oshadi.

ADABIYOTLAR

1. Alimova M.X. Semantik Nazariyalar Tarixi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, 2023.
2. Asqarova M. O'zbek tilida metafora va ramziy ma'no. Toshkent: Fan nashriyoti, 2010.
3. Mahmudov N. Til va tafakkur uyg'unligi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.
4. Rasulov Z. I. Universal Linguistic Economy Streamlines Global Communication. *Comparative Linguistics, Translation, and Literary Studies*, 1(3), 32. 2023.
5. Stockwell, P. Sociolinguistics: A Resource Book for Students. London: Routledge, 2002.
6. Tazhimbetova, G. Лингводидактические трудности овладения прагматической компетенцией в педагогическом вузе. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(3), 149–153. <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3-pp149-153>
7. Yo'ldoshev, B. Pragmatika asoslari. Toshkent: Noshir, 2017.
8. Xudoyberganova, D. Madaniyatlararo muloqot va til. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2018.
9. Sayfullayev, A. Zamonaviy lingvistik yondashuvlar. Namangan: Ilm ziyo, 2021.



UDK: 371.9:004.42

Shaxlo ABDULLAYEVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail:waxlo0110@gmail.com

NamDTU dotsenti, PhD A.Xasanov taqrizi asosida

DIGITAL INCLUSIVE EDUCATION FOR VISUALLY IMPAIRED STUDENTS IN UZBEKISTAN: INTEGRATION OF BRAILLE AND VOICE TECHNOLOGIES IN TEACHING INFORMATICS

Annotation

Developing digital inclusive education for visually impaired students in Uzbekistan is a significant issue. The article analyzes barriers in their education and proposes solutions through the integration of Braille and voice technologies.

Key words: inclusive education, visually impaired students, Braille, voice technologies, informatics education, digital adaptation, educational resources in Uzbek, screen reader programs, Braille displays, innovative educational technologies.

ЦИФРОВОЕ ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: ИНТЕГРАЦИЯ ШРИФТА БРАЙЛЯ И ГОЛОСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ИНФОРМАТИКЕ

Аннотация

Цифровое инклюзивное образование для учащихся с нарушениями зрения в Узбекистане является важной проблемой. Статья анализирует барьеры в обучении таких учащихся и предлагает решения путем интеграции шрифта Брайля и голосовых технологий.

Ключевые слова: инклюзивное образование, учащиеся с нарушениями зрения, шрифт Брайля, голосовые технологии, обучение информатике, цифровая адаптация, образовательные ресурсы на узбекском языке, программы экранного чтения, дисплеи Брайля, инновационные образовательные технологии.

O'ZBEKISTONDA KO'RISH QOBILIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR UCHUN RAQAMLI INKLYUZIV TA'LIM: INFORMATIKA FANINI O'RGATISHDA BRAYL VA OVOZLI TEXNOLOGIYALARNING INTEGRATSIYASI

Annotatsiya

O'zbekistonda ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun informatika fanini o'qitishda raqamli inklyuziv ta'limni rivojlantirish muhim muammo hisoblanadi. Maqola ushbu o'quvchilarning ta'limdagi to'siqlarini tahlil qilib, Brayl yozuvi va ovozli texnologiyalarni integratsiya qilish orqali yechimlar taklif etadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilar, brayl yozuvi, ovozli texnologiyalar, informatika ta'limi, raqamli moslashtirish, o'zbek tilida ta'lim resurslari, ekran o'quvchi dasturlar, brayl displeylari, innovatsion ta'lim texnologiyalari.

Introduction. Uzbekistan's "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategy prioritizes digital literacy, highlighting the need for inclusive education systems for visually impaired students [14]. By 2025, there will be more than 36 million people living in Uzbekistan, and 2.7% of them - or 1.03 million people - will have a disability, including visual impairments [3]. Despite 26.74 million internet users (75% of the population) in 2023 [10], visually impaired students face barriers due to limited accessible infrastructure and trained educators. In order to enable fair access, assistive technologies such as refreshable Braille displays and audio tools (such as text-to-speech software and NVDA screen readers) are necessary for informatics, which is essential for promoting computational thinking. Globally, 85% of visually impaired students using such tools demonstrate improved performance in STEM subjects. In Uzbekistan, 205 digital technology training centers trained 144,000 learners in 2022, yet only 3% of programs targeted visually impaired students [5]. This study examines the integration of Braille and audio technologies in informatics education, predicting that with sustained investment, 40% of visually impaired students could access inclusive education by 2030 [2].

Literature Review. The integration of assistive technologies, such as Braille displays and audio systems, has

transformed inclusive education globally, though their application in Uzbekistan's informatics curriculum remains limited. A systematic review of 71 studies from 2013 to 2023 shows that multimodal interfaces combining tactile and audio feedback enhance student engagement by 68% [12]. Specifically, 85% of visually impaired students using tools like NVDA or refreshable Braille displays achieve better outcomes in computational subjects [6]. However, only 12% of these studies address low- and middle-income countries, indicating a research gap for Uzbekistan [7]. In Uzbekistan, the "Raqamli O'zbekiston – 2030" initiative trained 144,000 learners in 2022, but only 3% of programs incorporated assistive technologies for visually impaired students [5]. Key challenges include the high cost of Braille displays (\$2,000–\$3,000) [11], limited digital infrastructure (only 15% of schools have accessible tools) [8], and inadequate teacher training, with 79% of educators in low-resource settings lacking relevant skills [15]. Research by Horna-Saldaña and Canaleta (2024) demonstrates that 3D-printed Braille tools improve comprehension by 62% [1], while audio-haptic pedagogies enhance understanding in 73% of cases [6]. Predictive models suggest that with targeted investments, 45% of Uzbekistan's schools could adopt assistive technologies by

2030, potentially benefiting 50,000 visually impaired students [10].

Research Methodology. This study adopts a mixed-methods design, combining quantitative measures (academic performance, technology usage) and qualitative insights (user experiences, pedagogical challenges) to evaluate the efficacy of Braille and audio technologies in informatics education. 150 visually impaired adolescents (ages 12 to 18) from 10 schools in Toshkent, Samarqand, and Buxoro were chosen by stratified random sampling with a 95% 2.confidence level, 5% margin of error, and Cochran's formula as part of a quasi-experimental pre- and post-test design [8]. Additionally, 30 informatics teachers and 20 special education staff were purposively sampled to provide implementation insights [8]. Data were collected through:

Quantitative: 5-point Likert-scale usability surveys, device usage records (frequency, duration, and error rates), and standardized informatics tests modified for accessibility (Cronbach's alpha > 0.80).

Qualitative: Semi-structured interviews with 15 students, 10 teachers, and 5 staff; three focus groups (6–8 participants each); and non-participant observations in 10 classes.

A 12-week intervention piloted a curriculum integrating Braille displays and audio tools (e.g., NVDA), with teachers receiving 20 hours of training aligned with UNESCO's inclusive education guidelines. Descriptive statistics, paired t-tests, ANOVA, logistic regression (goal AUC ≥ 0.75), and NVivo thematic analysis were used in the data analysis [9]. The Uzbekistan Pedagogical Sciences Research Institute's ethical approval guaranteed data confidentiality and informed consent (in Braille or audio forms). The short intervention length and the urban-centric sample are limitations; longitudinal rural studies are planned.

Results and Analysis. Quantitative Results: The informatics test scores before and after the intervention improved significantly, with the average score before the intervention being 62.4 (SD = 12.3) and the average score

after the intervention being 78.6 (SD = 10.8; $t(149) = 14.72$, $p < 0.001$, Cohen's $d = 1.39$ [9]. Between Toshkent, Samarqand, and Buxoro, no discernible regional variations were found ($F(2, 147) = 1.23$, $p = 0.297$) [9]. Students completed 82% of tasks (SD = 9%) and made 12% of errors (SD = 5%) using audio tools for 32% of tasks and Braille displays for 68% of tasks (SD = 15%). [11]. Technology use and academic success were found to be moderately positively correlated by a Pearson correlation ($r = 0.47$, $p < 0.01$) [9]. With Cronbach's alpha values of 0.83 and 0.87, respectively, surveys assessed the usability of audio tools at 3.9 (SD = 0.8) and Braille displays at 4.1 (SD = 0.7), indicating good reliability [9]. With an AUC of 0.79, logistic regression revealed that teacher training hours ($\beta = 0.48$, $p < 0.05$) and previous technology exposure ($\beta = 0.62$, $p < 0.05$) were predictors of effective adoption.

Qualitative Results: Four major themes emerged from the thematic analysis of focus groups, interviews, and observations.

Accessibility: 80% of students reported that Braille displays were "intuitive" after training, even though 30% reported delays in audio tool processing [1, 6].

Pedagogical Adaptation: Multimodal education was successfully implemented in 70% of observed classes, despite 40% of teachers citing a lack of preparation as a barrier [15].

Student Engagement: Compared to 65% (SD = 10%) in traditional settings, the use of assistive technology increased engagement to 88% (SD = 7%) [12].

Implementation Barriers: 60% of teachers reported high device costs, and 20% of rural sessions had connectivity issues [10, 11].

Increased accessibility and involvement were linked to academic advances, according to triangulation [9]. Predictive modeling indicates that by 2028, school adoption may rise by 30% in urban areas while lagging by 15% to 20% in rural areas, where 40% of schools are impacted by connectivity constraints [2, 10].

Table 1: Summary of Quantitative Results

Metric	Pre-Intervention	Post-Intervention	Statistical Significance
Test Score (M $\pm$ SD)	62.4 $\pm$ 12.3	78.6 $\pm$ 10.8	$t(149) = 14.72$, $p < 0.001$
Braille Usage (%)	-	68 $\pm$ 15	-
Audio Usage (%)	-	32 $\pm$ 10	-
Task Completion (%)	-	82 $\pm$ 9	-
Error Rate (%)	-	12 $\pm$ 5	-

Conclusion and Recommendations. This study demonstrates that for visually impaired students in informatics education, using Braille and audio technology greatly improves student involvement (M = 88%, SD = 7%) and academic performance ($t(149) = 14.72$, $p < 0.001$, Cohen's $d = 1.39$). These results are in line with the "Raqamli O'zbekiston – 2030" plan and worldwide patterns, where the use of assistive technology has increased by 20% a year in poor countries [2]. However, 40% of rural schools lack proper infrastructure, and scalability is limited by high device costs and regional connectivity constraints. The following suggestions are put forth in order to address these issues:

Infrastructure Investment: Using a projected 15% annual budget growth, increase funds to provide assistive technologies to 50% of rural schools by 2030.

Teacher Training: To increase technology use by 10–15%, mandate 40-hour training programs ($\beta = 0.48$, $p < 0.05$).

Cost Subsidies: By introducing subsidies, gadget costs can be lowered by 20% to 30%, which might lead to a 25% increase in urban usage by 2028.

Localized Content: Since only 30% of the available materials are in Uzbek, create audio and Braille resources in that language.

Longitudinal Research: To increase coverage by 20% by 2030, carry out two to three-year studies that include remote schools.

AI Integration: To cut error rates (now 12%, SD = 5%) by 5–10%, test AI-powered screen readers [13].

By 2030, Uzbekistan might meet international standards by increasing inclusive digital education access for visually impaired pupils by 50% through focused interventions.

REFERENCES

1. Horna-Saldaña, C., & Canaleta, X. (2024). Tactile learning environments for visually impaired students in STEM education. *Journal of Inclusive Education*, 12(3), 45–62.

2. UNESCO. (2023). Global Education Monitoring Report: Technology in Education. Paris: UNESCO Publishing.
3. National Agency for Social Protection of Uzbekistan. (2023). Annual Report on Disability Statistics in Uzbekistan. Tashkent: Government of Uzbekistan.
4. Smith, J., & Brown, R. (2021). Assistive Technologies for Visually Impaired Learners: A Global Perspective. London: Routledge, 89–112.
5. Abdullaev, S. (2022). Digital Transformation in Uzbekistan: Progress and Challenges. Tashkent: University of World Economy and Diplomacy Press.
6. Lee, H., & Kim, S. (2020). Audio-haptic interfaces for inclusive STEM education. *International Journal of Technology and Disability*, 8(2), 23–35.
7. Garcia, M., & López, A. (2020). Barriers to STEM education for visually impaired students in low-resource settings. *European Journal of Special Needs Education*, 35(4), 512–528.
8. Ministry of Public Education of Uzbekistan. (2023). Inclusive Education Framework Report. Tashkent: Ministry of Public Education.
9. Davis, P. (2019). Braille Technologies in Education: Design and Implementation. New York: Springer, 67–94.
10. World Bank. (2023). Digital Development in Uzbekistan: Opportunities and Gaps. Washington, DC: World Bank Publications.
11. Kumar, R., & Sharma, V. (2022). Cost-effective assistive technology solutions for inclusive education in developing nations. *Journal of Educational Technology*, 19(1), 78–92.
12. Petrov, A., & Ivanova, E. (2021). Multimodal learning environments for visually impaired students. *Russian Journal of Inclusive Education*, 7(2), 34–49.
13. Zhang, L. (2023). AI-driven assistive technologies for visually impaired learners. *Journal of Artificial Intelligence in Education*, 15(3), 101–118.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020). Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasi. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Hukumati.
15. Fernández, C., & Ruiz, M. (2022). Teacher training for inclusive education in low- and middle-income countries. *International Journal of Disability, Development and Education*, 69(5), 345–360.



UDK: 17.01.37.034

Hamida ABDUMAJIDOVA,
Samarqand davlat Tibbiyot universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: maftuna@mail.ru

SamISI dotsenti Sh.Xashimov taqrizi asosida

AXLOQ FALSAFASI VA MA'NAVIIY-AXLOQIY TARBIYA

Аннотация

Ushbu ishda axloq falsafasining mohiyati, uning jamiyatdagi o'rni hamda shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi ahamiyati tahlil etiladi. Axloqiy qadriyatlarning shakllanishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, shuningdek, ma'naviyat va axloq o'rtasidagi uzviy bog'liqlik falsafiy yondashuv asosida ko'rib chiqiladi. Tarbiya jarayonida axloqiy meyorlarning ta'siri, oila, maktab va jamiyatning bu boradagi roli alohida e'tiborga olinadi.

Kalitso'zlar: Axloq, falsafa, ma'naviyat, tarbiya, milliyqadriyatlar, ma'naviy tarbiya, axloqiyong, oila, yoshlar, etika, gedonizm, evdemonizm, vijdon, odamiylik, yaxshivayomon, axloqiy mas'uliyat, asketizmezoizm.

PHILOSOPHY OF MORALITY AND SPIRITUAL-MORAL EDUCATION

Annotation

This paper analyzes the essence of the philosophy of morality, its role in society, and its importance for the spiritual and moral upbringing of the individual. It examines the formation of moral values, the harmony between national and universal human values, as well as the intrinsic connection between spirituality and morality through a philosophical approach. Special attention is given to the influence of moral norms in the educational process, and the roles of the family, school, and society in this regard.

Key words: morality, philosophy, spirituality, education, national values, spiritual education, moral consciousness, family, youth, ethics, hedonism, eudemonism, conscience, humanity, good and evil, moral responsibility, asceticism, egoism.

ФИЛОСОФИЯ МОРАЛИ И ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ

Аннотация

В данной работе анализируются сущность философии морали, её роль в обществе и значение для духовно-нравственного воспитания личности. Рассматриваются формирование нравственных ценностей, гармония национальных и общечеловеческих ценностей, а также органическая связь между духовностью и моралью на основе философского подхода. Особое внимание уделяется влиянию нравственных норм в процессе воспитания, роли семьи, школы и общества в этом направлении.

Ключевые слова: мораль, философия, духовность, воспитание, национальные ценности, духовное воспитание, нравственное сознание, семья, молодежь, этика, гедонизм, эвдемонизм, совесть, человечность, добро и зло, нравственная ответственность, аскетизм, эгоизм.

Kirish. Harqanday jamiyatning barqaror taraqqiyoti va ma'naviyyetligi, avvalo, uning axloqiy tamoyillariga, aholisining axloqiy ongiga va tarbiyasiga bog'liqdir. Insonning shaxs sifatida shakllanishida, to'g'ri yo'lni tanlashida va jamiyatda o'z o'rinitopishida axloqiy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Shu bois, axloq falsafasi nafaqat nazariy bilimlar tizimi, balki amaliy hayotda ham inson faoliyatini tartibga soluvchi asosiy mezonlardan birisifatida ko'riladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya esa, yosh avlodning ijtimoiy ongini shakllantirish, ularni ezgulikka, halollikka, vatanparvarlikka va insonparvarlikka yo'naltirishda muhim vositadir. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un holda rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Shunday sharoitda axloq falsafasining nazariy asoslarini o'rganish va uni amaliyotga tadbiiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Qadimgi Turonzamin va Eronzamindagi axloqiy tafakkur taraqqiyoti zardushtiylik dinining vujudga kelishi bilan bog'liq. Taxminan bundan XXX asr muqaddam yoyila boshlagan bu dinning Qadimgi Xorazmda yaratilgan "Avesto" deb atalgan muqaddas kitobida asosiy axloqiy fazilalar va illatlar sanab o'tiladi, talqin etiladi. "Abadiy ezgulik", "Ezgu niyat", "Ezgu tartib", "Ilohiy tobe'lik", kabi ezgu tushunchalar real ma'no kasb qilib, insoniylashgan qiyofadagi ma'budlar siymosida namoyon bo'ladi, ular Axura-Mazda atrofida

yaxshilik urug'ini sepib yuradi. Bunday tushunchalarning aksi esa Axriman atrofida yovuz kuchlarda reallashadi. Yovuz fikr tajassumi Apa Mana, so'lish va o'lim timsoli Tuarvi hamda Zarik ismli devlar shular jumlasidandir.

Etika (yunon. etos - odat, fe'l-atvor) - axloq haqidagi ta'limot. "Axloq" atamasini birinchi bo'lib Aristotel amaliy falsafaga murojaat qilgan, unda to'g'ri va axloqiy xatti-harakatlar qilish uchun nima qilishimiz kerakligi haqidagi savolga javob berilishi kerak edi.

Axloqshunoslik - bu axloq nazariyasi bo'lib, kishilarning axloqiy hayotini o'rganadigan, axloqiy hodisalarning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradigan eng qadimgi insonshunoslik fanlaridan biridir.

Axloqshunoslik mustaqil fan sifatida shakllangunga qadar, filosofiyaning tarkibiy qismi, hattoki, uning yadrosi hisoblanar edi. Faylasuflar dunyoni bilish yo'llariga javob berish jarayonida ular jamiyatda odam qanday yashamog'i va faoliyati qanday bo'lmog'i kerak, uning ijtimoiy burchi, vazifasi nimadan iborat bo'lishi kerak, boshqa shu kabi savollarga ham javob topishga uringanlar. Axloqshunoslik bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan qadimiy fan. U bizda "Ilmi ravish", "Ilmi axloq", "Axloq ilmi", "Odobnoma" singari nomlar bilan atab kelingan. Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning

“Guliston”, Jomiyning “Bahoriston”, Navoiyning “Mahbub-ul qulub”, Gulxaniyning “Zarbulmasal” kabi amaliy axloqqa bag'ishlangan asarlar ma'naviy tafakkur xazinasida o'z mustahkam o'rniga ega. Axloqshunoslikning boshqa falsafiy fanlardan farqi ham, o'ziga xosligi ham undagi nazariya bilan amaliyotning omuxtaligidadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda axloq falsafasi va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari tahlil qilinib, ularning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini va ahamiyati o'rganildi. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslandi:

Falsafiy-analitik metod – Axloqiy qadriyatlar, etik tushunchalar va ma'naviyatga oid falsafiy nazariyalarni tahlil qilindi. Sharq va G'arb mutafakkirlarining asarlari o'rganilib, ularning axloqiy qarashlari solishtirildi. Tarixiy yondashuv – Axloq va tarbiyaning tarixiy shakllanish jarayoni, turli davrlardagi ma'naviy-axloqiy qarashlarning rivojlanishi o'rganildi. Xususan, O'zbekiston va boshqa sivilizatsiyalarda axloqiy qadriyatlarning shakllanishi tahlil qilindi. Solishtirma metod – Turli falsafiy oqimlar va pedagogik tizimlarda axloqiy tarbiyaning o'rnini solishtirildi. Islomiy axloqiy tamoyillar bilan zamonaviy etik konsepsiyalar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlar aniqlashtirildi. Sotsiologik tadqiqot elementlari – O'zbekiston jamiyatida axloqiy qadriyatlarining ahvoli yuzasidan ijtimoiy fikrlar o'rganildi, so'rovnomalar natijalari tahlil qilindi. Normativ yondashuv – Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ideal modeli ishlab chiqishga harakat qilindi. Bu orqali jamiyatda sog'lom axloqiy muhit yaratish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Tahlil va natijalar. Axloq falsafasi, bu soha insonning axloqiy qadriyatlari, me'yorlari va qarashlari, shuningdek, axloqiy muammolarni hal qilishda qo'llaniladigan prinsiplarni o'rganadi. Axloq falsafasi, asosan, yaxshi va yomon, adolat va nohaqlik, haqiqiyat va yolg'izlik kabi kategoriyalarni tahlil qiladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya: Bu bo'limda tarbiya jarayonida insonning ma'naviy va axloqiy qadriyatlar asosida shakllanishi haqida gapiriladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya shaxsning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga, uning ma'suliyatini oshirishga, shuningdek, adolatli va axloqiy qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Ilmiy yondashuv, maqolada ilmiy tahlil orqali axloqiy prinsiplar va qadriyatlarning shakllanishi, tarbiyada ularning o'rnini, shuningdek, tarbiyaviy jarayonlarda axloq falsafasining roli haqida fikrlar keltiriladi. Axloq falsafasining asosiy g'oyalari, o'z navbatida, jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Shaxsiy rivojlanish, ma'naviy-axloqiy tarbiya shaxsning ichki dunyosini, uning axloqiy va ma'naviy qarashlarini shakllantiradi, bu esa uning jamiyatda faol va mas'uliyatli a'zo bo'lishiga imkon yaratadi. Jamiyatdagi rol, axloqiy qadriyatlar asosida tarbiya olish, shaxsni jamiyatda samarali va ijtimoiy mos ravishda faoliyat yuritishiga yordam beradi. Axloqiy me'yorlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya ijtimoiy axloqiy me'yorlarni, tartibni va o'zaro hurmatni rivojlantiradi. Bu, o'z navbatida, jamiyatda ijobiy munosabatlar o'rnatishga xizmat qiladi. Geronizm - (grekcha, hedone – huzur-halovat) - axloqshunoslik nazariyasidagi axloqiy talablarni asoslash prinsipi bo'lib, bu prinsipga ko'ra huzur-halovat keltiruvchi va azob-uqubattan qutkazuvchi narsa yaxshilik deb, azob-uqubatlarni keltiruvchi narsa esa yomonlik deb ta'rif qilinadi. Insondagi unga tabiat tomonidan jo qilingan va uning ish amalini belgilaydigan bosh harakatlantiruvchi ibtido huzur-halovattan iborat, degan tasavvur geronizmining asosini tashkil etadi. Asketizm (grekcha askeo – Mashq qilayotibman) – zohidlik – dunyoning huzurhalovatidan o'zini haddan-tashqari tiyish yoki diniy kamolotga erishish uchun noz-ne'matlardan nihoyat darajada voz kechish bilan xarakterlanuvchi prinsip. Evdemonizm (grekcha, eudamonia – rohat-farog'at, baxt-saodat) – axloqshunoslikning geronizmga yaqin metodologik prinsipi. Evdemonizm antik dunyo axloqiy nazariyalaridayoq eng to'liq ravishda namoyon bo'lgan. Baxtga intilishni

evdemonizm axloq-odobning mezonini va inson axloqiy hatti-harakatining asosi deb hisoblaydi. Egoizm (lotincha, ego – men) – xudbinlik, hayotiy prinsip va axloqiy sifat, ular insonni uning jamiyatga va boshqa kishilarga munosabati nuqtai nazaridan tavsiflaydi. Inson o'z hatti-harakatida faqat o'z manfaatlarini ko'zlab ish ko'radi, jamiyatning va tevarak-atrofdagilarning manfaatlarini bilan hisoblashmaydi.

Tarbiya qoidalari. Bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalar.

Tarbiya jarayonining quyidagi qonuniyatlari mavjud:

Ijtimoiy muhitning ob'ektiv va sub'ektiv omillariga bog'liqligi;

Tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o'zaro bog'liqligi;

Faoliyat va munosabatni e'tirof etish shaxsning ijtimoiy qimmatli fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbai;

Tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'siri, o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o'rtasidagi bog'lanish;

Tarbiya va o'zini-o'zi tarbiyalashning intensivligi (jadalligi);

Tarbiyalanuvchining “ichki olami”ga ta'sir etishning intensivligi.

Tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta'sirni hisobga olish. Har qanday jamiyatning taraqqiyoti va barqarorligi, avvalo, uning a'zolarining axloqiy yetukligiga bog'liq. Axloqiy tarbiya - bu insonda ezgulik, halollik, vijdonlilik, rostgo'ylik kabi fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan tarbiyadir. Inson axloqiy qadriyatlar asosida yashasa, jamiyatda mehr-oqibat, tinchlik va barqarorlik hukm suradi. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiya jarayonida axloqiy tarbiyaning tutgan o'rnini beqiyosdir.

Axloqiy tarbiya – bu yosh avlodni axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularning ongiga ijobiy fazilatlarini singdirish jarayonidir. Bu tarbiya shakli inson shaxsining shakllanishida asosiy o'rin tutadi. Uning asosiy maqsadi – yoshlarda ijtimoiy axloq qoidalarini hurmat qilish, ularga amal qilish, halollik, rostgo'ylik, sabr-toqat, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi fazilatlarini tarbiyalashdir.

Axloqiy tarbiya mazmuni quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Axloqiy bilimlar berish – bolalarda axloqiy tushunchalar, qadriyatlar haqida bilim hosil qilish; axloqiy his-tuyg'ularni shakllantirish – ezgulikka mehr, yovuzlikka nafrat tuyg'usini rivojlantirish; axloqiy xatti-harakatlar malakasini shakllantirish – odob-axloq me'yorlariga amal qilish ko'nikmasini hosil qilish.

Bu tarbiya jarayonida oila, maktab, jamiyat muhim rol o'ynaydi. Oila – axloqiy tarbiyaning ilk bosqichi bo'lib, bolaning shaxs sifatida shakllanishida katta ta'sirga ega. Maktab esa o'zining aniq tizimli faoliyati orqali bolalarning axloqiy dunyoqarashini shakllantiradi. O'qituvchilarning shaxsiy namunalari, sinfda o'rnatilgan odob me'yorlari axloqiy tarbiyaning samaradorligini belgilaydi. Bugungi kunda axloqiy tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash dolzarb vazifalardan biridir. Yoshlarga Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumi kabi mutafakkirlarning asarlarini o'rgatish orqali ularda insonparvarlik, mehr-oqibat, sabr-toqat, imyon-e'tiqod singari fazilatlar rivojlanadi. Axloqiy tarbiya har bir insonning shaxs sifatida shakllanishi, sog'lom jamiyat qurilishi va kelajak avlodni yetuk insonlar sifatida voyaga yetkazishda muhim omildir. U nafaqat ta'lim muassasalarida, balki har bir oila, har bir fuqaro tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan muqaddas vazifadir. Axloqiy barkamol inson jamiyatda adolat va ezgulik yo'lida xizmat qiladi.

Axloqiy tanlov – bu shaxsning muayan axloqiy me'yorlar, tamoyillar tizimini e'tiqod darajasida anglashi va shunga muvofiq uni o'z faoliyatining maqsad, motivi tarzida qabul qilishdir. Aniqliq, axloqiy tanlov – shaxsning axloqiy talab, qoidalarni tashqi ta'ziyqsiz, ixtiyoriy, ya'ni o'z-o'ziga amr qilishi orqali bajarishdir. Masalan, biror kishining yong'in ichida qolgan yosh bolani qutqarishi uning axloqiy tanlov doirasidagi xatti-harakatidir.

Ixtiyor erkinligi -tushunchasi keng ma'noda insonning o'z dunyoqarashi, e'tiqodiga muvofiq hatti-harakatining maqsadini tashqi ta'ziyqsiz, erkin tarzda belgilashi va unga yo'naltirgan faoliyatini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda mazkur tushuncha kishining o'z hatti-harakati, faoliyatida axloqiylik (ezgulik, yaxshilik) va axloqsizlik(yovuzlik, yomonlik)ni tanlashini ifodalaydi. Ixtiyor erkinligi tufayli kishi har qadamda axloqiy tanlov muammosiga duch keladi. Axloqiy ong - ijtimoiy ong shakli bo'lib, kishilarning xulqi odobiga taaluqli talab, me'yor, tamoyillarining mohiyatini anglashi va ular haqidagi qarashi, tasavvurlarining majmuidir.

Axloqiy hissiyot – shaxsning axloqiy talab, me'yorlar doirasida o'z-o'zini his qilishdir. Shunga ko'ra mazkur hissiyot tipi axloqiy ongning ixtiyor erkinligi tarzidagi shakli hisoblanadi. Axloqiy hissiyot shafqat, achinish, hamdardlik, uyalish-hayo, tavba-tazarru holatlarida namoyon bo'ladi. Axloqiy hissiyot -axloqiy ong (anglash)ning axloqiy munosabat(faoliyatga) motivi-sababiga aylanishining zaruriy shartidir. Zotan kishi achinish, hamdardlik hissiyotini tuygandagina yaxshilikka qo'l uradi.Axloqiy munosabat (faoliyat) - axloq tuzilmasining amal qilishi, ya'ni axloqiy ong va axloqiy hissiyotning kishi hatti-harakatlari tarzida ro'yobga chiqishi jarayonidir. Kishi axloqiy talab, tamoyillarni yaxshi anglagan, o'zlashtirgan bo'lishi, lekin ularning mazmuni uning faoliyatining motiviga aylanmagan bo'lishi mumkin.

Axloqiy tamoyillar - axloqiy ong shakli bo'lib, ular qonun-qoidalarining umumlashgan, jamiyat tomonidan shaxsga qo'yiladigan ijtimoiy norma, talablar tarzida namoyon bo'lish usullaridir. Shunga ko'ra axloqiy tamoyillar ijtimoiy, umuminsoniy xarakter-mazmunga egadirlarki, ular irqi, millati, mazhabi turlicha bo'lgan kishilar uchun birdek umumiy-talablar hisoblanadi. Va mazkur tamoyillar insonning oliy qadriyat sifatidagi mohiyatini belgilaydigan jihatlar tarzida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Axloq falsafasi va ma'naviy-axloqiy tarbiya, bir tomondan, odamni ichki ruhiy va ma'naviy o'sishga undaydi, boshqa tomondan esa ijtimoiy hayotda bir-biriga hurmat, yaxshilik va adolatni yoyishga xizmat qiladi. Har ikkisi ham insonni baxtli va mas'uliyatli hayot kechirishga, jamiyatda yaxshi fuqarolik pozitsiyasini egallashga yo'naltiradi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya nafaqat individual ongni shakllantiradi, balki jamiyatning umumiy axloqiy darajasini ham oshiradi. Axloq falsafasi va ma'naviy-axloqiy tarbiya – bu insonning axloqiy qadriyatlari, prinsiplarini, ijtimoiy hayotda qanday yashashni va qanday munosabatda bo'lishni o'rgatadigan falsafiy g'oyalar tizimi va metodikadir. Axloq falsafasi va ma'naviy-axloqiy tarbiya o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud, chunki har ikkisi ham insonning yaxshi yashashi, to'g'ri qarorlar qabul qilish va jamiyatda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan yo'l-yo'riqlarni belgilaydi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya – bu insonning ichki dunyosini shakllantirish, ularni yaxshi va yomon, to'g'ri va noto'g'ri, adolatli va adolatsiz tushunchalari bilan tanishtirish, ijtimoiy va ma'naviy qadrlarni o'rgatish jarayonidir. Bu jarayon nafaqat axloqiy qo'llanmalarga, balki insonning jamiyatdagi roli va o'zaro munosabatlarga ham bog'liqdir.

ADABIYOTLAR

1. G'azzoliy, Abu Homid. Ihyo ulum ad-din. - Toshkent: "Sharq", 2000.
2. Aristotel. Nikomax axloqi. - Toshkent: "O'zbekiston", 1994.
3. N. Qayumov. Axloq asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 2007.
4. Qur'on va Hadislar tafsiri.
5. Jo'raev N. Axloq falsafasi asoslari. – T.: O'zbekiston, 2012.
6. G'afurov S. Ma'naviyat asoslari. – T.: Yangi asr avlodi, 2010.
7. Muratova Sh. N. and Otan, "Place in foster care," Education, Science and Innovation, Scientific Newsletter, no. 5, pp. 82–86, 2022.
8. Muratova Sh. N., "Socio-psychological aspects of preparing boys for family life," SamDU Scientific News Release, ISSN: 2091–5446, no. 6 (124), pp. 100–105,
9. Sh. N. Muratova, "The socio-psychological capabilities of premarital parents in preparing young people for family life," Scientific Journal of Psychology of BUH DU, ISSN: 2181–5291, no. 3, pp. 84–90, 2021.
10. Muratova Sh.N., "Problems of youth for family life," Mental Health and Education Journal, pp. 282–291.
11. Muratova Sh. N., "Socio-psychological issues of preparing young men for family life," Journal of Educational Research, ISSN: 2660–5562, vol. 2, no. 3, pp. 27–30, March 2021. [Online]. Available: <https://scholarzest.com>.
12. Muratova Sh.N. and Problems of youth for family life. It is also used in the treatment of mental illness, and in the treatment of mental disorders. 282–291.
13. Muratova Sh.N. and "I've been thinking about it for a long time, and I've been thinking about it for a long time. This is a list of the most commonly used commands. It is available online at, ISSN: 2660–5562, Volume 2, No 3, March, 2021, <https://scholarzest.com/p>. 27–30.
14. Abdumajidova H. Samarqand sharq ma'naviyati beshigi va dunyo ilm-fani taraqqiyotining bebaho merosi sifatida. Polish Sciens journal ISSUES 6 (27) Part 1 International science journal WARSAW, POLAND Wydawctwo Naukowe "iScience" – 2020. – S. 160–164.
15. Abdumajidova H, Yaxshilikov J. Cooperation in Central Asia as a priority direction of foreign policy of Uzbekistan // Galaxy International interdisciplinary research journal (GIIRJ) Volume 9, Issue 12. – Moskva, 2021. P.175–178.
16. Yaxshilikov J.Ya., Abdumajidova H. Modernizatsiya tushunchasi takomillashuvining metodologik masalalari xususida. "Интернаука" Научный журнал №14(190) Апрель 2021г. Част 3 – Москва, 2021.-С-91-95.
17. Abdumajidova Kh. Globalization and modernization as an important feature of the development of modern society // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science-Philadelphia Quest. – USA, 2021. - № 4. - P.75–78
18. Abdumajidova H. Active foreign policy of Uzbekistan and its impact on integration process in Central Asia // American Journal of Social and Humanitarian Research Vol.2, No 3. 17.05.2021.– P. 58–62.



UDK: 316.2 (5751)

Rayxon ADILOVA,
*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi tayanch doktoranti
E-mail: adilova.raykhon@mail.ru*

Sotsiologiya fanlari doktori A.Abdullayev taqrizi asosida

SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCEPTS OF IBN SINA ON STATE ADMINISTRATION

Annotation

The article analyzes the socio-political views of the author Abu Ali Ibn Sina on the organization of fair public administration and the formation of an inclusive environment in society. In addition, the article details Ibn Sina's theories on the conditions of justice in public administration, the conditions of justice of a state leader, the creation of an inclusive environment in the social stratification of society.

Key words: Ibn Sina, "Ash-shifa", "An-najot", "Donishnama", "The Book of Happiness", "Tadbiri manzil", "Ishorot tanbehot", "The Way to Happiness", fair governance, social processes, social stratification, inclusive environment, inclusive society, effective governance, politics, virtuous society, justice.

СОЦИАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ УЧЕНИЯ ИБН СИНО О СОЗДАНИИ СПРАВЕДЛИВОГО ГОСУДАРСТВА И ИНКЛЮЗИВНОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация

В статье анализируются общественно-политические взгляды автора Абу Али Ибн Сины на организацию справедливого государственного управления и формирование инклюзивной среды в обществе. Кроме того, в статье подробно излагаются теории Ибн Сины об условиях справедливости в государственном управлении, условиях справедливости государственного лидера, создании инклюзивной среды в социальной стратификации общества.

Ключевые слова: Ибн Сина, «Аш-шифа», «Ан-нажот», «Донишнама», «Книга о счастье», «Тадбири манзил», «Ишорот танbehот», «Путь к счастью», справедливое государственное управление, социальные процессы, социальная стратификация, инклюзивная среда, инклюзивное общество, эффективное государственное управление, политика, добродетельное общество, справедливость.

IBN SINONING ADOLATLI DAVLAT VA INKLYUZIV JAMIYAT BARPO ETISHGA DOIR TA'LIMOTLARINING IJTIMOIIY NEGIZLARI

Annotatsiya

Maqolada muallif Abu Ali Ibn Sinoning adolatli davlat boshqaruvini tashkil qilish hamda jamiyatda inklyuzivlik muhitini shakllantirishga doir ijtimoiy va siyosiy qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada Ibn Sinoning davlat boshqaruviga adolatni qaror toptirish shartlari, davlat rahbarining adolatli bo'lish shartlari, jamiyat sotsial stratifikatsiyasida inklyuziv muhitni shakllantirishga doir nazariyalari atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ibn Sino, "Ash-shifo", "An-najot", "Donishnoma", "Saodat haqida kitob", "Tadbiri manzil", "Ishorot va tanbehot", "Saodatga yetish yo'li", adolatli davlat boshqaruvi, ijtimoiy jarayonlar, sotsial stratifikatsiya, inklyuziv muhit, inklyuziv jamiyat, samarali davlat boshqaruvi, siyosat, fozil jamiyat, adolat.

Kirish. G'arb sivilizatsion jarayonlariga o'zining «Avitsenizm» nazariyasi bilan metodologik ta'sir ko'rsatgan jahonda mashhur bo'lgan Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sinodir (asl ismi Husayn ibn Abdulloh (980-1037)). Sharq va Yevropada ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligi tufayli "Shayx-ur-ra'is", Sharqda – "Olimlar ustoz", Yevropada – "Olimlar podshosi" nomi bilan shuhrat qozongan allomamiz barcha sohalarda, jumladan, adolatli davlat boshqaruvi va jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar sohasida ham dunyoga mashhur yirik asarlarni meros qilib qoldirgan. Ibn Sino yashagan davrlardan buyon ko'p asrlar o'tgan bo'lsada, allomaning falsafiy, siyosiy, ijtimoiy sohaga oid ilmiy merosi ko'plab tadqiqotchilarni hanuzgacha hayratlantirib kelmoqda va shu bilan birga uning asarlariga ko'plab sharhlar yozilishiga sabab bo'lmoqda. G'arbda ham Sharqda ham bu buyuk siymo bo'yicha ko'plab tadqiqotlar qilindi va uning umuminsoniy sivilizatsiyasidagi beqiyos o'rni va ahamiyati e'tirof etildi. Ibn Sinoning dunyoga mashhur "Donishnoma", "Kitob ash-shifo", "An najot" asarlari

sotsiologiya, siyosatshunoslik, davlat va jamiyat boshqaruvi, falsafa va mantiq fanlari tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Adabiyotlar va manbalar tahlili. Ibn Sino o'zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G'arb madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Mutafakkirning davlat boshqaruviga doir qarashlarini o'rganishda «Kitob ash-shifo», «Donishnoma» va «An Najot» asarlari, akademik M.Xayrullayevning "Forobiy va Ibn Sinodagi ilmlar tasnifi" akademik Azamat Ziyoning «O'zbek davlatchiligi tarixi» kitobi, sotsiolog olim M.Bekmurodovning "Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi" nomli monografiyasi, M.Dinorshoyevning "Ibn Sinoning naturfalsafasi" asari ushbu mavzuni tadqiq etishda asosiy manbalar sifatida olingan [1].

Asosiy qism. Abu Ali ibn Sino davlat va jamiyat haqidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlarini «Kitob ash-Shifo», «Donishnoma» va «An Najot» asarlarida keltirib o'tgan. Ibn Sinoning davlat boshqaruviga doir qarashlarida asosiy nuqtai-nazar davlat boshqaruvini adolat bilan amalga oshirish bo'lsa, ijtimoiy qarashlari diqqat markazida jamiyatdagi kishilarning

axloqi, uy xo'jaligi, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarga qaratilgan.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqimiz. Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqimiz. Barchamiz bir tanu bir jon bo'lib, yakdil va ahil bo'lib harakat qilsak, halol-poq bo'lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallashga, boshqacha aytganda, tariximizning yangi sahifasini yaratishga qodir xalqimiz. Bu yo'lda qanday qiyinchilik va mashaqqatlar bo'lmasin, barchasini mardona yengib o'tishga tayyormiz. Bunday ezgu ishlarda bizga Yaratganning o'zi, buyuk ajdodlarimizning pok ruhlari madadkor bo'ladi, deb ishonaman" degan so'zlari aynan Ibn Sinoning ilgari surgan g'oyalari zamonlar o'tib uning avlodlari tomonidan hayotga tatbiq qilinayotganini ko'rish mumkin [2].

Ibn Sino aynan shahar siyosatini «Donishnoma» asarida tahlil qilishining sababi u jamiyatni sifat jihatidan yaxshilash va shaharlarni tartibga keltirish haqiqiy ma'rifatli jamiyat barpo qilish imkonini beradi degan g'oyani ilgari surgan. Bu masala bo'yicha Ibn Sino quyidagi fikrni bildirgan: «Shaharlarni isloh qilish uchun avvalo jamiyatda adolatni qat'iy o'rnatish zarur. Hukmdor shaharlarni johil va nopok insonlardan tozalash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Shunda shaharlar o'z-o'zidan nopok va adolatsiz odamlar shahri va ma'rifatli odamlar shahriga ajratiladi. Odamlar ikkala shaharni ham o'zlari ko'rmaganlaricha axloqlarini tuzatmaydilar. Shahar aholisi shaharlar rivojlanishining sabablari va shartlarini, shuningdek, davlatning rivojlanishiga yoki barbod bo'lishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatishini bilishlari lozim» deb ta'kidlagan [3].

Ibn Sinoning ijtimoiy jarayonlarga doir qarashlarini tahlil qiladigan bo'lsak, mutafakkir barcha jamiyatlarda odamlar o'rtasida tabiiy tengsizlik doim bo'lishi lozim deb hisoblagan. Olim bu fikrni shunday oqilona yo'l bilan tushuntiradiki, agar hamma odamlar boy bo'lsa, odamlar o'rtasida kim o'zarlik ro'y berib, jamiyatda hasad va bir-birini ko'rolmaslik illati ko'payib oxir oqibat butun bir jamiyat vayron bo'ladi, agar jamiyatning barcha a'zolari kambag'al odamlar bo'lsa, ular to'yib ovqatlanmaslik va hayotning boshqa qiyinchiliklariga dosh berolmasdan nobud bo'ladilar, oqibatda jamiyat barbod bo'ladi deydi. Ammo har bir inson o'z ijtimoiy maqomidan mamnun bo'lishi kerak, boylar o'z boyligini ko'plab jismoniy ishlarni qilishga ularning idroki yetishmasligi uchun o'z boyligini xos odamlarga bajartirish uchun asrashlari kerak. Kambag'allar esa boylarga nisbatan o'z maqomlarini qoniqarli deb hisoblashlari kerak. O'z hunari orqali bir parcha non topgan hunarmand haddan tashqari kuchga ega bo'lgan hukmdorga ham, behisob boylikka ega bo'lgan boy odamga ham hasad qilmasligi kerak deydi [4].

Demak, Ibn Sino jamiyatda insonlar orasida doim tengsizlik mavjud bo'lgan deb hisoblaydi, chunki bu odamlarning o'ziga xos tabiatidan kelib chiqadi. Odamlar o'z tabiatiga ko'ra hech qachon teng bo'la olmaydi, lekin odamlarning bu tengsizligi nisbiydir va davrlar o'tishi bilan jamiyatning ijtimoiy strukturasi turli joylarni egallab o'z ijtimoiy maqomlarni o'zgartirib turadilar. Har bir inson o'z ijtimoiy holatidan mamnun bo'lishi kerak, kambag'al odamlar o'zining ilmi va aql-zakovati bilan, boylar esa o'z boyligi bilan. Darhaqiqat, jahonda davlatlar yuqori rivojlanish darajasiga yetganida ham hech bir jamiyatda odamlar uchun tabiiy va iqtisodiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari teng bo'lmaydi. Agar odamlar ba'zi sohalarida teng bo'lsa, unda ular boshqa sohalarida tengsizdir. Tengsizlik jamiyatning asosiy belgilaridan biri bo'lib qolaveradi. Bu tengsiz o'z navbatida, jamiyatdagi insonlarni ijtimoiy maqom, ijtimoiy tabaqa, ijtimoiy qatlam va ijtimoiy sinflarga ajratish uchun asosiy mezon bo'lib qoladi. Ammo, ushbu tengsizlik tufayli

jamiyat parokanda bo'lmasligi kerak buning uchun jamiyatda insonparvarlik va barcha uchun teng imkoniyatlardan tashqari inklyuzivlik ham bo'lishi lozim.

Ibn Sinoning davlat haqidagi qarashlarida davlat rahbarining rollari alohida o'rin tutadi. U ushbu ijtimoiy hodisaning zarurligini qonun ijodkorligi va qonun ijrosini ta'minlashda yaqqol ko'rsatadi. Davlat qonunlari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun juda muhimdir. Chunki hamma hukmdor ham mamlakatda qonun va adolatni o'rnatmaydi. Buning uchun hukmdorlar o'z qonunlarini shariat qonunlari bilan sheriklik qilishi darkor. Agar davlat qonunlari shariat qonunlarini inobatga olsa shariat davlat qonunlarini himoya qiladi. Shariat qonunlari va hukmdor qonunlarini himoya qilishda ikkita qonundan kelib chiqadigan ikkita farmonni bajarish bir kishining zimmasida bo'lmasligi kerak deb hisoblaydi [5].

Bizningcha, Ibn Sinoning inklyuziv jamiyatga doir qarashlar tizimini quyidagicha tasniflash mumkin: birinchisi, odamlarning birgalikda yashashga bo'lgan ehtiyoji va ehtiyojlarni birgalikda qondirish odamlarni birlashtiradi; ikkinchisi, odamlarni birlashtirish va jamiyatni tizimlashtirish ular o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. Albatta, odamlarni birlashtirish va tizimlashtirish uchun stratifikatsiyaning barcha qatlamlaridagi jamiyat a'zolarini ushbu jarayonlarda ishtirokini ta'minlash esa inklyuziv jamiyat haqidagi qarashlarni mazmunini anglatadi.

Jamiyatni tizimlashtirishda Ibn Sino Forobiyning yondashuvlarini ma'qullagan holda shaharlarni ikkiga, ya'ni Forobiy ta'kidlaganidek, fozila va johil shaharlarga ajratish, davlat qonunlari shariat qonunlari bilan mutanosib ravishda qabul qilish, jamiyatda adolat tamoyillarini qat'iy o'rnatish, ijtimoiy strukturada odamlar faqat ilm va ma'rifatga erishib egallashi, sotsial stratifikatsiyadagi ijtimoiy maqom egalari o'z maqomlaridan mamnun bo'lishlari lozim, jamiyatda odamlarga adolatni ta'minlab beradigan qonunlarga bo'lgan ehtiyoj qondirilishi lozim. Ibn Sino o'z davrida davlat vaziri bo'lib ishlagan vaqtlarida bu islohotlarni toki G'aznaviylar kelib bosib olgunicha Buxoroda joriy qilishga intilgan davlat arbobi bo'lgan.

Ibn Sino "Madinai fozila", ya'ni komil jamiyat tartib va nizomi va taraqqiyotining eng muhim va asosiy omili jamoa manfaatlarini va yaratilgan mahsulotning to'g'ri bo'linishiga qaratilgan foydali mehnat deb hisoblaydi. Mutafakkir qarashiga ko'ra, barcha jamoa a'zolarining foydasiga qaratilgan mehnat ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan har bir odamning qonuniy burchidir. Shu bilan birga bunday jamoa shunday tuzilishga ega bo'lmog'i lozimki, uning qonun-qoidallari har qanday tekinox'r, poraxo'r, o'g'ri, xulqi buzuv va shunga o'xshash o'zgarlar mehnati hisobiga yashaydiganlarga qarshi qaratilgan bo'lishi kerak.

Ibn Sino vazirlik lavozimida ish yuritgan paytlarda dastavval moliya ishlarini chuqur taftish etadi. Birni o'n qilib yozib, qilinmagan ishlarga mablag' olib ularni o'zlashtirib yuboradigan tovlamachilarga chek qo'yadi. Natijada saroy atrofida o'ralashgan ba'zi kimsalarning tuban qilmishlari fosh bo'ladi. Oldingi yillarda o'tkazilgan ishlar taftish qilindi. Moliya devonining ishlari to'la'ligicha vazir qaramog'iga o'tkazildi. Har bir sarf qilinadigan dirham uning davlatga qanday foyda keltirgani oldindan hisob qilib so'ng sarf etiladigan bo'ldi. Vazirning farmoyishi bilan bozorlarda sotiladigan gazlamalarni o'lchaydigan gazlar temirdan qilindi: qadoq toshlariga davlat muhrlari bosildi: tokim, tasdiqlanmagan o'lchov asboblari ishlatilmasin.

Professor M.Bekmurodov Ibn Sino asarlarini chuqur tahlil qilib, quyidagi fikrlarni bildirgan. Jumladan, "Ulug' mutafakkir Abu Ali Ibn Sinoning sotsiologik qarashlari ham o'zining ilmiy teranligi, voqelikka hushyor baho berish xususiyati bilan ajralib turadi. Ibn Sino olamning barqaror amal qilishi jamiyat va tabiatning sinergetika, ya'ni o'z-o'zini

idora qilish, mustaqil boshqarish xususiyatining ishga tushishi va harakatlanishi bilan izohlanadi, deb izohlaydi. Konservativ teologiya nazariyasida mavjud bo'lgan hamma narsalarning yuz berishida taqdiri azalning roli, ilohiy hukmning mutlaqlashuvi g'oyasiga qarshi chiqib, Ibn Sino dunyo kamoloti uchun jamiyat a'zolarining erkin faoliyatiga ham katta ehtiyoj borligini asoslab beradi. Ibn Sino Ollohning aqlidan tashqari faoliyatlarga ham qobilligi g'oyasiga qarshi chiqib, Olloh faoliyati aqlidan tashqari bo'lishi mumkin emasligi, yaratilgan narsalarning barchasi ratsional ekanligi va insoniy aql tomonidan idrok eta olinishini ham asoslab beradi. Ibn Sino dunyoning abadiyligi har bir yuz beruvchi narsaning yaratilishi mumkinligi bilan izohlanishini, dunyoda g'ayritabiyy narsalarning yo'qligini ta'kidlaydi. Bu fikr bo'lajak sotsiologlarni jamiyat hodisalarini o'rganishda faqat isbot etilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy guruhlar muammolarini tadqiq etish maqsadga muvofiqligi g'oyasi bilan ham qurollantiriladi" [6].

Professor M.Dinorshoyev Ibn Sinoning davlat haqidagi qarashlarini tadqiq qilib, adolatli davlat boshqaruvini tashkil qilishda davlat rahbarining roli alohida o'rin tutadi, deydi. U ushbu ijtimoiy hodisaning zarurligini qonun ijodkorligi va qonun ijrosini ta'minlashda yaqqol ko'rinadi. Davlat qonunlari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun juda muhimdir. Chunki hamma hukmdor ham mamlakatda qonun va adolatni o'rnatmaydi. Buning uchun hukmdorlar o'z qonunlarini shariat qonunlari bilan sheriklik qilishi dardkor. Agar davlat qonunlari shariat qonunlarini inobatga olsa shariat davlat qonunlarini himoya qiladi. Shariat qonunlari va hukmdor qonunlarini himoya qilishda ikkita qonundan kelib chiqadigan ikkita farmonni bajarish bir kishining zimmasida bo'lmazligi kerak deb hisoblaydi [7].

Shuningdek, Jahon tinchlik tarafdorlari Kongressi allomani shunday tavsiflaydi: "Genial insonlarning qoldirgan izlarini asrlar osha o'zida saqlab kelayotgan fan, adabiyot va san'atning buyuk durdonalari bor-ki, ular barcha xalqlar uchun ham umumbashariy xazinadir. Bu madaniy meros insoniyat uchun bitmas-tuganmas manba hisoblanadi va uning oldida umuminsoniy kelishuv va hamkorlik istiqbollarini ochib beradi. Ibn Sino o'zining ijodi hamda yaratgan asarlarining ahamiyati jihatidan butun insoniyatga tegishlidir. Uning faoliyati haqiqat va aql-idrok talablariga asoslangan edi" [8].

Abu Ali ibn Sinoning adolatli davlat boshqaruv va inklyuziv jamiyat haqidagi qarashlarini "Saodat haqida kitob", "Tadbiri manzil", "Ishorot va tanbeh" asarlarida ham to'xtalib o'tgan. Jumladan, Ibn Sinoning fikricha, jamiyat paydo bo'lishining eng asosiy sababi odamlarning hayotiy faoliyatlari va ularning o'z naslini ustuvor davom ettirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Ibn Sinoning aytishicha ustuvor va barqaror yashash uchun odamlar bir-birlari bilan birlashib, o'zaro hamkorlikda bo'lib, yordamlashib, bir-birlarini qo'llab-quvvatlab, ishlab chiqarilgan mahsulotlarining almashinuvini ta'minlash imkoniyatini yaratishga majburdirlar.

Jamiyat haqidagi qarashlar va jamiyatdagi inson qadri masalasi ham Ibn Sino qarashlarining diqqat markazida turgan. "Ibn Sino inson, uni o'z-o'zini idora qilish haqidagi fanlar (insonshunoslik) ahamiyatini to'g'ri ta'kidlaydi" [9]. "Ibn Sino ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining ahamiyatiga ham

katta e'tibor bergan. Uning fikricha odamzod qadri boshqalar bilan hamkorligi, yaxshi axloqiy fazilatlariga ega bo'lish uchun intilishi, donoligi, boshqalarga yaxshilik qila olishidadir. Yaxshilik, faylasuf nazarida, rohat-farog'atga va lazzatlanishga olib kelishi, yomonlik esa azoblanish va uqubatga olib borishi bilan tavsiflanadi. Ibn Sino "Axloq ilmi haqida risola"sida "Iffat", "Shijoat", "Hikmat", "Adolat", "Saxiylik" kabi insoniy-ma'naviy qadriyatlarni ta'riflaydi" [10].

Fikrimizcha, Ibn Sinoning jamiyat haqidagi qarashlarida bitta maqsad yotadi bu ham bo'lsa jamiyatni birlashtirishga xizmat qiladigan, jamiyatdagi mavjud qatlamlar va tabaqalar o'rtasidagi farqni faqat ma'rifat yo'li bilan hamda hamjihatlikda harakat qilish bilan qisqartirish mumkinligini o'z qarashlarida bayon etganligidir. Bu o'z navbatida inklyuziv jamiyatning tamoyillariga ham mos keladi. Ijtimoiy jarayonlarda jamiyatning har bir qatlamidan, har bir tabaqasidan, har bir ijtimoiy guruhlarining birgalikda ishtirok etishi inklyuziv jamiyatning yaqqol namunasi bo'la oladi.

Xulosa. Ibn Sinoning adolatli davlat va inklyuziv jamiyat barpo etishga doir ta'limotlarining ijtimoiy negizlarini o'rganish asnosida shunday xulosaga kelish mumkinki, Ibn Sinoning fikricha insoniylikning eng yaxshi va yuksak xislatlari bu – adolat, o'zaro yordamlashish hamda hamkorlik qonunlari ishlagan mamlakatdagina bo'ladi. Agar davlatda adolatli boshqaruv bo'lsagina unday davlatda fozil jamiyat mavjud bo'ladi deb ta'riflagan. Fozil jamiyatda barcha fuqarolar jamoa uchun foydali mehnat bilan shug'ullanishlariga sharoit yaratiladi. Haqiqiy fozil jamiyatda har qanday adolatsiz va ayovsiz mojarolar va urushlarning oldi olinadi va unda odamlarning haqiqiy do'stlik, hamjihatlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlaydi va jamiyatda inklyuziv muhitni yuzaga keltiradi.

O'rta asrlar G'arbiy Yevropasida bir qator faylasuflar va davlat arboblari tomonidan ishlab chiqilgan davlat boshqaruviga oid kontseptsiyalarni shakllanishiga Sharq mutafakkirlaridan Ibn Sinoning ham hissasi katta ekanligini ko'plab manbalar tasdiqlaydi. O'rta asrlarda Sharq mutafakkirlari tomonidan G'arbiy Yevropaga ximiya (alximiya), matematika, algebra, astronomiya, geofizika, musiqa, badiiy she'riyatning zajal uslubini, falsafa, mantiq, huquqshunoslik, kartografiya, geografiya, tarixnavislik, pedagogika, manbashunoslik kabi ko'plab fanlarni kiritgan. Shu bilan birga G'arbiy Yevropa falsafasiga Ibn Sinoning «Avitsenizm» falsafa maktablarini tashkil etgan. «Avitsenizm» ta'limoti G'arbiy Yevropada shakllangan barcha davlatlardagi davlat boshqaruv tizimiga demokratik ruhni kiritishga katta turtki bo'lgan.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etish, davlat boshqaruvini ixchamlashtirish uchun ma'muriy islohotlarni amalga oshirish, ajdodlarimizdan qolgan boy ilmiy merosni o'rganish va kelajak avlodga munosib yetkazib berish, o'zbek davlatchiligidan uch ming yillik tajribasidan kelib chiqib, adolatli davlat boshqaruvini amalga oshirish va inklyuziv jamiyatni barpo etish borasidagi ishlar O'zbekistonda yashayotgan xalqlar va millatlarning farovonligini oshirishga qaratilgan ulkan ezgu ishlar deb, ta'riflash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар) // Масъул муҳаррир: Б. Аҳмедов. – Т.: "Шарк", 2001. – Б.102.; Хайруллаев М. Форобий ва Ибн Синодаги илмлар таснифи. Культурное наследие и история философской мысли. Т., 1985, – С.171-172, 175-176; Бекмуродов М.Б. Замоновий бошқарув социологияси. Монография. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2020. – Б.436; Диноршоев М. Натурфилософия Ибн Сины. Душанбе. Дониш. 1985. – С.235.
2. Мирзиёев Шавкат Миромонович. 4-том. Миллий тикланишдан-миллий юкланиш сари. М 54 – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2020. – Б.43.
3. Ибн Сино. Дониш-намэ. – Абу Али ибн Сино. Избранные произведения. Т.1. Душанбе. Ирфон, 1980. – С.314.

4. Ибн Сино. Дониш-намэ. – Абу Али ибн Сино. Избранные произведения. Т.1. Душанбе. Ирфон, 1980. – С.328.
5. Диноршоев М. Натурфилософия Ибн Сины. Душанбе. Дониш. 1985. – С.235.
6. Бекмуродов М.Б. Замонавий бошқарув социологияси. Монография. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2020. – Б.18.
7. Диноршоев М. Натурфилософия Ибн Сины. Душанбе. Дониш. 1985. – С.235.
8. Первый Всемирный конгресс сторонников мира. Париж – Прага, 20 – 25 апреля 1949 г.: Материалы — М.: Госполитиздат, 1950. – 535 с.
9. Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари.Т.: Мерос, 1993. – Б.5.
10. “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар”. Журнали Т.1992, № 9-10, – Б.33.



UDK: 81'276.6:355.

Umid ALIMOV,
TIPU dotsenti v.b., PhD

Dotsent, PhD F.Yuldashev taqrizi asosida

YOSH KARATECHILARNI-YILLIK MASHG'ULOT JARAYONLARINI REJALASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot ishda yosh karatechilarning kumite baxslarida teskor qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish texnik harakatlarni takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Yosh karatechilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha karate zarbalari tasnifi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: karatechilar, sport mashg'ulotlari, o'quv-mashg'ulot jarayoni.

ПЛАНИРОВАНИЕ ГОДОВОГО ТРЕНИРОВОЧНОГО ПРОЦЕССА ЮНЫХ КАРАТИСТОВ

Аннотация

В данной научной работе рассматриваются вопросы развития способности юных каратистов принимать решения в поединках по кумитэ и совершенствования технических движений. Разработана классификация ударов каратэ для развития общей и специальной физической подготовки юных каратистов.

Ключевые слова: Каратисты, спортивная подготовка, тренировочный процесс.

PLANNING OF ANNUAL TRAINING PROCESSES OF YOUNG KARATES

Annotation

This research work considers the issues of developing the ability of young karate players to make decisions in kumite matches and improving technical movements. A classification of karate strikes was developed to develop the general and special physical fitness of young karate players.


Key words: Karate players, sports training, training process.

Kirish. Jahonda yosh karatechilarni-yillik mashg'ulot jarayonini rejalashtirishda jismoniy tayyorgarligini oshirish, texnik va taktik tayyorlashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, harakat faolligini oshirish bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Tadqiqotlar natijasida yosh karatechilarning jismoniy tayyorgarliklarini ifodalovchi ko'rsatkichlar ham aynan shu yosh bo'yicha belgilangan me'yoriy ko'rsatkichlardan past darajada qayd etilmoqda. Shu bois yosh karatechilarning individual xususiyatlariga asoslanib maxsus jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik vositalarini mashg'ulot yuklamalarida taqsimlash va rejalashtirish, musobaqa va maxsus mashqlarni bajarish harakatini boshqarish va uni fiziologik tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq yosh karatechilarning-yillik mashg'ulot jarayonlarini rejalashtirishda jismoniy tayyorgarligini oshirish, texnik va taktik tayyorlash asosida ilmiy ishlar olib borish zaruriyati yuzaga kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni, 2021-yil 5-noyabrda PQ-5281-son "2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi olimpiya va XVII paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risidagi qaror, hamda 2023-yil 3-noyabrda PQ-356-son "Karate (wkt) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori hamda yakka kurash sport turlarini ommalashtirish sohasidagi bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Karatechilarning ko'p-yillik tayyorgarligining metodologik asoslarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy qilish bo'yicha G.B.Abdurasulova, Beak Mun Jong, S.S.Tajibayev Sh.N.Nuriddinova, M.S.Axmatovlar karatechilarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirishda umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalaridan foydalanish hamda karatechilarni sport mashg'ulotlarini rejalashtirishda asosan texnik tayyorgarlikni rivojlantirish bo'yicha Sh.A.Arslonov, B.Sh.Raxmatov va boshqa mutaxassislar tomonidan sohaga oid turli izlanishlar olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida mavzuga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar materiallarini tahlil qilish va umumlashtirish, harakatlarni video tahlil qilish dasturi, pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, so'rovnomalari, pedagogik testlash, antropometriya, yosh karatechilarning funktsional holatini baholashning fiziologik usullari hamda matematik-statistik tahlil usuli singari usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi bo'yicha yosh karatechilarni kata va kumitega tayyorlash uchun ko'p-yillik tayyorgarlik bosqichlarida tayyorgarlik turlarini foiz nisbatlarda taqsimlash hisobiga-yillik tayyorgarlik siklini optimal rejalashtirishga erishilgan. Shuningdek, yosh karatechilar zaxirasini tayyorlash uchun o'quv mashg'ulot jarayonini individuallashtirishga qaratilgan to'rt (natijadorlik, pedagogik, diagnostik va nazorat) blokli karatechilarni chidamliligini rivojlantirish modelini takomillashtirish hisobiga jismoniy va texnik elementlarini o'zlashtirish imkoniyati kengaytirilgan;




1-rasm. Tadqiqot boshi tajriba va nazorat guruhlarining antropometrik ko'rsatkichlari

Tahlil va natijalar. Jismoniy tayyorgarlik mashqlaridan keyin albatta karatechilar organizmida bir qancha o'zgarishlarni yoki antropometrik ko'rsatkichlarni – bo'yi, vazni, ko'krak qafasi hajmi nafas olganda va chiqarganda, tinch holatidagi holatini aniqladik. Bu esa karate sporti bilan shug'illanuvchilar uchun muhim hisoblanadi. Sababi bo'y o'sganda oyoq va qo'llar uzunligiga erishamiz. Bunda kata va kumite bajarilganda har bir mashq aniq va chiroqli ko'rinadi asosan kata bajarganda tajriba va nazorat guruhi sportchilarida tadqiqot boshida antropometrik ko'rsatkichlari bo'yicha bo'y, vazn, ko'krak qafasi hajmi nafas olganda va chiqargan vaqtdagi ko'rsatkichlari ustida olib borilgan. Tadqiqot boshida tajriba guruhi sportchilari bo'yi 167 sm, nazorat guruhi sportchilarida esa 1,68 sm ni tashkil etdi. Tajriba guruhi sportchilari vazni 61,2 kg, nazorat guruhi sportchilarida vazni esa 62,9 kg ekanligi aniqlandi. Tajriba guruhi sportchilarida ko'krak qafasi hajmi esa 81,5 sm, nazorat guruhi sportchilarida ko'krak qafasi hajmi 79,95 sm ni

tashkil etdi. Tajriba guruhida ko'krak qafasi nafas olgandagi hajmi 87,10 sm, nazorat guruhi sportchilarida ko'krak qafasi nafas olgandagi hajmi 84,65 sm ekanligi aniqlandi. Tajriba guruhida ko'krak qafasi aylanasi nafas chiqargandagi 81,21 sm tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida esa ko'krak qafasi nafas chiqargandagi hajmi esa 79,32 sm ni tashkil qildi.

Barcha sport turlari kabi jismoniy tayyorgarlikka e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Shularni inobatga olgan holda yosh karatechilarni dastlabki jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari aniqlandi. Tadqiqot oldi yosh karatechilarni jismoniy rivojlanganli ko'rsatkichlarini aniqlash bilan birga ularni jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini aniqlashga e'tibor qaratdik. Tajriba va nazorat guruhiga jalb etilgan yosh karatechilarni jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlar quyidagi testlar orqali aniqlashga imkon berdi (1-jadvalga qarang).



2-rasm. Nazorat guruhlarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari

Tajriba va nazorat guruhi sportchilarining tadqiqot davomida jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida o'tqazilgan tadqiqotlar quyidagilar bo'yicha olib borildi. Unga ko'ra tajriba guruhi karatechilarning 30 metr ga yugurish bo'yicha ko'rsatkichlari 5,58 soniyani tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhi sportchilarida esa 30 metr ga yugurish 5,73 soniya natijaga erishdi. Tajriba guruhi sportchilarida yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish 18,8 marta bajarishgan bo'lsa, nazorat guruhi sportchilarida esa ushbu ko'rsatkich bo'yicha 16,65 marta tashkil etdi. Tajriba guruhi sportchilarida turgan joydan uzunlikka sakrash 195,35 sm. ekanligi kuzatildi, nazorat guruhi sportchilarida turgan joydan uzunlikka sakrash 188,85 sm ni tashkil qildi. Karatechilarning maxsus mashqlaridan biri hisoblangan Gyaku zuki bo'yicha ko'rsatkichlari tajriba guruhi sportchilarida 29,30 marta, nazorat guruhi sportchilarida 24,80 marta bajarildi. Tajriba guruhida mavashi geri mashqida tadqiqot oldi o'rtacha 20,90 marta, nazorat guruhi sportchilarida mavashi geri 16,65 marta deb qayd etildi. Tajriba guruhi sportchilarida Ura mavashi 20,55 marta bular 20 sekundta, nazorat guruhida esa ura mavashi mashqi 17,50 marta bajarildi. Tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhining jismoniy jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari bir-biriga yaqin ekanligi o'tkazilgan tadqiqot oldi olingan nazorat testlari orqali ko'rishimiz mumkin.

Murabbiy katta va ulkan kasbiy sport tajribalardan foydalanadi, bu sport mahoratini oshirishning har bir yangi bosqichida sportchilarning organizmiga ularning funksional imkoniyatlari chegarasiga yaqin bo'lgan talablarni qo'yishni ta'minlaydi. Bu esa adaptatsiya reaksiyalarining samarali borishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yuklama-yildan-yilga asta-sekin o'sib borishi, eng yuqori yutuqlarga tayyorgarlik bosqichida maksimal darajaga yetishi kerak. Shu bilan birga, o'quv-mashg'ulot jarayonini faollashtirishning asosiy yo'nalishlari ta'kidlangan: umumiy-yillik ish hajmi-yiliga 312 soatdan 1664 soatgacha oshadi. Mashg'ulot jarayoni butun kalendar-yil davomida-yillik sport mashg'ulotlari rejasiga muvofiq amalga oshiriladi va 52 haftaga mo'ljallangan. Dam olish kunlarida o'quv-mashg'ulot yuklamasini rejalashtirish sog'lomlashtirish oromgohlari asosida amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar jarayonining mazmuni sport maktabining murabbiylar kengashi tomonidan dasturga muvofiq belgilanadi, unda mashg'ulotlarning mazmuni, hajmi, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar belgilanadi. Sportchilarning mashg'ulot o'tkazishlari uchun sharoit yaratish uchun javobgarlik sport maktabining mansabdor shaxslari zimmasiga yuklanadi. Mashg'ulotlar jadvali yosh xususiyatlarini va belgilangan sanitariya-gigiyena me'yorlarini hisobga olgan holda murabbiyning taklifiga binoan rahbariyat tomonidan tasdiqlanadi.

Mashg'ulot sharoitlari va tashkil etilishiga, shuningdek, sport musobaqalari shartlariga qarab, mashg'ulotlar sport mashg'ulotlaridan o'tayotgan shaxslarning sog'lig'ini saqlash uchun zarur xavfsizlik choralariga majburiy rioya qilish asosida amalga oshiriladi. Sport bilan shug'ullanadigan shaxslarga tibbiy, yosh va psixofizik talablar. Sport mashg'ulotlarining barcha bosqichlarida karate

mashg'ulotlari va sport musobaqalarida qatnashish uchun tegishli tibbiy ma'lumotnoma bo'lishi kerak. Buning uchun-yiliga ikki marta sport mashg'ulotlaridan o'tayotgan shaxslarni dispanserda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish, musobaqalarda ishtirok etishdan oldin, kasallik yoki jarohatlardan keyin qo'shimcha tibbiy ko'rikdan o'tkazish kerak.

1-jadval

Karate sport turida 52 haftalik ko'p-yillik tayyorgarlikning o'quv – mashg'ulot rejasi

T/r	Tayyorgarlik turlari	Tayyorgarlik bosqichlari							
		Boshlang'ich tayyorgarlik		O'quv mashg'ulot				Sportda kamolatga erishish	Oliy sport mahorati
		1	2	1	2	3	4	1-2-3	Butun davr
1	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	93	140	75	75	104	104	164	232
2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	46	70	136	136	215	215	299	434
3	Texnik tayyorgarlik	156	234	312	312	449	449	561	782
4	Taktik, psixologik tayyorgarlik	7	10	38	38	56	56	62	33
5	Sport musobaqalarida qatnashish, murabbiy va hakam amaliyoti	10	14	63	63	112	112	162	183
Umumiy soatlar		312	468	624	624	936	936	1248	1664
Karate turlari uchun: vazn toifasi, jamoaviy musobaqalar									
1	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	180	242	249	249	234	234	424	564
2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	63	94	156	156	290	290	286	400
3	Texnik tayyorgarlik	63	122	169	169	327	327	450	582
4	Taktik, psixologik tayyorgarlik	6	10	25	25	38	38	38	34
5	Sport musobaqalarida qatnashish, murabbiy va hakam amaliyoti	-	-	25	25	47	47	50	84
Umumiy soatlar		312	468	624	624	936	936	1248	1664

Biz tomonimizdan tadqiqotlar davomida o'quv-mashg'ulot jarayonini individuallashtirish asosida yosh karatechilarning chidamliligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Modelni tadqiqot guruhidagi yosh karatechilarning mashg'ulotlar jarayonida qo'lladik. Yosh karatechilar zahirasini tayyorlashda mashg'ulotlarda asosan individual yondashishga e'tibor qaratdik. Modelimiz to'rtta blokdan iborat. Birinchi blokda individual chidamlilik darajasi, salomatligini mustahkamlash, keng ko'lamdagi vosita va usullarni o'zlashtirish, karatening asosiy texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirib uni natijadorligini oshirishga e'tibor qaratildi. Ikkinchi pedagogik blokda esa dastlabki tayyorgarlikning turli bosqichlarida chidamlilikni rivojlantirishni individuallashtirish metodologiyasi takomillashtirishga e'tibor qaratildi.

Xulosa va takliflar. Ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganib, tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelindiki,

yosh karatechilarning jismoniy va psixomotor rivojlanishi jarayonida karate mashg'ulotlarining ijobiy dinamikasi tajriba guruhi sinalluvchilarida kuzatildi. Ko'pgina mualliflar tomonidan yosh karatechilarning jismoniy va texnik tayyorgarligi bo'yicha karate sport turi bilan shug'ullanishning hamda tanlangan mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyati keng yoritib berilgan. Yosh karatechilarni kata va kumitega tayyorlash uchun ko'p-yillik tayyorgarlik bosqichlarida tayyorgarlik turlarini foiz nisbatlari mashg'ulotlarni rejalashtirildi hamda ushbu reja asosida mashg'ulotlar o'tkazildi. Natijada tajriba guruhi sportchilarining 30 m. ga yugirishda tadqiqot oldingi natijasi 5,58 soniya ko'rsatgan bo'lsa tadqiqotdan keyin esa ushbu ko'rsatkich 5,11 soniya yaxshilanishiga erishildi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2017-yil iyun, PQ-3031-son).
2. Биткин В.М. Методические приёмы применения восстановительных средств в подготовке высококвалифицированных футболистов. автореф. дис... канд. пед. наук. Смоленск, 1999. - 24 с.
3. Вишнякова С.В., Солопов И.Н., Замов Б.М. Совершенствование функциональных возможностей спортсменов на начальных этапах подготовки в художественной гимнастике. - Волгоград, 1998.-56с.
4. Голомазов С., Шинкаренко И. Футбол: Тренировка специальной работоспособности футболистов. - М., 1994. - 88 с.
5. F.A. Kerimov Sport kurashi nazariyasi va uslubiyoti. Darslik., Toshkent -2009
6. Sh.A.Arslonov- Tanlangan sport turi bo'yicha mutaxassislikka kirish (karate). Darslik. Chirchiq 2024.
7. Sh.A.Arslonov-Sport pedagogik mahoratini oshirish (Karate). O'quv-uslubiy qo'llanma. Chirchiq 2021.
8. Sh.A.Arslonov- "Karate-do dunyosini o'rganing" O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent "Istiqbol" 2005y. 112 b



UDK:796.011.1

Aziza AMINOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail:aminovaaziza509@gmail.com

PhD E.Rahmanov taqrizi acocu'da

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR TRAINING SPECIALISTS IN NATIONAL WRESTLING

Annotation

This scientific and methodological article highlights the issues of improving the process of training specialists in the national sport of kurash on a scientific basis. The role of modern pedagogical approaches, training methods, and phased training technologies in the development of the potential of national wrestling athletes and coaches, improving their professional and physical training, is substantiated. The proposed methodology, based on the results of experimental work, serves to increase the effectiveness of sports training. The article also presents methodological recommendations aimed at developing the specifics of national wrestling, indicators of technical-tactical and psychological preparedness of athletes.

Key words: sports education, methodology, improvement, individualized education, pedagogical technologies.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО НАЦИОНАЛЬНОМУ ВИДУ БОРЬБЫ КУРАШ

Аннотация

В данной научной статье освещены вопросы совершенствования процесса подготовки специалистов по национальному виду спорта кураш на научной основе. Обоснована роль современных педагогических подходов, методов тренировки и технологий поэтапной подготовки в развитии потенциала спортсменов и тренеров по национальной борьбе кураш, повышении их профессиональной и физической подготовленности. Предлагаемая методика, основанная на результатах экспериментальной работы, способствует повышению эффективности спортивных тренировок. Также в статье представлены методические рекомендации, направленные на развитие специфических особенностей национальной борьбы кураш и совершенствование показателей технико-тактической и психологической подготовки спортсменов.

Ключевые слова: спортивное образование, методика, совершенствование, индивидуализированное воспитание, педагогические технологии.

MILLIY KURASH SPORT TURI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada milliy kurash yo'nalishida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish masalalari ilmiy yondashuv asosida tahlil qilingan. Unda sportchilar va murabbiylarning malakasini oshirish, ularning kasbiy hamda jismoniy tayyorgarlik darajasini yuksaltirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, mashg'ulot metodlari va bosqichli tayyorgarlik konsepsiyalarining ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqotda milliy kurashning bugungi rivojlanish holati hamda mavjud muammolar o'rganilgan. Taklif etilgan metodik yondashuvlar eksperimental tadqiqotlar natijalariga tayangan holda murabbiylik faoliyatining samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, maqolada milliy kurash sport turining o'ziga xos jihatlari yoritilgan bo'lib, sportchilarning texnik-taktik, psixologik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ham taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: sport ta'limi, metodika, takomillashtirish, individuallashtirish, pedagogik texnologiyalar.

Kirish. Hozirgi davrda jismoniy tarbiya va sport tizimida milliy qadriyatlarni saqlash, ularni xalqaro maydonda keng targ'ib etish va ommalashtirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, milliy sport turlari, xususan kurash, nafaqat sport sohasidagi yutuqlarni ta'minlash, balki yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ham muhim tarbiya vositasi sifatida e'tirof etilmoqda.

Milliy kurash o'zining chuqur tarixiy ildizlari bilan birga, o'ziga xos texnik-taktik boyligi, estetik ifodasi va xalq ruhiyatini aks ettiruvchi uslublari bilan alohida ajralib turadi. So'nggi yillarda ushbu sport turiga bo'lgan e'tibor oshib borayotganiga qaramay, mutaxassislar tayyorlashda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ilmiy asoslangan uslubiy tamoyillarni joriy etish zarurati dolzarbligicha qolmoqda.

Shu munosabat bilan milliy kurash bo'yicha yuqori malakali sportchilar, murabbiylar hamda mutaxassislar tayyorlashda ilg'or xalqaro tajribalardan samarali foydalanish, sport pedagogikasi nazariyalari va milliy an'analarni

uyg'unlashtirgan ilg'or uslubiy tizimlarni ishlab chiqish muhim masalalardan biriga aylandi.

Mazkur maqolada milliy kurash sohasida kadrlar tayyorlashning amaldagi tizimi tahlil qilinib, mavjud muammoli jihatlar aniqlangan. Shuningdek, yangi metodik yondashuv asosida ishlab chiqilgan texnologiyaning afzalliklari ilmiy-uslubiy jihatdan asoslab berilgan hamda uning amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Milliy kurash sport turining kelib chiqish tarixi, musobaqa qoidalari, asosiy texnika-usullari hamda mashg'ulotlar olib borish metodikasi keng ilmiy yoritilgan. Mazkur manbalarda sportchilarni tayyorlash jarayonida muhim rol o'ynovchi texnik va taktik harakatlarning mazmuni, ularning metodik izchilligi va musobaqaga tayyorgarlik rejalarining bosqichma-bosqich tuzilishi atroflicha tahlil qilingan [2].

Tadqiqotda sport pedagogikasiga oid asosiy prinsiplar - uzluksizlik, bosqichlilik, individuallashtirish va kompleks yondashuv chuqur tahlil etilgan bo'lib, muallif sport mashg'ulotlarining ilmiy-nazariy asoslarini keng yoritadi.

Ushbu manbalar milliy kurash sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda zamonaviy metodik yondashuvlarni shakllantirish, tayyorgarlik dasturlarini tuzish va ularni ilmiy jihatdan tahlil qilishda muhim uslubiy manba sifatida xizmat qiladi [3].

Sportchilarning psixologik barqarorligi, stress holatlariga qarshi tura olish qobiliyati va musobaqa sharoitlariga moslashuvi bilan bog'liq omillar ilmiy asosda yoritilgan. Muallif psixologik tayyorgarlik sport natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslab beradi. Shu bois, mazkur

1-Jadval

Kurashchilarning jismoniy sifatleri

№	T/r	Asosiy mazmuni va ilmiy yondashuvi	Tadqiqotda yo'nalishi	Tavsiya shaklidagi xulosa
1		Milliy kurash texnikasi, uslublari, mashg'ulot tuzilishi va bosqichlari	Nazariy asos, texnik tayyorgarlik	Kurash texnikasi o'rgatishda amaliy darslar mazmunini shu asar asosida ishlab chiqish lozim.
2		Sport pedagogikasining ilmiy prinsiplari, bosqichlilik va uzluksizlik tamoyillari	Metodik asos, yillik tayyorgarlik rejalari	Metodik tizimda sport pedagogikasining zamonaviy prinsiplarini integratsiyalash tavsiya etiladi.
3		Sportchilarning ruhiy tayyorgarligi, motivatsiyasi, stressga chidamlilik	Psixologik tayyorgarlikni oshirish	Mashg'ulotlarga psixologik treninglarni qo'shish orqali kurashchilarda barqarorlikni oshirish mumkin.
4		Jismoniy sifatlarni baholash metodikasi, test va mezonlar	Eksperiment natijalarini baholash	Jismoniy tayyorgarlik monitoringi uchun aniq mezonlardan foydalanish samaradorlikni oshiradi.
5		Milliy sport turlariga xos metodikalar, murabbiy-sportchi o'zaro munosabatlari	Murabbiylik faoliyati, mashg'ulotni rejalashtirish	Murabbiylarning kasbiy tayyorgarligi milliy kurashda asosiy omil sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

Tadqiqotning maqsadi milliy kurash sport turi bo'yicha yuqori malakali sportchilarni tayyorlashda zamonaviy va ilmiy asoslangan uslubiy yondashuvlarni joriy qilish orqali mutaxassislar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Metodologik asos sifatida sport pedagogikasi, jismoniy tarbiya nazariyasi, kasbiy ta'lim konsepsiyalari va psixologik-pedagogik yondashuvlar xizmat qilgan. Tadqiqotning asosiy yo'nalishlari sifatida milliy kurash bo'yicha mutaxassislar tayyorlash tizimidagi mavjud holatni o'rganish, muammolarni aniqlash va ularga yechim sifatida ilgari surilgan uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish belgilandi.

Tadqiqotda qo'llanilgan asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

Nazariy tahlil: milliy kurashga oid ilmiy-adabiy manbalar, mavjud o'quv dasturlari, davlat standartlari va sport nazariyasi adabiyotlari tahlil qilindi;

Empirik metodlar: kuzatish, suhbatlar, so'rovnomalar va amaliy mashg'ulotlar orqali faktik ma'lumotlar to'plandi;

Tajriba-sinov yondashuvi: amaliy tajribalar asosida ilgari surilgan yangi uslubiy yondashuvlar tatbiq etildi;

Statistik tahlil: tajriba jarayonida olingan natijalarni ilmiy asosda baholash uchun statistik usullar qo'llanildi.

Tadqiqot doirasida tashkil etilgan tajriba guruhi sport yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalari orasidan shakllantirildi, nazorat guruhi esa an'anaviy mashg'ulotlar asosida shug'ullanuvchi talabalarni o'z ichiga oldi. Tajriba bir yillik tayyorgarlik davrini qamrab oldi.

Nazariy asoslar milliy kurash bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda quyidagi yo'nalishlarga tayanadi:

adabiyot milliy kurashda psixologik tayyorgarlik tamoyillarini ishlab chiqishda asosiy nazariy manba sifatida qo'llanilgan [4].

Shuningdek, kurashchilarning jismoniy sifatlari - kuch, tezlik, chidamlilik va chaqqonlik kabi ko'rsatkichlarini baholash mezonlari, ularning mashg'ulotlar samaradorligiga ta'siri ilmiy tahlil etilgan. Har bir jismoniy sifat uchun ishlab chiqilgan me'yoriy ko'rsatkichlar tadqiqotda eksperimental natijalarni baholash mezonlari sifatida foydalanilgan [5].

Sport pedagogikasi nazariyasi: mashg'ulotlarni tashkil etishda didaktik tamoyillar, uzluksizlik, individuallashtirish va kompleks yondashuvga tayaniladi. Bu esa sportchining jismoniy, psixologik, texnik va ijtimoiy jihatdan rivojlanishini ta'minlaydi;

Texnik va taktik tayyorgarlik: sportchining faolligi, texnik ko'nikmalari va strategik fikrlashi milliy kurashga xos harakatlar orqali shakllanadi. Bu jihatlar musobaqaga puxta tayyorgarlik ko'rishning asosi hisoblanadi;

Psixologik tayyorgarlik nazariyasi: sportchining ruhiy bardamligi, stress holatlarida o'zini tutish ko'nikmalari muhim omil sifatida qaraladi. Shu sababli, bu yo'nalish mutaxassis tayyorlash jarayonida alohida o'rin egallaydi;

Integratsiyalashgan yondashuv: nazariy bilimlar va amaliy mashg'ulotlarni uyg'unlashtirish, ilg'or sport texnologiyalari va raqamli vositalardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, milliy kurash bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda nazariy bilimlar va zamonaviy uslubiy yondashuvlarning integratsiyasi, sportchilarning salohiyatini to'laqonli ochib berish hamda sport ta'limi sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.


Tahlil va natijalar. Takomillashtirilgan metodika asosida mashg'ulotlar olib borilgan tajriba guruhi talabalari nazorat guruhiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga erishdi. Tajriba natijalari ilmiy-statistik jihatdan asoslab berilgan bo'lib, ularning samaradorligi quyidagi jadval orqali ifodalangan.

2-Jadval

Mashg'ulotlar samaradorligi

Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi (boshlanish)	Tajriba guruhi (boshlanish)	Nazorat guruhi (yakun)	Tajriba guruhi (yakun)
Kurash texnikasi (%)	65	64	72	81
Jismoniy tayyorgarlik (%)	68	67	74	85

Psixologik holat (%)	70	69	75	83
----------------------	----	----	----	----



Tadqiqot natijalari. Tadqiqot doirasida tajriba guruhi ishtirokchilari bilan milliy kurash sport turi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda takomillashtirilgan uslubiy yondashuvlar amaliyotga tatbiq etildi va ularning samaradorligi nazorat guruhi ko'rsatkichlari bilan solishtirilib baholandi. Tajriba bir yillik o'quv-mashg'ulot davrini o'z ichiga olib, quyidagi ijobiy natijalar qayd etildi:

Kurash texnikasini egallash darajasi 64 foizdan 81 foizgacha oshib, 17 foizli ijobiy o'sishni ko'rsatdi;

Jismoniy tayyorgarlik darajasida 18 foizli yaxshilanish kuzatilib, dastlabki 67 foiz ko'rsatkich 85 foizgacha yetdi;

Psixologik tayyorgarlik darajasi 14 foizga oshib, 69 foizdan 83 foizgacha ko'tarildi.

Shuningdek, tajriba guruhi ishtirokchilarida texnik-taktik harakatlarni tez va aniq bajarish, muvozanatni saqlash, qaror qabul qilish tezligi kabi ko'rsatkichlar nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yaxshilandi. Ushbu natijalar tajribaviy metodikaning o'quv-mashg'ulot jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatganligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy kurash sport turi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda qo'llanilayotgan amaldagi metodik yondashuvlar o'z samaradorligini yo'qotmoqda va zamonaviy sport talablari hamda xalqaro tajriba darajasiga mos kelmayapti. Shu munosabat bilan milliy kurashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda sportchilarning texnik, jismoniy va psixologik tayyorgarlik jihatlarini o'zaro integratsiyalashgan, bosqichma-bosqich rivojlantirishga asoslangan yangilangan metodik tizim ishlab chiqildi va amaliyotda sinovdan o'tkazildi.

Tajriba-sinov ishlarining natijalari taklif etilgan metodikaning samaradorligini isbotladi. Xususan, tajriba guruhi ishtirokchilarida kurash texnikasini egallash, jismoniy sifatlar va musobaqalarga tayyorgarlik holati hamda kasbiy kompetensiyalar bo'yicha ko'rsatkichlar an'anaviy metodika asosida shug'ullangan nazorat guruhi vakillariga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, milliy kurash sport turi bo'yicha kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan yangi yondashuv ilmiy-nazariy asosga ega bo'lgan, amaliy tajribada o'zini oqlagan pedagogik texnologiya sifatida e'tirof etilishi mumkin. Uni sport yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida joriy etish dolzarb va istiqbolli yo'nalishdir.

Shu bilan birga, milliy kurashni o'qitish metodikasini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

Sport ta'limi muassasalarida takomillashtirilgan o'quv dasturlarini amaliyotga keng joriy qilish;

Kurash mashg'ulotlarida psixologik tayyorgarlik komponentlarini (motivatsiya, o'zini boshqarish, stressga bardoshlilik) tizimli ravishda tatbiq etish;

Sportchilarning yillik tayyorgarlik rejasiga individual yondashuv asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish tamoyillarini kiritish;

Milliy kurash bo'yicha masofaviy ta'lim kurslari va uslubiy qo'llanmalarni elektron platformalarda ishlab chiqish va tatbiq etish zarur.

Mazkur takliflar milliy sport turlarini zamonaviy sport ta'limi tizimida rivojlantirishda muhim amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-maydagi PQ-3703-sonli qarori.
2. Karimov B. va boshqalar. "Kurash asoslari". – Toshkent, 2020.
3. Temirov N. "Sport pedagogikasining nazariy asoslari". – Toshkent, 2019.
4. Xolmatov U. "Sportchilar psixologik tayyorgarligi". – Andijon, 2021.
5. Islomov S. "Kurashchilar jismoniy tayyorgarligini baholash". – Jismoniy tarbiya va sport, 2022.
6. Xolmatov U. Sportchilar psixologik tayyorgarligi. – Andijon, 2021.
7. Karimov B. va boshqalar. Kurash asoslari. – Toshkent: O'quv qo'llanma, 2020.
8. Raximov I. Milliy sport turlari bo'yicha metodika. – Samarqand, 2021.



UDK: 33.2964

Azamjon AMIRQULOV,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: a.amirqulov@dpi.uz

UZMU dotsenti, f.f.d Z.Axrarova taqrizi asosida

PEDAGOGICAL BASIS OF FORMING ECONOMIC KNOWLEDGE IN PRIMARY STUDENTS BASED ON A CREATIVE APPROACH

Annotation

This article presents information on the need to form economic knowledge of primary school students based on a creative approach, the pedagogical foundations of this process and the content of influencing factors.

Key words: primary school student, creative approach, economic education, economic education, economic knowledge, economic culture.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье представлена информация о необходимости формирования экономических знаний учащихся младших классов на основе творческого подхода, содержании педагогических основ и факторах влияния, специфичных для этого процесса.

Ключевые слова: учащийся начальных классов, творческий подход, экономическое образование, экономическое образование, экономические знания, экономическая культура.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KREATIVLIK YONDASHUV ASOSIDA IQTISODIY BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik yondashuv asosida iqtisodiy bilimlarini shakllantirish zaruriyati, mazkur jarayonga xos pedagogik asoslari va ta'sir etuvchi omillar mazmuniga doir ma'lumot keltirilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishlari

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'quvchisi, kreativ yondashuv, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy ta'lim, iqtisodiy bilim, iqtisodiy madaniyat.

Kirish. O'zbekiston Respublikasining yangi taraqqiyot bosqichida zamonaviy kreativlik yondashuv asosida iqtisodiy bilimlar uchunchi ming yillikni rivojlantirishning maqsadli mazmuni va global aspektlarini aksettiruvchi vazifalar bilan o'zaro hamohangdir. Iqtisod fani va ta'limga tegishli zaruriy talablar zamonaviy pedagogika fani va amaliyoti oldiga bir qator o'ta muhim vazifalarni qo'yadi va ularga to'g'ri yechim topishi yosh avlodni to'laqonli va sog'lom turmush tarziga tubdan bog'liq bo'libgina qolmay, balki iqtisodiy bilimlarni olish va qo'llash jarayonidagi ishga qodirligiga aloqador.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart" [1]. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerakligi ta'kidlandi. Iqtisodiyot jamiyat hayotining eng murakkab tizimlaridan biri sifatida oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ishlab chiqarish qurollari hamda vositalari kabi cheksiz narsalarga umumiy ehtiyojlar va ularni qondirishning usullari mavjudligini gavdalandiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik yondashuv asosida iqtisodiy bilimi albatta iqtisodiy ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Iqtisodiy ta'lim esa integral

tavsifga ega bo'lib, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik jihatlar bilan bog'liqlikda rivojlanib boradi. Ilmiy izlanishlar uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida bolalarga iqtisodiy ta'lim berish dinamikasi oddiydan murakkabga tomon, izchil, davomiy bo'lishi zarurligini ko'rsatdi. Ta'lim tizimining biror bo'g'inida ta'lim sifatining susayishi yoki uzviylikning yo'qolishi kelgusi bosqichlarda o'zining noxush sifat o'zgarishlarini albatta namoyon qiladi. Iqtisodiy ta'lim murakkab integral ta'lim jarayoni hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy iqtisodiy madaniyatning mohiyatini bilish, shu jumladan uni bashorat qilish, shakllantirish, saqlash va mustahkamlash usullarini hisobga olgan holda, insonning ijtimoiy ahamiyatga ega hayotiy qadriyatlarini baholash tizimi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shaxs tomonidan iqtisodiy bilimlar o'zlashtirilishining falsafiy jihatlarini B.Valiyev, L.Jo'rayev, B.Tolipovlar, psixologik jihatdan esa I.Andreyeva o'rganishib ilmiy izlanishlarida tadqiq etishgan. Ta'lim – tarbiya jarayonida o'quvchi-yoshlarning iqtisodiy bilimini rivojlantirish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylanib bormoqda [2].

Ma'lumki, o'tgan asrning oltmishinchi yillaridan Angliya, Germaniya, Yaponiya, AQSH kabi taraqqiy etgan davlatlarning ta'lim muassasalari o'quv rejalariga, bolalarni kundalik hayotga tayyorlash maqsadida pul ishlab topish, uni saqlash, mol-mulk yig'ish, daromadli biznes, tejamkorlik, vaqtni foydali sarflash, irodani mustahkamlash, salomatlikka

e'tibor berish, foydali kasbni tanlash va iqtisodiy bilim berish maqsadiga yo'natirilgan "iqtisodiy pedagogika" fani kiritilgan. Ushbu fan uchun alohida o'quv dasturi va uslubiy tavsiyalar yaratilgani ma'lum.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga kreativlik yondashuv asosida iqtisodiy tarbiya berish borasida Germaniya tajribasi tengsizdir. Bu yurtning keng jamoatchiligi, oila va ijtimoiy institutlarining maqsadi boshlang'ich sinfdanoq aholida iste'mol madaniyatini shakllantirishga qaratilgandir. Matbuot va ommaviy axborot vositalari ham bu borada chetda turmaydilar, ular televideniya namoyish etayotgan reklamalar taklif qilayotgan narsalarning barchasiga birdan ega bo'lish mumkin emasligi, istaklarni jilovlay bilish va taklif etilganlar ichidan eng zarur va foydalisini tanlab olish malakasini hosil qilishda ota-onalarni bolalarga yordam berishga chaqiradilar. Germaniyada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshlik chog'idan pul toppish va uni sarflash malakasiga ega bo'lishi, xuddi ko'chada yo'lni kesib o'tish qoidalarini bilish kabi oddiy va muhim sanaladi.

Shu bois, bola son va sanoqni ilk bor o'zlashtira boshlagan zahoti ularga mayda sarf-harajatlar uchun haftalik pul ajratiladi. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi bunday "iqtisodiy munosabatlar"[3] to'rt asosiy qoidaga asoslanadi. Bugungi kunda pedagogika oliy o'quv yurti talabalari bo'lgan bo'lajak o'qituvchilarni umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berishga tayyorlash muammolari ham o'z yechimini kutib turgan dolzarb masalalardandir.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang'ich sinflar 1-4 sinf o'quvchilarida kreativ yondashuv asosida iqtisodiy-statistik bilimlar elementlarini shakllantirish mavzusida ilmiy izlanish olib borib, boshlang'ich sinf "Matematika", "Texnologiya", "Tabiiy fanlar", qisman "Ona tili" fanlari mazmuniga iqtisodiy-statistik elementlarni kiritish jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatini o'rgangan. Tadqiqot jarayonida izlanuvchi Xol Jumayevich Xudoyqulov matematik misollarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy-statistik bilimlarni shakllantirish mumkinligi, bu ularning o'qish faoliyati va o'zlashtirish darajasini yaxshilab, bilim olishiga ijobiy ta'sir etishi hamda hayotiy tayyorgarligining faollashuviga sabab bo'lishi mumkinligini isbotlagan.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich 1-4-sinf o'quvchilari kreativlik yondashuv asosida iqtisodiy bilimdonligini modulli texnologiya asosida rivojlantirishning didaktik asoslarini tadqiq etgan X.A.Umarova, "O'qish", "Ona tili", "Matematika" fanlari mazmunida boshlang'ich sinf ta'lim oluvchilariga fanlar mazmunida iqtisodiy bilim berish uslublarini tavsiya etgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mehnat ta'limi jarayonida tejamkorlik hislarini singdirish muammosini hal qilish maqsadiga qaratilgan yana bir tadqiqot ishi S.I.Musayeva tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, unda boshlang'ich (1-sinf) o'quvchilarini oilada va mehnat darslarida tabiiy materiallar – qog'oz, karton, gazlama bilan ishlashda tejamkorlikka o'rgatish imkoniyatlari tahlil etilgan. Mehnat darslari va darsdan tashqari jarayonlarda maktab, oila, mahalla hamkorligida boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiyotga oid tushunchalarni shakllantirish samaradorligini ilmiy o'rganish maqsadiga qaratilgan yana bir tadqiqot ishi dissertant X.J.Xudoyqulov tomonidan amalga oshirilgan. Izlanuvchi "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda iqtisodga oid tushunchalarni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari" [4] muammolari ustida ish olib borib, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodkorlik hissini o'stirish va iqtisodiy ta'lim-tarbiya berishda Sharq mutafakkirlari adabiy merosidan foydalanish, bunda davlat iqtisodiy siyosatining o'rni va ahamiyatini yoritib bergan. Tahlillar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilk iqtisodiy bilimlarni shakllantirishga turtki bo'lgan tushunchalar, ularga engyaqin bo'lgan olam, ularni

o'rab turgan atrof-muhit, narsa-hodisalar va bolalarning undagi faoliyati bilan bog'liq bo'lishi zarur degan xulosani beradi.

Ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, nazariy va pedagogik amaliyotda "iqtisodiy ta'lim", "iqtisodiy tarbiya", "iqtisodiy madaniyat", "iqtisodiyotda ta'lim" tushunchalari qo'llaniladi. Bu tushunchalar bir – birlarini to'ldirib boradi, bu esa o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik faoliyatda ushbu tushunchalarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

Iqtisodiy tarbiya-bu tarbiyaning bir qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi shaxsda iqtisodiy tarbiyani tavsiflovchi (iqtisodiy, ijtimoiy – iqtisodiy madaniyat, iqtisodiy fikrlash) kabi fazilatlarni shakllantirish, zamonaviy iqtisodiy tarbiyaning eng muhim belgisi bo'lgan ma'naviy asosga ega bo'lgan iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishdir.

Iqtisodiy bilim-bu iqtisodiy ta'limning aniq – amaliy komponentlarini o'z ichiga oladi, shu bilan birga o'qituvchi va o'quvchining iqtisodiy bilimlarni rivojlantirishdagi bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyati. Iqtisodiy bilim berishning asosiy komponentlari iqtisodiy ta'lim mazmuni (iqtisodiy kompetensiya), iqtisodiy savodxonlik, iqtisodiy bilim, ko'nikma va malaka, amaliy faoliyat tajribasi, kopetentlik.

Iqtisodiy ta'lim-bu ta'limning majburiy qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi o'quvchi shaxsini shakllantirish, bozor sharoitiga moslashtirish va o'z faoliyatini iqtisodiy jihatdan amalga oshira oladigan kadrlarni tayyorlashdir.

Iqtisodiy madaniyat -bu shaxsning jamiyatda iqtisodiy faoliyat va xulq - atvorida o'z – o'zini anglashiga, o'ziga moslashishiga prognozlashgan ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlarga integratsiyalashuviga imkon beruvchi intellektual, hissiy va amaliy komponentlar, axloqiy va ma'naviy munosabatlar majmuidir [5]. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilimlarni shakllantirishda mazkur jarayonning psixologik-pedagogik xususiyatlari va ta'sir etuvchi omillariga e'tibor qaratish lozim.

Iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirgan o'quvchilarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, fidoyilik kabi fazilatlar qaror topa boshlaydi [6]. Ammo iqtisodiy jarayonlar haqida bilimga ega bo'lish, uni tushunish, ijobiy fazilatlarni tarkib topirish hali o'quvchi-yoshlarning iqtisodiy madaniyat to'liq shakllanganligini anglatmaydi. Iqtisodiy faoliyat ko'nikmalari qachonki hayotiy tajribalarda aks etib, shaxsning munosabatlarga kirishish faoliyatida yorqin namoyon bo'lsagina o'quvchilar tomonidan iqtisodiy bilimlarning o'zlashtirilganlik darajasini belgilaydi.

Xulosa va takliflar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlik yondashuv asosida iqtisodiy bilimlarni shakllantirish bilan bog'liqlikda quyidagi vazifalar nazarda tutiladi:

- uzluksiz ta'lim-tarbiyaning har bir bo'g'inida iqtisodiy tarbiya maqsadiga erishish yo'llarini izlab topish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida turli ta'sir vositalari orqali o'quvchilarda iqtisodiyfaoliyat ko'nikmalarini shakllantirish;
- iqtisodiy ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan metod va vositalar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqish va ehtiyojlarini, iqtisodiy bilim darajasini aniqlash maqsadida kuzatish, suhbat va anketa so'rovlarini o'tkazib, natijalarini qayd etib borish;
- o'quvchilarda iqtisodiy madaniyatni tarbiyalash orqali ularni kompetentli ijtimoiy faol yoshlar sifatida tayyorlashga erishish.

Iqtisodiy ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish muammosi pedagogika fanining yangi, to'liq o'rganilmagan sohasi sirasiga kirgani bois, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida u bilan bog'liq hal etilishi zarur bo'lgan

muammolar mavjud. Bunda asosiy e'tibor respublikada olib borilayotgan ta'lim islohotlarida ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish, demak-ki, uzluksiz ta'lim

tizimining barcha bosqichlarida ta'lim oluvchilarning iqtisodiy tarbiyasini takomillashtirishga qaratilishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.[1] 2020 yil 24 yanvar.
2. Андреева И.В. Экономическая психология. Социокультурный подход / И. В. Андреева. - СПб, 2020. –С. 236. [2].
3. Artiqova M.B. Oilada o'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari: Ped.fan.nom. ... diss. – T.: 2018. –B. 155. [3]
4. Атоев Н.М. Педагогические условия экономического воспитания старшеклассников (сельских школ Узбекистана): Автореф. дисс. канд. пед. наук. Алма-Атинск. ГУ. 2023. ст 22.[4]
5. Tolipov B.X. Shaxs iqtisodiy madaniyatida moddiy va ma'naviy omillar uyg'unligi: Falsafa.fan.nom. ... diss.–T.: 2019. – B.152.[5]
6. Kamolova N.Q. O'quvchi-yoshlarda iqtisodiy bilim va ko'nikmalarning rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari Ped.fan.nom. ... diss. – T.: 2015. – B. 148. [6]
7. Sadikova, S. (2020). University students training system for pedagogical activities. InterConf.
8. Tolipov B.X. Shaxs iqtisodiy madaniyatida moddiy va ma'naviy omillar uyg'unligi: Falsafa.fan.nom. ... diss.–T.: 2019. – B.152.
9. Azamjon, A. (2023). Huquqiy madaniyatni shakllantirishda o'rta asrlar sharq mutafakkirlari ma'naviy merosining roli. образование наука и инновационные идеи в мире, 13(4), 157-161.
10. Valiyev B.N. Iqtisodiy madaniyat va uni shakllantirish omillari. Falsafa.fan.nom.... diss. – T.: 2014. –B.134.



DK:1.301(09):008:398(575.1)

Dinara ARAPBAYEVA,
Navoiy innovatsional universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail: dinara020776@gmail.com

TDU dotsenti PhD R. Baratov taqrizi asosida

FOLKLORE – A PHILOSOPHICAL FACTOR FORMING NATIONAL PRIDE AND THE SOCIAL CONSCIOUSNESS OF THE INDIVIDUAL

Annotation

This article analyzes the philosophical and methodological significance of folklore art in the formation of national pride and the social consciousness of the individual. The author examines the educational, moral, and spiritual functions of folklore in the context of social and spiritual threats of the globalization era, evaluating it as a means of fostering national identity and preserving spiritual values.

Key words: folklore, national pride, social consciousness, spiritual values, personal upbringing, patriotism, historical heritage, national identity, philosophical analysis, spiritual culture.

ФОЛЬКЛОР – ФИЛОСОФСКИЙ ФАКТОР, ФОРМИРУЮЩИЙ НАЦИОНАЛЬНУЮ ГОРДОСТЬ И СОЦИАЛЬНОЕ СОЗНАНИЕ ЛИЧНОСТИ

Аннотация

В данной статье проанализировано философское и методологическое значение искусства фольклора в формировании национальной гордости и социального сознания личности. Автор рассматривает воспитательную, нравственную и духовную функции фольклора в условиях социальных и духовных угроз эпохи глобализации, оценивая его как средство осознания национальной идентичности и сохранения духовных ценностей.

Ключевые слова: фольклор, национальная гордость, социальное сознание, духовные ценности, воспитание личности, патриотизм, историческое наследие, национальная идентичность, философский анализ, духовная культура.

FOLKLOR – SHAXSDA MILLIY G'URUR VA IJTIMOIIY ONGNI SHAKLLANTIRUVCHI FALSAFIY OMIL

Annotasiya

Mazkur maqolada folklor san'atining shaxs milliy g'ururi va ijtimoiy ongni shakllantirishdagi falsafiy va metodologik ahamiyati tahlil etilgan. Muallif globallashuv davrida yuzaga kelgan ijtimoiy-ma'naviy tahdidlar sharoitida folklorning tarbiyaviy, axloqiy va ma'naviy funksiyalarini ko'rsatib, uni milliy o'zlikni anglash va ma'naviy qadriyatlarni saqlash vositasi sifatida baholaydi.

Kalit so'zlar: folklor, milliy g'urur, ijtimoiy ong, ma'naviy qadriyatlar, shaxs tarbiyasi, vatanparvarlik, tarixiy meros, milliy o'zlik, falsafiy tahlil, ma'naviy madaniyat.

Kirish. Bugungi kunda jahonda terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm, fashizm, ksenofobiya, rasizm, kosmopolitizm, individualizm, etnoegoizm hodisalari, "ommaviy madaniyat", shaxs marginallashuvi (bir jinsli nikoh, giyohvandlik, odam savdosi va boshqa g'ayriinsoniy deviant xulq-atvor elementlari) eskalatsiyasi globallashuvi kishilarning milliy g'ururini shakllantirishni umuminsoniy dolzarb ilmiy muammoga aylantirdi. Bu muammo yechimi dunyo ijtimoiy-gumanitar fanlari ilmiy jamoatchiligi oldiga umuminsoniy ma'naviy-madaniy qadriyatlarni integratsiyalashtirishni, progressiv milliy ta'lim-tarbiya usul-vositalarini, pedagogik-didaktik innovatsion texnologiyalarni global ommaviylashtirish ehtiyoji va zaruratini kuchaytirmoqda [6.8.11].

Shaxs va millat g'ururini shakllantirishni tadqiq etishda, uning tarixiy-retrospektiv asoslarini aniqlashda folklor san'ati muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki shaxs tarbiyasining har qanday sohasida, uning tarixiy rivojlanish qonuniyatlari va bosqichlarini o'rganish istiqbol mo'ljallarini belgilashga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarixda inson qadri, o'z shanini, or-nomusini saqlash masalasi alohida kun tartibiga qo'yilgan. Zardushtiylik dinining "Avesto" va boshqa dunyoviy dinlarning muqaddas kitoblari inson g'ururi Yaratganning ilohiy ne'mati sifatida talqin etilgan.

Falsafa tarixida "ikkinchi muallim" sanalgan Abu Nasr Forobiy (873-950) asarlarida Arab xalifaligidan mustaqillikka erishgan davlatda adolatli jamiyat qurish masalalari «Fozil odamlar shahri» asarida berilgan insonparvarlik, vatanparvarlik, komil inson shaxsini tarbiyalashga doir amaliy tavsiyalari hozirgi davrda ham milliy taraqqiyotning ijtimoiy-ma'naviy muammolarini hal etishda muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Eng qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodi merosi namunalari Mahmud Qoshg'ariyning (XI asr) "Devonu lug'otit turk" asari orqali yetib kelgan. Asarda keltirilgan xalq og'zaki ijodi namunalarida: vatanparvarlik, insoniylik, poklik, fidoyilik, sadoqat kabi insoniy fazilatlar o'zining badiiy ifodasini topgan.

Abdulqosim Mahmud Zamaxshariyning (1075-1144) "Atvoq uz-zahab fil-mavo'iz val-xutb" ("Xutbalar va va'zlar bayonida oltin shodalar"), "Navobig' ul-kalim" ("Nozik iboralar"), "Rabiy ul-abror va nusus ul-axyor" ("Taqqodorlar bahori va fozillar bayoni"), "An-nasouh us-sig'or val bavolig' ul-kibor" ("Kichiklarga nasihatlar va ulug'lar yetukligi") asarlari pand-nasihatlar, hikmatli so'zlar, maqollar, hikoyalar, latifalar orqali insonlarni o'zligini anglashga, jamiyatda o'z o'rnini topishga yetaklagan. [13.]

Alisher Navoiy (1441-1501) «Hayrat-ul-abror» dostonida komil inson ma'naviyatida milliy g'urur fenomeni

bilan bevosita bog'liq: vatanparvarlik, mehnatsevarlik, jasurlik, yaxshilik, saxovat, soflik, hayo, muruvvat, andisha, odob, kamtarlik, sadoqat, rostgo'ylik, insof, qanoat, adolat, g'urur, or-nomus kabi axloqiy fazilatlar tahlil etilib, insonning ruhiy kamolot yo'llari ko'rsatilgan.

XX asrga kelib, o'zbek jadidchilik maktabi vakillari xususan, Fitrat "Sharq" dostoni, "Mirrix yulduziga", "Temur sag'anasi", Cho'lpon "Go'zal Turkiston", "Xalq", "Yorug' yulduzga" nomli fol'klorga aylangan asarlari bilan shaxs milliy g'ururini shakllantirib, millat ma'naviyati, ma'rifatini rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar.

Eng muhimi, milliy fol'klor san'atimizga xorijlik olimlar, mutaxassislarning qiziqishi kuchayib, mamlakatimiz madaniyati tarixi va xalqimiz ma'naviy qiyofasi haqida dunyo jamoatchiligida yangi tasavvurlar uyg'onib, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida katta ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, turkiyalik yirik fol'klorshunoslar Fili Qirbosh ("Go'ro'g'lining tug'ilishi", 1996 y.), Selami Fidakor ("Rustamxon", "Erali va Sherali", 1996 y.) xalq eposlari, Bonn universiteti (Germaniya) professori Karl Rayxil ("Turkiy xalqlar eposi", 2002 y.), yapon olimi Xeroki ("Turkiy xalqlar qahramonlik eposi", 2002 y.), janubiy koreyalik turkshunos olim Ing Yong O ("Alpomish" va "Jum'ng" dostonlarining qiyosiy-tipologik tahlili" 2014 y.) milliy fol'klorimiz haqidagi asarlarni o'z tillariga tarjima qilib, nashr ettirdilar.

O'zbekistonda "Alpomish" dostonining 1000 yilligi munosabati bilan ushbu yubileyga tayyorgarlik va uni o'tkazish jarayonida T.Mirzaev, K.Imomov, O.Madaev, Sh.Turdimov, M.Jo'raev, J.Eshonqulov, Sh.Shomusarov, B.Jumaniyozov, M.Pirmatova, U.Sattorov, M.Rahmonova, R.Saidova, A.Musaqulov va boshqa fol'klorshunoslar tomonidan jiddiy ilmiy tadqiqot ishlari natijalari e'lon qilindi.

O'zbekistonda jamiyat ma'naviy-madaniy yangilanishi sharoitida fol'klorning (xususan, dostonchilikning) roli haqida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning ko'rsatmalari alohida nazariy-metodologik ahamiyatga ega. Birinchi Prezident "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida: "Xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish "Alpomish" dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Agarki, xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo'lsa, "Alpomish" ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlarini o'z ifodasini topgan" [3], degan fikrida shaxs ma'naviyatini rivojlantirishda fol'klorning roli, uning umumnazariy asoslari va amaliy yo'l-yo'riqlari ko'rsatib berilgan bu esa, o'z navbatida, ilmiy jamoatchilik oldiga dolzarb vazifalarni qo'ydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Fol'klor millatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan milliy g'ururni baholash mezonlaridan biri hisoblanadi. Fol'klorning mazmunida shaxs g'ururini shakllantirishdan millat g'ururini shakllantirishga o'tishning sub'ektiv omil imkoniyati va uning ta'sirida vujudga kelgan ijtimoiy hodisa – milliy o'zlikni anglashni ko'ramiz. Zero, insoniyat tomonidan yaratilgan xalq madaniyatining har qanday shakli, xususan, ma'naviy yuksaklikning mezon – shaxs g'ururi fol'klorda o'z ifodasini topadi. Shuning uchun fol'klorning shaxs g'ururi shakllanishiga ta'sirini shaxs, ijtimoiy borliqning asosiy elementi bo'lgan millat munosabatlari birligi tarzida tahlil etish nazariy-metodologik ahamiyatga ega. Chunki shaxs g'ururi, hatto instinktiv-reflektiv tarzda ham ruhiy holat (to'g'rirog'i, ijtimoiy hodisa) sifatida tarixiy kelib chiqish genezisi va mavjudligiga ko'ra, ob'ektiv hodisa bo'lsa ham, sub'ektiv omillar yordamida shakllanadi va rivojlanadi.

Fol'klor san'atini konkret shaxs tipi va muayyan millat g'ururini shakllantirish usuli hamda imkoniyati kontekstida olib qaraydigan bo'lsak, jamiyat ma'naviy hayotidagi rolining oshib borish qonuniyatini ko'ramiz.

Umumlashtirib aytganda, fol'klor – shaxs va millat g'ururini shakllantirishga qaratilgan sub'ektiv omilning konkretlashgan usuli va vositasi. Fol'klor san'ati shaxs milliy g'ururini shakllantirishdan iborat ijtimoiy amaliyotning konkret bosqichini ham, tarixiy zaruriyatini ham, dinamik rivojlanishini ham o'zida aks ettiradi.

Tahlil va natijalar. Fol'klorning shaxs milliy g'ururini shakllantirishdagi roliga ijtimoiy amaliyot nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, uning ikkita asosiy xususiyati namoyon bo'ladi. Birinchisi, ijtimoiy-ma'naviy hayotda fol'klor shaxsning o'zligini anglash imkoniyati, sub'ektiv omili bo'lib, milliy g'ururini tarixiy voqealar kontekstida badiiy obrazlar orqali aks ettiruvchi xalq ma'naviy madaniyatining maxsus shakli hisoblanadi. Unda milliy g'ururni shakllantirishning ijtimoiy-tarixiy tajribalari va shakllangan qadriyatlar shaxs darajasida konkret aks etadi hamda umumlashadi. Ikkinchisi, fol'klorning shaxs milliy g'ururiga ta'siri ma'naviy madaniyat tizimidagi funksiyasiga, jamiyat tarixiy taraqqiyotining ma'naviy ehtiyojlariga mos tarzda o'zgarib turadi va shaxs sifatlariga konkret yondashuvni taqozo qiladi.

Shuning uchun hozirgi davrdagi falsafiy adabiyotlarda fol'klorning funksional rolini ta'riflashda, uni ijtimoiy borliqning badiiy ideallashtirish voqeligi tarzida qaralishi tasodifiy emas. Xususan, fol'klordagi "g'aroyib fantastika, mohiyatan, xalqning tarixiy voqelikka munosabati asosida ijtimoiy ongini badiiy shaklda o'zlashtirishdir" [7].

Shu bois, fol'klor shaxsning o'z-o'zini anglash, milliy g'ururni shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bizning tadqiqot mavzuumiz doirasida fol'klorning rivojlanishidagi asosiy tendensiya millatning mustaqilligini mustahkamlash ehtiyojlaridan kelib chiqib, shaxs milliy g'ururini shakllantirish orqali uning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, fol'klorda g'urur, or-nomus, sha'n, insonning o'z qadriyatini anglash va uning sofligini saqlash masalasi personajlarning faolligi yoki passivligini belgilaydigan mezon hisoblangan [2].

Fol'klorning shaxs milliy g'ururiga ta'siri faqat sub'ektiv omil maqomi bilan belgilanmaydi, balki uning hissiy-emosional faoliyatini, xususan, vatanparvarlik ruhini, qahramonlik fazilatini tarbiyalashga yo'naltiradi, shaxsning bu sohada real tajriba orttirishga va uning ijtimoiy ma'nodagi maqomini mustahkamlashga yordam beradi. Shuning uchun ham fol'klorda ifodalangan shaxsning milliy g'ururi, bir tomondan, uni rivojlantirishga yo'naltirilgan hayotiy tajribani umumlashtiradi. Ikkinchi tomondan, fol'klor shaxs milliy g'ururini, uning amaliy faoliyat shakllariga nisbatan konkretlashtirishdan tashqari "oriyat", "nomus", "sha'n", "nafsoniyat" kabi ma'naviy-axloqiy tushunchalar mazmunini tashkil qiladi.

Shu bilan birga, fol'klorda konkret tarixiy davrning mohiyatini belgilovchi milliy ongning amalda namoyon bo'lgan shaxs g'ururi ijtimoiy guruhlar, tabaqalarning umuminsoniy maqsadlarini, umummilliy manfaatlarini o'zida mujassamlashgan tarzda ifodalaydigan mazmun va shakl birligi mavjud. Shaxs g'ururi o'zining konkret namoyon bo'lish shakllaridan qat'i nazar, ijtimoiy xarakter kasb etadi. Chunki shaxs g'ururini shakllantirish muammosi tarixiy davr ziddiyatlari va asosiy tendensiyalarini o'zida aks ettiradi.

Xalqimizning uzoq tarixiy davrlardan mustabid mustamlakachilik tuzumida yashashi bugungi kunda, umuman, ma'naviyatga, xususan, fol'klor san'ati oldiga qator muammolarni qo'ymoqda. Chunki shaxs milliy g'ururini shakllantirishda fol'klorga diqqat-e'tiborning oshib borishi o'tmish ma'naviy madaniyatini tiklash va rivojlantirish

zaruriyatidan kelib chiqadi hamda shaxs g'ururini shakllantirishning murakkabligi, uning nafaqat tashqi qiyofasini, balki ichki ma'naviy mohiyatini ochishi bilan xarakterlanadi.

Bundan tashqari, shaxs milliy g'ururini shakllantiradigan fol'klor muayyan xalq yoki millatga tegishli emas. Chunki har qanday fol'klor, ularning tarixiy tajribalarini umumlashtirish natijasida vujudga keladi va umuminsoniy xarakter kasb etadi. Boshqacha aytganda, "bir geosiyosiy hududda yashagan xalq qaysi millat yoki elat vakili bo'lishidan qat'i nazar, doimo o'zaro madaniy-ma'naviy konvergensiya ta'sirida bo'ladi. Ushbu jarayon madaniy taraqqiyotning ustuvor qonunlaridan biridir" [5]. Eng muhimi, fol'klor qahramonlari obrazlarining ma'naviy mazmuni har qanday kishida milliy g'ururni shakllantirishga milliy mentalitet "chig'irig'i"dan o'tgan holda ta'sir ko'rsatadi. Hatto, millatning o'zligini anglashida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun fol'klor qahramonlari milliy mansubligidan qat'i nazar, umuminsoniy mazmunga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, fol'klorning shaxs milliy g'ururini shakllantirishdagi funksional rolini quyidagicha ta'riflaymiz. Fol'klor xalq turmush tarzi sohalarini ideal obrazlarda, metaforalarda aks ettirish orqali shaxs milliy g'ururini shakllantirishga ta'sir ko'rsatishning samarali usuli bo'lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida o'ttirilgan tarixiy merosni, ijtimoiy tajribani umumlashtirish, saqlash va uzatishning o'ziga xos sintetik san'at shaklidir. Lekin fol'klorning faqat shaxs milliy o'zligini anglash va g'ururini shakllantirish funksiyasi uning roli va mustaqil ahamiyatini

to'liq namoyon qila olmaydi. Shu sababdan fol'klorning jamiyat umumiy taraqqiyotidagi ahamiyatini belgilab beradigan xususiyatlarni shaxs milliy g'ururini shakllantirish kontekstida olib qarash uning funksional rolini konkretlashtiradi. Chunki, nazarimizda, shaxsning muayyan tarixiy davrda fol'klor vositasida milliy g'ururini shakllantirishi uning konkret tarixiy-ijtimoiy amaliyot jarayoni bilan bog'liq bo'ladi. Ya'ni fol'klor shaxsning tarixiy taraqqiyotidagi faol sub'ekt sifatida shakllanishi uchun faqat ideal voqelikni aks ettirmasdan, balki uni "yaratishi" zarur.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda: 1) fol'klorning shaxs milliy g'ururiga ta'siri keng qamrovli hodisa bo'lib, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash muammolarining ustuvor yo'nalishlariga mos tarzda turli davrlarda turlicha talqin qilingan; 2) bugungi kunda fol'klorning shaxs milliy g'ururini shakllantirishdagi roli oshib borishi, uning mentalitet xususiyatlarini aniqlash nuqtai nazaridan kompleks-sistemali o'rganishga munosib; 3) fol'klor san'ati inson intellektual salohiyati, mehnati bilan yaratilgan ma'naviy madaniyatning maxsus shakli bo'lib, shaxs milliy g'ururini shakllantirish vazifasini bajaruvchi ijtimoiy hodisadir; 4) fol'klorda milliy o'zlikni anglash va g'ururni shakllantirish muammolarining kun tartibiga qo'yilishi inson ijtimoiy mohiyatidagi ijodkorlik xarakterini, iste'dodini, mahoratini namoyon qiladi; 5) fol'klor ma'naviy madaniyatning maxsus ko'rinishi sifatida hamma vaqt real voqelikdan kelib chiqadi va uni ideal obrazlar tarzida ifodalash usulidir.

ADABIYOTLAR

1. Аширов А. "Авесто"дан мерос маросимлар. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашри, 2001. – 28 б.
2. Жўрахонова С. Кенжа ботир ҳақидаги эртақларнинг ўзига хос хусу-сиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2009. №1. – Б.84. (82-85)
3. Каримов И.А.Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маъ-навият, 2011. – 176 б.
4. Мадаев О. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2011. – 243 б.
5. Назаров Н. Лақайлар этник маънавиятининг ўзига хос жиҳатлари. //Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2006. – №4 (36) – Б. 115.(113-117)
6. Patrick J.Buchanan. The death of the West. United States.St. Martin's Griffin.2001.320 p.
7. Трояков П.А. От этнографических реалий к сказочному мотиву. Фо-льклор. Поэтическая система. – Москва, 1977. – 135 с.
8. Toffler. A The third wave. United States. New York. Bantam Books. 1980. 560
9. Тоғаев Ш.Х. Ўзбек халқи миллий ғурурининг шаклланишида мада-ний мероснинг ўрни: Фалс.фан.ном. ... дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2002. – 140 б.
10. Хакимов Н. Миллий ғурур ва маданий савия // Мулоқот. – Тошкент, 2000. – №4. Б. 15-18.
11. Шарипов М. Қадриятлар – тарихий онг ва миллий ифтихор кўзгуси // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2006. – № 1(33) – Б. 155-159.
12. Шпенглер О. Закат Европы. В 2-х томах. – Москва: Мысль, 1993. – 672 с.
13. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Замахшарий. – Тошкент: Ўзбе-кистон миллий энциклопедияси Давлат нашриёти, 2002. 3 жилд – 658 б.
14. Ҳайитов З. Маънавий мерос ва миллий ўзликни англаш// Тафаккур. – Тошкент, 2007. – №3. – Б.112-113.



UDK 372.881.112.2:004

Mutabarxon BAXRIDINOVA,
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: m.bakhridinova@gmail.com

NDTU dotsenti P.Batirova taqrizi asosida

NEMIS TILINI O'QITISHDA RAQAMLI ILOVALAR: EMPIRIK DALILLAR

Аннотация

XXI asrni tom ma'noda raqamli renessans deyish mumkin. Bu jarayon nafaqat iqtisod va medizina sohasida, balki ta'lim sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Raqamlashtirish bo'yicha iqtisodiy sohalarida keng tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, aynan nemis tilini o'qitishda raqamli ilovalardan foydalanish yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu maqolada aynan shu sohada raqamli ilovalar yordamida nemis tili o'qitishning lingvodidaktik asoslari tahlil qilinadi. Maqolamizda o'quv jarayoniga ta'sir qiluvchi Quizlet, Duolingo Busuu, German linduo, Kahoot, Padlet, Mentimeter, Babel, Deutsch kompetent kabi raqamli ilovalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Raqamli ilovalar, kompetentlik, didaktik material, metodik va didaktik afzallik, til kompetensiyasi.

DIGITAL APPLICATIONS IN GERMAN LANGUAGE TEACHING: EMPIRICAL EVIDENCE

Аннотация

XXI century can rightly be described as a true digital renaissance. This transformation affects not only the fields of economics and medicine but also significantly influences the education sector. While extensive research has been conducted in the economic sphere regarding digitalization, the use of digital applications specifically in German language teaching remains underexplored. This article analyzes the linguodidactic foundations of using digital tools in the teaching of German. Particular attention is given to the impact of applications such as Quizlet, Duolingo, Busuu, German Linduo, Kahoot, Padlet, Mentimeter, Babel, and Deutsch Kompetent on the learning process.

Keywords: Digital applications, competence, didactic material, methodological and didactic advantages, language competence.

ЦИФРОВЫЕ ПРИЛОЖЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ НЕМЕЦКОМУ ЯЗЫКУ: ЭМПИРИЧЕСКИЕ ДАННЫЕ

Аннотация

XXI век по праву можно назвать эпохой цифрового Ренессанса. Этот процесс оказывает влияние не только на экономику и медицину, но и на сферу образования. Несмотря на то, что в экономических науках активно исследуются вопросы цифровизации, использование цифровых приложений в обучении немецкому языку изучено недостаточно. В данной статье рассматриваются лингводидактические основы преподавания немецкого языка с использованием цифровых инструментов. Анализируются такие приложения, как Quizlet, Duolingo, Busuu, German Linduo, Kahoot, Padlet, Mentimeter, Babel и Deutsch Kompetent, и их влияние на учебный процесс.

Ключевые слова: Цифровые приложения, компетентность, дидактический материал, методические и дидактические преимущества, языковая компетенция.

Kirish. So'nggi yillarda jamiyatda kechayotgan tub o'zgarishlar ta'lim sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Boshlang'ich ta'limdan tortib, oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlar, shuningdek, ta'lim ishtirokchilari - davlat, jamiyat va shaxslar, zamonaviy hayotning murakkab muammolariga moslashishga intilmoqda. Ushbu subyektlar faqatgina mavjud muammolarni aniqlash bilangina cheklanmay, balki ularni tahlil qilish, yechim ishlab chiqish va baholashga ham faol jalb qilinmoqda. Bunday yondashuv esa yangi axborotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va ijtimoiy muloqotga kirisha olish ko'nikmalarini talab etadi.

Xususan, nemis tilini o'qitish jarayonida kommunikativ yondashuv hamda texnologik kompetensiyaning ahamiyati ortib bormoqda. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar raqamli texnologiyalarning chet tilini o'rganishdagi samaradorligini oshirayotganini ko'rsatmoqda. Tadqiqot natijalari shuni anglatadiki, raqamli vositalar talabalarning motivatsiyasini kuchaytiribgina qolmay, balki til o'zlashtirish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi, motivatsiya va rang-baranglikka xizmat qiladi.

Bugungi raqamli ta'lim sharoitida talabalarning o'quv faolligini oshirish, ta'lim sifati va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion metodlarga asoslangan o'qitish shakllaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jumladan, amaliy o'yinlar, muammoli ta'lim, interfaol yondashuvlar, modul-kredit tizimi, masofaviy ta'lim, aralash (blended) o'qitish va mahorat darslari kabi zamonaviy yondashuvlar raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda tatbiq etilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Buyuk Britaniya olimasi Agnes Kukulska-Hulmening ishlari ko'proq mobil til o'rganish (mobile language learning), raqamli pedagogika va til ta'limidagi innovatsiyalar bilan bog'liqdir.

XXI asrda raqamli texnologiyalar til ta'limi sohasiga chuqur integratsiyalashib, an'anaviy o'qitish modellari bilan teng darajada samaradorlik ko'rsatayotgani ko'plab ilmiy izlanishlarda o'z tasdig'ini topmoqda. Shu nuqtai nazardan, Roumen Vesselinov va John Grego tomonidan o'tkazilgan empirik tadqiqotlar til o'rganishda mobil ilovalarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan muhim manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotlar, xususan, Duolingo va Busuu kabi raqamli platformalarda foydalanuvchilarning o'zlashtirish dinamikasini statistik asosda o'rganib chiqadi. Ushbu ko'rsatkichlar lingvodidaktik yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, o'rganish jarayonida faol chaqirish (retrieval practice), moslashtirilgan interaktivlik va mustaqil ta'limga yo'naltirish kabi elementlarning yuqori samaradorligini anglatadi.

Vesselinov va Grego tadqiqotlarining ahamiyatli jihati shundaki, ular til o'rganishda faqat didaktik emas, balki metodik va statistik jihatlarni ham chuqur o'rganishga alohida e'tibor qaratgan. Bu esa ushbu ilmiy ishlarni zamonaviy til o'qitish metodikalarini asoslashda ishonchli dalillar sifatida foydalanishga imkon yaratadi. Lingvodicadaktik nuqtai nazardan qaralganda, ularning ishlari raqamli ilovalarni nafaqat yordamchi vosita, balki asosiy o'quv platformasi sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi.

AQShdagi Purdue Universiteti olimi Jeffrey D. Karpicke kognitiv psixologiya, xotira, retrieval practice haqida izlanishlar olib borgan. Yana AQShlik mashhur olimlardan Mark Warschauer raqamli texnologiyalar, til o'rganish va ta'limdagi tenglik masalalari bo'yicha yetakchi mutaxassis hisoblanadi. Bu olim raqamli savodxonlik (digital literacy) va kompyuter orqali til o'rganish (CALL - Computer-Assisted Language Learning) hamda ularning lingvodicadaktika va til o'rganishga ta'siri borasida tadqiqotlar olib borgan. U 1990-yillardagi "integrativ CALL" konsepsiyasini rivojlantirib, texnologiyalarni real til vazifalariga integratsiya qilishni ilgari suradi. Alf Inge Wang raqamli texnologiyalar uzoq muddatda ishlatilganda talabalarning motivatsiyasi, e'tibor va interaktivlikda pasayishi mumkinligini aytib o'tgan, ya'ni "wear out effect"ni baholash yordamida yaratilgan Kahoot ni talabalardagi ilgari ko'rilmagan o'zgarishlarni tahlil qiladi va uni motivatsiya va o'qishga bo'lgan qiziqishni orttirishini aniqlagan. AQSh olimi Robert Godwin Jones raqamli savodxonlik, mobil til o'rganish, veb-2.0 ilovalari, o'qituvchilarning texnologiyadan foydalanishi bo'yicha o'z ilmiy tadqiqotlarini olib borgan. Uning fikricha, mobil qurilmalar ko'plab interaktiv va foydalanuvchi markazli o'qish imkoniyatlarini yaratgan, Mobil-Learning til o'qitishdagi motivatsiyani oshirib, talabalarga individual o'rganish strategiyalarini qo'llash imkonini beradi.

Bower, Dalgarno, Kennedy, Lee & Kenney kabi olimlar blended synchronous learning (aralash an'anaviy va masofaviy sinflar) muhitlari orqali o'rganish jarayonini tahlil qiladilar. Laurillard akademik xodimlar uchun universitetda ta'lim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan qanday foydalanish kerakligini sistematik tarzda ko'rsatadi[5]. U o'qituvchining rolini ilmiy natijalarga qarab shakllantirish va o'qitish sifati uchun yangi metodologik asoslar yaratish zarurligini ta'kidlaydi.

Raqamli ta'lim barcha horijiy tillar qatori shubhasiz DaF (Nemis chet til sifatida nemis tili) darslarining ajralmas qismiga aylangan. Dars jarayonida raqamli vositalardan foydalanish ko'plab afzalliklarga ega- vaqt va makondan mustaqillik, moslashuvchanlik, materiallarni qayta ishlatish, tarqatish, arxivlash, mazmunni gipermatn tarzida bog'lash va interaktivlikni shular qatoriga qo'shish mumkin. Raqamli vositalar yordamida talabalar o'zlarining til kompetensiyasini, madaniy kompetensiyalarini, media savodxonligini va jamoada ishlash hamda o'z-o'zini boshqarish kabi asosiy kompetensiyalarni rivojlantirishlari mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Chet tillarni raqamli ilovalar orqali o'qitish lingvodicadaktika sohasida so'nggi yillarda jadal rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar, xususan interaktiv til o'rganish platformalari va mobil ilovalar, an'anaviy o'qitish metodlariga nisbatan talabalarning til ko'nikmalarini shakllantirishda samaraliroq bo'lishi mumkin [1]. Ushbu ilovalar adaptiv o'quv dasturlarini yaratish imkoniyatini beradi, bu esa individual o'quv ehtiyojlari va o'rganish sur'ati hisobga olinishi bilan til o'rganishni yanada samarali qiladi[2]. Bundan tashqari, raqamli ilovalar yordamida til o'rganuvchilar kommunikativ til ko'nikmalarini amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, onlayn muloqot platformalari va virtual auditoriyalar nutqiy va eshitish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun keng

imkoniyatlar yaratadi [3]. Bu esa, o'z navbatida, til o'rganishda interaktivlik va kontekstual yondashuvni kuchaytiradi, ularning samaradorligini oshiradi.

Tahlil va natijalar. Quizlet. Bu til o'rganishda ko'p ishlatiladigan interaktiv kartochkalar vositasi bo'lib, talabalarga yangi so'zlarni yodlash va takrorlash jarayonini osonlashtiradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kartochkalar yordamida muntazam takrorlash va faollashtirilgan yodlash (active recall) til ko'nikmalarini samarali rivojlantiradi. Quizlet o'zining oddiy interfeysi va mobil ilovasi orqali har qanday talabaga moslashadi.

Duolingo. O'yinlashtirish (gamification) elementlari asosida yaratilgan til o'rganish platformasi bo'lib, foydalanuvchilarni doimiy ravishda mashq qilishga undaydi. Uning interaktiv testlari va motivatsion tizimi til o'rganishda motivatsiya va qat'iyatni oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Duolingo o'rganishni osonlashtiradi, ayniqsa mustaqil ta'lim darslarida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Busuu. Til o'rganishda kommunikativ yondashuvni kuchaytiruvchi platforma bo'lib, foydalanuvchilarga o'rganayotgan til sohiblari bilan muloqot qilish imkonini beradi. Bu real kontekstda tilni amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Platforma talabalarga interaktiv mashqlar va sinovlar taqdim etadi.

German Linduo, Nemis tilini o'rganish uchun maxsus ishlab chiqilgan raqamli platforma bo'lib, grammatika va lug'atni tizimli o'rgatishga qaratilgan. Interaktiv vazifalar yordamida til ko'nikmalari bosqichma-bosqich mustahkamlanadi. Platforma talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

Kahoot. O'yin asosida testlar va viktorinalar yaratish uchun qulay platforma bo'lib, talabalarni faol ishtirok etishga jalb qiladi. Bu vosita o'quv jarayonida bilimlarni mustahkamlash va baholashni interaktiv qilishi bilan ahamiyatlidir.

Padlet. Ijodiy hamkorlik uchun mo'ljallangan vizual platforma bo'lib, talabalar va o'qituvchilarga birgalikda kontent yaratish, g'oyalarni tartibga solish va fikr almashish imkonini beradi. Til o'rganishda interaktivlik va ijodiy yondashuvni kuchaytiradi.

Mentimeter. Mentimeter – bu interaktiv prezentatsiya va jonli so'rovnomalar yaratish platformasi bo'lib, u talabalar bilan dars davomida faol aloqa o'rnatishga imkon beradi. O'qituvchilar nemis tili amaliy darslarida Mentimeter yordamida auditoriyada jonli testlar, fikr so'rovlar, savol-javoblar o'tkazib, talabalarning mavzuni qanchalik tushunganligini real vaqtda aniqlashlari mumkin. Bu vosita ayniqsa onlayn yoki gibrid ta'lim sharoitlarida talabalarning faolligini oshirishda samarali hisoblanadi. Mentimeter interaktiv o'qitishda pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, talabalar ishtirokini rag'batlantirishga yordam beradi.

Babbel. Babbel – til o'rganishni strukturaviy va bosqichma-bosqich yondashuv orqali amalga oshiradigan platforma bo'lib, u foydalanuvchilarga lug'at, grammatika va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Babbel o'rgatish jarayonida kontekstual mashqlar, talaffuzni tahlil qilish va real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga qaratilgan topshiriqlarni taklif etadi. Bu vosita mustaqil o'rganish uchun mos bo'lib, til o'rganishning har xil darajadagi foydalanuvchilariga mo'ljallangan. Babbel platformasi talabalarning nemis tiliga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va til ko'nikmalarini kompleks rivojlantirishda samarador hisoblanadi.

Deutsch kompetent. Deutsch kompetent- nemis tilini o'qitish uchun mo'ljallangan raqamli platforma bo'lib, u talabalarning til kompetensiyasini (lug'at, grammatika, tinglab tushunish, yozma va og'zaki nutq) tizimli rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu platforma talabalarning bilimlarini test qilish va baholash uchun turli interaktiv testlar va mashqlarni

taqdim etadi. Deutsch kompetent o'qituvchilarga talabalarning individual ehtiyojlarini aniqlash va mos ta'lim materiallarini taklif etishda yordam beradi. Ushbu vosita til o'rganishda samarador bo'lish bilan birga o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi.

Shu bilan birga, nemis tilini raqamli ilovalar orqali o'qitishda yuzaga kelayotgan muammolar ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Masalan, texnologiyalarga bo'lgan ishonch, texnik bilim va infratuzilma cheklovlari ko'plab talabalarning samarali foydalanishini to'xtatib qo'yishi mumkin. Maqsadga erishish va vazifalarni hal qilish uchun quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi: tasnifiy va taqqoslovchi yondashuv, adabiyotlar tahlili, statistik tahlil va sotsiokultural yondashuv, til o'rgatish metodlarining tarixiy va zamonaviy ko'rinishlarini tahlil qilish, raqamli o'yinlar orqali til o'rgatish, gamifikatsiya yondashuvi.

Universitet chet tili ta'limida raqamli texnologiyalarni bevosita dars jarayoniga joriy etish masalalari yuzasidan asosan yevropa olimlari Agnes Kukulska-Hulme, Roumen Vesselinov va John Grego, Jeffrey D. Karpicke, Janelle Blunt, Mark Warschauer, Robert Godwin-Jones, Bower, Dalgarno, Kennedy, Lee & Kenney, Diana Laurillard, Jonathon Reinhardtlar ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ushbu tadqiqot ishlarining barchasida raqamli platformalarda talabalarning o'zlashtirish dinamikasini statistik asosda o'rganilgan, raqamli ilovalarning moslashuvchanlik va interaktivlik xususiyatlariga urg'u berilgan, qisqa qilib aytganda raqamli savodxonlikning lingvodidaktika va til o'rganishga ta'siri borligini hamda ularni til o'qitishdagi motivatsiyani oshirib, talabalarga til o'rganish strategiyalarini o'rgatishini ta'kidlaganlar [4]. Demak, raqamli ilovalarni nemis tili darslarida qo'llash tahlili shuni ko'rsatadiki:

Birinchidan, raqamli ilovalar ta'limni shaxsiylashtirish imkonini beradi. Talabalar o'z bilim darajasi va o'rganish tezligiga qarab materialni tanlab, individual tempda o'rganishlari mumkin. Bu esa an'anaviy darslarda mavjud bo'lmagan moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Ikkinchidan, raqamli ilovalar interaktivlik va multimodal taqdimot imkoniyatlarini taklif etadi, bu esa til o'rganish jarayonida eslab qolishni, tushunishni va amaliy qo'llashni kuchaytiradi. Video, audio, vizual materiallar bilan

boyitilgan mashg'ulotlar talabalarning barcha sensorli qabul qilish kanallarini faollashtiradi.

Uchinchidan, raqamli vositalar orqali talabalar real vaqtda baholash, orqaga aloqani tezkor olish, va o'z natijalarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. An'anaviy metodlarda bu jarayon ko'proq o'qituvchiga bog'liq bo'lgan bo'lsa, raqamli platformalar bu jarayonni avtomatlashtiradi va tezlashtiradi.

To'rtinchidan, raqamli ilovalar yordamida autentik materiallarga kirish (masalan, nemis tilidagi yangiliklar, podkastlar, bloglar) osonlashadi. Bu til o'rganishda kontekstual yondashuvni kuchaytiradi, talabalarda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar orqali hamkorlikda o'rganish (collaborative learning) imkoniyatlari kengayadi. Masalan, onlayn platformalarda guruh ishlari, bloglar, muhokama forumlari orqali talabalar o'zaro muloqot qilishadi, bu esa til ko'nikmalarini faol rivojlantiradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotning maqsadi- zamonaviy raqamli pedagogik vositalarning nemis tili o'qitish jarayoniga integratsiyasi orqali til o'rganish jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ilmiy asosda aniqlash va tizimli tahlil qilishdan iborat.

Nemis tili darslarida raqamli ta'lim platformalari va ilovalarning didaktik salohiyatini o'rganish, ularning o'quv jarayoniga kiritilishi til kompetensiyasining turli yo'nalishlariga (lug'at boyligi, grammatika, tinglab tushunish, yozma va og'zaki nutq) ta'sirini o'rganish; Talabalarning interaktiv va mustaqil o'rganish faoliyatini rag'batlantirishda raqamli vositalarning o'rni va ahamiyatini baholash;

Nemis tilini o'qitishda raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha o'qituvchilarning metodik kompetensiyalarini aniqlash va ularni oshirish yo'llarini tadqiq qilish; Ta'lim jarayonining sifatini yaxshilash maqsadida, raqamli ilovalarni samarali tanlash va didaktik nuqtai nazardan asoslash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Ushbu maqsad va vazifalar doirasida olib boriladigan tadqiqot natijalari nemis tili o'qitish jarayonida raqamli vositalarning integratsiyasini optimallashtirish, shuningdek, til o'rganish samaradorligini oshirishga qaratilgan konseptual va amaliy asoslarni yaratishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Godwin-Jones, R. (2015). Emerging technologies: Mobile-assisted language learning. *Language Learning & Technology*, 19(2), 2–11.
2. Kukulska-Hulme, A. (2020). Mobile-assisted language learning [Chapter]. In *The Cambridge Handbook of Language Learning* (pp. 275-293). Cambridge University Press.
3. Bower, M., Dalgarno, B., Kennedy, G. E., Lee, M. J. W., & Kenney, J. (2015). Design and implementation factors in blended synchronous learning environments: Outcomes from a cross-case analysis. *Computers & Education*, 86, 1-17.
4. Vesselinov, R., & Grego, J. (2012). Duolingo effectiveness study. City University of New York.
5. Wang, A. I. (2015). The wear out effect of a game-based student response system. *Computers & Education*, 82, 217-227.



UDK:811.512.133:34

Gulsara BERDALIYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti
E-mai:berdaliyevagulsara593@gmail.com

O'zMU dotsenti v.b D.Xudoyberganova taqrizi asosida

INCREASING THE EFFECTIVENESS OF LAW LESSONS UNDER THE INFLUENCE OF THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

The article scientifically analyzes the role of the Uzbek language in the legal education system of Uzbekistan, the influence of the native language in law lessons, and ways to increase the effectiveness of lessons. The methodological foundations of the Uzbek language, legal terminology, and the advantages of using the native language in the educational process are considered.

Keywords: Uzbek language, law, legal discourse, legal education, legal literacy, professional communication, pedagogical method.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ ПРАВА ПОД ВЛИЯНИЕМ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В статье научно анализируется роль узбекского языка в системе юридического образования Узбекистана, влияние родного языка на уроках права и пути повышения эффективности уроков. Рассматриваются методические основы узбекского языка, юридическая терминология, преимущества использования родного языка в образовательном процессе.

Ключевые слова: узбекский язык, право, юридический дискурс, юридическое образование, правовая грамотность, профессиональное общение, педагогический метод.

O'ZBEK TILI TA'SIRIDA HUQUQSHUNOSLIK DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonning huquqiy ta'lim tizimida o'zbek tilining roli, huquqshunoslik darslarida ona tilining ta'siri va darslarning samaradorligini oshirish yo'llari ilmiy tahlil qilinadi. O'zbek tilining metodik asoslari, huquqiy terminologiya va ta'lim jarayonida ona tilidan foydalanishning afzalliklari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, huquqshunoslik, huquqiy nutq, yuridik ta'lim, huquqiy savodxonlik, kasbiy kommunikatsiya, pedagogik metod.

Kirish. Mamlakatimizda huquqiy islohotlar chuqurlashib borar ekan, huquqshunos kadrlardan nafaqat yuksak bilim va malaka, balki to'g'ri va ravon huquqiy fikrlash, yuridik nutq madaniyatiga ega bo'lish talab etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish va uning rivojlantirilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmoni hamda Oliy ta'lim muassasalarida kasbiy yo'nalishga mos til o'qitilishini takomillashtirish borasidagi topshiriqlar bu yo'nalishda dolzarb vazifalarni belgilab bermoqda.

Huquqshunoslik sohasida ta'limning sifatini oshirish davlat tilining samarali qo'llanilishiga bog'liq. O'zbek tili nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki ilmiy va kasbiy til sifatida ham takomillashishi lozim. O'zbek tilining ta'lim jarayonidagi ta'siri huquqshunoslik fanlarini o'zlashtirishda, yuridik fikrlashni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi[1]. Shu bilan birga, til va metodika o'rtasidagi uzviy bog'liqlik darslarning samaradorligini belgilaydi.

O'zbek tilining huquqshunoslik darslarida o'rni.

O'zbek tili davlat tili sifatida huquqiy ta'lim jarayonida yetakchi o'rin tutadi. Ta'lim sohasida ona tilidan samarali foydalanish talabalarga qonun hujjatlarini to'g'ri tushunish, yuridik fikrlarni aniq ifodalash imkonini beradi[2].

Huquqshunoslik sohasida til – bu vosita emas, balki kasbiy faoliyatning ajralmas qismidir. Huquqiy hujjatlarni to'g'ri tuzish, qonunlar tahlilini amalga oshirish, sud muhokamalarida ishtirok etish, yuristning professional darajadagi tili orqali amalga oshiriladi.

Biroq, amaliyotda ko'plab yuridik darslar rus yoki boshqa tillarda o'tilishi, o'zbek tilida yetarli metodik materiallarning kamligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi[3].

2. Huquqshunoslikda o'zbek tilining metodik asoslari

O'zbek tilida yuridik terminologiya tizimini rivojlantirish va standartlashtirish ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Huquqshunoslik sohasida terminlar to'g'ri tushunilmasa, bilim sifati pasayadi[4].

Metodik jihatdan, maxsus o'quv qo'llanmalar, interaktiv dars usullari va tilni chuqur o'rganishga qaratilgan mashg'ulotlar ishlab chiqilishi muhimdir.

3. O'zbek tilining ta'siri va darslar samaradorligini oshirish yo'llari

3.1. Til orqali tushunishni yaxshilash

Til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, insonning dunyoqarashi, mantiqiy mushohada yuritish qobiliyati ham ko'p jihatdan til orqali shakllanadi. Ayniqsa, yuridik soha kabi murakkab va muayyan terminlarga boy sohalarda ona tilida bilim olish nafaqat tushunishni osonlashtiradi, balki tushunchalarni chuqurroq, mohiyatiga yetib borib o'zlashtirish imkonini beradi.[5]

Yuridik terminlar ko'pincha abstrakt, murakkab va ko'p ma'noli bo'lishi mumkin. Agar talaba bu tushunchalarni ona tilida o'rganadigan bo'lsa, u ularni kundalik hayotiy misollar bilan bog'lay oladi, ularning amaliy ahamiyatini anglaydi va mantiqiy asoslarini tahlil qilishga intiladi. Chet tilida ta'lim olgan hollarda esa, ba'zan atamalar tarjimasini

yod olishga urg'u beriladi, bu esa fikrning yuzaki shakllanishiga olib kelishi mumkin.

3.2. Terminologiyaning yagona tizimini yaratish

Yuridik terminlarning yagona standart asosida ishlab chiqilishi talabalarga huquqiy tushunchalarni chalkashliksiz, izchil va aniq anglash imkonini beradi. Bunday standartlashtirilgan yondashuv ta'lim jarayonida o'quv adabiyotlari, darsliklar va lug'atlarining yagona tushuncha asosida tuzilishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, huquqiy lug'atlarining muntazam yangilanib borilishi amaliyotda qo'llanilayotgan yangi termin va atamalarining talabalarga o'z vaqtida yetib borishini ta'minlaydi.[6]

3.3. Huquqshunoslikda lingvistik kompetensiya va uning rivojlantirish yo'llari

Lingvistik kompetensiya yuridik tilning grammatik, leksik va pragmatik jihatlarini o'z ichiga oladi. Bu kompetensiyaning rivojlanishi – nafaqat tilshunoslik, balki yuridik ta'lim jarayoni uchun ham strategik ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Ayniqsa, huquqiy hujjatlar, qonunlar, farmonlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarining aniqligi va izchilligi tilning to'g'ri qo'llanishiga bevosita bog'liqdir.

Grammatik kompetensiya yuridik nutqdagi sintaktik tuzilmalarning aniqligini ta'minlaydi. Huquqiy matnlar ko'p hollarda murakkab tuzilishga ega bo'lib, birgina tinish belgilarining noto'g'ri qo'yilishi yoki grammatik nomuvofiqlik huquqiy ma'noni butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin. Shuning uchun grammatika bilimlari yuridik tilni tushunish va tuzishda markaziy o'rin tutadi.

Leksik kompetensiya esa yuridik terminlar, atamalar va ularga xos ma'no nozikliklarini to'g'ri tanlay olish, sinonimlarning huquqiy qiymatini ajrata bilish ko'nikmasini shakllantiradi. Yuridik tilda har bir so'zning o'rni, u orqali ifodalangan tushuncha qat'iy belgilangan bo'lib, noto'g'ri so'z tanlovi huquqiy noto'g'riliklarga olib kelishi mumkin.

Pragmatik kompetensiya esa yuridik nutqning kommunikativ vazifasini to'g'ri anglash va uni aniq ifodalashni ta'minlaydi. Huquqiy jarayonda bu ayniqsa muhim: sud zalida nutq so'zlash, yuridik hujjat yozish, ariza yoki shikoyat bayon qilishda fikrni huquqiy, mantiqiy va diplomatik tarzda ifodalash ko'nikmasi talab etiladi.

Shu uchala jihat – grammatika, leksika va pragmatikaning uyg'un rivoji – lingvistik kompetensiyani shakllantiradi. Bu esa o'z navbatida yuridik sohada faoliyat yurituvchi shaxsning professional til madaniyatini oshiradi, huquqiy xatolarning, noto'g'ri talqinlarning oldini oladi va hujjatlarining rasmiy, huquqiy kuchini mustahkamlaydi.

3.4. Interaktiv o'qitish metodlarini joriy etish

Muloqotli, muammoli, vaziyatli va amaliy mashg'ulotlar orqali talabalarda til va yuridik bilimlarni birgalikda rivojlantirish mumkin. Bunday yondashuv ta'lim jarayonini interaktiv, faol va samarali qiladi. Ayniqsa yuridik ta'limda bu usullar orqali nafaqat nazariy bilimlar beriladi, balki ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari ham shakllanadi[7].

Muloqotli mashg'ulotlar — ya'ni bahs-munozaralar, rol o'yinlari, sud jarayonlarini simulyatsiya qilish (moot court) — talabalarni o'z fikrini ravon, asosli va huquqiy terminlarga tayangan holda ifoda etishga o'rgatadi. Bu jarayonda til boyligi, nutq madaniyati va yuridik fikrlash birgalikda rivojlanadi.

Muammoli va vaziyatli mashg'ulotlar orqali esa talabalar real hayotda yuz beradigan huquqiy holatlarni tahlil qilish, ularga huquqiy baho berish va tegishli qarorlar chiqarish ko'nikmasini egallaydi. Bu mashg'ulotlar tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlarini oshiradi. Muammo asosida bilim o'rganish metodikasi (Problem-Based Learning) talabaning faol ishtirokini talab qiladi, bu esa uning bilimni chuqurroq anglashiga yordam beradi[8].

3.5. Til va huquqiy madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni oshirish

O'zbek tilida yuridik bilimlarni chuqur o'zlashtirish fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Chunki huquqiy bilimlarning xalq tilida, oddiy va tushunarli shaklda yetkazilishi aholining huquqiy ongini shakllantirish, ularni o'z huquq va majburiyatlaridan xabardor qilishda muhim vosita sanaladi.

Yuridik bilimlar agar murakkab, begona va tushunarsiz atamalar orqali bayon etilsa, u fuqarolarning huquqiy normalarni to'g'ri tushunmasligiga, ularni hayotda qo'llay olmasligiga olib keladi. Shu bois, yuridik atamalarni o'zbek tilida to'g'ri, aniqligi saqlangan holda ifodalash, ularni xalqning tushunchasiga yaqinlashtirish – huquqiy ta'lim va targ'ibotda asosiy shartlardan biridir.

3.6. Huquqiy terminologiyaning ahamiyati va rivojlanishi

Huquqshunoslikda aniq va yagona terminologiya tilning izchilligini ta'minlaydi. O'zbek tilida yuridik atamalarni standartlashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ta'lim samaradorligini oshiradi va fuqarolarga huquqiy bilimlarni oson tushunishga yordam beradi.

3.7. Raqamli texnologiyalar va O'zbek tilida yuridik ta'limni rivojlantirish

Texnologiyalar yordamida onlayn kurslar, elektron lug'atlar, video darslar orqali o'zbek tilidagi yuridik bilimlarni yanada kengroq va qulayroq shaklda yetkazish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu ta'lim samaradorligini oshirishda yangi bosqichdir.

3.8. Til siyosati va huquqshunoslik ta'limidagi amaliyot

Davlat tilining huquqiy sohadagi o'rni va uning ta'lim jarayonida mustahkamlanishi jamiyatning huquqiy va madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeini barcha sohalarida, xususan, huquq tizimida mustahkamlash zarurati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, huquqshunoslikka ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarida davlat tilida sifatli va mukammal ta'lim berilishi huquqshunoslarning kasbiy salohiyatini oshirishda hal qiluvchi omil sanaladi.

Huquq – bu aniqlik, izchillik va tushunarlilikni talab qiluvchi soha. Shunday sharoitda davlat tilida yagona yuridik terminologiyani shakllantirish, qonun hujjatlarini o'zbek tilida mukammal va ravon tahrir qilish, o'quv adabiyotlarini o'zbek tilida yetarli darajada ishlab chiqish huquqiy tafakkurga ega mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Til siyosatini izchil rivojlantirish orqali yuridik ta'limda davlat tilining mavqei mustahkamlanadi, bu esa ona tilida yuksak huquqiy tafakkurga ega kadrlarning yetishib chiqishini ta'minlaydi.

4. Misollar va amaliy tajribalar

Toshkent davlat yuridik universitetida o'zbek tilida yuridik darslar samaradorligini oshirish uchun interaktiv metodlar va maxsus o'quv qo'llanmalari ishlab chiqilgan. Bu usullar ta'lim sifatining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi[9].

Shuningdek, 2021-yilda O'zbekiston Adliya vazirligi tomonidan o'zbek tilini huquqiy sohada keng qo'llash bo'yicha amalga oshirilgan kampaniya ta'lim jarayonidagi til samaradorligini sezilarli darajada oshirdi[10].

Xulosa. O'zbek tilining huquqshunoslik darslarida samarali qo'llanilishi nafaqat til siyosatini amalga oshirishda, balki yuridik ta'lim sifatini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Til orqali tushunishni yaxshilash, terminologiyani yagona tizimga keltirish, o'qituvchilar malakasini oshirish va interaktiv metodlarni joriy etish ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridir.

Shuningdek, O'zbek tilining ta'siri faqat huquqshunoslik darslarida samaradorlikni oshirish bilan cheklanmaydi. Bu, ayni paytda, huquqiy madaniyatni oshirish, yuridik tilning terminologiyasini rivojlantirish, zamonaviy

pedagogik usullarni tatbiq etish va davlat til siyosatini amalga oshirish kabi ko'plab sohalarni o'z ichiga oladi. Shu yo'l bilan yuridik ta'lim sifatini yanada yaxshilash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat tilini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent, 2020.
2. Sobirov, M. (2019). Huquqiy til va milliy madaniyat. Yuridik fanlar jurnali, 7(1), 33-41.
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. (2021). Sud hujjatlarining tiliga oid monitoring hisobot. Toshkent.
4. Rahimov, O. (2022). Huquqiy terminologiya muammolari. Huquqiy izlanishlar, 4(2), 45-53.
5. Toshpulatova, G. (2023). O'zbek tilini huquqshunoslikda o'qitish metodikasi. Til va ta'lim, 9(3), 78-86.
6. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Toshkent davlat yuridik universiteti. (2022). Huquqshunoslik terminlari lug'ati. Toshkent.
7. Alimov, J. (2024). Interaktiv metodlar yordamida huquqiy ta'limni rivojlantirish. Ta'lim jarayoni, 10(1), 55-63.
8. Xalqaro Til Tadqiqotlari Markazi. (2023). Yuridik o'zbek tili: metodik qo'llanma. Toshkent.
9. Toshkent davlat yuridik universiteti. (2023). Ichki ta'lim samaradorligi hisobotlari.
10. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. (2021). Davlat tilini huquqiy sohada rivojlantirish bo'yicha loyiha.



UDK: 101.3

Surayyo BERDIKULOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti
E-mail: s.berdikulova@gmail.com

O'zMU professori B.To'ychiyev taqrizi asosida

JAMIYAT IJTIMOIIY ONGIDA MAS'ULIYAT VA FAOL FUQAROLIK POZITSIYASINING O'SISHI

Annotatsiya

Ushbu maqola jamiyat ijtimoiy ongida mas'uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasining o'sish tendensiyalari, shuningdek, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi, ijtimoiy faollikning shakllanish omillari va fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi ishtiroki masalalari tahlil etiladi. Shu jumladan, fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga jalb qilish va demokratik institutlarni mustahkamlash orqali mas'uliyatli va faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy ong, mas'uliyat, fuqarolik pozitsiyasi, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy faollik, demokratik institutlar, huquqiy savodxonlik, fuqarolarning ishtiroki.

THE GROWTH OF RESPONSIBILITY AND AN ACTIVE CIVIC POSITION IN THE SOCIAL CONSCIOUSNESS OF SOCIETY

Annotation

This article analyzes the trends in the growth of the position of responsibility and active citizenship in the social consciousness of society, as well as the development of civil society, factors of the formation of social activity and the participation of citizens in the life of the state and society. Including, the ways of developing a responsible and active civic position are highlighted by increasing the legal literacy of citizens, involving them in socio-political processes and strengthening democratic institutions.

Key words: social consciousness, responsibility, civic position, civil society, social activism, democratic institutions, legal literacy, citizen participation.

РОСТ ОТВЕТСТВЕННОСТИ И АКТИВНОЙ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ В ОБЩЕСТВЕННОМ СОЗНАНИИ ОБЩЕСТВА

Аннотация

В данной статье анализируются тенденции роста ответственности и активной гражданской позиции в общественном сознании общества, а также вопросы развития гражданского общества, факторы формирования социальной активности и участия граждан в жизни государства и общества. В том числе освещаются пути развития ответственной и активной гражданской позиции путем повышения правовой грамотности граждан, вовлечения их в общественно-политические процессы, укрепления демократических институтов.

Ключевые слова: общественное сознание, ответственность, гражданская позиция, гражданское общество, социальная активность, демократические институты, правовая грамотность, участие граждан.

Kirish. Jamiyat ijtimoiy ongida mas'uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasining o'sishi – Yangi O'zbekistonda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalarning asosiy falsafiy yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayon nafaqat amaliy o'zgarishlarni, balki inson ongidagi qadriyatlar iyerarxiyasining yangilanishi, fuqarolik ongining shakllanishi va inson – jamiyat – davlat munosabatlarining yangi bosqichga ko'tarilishini ham anglatadi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida jamiyat ongining yuksalishi, shaxsning jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatini anglash jarayoni jadal kechmoqda. Bu jarayon faqat amaliy siyosat bilan emas, balki insonning falsafiy va ma'naviy-axloqiy o'sishi bilan chambarchas bog'liq o'lib, uning zaminida erkinlik, tanlov, burch va mas'uliyat kabi falsafiy tushunchalar yotadi.

Adabiyotlar tahlili. Sharq mutafakkirlari falsafasida ijtimoiy ongda mas'uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasining o'sishiga doir qarashlari insonning shaxsiy kamoloti, jamiyat oldidagi burchi va axloqiy mas'uliyatini falsafiy jihatdan chuqur ifodalab berilgan. Abu Nasr Forobiy «Fozil shahar ahlining qarashlari» asarida ijtimoiy hayotda mas'uliyatli shaxsni «fozil fuqaro» sifatida ta'riflaydi. Uningcha, fozil shaxs nafaqat o'z nafs, balki jamiyat farovonligi uchun faol

harakat qiladi. «Fozil odam boshqalar bilan foydali munosabatlar orqali hayot kechiradi. U shaxsiy sa'y-harakatini faqat o'z manfaatiga emas, jamiyatning umumiy yaxshiligiga yo'naltiradi[1]».

Imom al-G'azzoliy hazratlari esa «Ihyo ulum ad-din» asarida mas'uliyatni insonning Alloh va jamiyat oldidagi burchi sifatida talqin qiladi. U fuqaroning fikri va amali jamiyatda ezigulik yaratishi shartligini ta'kidlagan, ya'ni «Insonning so'zi va amali jamiyatda fisqu-fasod emas, foydali o'zgarish keltirmog'i lozim. Bu - uning iymoning bir qismidir[2]». Abu Ali ibn Sino «Siyosat ilmi» (Hikmatul Mashriqiya) asaridagi ijtimoiy falsafasida insonning kamoloti jamiyatdagi burch va mas'uliyatni anglash orqali vujudga kelishi ta'kidlanadi. Alloma «Inson o'z hayotini to'g'ri boshqarish bilan bir qatorda, boshqalarning hayotiga ham yorug'lik ulashmog'i shart[3]», - deydi.

Bundan tashqari Alisher Navoiy «Xazoyin ul-maoni» asarida fuqarolik mas'uliyatini insonning ruhiy tarbiyasi bilan bog'laydi. Unga ko'ra, haqiqiy inson jamiyatda adolat, mehr va mas'uliyat tamoyillariga asoslangan faollikni namoyon etadi. «Kishi foydasi yo'q jahonda, xalqqa ziyon etib yursa, u bilmadur o'z ma'nisi[4]». Bahouddin Naqshband hazratlari «Maqomoti Bahouddin» asarida «Dil ba yor, dast ba kor»

shiori fuqarolik faolligining ruhiy va amaliy birligini ko'rsatadi, ya'ni inson qalbida ezgulik, amalida jamiyatga foyda bo'lishi kerak. "Kishining haqiqiy kamoloti - xalq ichida yashab, xalqqa xizmat qilishdir[5]".

Atoullloh Bayzaviy (falsafiy tafsirchi) «Anvor at-tanzil» nomli asarida Qur'on tafsiri orqali fuqarolik burchi, islohot va ijtimoiy mas'uliyatning ilohiy ma'nosini bayon qiladi. "Jamiyatning islohi har bir fard(individ)ning islohidan boshlanadi. Fard o'zini to'g'ri tutsa, xalq isloh bo'ladi[6]".

Sharq mutafakkirlari falsafasida mas'uliyatga doir qarashlar 9-jadval

Mufakkir	Asar	Qarash mazmuni
Forobiy	Fozil shahar	Mas'uliyatli fuqaro – kamolot asosi
G'azzoliy	Ihyo ulum ad-din	Jamiyat oldidagi burch iymonning bir qismi
Ibn Sino	Siyosat ilmi	Kamolot – ijtimoiy faollik orqali
Navoiy	Xazoyin ul-maoniy	Ma'naviyat – fuqarolik axloqi asosi
Naqshband	Maqomat	Amaliy xizmat – shaxs kamoloti
Bayzaviy	Anvor at-tanzil	Jamiyat islohi – fard mas'uliyatidan boshlanadi

Fuqarolik ongi – ijtimoiy shartnoma falsafasi nuqtai nazaridan tahlil qilinganida Jan-Jak Russo va Jon Lokk kabi mutafakkirlar ijtimoiy shartnoma nazariyasi orqali jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tushuntirishgan. Bu nazariyaga ko'ra, "Davlat – bu fuqarolar o'zaro kelishuv asosida o'z huquqlarini himoya qilish uchun vujudga keltiradigan tashkilot[7]". Islohotlarning shaffofligi va xalq bilan muloqotga asoslangan siyosat (masalan, "Ochiq byudjet", "Mening fikrim", "Yoshlar parlamenti" kabi platformalar) orqali davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlarning yangi, teng huquqli shakli yuzaga kelmoqda. Bu jarayon fuqarolarda faol ishtirok va mas'uliyat tuyg'usini rivojlantiradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev fuqarolik mas'uliyatini jamiyat taraqqiyotining asosiy ustuni sifatida ta'kidlagan edi, ya'ni "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish – bu avvalo fuqaroning ongini uyg'otish, uni faol va mas'ul sub'yektga aylantirish demakdir[8]". Ushbu yondashuvda davlat tomonidan inson manfaatlarini oliy qadriyat sifatida belgilangan bo'lsa, inson tomonidan – jamiyat oldidagi burchni anglash va unga javobgarlikni qabul qilish ruhi shakllantirilmoqda.

Yangi O'zbekistonda jamiyat ongida mas'uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanishi jarayonida inson dunyoqarashidagi qadriyatlar iyerarxiyasining yangilanishi falsafiy jihatdan muhim transformatsiya hisoblanadi. Aslida qadriyatlar iyerarxiyasi – ongiy tartibning mezon sifatida talqin qilinishi ham to'g'ri hisoblanadi. Qadriyatlar iyerarxiyasi – inson dunyoqarashida muhim va kam muhim tushunchalar, ideallar, vazifalar va ma'nolarni o'zaro tartibga soluvchi falsafiy tuzilmadir. Mas'uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanishi bilan inson qadriyatlar tizimida mafkuraviy burch, ijtimoiy adolat, fuqarolik jasorati, tafakkur erkinligi, ijtimoiy faollik kabi tushunchalar ustuvor o'rin egallay boshlaydi. "Qadriyatlar faqat ma'lum guruh yoki shaxs uchun emas, balki jamiyatning bir butun ma'naviy payvandini belgilaydi. Ular ongda tartib bilan joylashadi va inson harakatiga yo'l boshchi bo'ladi[9]". Yangi O'zbekistondagi yangi qadriyatlar paradigmasi shakllanmoqda.

Bugungi kunda milliy falsafa va madaniy qadriyatlar uyg'unligi muammo qayta tahlilga muhtoj. Chunki, falsafa fanida qadriyatlar o'zgarishi – insonning o'zligini anglash, tarixiy xotirani qayta baholash, haqiqatga intilish bilan bog'liq. Bu holat Yangi O'zbekistonda milliy g'oya va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish bilan yaqqol ko'zga tashlanmoqda. "Qadriyatlar iyerarxiyasining yangilanishi – bu jamiyatda ma'naviy qimmatliklarni qayta ko'rib chiqish, yangi ma'nolar tizimini shakllantirishdir[10]".

Falsafa fanida fuqarolik ongi – inson ongining ijtimoiy-huquqiy va axloqiy funksiyalarini qamrab olgan, jamiyat taraqqiyotida faol sub'yekt sifatida shakllanishidir. Bu

ong insonning shaxsiy va ijtimoiy ongi uyg'unligining natijasidir. "Fuqarolik ongi – shaxsning erkinligi va mas'uliyati o'rtasidagi muvozanatning ongiy ifodasidir. U faqat huquq emas, burchni ham anglashga asoslanadi[11]". Yangi O'zbekiston sharoitida fuqarolik ongining qayta shakllanishi Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, Yangi O'zbekistonning ustuvor g'oyasi – "inson qadri"ni e'tirof etish va insonni davlat va jamiyat siyosati markaziga qo'yishdan iborat. Jamiyatimizning yangi ong va tafakkur asosida rivojlanishi, eng avvalo, fuqarolarning faolligi, mas'uliyati va huquqiy ongining yuksalishiga bog'liq. Fuqarolarning davlat ishlarda ishtirok etishi, saylov jarayonlariga faol jalb qilinishi, elektron boshqaruv va ommaviy axborotdagi faolligi – fuqarolik ongining yangi shakllarini yuzaga chiqaradi.

Fuqarolik ongi faqat huquqiy bilim emas, balki ma'naviy va axloqiy qarashlar bilan bog'liq. Mas'uliyat, adolat, burch, hamjihatlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlar uning negizini tashkil etadi. "Fuqarolik ongi yuksalishi axloqiy qadriyatlarni qayta qo'lga kiritish bilan chambarchas bog'liq. Ushbu qadriyatlar shaxsni jamiyatdagi voqeliklarga faol munosabat bildiruvchi sub'yektga aylantiradi[12]". Mishel Fuko ta'kidlaganidek, bilim va axborot inson ongini tarbiyalashning hukmron shakliga aylangan. Yangi O'zbekistonda media, internet va axborot platformalari fuqarolik ongini shakllantiruvchi asosiy maydonlardan biridir. "Hozirgi jamiyatda kuch – bu majburlash emas, bilimni boshqarish, axborotni targ'ib qilish orqali ongni shakllantirishdir"[13].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot jamiyat ijtimoiy ongida mas'uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasining o'sishini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida analiz va sintez, mantiqiylik, tarixiylik kabi metodologik yondashuvlardan foydalaniladi.

Natijalar va muhokama. Ijtimoiy ongda mas'uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasini o'stirishning bir qator ijtimoiy omillari mavjud. Dastlab, bu o'rinda shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar dialektikasini tahlil qilish muhim. Falsafiy nuqtai nazardan, inson ongi ijtimoiy tabiatga ega bo'lib, har bir shaxsning ongi jamiyat bilan, uning an'analari, qadriyatlari, mafkurasi va institutlari bilan shakllanadi. Muqaddas falsafiy qoidalardan biri – "inson jamiyatsiz rivojlana olmaydi, jamiyat esa ongli fuqarolarsiz taraqqiy etmaydi". Mas'uliyat – shaxsning jamiyat oldidagi vazifalarini anglab yetishi va bajarishga tayyorligi bo'lsa, faol fuqarolik pozitsiyasi – bu shaxsning jamiyat ishlarda ishtirok etishga intilishi hisoblanadi.

Ijtimoiy mas'uliyat – shaxsning jamiyat oldidagi burchi va javobgarligini anglashi va bu asosda faollik ko'rsatishini anglatadi. Bu holat falsafiy jihatdan axloqiy anglash orqali – inson "boshqalar"ning borligini va ular bilan

yonma-yon yashashini his etib, o'z harakatlarining ijtimoiy oqibatlarini hisobga oladi. Ma'naviy tanlov orqali shaxs faqat o'z manfaati emas, jamiyatning barqarorligi uchun ham mas'uliyatni his qiladi. J.P. Sartrening ekzistensial falsafasida bu holat "inson erkin, ammo erkinlik javobgarlik bilan keladi" degan g'oya bilan izohlanadi. Shaxs pozitsiyasi – bu faqat fikr emas, balki shaxsning bilish va anglash qobiliyati (jamiyatda nimalar sodir bo'lyapti?), tanlash qobiliyati (qaysi g'oyaga, arziyishga ishonadi?) va harakat qobiliyati (jamiyat hayotida faol ishtirok etadimi?) natijasidir. Bu pozitsiya insonning o'zligi, dunyoqarashi, qadriyatlar iyerarxiyasi va ichki e'tiqodi bilan bog'liq. Masalan, Yangi O'zbekistonda faol fuqarolik pozitsiyasi sifatida insonning ovoz berishda ishtirok etishi, mahalla va NNTlarda qatnashishi, jamoatchilik nazoratida ishtirok etishi, OAV orqali o'z fikrini bildirishi - shaxsiy pozitsiyaning amaliy namoyon bo'lishidir.

Falsafiy nuqtai nazardan ijtimoiy mas'uliyat va shaxsiy pozitsiya dialektik jarayonda yuzaga chiqadi va bu quyi ketma ketlikda namoyon bo'ladi: shaxs jamiyatdagi vaziyatlar, muammolar, arziyishlar orqali ongini shakllantiradi. Shakllangan ong esa shaxsni jamiyat hayotida faol qatnashishga undaydi. Bu faollik jamiyatda ijobiy o'zgarishlar kiritadi va navbatdagi avlod uchun yangi ijtimoiy muhit yaratadi. Gegelning ta'biri bilan aytganda: "Shaxs faqat umumiylik (jamiyat) ichida o'z mohiyatini topadi[14]". Demak, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar dialektikasi - ijtimoiy ongda mas'uliyat va faol pozitsiyaning tabiiy manbai hisoblanadi. Inson faqat jamiyat ta'sirida shakllanmaydi, balki uni o'zgartirish imkoniyatiga ham ega. Mas'uliyatli fuqarolik – bu jamiyatning ma'naviy yuksalish kafolatidir.

Ta'lim faqat bilim berish emas, balki fuqarolarning ongini, jamiyatdagi o'rnini aniqlashga xizmat qiluvchi strategik sohadir. Bu nuqtai nazardan Yangi O'zbekistonda "Fuqarolik ta'limi", "Ma'naviy-mafkuraviy tarbiya", "Yoshlar bilan ishlash" bo'yicha maxsus dasturlar amalga oshirilyapti. Yana bir ijtimoiy omil axborot oqimi va ommaviy madaniyat ham ijtimoiy ongga jiddiy ta'sir ko'rsatadi, uni transformatsiyalaydi. Mas'uliyatli fuqarolik ongini shakllantirishda shaffof axborot, mustaqil OAV, jamoatchilik nazorati va media savodxonlik muhim ahamiyatga ega. Bu orqali fuqaro jamiyatdagi jarayonlarga befarq bo'lmay, o'z haq-huquqini anglaydi va himoya qiladi. Falsafiy nuqtai nazardan OAV va raqamli madaniyat ijtimoiy ongning "tasvir oynasi" sifatida faoliyat yuritadi. Bu ijtimoiy omillarning musbat ta'sirlari shaffoflik va javobgarlikni talab qiladigan muhit yaratadi (jurnalistik tekshiruvlar, davlat tashkilotlarini tanqid qilish), fuqarolarni xabardor qiladi, huquqiy savodxonlikni oshiradi va jamiyatning dolzarb muammolarini keng muhokamaga qo'yadi. Masalan, korruptsiya, ekologiya,

ta'lim, gender tenglik kabi mavzular bo'yicha jurnalistik materiallar jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatni oshiradi. Salbiy ta'sirlari esa manipulyatsiya, feyk axborot, yolg'on targ'ibotlar fuqarolar ongini chalg'itishi mumkin. Bu holatda shaxsiy pozitsiya emas, ommaviy g'oyalarga ko'r-ko'rona ergashish yuzaga keladi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining rivoji, NNTlar, mahalla, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar va yoshlar tashkilotlarining faoliyati fuqarolarni ijtimoiy hayotga jalb etadi. Bu orqali odamlarda davlatga va jamiyatga daxldorlik hissi, ya'ni "men jamiyatning bir bo'lagiman va o'zgarishlarda ishtirokchiman" degan ong shakllanadi. Bu - mas'uliyatning va faol fuqarolikning asosiy belgisidir.

Institusional muhit – fuqarolik faolligi uchun sharoit yaratuvchi muhim asos hisoblanadi. Institusional muhit deganda NNTlar, mahalla, OAV, kasaba uyushmalari, partiyalar, davlat tashkilotlari va jamoatchilik kengashlari hisoblanib, bu tuzilmalar fuqarolarni jamiyat hayotiga jalb etish, ularni himoya qilish va faol pozitsiyaga ega bo'lishini rag'batlantiradi. Institusional muhit va fuqarolik mas'uliyati huquqiy kafolatlar, murojaat qilish tizimlari, ochiq eshiklar kunlari, davlat grantlari fuqarolarda javobgarlik va tashabbuskorlik hissinu uyg'otadi, jamiyatda "mening ovozim eshitiladi" degan ong shakllanadi. Biz raqamli madaniyatni yangi fuqarolik faolligining interaktiv maydoni sifatida ko'rishimiz mumkin. Raqamli madaniyat shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni raqamli vositalar orqali shakllantiradi. Uning asosiy xususiyatlari demokratik ishtirok ko'rinida elektron hukumat, elektron murojaat, "OpenBudget.uz", "Mening Fikrim" portali orqali fuqarolar tashabbusi va nazorati amalga oshiriladi. Bundan tashqari shaxsiy pozitsiyani bildirish maydoni sifatida Telegram, Facebook, YouTube orqali shaxs o'z fikrini erkin bildirishi, jamoatchilik muhokamasida ishtirok etishi mumkin.

Xulosa. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, jamiyat ongida faol fuqarolik pozitsiyasi va mas'uliyatning o'sishi – faqat institusional islohotlar natijasi emas, balki falsafiy g'oyalar - erkinlik va mas'uliyat birligi, ijtimoiy shartnoma madaniyati, axborotlashtirilgan ong va fuqaroning sub'yekt sifatida shakllanishi natijasidir. Bu jarayon Yangi O'zbekistonda demokratik jamiyat poydevorini mustahkamlash, ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy yuksalishga zamin yaratadi.

Xullas, Yangi O'zbekistonda fuqarolik ongi shaxsiy manfaatdan jamiyat burchigacha bo'lgan ong yuksalishi, axborotdan xulosa, xulosadan faollikka o'tish jarayoni, huquqiy bilim va ma'naviy burch uyg'unligi, milliy va global tafakkur o'rtasidagi balansli yondashuv sifatida falsafiy va amaliy jihatdan shakllanib bormoqda.

ADABIYOTLAR

1. Форобий Абу Наср. Фозил шаҳар аҳлининг қарашлари, Тошкент: Ўзбекистон, 1993, 34-бет
2. Ғаззолий Абу Ҳомид. Ихё улум ад-дин, 1-том, Қоҳира нашри, 2004, 87-бет.
3. Абу Али ибн Сино Сиёсат илми, Тошкент, 1997, 43-бет.
4. Хазойин ул-маонӣ, Тошкент: Фан, 1987, 102-бет.
5. Баҳвуддин Нақшбанд. Мақомоти Баҳоуддин, Тошкент: Ҳидоят, 1994, 28-бет
6. Атоуллох Байзавий Анвор ат-танзил, Қоҳира, 2002, 121-бет.
7. Руссо Ж.-Ж. Об общественном договоре. М.: Наука, 1969. – Б. 54
8. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: "Ўзбекистон", 2021. – Б. 136
9. Назаров Қ. Фалсафа асослари, Тошкент: Фан, 2005. – Б. 176
10. Хасанов Ж.Т. Маънавий юксалиш фалсафаси, Тошкент: Муҳаммад ал-Хоразмий, 2020. – Б. 93
11. Саломов А. Фуқаролик жамияти ва ижтимоий онг. – Тошкент: Фан, 2019. – Б. 84
12. Хасанов Ж.Т. Маънавий юксалиш фалсафаси. – Тошкент: Муҳаммад ал-Хоразмий, 2020. – Б. 105
13. Foucault M. Power/Knowledge. – Pantheon, 1980. – p. 122
14. Гегель В.Г. Философия права, 1821. –С



UDK 612: 796.10

Nilufar BOBOYAROVA,
O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail nilufar@gmail.com

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent A.Abdumannotov taqrizi asosida

ANORGANIK KIMYO FANINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA O'QITISHNING YANGI BOSQICHI

Аннотация

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida kimyo fanining raqamli transformatsiyasi va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari yordamida o'qitishning yangi bosqichi tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning ta'limdagi o'rni, ayniqsa anorganik kimyo fanini samarali va interaktiv o'qitishda tutgan o'rni yoritiladi. Sun'iy intellekt vositalari orqali o'quv jarayonini individuallashtirish, murakkab kimyoviy jarayonlarni vizualizatsiya qilish, tahlil qilish va virtual laboratoriyalar yaratish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi o'qitish metodikasi o'quvchilarda chuqur fanlararo tafakkurni shakllantirish, mustaqil fikrlash va tajribaviy bilimlarni rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalarini kimyo ta'limiga samarali integratsiya qilish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli transformatsiya, kimyo ta'limi, anorganik kimyo, interaktiv o'qitish, virtual laboratoriya, ta'lim texnologiyalari, o'qitish metodikasi, fanlararo integratsiya, AI pedagogik vositalari.

DIGITAL TRANSFORMATION OF INORGANIC CHEMISTRY: A NEW PHASE OF TEACHING USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Annotation

This article analyzes a new stage in teaching chemistry within the modern education system through digital transformation and artificial intelligence (AI) technologies. It highlights the role of digital technologies in education, particularly in enhancing the efficiency and interactivity of teaching inorganic chemistry. The paper discusses the opportunities AI tools provide for individualizing the learning process, visualizing and analyzing complex chemical processes, and creating virtual laboratories. It also emphasizes that AI-based teaching methods help students develop deep interdisciplinary thinking, independent reasoning, and practical knowledge. The research findings include scientific and methodological recommendations for the effective integration of AI technologies into chemistry education.

Key words: artificial intelligence, digital transformation, chemistry education, inorganic chemistry, interactive teaching, virtual laboratory, educational technologies, teaching methodology, interdisciplinary integration, AI pedagogical tools.

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ: НОВЫЙ ЭТАП ОБУЧЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация

В данной статье анализируется новый этап преподавания химии в современной образовательной системе посредством цифровой трансформации и технологий искусственного интеллекта (ИИ). Освещается роль цифровых технологий в образовании, особенно в повышении эффективности и интерактивности преподавания неорганической химии. Обсуждаются возможности индивидуализации учебного процесса с помощью ИИ-инструментов, визуализации и анализа сложных химических процессов, а также создания виртуальных лабораторий. Подчеркивается, что методики обучения на основе ИИ способствуют формированию у учащихся глубокого междисциплинарного мышления, развитию самостоятельного мышления и практических знаний. Результаты исследования включают научно-методические рекомендации по эффективной интеграции технологий ИИ в химическое образование.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровая трансформация, химическое образование, неорганическая химия, интерактивное обучение, виртуальная лаборатория, образовательные технологии, методика преподавания, междисциплинарная интеграция, педагогические ИИ-инструменты.

Kirish. XXI asrda axborot texnologiyalari rivojining jadal sur'atlari ta'lim tizimini tubdan o'zgartirishga olib kelmoqda. Raqamli transformatsiya jarayoni ta'limga ilg'or texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt (SI) vositalarini faol joriy etishni talab etmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlar ichida kimyo fani o'zining murakkab struktura va tushunchalari bilan zamonaviy o'quvchilardan nafaqat bilim, balki tasavvur, tahlil qilish, modellashtirish va tajribaviy yondashuvni ham talab qiladi[1]. An'anaviy kimyo ta'limi - ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlariga asoslangan bo'lib, har doim ham barcha o'quvchilarda chuqur va barqaror bilim hosil qilmasligi mumkin. Bunday holatda, sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi bu sohadagi yangi bosqichni

boshlab berdi. SI vositalari yordamida interaktiv o'quv muhitlarini yaratish, murakkab kimyoviy jarayonlarni vizualizatsiya qilish, talabalar bilimini avtomatik tahlil qilish, shuningdek, virtual laboratoriyalar orqali amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyati yuzaga keldi [4].

Raqamli transformatsiya deganda faqat texnik vositalarning joriy qilinishi emas, balki o'quv jarayonining mohiyatan yangilanishi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatning o'zgarishi, hamda o'qitish metodikalarining innovatsion yondashuvlar asosida shakllanishi tushuniladi[2]. Bunday yondashuvlar nafaqat bilim berishga, balki o'quvchilarning ijodkorligi, tanqidiy

fikrlashi va fanlararo tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi[5].

Ushbu maqolada kimyo fanining, ayniqsa anorganik kimyo yo'nalishining sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida o'qitilishi, bu yo'ldagi yangi bosqich, ilg'or metodik yondashuvlar va raqamli transformatsiyaning ta'lim sifati va samaradorligiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Kimyo fanining o'qitilishi tarixan an'anaviy yondashuvlarga asoslanib kelgan. Ushbu yondashuvlarda asosiy diqqat ma'ruza, laboratoriya mashg'ulotlari va darsliklar orqali bilim berish jarayoniga qaratilgan. Har bir fan kabi, kimyo fanini o'rgatishda ham o'qituvchining roli muhimdir, chunki o'qituvchi o'quvchilarga nazariy bilimlarni yetkazib, amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi [1].

Tahlil va natijalar. Ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlari. An'anaviy ta'limda ma'ruza - bu o'qituvchining ma'lumotlarni talabalar oldida bir tomonlama bayon etishi. Bu usul o'quvchilarga keng bilimlarni tez va samarali etkazib berish imkonini yaratadi, ammo bu usulda o'quvchilar faqat tinglovchi bo'lib qolishadi[2]. Laboratoriya mashg'ulotlari esa kimyo fanining amaliy jihatlarini o'rganishda muhim rol o'ynaydi, chunki kimyo tajribalari orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham egallaydilar[3]. Biroq, an'anaviy usullarning ba'zi cheklavlari mavjud. Birinchidan, ko'rgazmalilikning yetishmasligi o'quvchilar uchun murakkab kimyoviy jarayonlarni tushunishni qiyinlashtiradi[4]. Kimyo tajribalari uchun maxsus laboratoriya jihozlari, kimyoviy moddalar va xavfsizlik choralari talab qilinadi. Shuning uchun ko'pgina umumiy o'rta ta'lim muassasalarida zarur laboratoriya resurslarining yo'qligi, shuningdek, o'qituvchilarning cheklangan vaqti o'quv jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [5].

An'anaviy kimyo ta'limining asosiy cheklavlaridan biri-bu shaxsiylashtirilmagan yondashuvdir. Ko'plab o'quvchilar bir xil tezlikda o'qiyotganligi sababli, ba'zi o'quvchilar uchun materiallarni o'zlashtirish jarayoni qiyinlashishi mumkin [6]. Bu esa, o'z navbatida, kimyo fanining to'liq tushunilmasligiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, laboratoriya mashg'ulotlari ham o'quvchilarning barcha kimyoviy reaksiyalarni ko'rishiga imkon bermaydi, chunki bu jarayonlar ko'pincha xavfli yoki qimmatbaho materiallarni talab qiladi [7].

Natijada, simulyatsiya yoki virtual laboratoriya kabi interaktiv vositalar yordamida jarayonlarni taqdim etish imkoniyati mavjud emas[8].

An'anaviy o'qitish metodikasining kamchiliklarini bartaraf etish zarurati

An'anaviy kimyo o'qitish metodikasining cheklavlari zamonaviy o'quvchilarning ehtiyojlariga javob bermaydi. Shunday qilib, kimyo o'qitishida yangi, ilg'or metodikalarga ehtiyoj paydo bo'lmoqda. Bu metodikalar sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish orqali, talabalar uchun interaktiv, individual va samarali o'qish muhitini yaratishga imkon beradi [9;16]Shu bilan birga, sun'iy intellekt yordamida kimyoviy jarayonlarni simulyatsiya qilish, molekulyar modellashirish va virtual tajribalar o'quvchilarga ko'proq amaliy ko'nikmalarni egallashga yordam beradi [10;9] Shunday qilib, an'anaviy ta'lim usullarining kimyo faniga samarali o'qitishdagi o'rni katta bo'lsa-da, ularning cheklavlari mavjud. Bu cheklavlarni bartaraf etish va o'qitishning sifatini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasi kerakligi ko'rsatiladi.

Raqamli transformatsiya tushunchasi. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Bu atama ta'limning shakli, mazmuni, metodikasi va vositalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tubdan o'zgarishini anglatadi [8].

Raqamli transformatsiya oddiy kompyuterlashtirish yoki elektron platformalar bilan cheklanmaydi. U ta'lim jarayonini, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqalarni, bilimni yetkazish va egallash usullarini kompleks tarzda raqamlashtirishni o'z ichiga oladi[6].

Ta'limda sun'iy intellektning kirib kelishi. Raqamli transformatsiyaning markazida bugungi kunda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari turibdi. SI vositalari o'quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash, ularning bilim darajasiga mos kontent yaratish, baholash jarayonini avtomatlashtirish, shuningdek, o'qituvchiga metodik tavsiyalar berish imkonini yaratadi [9]. O'z navbatida, bu texnologiyalar o'qituvchining yuklamasini kamaytirish, ta'lim sifatini oshirish va talabaning faolligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi [10].

O'qituvchining va o'quvchining o'zgarayotgan roli. Raqamli transformatsiya natijasida o'qituvchining roli an'anaviy "bilim beruvchi"dan "yo'naltiruvchi, koordinator" rolga o'zgarib bormoqda [2]. Endilikda o'qituvchi o'quvchilarga tayyor bilimlarni emas, balki bilimni topish, tahlil qilish va undan foydalanish yo'llarini o'rgatadi. Bu jarayonda o'quvchilar esa passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanmoqda [5].

Transformatsiyaning kimyo faniga ta'siri. Tabiiy fanlar, xususan kimyo fanida bu o'zgarishlar sezilarli darajada namoyon bo'lmoqda. Kimyo fanining abstrakt tushunchalari - atomlar, molekularlar, kristall panjaralari, elektron konfiguratsiyalar-o'quvchilarda ko'rgazmali tarzda tushunilishini talab qiladi. Shu sababli, raqamli texnologiyalar yordamida vizualizatsiya, simulyatsiya va interaktiv muhitlarni yaratish ta'lim samaradorligini sezilarli oshirmoqda[3].

Sun'iy intellekt texnologiyalari o'quvchilar bilimini real vaqtda tahlil qilish, dars jarayonini moslashtirish, yakka tartibda ishlash imkonini beradi. Natijada har bir talaba o'z imkoniyati va qiziqishidan kelib chiqib o'qiydi. Bu esa raqamli transformatsiyaning eng asosiy ustunligidir [12].

Sun'iy intellektning kimyo faniga ta'siri. So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, murakkab mantiqiy va abstrakt tushunchalarga boy bo'lgan kimyo fanida SI vositalari o'quvchilarning tushunish, tahlil qilish, vizual idrok va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutmoqda[9].

Molekulalar va strukturalarni 3D vizualizatsiya qilish. Sun'iy intellekt yordamida molekularlar, atomlar, ionlar, kristall panjaralari kabi murakkab kimyoviy tuzilmalarni uch o'lchamli (3D) shaklda modellashtirish mumkin. Bu o'quvchilarga molekularlarning shakli, joylashuvi va bog'lanishini ko'z bilan idrok etish imkonini beradi.

Misol uchun, AI platformalari yordamida NaCl kristall panjarasining qanday tuzilgani yoki molekularlarning fazoviy konfiguratsiyasini ko'rsatish mumkin [3].

Reaksiya tenglamalarini avtomatik tuzish va tahlil qilish. Sun'iy intellekt algoritmlari orqali o'quvchilarning yozgan reaksiya tenglamalarini avtomatik tarzda tahlil qilish, xatoliklarni aniqlash, to'g'ri variantni taklif etish, hattoki reaksiyaning energetik jihatlarini tushuntirish mumkin. Bu nafaqat mashg'ulot vaqtini tejaydi, balki talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi [10]

Individual yondashuv va adaptiv o'qitish. SI vositalari har bir o'quvchining bilim darajasi, tushunish tezligi va xatolarini aniqlab, unga mos individual topshiriqlar va resurslar taklif qiladi [12] Bu metod o'quvchilarni o'ziga xos yondashuv orqali rivojlantiradi va natijada ular fanga bo'lgan qiziqishni yo'qotmaydi. Ayniqsa, anorganik kimyoda bu yondashuv juda muhim, chunki elementlar, ionlar va oksidlanish-qaytarilish jarayonlarini tushunish individual yondashuvni talab qiladi [4]

Virtual laboratoriya muhiti. AI asosida yaratilgan virtual laboratoriyalar orqali o'quvchilar real tajriba o'tkazgandek simulyatsiyalash imkoniga ega bo'lishadi. Bunday tajriba vositalari:

Xavfsiz,

Arzon,

Har doim foydalanish uchun ochiq

Virtual muhitlarda o'quvchi reaktivlarni tanlaydi, ularni aralashtiradi va reaksiyalarni natijalari bilan birga kuzatadi. Bu orqali kimyo fanini tushunish darajasi ortadi, laboratoriya amaliyoti esa real tajriba darajasiga yaqinlashadi [11] O'qituvchilar uchun yordamchi vositalar

Sun'iy intellekt nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar uchun ham qulayliklar yaratadi. Misol uchun:

Dars rejalarini avtomatik tuzish,

O'quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish,

Sifatli testlar va topshiriqlar yaratish imkonini beradi

[9]

Shuningdek, AI yordamida talabalar savollariga avtomatik javob beruvchi pedagogik chatbotlarni yaratish mumkin. Bu o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarida ham bilim olishini ta'minlaydi [8]



Adaptiv testlash va baholash

AI tizimlari o'quvchilarning bilimini diagnostika asosida baholab, qaysi mavzularni yaxshi o'zlashtirgan va qayerda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlaydi. Bu esa o'qituvchiga individual yondashuv uchun zamin yaratadi [12]. O'qituvchilar uchun AI yordamchi platformalari. Sun'iy intellekt asosida tuzilgan platformalar yordamida o'qituvchi:

laboratoriya topshiriqlarini yaratishi,

animatsiyalar va tajriba simulyatsiyalarini tanlashi,

test tizimini avtomatlashtirishi mumkin [11].

Shunday qilib, AI vositalari anorganik kimyoni o'rgatishda ko'p funksiyali, moslashuvchan va samarali metodik yechimlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Xulosa. Zamonaviy ta'lim dunyosida raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalari tabiiy fanlar, xususan, kimyo fanining o'qitilishida yangi bosqichni boshlab berdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, AI vositalari yordamida o'quvchilarda ko'rgazmali idrok, mustaqil tahlil,

Anorganik kimyo fanini sun'iy intellekt asosida o'qitish metodikasi

Anorganik kimyo fani ko'plab nazariy tushunchalar, formulalar, reaksiya tenglamalari, elementlar xossalari va ular orasidagi qonuniyatlarga boy bo'lib, uni o'qitishda ko'rgazmalilik, strukturaviy tahlil, reaksiyalarni kuzatish va amaliyot bilan bog'lash muhim ahamiyat kasb etadi [3] Sun'iy intellekt bu yo'nalishda quyidagi yo'llar bilan ta'lim samaradorligini oshiradi:

AI asosida modellash. O'quvchilar AI yordamida murakkab modda strukturalari, elektron konfiguratsiyalar, oksidlanish darajalari va bog'lanish turlarini 3D ko'rinishda modellashdirib, ularning xossalari tushunishda aniq tasavvur hosil qiladilar [10]

Interaktiv elektron darsliklar. AI integratsiyalangan interaktiv darsliklar orqali o'quvchilarga moslab kontentlar, misollar, testlar va tushuntiruvchi grafikalar avtomatik tarzda taqdim tiladi [4] Masalan, $Mg + HCl$ reaksiyasining mexanizmi va natijasini real vaqt rejimida tushuntirib beruvchi tizimlar mavjud.

tezkor fikrlash va fanlararo integratsiya ko'nikmalari shakllanmoqda [9]

Xususan, anorganik kimyoda:

murakkab reaksiyalarni tahlil qilish,

strukturaviy modellashdirish,

interaktiv laboratoriya mashg'ulotlari AI orqali oson, qiziqarli va chuqurroq o'rganilmoqda [3].

Maqolada keltirilgan natijalar asosida quyidagicha xulosa qilish mumkin:

An'anaviy metodlar biryoqlama bo'lib, individual yondashuvga yetarlicha imkon bermaydi. AI texnologiyalari o'quvchilarning ehtiyojiga moslashadi, ko'rgazmalilikni oshiradi va tahliliy fikrlashni rag'batlantiradi.

O'qituvchi endilikda darsni boshqaruvchi emas, balki yo'naltiruvchi aylanmoqda. Sun'iy intellekt yordamida anorganik kimyo fanini zamonaviy metodlar asosida o'qitish o'quv jarayonini yangilash, takomillashtirish va sifat jihatidan yuksaltirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Xasanov S. A., Zamonaviy kimyo ta'limi: muammo va yechimlar, Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. Karimova D. T., Raqamli ta'lim muhitida o'qituvchining roli, Pedagogik innovatsiyalar jurnali, №4, 2021.
3. Akhmedov U. R., Anorganik kimyo va texnologiyalarning integratsiyalashuvi, Samarqand: Ilm ziyo nuri, 2019.
4. Johnson M. & Warner B., Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications, New York: Springer, 2020.
5. Tashpulatova N. M., STEM yondashuvining tabiiy fanlar ta'limidagi o'rni, O'zbekiston pedagogika jurnali, №1, 2022.
6. Rasulov F. R., Kimyo fanining didaktik asoslari, Toshkent: Fan, 2018.
7. Turing A., Computing Machinery and Intelligence, Mind Journal, 1950.
8. Lee M. & Tan H., Digital Transformation in Education: From Concepts to Practice, Singapore: EduTech Press, 2021.
9. Sharipova L. K., Virtual laboratoriya vositalarining kimyo ta'limidagi samaradorligi, Ilmiy-amaliy seminar materiallari, 2022.
10. OECD, AI and the Future of Skills, Paris: OECD Publishing, 2021.
11. Omonov I. I., Fanlararo yondashuv asosida o'qitish metodikasi, Andijon: Barkamol Avlod, 2020.
12. Abdullayev B. Z., Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar ta'limda, Innovatsion ta'lim jurnali, №3, 2023.



UDK 612: 796

Zayniddin BOLTAYEV,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori
E-mail: boltayevzayniddin4811@gmail.com

Professor J.Eshnazarov taqrizi asosida

MURABBIY FAOLIYATINING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK JIHLTLARI

Аннотация

Mazkur maqolada murabbiy faoliyatining psixologik va pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahlilida murabbiylarning pedagogik va texnik tayyorgarliklari masalasiga katta ahamiyat berilganligi masalasi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: murabbiy, sport, sportchi, faoloyat, natija, musobaqa.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ТРЕНЕРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье анализируются психолого-педагогические аспекты деятельности тренера. Также анализ исследований, проведенных узбекскими учеными, показывает, что большое значение придается вопросу педагогической и технической подготовки тренеров.

Ключевые слова: тренер, спорт, спортсмен, деятельность, результат, соревнование.

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF COACHING ACTIVITIES

Annotation

This article analyzes the psychological and pedagogical aspects of the coach's activities. Also, the analysis of studies conducted by Uzbek scientists shows that great importance is attached to the issue of pedagogical and technical training of coaches.

Key words: coach, sport, athlete, activity, result, competition.

Kirish. Murabbiylik faoliyati sport tizimining eng muhim va murakkab komponentlaridan biri bo'lib, sportchilarni yuqori natijalarga erishishga tayyorlashda asosiy rol o'ynaydi. Bu faoliyat sportchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishini, balki psixologik, ijtimoiy va intellektual imkoniyatlarini ham kengaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli zamonaviy murabbiylarning texnik bilimlari va pedagogik kompetensiyalari bir-birini to'ldiruvchi sifatida o'rganilishi zarur. O'zbekistonda ham sport sohasidagi davlat siyosati murabbiylar tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratmoqda. Prezidentimizning sport sohasidagi islohotlarga qaratilgan bir qator qarorlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-421-sonli qarorida yosh sportchilarni tayyorlashda murabbiylarning pedagogik va psixologik kompetensiyalarini oshirish zarurati ta'kidlangan. Mazkur qarorda murabbiylar faoliyatiga zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodikalarini tatbiq etish orqali sportchilarning natijalarini oshirish vazifasi qo'yilgan.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda dunyo sport amaliyotida murabbiylik faoliyati ilmiy asoslangan texnologiyalar, ilg'or pedagogik usullar va psixologik yondashuvlar bilan uzviy bog'liq ravishda olib borilmoqda. Murabbiylik texnikasi va pedagogik rivojlanishi mavzusini tadqiq etishda xorijiy mamlakatlar tajribasi ham alohida ahamiyatga ega. Jumladan, AQSh, Kanada, Germaniya va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarda murabbiylarni tayyorlash dasturlarida ilmiy-texnik va pedagogik yo'nalishlarning integratsiyasi keng joriy qilingan (Lyle & Cushion, 2017). Bu mamlakatlarda murabbiylar maxsus o'quv kurslari, seminarlar va malaka oshirish dasturlari orqali doimiy ravishda yangi bilimlar bilan tanishtirib boriladi. Natijada, sportchilarni tayyorlash jarayoni samaradorligi oshadi va sportchilarning musobaqalardagi natijalari yaxshilanadi. Murabbiy sportchilarning nafaqat jismoniy, balki

psixologik va pedagogik jihatdan ham rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy sport pedagogikasi murabbiyning o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etish, sportchilar motivatsiyasini oshirish vaularning psixologik tayyorgarligini rivojlantirish qobiliyatini talab qiladi (Weinberg & Gould, 2018). Murabbiy sportchilar bilan muloqotda pedagogik tamoyillarga tayanishi, ularning individual xususiyatlarini hisobga olishi hamda rag'batlantirish usullarini samarali qo'llashi muhim ahamiyat kasb etadi (Bompa, 2015; Toshpo'latov, 2019).

Shuningdek, O'zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham murabbiylarning pedagogik va texnik tayyorgarliklari masalasiga katta ahamiyat berilgan. Jumladan, R.X.Kadirov (2021) tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda murabbiylarning kasbiy-pedagogik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar chuqur tahlil qilingan. Unga ko'ra, murabbiylarning texnik bilimlari va pedagogik mahoratlari ularning sportchilar bilan samarali ishlashi va yuqori natijalarga erishishlarida asosiy vosita hisoblanadi. Olimning fikricha, murabbiylarning texnik bilimlari pedagogik kompetensiyalari bilan mustahkam bog'lanmasa, natijalar past bo'lishi mumkin (R.X.Kadirov, 2021). Murabbiylik faoliyatida shaxsiy yondashuv asosiy o'rin tutadi. Har bir sportchi o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, ularning muvaffaqiyatga erishishi ko'pincha murabbiyning individual yondashuvi va psixologik qo'llab-quvvatlashiga bog'liq bo'ladi (Lyle, 2002; Tashkenbayev, 2021). Shuningdek, sportchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, stress bilan kurashish qobiliyatini rivojlantirish ham murabbiy faoliyatining muhim qismidir (Smith, 2010). Zamonaviy sportda yuqori natijalar katta hajmli va umumiy hamda maxsus mashqlarning intensivligida muntazam mashg'ulotlar fonida kuchli jismoniy va ruhiy mehnat orqali erishiladi.

Tahlil va natijalar. Murabbiyning psixologik tayyorgarligi murabbiylik san'atining ajralmas qismi bo'lib, uning sportchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatishida muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy murabbiy nafaqat texnik va taktik jihatdan, balki psixologik va kommunikativ ko'nikmalar bo'yicha ham yetuk bo'lishi kerak. Chunki sport mashg'ulotlari va musobaqalar davomida sportchilar ko'plab stress holatlariga duch kelishadi. Ushbu stressni boshqarish va sportchini ruhlantirish murabbiyning vazifalaridan biridir (Bailey, 2006; G'aniyev, 2020).

Shuningdek, murabbiy pedagogik jarayonda turli o'qitish usullaridan samarali foydalanishi lozim. Masalan, differensial yondashuv orqali sportchilarning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlariga mos mashg'ulotlar rejalashtiriladi. Sportchilar bilim, tajriba va ruhiy tayyorgarlik darajasiga qarab guruhlanadi va ularning har biri bilan individual ishlash imkoniyati yaratiladi (Toshpo'latov, 2019; Xolmatov, 2023). Murabbiy psixologik-pedagogik faoliyatini samarali yo'lga qo'yish orqali sportchilarning faqat jismoniy emas, balki ruhiy tayyorgarligini ham oshirishi mumkin. Zamonaviy murabbiylar sportchilar bilan muloqotda ilmiy asoslangan usullardan foydalanib, ularning musobaqalarda yuqori natijalarga erishishiga ko'maklashishlari lozim (Rahimov, 2022; Yuldashev, 2021). A.N.Leontevning fikricha, faoliyat kategoriyasi jumlasiga ehtiyojlar va motiv, shuningdek, faoliyat amalga oshiriladigan jarayon tavsifi kiradi. Asosiy tizim birligi sifatida harakat; faoliyat bajariladigan usul esa operatsiya deyiladi. A.V.Rodionovning fikricha, sportda faoliyat-erishilishi zarur bo'lgan natijaga tegishli nisbiy qisqa muddatli jarayon (masalan, harakat-urish-himoyalannmagan joyga urish maqsadida yutuqli bal olish yoki g'olib bo'lish), ya'ni ongli maqsadga qaratilgan jarayondir.

Xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida ham murabbiylikning texnik va pedagogik jihatlari integrativ tarzda ko'rib chiqiladi. Côté va Gilbert (2009) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, murabbiylarning samaradorligi faqatgina ularning sport turiga oid texnik bilimlari bilan emas, balki pedagogik kompetensiyalari, motivatsiya qobiliyatlari va psixologik tayyorgarligi bilan ham belgilanadi. Murabbiylarning sportchilar bilan ishlashdagi pedagogik metodlari ularning natijalariga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil sifatida baholangan. Yuqoridagi tadqiqotlardan kelib chiqqan holda, murabbiylik texnikasi va pedagogik rivojlanishi mavzusini o'rganishda quyidagi vazifalar dolzarb hisoblanadi:

Murabbiylarning texnik tayyorgarligini oshirishning yangi ilmiy usullarini ishlab chiqish.

Pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini aniqlash.

Murabbiylarning malakasini oshirishda raqamli texnologiyalar va innovatsion metodikalaridan samarali foydalanishni joriy etish.

Pedagogik amaliyot va nazariy bilimlarni uyg'unlashtirish orqali murabbiy faoliyatining samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yaratish.

Shu sababli, ushbu maqolada murabbiylik faoliyatining texnik jihatlari, pedagogik rivojlanishi va zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari chuqurroq ko'rib chiqiladi.

Mazkur tadqiqotning nazariy asoslarini yaratishda xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlaridan foydalanilib, O'zbekiston sharoitida murabbiylarning pedagogik va texnik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Murabbiylik faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, murabbiyning texnik bilimlari bilan pedagogik kompetensiyalarning birgalikdagi uyg'unligiga bog'liq. Ushbu jihatni chuqurroq tushunish uchun, birinchi navbatda, murabbiylikning texnik va pedagogik asoslarini alohida ko'rib chiqamiz.

Murabbiyning texnik faoliyati sportchilarni yuqori natijalarga erishishga tayyorlashda asosiy bo'g'inlardan biridir. Texnik faoliyat sport turiga oid harakatlarni to'g'ri va samarali bajarishni o'rgatishni o'z ichiga oladi. Olimlar Bompa va Buzzichelli (2019) ta'kidlashlaricha, sport mashg'ulotlari davomida murabbiyning harakat texnikasini tushuntirish, ko'rsatish va xatolarni to'g'rilash qobiliyati sportchilar uchun yuqori natijalarga olib keluvchi eng muhim omillardan biridir.

Harakatlarni o'rgatishda biomekanik tahlilning ahamiyati ham katta. Chunki biomekanik jihatdan noto'g'ri bajarilgan harakatlar sportchilarning texnik va jismoniy imkoniyatlarini cheklab qo'yishi mumkin. Shuning uchun ham murabbiy o'quv jarayonida sportchilar harakatlarini muntazam biomekanik tahlil qilib borishi va xatolarni to'g'rilash choralari ko'rishi kerak (Horn, 2011).

Yuqoridagi fikrlarni qo'llab-quvvatlagan holda, O'zbekistonlik olimlardan R.X. Kadirov (2021) murabbiylarning texnik kompetensiyasi sportchilar rivojlanishining asosiy garovi ekanligini ta'kidlaydi. Olim murabbiylarning texnik bilimlarini muntazam yangilab borish va ilmiy-metodik yondashuvlarni keng qo'llash zaruriyatini aytib o'tadi. Murabbiylikning samaradorligini oshirishda pedagogik bilimlarning roli katta ahamiyat kasb etadi. Murabbiy faqat texnik jihatlarni emas, balki sportchilarning psixologik, intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ham boshqarishi lozim.

Pedagogik kompetensiyalar sportchilarni o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishga, sport natijalarini yaxshilashga undaydi. Shu sababli, sport pedagogikasida interfaol va innovatsion o'qitish usullari (jumladan, o'yin orqali o'qitish, muammoli ta'lim va vaziyatli mashg'ulotlar) keng qo'llanilmoqda (Light, 2013).

O'zbekistonlik olim J.R. Yarashev. (2022) ham murabbiylik faoliyatining samaradorligi pedagogik yondashuvlarga bog'liq ekanini ta'kidlab, pedagogik klasterlarni yaratish va pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish muhimligini aytib o'tadi.

Texnik va pedagogik jihatlarni uyg'unlashtirishda quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratiladi:

Individual yondashuv: Har bir sportchining individual texnik va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik yondashuvlar orqali texnikani takomillashtirish (Horn, 2011).

Mashg'ulotlarni ilmiy-metodik rejalashtirish: Texnik harakatlarni pedagogik usullar yordamida o'rgatish va mustahkamlash uchun ilmiy asoslangan mashg'ulot dasturlarini tuzish (Bompa & Buzzichelli, 2019).

Zamonaviy raqamli texnologiyalar: Texnik tahlilni amalga oshirishda video va raqamli texnologiyalar yordamida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish (ResearchGate, 2023).

O'zbekistonlik tadqiqotchi R.X. Kadirov (2021) murabbiylarning texnik va pedagogik kompetensiyalarini integratsiyalash orqali yuqori sport natijalariga erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, aynan texnik va pedagogik kompetensiyalar birgalikda rivojlansa, sportchilarning o'zlashtirish darajasi va natijalari yuqori bo'ladi. Shunday qilib, murabbiy faoliyatining texnik asoslari va uning pedagogik jihatlari bilan uyg'unligi sportchilarni yuqori darajadagi natijalarga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Murabbiylikda texnik bilimlar pedagogik usullar bilan mustahkam bog'lanmasa, natijalar yetarlicha samarali bo'lmaydi. Murabbiylar pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali faoliyat samaradorligini oshirishlari zarur.

Zamonaviy sport pedagogikasida an'anaviy o'qitish uslublari o'rniga interfaol, amaliy va innovatsion

yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Ushbu pedagogik texnologiyalarning samaradorligi ilmiy tadqiqotlar orqali tasdiqlangan. Jumladan, xorijiy olimlardan Richard Light (2013) tomonidan ishlab chiqilgan „Game Sense“ uslubi sportchilar orasida yuqori qiziqish uyg'otib, ularning o'yin va musobaqalar davomida qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Amaliy misol sifatida Kanada futbol akademiyalari tomonidan foydalanilayotgan interfaol metodlarni keltirish mumkin. Ushbu akademiyalarda murabbiylar „muammoli ta'lim“ (problem-based learning) va vaziyatli o'yinlarni (situational games) qo'llash orqali yosh sportchilarda musobaqa sharoitiga tez moslashish ko'nikmasini shakllantirmoqda (Lyle & Cushion, 2017).

AQSh, Kanada, Germaniya kabi mamlakatlarda murabbiylar tayyorlashda innovatsion raqamli texnologiyalar va onlayn pedagogik platformalardan foydalanish keng tarqalgan. Masalan, AQShda „Hudl“, Kanada va Germaniyada „Dartfish“ kabi video-tahlil dasturlari murabbiylarga sportchilarning texnik xatolarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi (Bompa & Buzzichelli, 2019).

Xorijiy mamlakatlar murabbiylikka oid pedagogik rivojlanishni malaka oshirish kurslari, seminarlar va o'quv

dasturlari orqali doimiy ravishda amalga oshiradi. Bu usullar O'zbekiston sharoitiga ham moslashtirib qo'llash mumkin bo'lgan samarali amaliyotlardir. Zamonaviy raqamli texnologiyalar murabbiy faoliyatida sportchilarning texnik-taktik va jismoniy rivojlanishini monitoring qilish imkonini beradi. Misol uchun, „Kinovea“, „Hudl“, „Coach's Eye“ kabi dasturlar orqali murabbiylar sportchilarning texnik ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida baholab, kerakli tuzatishlar kiritishi mumkin (ResearchGate, 2023).

Murabbiylar uchun sportchilar psixologik holatini yaxshilash va stressni boshqarish uchun ishlab chiqilgan ilovalar mavjud. Masalan, „Headspace“ va „Calm“ ilovalari sportchilarning ruhiy holatini yaxshilash va musobaqa oldi stressini kamaytirishga yordam beradi (Horn, 2011).

AQSh futbol federatsiyasi „Coach Development Program“ dasturi orqali pedagogik va texnik rivojlanishni integrativ tarzda amalga oshiradi.

Kanadadagi futbol akademiyalari „gamification“ metodlari yordamida yosh sportchilarni samarali o'qitmoqda.

O'zbekiston futbol federatsiyasi tomonidan tashkil etilgan murabbiylik kurslarida „video-analiz“ texnologiyalari joriy etilmoqda.

Jadval 1. Murabbiy faoliyatida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar

Pedagogik texnologiya	Samaradorlik ko'rsatkichi (%)	Qo'llanayotgan mamlakatlar
Interfaol ta'lim	88%	AQSh, Kanada, Germaniya
Muammoli ta'lim	82%	Yaponiya, Kanada
Vaziyatli o'yinlar	90%	AQSh, Buyuk Britaniya
Gamifikatsiya	85%	Kanada, Germaniya

Xulosa qilib aytganda murabbiylik faoliyatining texnikasi va pedagogik rivojlanishi zamonaviy sport tizimida sportchilarning maksimal natijalarga erishishida hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda. Pedagogik rivojlanishning innovatsion usullari, xususan interfaol metodlar, muammoli ta'limvaziyatli o'yinlar murabbiylarning sportchilarga ta'sirini kuchaytiradi. Xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi shuni ko'rsatadiki, pedagogik kompetensiyalarni muntazam rivojlantirish va zamonaviy metodikalarni tatbiq etish murabbiylik sifatini oshiradi. Yuqoridagi tahlillarga asosan zamonaviy texnologiyalar, ya'ni raqamli video tahlil dasturlari mashg'ulot jarayonini ilmiy asosda boshqarish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar sportchilarning texnik

xatolarini tezkor aniqlash va tuzatish, shuningdek, sportchilarning psixologik tayyorgarligini oshirishga yordam beradi.

AQSh, Kanada, Germaniya kabi rivojlangan sport tizimiga ega mamlakatlarda murabbiylar texnik va pedagogik bilimlarni uyg'unlashtirishga katta e'tibor qaratadilar. O'zbekistonda ham shunday ilg'or tajribalarni o'rganish va tatbiq etish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu murabbiylik faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Ilmiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan O'zbekiston va xorijiy olimlarning tadqiqotlari ushbu mavzuning dolzarbligini va murabbiylik faoliyatida texnika bilan pedagogikaning uyg'unligi zarurligini chuqur asoslab bergan.

ADABIYOTLAR

1. Bompa T., Buzzichelli C. (2019). Periodization: Theory and Methodology of Training. Human Kinetics.
2. Light R. (2013). Game Sense: Pedagogy for Performance, Participation and Enjoyment. Routledge.
3. Lyle J., Cushion C. (2017). Sports Coaching Concepts: A Framework for Coaching Practice. Routledge.
4. Horn T.S. (2011). Advances in Sport Psychology. Human Kinetics.
5. ResearchGate (2023). Raqamli texnologiyalarni sport faoliyatiga tatbiq etishning asosiy komponentlari.
6. Bailey, R. (2006). Physical Education and Sport Pedagogy. Routledge.
7. Smith, M. J. (2010). Research Methods in Sport. Learning Matters.
8. Kadirov R.X. (2021). Jismoniy tarbiya va sport faoliyatini ilmiy tadqiq qilish. Buxoro davlat universiteti nashriyoti.
9. Yarashev J.R. (2022). Bo'lajak erkin kurash sport murabbiyining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish. Interscience.uz.
10. Toshpo'latov, T. Sh. (2019). Sport pedagogikasi va murabbiylik asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti.
11. G'aniyev, A. M. (2020). Zamonaviy sportda innovatsion texnologiyalar. Samarqand.
12. Tashkenbayev, B. (2021). Murabbiy va sportchi o'rtasidagi psixologik munosabatlar. Buxoro.



UDK:174.4

Sherzod DUSMANOV,
Sh.Rashidov nomidagi SamDU mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: Sherzod00@gmail.com

JTSBMQTMOI dotsenti S.Yaxyoyeva taqrizi asosida

YOSHLARNING AXLOQIY-MA'NAVIY BUZILISHLARINI BARTARAF ETISHDA QO'LLANILADIGAN MAXSUS CHORA-TADBIRLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlarning axloqiy-ma'naviy buzilishlarini bartaraf etishda qo'llaniladigan maxsus chora-tadbirlar xususida ma'lumot berilgan. Shuningdek, globallashuv sharoitida yoshlarning ommaviy madaniyat kabi ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida axloqiy-ma'naviy buzilishlari masalasi ham yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Axloqiy-ma'naviy buzilish, globallashuv, ommaviy madaniyat, submadaniyat, huquqiy tarbiya, diniy tarbiya, jismoniy tarbiya, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya tushunchalari.

SPECIAL MEASURES TO ELIMINATE MORAL AND SPIRITUAL DISORDERS IN YOUTH

Annotation

This article provides information on special measures used to eliminate the moral and spiritual disorders of young people. It also highlights the issue of moral and spiritual disorders of young people under the influence of objective and subjective factors such as mass culture in the context of globalization.

Key words: Moral and spiritual disorders, globalization, mass culture, subculture, legal education, religious education, physical education, aesthetic education, moral education.

СПЕЦИАЛЬНЫЕ МЕРЫ ПО УСТРАНЕНИЮ НРАВСТВЕННЫХ И ДУХОВНЫХ РАССТРОЙСТВ У МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В статье представлена информация о специальных мерах, применяемых для устранения нравственных и духовных расстройств молодежи. Также освещается проблема нравственных и духовных расстройств молодежи под воздействием объективных и субъективных факторов, таких как массовая культура в условиях глобализации.

Ключевые слова: нравственные и духовные расстройства, глобализация, массовая культура, субкультура, правовое воспитание, религиозное воспитание, физическое воспитание, эстетическое воспитание, нравственное воспитание.

Kirish. Globallashuv sharoitida yoshlarning axloqiy-ma'naviy buzilishlari «ommaviy madaniyat», ayniqsa «submadaniyat» kabi ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida har tomonlama kuchayib va kengayib borayotganligi hech kimga sir emas. Bunday holatlarning oldini olish va bartaraf etishda axloqiy, estetik, huquqiy, diniy, jismoniy, mehnat tarbiyasini kuchaytirishdan tashqari, ularning shakl-shamoyillariga mos ravishda maxsus chora-tadbirlarni ham qo'llashni taqozo etadi. Bunday chora tadbirlar asosan vakolatli davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Shunga ko'ra yoshlarning axloqiy-ma'naviy buzilishini bartaraf etishda qo'llaniladigan maxsus ma'rifiy chora - tadbirlar deb, ayrim yoshlarning axloqsiz-ma'naviy buzilishi, diniy fanatiklar, jinoyatchilar dunyosi ta'siriga tushib qolib, tushunib-tushunmasdan tanlayotgan yo'lidan qaytmayotganlarini yangi hayot quchog'iga qaytarish uchun vakolatli davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan qonun kuchini, jamoatchilik ta'sirini ishga solish orqali qo'llaniladigan hatti-harakatlar tizimiga aytiladi.

Yoshlarning axloqiy-ma'naviy-kasbiy buzilishlarini to'xtatishga qaratilgan ta'sir o'tkazishning ma'naviy-ma'rifiy choralari ikki yo'nalishda olib borish mumkin:

yoshlarning o'z xatti-harakati va qobiliyatiga ta'sir qilish;

axloqiy buzilish yo'lga kirgan raqibning ruhiyati va xatti-harakatlariga ta'sir etish.

Bular quyidagilardan iborat:

1. Yoshlarning axloqiy-ma'naviy buzilishlarini bartaraf etish maqsadida faoliyat olib borayotgan mutasaddilarning yoshlar bilan o'zaro munosabatlarga kirishish orqali, ularni buzilishidan oldingi «tug'ma» holatiga qaytarish qobiliyatini namoyon qilishga asoslangan muloqot qilish uslubining qanchalik darajada samara berishiga bog'liqligini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Aslini olganda, axloqiy-ma'naviy-kasbiy buzilish ro'y berishidan oldingi vaziyat odatda to'satdan emas, balki asta-sekin paydo bo'ladi. Bunda axloqiy-ma'naviy nizoning hissiy intensivligi ruxsat etilganidan oshib keta boshlaganini o'z vaqtida aniqlash va uni oqilona tarzda to'xtatish muhimdir. Axloqiy-ma'naviy buzilishlarga olib keluvchi axloqiy nizolarning kuchayishi belgilariga yoshlarning yuz ifodalari, yuzning qizarishi, imo-ishoralar, mazmun, temp va nutq tembrida bo'layotgan o'zgarishlardan ham bilib olish mumkin.

2. Axloqiy-ma'naviy buzilishlarga olib keluvchi axloqiy nizolarning kuchayib borayotgan tomonlarini to'xtatish yoki yumshatish uchun quyidagi:

- muammoni hazilga aylantirish;
- suhbatni boshqa mavzuga ko'chirish;
- agar axloqiy nizo muammosi unchalik muhim bo'lmasa, uni amalga oshirish uchun hech qanday choralar ko'rishga majbur qilmasa, taslim bo'lish;
- raqibning fikrini muhokama qilishga vaqtinigiz yo'qligini aytish kabi usullardan foydalanish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Biror kishining o'zaro aloqada sherikni tushunish qobiliyati doirasida, agar sherik o'z

motivlarini to'g'ri tushunishiga ishonch bo'lmasa, ziddiyatli holatga tushmaslik kerak. Bu axloqiy-ma'naviy buzilishlarni keltirib chiqaruvchi axloqiy nizolarning oldini olishning sub'ektiv shartlaridan biri sanaladi. Bunda, masalan hamkoringiz tomonidan sizga taqdim etilgan ma'lumotlar yo'qolishi va buzilishi, sherik muhokama qilina yotgan muammoni siz bilan bir xil pozitsiyalardan baholamasligi mumkin. Odamlar o'rtasidagi haqiqiy qarama-qarshiliklardan ko'ra, bu ikki sabab axloqiy nizoni keltirib chiqarishi ehtimoldan xoli emas. Bir-birini noto'g'ri tushunish va muammoga turli xil yondashuvlardan kelib chiqadigan axloqiy nizolardan qochish kerak. Agar sherigingiz biror narsada noto'g'ri ekanligini aniqlasangiz, unda buni unga isbotlashingiz shart emas. Siz buni undan ko'ra chuqurroq tushunganingiz kifoya. Ba'zan sherigiga uning noto'g'ri ekanligini xabar qilish kerak, lekin buni guvohlar oldida qilish shart emas, chunki u o'z nohaqligini ochiqchasiga tan olishini talab qiladi va hokazo. Muammoga nisbatan qat'iy bo'lish, ishning talablarini bajarish va odamlarga nisbatan yumshoq bo'lish kerak.

Demak, odam hozirgi ruhiy holatini boshqara bilishi, ortiqcha ishlaganda yoki haddan tashqari hayajonlanganda mojarodan oldingi vaziyatlardan qochish kerak. Odatda, odamning hozirgi ruhiy holati kun davomida turli holatlar ta'sirida, ba'zan sezilarli darajada o'zgaradi. Ishdagi muvaffaqiyat, charchoq darajasi, hamkasblar bilan muloqot, tananing fiziologik holati, ob-havo va boshqalar – bularning barchasi inson ruhiyatining holatiga va natijada uning ziddiyatiga ta'sir qiladi.

Har bir inson o'zining hozirgi holatini baholashi va o'z g'azabidan kelib chiqadigan nizolarning oldini olish uchun buni hisobga olishi mumkin. Masalan, siz bilan bo'ladigan uchrashuvdan yarim soat oldin bo'ysunuvchilar, siz rahbaringiz huzuriga qiyin muammoni hal qilish uchun keldingiz. Kattakon bilan suhbat shunday rivojlandiki, u sizga qarata bir ikki gaplarni aytib shaxsiyatingizga teguvchi gaplarni aytishi, hatto haqorot qilishi ham mumkin. Chunki bunday achchiq gaplarni eshitish siz uchun kutilmagan hodisa bo'lib, suhbat tugagandan so'ng depressiv-tajovuzkor holatga tushib qolishingizning o'zi, sizning axloqiy-ma'naviy buzilish sari dastlabki qadam-laringizni qo'yishingizga sabab bo'ladi. Bunday vaziyat tufayli sizda kelib chiqqan salbiy his-tuyg'ular rahbarning adolatsiz so'zlariga tabiiy munosabat sifatida qarashni anglatmaydi.

Darhaqiqat, sizning ichki faryodingiz rahbar uchun mo'ljallangan bo'lsada, biroq u boshqa bo'ysinuvchi xodim zimmasiga yuklatilganligi ajablanarli bo'lib, odamni hayratga soladi. Demak, bunday vaziyatlardan qochish zarur bo'ladi. Bu esa o'z navbatida atrof-dagilar bilan muloqot qilishda ichingizdan hamkorlik asosida hal qilinishi kerak bo'lgan muammolarga javob berish yoki bermaslik, murosas qilish yoki qilmaslikka tayyor turishni ham bilish kerak bo'ladi. Biroq, axloqiy-ma'naviy buzilishlarni axloqiy nizolarning echimini topish orqali batamom hal qilishning iloji yo'q.

Tahlil va natijalar. Axloqiy-ma'naviy buzilish ostonasida turgan yoshlar bilan muloqot paytida kamida vaqti-vaqti bilan tabassum qilib turish kerak bo'ladi. Tabassum sherik bilan muloqot qilish jarayoni haqida to'rtta pozitiv funksiyani bajaradi. Bu sizda hamma narsa joyida ekanligini ko'rsatadi. Odamlar muvaffaqiyatga erishganlar bilan muloqot qilishdan juda xursand bo'lishadi. Ehtimol, bu muvaffaqiyatga erishganlardan ongsiz istak bilan biron bir foydali ma'lumot olishni umid qiladilar. Agar biror kishi muammolarga duch kelsa, bu uning yuzida ifodalangan bo'ladi. Shunga qarab odamlar boshqalar bilan muloqot qilishi yoki u bilan muloqot qilishdan qochishlari mumkin. Tabassum odamning suhbatdoshidan mamnun ekanligini ko'rsatadi. Bu muammolarni nizolarsiz hal qilishga cheksiz hissa qo'shadi. Chunki, tabassum jilmaygan muloqot sherigiga

o'zaro xush yoqishni keltirib chiqaradi va salbiy his-tuyg'ularning pasayishiga olib keladi. Bu ham yoshlarning axloqiy-ma'naviy buzilishlarining oldini talofatsiz olishga qaratilgan maxsus chora-tadbirlar jumlasiga kiradi [1].

Salbiy his-tuyg'ular axloqiy nizolarning paydo bo'lishiga yordam beradigan omillardan biri hisoblanadi. Ular ko'pincha odamning voqealarning haqiqiy yo'nalishi va u ishongan voqea o'rtasidagi sezilarli nomuvofiqlikka bo'lgan munosabatidir. Shuni minimallashtirishning uchta usuli mavjud: mumkin bo'lgan ssenariylarni yaxshi bashorat qila olish kerak. Prognoz qanchalik aniq bo'lsa, salbiy his-tuyg'ular shunchalik kam bo'ladi; agar ular kutilganidek rivojlanmasa, voqealar rivojini to'g'ri yo'nalishda o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir; siz nafaqat eng yaxshisiga, balki eng yomon ssenariyga ham ishonishingiz va buning uchun tayyorlangan bo'lishingiz zarur. Agar ular tez-tez sodir bo'ladigan umidlarni qondirmasa, bu odamda salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradi, ular bilan munosabatlarini yomonlashtiradi. Buning evaziga hech narsa olishni kutmasdan, fidokorona yaxshilik qila olishingiz kerak. Boshqalarning mumkin bo'lgan harakatlari haqida sizning prognozizingizni ortiqcha baholamaslik tavsiya etiladi.

V. Yoshlarning axloqiy-ma'naviy-kasbiy buzilishlarini oldini olish va bartaraf etishda qo'llash mumkin bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar ichida «Jazosiz tarbiya» usulini qo'llash alohida ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar odam naslining, oila, mahalla, elat, millat, xalqlar, davlatlarning kelajagi. Bu tabiat va jamiyat qonuni.

Ularning rivoji ta'lim-tarbiya ko'rgan, ilmga chanqoq, odamoxun, insonparvarlik fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan, o'z kasbining ustasi bo'lgan, qalbi vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan yoshlarning shijoatiga bog'liq. Albatta, yoshlar hayot charrohalarida duch keladigan qiyinchiliklar keltirib chiqargan muammolarni echolmay xatolarga yo'l qo'yadi. Bu xatolar ulug'lar yordamida tuzatilmasa, ularning axloqiy-ma'naviy jihatdan tanazzul sari yuz tutishi muqarrar bo'lib qoladi. Bu borada ularni axloqiy-ma'naviy buzilishlariga qarshi kurashishda qo'llaniladigan maxsus chora-tadbirlar jumlasiga yoshlarni axloqiy-ma'naviy jihatdan tarbiyalashning «jazosiz tarbiyalash» usuli alohida o'rinni egallaydi.

Jazosiz tarbiyalash – bu o'rnatilgan qonunchilik talablarini buzmasdan jinoyat sodir etmagan yoshlarni axloqiy-estetik ta'lim-tarbiya vositalari orqali hayotga bo'lgan qiziqish-ishtiyoq-istaklari kabi hissiyotni, aqliy tafakkurini o'stirishga, rivojlantirishga qaratilgan motivatsion xarakterdagi chora-tadbirlar tizimiga aytiladi. Bu amalga oshirishning asosan uchta – qiziqish, ishtiyoq, istak kabi tayanchi bor.

1. Qiziqish. YOshlarning dunyoviy va diniy bilimlarni egallashga, jamiyat tomonidan o'rnatilgan axloqiy-qadriyatli normalarga qat'iy amal qilishga, shu asosda tabiat va jamiyat ato etgan in'omlardan zavq-shavq olib umrguzaronlik qilishga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish. Bu yoshlarni tabiatdagi o'simliklar olami, hayovonat dunyosi mo'jizalarini ko'rish, kuzatishdan hayajonga tushish, shuningdek jamiyatda sodir bo'layotgan narsa, hodisa va jarayonlarning muxlisiga aylanishdan huzurlanish kabilarni o'z ichiga oladi. Masalan, ko'pgina yoshlar har doim musqa ohanglari ostida irod qilishni hohlaydilar. Yoshlarda qiziqishni qanday uyg'otish mumkin. Masalan, falsafa tarixi darsini o'quvchi yoshlarning bevosita ishtirokida sahnalashtirgan tarzda olib borishni tashkil qilish. Bunday holatda talabalarning falsafa faniga bo'lgan qiziqishi ortib, uni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqi kuchayib boradi. SHuningdek, submadaniyatning xipi, fanat, EMO kabi shakllarini yoki kissavurcho'ntakkesarlarning obrazlarini ham «masxaralovchi» sahnalar orqali, ularning zararli ekanligini ochib berilsa, yoshlarda bunday g'ayri axloqiy ko'rinishdagi xatti-harakatlarni bilishga nisbatan qiziqishi ortib, nafrat

tuyg'usining kuchayishiga, konstruktiv tanqiddan xulosa chiqarish ishtiyoqining ortib borishiga olib keladi. Demak, talaba «qoniqarsiz» baho olishdan, boshqalari esa jamoatchilik ko'ziga beo'xshov ko'rinishdan xolos bo'ladi. Bu esa murabbiylar tomonidan ma'naviy-ma'rifiy vositalar orqali yoshlarning u yoki bu narsa, hodisa, jarayonlarga nisbatan bo'lgan qiziqishlarini ta'lim-tarbiya bilan integratsiyalashtirish orqali ijtimoiy jihatdan jazosiz tarbiyalash demakdir.

2. Ishtiyoq. Yoshlarning qiziqishlarini kuzatadigan bo'lsak, ularning xilma xil ekanligini ko'ramiz. Chunki, tabiat olami va jamiyat hayotidagi narsa, hodisa va voqealarning o'zi xilm-xil, rang-barangdir. Ularning ichida qat'iy yoki qat'iy bo'lmagan, shunchaki ishtiyoqni keltirib chiqaruvchilari qiziqishlar ham bor. Ishtiyoq – bu yoshlarning o'zi qiziqqan narsa, hodisa va voqealarning sir-asrorlarini bilish, o'zlashtirish uchun dil hohishi ila mushtoklik bilan qiladigan intilishlarining ifodasidir. Masalan, badiiy adabiyotga qiziqishi baland bo'lgan inson, albatta o'zini qiziqtirayotgan adabiyotni topib o'qishga intiladi. Huddi shuningdek, hali dunyoqarashi to'liq shakllanmagan yoshlar ham «ijtimoiy tarmoq» dagi ko'rgan submadaniyat elementlariga qiziqish bildirib, ishtiyoqman bo'lib qolishi ham ehtimoldan xoli emas.

Mantiqan olib qaraganda, ishtiyoq o'zgaruvchan, vaqtinchalik xarakterga ega bo'lgan xislat hisoblanadi. O'zbekistonlik yoshlarning submadaniyatning ba'zi bir shakllariga taqlid qilishi «vaqtinchalik» xarakterga ega bo'lib, olib boriladigan axloqiy tarbiya natijasida o'zgarib, o'zining asl o'rniga qaytarishning imkoniyatlari kattadir.

Istak. Yoshlarning istagi deb, ularning o'z hayotida qiziqish uyg'otgan narsalarni katta ishtiyoq bilan o'z ehtiyoj his-sezgisi, hohishi, mayliga ko'ra bajarish sari izlanib intilishlariga aytiladi. Istak amalga oshishi yoki oshmasligi ham mumkin. Masalan, jinoyatchining tanasiga o'ta mahorat bilan chizilgan taturovkani birinchi bor ko'rgan murg'ak yoshdagi ham shunday narsaga bo'lgan qiziqish, ishtiyoq yuzaga kelishi mumkin. Biroq, u murabbiylar tomonidan olib borilgan ijtimoiy tarbiya natijasida istak sifatida amalga oshmay qolishi ham mumkin.

«Jazosiz tarbiya» yoshlarning axloqiy-ma'naviy buzulishlarini bartaraf etishning maxsus ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlaridan biri sifatida, jamiyat uchun unchalik katta xavf tug'dirmaydigan qilmish-qidirmishlar uchun ma'muriy-huquqiy jihatdan jazolashning ustuvorligining oldini olib, ko'proq axloqiy-ma'naviy, huquqiy tarbiya omillarini ishga solishni nazarda tutadi. CHunonchi, har xil yoshdagi yoshlarning axloqiy-ma'naviy buzilishlarining oldini olishda «kodeks»larga asoslangan holda jazolash, tashqi motivatsiya sifatida, ichki motivatsiyani yo'qqa chiqaradi, ya'ni ularning aksariyati tuzalish o'rniga jinoyatchilar olamiga kirib ketish holatlarining kuchayib ketishiga olib keladi.

Yoshlarning axloqiy-ma'naviy buzilishlarining oldini olishga qaratilgan maxsus ma'naviy-ma'rifiy chora tadbirlar jumlasiga kiruvchi «jazosiz tarbiya»lash usullari qatoriga yoshlarning turmush tarzi, xulq-atvori kabi jamiyat tomonidan o'rnatilgan axloq-normalariga qarshi qilinadigan harakatlarini tanqid ostiga olish ham kiradi.

Xo'sh, tanqid nima?, degan savol tug'iladi. Bu savolga «O'zbek tilining izohli lug'atida:» Tanqid - bu arabcha-baho berish maqsadida o'rganish, tahlil qilish va shu asosdagi xulosa qilish degan so'zlardan olingan bo'lib:

1) ish-harakat, faoliyat, asar, ta'limotning yutuqlarini qayd etish, kamchilik va nuqsonlarini belgilash va bartaraf etish maqsadidagi muhokama, tahlil;

2) biror narsaning to'g'ri, haqqoniy ekanini ilmiy tahlil etish, tadqiq etish;

3) adabiy faoliyatning badiiy, ilmiy va boshqa turdagi asarlarni, shuningdek, ularda aks ettirilgan hayotiy hodisalarni talqin va tahlil qiluvchi maxsus turi;

4) kamchilik, nuqson, xatoliklarni qayd etish, qoralash, shuningdek, ularni talash etish maqsadida bildiriladigan tanbehli fikr-mulohaza, gap-so'z» [2], degan ma'nolarni anglatadi degan ta'rif va tavsiflar berilgan. Biron bir narsa, voqea, hodisa, shaxsni tanqid qilishdan oldin quyidagi tanqid turlarini ham bilish kerak.

Bularga quyidagilarni: konstruktiv tanqid; qattiq-keskin tanqid; adolasiz tanqid; qabul qilinadigan va qilinmaydigan tanqid; darajali - to'g'ridan-to'g'ri tanqid; taklif etilgan tanqid; ommaviy tanqid; jiddiy tanqid; doimiy tanqid; kasbiy tanqid; adabiy tanqid; ijtimoiy tanqid; siyosiy tanqid; qarorlarni tanqid qilish; harakatlarni tanqid qilish; uyg'otilgan tanqid va shu kabilarni kiritish mumkin.

Shuning uchun tanqid ijobiy va konstruktiv bo'lishi muhimdir.

Yoshlarni tanqid qilishdan avval nima ishlarni qilish kerak.

1. Ishni tanqidsiz tuzatish mumkinmi yoki yo'qligini bilish zarur.

2. Kamchiliklar mavjudligidan kimga foyda keltirishini aniqlash.

3. Tanqid o'z-o'zidan maqsad emas, balki hayotni yaxshilash vositasidir degan qoidaga amal qigan holda tanqidning maqsadlarini aniqlash.

4. Tanqid qilinadigan odamning yo'l qo'ygan xatolariga nisbatan munosabatini bilish.

5. Tanqid qilingan odam odatda tanqidga qanday munosabatda bo'lishini bilish va shunga mos ravishda tanqid shaklini tanlash.

6. Nima bo'lganini va yomon ishlashning oqibatlarini qanday ekanligini aniq tasavvur etish;

7. Tanqidiy tahlil qilish uchun yopiq joylar va daxlsiz odamlar bo'lmasligi kerak.

8. Tanqid qilingan odamning pozitsiyasini oxirigacha tinglash.

9. Nimani tanqid qilishni to'g'ri belgilab olish.

Yoshlarni axloqiy-ma'naviy buzilishi masalasida konstruktiv tanqid qilishda misol tariqasida quyidagi usullarni qo'llash:

1) berilgan topshiriqni bajarishda, ularni sekinlashtiradigan kamchiliklarning mohiyatini ko'rsatib o'tish;

2) axloqsizlikka undovchi aybdorning nomini aytish;

3) axloqiy-ma'naviy tarbiya jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarga aloqador boshqa kimsalarning nomlarini keltirib o'tish;

4) g'iybat qilishga sabab bo'lgan shartlarni tahlil qilish;

5) yo'l qo'yilgan xatolar qurbonlarini sanab o'tish, nimaga shunday bo'lganligining sabablarini ochib berish;

7) kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari va muddatlari bo'yicha aniq takliflar berish;

8) tanqid ruhiyatga ta'sir qilish uchun hissiy intensivlikka ega bo'lishi, lekin u xodimlarni dushmanga aylantirmasligi;

9) yo'l qo'yilgan xatoning mohiyatini, uning ob'ektiv va sub'ektiv sabablarini aniqlashi;

10) tanqid qilingan shaxs harakatlarining sabablarini va ob'ektiv oqibatlarini hisobga olishi;

11) tanqid qilingan shaxsga himoya qilish huquqini berishi;

12) tanqid qilingan shaxsning shaxsiy aybiga oid dalillarni taqdim etishi;

13) tanqid aniq xatoni ko'rsatmasdan, umumiy bo'lmasligi;

14) tanqiddan inson qadr-qimmatini ranjitadigan tushunchalarni chiqarib tashlash kerakligi kabilarni tavsiya qilinadi.

Bulardan tashqari,yana quyidagilarni:tanqidiy taqdimot ishni tuzatishga qaratilgan takliflar bilan yakunlanishini; tanqidchi faktlarni ataylab buzish uchun axloqiy va ba'zan qonuniy javobgarligini;haddan tashqari qattiq tanqid qilmaslik,undan foydadan ko'ra,ziyonning tegishini unutmazlik;xayrixohlik: tanqidning vazifasi xodimga yordam berish, uning egasiga zarar etkazmaslik; agar xato tuzatilgan bo'lsa, takroriy tanqidlardan qochish; biron yoshni yoqtirmaslik tufayli tanqid qilmaslik; qo'l ostidagilarning mustaqillik tuyg'ularini bostirmaslik; yosh xodimlarni o'z-o'zini tanqid qilishni misol bilan o'rgatish; yosh xodimlar o'rtasidagi ishonchni tanqid qilish orqali yo'q qilish; tanqid qilib, odamga uning ijobiy fazilatlarini eslatib qo'yish;tanqid qilingan odam uchun o'zini tuzatish foydali ekanligini ko'rsatish; tanqidchi tanqid qilishdan oldin, o'z xatolarinigizni eslash kabilarni ham esdan qochirmaslik kerak bo'ladi.

«Jazosiz tarbiya»lash chora-tadbirlarini qo'llashda axloqiy-ma'naviy buzilish yo'liga kirayotgan yoshlar bilan murabbiylar,katta nufuzga ega bo'lgan shaxslar,rahbarlar tomonidan bevosita muloqot olib borish katta ahamiyatga egadir. Muloqot nima? Bu savolga professor N.E.Muhammadiyevning: «Muloqot – bu kishilarning o'zaro bevosita yoki bilvosita uchrashishi,ko'rishishi,qabul qilishi orqali o'rnatiladigan munosabatlari natijasida axborotlar almashadigan,olingan ma'lumotlar bo'yicha tegishli xulosalar chiqarishga asos bo'ladigan ko'p qirrali jarayondir» [3],-degan falsafiy ta'rifini asos qilib olgan holda axloqiy-ma'naviy buzilish dardiga duchor bo'lgan yoshlar bilan muloqot olib borishning quyidagi shakllari borligi haqida so'z yuritamiz.

Birinch shakli. Yoshlar bilan buyruq tarzida olib boriladigan bevosita muloqot. Ushbu shaklda muomala qilishga odatlangan murabbiylar yoshlar bilan «buyruq so'zlar» orqali gaplashishga urinadilar. Masalan, «Fishing» yomon narsa,unga ergashsang mendan ko'rganingni ko'rasan, «Xippi» ningni yo'qot,ko'zinga ko'rinma va hokazo.

Ikkinchi shakli. Yoshlar bilan bo'ladigan ehtimoliylik muloqot: Muloqotning bu shaklida keskin til qo'llab yoshlarning shaxsiyatiga bosim o'tkazish o'rniga «ehtimoliylik» ila gapirilib, uning shaxsiyatiga engillik yaratish mo'ljallanadi. Masalan, yoshlarga u kiyimni emas,mana bunisini kiyish,uni unday qilib emas,bunday qilsak yaxshi bo'larmidi degan ehtimoliy iboralar orqali muloqot qilish kabi shakllarda amalga oshirilib, yoshlarni boshqa birovlar tomonidan boshqarilishga o'rgatib qo'yadi. Bunday yoshlar mas'uliyatni zimmasiga olishdan qochadi, xato qilishdan qo'rqadi. Bunday shaklda murojaat qilingan yoshlar odatda «biror nima evaziga» do'st bo'lishga yoki «muammo chiqarmasdan» bir chekkada yashashga harakat qilishadi. Bu ham o'z navbatida loqaydlikka olib keladi. Loqaydlik ham kichkina bo'lsada yoshlarning axloqiy-ma'naviy buzilishlarining debochasi hisoblanadi.

Uchinchi shakli. Yoshlarni bevosita qabul qilish orqali muloqot. Axloqiy-ma'naviy buzilish arafasida turgan yoshlar murabbiylar,faollar tomonidan ularning shaxsiyati, fikrlari va hislarini hisobga olgan holda yakka tartibda suhbat o'tkazadi.

To'rtinchi shakli. Yoshlarga imkon beruvchi muloqot. Muloqotning bu shaklida yoshlarning bosim o'tkazmasdan uyda,maktabda,mahallada,jamoat joylarida o'zini tuta bilishlik qobiliyatlarini yuzaga chiqishi uchun imkoniyat beriladi. Agar u milliy va umuminsoniy qadriyatlarga,o'rnatilgan odob,xulq-atvor qoidalariga amal qilsa,uni ma'naviy jihatdan rag'batlantirish chorasini qo'llaniladi,bordi-yu aksincha ish yuritsa uni axloqsizlikda ayblab «jamoat izzasi» (uyaltirish,tanqid qilish,pand-nasihat qilish,ogohlantirish va sh.k. – D.Sh.) shaklida jazosiz tarbiyalash chora-tadbiri qo'llaniladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, har qanday muloqot shaklida so'z sehri hal qiluvchi omillardan biri sanaladi. Chunki so'z bilan yoshlarga qanday murojaat qilinsa,oqibati ham shunday bo'ladi. Bekorga aytilmagan «shirin so'z, ilonni ham inidan chiqaradi», «tiling do'sting,tiling dushmaning» - deb.

Yoshlarning axloqiy-ma'naviy buzilishlarining oldini olish va tugatishning maxsus chora-tadbirlarini amalga oshirishda quyidagi prinsiplarga amal qilish kerak bo'ladi.

Kompetentlik prinsipi - bu yoshlar,ayniqsa maxsus tayyorgarlikdan o'tgan va katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan voyaga etmagan bolalarning tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi mansabdor shaxslar,jamoat faollari,huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlaridan iborat bo'lgan mutasaddilarning ish olib borish faoliyati hisoblanadi.

2. Axloqiy-ma'naviy-kasbiy buzilishlar iskanjasiga tushib qoluvchi yoshlarni buzg'unchi g'ayriinsoniy g'oyalarni xayollariga keltirishdan voz kechishtirish,aniqroq aytganda «zaharlanayotgan miyasini,zaharlardan tozalash»ga undash, qolaversa majbur qilish prinsipi. Bu masalada yoshlarga o'z manfaatlarini himoya qilish imkoniyatini berish yaxshiroq bo'lsada, biroq ularni hamkorlik qilish, murosaga keltirish orqali amalga oshirishlarini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

3. Yoshlarning axloqiy-ma'naviy buzilish imkoniyatlarini prognozlash va tashhislash prinsipi. Oldindan prognozlash orqali axloqiy-kasbiy-ma'naviy buzilishlarni vaqtincha aniqlash,ayni vaqtda rivojlanishi esa qanday mojarolarni keltirib chiqarishi mumkinligi to'g'risidagi hisob-kitoblarni asosida to'plangan dalillar taqdim etiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, axloqiy-estetik,kasbiy-ma'naviy buzilishlarni butunlay yo'q qilish ko'p jihatdan jamiyat iqtisodiyoti va ma'naviy hayotidagi ijobiy o'zgarishlarga bog'liq bo'lib, ular orqali uni yuzaga keltiruvchi salbiy ijtimoiy omillar bartaraf etiladi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev yozganidek: «Yangi O'zbekiston - demokratik qonunlar, yuksak huquqiy madaniyatga ega fuqarolar mamlakatidir. Bu esa, ma'muriy, jinoyat, jinoyat-protsessual va xo'jalik qonunchiligini yanada erkinlashtirish, ayrim jinoyi harakatlarni kriminalashtirishdan xoli qilish, tadbirkorlik sub'ektlari javobgarligini liberalashtirish, jinoyi jazolar va ular ijrosini insonparvarlashtirish kabi masalalarni anglatadi va bu boradagi dolzarb vazifalarni amalga oshirishni taqozo qiladi»[4].

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Rasmiy nashr. – T. : O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2022 – B.6.
2. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti,2022. - B.69.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. - T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – B.625.
4. Yaxshilikov J.YA.,Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya-taraqqiyot strategiyasi. Monografiya. – Toshkent: «FAN», 2017. - B.394.



UDK:371.03.

Sherzod JUMANOV,
O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti o'qituvchisi, PhD
E-mail: jumanovsherzod06@gmail.com

Dotsent Z.Begimqulov taqrizi asosida

TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR TIZIMI MODERNIZATSIYASINING SIYOSIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada Prezident Sh.Mirziyoyev 2021 yilning 19 yanvar kuni "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish" masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda aytib o'tgan, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilayotgan milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlarga qarshi kurashni umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni, ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimini modernizatsiyalash orqali erishish mumkinligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi modernizatsiyasi, tarbiyaviy modernizatsiya, Z va alfa avlodlar, "Yangi O'zbekiston – uchinchi Renessans sari" milliy g'oyasi, interiorizatsiya, eksteriorizatsiya.

ПОЛИТИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация

В статье утверждается, что борьба с такими угрозами, как угрозы национальной идентичности и духовным ценностям, легкомысленное отношение к труду и семье, потребительство, транснациональная и киберпреступность, торговля людьми и наркотрафик, с которыми об этом президент Ш.Мирзиёев заявил на совещании 19 января 2021 года, посвященном «коренному совершенствованию системы духовно-просветительской работы, укреплению сотрудничества государственных и общественных организаций в этом направлении», которые умело внедряются в сознание молодежи, можно добиться путем модернизации системы духовно-просветительской работы и духовно-нравственного воспитания в учреждениях общего среднего образования.

Ключевые слова: модернизация, модернизация системы духовно-просветительской работы, образовательная модернизация, поколения Z и альфа, национальная идея «Новый Узбекистан – к Третьему Возрождению», интериоризация, экстериоризация.

POLITICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE MODERNIZATION OF THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation

The article is based on the statement made by President Sh. Mirziyoyev on January 19, 2021 at a meeting dedicated to "Fundamentally improving the system of spiritual and educational work, strengthening cooperation between state and public organizations in this regard", which emphasizes that the fight against threats such as threats to national identity and spiritual values, a frivolous attitude towards work and family, consumerism, transnational and cybercrime, human trafficking, and drug trafficking, which are being skillfully instilled in the minds of young people, can be achieved by modernizing the system of spiritual and educational work and spiritual and moral education in general secondary educational institutions.

Key words: modernization, modernization of the system of spiritual and educational work, educational modernization, Z and alpha generations, the national idea of "New Uzbekistan - Towards the Third Renaissance", interiorization, exteriorization.

Kirish. Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi modernizatsiyasining siyosiy-pedagogik asoslarini yoritishdan oldin "Mamlakatni modernizatsiya qilish" iborasining kontseptual mohiyatiga qisqacha to'xtalish zarur bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, modernizatsiya – mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan zamonaviy talablarga moslashtirish, uning barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlash jarayoni bo'lib bu jarayon tarixiy, texnologik va ijtimoiy o'zgarishlarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatni modernizatsiya qilish bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, o'z ichiga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy (ta'lim va ilm-fan (zamonaviy ta'lim standartlarini joriy qilish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish), madaniy modernizatsiya (milliy qadriyatlarni saqlash, madaniy merosni asrab-avaylab, uni zamonaviy jamiyat talablariga moslashtirish, innovatsiyalar va ijodkorlik:

san'at, adabiyot va ijod sohalarida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash), texnologik modernizatsiya (jamiyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish) kabilardan iborat kontekstni o'z ichiga oladi.

Mamlakatni modernizatsiyalashning maqsadi davlatning iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarning turmush sifati, demokratik qadriyatlarni mustahkamlash va global raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. O'zbekiston misolida bu jarayonni ta'lim islohotlari, kambag'allikni qisqartirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ekologik muammolarga yechim topish, raqamli iqtisodiyotga o'tish va boshqa qator yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimiz maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, modernizatsiya so'zining etimologiyasiga to'xtalishni joiz, deb hisoblaymiz. Modernizatsiya so'zi lotincha "modernus" so'zidan kelib

chiqqan bo'lib, u "zamonaviy", "yangi", "hozirgi" degan ma'nolarni anglatadi. Bu so'z o'z navbatida "modus" ("usul", "tartib") so'zidan kelib chiqqan. Fransuzcha "modernisation" ("zamonaviylashtirish") so'zi 18–19-asrlarda Yevropada ishlatila boshlangan. Bu so'z san'at, texnologiya, ijtimoiy va siyosiy tizimlarni yangilashni anglatgan. Ingliz tilida "modernization" atamasi 19-asrda ilk bor qo'llanilgan bo'lib, u sanoat inqilobi davrida texnika va jamiyatni yangilash jarayonlarini ifodalagan. Bu atama sovet tuzumi davrida rus tili orqali o'zbek tiliga kirib kelgan bo'lib, o'zbek tilida "zamonaviylashtirish", "yangilash", "islohot" ma'nolarida ishlatiladi. Xulosa qilib aytganda, modernizatsiya tushunchasi bu – muayyan tizim yoki sohani zamonaviy talablarga moslashtirish orqali uni texnik, ijtimoiy yoki madaniy jihatdan rivojlantirish jarayonini anglatadi.

Kontent tahlillarimiz mustaqillik yillarida O'zbekistonda keng ko'lamli modernizatsiya jarayoni amalga oshirilib kelinayotganini va bu jarayonni ifodalashda aksariyat hollarda "islohot" so'zi qo'llanilishini ko'rsatadi. Ya'ni, islohot tushunchasining mazmuni modernizatsiya tushunchasiga ma'nodoshligi anglashiladi. Chunki "islohot" definitsiyasining turli til va sohalarga mos ma'nolari mavjud. Masalan, "islohot" so'zining o'zbek tilidagi ma'nosiga ko'ra – biror sohada tuzatish, yangilash yoki yaxshilashga qaratilgan o'zgartishlarni bildiradi. Islohot ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy yoki ma'naviy jarayonlarni takomillashtirish uchun amalga oshiriladi.

Islohot so'zining arab tilidagi ma'nosi "islohot" so'zidan kelib chiqqan. bo'lib, إصلاح. Bu so'zning arab tilidagi ma'nosi "yaxshilashlar", "to'g'rilashlar" yoki "yangilashlar", "tartibga solish" degan ma'nolarni anglatadi. "Islohot" tushunchasining qonunchilikdagi ma'nosi qonun yoki nizomlar asosida amalga oshiriladigan tuzatish va o'zgarishlar bo'lib, bu o'zgarishlar davlat boshqaruvi yoki jamiyatdagi tizimni takomillashtirish uchun amalga oshiriladi. Islohotning tarixiy ma'nosi ko'pincha siyosiy yoki iqtisodiy tizimni yangilash maqsadida shu mamlakat tarixida amalga oshirilgan ulkan yangilanishlarni ifodalaydi. Masalan, O'zbekistonda pedagogning maqomi yangilanishi, ta'lim sohasidagi islohotlar shular jumlasidandir. Islohot so'zining iqtisodiy ma'nosi ham mavjud bo'lib, bu iqtisodiy sohani modernizatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish uchun amalga oshiriladigan tuzatishlar. Masalan, bozor iqtisodiyotiga o'tish, konvertatsiya sohasidagi islohotlar va h.k.

Islohot so'zining ijtimoiy ma'nosi jamiyatning ma'naviy va madaniy rivojlanishiga qaratilgan o'zgarishlarni bildiradi. Bu, asosan, davlatning inson huquqlari, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalridagi davlat dasturlarida namoyon bo'ladi va amalga oshiriladi. Shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasining huquqiy-me'yoriy hujjatlarida, OAVlarida, ijtimoiy tarmoqlari kontentida doimiy trendda turgan "islohot" so'zining barcha sohalardagi ma'nolarini umumlashtirib aytganda, tuzatish va yangilash ma'nolarini ifoda etadi. Uning mazmuni va qo'llanishi kontekstiga qarab modernizatsiya tushunchasining ma'nosini berib turadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, biz tadqiqotimiz kontekstida modernizatsiya tushunchasida "islohot"ni ham mujassam tushungan holda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning identiv maqsadini Davlat va jamiyat tomonidan qo'yilayotgan yangi talablarga moslashtirish, ijodiy-ma'rifiy ta'minlash va ushbu jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga qarshi kurashishning zamonaviy jarayoni tarzida talqin qilamiz.

Tarbiya sohasini modernizatsiya qilish aksar hollarda davlat rahbarlari tashabbuslari bilan boshlanadi. Prezident Sh.Mirziyoyev 2021 yilning 19 yanvar kuni "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish"

masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida: "...bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti. Shuningdek, terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda", - deb a'lohida ta'kidladi [1].

Ushbu ogohlikka va tarbiyaviy modernizatsiyaga da'vat o'zining tarixiy asoslariga ega. Jamiyatning umumiy taraqqiyoti faqatgina iqtisodiy yuksalish bilangina belgilanmaydi. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin.

Buyuk Rim imperiyasi insoniyat tarixidagi eng ulkan va nufuzli imeperiyalardan biri bo'lib, uning hududlari Yevropa, Osiyo va Afrika qit'alarida joylashgan. Ushbu ulkan imperiya salkam besh asr mobaynida uch qit'ada hukmronlik qildi. Imperiya o'zining davrida ulkan taraqqiyotni boshidan kechirdi: ilm fan yuksak nuqtalarga yetdi, madaniy sohada butun dunyoga o'rnak bo'ldi, odamlarning turmush tarzi oshdi, davlat boshqaruvining o'sha davr uchun o'ta yangi bo'lgan modellari joriy etildi. Shunday qudratli imperiya oxir-oqibat tanazzul va inqirozga uchrab, parchalanib ketdi. Buning sabablari ko'p, lekin bu sabablarning ichida o'sha jamiyatning ma'naviy ahloqiy tanazzuli va inqirozi alohida o'rin egallaydi. Jamiyatning ma'naviy ahloqiy tanazzulga va inqirozga yuz tutishining sabablari shu ediki, insonlar moddiy to'kin sochinlik, moddiy boylikka rujo' qo'yib, ma'naviy axloqiy mezonlarni tobora unuta boshlashdi[2].

Ma'naviy axloqiy mezonlarning inkor qilinishi aholida ijtimoiy apatiya (befarqlik) holatini keltirib chiqardi, bu esa o'z o'rnida ma'naviyat va vatanparvarlik ruhining parchalanishiga olib keldi. Buning oqibatida esa madaniyat, san'at sohalari ham inqirozga yuz tuta boshladi. Oxir oqibat ma'naviy inqiroz va tanazzulga uchragan davlatning parchalanishi yuz berdi. Xullas, davlatlarning tanazzuli g'oyaviy inqirozdan va g'oyaviy inqiroz esa, g'oyaviy tarbiyadagi stagnatsiya jarayonlariga borib taqalishini tarixiy jarayonlar ko'p bor tasdiqlaydi. Bu esa ma'naviy-ma'rifiy ishlarni, mafkuraviy, g'oyaviy tarbiyani zamon bilan hamnafas, ya'ni modernizatsiyasini ta'minlab borishni talab qiladi.

G'oyaviy tarbiyani modernizatsiyalashning global talablaridan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasi minbaridan e'lon qilindi. Bu jahon hamjamiyati tomonidan "Jaholatga qarshi ma'rifat" bilan kurash tamoyili sifatida e'tirof etildi va qo'llab quvvatlandi, joriy etildi. Jaholat faqat din sohasida emas, balki iqtisodiyot sohasida ham, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat tizimida ham, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida duch kelishi mumkin. Bu illatga ma'naviyat, ma'rifat, g'oyaviy tarbiya bilan qarshi turilmasa, milliy yuksalish, taraqqiyot va rivojlanishning ma'naviy qudratini ta'minlab bo'lmaydi.

Mamlakatimizda 2017 yildan boshlab uzluksiz ta'limning har bir bo'g'inida tarbiya tizimini takomillashtirish va bu jarayonga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuvni amalga oshirishda ta'lim muassasalari, oila va mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarish, ular orasida milliy, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ilmiy-metodik uzviylikni sifat jihatdan yuqori darajaga ko'tarish kabi ijtimoiy pedagogik vazifalar belgilab berildi. Buning natijasida "O'zbekiston

taraqqiyotining yangi bosqichi talablari asosida yoshlarda tayanch ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalashning mazmunini takomillashtirish, axborotli muhitda tezkor ta'sir chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash mexanizmlarini modernizatsiyalash imkoniyati kengaydi"[4].

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning modernizatsiyalashishi g'oyaviy hushyorlikni, kompetentsiyalarni yoshlarning kundalik hayotdagi uquvlariga, xulq-atvor me'yorlariga aylantiradi. Zero, akademik A.Saidov ta'kidlaganidek, "Hozirgi bosqichda fuqarolik jamiyatining demokratik negizlarini shakllantirish faqat Konstitutsiya va O'zbekiston qonunchiligining asosiy qoidalarini bilishnigina emas, balki o'zining amaliy faoliyatida Konstitutsiya ko'rsatmalariga amal qilishni ham taqozo etadigan yuksak konstitutsiyaviy madaniyat qaror topishi vazifalari bilan bevosita bog'liqdir. Muayyan bilimlarga ega bo'lish mumkin, biroq, ularni amaliyotda qo'llash uquvi bo'lmasligi mumkin" [5].

Pedagogika fanlari doktori A.A.Ismanova o'zining diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda pedagogik profilaktik ishlar tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borgan tadqiqotida mavjud tarbiya tizimini isloh qilish zarurati mohiyatini: "... Globallashtirish, hayot o'ta tezlashgan, tahlikali, murakkab zamon ilgari ota-bobolarimiz duch kelmagan tarbiyaviy vazifalarni, talablarni oldimizga qo'yimoqda. Zamon talablarini sezmasdan, yoshlar bilan olib borilayotgan

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni eskicha uslubda davom ettirsak, bu ishlarimiz zamondan orqada qoladi", - deb ta'kidlaydi [3].

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi fikrlar umumiy o'rta ta'lim muassasalari ma'naviy-ma'rifiy ishlarni, ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimini modernizatsiyalashda qator muammolarni hal etishni taqozo etadi. Jumladan:

- har bir umumiy o'rta ta'lim muassasasida "Ma'naviyat sektori" negizida yangi ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaratish;

- jamiyat hayotida keng ko'lamli mafkuraviy tarbiyaviy axborot muhitini yaratish;

- Z va alfa avlodlarda Vatanga sadoqat, milliy g'urur fazilatlarni, milliy g'oyaga doir bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni qaror toptirish va bu bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish, bu borada amaliy ko'nikma va malakalarning kompetentsiyalar darajasiga ko'tarilishini ta'minlash;

- yoshlar ongida "Yangi O'zbekiston - Uchinchi Renessans sari" milliy g'oyasi interiorizatsiya va eksteriorizatsiyasining pedagogik asoslarini zamonaviylashtirish;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ko'lami hamda sifatini oshirish va ularning hayotiyiligini ta'minlash ham shular jumlasidandir. Zero, dunyodagi mafkuraviy tortishuvlar va axborot xurujlari o'sib kelayotgan yosh avlodni g'oyaviy tarbiyalash oldiga yangi, zamonaviy talablarni qo'yimoqda.

ADABIYOTLAR

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2021 yilning 19 yanvar kuni "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish" masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda so'zlagan nutqi. <https://old.gov.uz/oz/news/view/29697>
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilari uchun uslubiy qo'llanma. [Matn]: qo'llanma/ S.Xafizov, T.Arslonov, Sh.Jumanov, A.Halimov. – T; Zarvaraq nashriyoti. 2022. - 92 b.
3. Ismanova A.A. Kasb-hunar kollejlari diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi profilaktik ishlarning ijtimoiy-pedagogik tizimini takomillashtirish. Ped. fan. dokt... diss. –Chirchiq, 2018. – 100 b.
4. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik. – T; Sahhof. 2023. 176 - bet.
5. Saidov A. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi: yaratilishi, qabul qilinishi va ijro etilishi. Xalq so'zi. 2024 yil 30 noyabr №249



UDK:327.1(8)

Orasta ZIYATOVA,
Toshkent shahridagi 282-maktab o'qituvchisi
E-mail: orasta.murodillayevna@mail.ru

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, tarix fanlari doktori O.Radjabov taqrizi asosida

THE ROLE OF MIGRATION PROCESSES IN IMPLEMENTING THE "SOFT POWER" POLICY OF STATES

Annotation

The article analyzes the global significance of migration processes, their transnational nature, and the role of diasporas in enhancing states' foreign policy positions. Complex issues related to the social impact of labor migrants and return migration are examined. The importance of migration processes as a tool for states to implement "soft power" policy is emphasized. Special attention is given to the strategic importance of these processes and the need for their effective management.

Key words: migration, transnational process, diaspora, labor migrant, return migration, soft power, foreign policy.

РОЛЬ МИГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В РЕАЛИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВАМИ ПОЛИТИКИ "МЯГКОЙ СИЛЫ"

Аннотация

В статье проанализирована глобальная значимость миграционных процессов, их транснациональная природа и роль диаспор в усилении внешнеполитической позиции государств. Рассмотрены сложные вопросы социального влияния трудовых мигрантов и обратной миграции. Подчеркнута важность миграционных процессов как инструмента реализации политики «мягкой силы» государствами. Особое внимание уделено стратегическому значению этих процессов и необходимости их эффективного управления.

Ключевые слова: миграция, транснациональный процесс, диаспора, трудовой мигрант, обратная миграция, «мягкая сила», внешняя политика.

MIGRATSIYA JARAYONLARINING DAVLATLAR «YUMSHOQ KUCH» SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDAGI ROLI

Annotatsiya

Maqolada migratsiya jarayonlarining global ahamiyati, ularning transmilliy xususiyati va diasporalar orqali davlatlarning tashqi siyosatdagi rolini oshirishdagi o'rni tahlil qilingan. Mehnat muhojirlari orqali ijtimoiy ta'sir va qaytish migratsiyasi kabi murakkab masalalar ko'rib chiqilgan. Migratsiya jarayonlari davlatlar uchun «yumshoq kuch» siyosatini amalga oshirishda muhim vosita ekanini asoslangan. Mazkur jarayonlarning strategik ahamiyati va ularni samarali boshqarish zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: migratsiya, transmilliy jarayon, diaspora, mehnat muhojiri, qaytish migratsiyasi, «yumshoq kuch», tashqi siyosat.

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida davlatlar o'rtasidagi raqobat faqat iqtisodiy va harbiy kuch orqali emas, balki madaniy, axborot va ta'lim sohalarida ham namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa xalqaro munosabatlarda «yumshoq kuch» konsepsiyasining ahamiyati oshib bormoqda. Davlatlar o'zining madaniy merosi, til siyosati, ta'lim dasturlari, ommaviy axborot vositalari va diasporalari orqali tashqi dunyoda ijobiy imidj yaratishga intilmoqda. Bu jarayonda migratsiya – inson harakatchanligi orqali shakllanadigan transmilliy ijtimoiy aloqalarning markazida turibdi.

Migratsiya jarayonlari orqali davlatlar nafaqat iqtisodiy manfaatlariga erishmoqda, balki o'zlarining xalqaro nufuzini kuchaytirish, madaniyatini tarqatish va siyosiy ta'sirini oshirish imkoniga ham ega bo'lmoqda. Shuning uchun ham migratsiya va «yumshoq kuch» tushunchalarining o'zaro bog'liqligini ilmiy jihatdan tahlil qilish, bu sohadagi milliy strategiyani shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda dunyo bo'ylab 280 milliondan ortiq inson o'z vatanini tark etib, boshqa mamlakatlarda yashamoqda. Ular orasida mehnat muhojirlari, ta'lim maqsadida ko'chgan talabalar, muhojirlar, qochqinlar va fuqarolik olgan migrantlar ham bor. Bu jarayon jahon siyosiy xaritasini qayta shakllantirib, transmilliy aloqalarni kuchaytirmoqda va davlatlararo munosabatlarga yangi mazmun baxsh etmoqda.

Migratsiya jarayonlari, ayniqsa, zamonaviy globallashuv sharoitida, davlatlar uchun ikki tomonlama ta'sirga ega bo'lgan strategik omilga aylanmoqda. Bir tomondan, migrantlarni qabul qiluvchi davlatlar uchun bu jarayon iqtisodiy rivojlanish, demografik barqarorlik va madaniy xilma-xillik manbai hisoblanadi. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda migratsiya mehnat resurslarini to'ldirish, soliq tushumlarini oshirish va jamiyatning madaniy boyishida muhim o'rin tutadi. Ikkinchi tomondan esa, migrantlar yuboruvchi davlatlar uchun tashqi mehnat bozori orqali valyuta tushumlari olish, fuqarolarni ish bilan ta'minlash va hatto tashqi siyosatda o'z nufuzini oshirish imkonini beradi. Shu sababli, zamonaviy geosiyosiy muhitda migratsiya faqat ijtimoiy muammo emas, balki strategik resurs sifatida qarala boshlandi.

Bu jarayon «yumshoq kuch» (soft power) konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq. «Yumshoq kuch» atamasi amerikalik siyosatshunos Jozef S. Nay (Joseph S. Nye) tomonidan ilk bor 1990-yillarda ilgari surilgan bo'lib, u mamlakatlarning madaniy jozibadorligi, siyosiy qadriyatlar va tashqi siyosat orqali boshqalarga ta'sir ko'rsatish qobiliyatini anglatadi. Agar «qattiq kuch» (hard power) harbiy yoki iqtisodiy bosimga asoslangan, «yumshoq kuch»da ishonch, jozibadorlik va madaniy ta'sir kabi omillar ustuvor ahamiyatga ega.

«Yumshoq kuch» orqali davlatlar zo'ravonlik yo tahdidsiz, balki axborot, ta'lim, san'at, til va milliy qadriyatlar

vositasida xalqaro maydonda o'z manfaatlarini ilgari suradi. Bu jarayonda, ayniqsa, migratsiyaning alohida ahamiyati bor: chet ellarda yashovchi fuqarolar, talabalar, mehnat muhojirlari va diaspora vakillari orqali amalga oshiriladigan madaniy diplomatiya ("cultural diplomacy") davlatning tashqi siyosatini qo'llab-quvvatlashda samarali vositaga aylangan.

Jozef Nayning "Soft Power: The Means to Success in World Politics" (2004) va "Bound to Lead: The Changing Nature of American Power" (1990) asarlari "yumshoq kuch" nazariyasining asosiy nazariy manbalari sifatida xizmat qiladi. Ushbu ishlarida u madaniyat, siyosiy qadriyatlar, tashqi siyosat, ta'lim va axborot texnologiyalarini "yumshoq kuch" manbalari sifatida ta'riflaydi. Shuningdek, Nay va Robert Keoxeynning "Power and Interdependence in the Information Age" (1998) maqolasida axborot asridagi global bog'liqlik va kommunikatsiyaning ahamiyati chuqur tahlil qilingan.

Bundan tashqari, "Public Diplomacy and Soft Power" (2008) hamda "The New Public Diplomacy: Soft Power in International Relations" (2005) kabi asarlarda jamoatchilik diplomatiyasining amaliy mexanizmlari va xalqaro aloqalardagi roli yoritib berilgan. XXI asrda «kuch» tushunchasi qanday o'zgargani va qanday yangi shakllarga aylangani esa Nayning "The Future of Power" (2011) asarida tahlil etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini obyektivlik va tarixiylik tamoyili, fenomenologik va germeneytik yondashuvlar, tizimlashtirish usullari tashkil etadi. Shuningdek, maqolada ma'lumotlarni tahlil qilishda statistik usuldan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Hozirgi globallashuv davrida migratsiya jarayonlari jahon siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida muhim o'rin tutadi. Davlatlar o'rtasida aholi oqimining ortishi, yangi ish o'rinlari va ta'lim imkoniyatlariga bo'lgan ehtiyojning o'sishi bilan birga, migratsiyaning turli ko'rinishlari - xalqaro va ichki migratsiya - o'zining ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Migratsiya jarayonlari nafaqat shaxslar hayotini o'zgartirar ekan, balki davlatlarning tashqi va ichki siyosatlarida, jumladan, «yumshoq kuch» siyosatida muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro migratsiya - bu davlatlar orasida aholi ko'chishining tarzi bo'lib, u global darajada madaniy almashinuv va iqtisodiy hamkorlikning asosiy elementi sifatida qaraladi. Uning sabablari turlicha bo'lishi mumkin: iqtisodiy imkoniyatlarni izlash, ta'lim olish, siyosiy panoh, urug'-tomonlardan qochish va hokazo. Xalqaro migratsiya global dunyoda jismoniy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bilan yaqin bog'liq bo'lib, davlatlar o'rtasida madaniy almashinuv va hamkorlikni mustahkamlaydi. Hozirgi kunda jahonda 281

Ichki migratsiyaning asosiy sabablari va ularning aholi ko'chishidagi ulushi quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Sabablar	Ulushi (%)	Izohlar
Ishga joylashish imkoniyatlari	45%	Qishloq aholisining shaharlarga ish izlab ko'chishi
Ta'limga bog'liq ko'chish	25%	Yoshlar va oilalarning ta'lim olish uchun ko'chishi
Sog'liqni saqlash xizmatlari	10%	Yangi tibbiy xizmatlar va sog'likni tiklash muassasalariga yaqinlik
Oilaviy sabablar	12%	Oila a'zolari bilan birlashish, nikoh kabi sabablar
Tabiiy ofatlar va boshqa	8%	Zilzila, suv toshqinlari kabi tabiiy ofatlar yoki texnogen xarakterdagi fojialar sababli ko'chishlar

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, aholining ichki ko'chishidagi asosiy omil – ishga joylashish imkoniyatlari (45%). Bu ko'rsatkich, ayniqsa, qishloq joylardan shaharlarga mehnat muhojirligi orqali amalga oshadigan ko'chishlarni aks ettiradi. Iqtisodiy faol aholi, ayniqsa yoshlar, ish o'rinlari ko'p bo'lgan yirik shaharlar va sanoat markazlariga intiladi. Bu holat shaharlar aholisining tez o'sishiga, qishloq hududlarda esa mehnat resurslarining kamayishiga olib kelmoqda.

millionga yaqin xalqaro migrant mavjud bo'lib, ularning qariyb yarmi ayollardir. Xalqaro migratsiya davlatlar uchun «yumshoq kuch» siyosatining muhim instrumenti hisoblanadi (Migration Data Portal, 2024).

Jahon miqyosida xalqaro migratsiya jarayonlari har yilda ko'plab odamlarning o'z mamlakatidan tashqariga ko'chib o'tishiga sabab bo'lib, bu jarayonlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ta'siri katta ahamiyatga ega. 2020-yilda dunyoda taxminan 281 million xalqaro migrant mavjud bo'lgan. Ular orasida ayollar 48% ni tashkil etadi, shuningdek, 13% yosh 18 yoshgacha bo'lgan bolalardan iborat. Bu ko'rsatkichlar xalqaro migratsiyaning jamiyatning barcha qatlamlariga ta'sir o'tkazishi va migratsiya jarayonlarida yosh va jins jihatidan xilma-xillik mavjudligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy jihatdan migrantlar tomonidan yuboriladigan pul mablag'lari - remitanslar - past va o'rta daromadli mamlakatlar iqtisodiyoti uchun muhim manba hisoblanadi. 2023-yilda jahonda ushbu mablag'larning umumiy miqdori taxminan 857 milliard AQSH dollarini tashkil etgan. Bu pul oqimlari mamlakatlardagi ijtimoiy soha va infratuzilmani rivojlantirishga ko'maklashadi, shu bilan birga xalqaro iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, xalqaro migratsiya jarayonlari majburiy ko'chish va qochqinlar muammosi bilan ham bog'liq. 2023-yil oxiriga kelib, dunyoda 117 milliondan ortiq odam o'z uylarini turli sabablar, jumladan jangovar nizolar va tabiiy ofatlar sababli tark etgan. Shular orasida taxminan 44 million qochqin va panoh izlovchi mavjud bo'lib, bu holat xalqaro jamoatchilikni inson huquqlarini himoya qilish va tinchlik o'rnatish yo'lida ko'plab muammolarga duch keltiradi.

Umuman olganda, xalqaro migratsiya jarayonlari global dunyodagi davlatlar uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, ular «yumshoq kuch» siyosatini amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Migrantlar orqali davlatlar madaniy va ilmiy-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, o'z ta'sir doirasini kengaytirish imkoniga ega bo'ladi.

Ichki migratsiya - bu bir davlat hududidagi bir joydan boshqa joyga ko'chib o'tishdir. Bu odatda qishloqdan shaharga yoki bir shahardan boshqa shaharga ko'chish shaklida yuzaga keladi. Ichki migratsiyaning asosiy sababi - ish o'rinlari, ta'lim imkoniyatlari va hayot darajasining yaxshilanishiga bo'lgan intilishdir.

Ichki migratsiya mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, shaharlar tezroq o'sadi va aholi strukturasi o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, ichki migratsiya infratuzilmaga bosim o'rnatishi mumkin.

Ta'limga bog'liq ko'chishlar (25%) ichki migratsiyaning ikkinchi asosiy sababi hisoblanadi. Bu ko'proq yoshlarning oliy o'quv yurtlari, kollejlar va litseylarda ta'lim olish maqsadida boshqa hududlarga ko'chishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, ba'zi hollarda oilaviy ko'chish ham ro'y beradi, ya'ni talabalar bilan birgalikda ularning oila a'zolari ham yashash joyini o'zgartiradi.

Sog'liqni saqlash xizmatlari (10%) bilan bog'liq ko'chishlar ko'proq katta yoshdagi va kasallikka moyil aholi qatlami orasida kuzatiladi. Zamonaviy tibbiyot muassasalari, mutaxassislar va diagnostika imkoniyatlariga ega markazlarga yaqin bo'lish istagi ko'chish qarorlarini shakllantiradi.

Oilaviy sabablar (12%) - nikoh, oila a'zolari bilan yashash, qarindoshlarga yordam berish kabi omillar asosida amalga oshadigan ko'chishlarni qamrab oladi. Bu turdagi ko'chishlar, odatda, ixtiyoriy va doimiy xarakterga ega bo'ladi.

Tabiiy ofatlar va boshqa sabablar (8%) ichki migratsiyada kamroq ulushga ega bo'lsa-da, ularning ta'siri ba'zan juda keskin bo'lishi mumkin. Zilzila, toshqin, yer ko'chishi, yoki texnogen fojialar - masalan, ekologik ifloslanish, sanoat portlashlari - odamlarni o'z uy-joylarini tark etishga majbur etadi.

Ichki migratsiya jarayonlari ko'p omilli va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liq. Iqtisodiy omillar - xususan, ishga joylashish - asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'lib, uni ta'lim va ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlar kuzatib boradi. Shuning uchun davlat siyosatchilari va demografik rejalashtirish muassasalari ushbu omillarni hisobga olgan holda hududlararo rivojlanishni muvozanatlashtirish choralarini ko'rishlari lozim.

Xulosa. Migratsiya jarayonlari zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy va transmilliy tabiatga ega bo'lib, davlatlarning xalqaro arenadagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy pozitsiyalarini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Diasporalar orqali davlatlar «yumshoq kuch» siyosatida o'z manfaatlarini ilgari surishda samarali resursga aylanmoqda. Ularning vataniga sadoqat va turli davlatlardagi ta'siri davlatlarga yangi tashqi siyosat vositalarini yaratish imkonini beradi.

Migratsiyaning transmilliy xususiyati davlatlarga yangi strategiya va mexanizmlarni ishlab chiqish zaruratini tug'diradi, bu esa tashqi siyosatda innovatsion va ko'p qirrali yondashuvlarni qo'llashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat muhojirlari va qaytish migratsiyasi iqtisodiy va madaniy jihatdan mamlakat rivojiga hissa qo'shib, ijtimoiy bog'liqliklarni mustahkamlaydi hamda davlatning xalqaro imidjini oshiradi.

Shu bilan birga, migrantlarning integratsiyasi va huquqlarini himoya qilish, diasporalar bilan munosabatlarni mustahkamlash ichki siyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Migratsiya jarayonlarini to'g'ri boshqarish va ulardan samarali foydalanish davlatlarning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshiradi hamda milliy manfaatlarini muvaffaqiyatli ilgari surishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Castles, S. & Miller, M. J. The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World. London: Macmillan, 2009.
2. Castles, S., de Haas, H., & Miller, M. J. The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World. New York: Palgrave Macmillan, 2014.
3. De Haas, H. (2010). «Migration and Development: A Theoretical Perspective». International Migration Review, 44(1), 227-264.
4. Gamlen, A. (2014). Diaspora Institutions and Diaspora Governance. International Migration Review, 48(1), S180-S217.
5. Brinkerhoff, J. M. (2006). Digital Diasporas: Identity and Transnational Engagement. Cambridge University Press.
6. Ragazzi, F. (2009). Theories of Diaspora: A Critical Review. International Political Sociology, 3(1), 74-86.
7. Haas, H. (2009). International migration and regional development in Morocco: A review. Journal of Ethnic and Migration Studies, 35(10), 1575-1593.
8. IOM. World Migration Report 2022. International Organization for Migration, 2022.
9. IOM. World Migration Report 2024. <https://www.iom.int/news/world-migration-report-2024-reveals-latest-global-trends-and-challenges-human-mobility>
10. Migration Data Portal. Key Migration Figures. 2024. <https://www.migrationdataportal.org/>
11. Nye, J. S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. New York: PublicAffairs, 2004.
12. Nye, J. S. Bound to Lead: The Changing Nature of American Power. New York: Basic Books, 1990.
13. Nye, J. S. "Soft Power." Foreign Policy, no. 80, 1990, pp. 153-171.
14. Nye, J. S. & Keohane, R. O. "Power and Interdependence in the Information Age." Foreign Affairs, vol. 77, no. 5, 1998, pp. 81-94.
15. Nye, J. S. The Future of Power. New York: PublicAffairs, 2011.
16. Nye, J. S. "The Changing Nature of World Power." Political Science Quarterly, vol. 105, no. 2, 1990, pp. 177-192.
17. Melissen, J. (Ed.). The New Public Diplomacy: Soft Power in International Relations. New York: Palgrave Macmillan, 2005.
18. Leonard, M., Stead, C. & Smewing, C. Public Diplomacy and Soft Power. London: Foreign Policy Centre, 2008.
19. World Bank. Internal Migration in Developing Countries: A Review of the Literature. 2023. <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/>
20. UN DESA. International Migration 2020 Highlights. <https://www.un.org/en/development/desa/population/theme/international-migration>
21. UNHCR. Global Trends: Forced Displacement in 2023. <https://www.unhcr.org/globaltrends2023/>
22. Ergashev, Sh. «Mehnat muhojirligi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri», Ilmiy jurnal, 2023.
23. Hasanova, M. «O'zbekistonda mehnat muhojirligi: muammolar va yechimlar», Toshkent, 2022.
24. Sodiqov, A. «O'zbekistonda mehnat muhojirligining ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri va qaytish migratsiyasi», Toshkent, 2021.
25. Kochanova, A. (2021). Central Asian Migrants in Russia: Between Integration and Cultural Retention. Central Asia Affairs, 8(2), 134-153.
26. BMT Migratsiya Byurosi (IOM) — qaytish migratsiyasi va uni boshqarish bo'yicha xalqaro tahlillar: IOM Return and Reintegration. <https://www.iom.int/return-and-reintegration>



UDK:37.015.31:82

Surayyoxon IBROXIMOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti magistranti
E-mail:surayyobrohimova@gmail.com

O'zMU dotsenti v.b D.Xudoyberganova taqrizi asosida

USE OF MODULAR EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN LITERATURE LESSONS

Annotation

This article comprehensively analyzes the issues of using modular educational technology in literature lessons. The theoretical foundations of modular education, its advantages and possibilities of application in literature are described in detail. The article shows the role of modular education in developing students' independent thinking, creative approach and artistic analysis skills. The results of scientific research, practical examples and problems encountered in the implementation of this technology are also considered. Modular education serves to make literature lessons more effective, systematic and interesting.

Key words: modular education, literature lesson, pedagogical technology, independent thinking, creative approach, artistic analysis, educational process, educational modules, assessment system, teaching methodology, innovative education.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МОДУЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация

В данной статье комплексно анализируются вопросы использования модульной образовательной технологии на уроках литературы. Подробно изложены теоретические основы модульного обучения, его преимущества и возможности применения на уроках литературы. В статье показана роль модульного обучения в развитии самостоятельного мышления, творческого подхода и навыков художественного анализа учащихся. Также рассмотрены результаты научных исследований, практические примеры и проблемы, возникающие при реализации данной технологии. Модульное обучение позволяет сделать уроки литературы более эффективными, системными и интересными.

Ключевые слова: модульное обучение, урок литературы, педагогическая технология, самостоятельное мышление, творческий подход, художественный анализ, образовательный процесс, образовательные модули, система оценивания, методика обучения, инновационное образование.

ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyot darslarida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish masalalari keng ko'lamda tahlil qilingan. Modulli ta'lim nazariy asoslari, uning afzalliklari va adabiyot fanida qo'llanish imkoniyatlari batafsil yoritilgan. Maqolada modulli ta'limning o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi hamda badiiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar natijalari, amaliy misollar va ushbu texnologiyani joriy etishda duch kelinadigan muammolar ham ko'rib chiqilgan. Modulli ta'lim adabiyot darslarini samaraliroq, tizimli va qiziqarli o'tkazishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: modulli ta'lim, adabiyot darsi, pedagogik texnologiya, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, badiiy tahlil, ta'lim jarayoni, o'quv modullari, baholash tizimi, o'qitish metodikasi, innovatsion ta'lim.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar doimiy rivojlanib, yangi metod va yondashuvlar joriy etilmoqda. Shulardan biri - modulli ta'lim texnologiyasi, ya'ni ta'lim mazmunini kichik, mustaqil o'quv bloklarga bo'lib taqdim etish usuli. Bu yondashuv o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini bosqichma-bosqich, tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi [1].

Adabiyot fani murakkab va ko'p qirralik xususiyatga ega bo'lib, unda adabiy janrlar, tarixiy kontekst, badiiy tahlil, yozuvchi ijodi kabi ko'plab elementlarni o'rganish talab etiladi. Shu bois, modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish adabiyot darslarini yanada samarali va mazmunli o'tkazishga imkon yaratadi. Modulli yondashuv o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv hamda matnlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Modulli ta'lim texnologiyasining nazariy asoslari

Modulli ta'lim – bu ta'lim jarayonini maqsadli, mustaqil bo'laklarga (modullarga) bo'lishdir. Har bir modulda aniq belgilangan maqsadlar, mazmun va faoliyat shakllari

mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning individual xususiyatlari va ehtiyojlariga mos keladi [2].

An'anaviy ta'lim usullaridan farqli ravishda, modulli yondashuvda o'quv jarayoni kichik bosqichlarga bo'linadi, bu esa o'quvchilarga mavzuni mustaqil o'zlashtirish va o'zlashtirish darajasini nazorat qilish imkonini beradi. Konstruktivizm nazariyasi asosida o'quvchi o'z bilimini faol quradi, shu sababli modulli ta'limda o'quvchi markaziy o'rin tutadi.

Adabiyot darslarida modulli ta'lim texnologiyasining mohiyati

Adabiyot fani o'zining ko'p qirraligi bilan ajralib turadi – unda turli janrlar, mualliflarning ijodiy uslublari, tarixiy va madaniy kontekst, badiiy tahlil o'rganiladi. Shu bois, adabiyot darslarini modullarga ajratish o'quv jarayonini tizimli tashkil etishga yordam beradi.

Misol uchun, darslikda “She'riyat”, “Proza”, “Dramaturgiya” kabi modullar ajratilishi mumkin. Har bir modulda o'quvchilarga tegishli janr xususiyatlari, muallif hayoti va ijodi, badiiy tahlil va ijodiy ishlar taqdim etiladi.

Modullar yosh va bilim darajasiga mos tarzda tuziladi, bu esa o'quvchilarni mavzuga qiziqtiradi va chuqurroq tushunishga yordam beradi [3].

Modulli ta'lim texnologiyasining afzalliklari:

1. Ta'lim jarayonining tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi

Modulli ta'limda dars mazmuni kichik, mustaqil bo'laklarga - modullarga bo'linadi. Har bir modul o'zining aniq maqsadi, mazmuni va o'quv faoliyatlari bilan belgilanadi. Bu yondashuv o'quvchilarga mavzuni bosqichma-bosqich o'zlashtirish imkonini beradi, natijada murakkab mavzular ham osonroq o'rganiladi.

Misol: Adabiyot darsida "She'riyat janri" mavzusini o'rgatishda modul sifatida "She'riyatning asosiy xususiyatlari", "Mashhur shoirlar va ularning ijodi", "She'rlarni tahlil qilish metodlari" kabi mustaqil bo'laklar yaratiladi. Bu esa o'quvchilarga har bir modulni alohida egallash imkonini beradi va bilimlarning tizimli shakllanishiga xizmat qiladi.

2. O'quvchilarning mustaqil faoliyatini rag'batlantiradi

Modulli ta'limda har bir modul uchun o'quvchilarga mustaqil bajariladigan topshiriqlar beriladi. Bu o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi va ular faolligini oshiradi.

Misol: "Romantizm davri" mavzusida o'quvchilar romantik asarlarni o'qib, mualliflarning hayoti va ijodi haqida mustaqil izlanish olib boradilar, keyin esa o'z fikrlarini insho yoki taqdimot orqali ifoda etadilar. Bu jarayonda o'quvchilar o'z bilimlarini mustaqil mustahkamlash imkoniga ega bo'ladi.

3. Ta'lim jarayonida individual yondashuvni ta'minlaydi

Modulli ta'lim texnologiyasi har bir o'quvchining individual ehtiyojlari, bilim darajasi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'qitishni tashkil etishga imkon beradi. O'quvchilar o'zlariga qulay tezlikda harakat qilishi mumkin.

Misol: Dars davomida kuchli o'quvchilar qo'shimcha murakkab vazifalarni bajarish orqali chuqurroq bilim olishadi, zaif o'quvchilar esa asosiy modul bo'yicha takrorlash va osonlashtirilgan topshiriqlar orqali mavzuni yaxshiroq o'zlashtiradi.

4. Faol o'rganish va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi

Modulli ta'lim har bir modulda ijodiy va amaliy faoliyat turlarini kiritadi. Bu o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, ularni tahlil qilish va ijodiy qarorlar qabul qilishga o'rgatadi.

Misol: "Adabiy tahlil" modulida o'quvchilar matnni o'qib, undagi obrazlar, ramzlar va motivlarni guruhda muhokama qiladilar, o'zlarining ijodiy insho yoki she'rlarini yozadilar. Bu jarayon ularning tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini oshiradi.

5. Baholash tizimining aniqligi va shaffofligi

Modulli ta'limda har bir modul yakunida o'quvchining bilimlari va ko'nikmalari baholanadi. Bu baholash natijalari aniq va shaffof bo'lib, o'quv jarayonini doimiy nazorat qilishga imkon beradi.

Misol: "Dramaturgiya" modulida o'quvchilar dramalar asosida testlar, og'zaki taqdimotlar va yozma ishlar bajaradilar. Har bir topshiriq baholanadi, natijalar asosida o'qituvchi keyingi darslarda diqqatni qaysi jihatlariga qaratishni aniqlaydi.

6. O'quvchilar orasida hamkorlik va kommunikatsiyani rivojlantiradi

Modulli ta'lim ko'pincha guruh ishlari, muhokamalar va loyiha asosidagi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Bu o'quvchilarning jamoaviy ishlash ko'nikmalarini oshiradi.

Misol: "Adabiyot va zamonaviy madaniyat" modulida o'quvchilar guruh bo'lib, mashhur adabiy asarning zamonaviy

hayotga ta'siri haqida loyiha tayyorlaydilar va uni sinf oldida taqdim qiladilar.

7. Ta'lim jarayonini qiziqarli va motivatsion qiladi

Modulli ta'lim texnologiyasi darslarni qiziqarli va interaktiv o'tkazishga xizmat qiladi, o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Misol: She'riyat moduli doirasida o'quvchilar sevimli shoirlarning asarlarini o'qib, ular asosida video yoki rasmiy prezentatsiyalar yaratadilar. Bu esa darslarni yanada jozibador va esda qolarli qiladi.

Adabiyot darslarida modulli ta'lim quyidagi ustunliklarni beradi:

Faol o'rganish darajasi oshishi: Har bir modulga mos maxsus faoliyat turlari (matn tahlili, muallif hayoti bilan tanishish, ijodiy topshiriqlar) ishlab chiqiladi, bu o'quvchilarni faollashtiradi [4].

Mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv: O'quvchilar berilgan vazifalarni mustaqil tahlil qilib, yangi fikrlar yaratish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Baholash tizimining shaffofligi: Har bir modul yakunida o'quvchining o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalari aniq baholanadi, bu esa pedagogik jarayonni samaraliroq qiladi.

Individual yondashuv: Har bir o'quvchining qobiliyatiga va qiziqishlariga mos ravishda modullarni tanlash imkoniyati.

Moslashuvchanlik: Modullar o'quv dasturi va o'quvchilar darajasiga mos ravishda qayta tuzilishi mumkin.

Adabiyot darslarida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish misollari

Masalan, "O'zbek adabiyotining romantizm davri" mavzusida modul quyidagicha tashkil etilishi mumkin:

Modul maqsadi: Romantizm davrining adabiy va madaniy xususiyatlarini chuqur tushunish.

Mazmun: Romantik asarlar, taniqli yozuvchilar (Abdulla Qodiriy, Cho'lpon) hayoti va ijodi.

Faoliyatlar: Asarlar o'qish, tahlil qilish, guruh muhokamalari, ijodiy insholar yozish.

Baholash: Topshiriqlar, taqdimotlar, testlar orqali nazorat [5].

Dars jarayonida o'qituvchi modul bo'yicha materialni bosqichma-bosqich o'tib, o'quvchilarga mustaqil yoki guruh bilan ishlashni tashkil qiladi. Shu orqali mavzuni chuqurroq o'zlashtirish va fikr almashinuvi amalga oshadi.

Yana bir misol - "She'riyat janri va uning o'ziga xosligi" moduli, unda o'quvchilar she'rlarni tahlil qilish, o'zlarining she'r yozish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi.

Imiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar natijalari

O'zbekiston pedagog olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda modulli ta'lim texnologiyasi adabiyot darslarida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirgani tasdiqlandi [6]. Masalan, Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022-yildagi tajribasida modulli yondashuv yordamida o'quvchilarning badiiy tahlil ko'nikmalari 18-22% ga yaxshilangan.

Shuningdek, Rossiya, Qozog'iston kabi davlatlarda olib borilgan tadqiqotlar ham modulli ta'limning o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhimligini ko'rsatmoqda [7].

Xalqaro miqyosda esa UNESCO 2021 yilda chop etgan hisobotda modulli ta'lim ta'lim sifatini oshirish va 21-asr ko'nikmalarini shakllantirishda muhim pedagogik yondashuv sifatida e'tirof etilgan.

Muammolar va takliflar. Modulli ta'limni joriy etishda quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

O'qituvchilarning malaka darajasi: Modullarni sifatli ishlab chiqish va dars jarayonida samarali qo'llash uchun

o'qituvchilarning maxsus tayyorgarligi talab etiladi. Afsuski, bu borada hozirda yetarli imkoniyatlar mavjud emas [8].

Metodik materiallarning yetishmasligi: Ta'lim dasturlari va qo'llanmalar ko'p hollarda modulli yondashuvga mos kelmaydi yoki eskirgan.

Resurslar cheklanganligi: Zamonaviy elektron va interaktiv materiallar kamligi, texnik vositalarning yetishmasligi.

Muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

O'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

Modulli ta'lim uchun zamonaviy metodik qo'llanmalar va elektron resurslar ishlab chiqish.

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va monitoring tizimini yaratish.

Xulosa. Modulli ta'lim texnologiyasi adabiyot darslarida samarali va innovatsion pedagogik yondashuv sifatida o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda. Bu texnologiya ta'lim jarayonini kichik, aniq maqsadli modullarga ajratish orqali o'quvchilarga mavzuni bosqichma-bosqich va tizimli

o'zlashtirish imkonini beradi. Natijada, o'quvchilarning bilim darajasi sezilarli darajada oshadi, ular murakkab adabiy materiallarni yanada yaxshiroq anglab yetishadi.

Bundan tashqari, modulli ta'lim o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishga katta turtki beradi. Har bir modulga alohida e'tibor qaratilishi, o'quvchilarning faol qatnashuvi, muhokama va ijodiy vazifalar bilan shug'ullanishi ularning tanqidiy fikrlash va badiiy tahlil ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, o'quvchilar faqat bilim olish bilan cheklanmay, balki o'z fikrini ifoda etish, yangi g'oyalar yaratish, shuningdek, adabiyot asarlarini chuqur anglab tushunish kabi muhim ko'nikmalarni egallaydi.

Modulli ta'lim texnologiyasining yana bir muhim jihati - baholash tizimining shaffofligi va aniq bo'lishidir. Har bir modul yakunida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari sinovdan o'tadi, bu esa o'qituvchilarga o'quv jarayonini doimiy monitoring qilish va zarur o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu yondashuv o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va taraqqiyotini anglashga ham yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev A. (2020). Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Sharq.
2. Karimova L. (2019). Modulli ta'lim metodikasi. Toshkent: Ilm-fan.
3. Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti (2021). Adabiyot faniga oid modullar. Toshkent.
4. Smirnova E. (2019). "Modulli ta'lim va uning samaradorligi", Pedagogical Journal, 6(4), 78-85.
5. Qodirov I. (2023). O'zbek adabiyotida modulli yondashuv. Toshkent.
6. O'zbekiston Milliy universiteti (2023). Pedagogik tajribalar hisobotlari. Toshkent.
7. Petrova N. (2022). "Rossiyada modulli ta'limning rivojlanishi", International Journal of Education, 14(2), 45-53.
8. Karimova L., & Tursunov, N. (2024). "Modulli ta'limni rivojlantirish va takomillashtirish yo'llari", Ta'lim va taraqqiyot, 4(1), 27-40.



UDK: 159.9(572.8)

Durdonaxon ISLAMOVA,
Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: islamovadurdona24@gmail.com

GulDU professori, f.f.d D.Toshtemirov taqrizi asosida

STAGES OF TEACHING THE MODULE “HISTORY OF PEDAGOGY” IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT BASED ON THE HERITAGE OF THE JADIDS

Annotation

This article covers the stages of teaching the “History of Pedagogy” module based on the Jadids’ heritage in the context of digitalization of education. Comparative analysis and comparison methods were used to combine the advanced pedagogical views of the Jadids with modern educational technologies. Based on the results, a step-by-step teaching model was developed. Through these stages, students were able to develop critical thinking, a scientific approach to historical processes, and a worldview based on national values.

Key words: Digital education, history of pedagogy, Jadids’ heritage, module, teaching stages, innovative education, digitalization.

ЭТАПЫ ПРЕПОДАВАНИЯ МОДУЛЯ «ИСТОРИЯ ПЕДАГОГИКИ» В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НАСЛЕДИЯ ДЖАДИДОВ

Аннотация

В статье рассматриваются этапы преподавания модуля «История педагогики» на основе джадидского наследия в условиях цифровизации образования. Для соединения прогрессивных педагогических взглядов джадидов с современными образовательными технологиями использовались методы сравнительного анализа и сопоставления. На основании полученных результатов была разработана пошаговая модель обучения. Эти этапы создали возможность для учащихся развивать критическое мышление, научный подход к историческим процессам и мировоззрение, основанное на национальных ценностях.

Ключевые слова: Цифровое образование, история педагогики, наследие джадидов, модуль, этапы образования, инновационное образование, цифровизация.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA “PEDAGOGIKA TARIXI” MODULINI JADIDLAR MEROSI ASOSIDA O'QITISH BOSQICHLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta'limni raqamlashtirish sharoitida “Pedagogika tarixi” modulini jadidlar merosi asosida o'qitishning bosqichlari yoritilgan. Jadidlarning ilg'or pedagogik qarashlari zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirilishida qiyosiy tahlil, taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Natijalar asosida bosqichma-bosqich o'qitish modeli ishlab chiqildi. Ushbu bosqichlar orqali talabalarda tanqidiy fikrlash, tarixiy jarayonlarga ilmiy yondashuv va milliy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish imkoniyati yaratildi.

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lim, pedagogika tarixi, jadidlar merosi, modul, o'qitish bosqichlari, innovatsion ta'lim, raqamlashtirish.

“Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilmi-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur” [1]

Shavkat Mirziyoyev

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayonlari keng ko'lamda joriy etilmoqda [2]. Darsni tashkil etish jarayonidan boshlab, baholashga qadar bo'lgan ta'limning barcha qismlari to'la raqamli texnologiyalar bilan qurollantirilishi buning yorqin namunasidir. Jumladan, oliy ta'lim muassasalari uchun yaratilgan maxsus platformalar, elektron darsliklar, baholash tizmining raqamlashtirilishi shular jumlasidandir. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarni zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitish talabalarda chuqur tarixiy tafakkur va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi [3].

Ta'kidlash joziki, bugungi kundagi ta'lim-tarbiya, maorif tizimidagi ulkan yutuqlarning ildizi jadidchilik harakatiga, ularning olib borgan inqilobiy izlanishlariga hamda pedagogik harakatlariga borib taqaladi. Muhtaram yurtboshimizning quyidagi nutqlari fikrimiz dalili bo'lib xizmat qiladi. “... “Ertaga kech bo'ladi” - Prezident shunday

savol bilan yuzlandi: “Biz bugungi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob berayaptimi?”, “Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o'ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug' dunyoda “o'zbek”, “o'zbekistonlik”, “O'zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo'ladi”, - dedi Shavkat Mirziyoyev. Bunday vaziyatda jamiyatda jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishni kuchaytirish, ehtiyotkorlik va ogohlikni oshirish lozim, dedi u. “Kadrlar suv va havodek kerak” deyilganida prezidentimiz yaqin kunlarda o'tgan asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy ma'rifiy harakat vakillari - jadidlar merosini o'rganish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risidagi qarorni imzolashini aytdi. “Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi

paytda bizga jaded bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur", - dedi u. "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy", "Bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jaded bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir", — deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev. Yetuk kadrlarni tayyorlashda albatta ta'lim tizimi bosqichlari va bo'lajak pedagooglarga yuzlanamiz.

Tarixiy taraqqiyot mobaynida mutafakkir bobolarimizning qilgan sa'y harakatlarini hozirgi globallashuv zamonamizga tatbiq etish va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashni ta'minlashimiz bir tomondan yoshlarga nazariy metodologik milliy adabiyot bo'lib xizmat qilsa, boshqa tomondan esa boy milliyligimizni yorqin ifodasi sifatida ma'naviy tahdidlarga immunitet sifatida tartib toptiramiz. Ushbu ma'lumotlarga xulosa sifatida oliy ta'lim muassasalarida

"Pedagogika tarixi" modulini o'qitishda jadedlar pedagogik merosidan foydalanish, raqamli ta'lim muhiti bilan uyg'unlashtirilganda, o'qitish samaradorligini oshiradi [4]. Ushbu maqolada aynan shu modulni jadedlar merosi asosida o'qitish bosqichlari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Pedagogika tarixi" moduli bir qancha olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, jumladan, Sh.Z.Taylanovning nomzodlik dissertatsiyasi talabalarda qadriyatlar tizimini shakllantirish mavzusida bo'lib "Pedagogika tarixi" fani misol qilib keltirilgan. Shuningdek, M.E Ahmedovanning olib borgan ilmiy izlanishlarida esa pedagogika tarixi fani asosida o'qitishning ustuvor jihatlari yoritib berilgan bo'lib, unda talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash haqida so'z yuritilgan. Jadedchilik harakati bo'yicha tadqiqotlar dunyoning turli davlatlari va universitetlarida ham olib borilmoqda. MDH davlatlaridan Qozog'iston, Qirg'iziston mamlakatlari olimlarining ilmiy izlanishlarida ham jadedchilik harakati, jaded namoyondalari haqida takrorlanmas fikrlar ilmiy dalillar bilan asoslab berilgan. Jumladan, Qozog'istonda Al-Farobiy nomidagi Qozog'iston Milliy Universiteti izlanuvchilari Sayan Shylmambetov, Bakhytzhon Saparovlarning "Some Problems of the Study of the Regional Jaded Movement in Kazakhstan" (Mintaqaviy jadedchilik harakatini o'rganishning yarim muammolari) maqolasida Qozog'istonning janubi-sharqiy va shimoli-g'arbiy hududlarida jadedchilik harakatining rivojlanishi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z

"Pedagogika tarixi" modulini bosqichma-bosqich o'qitish modeli

yuritiladi. o'rganilgan. Qirg'izistondagi Markaziy Osiyo Universiteti olimlaridan Kubatova Ayida Esenkulovning olib borgan izlanishlari natijasida hamda "Jadedism in Kyrgyzstan" tadqiqot ishida Qirg'izistonda jadedchilik harakatining tarqalishi va yangi usul maktablarining tashkil etilishi tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzu yuzasidan raqamli ta'lim muhiti "Pedagogika tarixi" modulini jadedlar merosi asosida o'qitishni bosqichlarga bo'lish samarali usullardan biri deb topdik va tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalandik:

Tahlil va sintez: jadedlar pedagogik qarashlarini tahlil qilish hamda zamonaviy ta'lim uslublari bilan uyg'unlashtirish[2];

Jadedlar pedagogik qarashlarini tahlil qilish hamda zamonaviy ta'lim uslublari bilan uyg'unlashtirish deganda quyidagilar tushuniladi:

1. Jadedlar pedagogik qarashlarini tahlil qilish:

Bu bosqichda jadedlar (XIX–XX-asr boshlarida yashagan islohotchi ma'rifatparvarlar) tomonidan ilgari surilgan ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalar, metodlar, maktab va darslik tizimi, o'quvchilarga yondashuvi, ustoz-obro', milliylik va diniy bilimni uyg'unlashtirish kabi tamoyillar chuqur o'rganiladi. Masalan: Ismoil G'aspiralining "milliy maktab, milliy til" tamoyili, Abdulla Avloniyning "tarbiya ruhiyatga ta'sir etadi" degan fikrlari, Munavvar qori Abdurashidxonovning maktab islohoti g'oyalari va hokazo. Bu tahlilda ularning g'oyalari qanday sharoitda paydo bo'lgani, qanday pedagogik muammolarga yechim sifatida taklif qilingani o'rganiladi.

2. Zamonaviy ta'lim uslublari bilan uyg'unlashtirish:

Bu esa jadedlarning ilgari surgan pedagogik qarashlarini hozirgi zamon ta'limi bilan moslashtirishni anglatadi. Ya'ni, jadedlar ilgari surgan faol o'quvchi, muloqotga asoslangan dars, milliy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy fanlarni o'qitish kabi yondashuvlarini hozirgi raqamli ta'lim, STEAM, interaktiv metodlar, kritik fikrlash, individual yondashuv kabi uslublar bilan bog'lab, ulardan yangi pedagogik model yaratish. Masalan, jadedlarning o'quvchini faollikka chorlovchi metodlari - bugungi problemaga asoslangan o'qitish (PBL) bilan uyg'unlashishi mumkin. Ularning milliylik va zamonaviylikni birlashtirish g'oyasi - bugungi kompetensiyalarga asoslangan yondashuv bilan integratsiya qilinadi. Bu ibora bilan tarixiy va milliy meros bo'lgan jadedlar pedagogik qarashlarini hozirgi davr ehtiyojlariga moslashtirish, ularni bugungi darslarda qo'llash imkoniyatlarini aniqlash, hamda yangicha, zamonaviy va milliy pedagogik model yaratish nazarda tutiladi.

Modellashtirish: "Pedagogika tarixi" modulini bosqichma-bosqich o'qitish modeli yaratildi [4];

Bosqich	Bosqich nomi	Asosiy maqsad	Uslublar va faoliyat turlari
1	Kirish bosqichi	Talabalarda tarixiy ong va motivatsiyani shakllantirish	- Motivatsion savol-javoblar - Video va tarixiy misollar - Mini loyiha: "Nega pedagogika tarixini o'rganamiz?"
2	Qadimgi va o'rta asrlar pedagogikasi	Antik davr va o'rta asrlardagi pedagogik qarashlarni o'rganish	- Tarixiy shaxslar fikrlarini solishtirish - Taqqoslovchi jadval tuzish - Fikr bildirish asosida muloqot
3	Islomiy uyg'onish davri	Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi allomalarning pedagogik qarashlarini o'rganish	- Biografik yondashuv - Infografikalar - Shaxslar fikrini hozirgi ta'lim bilan taqqoslash
4	Jadedlar pedagogikasi	Jadedlarning ta'limdagi islohotlari va qarashlarini tahlil qilish	- Matn va darslik tahlili - Zamonaviy dars modeli yaratish - Mini-debatlar: "Qaysi jaded g'oyasi bugungi ta'limga yaqin?"
5	Sovet davri va	Pedagogika tarixidagi XX-XXI asr	- Vaqt jadvali

Bosqich	Bosqich nomi	Asosiy maqsad	Uslublar va faoliyat turlari
	mustaqillikdan keyingi yondashuvlar	bosqichlarini o'rganish	- O'zgarishlar tahlili - Mustaqillikdan keyingi yutuqlar haqida taqdimot
6	Integratsiya bosqichi	Tarixiy yondashuvlarni zamonaviy ta'lim uslublari bilan uyg'unlashtirish	- Venn diagrammalar - "Agar jadedlar hozir yashaganida..." esse - Mini-tadqiqot loyihasi
7	Yakuniy baholash	Bilim va ko'nikmalarni umumlashtirish va baholash	- Test va yozma ishlar - Portfel himoyasi - Refleksiya: "Pedagogika tarixini o'rganish menga nima berdi?"

So'rovnomma va intervyu: talabalar va o'qituvchilar o'rtasida olib borilgan so'rovlar asosida o'qitish bosqichlarining samaradorligi aniqlashtirilishi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi o'qitish bosqichlari ishlab chiqildi:

Tayyorlov bosqichi: raqamli platformalarga kirish, jadidlar merosiga oid boshlang'ich ma'lumotlar bilan tanishish;

Tahlil bosqichi: jadidlar asarlarining pedagogik mazmunini tahlil qilish, muhokamarlar orqali fikr almashish;

Integratsiya bosqichi: tarixiy bilimlarni zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan bog'lash [3];

Amaliyot bosqichi: raqamli vositalarda loyiha ishlari, prezentatsiyalar va interaktiv mashg'ulotlar [2];

Refleksiya bosqichi: o'rganilgan materiallarni umumlashtirish, fikr-mulohazalar asosida baholash [4].

Ushbu bosqichlarning har biri raqamli muhitda modulli o'qitishga moslashtirilgan holda tashkil etildi va talabalar faolligi hamda o'zlashtirish darajasining oshganligi kuzatildi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotdan ko'rinadiki, jadidlar pedagogik merosidan samarali foydalanish raqamli ta'lim muhitida "Pedagogika tarixi" modulini chuqur o'rganishga katta imkon yaratadi. Raqamli resurslar orqali interaktivlikni oshirish, tarixiy manbalarni multimedia formatida o'rganish va amaliy topshiriqlar orqali bilimni mustahkamlash va yanada qiziqarli tashkil etish mumkin [2]. Shu bilan birga, bosqichli yondashuv ta'limda tizimlilikni ta'minlaydi [3]. Maqolada berilgan ma'lumotlarning yaxlitligini saqlash maqsadida mavzu yuzasidan davrlashtirish metodikasi orqali o'qitishni tashkil etish ko'zlandi va quyidagichi bosqichlarga bo'lindi. Olib borilayotgan dissertatsiya ishi uchun ushbu bosqichlardan foydalangan holda o'qitish metodikasini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Davrlashtirish asosida o'qitishning bir muncha natijadorligi yuqoridir. Bunda berilayotgan hamda olinayotgan ma'lumotlar ancha tizimli yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, ilmy tadqiqot ishi uchun arxiv ma'lumotlari, nazariy-amaliy ma'lumotlar bosqichlar asosida to'plab boriladi. Davrlashtirishda ta'limni raqamlashtirish va jadidlar merosi mavzulari tarixiy-infografik ma'lumotlarga ko'ra taqriban tuzib chiqildi. Tadqiqot natijasida taklif etiladigan ta'limni raqamlashtirishning 4 bosqichi sifatida quyidagilarni keltiramiz.

I. Kompyuterlashtirish davri (1980-2000). Bu davrda ta'lim muassasalariga kompyuterlar kirib keldi va asosiy e'tibor kompyuter savodxonligini oshirishga qaratildi. O'quv jarayonida asosiy vositalar sifatida: shaxsiy kompyuterlar ta'lim muassasalarida paydo bo'lishi; dasturlashning asosiy ko'nikmalarini o'rgatish; elektron hisob-kitob va matn muharrirlaridan foydalanish; CD-ROM va disklar orqali o'quv materiallarini tarqatish; dastlabki ta'lim dasturlarini joriy etish;

II. Internet va veb-resurslar davri (2000-2015). Bu davrda ta'lim jarayoni internet texnologiyalari bilan boyitildi: maktab va universitetlarda internet tarmog'i joriy etilishi; veb-saytlar orqali o'quv materiallarining joylashtirilishi; elektron pochta va forumlar orqali muloqot; dastlabki onlayn kurslar

platformalarining rivojlanishi; elektron kutubxonalar va ma'lumotlar bazalarining yaratilishi; interfaol o'quv dasturlarining keng qo'llanilishi;

III. Raqamli transformatsiya davri (2015-2025) - hozirgi vaqt. Bu davr ta'lim tizimini to'liq qayta tashkil etish va raqamli texnologiyalarni chuqur integratsiya qilish bilan xarakterlanadi: aralash ta'lim (blended learning) modellarning keng tarqalishi; mobil qurilmalar va ilovalardan faol foydalanish; ta'lim boshqarish tizimlari orqali ta'limni individuallashtirilishi; bulutli texnologiyalar; asosida o'quv materiallari va resurslarni saqlash; virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalarining ta'limga kirib kelishi; sun'iy intellekt vositalarining dastlabki qo'llanilishi; COVID-19 pandemiyasi sababli masofaviy ta'limning majburiy rivojlanishi;

IV. Intellektual ta'lim ekotizimlari-ehtimoliy istiqbol davri 1 (2025-2035). Bu davrda ta'lim tizimi yanada aqlliroq va shaxsiylashtirilgan bo'ladi: sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o'qitish tizimlarining keng joriy etilishi - bu tizimlar o'quvchining ehtiyojiga mos tarzda dars mazmunini avtomatik tarzda sozlaydi, o'quv faoliyatini individuallashtiradi [5], katta ma'lumotlar (Big Data) asosida o'quv jarayonini tahlil qilish va optimallashtirish - o'quvchilar faoliyatining katta hajmdagi raqamli izlari tahlil qilinib, o'quv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [6], Raqamli egizaklar (digital twins) orqali virtual laboratoriyalar - real muhitlarning virtual nusxalari yaratiladi va tajribalar xavfsiz, tejamkor tarzda sinovdan o'tkaziladi [7], Blokchein texnologiyalari orqali sertifikatlashtirish va o'quv yutuqlarini saqlash - ta'lim yutuqlarining ishonchli, buzib bo'lmaydigan raqamli shaklda saqlanishi imkonini beradi [8], Metaverse va virtual dunyo asosidagi immersiv ta'lim muhitlari - o'quvchilar avatar orqali 3D muhitlarda ta'lim oladi, bu hissiy va vizual jihatdan faol ishtirokni ta'minlaydi [9].

Inson-mashina o'zaro hamkorligi asosidagi ta'lim metodikalarining rivojlanishi - raqamli yordamchilar, chatbotlar, robot-assistentlar bilan o'quvchi faol hamkorlikda bilim oladi [10].

Neyron interfeys texnologiyalarining dastlabki qo'llanilishi - miyada yuzaga kelgan impuls larni o'qib, texnologiyalar bilan bevosita aloqaga kirishish imkonini beruvchi usullar ta'limda sinovdan o'tkazilmoqda [11].

Hozirgi vaqtda biz uchinchi bosqichda bo'lib, to'rtinchi bosqichga o'tish arafasida turibmiz. Raqamli transformatsiyaning ko'plab elementlari joriy etilgan bo'lsa-da, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalarining to'liq potensialidan foydalanish endi boshlanmoqda. Ta'limni raqamlashtirish bosqichiga taqriban tuzilgan jadidchilik harakatining 3 bosqichi ham o'qitish metodikasini takomillashtirishda bosqichma-bosqich olib borilishini ifodalaydi.

Birinchi bosqich (1900-1917): Bu davrda jadidchilik harakati shakllandi va o'z g'oyalarini rivojlantirdi. Muhammad Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlar yangi usuldagi maktablar ochishga, gazeta va jurnallar nashr etishga kirishdilar. "Tarjimon" gazetasi, "Sadoyi Turkiston", "Oyna"

kabi nashrlar tashkil etildi. Ushbu bosqichda asosiy e'tibor ma'rifatchilikka, milliy uyg'onishga, ta'lim tizimini isloh qilishga qaratildi.

Ikkinchi bosqich (1917-1924): Bu davr Rossiyada bo'lgan inqilob va uning ta'siri ostida o'tdi. Jadidlar siyosiy faoliyatni kuchaytirdilar, Turkiston muxtoriyati singari milliy davlatchilik tajribalarida ishtirok etishdi. Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi jadid adabiyoti vakillari milliy ozodlik g'oyalarini ilgari surdilar. Bu bosqichda jadidlar milliy davlatchilik, ma'naviy-madaniy mustaqillik g'oyalarini faol targ'ib qildilar.

Uchinchi bosqich (1924-1937): Sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng jadidlar sovet tuzumi doirasida ishlashga majbur bo'ldilar. Dastlab ular sovet hokimiyati bilan hamkorlik qilishga harakat qilsalar-da, 1930-yillar boshida sovet hukumati jadidlarni "millatchilik"da aybladi. 1937-1938 yillardagi qatag'onlar davrida ko'plab jadidlar qamaldi va otib

tashlandi. Bu davr jadidchilik harakatining fojiali yakunlanish bosqichi bo'ldi. Jadidchilik harakati O'rta Osiyo xalqlarining milliy-madaniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi va hozirgi davrgacha bu harakatning ahamiyati yuqori baholanmoqda. Maqolada taklif etilgan bosqichlar asosida "Pedagogika tarixi" modulini o'qitish, nafaqat jadidlar merosini chuqur anglashga, balki raqamli ta'limning zamonaviy talablariga javob beruvchi interaktiv metodlarni joriy etishga xizmat qiladi. Har bir bosqichda o'quvchilar nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan birga, tarixiy manbalarni tahlil qilish, pedagogik konsepsiyalarni qiyoslash va zamonaviy ta'lim amaliyotida ularning in'ikosini topish bo'yicha amaliy vazifalarni bajaradilar. Modul yakunida, o'quvchilar pedagogik g'oyalar evolyutsiyasini tushunib, bugungi ta'lim amaliyotiga tarixiy kontekstda baho bera oladigan darajaga yetadilar. Kelgusida ushbu yondashuvni boshqa pedagogik fanlar o'qitishida ham tatbiq etish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. 11.12.2023 dagi Sh.M.Mirziyoyevning "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi <https://president.uz/oz/lists/view/6919>
2. Axmedova, M. Raqamli ta'limning nazariy asoslari. – Samarqand: Ilm ziyo, 2021.
3. Xoldorova, N. Raqamli ta'lim muhitida interaktiv metodlar. – Toshkent: Talim Press, 2022
4. Qosimov, B. Jadidlar merosi va zamonaviy ta'lim. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
5. Luckin, R. et al. (2016). Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. Pearson.
6. Daniel, B. (2015). Big Data and analytics in higher education: Opportunities and challenges. British Journal of Educational Technology.
7. Tao, F. et al. (2019). Digital twins and cyber-physical systems toward smart manufacturing. Engineering.
8. Grech, A., & Camilleri, A. F. (2017). Blockchain in Education. JRC Science for Policy Report. European Commission.
9. Johnson, L. et al. (2016). NMC Horizon Report: Higher Education Edition. The New Media Consortium.
10. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning.
11. Lebedev, M. A., & Nicoletis, M. A. L. (2006). Brain-machine interfaces: past, present and future. Trends in Neurosciences.
12. Salohiddinov, A. (2009). "Jadidchilik va ma'rifat". Toshkent: Ma'naviyat.
13. Karimov, A. (2015). "Milliy uyg'onish va jadid adabiyoti". Toshkent: Fan.



УДК:372.3/4(075.8)

Жавоҳирбек Йўлдошхонов,

Стажёр-учитель кафедры Теории перевода английского языка УЗГУМЯ

E-mail:javohirbekyoldoshxonov@gmail.com,

На основании рецензии д.м.н., проф. А.Исмановой АндГМИ

ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МИКРОТОПОНИМОВ ТАШКЕНТА И ЛОНДОНА: ОТРАЖЕНИЕ КУЛЬТУРНЫХ И ИСТОРИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ

Аннотация

В статье проводится типологический анализ микротопонимов Ташкента (Узбекистан) и Лондона (Великобритания) с целью выявления универсальных и специфических черт, отражающих культурные, исторические и лингвистические особенности этих городов. Микротопонимы рассматриваются как элементы языковой картины мира, способные передавать коллективную память, этнокультурную специфику и социальные реалии местного населения. Анализ основан на сопоставительном и когнитивно-семантическом подходах с привлечением этимологического и лингвокультурного методов. В результате исследования установлено, что микротопонимы служат не только топографическими ориентирами, но и являются важными маркерами локальной идентичности, отражающими особенности урбанистического развития, ремесленных и религиозных традиций. Статья подчеркивает значимость микротопонимики как междисциплинарной области, объединяющей лингвистику, историю, культурологию и социологию.

Ключевые слова: микротопоним, типология, Ташкент, Лондон, культурное наследие, лингвокультурология, когнитивный подход, локальная идентичность.

TOSHKENT VA LONDON MIKROTOPONIMLARINING QIYOSIY TAHLILI: MADANIY VA TARIXIY XUSUSIYATLARINING AKS ETISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada «Toshkent va London mikrotoponimlarining qiyosiy tahlili: madaniy va tarixiy xususiyatlarning aks etishi» ikki shahar mikrotoponimlari, ularning madaniy va tarixiy ahamiyatini aniqlash maqsadida qiyosiy tahlili amalga oshirildi. Mikrotoponimlar shahar topografiyasining bir qismi sifatida shaharlarning o'ziga xosligi va betakrorligini shakllantiruvchi murakkab madaniy, tarixiy va ijtimoiy jarayonlarni aks ettiradi. Maqolada Toshkentning ko'p asrlik tarixi, islom madaniyatining ta'siri, sho'rolar davri va zamonaviy milliy o'zlik aks etgan mikrotoponimlari, shuningdek, Londonning toponimikasi Rim, o'rta asrlar, sanoatlashirish davrlari va ko'p millatli meros bilan bog'liq ekani ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: mikrotoponimlar, Toshkent, London, qiyosiy tahlil, madaniy xususiyatlar, tillar ta'siri.

TYPOLOGICAL ANALYSIS OF MICROTOPONYMS OF TASHKENT AND LONDON: REFLECTION OF CULTURAL AND HISTORICAL FEATURES

Annotation

The article "Comparative analysis of the Microtoponyms of Tashkent and London: Reflection of Cultural and Historical Features" examines the microtoponyms of two cities in order to identify their cultural and historical significance. Microtoponyms, as part of the urban topography, reflect the complex cultural, historical, and social processes that shape the identity of cities. The article explores the microtoponyms of Tashkent, which reflect its rich history, the influence of Islamic culture, the Soviet period, and place names revealing national identity, as well as London, where toponymy is linked to Roman, medieval, industrial, periods and the reflection of multicultural heritage.

Key words: microtoponyms, Tashkent, London, comparative analysis, cultural features, historical roots, influences of languages.

Актуальность. В топонимике граница между микротопонимикой и макротопонимами очень тонка. Сейчас изучение топонимики является важной задачей современных исследователей так как, она является неотъемлемой частью ономастики, как и остальные разделы языкознания топонимика в частности микротопонимика городов является малоизученной сферой в лингвистике. Микротопонимика – это название небольшого местного объекта, как правило, физико-географического или внутригородского: луга, поля, рощи, улиц [1], определение дополняется как все небольшие природные объекты, известные лишь ограниченному кругу людей, кругу людей, проживающих в определённом районе; как правило, физико-географических или внутригородских (луга, поля, рощи, улицы, уголья,

урочища, сенокосы, выгоны, топи, лесосеки, гари, пастбища, колодцы, ключи, омуты, пороги и т.д.) [2].

Сравнительное изучение микротопонимов двух городов, даёт возможность выявить уникальные особенности их развития и менталитета жителей. В данной статье мы проанализируем микротопонимы Ташкента и Лондона, двух городов с богатой историей и различными культурными корнями.

Несмотря на то, что эти города являются столицей государств находящиеся в двух континентах имеют ряд схожих черт. В культуре, быте, и истории существуют много пересекающихся моментов. Ташкент, является современным и в то же время историческим городом находящийся на сердце Центральной Азии, имеет многовековую историю, в которой переплелись восточные и западные влияния. Микротопонимы города отражают

это многообразие: исламские мотивы: Многие названия улиц и районов связаны с исламом и арабской культурой. Например, названия мечетей: Хазрати Имом Қафқол Шоший, медресе Қўқалалдош, Олойбозор. Многие названия отражают природные особенности местности, например, "Чорсу" (четыре воды), "Қўқсарой" (синий дворец), "Боғишамол" (ветреный сад), Жар (обрыв), Сарикқўл (жёлтое озеро).

Также в формировании микротопонимики Ташкента сыграла немаловажную роль советский период, который оставил свой след в топонимике Ташкента. Многие улицы были переименованы в честь революционеров и советских лидеров, например: Гагарин, Ленин, Комсомольская, Тезикова, Новомосковская, Подмосковский.

После обретения независимости национальная идеология и национальная идентичность стала важной для современной страны. В последние годы в Ташкенте наблюдается тенденция к возрождению исторических названий и появлению новых, отражающих национальную идентичность как: Мустақиллик майдони, Нурафшон, Навруз, Истиклол, Олмазор, Қаторгол.

Также как и Ташкент Лондон имеет богатую и многослойную историю, которая отражается в его топонимах. Влияние Римской империи и отражение в топонимике Лондон ощущается в названиях улиц, содержащих элементы латинского языка (например, "Street", "Wall"). Также название Лондон имеет спорную этимологию, интересно то что, согласно некоторым историкам название произошло от Кельтского названия реки а другие считают что топоним имеет Латынские корни, в то же время Ташкент является составным топонимом который состоит из тюркского слова Тош и согдийского слова Кент – в дословном переводе означает "каменный город".

Средневековые названия часто связаны с религиозными зданиями, ремеслами и социальными группами. Например: Westminster, Cannon Street, Thames, Chislehurst. Промышленная революция привела к появлению новых районов и названий, связанных с промышленностью и торговлей: Limehouse, Whitechapel.

Лондон – является одним из самых многонациональных городов мира, и это отражается в его топонимах, заимствованных из разных языков. Chinatown, K-town, Blackfriars Street, и другие.

Методы исследования. Для всестороннего изучения микротопонимов двух городов следует применить ряд методов как: этимологический анализ, который поможет при изучении происхождения названий (этимологии) и их связь с историческими, культурными и социальными особенностями как Х. Буриева в своей кандидатской диссертации посвящённой изучению исторической топонимики Ташкента XIX-XX вв [3]. или кандидатская диссертация Кадыровой Ш. 1970 [4] посвящённая в топонимику Ташкента и она изучала её с лингвистического аспекта – и данное исследование является одним из первых трудов в сфере узбекского языкознания, которая рассматривала топонимику как раздел языкознания, последующие научные работы неоднозначно ссылались на труд учёного.

Также исследователи топонимики могут применять метод историко-культурного анализа: то есть исследование того, как исторические события и культурные влияния оставили след в топонимике. Например, отражение в названиях эпохи

индустриализации в Лондоне или присутствия согдийцев и тюркских племен в Ташкенте. Сравнительный анализ: Оценка различий и сходств в микротопонимах двух городов. Сравнение, как исторические и культурные особенности двух городов формировали их топонимическую карту.

Основными методами исследования в данной работе являются: этимологический и сравнительные методы, которые нацелены на изучение происхождения и эволюции микротопонимов; а также сопоставительный метод, предназначенный для выявления общих и различительных признаков микротопонимов в Лондона и Ташкента.

Результаты. При изучении микротопонимов неродственных языков, таких как английский и узбекский, мы обнаружили, что в английском языке топ форманты, обозначающие улицы, ворота, холмы, города и мосты, широко используются в топонимике. Например: Kingsstreet, River Fleet, Primrose Hill, Albert Bridge, а в узбекском языке топ форманты реже употребляются так как многие являются архаичными например: дар – дом, жилище, место где проживают люди: Дарбанд, Акдарванд, Дархон, Зир – переводится с хорезмского как книжный, низкий, Зиробод, Зирдех, Зироб. Пеш – передняя сторона, обозначает что находится спереди. Например, Пешкала, Пешдара, и другие. Раф – переводится как высокий, наверху, на высоте, Ропанакли, Юкори Ропанакли, Обкропанакли [5]. Но в основном вместо топ формантов используются иноязычные слова как -кент, -канд, в переводе от согдийского означает дом, место проживания: Тошкент, Самарканд, Вобкент, ул. Алимкент, ул. Бойкент, ул. Дарвозакент, ул. Заркент и другие [6]. В английской топонимике топоформант является обязательная часть названия объекта, например: Wall Street, Tower bridge, Chislehurst, Bishopsgate, Hugginhill. В английской топонимике чаще употребляются такие топ форманты как: -top – 'огороженное место ферма, деревня', -borough, -boro, -burg – 'укрепленное место', -ham – 'усадьба', -vale – 'долина', -hurst – 'лесной холм'. Наименования, включающие эти суффиксы или созданные с их помощью, понятны всем носителям английского языка, то есть воспринимаются именно как ойконимы [7].

Выводы. Сравнивая микротопонимы Ташкента и Лондона, можно сформулировать на основе выявленных культурных, исторических и языковых особенностей этих двух городов. Основываясь на предположениях о различиях в истории, географическом положении и культурном наследии, можно сделать следующие выводы: отражение исторического развития, топонимы обоих городов являются своеобразными летописями, отражающими ключевые этапы их истории. Культурная идентичность микротопонимы помогают понять культурную идентичность жителей и их отношение к прошлому. Влияние внешних факторов, например, завоевания, миграции и экономические изменения, оказывают существенное влияние на формирование топонимики. Современные тенденции как глобализация и урбанизация также накладывают свой отпечаток на топонимы, делая их более универсальными.

Изучение микротопонимов Ташкента и Лондона позволяет глубже понять культурные, исторические и социальные процессы, происходившие в этих городах. Сравнительный анализ помогает выявить как общие закономерности в формировании городской топонимики, так и уникальные особенности каждого города.

ЛИТЕРАТУРА

1. Смолицкая Г.П. Топонимический словарь центральной России. М.: Армада-пресс, 2002. 16 с.
2. Мерзлякова А.В. Мотивированные Микротопонимы: Сравнительный Анализ Семантических Особенности

- Ойконимов И Гидронимов. Вестник Нижегородского университета имени Н.И. Лобачевского 2012 (2), 1 с.384-388
3. Буриева Х.А. Тошкент шаҳрининг 1917-2007 йиллардаги топонимияси ва унинг тарихий аспектлари. дисс. д.и.н. Тошкент 2022 260 с.
 4. Кадырова Ш. Микротопонимы Ташкента. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1970. – с. 138.
 5. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. –Тошкент: Фан, 1985. – 49 б
 6. Ўзбекилининг изоҳли луғати. 2-жилд. –Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2020. –Б.353.
 7. Беленькая В.Д. Очерки англоязычной топонимики. –Москва: Высшая школа, 1977. –277 с. (39)



UDK:371.03.

Lutfiya KALKONOVA,
Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi
E-mail: kalkonova@mail.ru

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti F.Eshnazarova taqrizi asosida

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING XOTIRASINI RIVOJLANTIRISHDA KOGNITIV VA MNEMONIK STRATEGIYALAR: XALQARO TAJRIBALAR

Аннотация

Tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasini rivojlantirishda kognitiv va mnemonic strategiyalarning o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida Samarqand viloyati va Kattaqo'rg'on shahridagi Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida eksperimental tadqiqot o'tkazilib, mnemonik va kognitiv strategiyalarning bolalarning xotira jarayoniga ta'siri o'rganildi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, xotira rivojlanishi, mnemonic strategiyalar, kognitiv metodlar, metakognitiv yondashuv, didaktik o'yinlar, xalqaro tajriba, pedagogik innovatsiyalar.

КОГНИТИВНЫЕ И МНЕМОНИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ В РАЗВИТИИ ПАМЯТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ

Аннотация

В исследовании анализируется роль и эффективность когнитивных и мнемонических стратегий в развитии памяти у детей дошкольного возраста. В рамках исследования был проведен эксперимент в государственных дошкольных образовательных учреждениях Самаркандской области и города Каттакурган, в ходе которого изучалось влияние когнитивных и мнемонических стратегий на процессы запоминания у детей.

Ключевые слова: дошкольное образование, развитие памяти, мнемонические стратегии, когнитивные методы, метакогнитивный подход, дидактические игры, международный опыт, педагогические инновации.

COGNITIVE AND MNEMONIC STRATEGIES IN DEVELOPING MEMORY IN PRESCHOOL CHILDREN: INTERNATIONAL EXPERIENCES

Annotation

This study analyzes the role and effectiveness of cognitive and mnemonic strategies in the development of memory in preschool children. An experimental study was conducted in state preschool educational institutions in the Samarkand region and Kattakurgan city, examining the impact of cognitive and mnemonic strategies on memory processes in children.

Key words: preschool education, memory development, mnemonic strategies, cognitive methods, metacognitive approach, didactic games, international experience, pedagogical innovations.

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasini rivojlantirish masalasi kognitiv psixologiya va pedagogika fanlari chorrahasida muhim o'rinni egallaydi. Bolaning ilk intellektual faoliyati, xotira tizimining shakllanishi va rivojlanish mexanizmlari ilmiy jihatdan o'rganilishi zarur bo'lgan asosiy yo'nalishlardan biridir. Chunki aynan maktabgacha yoshda informatsiyani kodlash, saqlash va qayta esga tushirish jarayonlari intensiv shakllanadi (Baddeley, 2000; Tulving, 2002). Xotira rivojlanishining optimal darajada kechishi esa bola tafakkuri va kognitiv kompetensiyalarining shakllanishida hal qiluvchi omil bo'lib, uning kelgusidagi ta'lim jarayonlarida muvaffaqiyat qozonishini belgilaydi. So'nggi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasini rivojlantirish individual psixologik xususiyatlar, ijtimoiy-madaniy omillar va ta'lim metodologiyasiga bevosita bog'liq. Masalan, Jahon Bankining 2023-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarning taxminan 58 foizi maktabga tayyorlash jarayonida yetarlicha mnemonik va kognitiv ko'nikmalarga ega emas, bu esa ularning boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qish va eslab qolish qobiliyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Taqqoslash uchun, rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 78-85 foiz darajasida bo'lib, bu mintaqalarda ilg'or psixopedagogik yondashuvlarning muvaffaqiyatli qo'llanilayotganini anglatadi (UNICEF, 2023). Psixologik

tadqiqotlar (Anderson, 2005; Nelson, 2020) shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasining rivojlanishi faqatgina tabiiy taraqqiyot jarayoni emas, balki ongli ravishda shakllantirilishi lozim bo'lgan murakkab kognitiv jarayondir. Xususan, mnemonik strategiyalar (vizual assotsiatsiyalar, tematik bog'liqliklar, ko'p kanalli kodlash) va metakognitiv usullar (o'z-o'zini nazorat qilish, kognitiv refleksiya) bolaning axborotni eslab qolish qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi (Flavell, 1979; Schacter, 2011).

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasini shakllantirish masalasi kognitiv neyropsixologiya va pedagogik psixologiyaning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganib kelinmoqda. Xususan, Baddeley tomonidan taklif qilingan ishchi xotira modeli bolalar xotira jarayonini turli komponentlar – fonologik doira, vizual-konstruktsion blok va markaziy boshqaruv mexanizmlari orqali izohlaydi [1]. Ushbu nazariy doirasida bolalarning eslab qolish qobiliyati individual rivojlanish, atrof-muhit ta'siri va pedagogik stimulyatorlarga bog'liq ekanligi qayd etilgan [2].

So'nggi yillarda neyrobiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bolalarning xotira jarayoni asosan prefrontal korteks va hippokampus faoliyati bilan bog'liq bo'lib, aynan 3-6 yosh oralig'ida bu tuzilmalar o'zining maksimal rivojlanish bosqichiga chiqadi [3].

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda bolalar xotira jarayonini takomillashtirishda mnemonik texnologiyalar, masalan, vizual assotsiatsiyalar, interaktiv o'yinlar, virtual haqiqat texnologiyalari samarali ekanligi isbotlangan [4].

Xususan, Nelson & Fivush (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqotda oilaviy muhit va madaniy qadriyatlarining bolalar xotirasiga ta'siri o'rganilgan bo'lib, bolalar eslab qolish qobiliyatiga ota-onalarning kommunikativ uslubi katta ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [5].

Ayniqsa, Amerika va Yevropa ta'lim tizimlarida interfaol metodlar orqali xotirani rivojlantirish pedagogik innovatsiyalarning ajralmas qismi sifatida ko'rilmogda [6].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari, xususan Rossiya, Qozog'iston va Belarus ta'lim tizimida bolalar xotirasini shakllantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar asosan kognitiv psixologiya va pedagogik texnologiyalar uyg'unligi doirasida olib borilgan.

Vygotskiy xotira rivojlanishining sotsiomadaniy omillarga bog'liqligini ta'kidlagan bo'lsa, zamonaviy olimlar ushbu g'oyalarni empirik tahlillar asosida isbotlamogdalar [7]. Masalan, Luriya va Rubinshteyn ilmiy ishlari miqdoriy tahlilda xotira jarayoni tizimli ravishda shakllanishini va pedagogik stimullarning xotira barqarorligi bilan bog'liqligini isbotladi [8].

Rossiyada olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatmogdaki, interfaol o'yinlar orqali xotirani rag'batlantirish 4–5 yoshdagi bolalar uchun 37% samaraliroq natija beradi, bu esa an'anaviy metodlarga nisbatan sezilarli yaxshilanish hisoblanadi [9].

Shuningdek, Qozog'istonlik olim A. Abdimanapov bolalar xotirasini rivojlantirishda sotsiomadaniy muhit va ta'lim resurslari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib bo'lib, bolalar eslab qolish qobiliyatiga oila va o'qituvchining kommunikativ faoliyati sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan [10].

O'zbekistonlik olimlar ham bolalar xotira jarayonining shakllanishini turli nuqtai nazardan o'rganib kelmogdalar. Karimov & Sobirov ilmiy izlanishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda lingvistik va vizual stimullarning xotira jarayoniga ta'siri tadqiq qilingan bo'lib, tadqiqot natijalariga ko'ra, obrazli fikrlashni shakllantirish orqali eslab qolish darajasi 42% oshishi aniqlangan [11].

Bundan tashqari, J. Xaydarov tomonidan olib borilgan eksperimental tadqiqotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning xotira shakllanishida metakognitiv yondashuvlar samaradorligi ko'rsatilgan bo'lib, ayniqsa, mnemonik mashg'ulotlarning bolalar uchun yuqori natija berishi qayd etilgan [12].

So'nggi tadqiqotlarga ko'ra, O'zbekiston ta'lim tizimida xotirani rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlar hali yetarli darajada qo'llanilmayotganligi aniqlangan.

Xususan, Pedagogik innovatsiyalar instituti tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol mnemonik usullardan foydalanish faqatgina 25–30% darajada amalga oshirilmogda, bu esa xalqaro tajriba bilan solishtirganda past natija hisoblanadi [13].

Metodologiya. Ilmiy izlanish davomida empirik, eksperimental va nazariy-tahliliy tadqiqot metodlari uyg'unlikda qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asoslarini belgilashda ilg'or xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar, jumladan, kognitiv psixologiya, neyropsixologiya va pedagogik tadqiqotlar natijalari tahlil qilindi.

1-jadval: Mnemonik va kognitiv strategiyalar qo'llanilgan va qo'llanilmagan bolalar guruhining natijalari

Xotira sinov turi	Nazorat guruhi (an'anaviy metod)	Eksperimental guruhi (mnemonik va kognitiv strategiyalar)
Qisqa muddatli xotira	56	85

Xususan, xotiraning rivojlanish bosqichlari va unga ta'sir qiluvchi omillarni tushuntirishda Baddeley (2000), Nelson & Fivush (2018), Vygotskiy (1934), Piaget (1964) kabi olimlarning konseptual yondashuvlari asos qilib olindi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarda mnemonik strategiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlashda metakognitiv nazorat, ishchi xotira modellari va neyropsixologik omillar hisobga olindi.

Eksperimental tadqiqot Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahri hamda Samarqand shahri hududidan maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etilib, unda 4–6 yosh oralig'idagi 120 nafar bola ishtirok etdi. Ishtirokchilar ikki guruhga ajratildi:

• **Eksperimental guruh** (mnemonik va kognitiv strategiyalar asosida o'qitilgan bolalar)

• **Nazorat guruhi** (an'anaviy metodlar asosida o'qitilgan bolalar)

Eksperimental ta'lim jarayoni 8 hafta davomida olib borilib, unda bolalar xotirasini rivojlantirish uchun maxsus interfaol metodlardan foydalanildi. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- vizual-mnemonik assotsiatsiyalar
- sekvential (ketma-ketlik) xotira mashqlari
- verbal-kontekstual eslab qolish
- o'z-o'zini tekshirish usullari

Tadqiqotning empirik bosqichida bolalarning xotira ko'rsatkichlarini aniqlash uchun bir nechta psixodiagnostik metodlar qo'llanildi. Jumladan, Veksler xotira testi (WMS-III), Reyning vizual xotira testi va Corsi blok testlari yordamida bolalarning qisqa va uzoq muddatli xotira darajalari baholandi. Shuningdek, tadqiqot davomida ishtirokchilarning mnemonik faolligi, eslab qolish qobiliyati va ma'lumotni qayta ishlash tezligi o'rganildi. Olingan natijalar statistik tahlil qilinib, guruhlar orasidagi farqlar t-student testi va kovariatsion tahlil (ANCOVA) yordamida tekshirildi. Bundan tashqari, bolalar bilan olib borilgan eksperiment yakunida ota-onalar va pedagoglar bilan yarim tuzilgan intervyular o'tkazilib, kognitiv va mnemonik strategiyalarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati va samaradorligi bo'yicha fikr-mulohazalar olindi. Ularning kuzatuv natijalari tahlil qilinib, bolalarning xotira rivojlanishidagi o'zgarishlar sifat jihatdan baholandi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasini rivojlantirishda kognitiv va mnemonik strategiyalarning samaradorligini empirik asosda tahlil qilishga yo'naltirildi. Eksperimental izlanishlar Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahri hamda Samarqand shahri hududida joylashgan Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari (DMTM) bazasida tashkil etildi. Tadqiqot doirasida ikkita hududdan jami 120 nafar 4–6 yoshli bola ishtirok etdi. Eksperiment quyidagi muassasalarda amalga oshirildi:

Samarqand shahri, 25-sonli DMTM – 30 nafar bola

Samarqand shahri, 48-sonli DMTM – 30 nafar bola

Kattaqo'rg'on shahri, 19-sonli DMTM – 30 nafar bola

Kattaqo'rg'on shahri, 25-sonli DMTM – 30 nafar bola

Ushbu muassasalardagi ishtirokchilar tasodifiy ravishda eksperimental guruh va nazorat guruhi sifatida ajratildi. Eksperimental guruhda bolalar mnemonik strategiyalar (assotsiativ bog'liqliklar, vizual qo'llanmalar, kontekstual kodlash) va kognitiv metodlar (metakognitiv yondashuv, reflektiv o'rganish, ishchi xotira mashqlari) asosida o'qitildi, nazorat guruhi esa an'anaviy pedagogik usullar asosida ta'lim oldi.

Uzoq muddatli xotira	48	79
Eslab qolish tezligi	62	88
Axborotni qayta ishlash samaradorligi	50	83

2-jadval:Turli metodlarning samaradorligi bo'yicha natijalar foizlarda

Metod	Eslab qolish samaradorligi (%)	Axborotni qayta ishlash tezligi (%)	Uzoq muddatli eslab qolish (%)
Montessori	75	72	70
STEM	82	80	78
Gamifikatsiya	78	76	74
Didaktik o'yinlar	68	65	63
Multimodal yondashuv	85	83	81

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni keltirib chiqardi:

1.Mnemonik strategiyalar samaradorligi: Eksperimental guruh ishtirokchilari, ayniqsa, vizual assotsiatsiyalar va sekvential xotira mashqlari orqali ta'lim olgan bolalar 8 hafta davomida 39% yuqori xotira ko'rsatkichlari namoyon etdi.

2.Kognitiv rivojlanishga asoslangan yondashuvlarning ta'siri: Metakognitiv strategiyalar va reflektiv o'rganish usullari orqali ishlangan bolalar uzoq muddatli eslab qolish jarayonida 42% yaxshilanish ko'rsatdi.

3.Ishchi xotira va axborotni kodlash jarayoni: Ishchi xotirani faollashtirishga qaratilgan metodlarni qo'llash natijasida eksperimental guruhdagi bolalar nazorat guruhiga nisbatan eslab qolish jarayonida 35% ustunlik namoyon qildi.

Umuman olganda, Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlarida o'tkazilgan eksperiment natijalari kognitiv va mnemonik strategiyalarning maktabgacha yoshdagi bolalarning xotira rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Ushbu yondashuvlar o'quv jarayoniga integratsiya qilingan taqdirda, bolalarning eslab qolish qobiliyati va axborotni qayta ishlash samaradorligi sezilarli darajada oshishi mumkin. Bolalar xotirasini rivojlantirishda kognitiv va mnemonik strategiyalarning samaradorligi dunyo miqyosida keng tadqiq qilinib, turli mamlakatlarda innovatsion metodlar joriy qilinmoqda. Amerika, Yevropa va MDH davlatlari tajribasi solishtirilganda, har bir mintaqada o'ziga xos yutuqlar va kamchiliklar mavjud bo'lib, ushbu metodlarni O'zbekiston ta'lim tizimiga qanday moslashtirish mumkinligi tahlil qilindi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasini rivojlantirishda Montessori metodi, STEM ta'limi va gamifikatsiya texnologiyalari keng qo'llaniladi. Montessori metodida bolalarning mustaqil rivojlanishiga urg'u berilib, ularga interfaol muhit orqali o'rganish imkoniyati yaratiladi. STEM yondashuvi ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematikaga asoslangan bo'lib, vizual va kinestetik mnemonik usullarni o'z ichiga oladi. Gamifikatsiya esa virtual va real hayotiy o'yinlar orqali bolalarning xotira qobiliyatini mustahkamlashga qaratilgan. Harvard Universiteti (2022) tadqiqotlariga ko'ra, Montessori metodidan foydalangan bolalar o'z tengdoshlariga qaraganda 20-30% tezroq axborotni eslab qolish qobiliyatiga ega bo'lgan. STEM asosidagi o'qitish yordamida eslab qolish jarayoni 42% tezlashgan, gamifikatsiya metodlari bilan shug'ullangan bolalar esa 35% ko'proq ma'lumotni xotirada saqlay olgan. Biroq, ushbu metodlar ko'p resurs talab qiladi va O'zbekiston ta'lim tizimiga to'g'ridan-to'g'ri moslashishi qiyin, chunki mamlakatimizda jamoaviy o'qitish tizimi ustun turadi. Shunga qaramay, STEM yondashuvini mnemonik mashqlar bilan integratsiya qilish, o'yin elementlarini ta'lim jarayoniga kiritish va Montessori metodining ayrim elementlarini joriy etish orqali ushbu tajribadan samarali foydalanish mumkin.

Yevropa mamlakatlari, jumladan, Germaniya, Finlyandiya va Fransiya bolalarning xotirasini rivojlantirishda dual ta'lim, fenomen asosida o'qitish va

multimodal yondashuv keng qo'llaniladi. Germaniyada dual o'qitish amaliy mashg'ulot va nazariy bilimlarni uyg'unlashtirsa, Finlyandiya fenomen asosida o'qitish bolalarga mustaqil ravishda muhokama qilish orqali eslab qolish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Fransiya esa multimodal yondashuv (audio, video va vizual grafikalar) orqali xotira mustahkamlanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, dual ta'lim modeli bilan shug'ullangan bolalar 38% yuqori eslab qolish natijasiga erishgan. Finlyandiya ta'lim tizimida fenomen o'qitish natijasida bolalar 20-25% yaxshiroq axborotni o'zlashtirgan, multimodal yondashuv esa 47% ko'proq vizual va eshitish orqali ma'lumotni eslab qolishga yordam bergan. Ushbu usullar maxsus texnologik resurslar va pedagogik tayyorgarlik talab qilishi tufayli ularni O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri joriy etish qiyin bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, multimodal metodlardan video va audio materiallar shaklida foydalanish, fenomen o'qitish yondashuvini tatbiq etish orqali bolalarning mustaqil fikrlash va xotira jarayonini kuchaytirish mumkin.

MDH davlatlarida, jumladan, Rossiya va Qozog'istonda, asosan didaktik o'yinlar, she'r va qo'shiqlar yordamida xotirani mustahkamlash va sotsiomadaniy muhit ta'siridan foydalanish strategiyalari ustuvorlik qiladi. Rossiya bog'chalarida didaktik o'yinlar bolalarning eslab qolish jarayonini 30% tezlashtirgan, Qozog'iston ta'lim tizimida esa musiqa va she'rlardan foydalanish bolalarning lug'aviy xotirasini 28% oshirgan. O'zbekistonda esa hozircha an'anaviy yondashuvlar ko'proq qo'llanilib, innovatsion strategiyalar hali yetarlicha joriy etilmagan. Ushbu metodlarning kamchiliklari shundaki, didaktik o'yinlar uzoq muddatli natijalar berishi uchun pedagogik nazorat talab qiladi, she'r va qo'shiqlarga asoslangan metodlar esa barcha bolalar uchun samarali bo'lavermaydi. Biroq, didaktik o'yinlarni interfaol texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, she'r va qo'shiqlar orqali mnemonik usullarni rivojlantirish va ota-onalarni ta'lim jarayoniga faol jalb qilish orqali ushbu tajribani O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasini rivojlantirishda eng samarali yondashuv kognitiv va mnemonik strategiyalarni uyg'unlashtirish orqali amalga oshadi. Rivojlangan davlatlarda multimodal yondashuvlar, o'yin texnologiyalari va interfaol metodlar keng qo'llanilgan bo'lsa, MDH mamlakatlarida an'anaviy va didaktik metodlar ustuvorlik qiladi. O'zbekistonda xalqaro tajribadan samarali foydalanish uchun eng muvaffaqiyatli metodlarni mahalliy ta'lim tizimiga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'yin texnologiyalarini kengroq joriy etish, multimodal yondashuvlardan foydalanish va mnemonik strategiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zarur. Ushbu yondashuvlar maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimida kognitiv va mnemonik strategiyalarni yanada kengroq qo'llash

zarurligini ko'rsatdi. Bolalarning xotira rivojlanishini rag'batlantirish uchun pedagoglar va ota-onalar ishtirokida maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Bu dasturlar mnemonik mashqlar, interfaol metodlar va kognitiv strategiyalarni qo'llash orqali bolalarning axborotni eslab qolish qobiliyatini oshirishga yo'naltirilishi kerak. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish orqali bolalarning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshirish va xotira jarayonini samarali rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, o'qituvchilarni maxsus tayyorgarlikdan o'tkazish, ta'lim jarayoniga zamonaviy didaktik materiallar va texnologiyalarni kiritish, shuningdek, bolalarning individual kognitiv ehtiyojlariga moslashgan metodikalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'limga tayyorgarlik darajasini oshirishga va ularning xotira rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasini rivojlantirishda kognitiv va mnemonik strategiyalarning samaradorligini tasdiqlagan bo'lsa-da, uning ma'lum yosh guruhi va cheklangan metodlar doirasida olib borilgani tadqiqotning muayyan chegaralarini belgilaydi. Ushbu natijalarni umumlashtirish va kengroq pedagogik hamda madaniy kontekstda baholash uchun kelajakda yirik xalqaro tadqiqotlar o'tkazish zarurati mavjud. Xususan, bolalar xotirasining shakllanishiga ta'sir etuvchi neyropsixologik, madaniy va ijtimoiy omillarni chuqurroq

tahlil qilish, turli ta'lim tizimlaridagi strategiyalarning samaradorligini taqqoslash va mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda metodologik yondashuvlarni takomillashtirish lozim. Shuningdek, uzoq muddatli kuzatuv tadqiqotlari orqali mnemonik va kognitiv strategiyalarning bolalarning umumiy akademik muvaffaqiyatiga va ijtimoiy moslashuviga ta'sirini o'rganish istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa kelgusida ta'lim jarayonini optimallashtirish va psixopedagogik metodlarni yanada takomillashtirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interfaol yondashuvlar, vizual-mnemonik bog'liqliklar, metakognitiv yondashuvlar va didaktik o'yinlar bolalarning xotira jarayonini sezilarli darajada rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, mnemonik texnikalardan foydalangan bolalar axborotni an'anaviy usullar bilan o'qitilgan bolalarga nisbatan tezroq va samaraliroq eslab qolishi kuzatildi. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda multimodal o'qitish, STEM asosida fikrlash va gamifikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayonida samarali natijalar bermoqda. MDH davlatlarida esa didaktik o'yinlar va lingvistik strategiyalar keng qo'llanilib, bolalarning lingvistik xotira va assotsiativ eslab qolish qobiliyatlari rivojlantirilmoqda. O'zbekiston ta'lim tizimida innovatsion pedagogik metodlar joriy etilishi zarur bo'lib, ayniqsa, interfaol o'yin elementlari va mnemonik strategiyalarni keng qo'llash orqali xotira rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Baddeley, A. (2000). The episodic buffer: A new component of working memory? Trends in Cognitive Sciences, 4(11), 417-423.
2. Tulving, E. (2002). Episodic memory: From mind to brain. Annual Review of Psychology, 53(1), 1-25.
3. Nelson, K., & Fivush, R. (2018). The development of memory in children: Cultural and cognitive perspectives. Cambridge University Press.
4. Vygotsky, L. S. (1934). Thinking and speech. MIT Press.
5. Piaget, J. (1964). Development and learning. Journal of Research in Science Teaching, 2(3), 176-186.
6. Anderson, J. R. (2005). Cognitive psychology and its implications. New York: Worth Publishers.
7. Schacter, D. L. (2011). The seven sins of memory: How the mind forgets and remembers. Houghton Mifflin Harcourt.
8. Luria, A. R. (1968). The mind of a mnemonist: A little book about a vast memory. Harvard University Press.
9. Rubinshtein, S. L. (1973). Foundations of General Psychology. Moscow: Progress Publishers.
10. Nelson, C. A. (2020). Memory development in early childhood: Neural and behavioral perspectives. Developmental Psychology, 56(4), 622-635.
11. Harvard University Research Report (2022). Cognitive Development in Early Childhood Education: The Impact of Montessori and STEM-Based Learning.
12. UNICEF (2023). Early Childhood Education and Cognitive Skills Development: Global Perspectives.
13. Jahon Banki (2023). Education for the Future: Enhancing Memory and Learning Skills in Early Childhood Education.
14. Rossiya Pedagogika Akademiyasi (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasini rivojlantirish metodologiyasi. Moscow State University Press.
15. Qozog'iston Ta'lim Vazirligi (2022). Mnemonik strategiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish. Almaty Scientific Review.
16. Karimov, N., & Sobirova, G. (2022). Lingvistik va vizual stimullarning bolalar xotirasiga ta'siri. O'zbekiston Pedagogika Ilmiy Jurnal, 14(3), 72-88.
17. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi (2023). Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy strategiyalari.
18. Xaydarov, J. (2023). Mnemonik strategiyalar va metakognitiv yondashuvlar asosida bolalar xotirasini rivojlantirish. Toshkent Pedagogika Instituti Ilmiy To'plami, 21(2), 99-112.
19. Pedagogik Innovatsiyalar Instituti (2024). O'zbekiston ta'lim tizimida interfaol yondashuvlarni joriy etishning dolzarb masalalari.
20. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasining rivojlanish bosqichlari va pedagogik strategiyalar.



UDK:81-13

Nilufar KARIMOVA,
Associate Professor (PhD) Uzbekistan State University of world languages
E-mail: ummatkulovna93@mail.ru

Under the review of professor of UzSWLU N.Kushieva

CHARACTERISTICS OF REFLECTING “SOFT SKILLS” IN CURRICULA AND TEXTBOOKS IN TEACHING ENGLISH IN NON -PHILOLOGICAL EDUCATIONAL FIELDS

Annotation

This article explores the integration and representation of soft skills - such as communication, critical thinking, collaboration, adaptability and intercultural competence in English language curricula and textbooks designed for non-philological educational fields. Emphasizing the growing need for holistic education in technical, medical, and vocational disciplines, the study analyzes how English instruction can serve as a platform for soft skills development. **Key words:** soft skills, English for Specific Purposes (ESP), non-philological fields, curriculum development, textbook analysis, communication skills, 21st-century skills, interdisciplinary education, language teaching, professional competencies.

ОСОБЕННОСТИ ОТРАЖЕНИЯ “SOFT SKILLS” В УЧЕБНЫХ ПЛАНАХ И УЧЕБНИКАХ ПО ПРЕПОДАВАНИЮ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация

В этой статье исследуется интеграция и репрезентация мягких навыков, таких как коммуникация, критическое мышление, сотрудничество, адаптивность и межкультурная компетентность, в учебных программах по английскому языку и учебниках, предназначенных для нефилологических направлений образования. Подчеркивая растущую потребность в целостном образовании в области технических, медицинских и профессиональных дисциплин, в исследовании анализируется, как обучение английскому языку может служить платформой для развития мягких навыков.

Ключевые слова: soft skills, английский для специальных целей (ESP), нефилологические дисциплины, разработка учебных программ, анализ учебников, коммуникативные навыки, навыки 21 века, междисциплинарное образование, преподавание языка, профессиональные компетенции.

FILOLOGIK BO'LMAGAN TA'LIM SOHALARIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA O'QUV DASTURLARI VA DARSLIKLARIDA “SOFT SKILLS”NI AKS ETTIRISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz tilidagi o'quv dasturlari va filologik bo'lmagan ta'lim sohalarida uchun mo'ljallangan darsliklarda muloqot, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, moslashuvchanlik va madaniyatlararo kompetensiya kabi yumshoq ko'nikmalarning integratsiyasi va vakilligini o'rganadi. Texnik, tibbiy va kasb-hunar fanlari bo'yicha yaxlit ta'limga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganini ta'kidlab, tadqiqot ingliz tilini o'qitish yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirish uchun platforma bo'lib xizmat qilishi mumkinligini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: yumshoq ko'nikmalar, aniq maqsadlar uchun ingliz tili (ESP), filologik bo'lmagan sohalar, o'quv dasturlarini ishlab chiqish, darsliklarni tahlil qilish, muloqot qobiliyatlari, 21-asr ko'nikmalari, fanlararo ta'lim, tillarni o'qitish, kasbiy vakolatlar.

Introduction. “Soft skills” are intrinsic and interpersonal skills essential for an individual's development, social activity, personal life, and professional success, regardless of their field of expertise. While professional skills are limited to a specific area of activity, “soft skills” play a crucial role in all aspects of life, from daily routines to professional and social activities.

It is known that a working curriculum is a regulatory document developed for a specific course within a university's educational program. It is based on the academic curriculum of a particular subject, incorporating necessary additions and modifications while maintaining the sequence of topics and specifying the allocated hours for the subject. The working curriculum concretizes relevant educational standards and ensures the methodological, informational, and technical organization of the learning process. It also reflects the peculiarities of student training and instruction at higher educational institutions.

Literature review. The content of foreign language education – including the knowledge, skills, and competencies that students need to acquire is reflected in academic plans, curricula, textbooks, and methodological guidelines. The curriculum provides general information related to each subject's instruction. As mentioned earlier, the development of students' “soft skills” is closely linked to the educational approaches, methods, techniques, and technologies purposefully applied in the learning process.

According to regulations for designing course curricula, one of the key components of the working curriculum is the inclusion of modern information and pedagogical technologies used in teaching the subject. From this perspective, it is essential to examine the methods and technologies applied in teaching foreign languages at selected universities. A study of the subject's curricula indicates that each higher education institution incorporates specific methods and technologies for teaching foreign languages in its working curriculum.

The Reflection of Teaching Methods in the Working Curricula of Selected Higher Educational Institutions

TSEI	JSPI	GuLSU
- Task-based teaching method - Essay, thesis, and article writing method - Case method - Process-oriented teaching method - Discussion - Working in mini-groups - Project work - Independent work - Presentation - Test-solving method - Survey method - Problem-solving method	- Pedagogical mastery technology - Intellectual debate - Case method - INSERT method - Cluster method - Case technique - Delphi method - Black box method - Brainstorming - Group brainstorming - Diaries method - Synectics method - ARIZ-TRIZ method	- Practical application method of learned grammar material - Working with new vocabulary method - Text analysis method - Identifying key information in the text method - Role-playing using an active vocabulary related to the topic - Exercise completion method - Working on words and phrases method - Text translation method - Discussion technique - Oral text retelling method

The methodological support section of the curricula of TDIU and JizDPI outlines the pedagogical technologies used in teaching the subject, in accordance with the regulations. However, in the GulDU curriculum, no methodological support section has been developed. Instead, the practical sessions section includes the teaching methods applied after each lesson topic. Upon reviewing these methods, it was observed that most of them involve general tasks such as working with new vocabulary, reading and translating texts, and completing exercises. Moreover, these methods are repeated uniformly across all topics.

To determine the frequency of application of the selected teaching technologies in the educational process and to identify which methods students prefer, interviews and surveys were conducted with selected student groups. The results revealed that students were completely unfamiliar with several teaching methods outlined in the official documents. Specifically, TDIU students were unaware of methods such as project work, conducting surveys, case technology, and process-oriented teaching technologies, despite these being listed in the working curriculum. This analysis suggests that the structure and content of the working curricula do not accurately reflect the real educational process. According to the requirements for developing and approving curricula, a working curriculum must follow a methodological sequence and include teaching types, interactive teaching methods, and tools, as well as mechanisms that optimize the educational process. From this perspective, the GulDU curriculum does not meet the requirements for curriculum development and approval.

Research methodology. To comprehensively investigate the characteristics of reflecting "soft skills" in English language curricula and textbooks within non-philological educational fields, a mixed-methods approach is recommended. This involves combining both qualitative and quantitative methods to provide a robust and nuanced understanding of the topic.

Results and Discussion. The study examined the number of hours allocated to practical lessons and independent learning for first- and second-year students in the working curricula of the selected universities for English language instruction. Teaching a foreign language, particularly English for Specific Purposes (ESP), relies heavily on textbooks as one of the main tools of instruction. Textbooks are an essential component of the educational system, reflecting the conceptual approach to foreign language teaching at universities. They also define the goals, principles, and content of language teaching strategies and tactics. Therefore, it is impossible to assess the state of "soft skills" development in university students without analyzing the textbooks used.

Joshua Mikli's article "ESL Textbook Evaluation Checklist" outlines a widely used framework for evaluating English language textbooks. This framework establishes key criteria for assessing textbook quality, including content, grammatical and lexical enrichment, as well as the structure of tasks and exercises. Agreeing with this approach, we argue that the structure of exercises and assignments not only develops students' language proficiency but also plays a crucial role in improving their soft skills. Specific task formats can simultaneously fulfill practical, educational, and developmental objectives in language teaching.

During the study, it was found that in all three universities, lessons were occasionally supplemented by additional internet resources provided by teachers. Moreover, textbooks specifically selected for corporate governance programs were used as primary course materials. At TDIU, first-year students have been using *The Business 2.0* (B1 pre-intermediate level) by J. Allison and P. Emmerson, while second-year students use *Straightforward* (intermediate level) by F. Kerr and K. Jones. At JizDPI, first-year students use *Total Business 1* by Rolf Cook and Mara Pedretti, while second-year students use *Total Business 2*.

At GulDU, since the 2020/2021 academic year, the single corporate governance group has been using *English on Economics* by D. Innomiddinova. The "Pedagogical Qualimetry" educational-methodological complex outlines four levels at which students acquire knowledge and skills in the learning process:

Reproductive level – students answer questions and complete tasks without modifying the original content of the material, and teachers design tasks accordingly.

Productive level – students process and reapply learned knowledge in familiar and typical situations.

Partially research-based level – students apply their acquired knowledge and skills in new contexts.

Creative level – students use their knowledge and skills in unexpected, non-standard situations.

In our study, we analyzed components of soft skills such as communication, collaboration, critical thinking, and creativity, along with their key subcomponents. The findings indicate that developing these soft skills requires an increased focus on tasks designed for the partially research-based and creative levels. Students' acquisition of knowledge and skills at different levels is directly related to the implementation of tasks corresponding to each level.

Conclusion. Integrating "soft skills" into English language curricula and textbooks for non-philological educational fields is no longer a mere pedagogical suggestion, but a necessity for preparing students for the demands of the 21st-century workforce. The characteristics of effective

integration hinge on a balanced approach that connects language acquisition with practical application. Curricula must explicitly identify key soft skills (e.g., communication, teamwork, critical thinking, problem-solving) and align them with specific learning outcomes. Textbooks should provide authentic, context-rich materials that simulate real-world scenarios where students can actively practice and develop these skills.

This requires a shift from traditional, grammar-focused instruction to learner-centered methodologies that emphasize collaboration, project-based learning, and communicative competence. Furthermore, assessment

methods must be revised to evaluate not only linguistic proficiency but also the effective application of soft skills in diverse situations. Ultimately, the successful reflection of soft skills in English language education for non-philological fields depends on a holistic and intentional design that equips students with both the language proficiency and the interpersonal skills needed to thrive in their chosen professions and contribute effectively to a globalized society. Neglecting these essential skills risks leaving graduates ill-prepared for the complexities and challenges of their future careers.

REFERENCES

1. Allison J., Emmerson P. The Business 2.0 Intermediate. Student's Book. Macmillan, 2013.
2. Miekley J. ESL Textbook evaluation checklist / J. Miekley // The Reading Matrix.– 2005. – №. 2. – Vol. 5. URL: http://www.readingmatrix.com/reading_projects/miekley/project.pdf
3. Mara Pedretti, Rolf Cook. Total Business1. MC/Summertown ELT; 1st edition (April 1, 2009)
4. Ж.Толипова, катта ўқитувчилар А.Б.Тўраев, М.П.Имомов. “Педагогик квалиметрия” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа Тошкент – 2019.



UDK: 81.25 (575.1)

Zuhra QOBULOVA,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: qobulova1991@mail.ru

Guliston pedagogika instituti dotsenti, PhD D.Xolnazarova taqrizi asosida

THE ROLE OF COMMUNICATION QUALITIES IN FORMING SPEECH CULTURE

Annotation

This article analyzes the role of speech culture in social life, the role of communication qualities in its formation, its expression in historical development, and modern approaches. Speech is interpreted not as a means of expressing a person's thoughts, but as an important factor strengthening his interaction with society. The article highlights the development of speech culture and methods for its development based on the heritage of ancient scholars.

Key words: speech culture, communication quality, oratory, language culture, communicative competence, historical source, dialogue.

РОЛЬ КОММУНИКАТИВНЫХ КАЧЕСТВ В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ

Аннотация

В статье анализируется роль культуры речи в общественной жизни, роль коммуникативных качеств в ее формировании, ее проявление в историческом развитии и современные подходы. Речь трактуется не как средство выражения мыслей человека, а как важный фактор, усиливающий его взаимодействие с обществом. В статье рассматриваются вопросы развития культуры речи и методы ее развития на основе наследия античных ученых.

Ключевые слова: культура речи, качество общения, ораторское искусство, языковая культура, коммуникативная компетентность, исторический источник, диалог.

NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ALOQA SIFATLARINING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada nutq madaniyatining ijtimoiy hayotdagi o'rni, uning shakllanishida aloqa sifatlarining roli, tarixiy taraqqiyotdagi ifodasi va zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Nutq insonning fikrini ifodalash vositasi sifatida emas, balki jamiyat bilan o'zaro aloqasini mustahkamlovchi muhim omil sifatida talqin etiladi. Maqolada qadimgi allomalar merosi asosida nutq madaniyati taraqqiyoti hamda uni rivojlantirish usullari yoritiladi.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, aloqa sifati, notiqlik san'ati, til madaniyati, kommunikativ kompetensiya, tarixiy manba, muloqot.

Kirish. Nutq insoniyatning o'zaro aloqa vositasi sifatida tarixdan tarixga o'zgaras ahamiyatga ega bo'lgan. Har bir madaniyatda nutq o'zining o'ziga xos shaklini rivojlantirgan va jamiyatdagi turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tizimlarni ifodalashda faol ishtirok etgan. Nutq, faqat aloqa vositasi emas, balki insonning fikrlash jarayonini, ijtimoiy muhitga moslashuvini, shuningdek, individuallikni ifodalashning asosi bo'lib xizmat qiladi. Nutqning faqat muloqot vositasi sifatidagi ahamiyati va uning inson shaxsini shakllantiruvchi kuchi keng o'rganilgan mavzulardan biridir. Bugungi globalashuv davrida til imkoniyatlaridan to'g'ri va to'liq foydalanish, nutqiy vaziyatlarda kuzatiladigan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, omma oldida nutq so'zlash, o'rganilgan bilimni erkin, ravon va aniq ifoda eta olish masalasi o'ta muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nutqiy vaziyatlarni qulaylashtirish, mavjud lisoniy, psixologik-pedagogik imkoniyatlardan samarali foydalanish masalalari qadim Sharqning buyuk allomalari o'z davridayoq Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy va Alisher Navoiylar tomonidan anchagina mukammal o'rganilgan bo'lib, ular til va nutqning tafakkur hamda tasavvur orqali yuzaga kelishi haqida qimmatli fikrlar aytishgan.

Nutq madaniyati ta'limot sifatida qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa-da, unga qadar Misrda, Ossuriyada, Vavilon va Hindiston mamlakatlarida paydo

bo'lgan. U paytda davlat arboblarning obro'-e'tiborlari va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlik san'atini qay darajada egallaganliklariga bog'liq bo'lgan. Notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan barobar qadrlangan va bu ikki san'atning mohir egalrigina yuqori lavozimlarga saylangan. Notiqlikning eramizdan oldingi V asrda Yunonistonda shakllangani haqida fikrlar bor.

Nutqni inson tafakkurining mahsuli, ong inko'si sifatida talqin qilish antik davr faylasuflari – Aristotel, Demosten, Sitseron va ularning izdoshlari tomonidan zikr qilingan bo'lib, qadimdan bu tushuncha san'atning eng qadimgi turlaridan biri hisoblangan. "Tinglovchilarga biror narsa hodisani tushuntirish, isbot etish yoki ularning hissiyotiga, tushunchasiga ta'sir qilish niyatida so'zlangan nutq notiqlik faoliyatiga kiradi"[1]. Nutq madaniyati va u bilan bog'liq masalalar bilan shug'ullanish Markaziy Osiyo madaniyati tarixida ham o'ziga xos o'rinda ega. Turkiyshunos olim Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asaridagi bu masalaga oid ba'zi mulohazalari, keltirilgan lisoniy dalillari fikrimiz isbotidir. "...Mahmud Qoshg'ariyning mashhur "Devoni lug'atit turk" asarida "kuy so'zini tushunib bo'lmaydi, qattiq toshni yiqitib (sindirib) bo'lmaydi", "odam so'zning shirinligi bilan lazzatlansa, unga asir bo'lib ketadi", "Odobning boshi til" singari aforizmlarini uchratish mumkin"[2]. XI asrda yashab ijod qilgan xorazmlik buyuk olim, alloma az-Zamaxshariyning "Navobig' ul-kalim" [3] nomli asarida yoritilgandir. XII asrdan boshlab voizlik san'ati nazariyasi va

amaliyotini talqin va tavsif etadigan ko'plab ilmiy, tarixiy, uslubiy risolalar yozilgan. Bular qatoriga Muhammad Rafiq Voizning "Avbob ul-inon", Voiz Qazviniyning "Zilol-u maqol" Voiz Shirvoniyning "Ahsan ul-ahodis", Muhammad Voizning "Hidoyat ul-taqvim", Quraysh Saidiyning "Anis ul-voizin", Voiz Samarqandiyning "Ravzat ul-voizin", Qozi O'shiyning "Miftok ul-najih", Voiz Koshifiyning "Dah Majlis", "Mahzan ul-insho" kabi asarlari kiradi. Shuningdek, tarixchi, shoir, muhaddislarning asarlarida ham voizlik san'atiga aloqador ba'zi fikrlar bayon etilgan.

So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy ham nutq madaniyati, notiqlik odobi bilan jiddiy shug'ullangan bo'lib, mutaffakkir davrida ona tilimizning nufuzi, notiqlik san'ati yuksak darajaga ko'tarildi. Uning "Mahbub-ul qulub" asari 24-bobida notiq va ularning mahorati xususida so'z yuritiladi. Asarda Xo'ja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, Mavlono Irshod, Hotam Asom, Voiz Koshifiy, Muin Voiz kabi o'nlab voizlarning nutq irod qilish mahoratlari e'tirof etiladi.

Respublikamizda ona tili o'qitish metodikasi, unda nutq mavzusiga oid ilmiy metodik adabiyotlar, darslik, qo'llanma va maqolalarning chop etilishi 1940-yillarga to'g'ri keladi. Bulardan S.A.Fessalonitskiyning "Ona tili metodikasi" (1940) darsligi til o'qitish metodikasi tarixida alohida o'ringa ega.

Darslikda imlo va grammatika, orfoepiya bilan o'zaro bog'langan holda talqin qilingan bo'lib, nutq o'stirishga alohida ("O'zbek tili o'qitish", "Yozma nutq", "Insho") e'tibor qaratiladi. 1950-yili Murod Shamsning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasi, 1952-yil Faxri Kamolning "O'zbek tili o'qitish metodikasi", 1960-yil H. Rustamovning "Sintaksis va punktuatsiya o'qitish metodikasi" darsligi, 1969-yilda G'. Abduraxmonovning, 1975-yilda esa Y. G'ulomovning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" darsliklari, 1976-yilda O. Roziqovning "Ona tilidan dars tiplari", 1978-80 yillarda M. Omilxonova va boshqalarning "5-8-sinflarda ona tili darslari" o'quv qo'llanmalarining 1-va 2- qismlari bosmadan chiqdi. Mazkur darslik va dasturlarning bosh maqsadi 5-8-sinflarda to'g'ri talaffuz, imloviy, punktuatsion savodxonlikni puxta egallash, mustah-kamlash, og'zaki nutq o'stirishga qaratilib, ta'lim tizimi oldiga ona tili fani asoslarini mustahkam egallash vazifasi qo'yildi.

"Barcha sohalar kabi o'zbek tilimiz va u bilan bog'liq muammolar ham o'z yechimini topmoqda. Xususan, nutq madaniyatiga doir masalalarni hal qilishda tilshunos olimlarimizning mehnatlari, izlanishlari tahsinga loyiqdir. Taniqli tilshunos olim Nizomiddin Mahmudovning "Til" "Ma'rifat manzillari" nomli, Nusratilla Jumaxo'janing "Istiqlol va ona tilimiz" kabi risolalari ana shu sohada izlanishlarning yorqin misolidir"[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Nutq – insonning ongli va mashaaqatli fikrini boshqa shaxslarga yetkazish, tushuntirish jarayonidir. Nutqning mohiyatini o'rganishda til va nutq o'rtasidagi farqni anglash muhimdir. Til – bu fikrlarni ifodalashning strukturalangan tizimi, nutq esa shu tizimdan foydalanish orqali axborot uzatishning aniq amalga oshirilgan shaklidir. Nutqning asosiy funksiyasi axborotni boshqa kishilar bilan almashish bo'lib, bu orqali insonlar o'zlarining ijtimoiy va madaniy tajribalarini o'rtoqlashadilar. Shu bilan birga, nutqni ijtimoiy fenomen sifatida ko'rishimiz zarur. Jamiyatda nutq faqat axborot uzatish vositasi emas, balki u ijtimoiy hamkorlikni shakllantiruvchi va individlarning o'zaro munosabatlarini ifodalovchi vositadir. Nutq orqali odamlar bir-birlariga o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, maqsadlarini va intilishlarini yetkazadilar.

Nutq o'zining ijtimoiy ahamiyatini ijtimoiy hamkorlik, muammolarni hal etish, madaniyatni rivojlantirish va jamoat fikrini shakllantirish jarayonlarida ko'rsatadi. Nutqning ijtimoiy roli ijtimoiy munosabatlarning samarali shakllanishi,

fikrlar almashinuvi va axborot tarqatishda kuchli vosita sifatida namoyon bo'ladi. Nutq jamiyatdagi barcha qatlamlar o'rtasidagi ko'prik sifatida ishlaydi, odamlarni birlashtiradi va ijtimoiy muhitni shakllantiradi. Nutq, shuningdek, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarda qatnashish uchun zarur vosita bo'lib, o'zgaruvchan jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Nutqni rivojlantirish uchun bir qancha samarali metodlar mavjud. Bular:

1. Qat'iy o'qish va yozish mashqlari: nutqni aniq va izchil ifodalash uchun muntazam ravishda o'qish va yozish zarur. Shu tarzda shaxs o'zining nutqiy ko'nikmalarini mustahkamlashi mumkin.

2. Suhbatlar o'tkazish: nutqiy faoliyatni samarali o'tkazish uchun muntazam ravishda muloqot qilish zarur. Bu amaliyot shaxsning fikrini yanada aniq va ravon ifodalashga yordam beradi.

3. Nutqni tahlil qilish: o'z nutqini tahlil qilish orqali shaxs xatolarini aniqlab, nutqni to'g'rilash imkoniga ega bo'ladi.

Nutq, insoniyatning aloqa vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatda o'zgarishlarni va ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettiruvchi kuchdir. Nutqning turli turlari va uning samarali tashkil etilishi shaxsning nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Nutqiy faoliyatni o'rganish, uning psixologik va ijtimoiy jihatlarini anglash – bu shaxsning va jamiyatning rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Nutqni rivojlantirishning usullari va metodlari yordamida nutqning samaradorligini oshirish mumkin, bu esa shaxsni o'z fikrlarini yanada aniq va mantiqiy ravishda ifodalashga olib keladi.

Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning poydevorini tashkil etuvchi muhim omillardan biri bu – aloqa madaniyati, aniqrog'i, nutq madaniyatidir. Har qanday kasbiy, shaxsiy yoki ijtimoiy faoliyatda insomning o'z fikrini ifodalash, tushunarli yetkazish va atrofdagilar bilan samarali muloqotga kirishish qobiliyati uning madaniy darajasini, bilimi va ongini ko'rsatadi. Aynan shu jihatdan olib qaralganda, nutq madaniyati kommunikativ faoliyatning ajralmas bo'lagi bo'lib, insonning tafakkuri, estetik didi, axloqiy pozitsiyasi va ijtimoiy ongini o'zida mujassamlashtiradi. Nutq madaniyati deganda, odatda, fikrni aniqlik bilan, grammatik, uslubiy va etik me'yorlarga muvofiq ifodalash tushuniladi. Biroq zamonaviy tilshunoslikda bu tushuncha yanada keng qamrovli bo'lib, u nafaqat to'g'ri nutqni, balki axloqiy, psixologik, sotsial va hatto madaniy kontekstlarni ham o'z ichiga oladi. Aloqa sifati esa insonlar orasidagi muloqotning samaradorligi, tushunarli bo'lish darajasi, hissiy uyg'unligi va axborotning aniqligini belgilovchi omildir. Shu jihatdan qaralganda, nutq madaniyatini shakllantirishda aloqa sifatlari muhim rol o'ynaydi. Chunki yaxshi tashkil etilgan muloqotgina kishilar orasida sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratadi va madaniy nutq normalarini rivojlantiradi. O'z navbatida, aloqa sifatlari nutqning faqat tashqi shakliga emas, balki uning mazmuniy boyligi, mantiqiy to'g'riligi, hissiy ta'siri va madaniy kontekstga muvofiqligiga ham taalluqlidir.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda ta'lim tizimida, ayniqsa nofilologik yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar orasida nutq madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki kasbiy muvaffaqiyat, samarali jamoaviy faoliyat va ijtimoiy integratsiya bevosita kommunikativ kompetensiyalarning shakllanganlik darajasiga bog'liq. Bunda aloqa sifatlarning to'g'ri tanlanishi va ularning o'quv jarayoniga tatbiq qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq madaniyatini shakllantirishda asosiy omil sifatida namoyon bo'ladigan aloqa sifati, aslida, kompleks hodisadir. U inson nutqining tashqi shakllari (intonatsiya, diksiya, artikulyatsiya) va ichki mazmuni (mantiqiylik, aniqlik, izchillik, soddalik, obrazlilik) bilan chambarchas

bog'liq. Bu jihatdan aloqa sifati quyidagi asosiy komponentlar orqali ifodalanadi:

1. Aniqlik (aniqlashtiruvchanlik). Nutqdagi aniqlik deganda axborotning tushunarli, chalkashlikdan holi, bir ma'noli bo'lishi tushuniladi. Aniqlik aloqa jarayonida g'oya va fikrning to'g'ri qabul qilinishi va izchil talqin qilinishini ta'minlaydi. Ayniqsa, nofilologik yo'nalishdagi talabalar uchun ilmiy va kasbiy muloqotda bu sifat alohida ahamiyatga ega.

2. Mantiqiylik. Nutqdagi mantiqiylik bu fikrlarning o'zaro sabab-oqibat munosabatida bo'lishi, dalil va xulosalarning asosli tarzda berilishi bilan belgilanadi. Bu holat tilni nafaqat axborot vositasi, balki tafakkur va bilim ifodasi sifatida ishlatish zaruratini taqozo etadi. Mantiqiy nutq orqali axborot qabul qiluvchida ko'proq ishonch uyg'otadi.

3. Izchillik. Har bir muloqot strukturaviy jihatdan tartibga solingan bo'lishi kerak. Nutqning izchilligi deganda fikrlarning tartib bilan ifodalanishi, mavzulararo o'tishlarning tabiiy bo'lishi, bo'limlar orasidagi bog'liqlik tushuniladi. Bu jihat kommunikatsiyani samarali qiladi, auditoriyani charchatmaydi va e'tiborni saqlab qoladi.

4. Hissiy uyg'unlik va muvofiqlik. Nutqning hissiy fonini belgilashda aloqa samaradorligi katta ahamiyatga ega. Auditoriyaga nisbatan hurmat, xushmuomalalik, neytral yoki

ijobiy ohang – bular nutqning madaniy mezonlari hisoblanadi. Ayniqsa, og'zaki muloqotda mimika, ovoz balandligi, pauzalar, tempo va intonatsiyalar orqali hissiy uyg'unlikka erishiladi.

5. Usuliy va janr moslik. Har bir nutq janri va uslubiga qarab muayyan kommunikativ mezonlarga amal qilinadi. Rasmiy, norasmiy, ilmiy, publitsistik, kundalik nutqlar o'ziga xos aloqa shakllarini talab qiladi. Ushbu moslik saqlanmasa, nutq noqulay eshitiladi, tushunarsizlik, e'tiroz yoki muloqotni to'xtatish holatlari yuzaga keladi.

6. Axloqiylik va til madaniyatiga moslik. Nutq axloqiy mezonlarga javob berishi lozim. O'ta keskinlik, haqorat, stereotipik yondashuv, kamsitish elementlari nutq madaniyatiga zid bo'lib, aloqa sifatini pasaytiradi. Madaniyatli muloqot axloqiy yondashuv bilan uyg'unlashgan bo'lishi shart.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, aloqa sifatlarining yuqoridagi turlari nafaqat individual til madaniyatining ko'rsatkichi, balki ijtimoiy munosabat-larning sifatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ular orqali inson shaxsiyati, tafakkur doirasi, bilim saviyasi va axloqiy pozitsiyasi namoyon bo'ladi. Shu bois, pedagogik jarayonda aynan ushbu komponentlarga alohida urg'u berish nutq madaniyatini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Qlichev E., Qlichev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. –Buxoro, 2002. B. 7.
2. Begmatov E. Nutq, odobi. –Toshkent: O'qituvchilar gazetasi. 1969. 25 may. B.3.
3. Uvatov U. Donolardan saboqlar. –Toshkent: A.Qodiriy. 1994. B 34.
4. Rasulov R., Mo'yidinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent. 2015. B.3.
5. Hasanov, A., & Tursunova, Z. (2017). Pedagogik texnologiyalar asosida yozma nutqni rivojlantirish. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
6. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
7. Zimnyaya, I.A. (2001). Pedagogicheskaya psixologiya. Moskva: Logos.



UDK:371.03.

Sardor QODIROV,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti

E-mail: qidirovsardor64@gmail.com

Professor Z.Boltayev taqrizi asosida

12–13 YOSHLI BADMINTONCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODLARI

Аннотация

Mazkur maqolada 12–13 yoshli badmintonchilarni texnik tayyorgarligini takomillashtirish metodlariga oid ilmiy asoslangan yondashuvlar tahlil qilingan. Badmintonchilarning harakat texnikasini shakllantirish, ularning yosh xususiyatlariga mos metodik uslublarni tanlash, shuningdek, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar asosida samarali mashg'ulotlar dasturini tuzish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: badminton, texnik tayyorgarlik, o'quvchi sportchilar, mashg'ulot metodikasi, motorika, pedagogik yondashuv.

МЕТОДЫ УЛУЧШЕНИЯ ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БАДМИНТОНИСТОВ 12–13 ЛЕТ

Аннотация

В статье анализируются научно обоснованные подходы к методам совершенствования технической подготовки бадминтонистов 12–13 лет. Рассматриваются возможности формирования техники движений бадминтонистов, подбора методических приемов, соответствующих их возрастным особенностям, а также создания эффективной программы тренировок на основе зарубежных и отечественных исследований.

Ключевые слова: бадминтон, техническая подготовка, студенты-спортсмены, методика обучения, двигательные навыки, педагогический подход.

METHODS FOR IMPROVING THE TECHNICAL TRAINING OF 12–13-YEAR-OLD BADMINTON PLAYERS

Annotation

This article analyzes scientifically based approaches to methods for improving the technical training of 12–13 year old badminton players. The possibilities of forming the movement technique of badminton players, selecting methodological methods appropriate to their age characteristics, as well as creating an effective training program based on foreign and domestic research are considered.

Key words: badminton, technical training, student athletes, training methodology, motor skills, pedagogical approach.

Kirish. Zamonaviy sport turlari ichida badminton o'zining dinamikasi, texnik murakkabligi va koordinatsion harakatlarga boyligi bilan ajralib turadi. Xususan, bolalar va o'smirlar sport maktablarida ushbu sport turiga qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, 12–13 yosh davri sportchilik faoliyatining muhim poydevori hisoblanadi. Bu yoshda organizmning jismoniy va ruhiy rivojlanish sur'atlari yuqori bo'lib, sportchilarning texnik, taktik va funksional tayyorgarliklarini shakllantirish uchun qulay sharoit vujudga keladi. Shu sababli, aynan shu bosqichda texnik tayyorgarlikni samarali yo'lga qo'yish ularning keyingi sport faoliyatiga mustahkam asos yaratadi.

Adabiyotlar ro'yhati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrda "Sportchilarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va sport maktablarining faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4881-sonli qarorida yosh sportchilarni ilmiy asosda tayyorlash, ularning yoshi va qobiliyatiga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqish muhim vazifa sifatida belgilangan. Bu esa texnik tayyorgarlikni takomillashtirish borasidagi ilmiy izlanishlarning dolzarbligini yanada oshiradi. Jahon tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, D. Freeman (2021) o'z tadqiqotlarida 12–13 yoshdagi badmintonchilar uchun texnik mashqlarni individual qobiliyatlarga moslashtirish natijasida sportchilarning zarba aniqligi va harakat koordinatsiyasi ancha yuqori darajada rivojlanishini aniqlagan.

Yosh sportchilar uchun texnik tayyorgarlik – bu faqat zarba yoki pozitsiyalarni takrorlash emas, balki jismoniy

qobiliyatlar, muvozanat, tezkor qaror qabul qilish va to'g'ri harakatlar kombinatsiyasini shakllantirishdir. Shu bois, metodik yondashuvlar chuqur tahlil qilinib, yosh badmintonchilarning jismoniy va psixologik xususiyatlariga mos tarzda tashkil etilishi lozim. Mahalliy olimlardan professor Z. Boltayev shunday deydi: "Sportchilarda texnik harakatlarni shakllantirishda yosh fiziologik va psixologik o'ziga xosliklar e'tiborga olinmasa, bu mashg'ulotlar samarasiz bo'lishi mumkin. Ayniqsa, 12–13 yoshda bola o'z texnik bazasini mustahkamlab boradi va shu bosqichda asos solingan ko'nikmalar uning butun sport faoliyati davomida yetakchi o'rin tutadi".

Demak, 12–13 yoshli badmintonchilarni texnik jihatdan tayyorlash masalasi – nafaqat pedagogik, balki psixologik va fiziologik yondashuvlarni uyg'unlashtirgan kompleks jarayon bo'lib, ushbu maqolada texnik tayyorgarlikni takomillashtirishning ilg'or metodlari, ularning amaliy tatbiqi, xorijiy va mahalliy tajribalar asosida chuqur ilmiy tahlil qilinadi. 12–13 yoshli sportchilar jismoniy va ruhiy jihatdan faol rivojlanish davrida bo'lib, ularning mushak kuchi, reflektor javoblari, muvozanatni saqlash, koordinatsiya, reaksiya tezligi va makon-harakatni idrok qilish qobiliyatlari jadal o'sish bosqichiga kiradi. Shu sababli, texnik tayyorgarlikni tashkil etishda ularning yoshga xos psixofiziologik xususiyatlari inobatga olinishi zarur.

Tahlil va natijalar. Yosh badmintonchilar uchun texnik tayyorgarlik faqat zarbani o'rganish bilan cheklanmaydi, balki harakat avtomatlashishini shakllantirish, aniqlik, tezlik va harakat davomiyligini uyg'unlashtirishga

ham qaratilishi lozim. Har qanday sport harakati, jumladan badmintonidagi texnik elementlar – zarba, joylashish, to'pni kutib olish, harakatlanish yo'nalishlari – ko'p marta takrorlash orqali avtomatlashtiriladi. Aynan 12–13 yoshda bu jarayon o'z samarasini beradi, chunki bu yoshda markaziy asab tizimi (MAT) harakatlarni tezda o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Rossiyalik olim N.A. Bernsteinning harakatlarni boshqarish nazariyasiga ko'ra, “ko'nikma – bu avtomatlashtirilgan, barqaror, tashqi ta'sirlarga bardosh bera oladigan harakat kompleksidir” [Bernstein N.A., “Fiziologiya dvijeniya”, 1966]. Shu bois murabbiylar tomonidan tashkil etiladigan mashqlarda:

Dastlab oddiy, sekin bajariladigan harakatlar o'rgatiladi;

So'ngra ularni turli sharoitlarda (tezlik, masofa, burchak) bajarishga o'tiladi;

Harakatlar kichik kombinatsiyalarda qo'llanilib, asta-sekin murakkablashtiriladi;

Bu orqali zarba va joylashuv texnikasi ongli harakatdan avtomatik harakatga o'tadi.

Yosh sportchilarning energiya resurslari cheklangan bo'lishi sababli, uzoq davom etuvchi mashqlar ularni charchatib qo'yadi va diqqatni yo'qotishga olib keladi. Shu bois qisqa, lekin intensiv yuklamalar samaraliroq hisoblanadi. Masalan:

10–15 soniyalik yuqori tezlikda zarba seriyalari;

20 soniyalik harakat marshrutlari bo'yicha joylashish va to'pni kutib olish mashqlari;

“1 daqiqa – 100% harakat” prinsipi asosida qisqa yugurish va zarba kombinatsiyalari.

Bu usul MAT va yurak-qon tomir tizimini faollashtiradi, reaksiya tezligi oshadi va harakatni tezlikda bajarish ko'nikmasi mustahkamlanadi.

Germaniyalik olim H. Meinel shunday xulosa bergan: “Yosh sportchilar uchun qisqa, intensiv yuklamali mashqlar ularning fiziologik imkoniyatlariga mos keladi va harakatlar sifatini oshiradi” degan edi. To'pni o'yinga kiritish, zarba va o'yin pozitsiyalarida to'g'ri joylashish badminton texnikasining asosi hisoblanadi. Bu elementlarni shakllantirish uchun:

Har kuni kamida 50–100 marta to'pni o'yinga kiritishni takrorlash;

Juftlik bilan zarbalarini muqobil bajarish;

O'yin holatidagi joylashishni to'p uchish yo'nalishiga qarab mashq qilish;

Harakatlar oralig'ida qisqa muddatli dam olish (10–15 soniya) orqali ko'proq takrorlash imkonini yaratish lozim.

Xitoylik olim Wang J. (2018) tadqiqotida shunday ta'kidlaydi “12–13 yoshli badmintonchilarda texnik tayyorgarlikning asosiy vazifasi zarba aniqligi va joylashish tezligini oshirishdan iborat. Har kuni kamida 300 zarba mashqi bajarilgan guruhlarda texnik ko'rsatkichlar 17 foizga yaxshilangan”. [3] Texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda quyidagi metodlar muhim o'rin tutadi:

O'yin usulida o'rgatish – bolalarga o'zlashtirishni qiziqarli tarzda ta'minlaydi;

Model mashg'ulotlar – musobaqaga yaqin holatlarda tayyorgarlik;

Individuallashtirilgan yondashuv – har bir sportchining kuchli va zaif tomonlarini inobatga olgan holda mashqlar tanlanadi.

M. Pedersen (Daniya, 2016) o'z tadqiqotida shunday deydi: “Badmintonchilarni tayyorlashda o'yin elementlari orqali texnikani o'rgatish metodikasi bolalarda qiziqish va

barqaror natijalarni ta'minlaydi” [4]. O'zbekiston sport pedagogikasi sohasida 12–13 yoshli badmintonchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishga oid yondashuvlar ketma-ketlik, bosqichlilik va yoshga mos yuklama asosida ishlab chiqilgan. Mahalliy ilmiy maktab vakillarining tadqiqotlari shuni ko'rsatmoqdaki, texnik mashg'ulotlar samaradorligi ularni sportchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanish darajasi bilan uzviy bog'lagan holda tashkil etilgandagina yuqori natijalarga erishish mumkin. Professor A. Karimovning fikricha “Texnik tayyorgarlikni yosh sportchilarning jismoniy rivojlanishi bilan uzviy bog'lash kerak, aks holda mashqlar beryoqlama bo'lib qoladi” [2]. U o'z uslubiy tizimida texnik tayyorgarlikni quyidagi uch bosqich asosida tashkil etishni taklif qiladi:

1. Dastlabki texnik harakatlarni o'rgatish (1–2 oylik bosqich)

Bu bosqichda sportchilarga asosiy texnik elementlar – to'pni o'yinga kiritish, va to'g'ri joylashish pozitsiyalari tanishtiriladi. Har bir harakat kichik bo'laklarga ajratilgan holda o'rgatiladi va vizual namoyishlar orqali tushuntiriladi. Treninglar asosan quyidagilarga yo'naltiriladi:

Texnik harakatlarning aniq izohlari va ko'rsatmalari;

Yangi elementlar uchun sekin bajariladigan mashqlar;

To'g'ri tana holati va oyoq-qatnashuvining shakllanishi.

Bu bosqichda asab-mushak aloqasi (neuromuskulyar tizim) faol shakllanadi. Murabbiylar har bir sportchining o'zlashtirish tezligini hisobga olib, moslashtirilgan yuklamalar bilan ishlaydi.

2. Avtomatlashtirish va barqarorlashtirish (3–4 oylik bosqich)

Bu bosqichda avvalgi o'rganilgan texnik harakatlar ko'p takror orqali mustahkamlanadi. Harakatlar murakkablashtirilgan sharoitlarda – harakatda, o'yinli kombinatsiyada yoki vaqt bosimi ostida bajariladi. Bu bosqichda quyidagi elementlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Harakatlarni ichki nazorat orqali bajarish;

Sportchining texnik xatolarini aniqlab, ularni tahlil qilish;

Ko'r-ko'rona takrorlash emas, balki ongli o'zlashtirish va tahlil asosida mashg'ulot o'tkazish.

Shuningdek, mashg'ulotlarda ko'rish, eshitish, va kinestetik idrokni uyg'unlashtirgan metodlardan foydalanish tavsiya qilinadi.

3. Harakatlarni tezlik va aniqlikda bajarish (musobaqaviy davr)

Bu bosqich texnik ko'nikmalarni musobaqa sharoitiga yaqin holatlarda tezlik, aniqlik va barqarorlik bilan qo'llashga yo'naltiriladi. Sportchilar to'g'ri qaror qabul qilish, raqib harakatlariga moslashish va taktik rejalariga binoan zarba yoki joylashishni tanlay olishi kerak. Ushbu davrda mashg'ulotlarning asosiy maqsadi:

Texnik harakatlarni yuqori tezlikda aniqlik bilan bajarish;

Emotsional bosim ostida ham to'g'ri texnikani saqlab qolish;

Mashg'ulotlarda musobaqaviy holatlarni simulyatsiya qilish.

Karimov A. ta'kidlaganidek, bu bosqichda “sportchi nafaqat texnik jihatdan, balki ruhiy va psixologik tayyorgarlik jihatdan ham bardam bo'lishi, o'z texnikasini bosim ostida qo'llay olishi” kerak. 12–13 yoshli badmintonchilar uchun quyidagi amaliy metodik kompleks tavsiya etiladi:

Mashg'ulot turi	Davomiyligi	Mashq turi	Maqsad
Tanani qizdirish	10 daqiqa	Koordinatsion harakatlar	Tana tayyorligi
Texnik	25 daqiqa	to'pni o'yinga kiritish, zarba,	Avtomatlashtirish

mashqlar		joylashish	
O'yin texnikasi	15 daqiqa	Juftlik o'yinlari orqali texnika	Qiziqish amaliyot +
Yakunlash	10 daqiqa	Cho'zilish, yengil yugurish	Tiklanish

12–13 yoshli badmintonchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish – ularning keyingi sport faoliyatida muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlovchi muhim bosqichdir. Mazkur yosh davr psixofiziologik jihatdan o'ziga xos bo'lib, sportchining mushak kuchi, harakat koordinatsiyasi, reaksiya tezligi va muvozanatni saqlash qobiliyati sezilarli darajada rivojlanadi. Shu bois, texnik tayyorgarlik mashg'ulotlari ushbu yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzilishi lozim. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki:

Harakatlarni avtomatlashtirishga qaratilgan ko'p takrorli mashqlar texnik ko'nikmalarni mustahkamlashda asosiy rol o'ynaydi.

Qisqa vaqtli, intensiv yuklamalar esa nafaqat chidamlilik, balki harakat tezligi va reaksiyani ham rivojlantiradi.

Zarba va joylashish mashqlarini sistematik takrorlash orqali badmintonchilarning aniqlik va pozitsion ongligi ortadi.

Xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlari (Wang J., D. Freeman, Z.B. Boltayev va boshqalar) asosida shuni aytish mumkinki, texnik tayyorgarlik samaradorligi murabbiy

to monidan bolalarning individual xususiyatlariga moslab tashkil etilgan mashg'ulotlar va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan bevosita bog'liq.

Shuningdek, quyidagi asosiy metodik yondashuvlar tavsiya etiladi:

Mashqlar mazmuni va yuklamalari yoshga mos bo'lishi;

Ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish: dastlab oddiy, keyin murakkab kombinatsiyalar;

O'yinli mashg'ulotlar orqali texnik elementlarni mustahkamlash;

Har bir sportchining psixologik holatini hisobga olgan holda individual yondashuv.

Xulosa. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, texnik tayyorgarlikni tizimli ravishda, yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil qilish orqali 12–13 yoshli badmintonchilarning sport ko'rsatkichlarini barqaror oshirish mumkin. Kelgusida bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni eksperimental-uslubiy asosda davom ettirish, texnik mashqlarni raqamli texnologiyalar bilan boyitish (video-tahlil, sensing tahlil) dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Bernstein N.A., "Fiziologiya dvijeniya", 1966].
2. Boltayev Z.B., Sportchilarni tayyorlash tizimida pedagogik yondashuvlar, Toshkent: 2022
3. Karimov A. Sport pedagogikasi asoslari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021.
4. Wang J. "Badminton Techniques for Young Players." Asian Sports Science Journal, 2018.
5. Pedersen M. "Youth Badminton Coaching." European Journal of Sports Training, 2016.
6. Anderson L. "Motor Learning Principles in Badminton." Journal of Physical Education, 2019.



UDK:612: 796.10

Zafarbek QURONBOYEV,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

E-mail: zafarbek@gmail.com

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Eshnazarov taqrizi asosida

YOSH GANDBOLCHILARNING MUSOBAQA DAVRI TEXNIK TAKTIK TAYYORGARLIGINI NAZORAT QILISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada yosh gandbolchilarni musobaqa davrida texnik taktik tayyorgarliklarini nazorat qilib borish hamda takomillashtirish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Gandbol, qobiliyat, saralash, nazorat, tahlil, musobaqa, tadqiqot.

КОНТРОЛЬ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ЮНЫХ ГАНДБОЛИСТОВ В СОРЕВНОВАТЕЛЬНЫЙ ПЕРИОД

Аннотация

В данной статье представлена информация по мониторингу и совершенствованию технико-тактической подготовки юных гандболистов во время соревнований.

Ключевые слова: Гандбол, умение, отбор, контроль, анализ, соревнование, исследование.

CONTROLLING THE TECHNICAL TACTICAL PREPARATION OF YOUNG HANDBALL PLAYERS DURING THE COMPETITION PERIOD

Annotation

This article provides information on monitoring and improving the technical and tactical training of young handball players during the competition.

Key words: Handball, ability, selection, control, analysis, competition, research.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport borgan sari davlat siyosatiga aylanib bormoqda. Gandbol sport turi kundan - kunga rivojlanib bormoqda. O'yin uslublari takomillashib, gandbolchini harakat faoliyati qiyinlashib bormoqda.

Gandbol o'yini asosiy harakat sifatlarini harakati tezligi va aniqligini, chaqqonlikni, kuchni, chidamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashmoqda.

Gandbol sport turi – o'z mohiyati, mazmuni va turli o'yin malakalari va kombinatsiyalari bilan minglab kishilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Zamonaviy gandbol o'ta tezkorligi va katta g'ayrat talab qiluvchi sport o'yinlari turiga mansubdir. Yuqori texnik-taktik mahoratga sazovor bo'lish uchun birinchi navbatda gandbolchilarning jismoniy sifatleri mukammal darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Mazkur sifatleri o'yin fikrlovi birligidagi boshqarilishi musobaqa g'alabasini ta'minlaydi. Bugungi kun gandbol darvozaboni baland bo'yli bo'lib, u harakatchan, o'tkir zehni, tez fikrlovchi, o'zgaruvchan o'yin vaziyatlariga munosib harakat bilan javob qaytarishi va jamoaga katta yordamberishi lozimdir. Lekin bunday saviyadagi o'yinni har bir gandbol darvozabonida ham kuzatavermaymiz.

Shuning uchun gandbolchi darvozabonlarning o'quv-mashg'ulot jarayonlarida jismoniy, texnik-taktik sifatleri to'g'ri taqsimlanishi, mashq to'g'ri tashkil etilishi, jismoniy yuklamalarning to'g'ri tanlay bilishi, darvozabonlarni musobaqa faoliyatiga tayyorlashda murabbiylar nazoratida bo'lishi dardkor.

Ishning dolzarbligi. Ko'p sonli yosh bolalarni gandbolga bo'lgan katta qiziqishlarini nafaqat jismoniy rivojlantirishda, balki pedagogik ta'sir etishda va tarbiyalash jarayonida asosiy omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Gandbol bilan shug'ullanish jarayonida bir qancha muhim sifatlar rivojlanadi: jamoaviylik, maqsadga intilish, o'z-o'zini boshqarish, intizomlilik.

O'zbekistonda bu sport turini keyingi rivojlanish bosqichi, to'g'ridan-to'g'ri yosh bolalar va o'smirlar gandbolini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. Qanchalik bolalar va o'smirlarni tayyorlash, o'rgatish jarayoni samarali yo'lga qo'yilsa, keyingi gandbolimiz rivojlanish bosqichi ham shunchalik samaraliroq kechardi.

Respublikamizda bir qancha sport maktablari va sport turlari bo'yicha oliy mahorat maktablari mavjuddir. Har bir maktabning o'ziga xos yutuqlari borligi sir emas.

Lekin erishilgan yutuqlarga qaramasdan, yosh va yuqori malakali gandbolchilarni o'yin maqsadi va ayniqsa texnik-taktik tayyorgarligi ustida hali ancha mashaqqatli ishlar olib borilish kerak.

Bunday fikrlarni aytib o'tishda, ko'pgina olib borilgan pedagogik kuzatishlar natijalariga asoslanish mumkin.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda sportni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Sportni rivojlantirishga qaratilgan ko'pgina farmon va qonunlar ishlab chiqilmoqda va ular hayotga tadbiq qilinmoqda. Lekin, shuni ham aytib o'tish kerakki, ko'pgina masalalarni yechimini echishda, ayniqsa sportchilarni tayyorgarlik tomonlardan o'rganishda ilm-fanni o'rni ham o'zgachadir. Ya'ni masalalarni yechimini echishda, masalaga abstrakt yondoshishmasdan, balki ilmiy yondoshgan hamda isbotiy dalillarga erishgan holda shoshilib borish, ancha samarali usul hisoblanishi shubhasizdir.

Tadqiqotning maqsadi – Yosh gandbolchilarni musobaqa faoliyatini nazorat qilish va texnik-taktik harakatlarini o'rganish va tahlil qilish orqali trenirovka mashg'ulotlari samaradorligini oshirish.

Ishning ilmiy yangiligi. Yosh gandbolchilarning texnik-taktik darajalari aniqlandi. Yuqori malakali gandbolchilarni tezkorlik-kuch, chaqqonlik, chidamkorlik sifatlarini rivojlantirish, ruhiy tayyorgarliklari, musobaqa paytida o'zini tutishlari o'rganildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari quyidagi hollarda qo'llanilishi mumkin: yosh gandbolchilarning tezkorlik-kuch sifatlarini oshirishda, ruhiy ko'rsatmalar berishda, gandbolchilar mashg'ulotlarida texnik-taktik harakatlarida, samarali va samarasiz jihatlarini aniqlashda, dasturlardan foydalanish davrida yo'l qo'yilgan hatolarni bartaraf etishda qo'llanilishi mumkin.

Gandbol o'yinining mohiyati – Gandbol keng tarqalgan sport turlaridan biri bo'lib, u o'quvchi yoshlarni jismoniy rivojlantirish, ularning salomatligini mustahkamlashning eng ommabop, binobarin, eng qulay vositalaridan biridir. Bu kattalar uchun ham, o'smir-yoshlar uchun ham birdek ma'qul bo'lgan chinakam haqchil o'yin hisoblanadi. Musobaqada o'n ikki o'yinchidan tashkil topgan ikki jamoa qatnashadi. O'yin maydoni 40x20 m kattalikdagi to'rtburchakdan iborat. O'yinda qatnashuvchi jamoalar o'yinchilarning maqsadi - to'pni egallab olib, dastlabki himoya qilinish turgan darvozaga kiritish. To'p bilan barcha harakatlar faqat qo'lda bajariladi. To'p uchun ko'rashda qarshilik ko'rsatishda qo'pollik va sportchiga xos bo'lmagan harakatsiz qoidaga rioya qilinish bajarilishi lozim. O'yin ishtirokchilarning yoshi va jinsiga bog'liq bo'lib, 30 daqiqadan 60 daqiqagacha davom etadi. O'yin vaqtida har bir o'yinchi o'zining shaxsiy fazilatlarini ko'rsatish imkoniyatlariga ega. Ammo, shu bilan birga, o'yin har bir gandbolchidan o'z shaxsiy intilishlarini umumiy maqsadga bo'ysundirishini talab qiladi.

Gandbol o'yinining asosini yugurish, sakrash, to'pni uzatish, uloqtirish kabi shug'ullanuvchilarning har jihatdan uyg'un rivojlanishiga yordam beradigan tabiiy harakatlar tashkil etadi. Yuklamalar organizmdagi barcha funksional tizimlarning rivojlanishiga ijobiy tasir etadi. Mashg'ulotlar tasirida, shuningdek, musobaqalarda shug'ullanuvchilarning ruhiy faoliyati takomillashadi, tezlik reaksiyasi, chamalash, ijodiy fikr yuritish, tezlik va tashabbuskorlik kabi sifatleri rivojlanadi. Gandbol o'yini umumiy jismoniy tayyorgarlik uchun yaxshi vosita bo'lib xizmat qila oladi. Yo'nalishni o'zgartirib hilma-hil yugurish, sakrashning turli hillari, maksimal tezlikda harakat qilish yo'llari bilan jismoniy hislatlarni, ayni paytda irodaviy hislatlarni, taktik tafakkurini kamol topishi tufayli gandbol har qanday ixtisosdagi sportchi uchun zarur bo'lgan sport o'yinlari qatoridan joy olgan.

Gandbol o'yini bugun maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida keng qo'llanilmoqda. Gandbol musobaqalari mehnatkashlarni muntazam tarzda jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga jalb qilishning muhim vositasi, sport mahoratini oshirishning hamda «Alpomish va Barchinoy» me'yoriy talablarini bajarishning asosiy omillardan hisoblanadi.

Sport maktabi gandbolchilarini Urganch olimpiya va parolimpiya sport turlariga tayyorlash markazi gandbolchilari bilan bo'lgan o'yindagi texnik - taktik harakatlari natijalari

№	To'p uzatishlar			olib To'pni qo'yish	Raqibni aldab o'tish	olib To'pni yurish	Darvoza tamon zarba berish	Jami TTX	Samaradorlik koeffitsienti
	yonga	oldinga	harakatdagi						
	+2	+3	+5-4	+3-2	-	+1	-	20	0,68
	+5-1	+2-1	+6-4	+4-2	+1-1	+2	+5-1	35	0,74
	+6-2	+3-2	+8-5	+3-3	+2-2	+2	+4-2	43	0,66
	+5-1	+2-3	+8-7	+2-3	+2-1	+2-1	+3-1	41	0,60
	+6-1	+3-5	+8-8	+5	+2-3	+3	+2-3	49	0,60
	+6-2	+2-5	+7-8	+3-4	+2-3	+3	+3-3	51	0,54
	+5-2	+3-5	+7-7	+3-3	+3-3	+7	+2-2	52	0,57

Yangi tizim mamlakatimizning barcha o'quvchi yoshlarini to'la qamrab oladi. Sport ilk bor maktabda o'quvchining kundalik ehtiyojiga aylansa, akademik litsey va kasb-hunar kollejida uning doimiy hamrohi bo'lib qoladi. Universitet yoki institutda esa bu hamroh uni nufuzli xalqaro musobaqalarda olib chiqadi. Musobaqalarda kashf etilgan g'oliblar O'zbekiston terma jamoalariga jalb etiladi. Yana bir muhim tomoni – mazkur tizimlarda sportning ma'lum turi bo'yicha faoliyat ko'rsatgan yigit-qizlar bu boradagi ishlarini bo'lajak oilalarida, mehnat jamoalarida ham davom ettiradilar. Shu jumladan, gandbol bo'yicha 16 ta erkaklar va 14 ta ayollar jamoasi birinchi marta Buxoroda o'tkazilgan «Universiada-2002» dasturiga kiritildi.

Bu uch bo'g'inli tizim yo'lga qo'yilgandan boshlab yana gandbol sportiga, uning yashashiga, rivojiga e'tibor berila boshlandi.

Tadqiqotni o'tkazilishi -Tadqiqotlar davomida 2 ta o'yin nazorat qilindi. Nazorat qilishda yosh gandbolchilar tomonidan bajariladigan barcha texnik-taktik harakatlar kuzatildi va natijalar qayd qilinib borildi.

Qayd qilingan ko'rsatkichlar:
qisqa to'p uzatishlar (yonga, oldinga);
uzoq masofaga to'p uzatishlar;
to'pni olib qo'yish;
to'pni olib yurish;
sakrab darvoza tomon zarba berish;
darvoza tomon zarba berish;
raqibni aldash o'tish;

Bu harakatlarni qayd qilish uchun Yu.Morozov tomonidan ishlab chiqilgan uslubdan foydalanildi va qisman biz tomondan o'zgartirish kiritilgan. Olingan natijalarning hajm va sifat ko'rsatkichlari aniqlandi. Olingan natijalarga asoslanib kuzatilgan jamoadagi har bir gandbolchi haqida umumiy xulosaga kelinib, so'ngra butun jamoani ko'rsatgan natijalariga ham baho berish imkonini yaratilgan.

Gandbolchilarni individual texnik-taktik harakatlarini pedagogik kuzatuv va taxlili. Kuzatishlar davomida 2 ta o'yin nazorat qilindi. Nazorat qilishda yosh gandbolchilar tomonidan bajariladigan barcha texnik-taktik harakatlar kuzatildi va natijalar qayd qilinib borildi.

Jadvalda gandbolchilar tomonidan bajarilgan texnik taktik harakatlar natijalari ko'rsatib o'tilgan.

Natijalarni tahlil qilib o'tadigan bo'lsak, quyidagilarni aytib o'tish mumkin.

Gandbolchilar o'rtacha o'yin davomida 410 ta texnik-taktik harakatni amalga oshirishdi. Bu texnik-taktik harakatlarni 238 tasi samarali yakun topdi va 172 ta texnik-taktik harakat samarasiz yakun topdi. Umumiy samaradorlik koeffitsienti 0.60% ni tashkil qilgan. Gandbolchilarni barcha texnik-taktik harakatlarini yarmidan ko'proq qismini turli to'p uzatishlar tashkil qilgan. Ya'ni o'rtacha o'yin davomida gandbolchilar 232 ta turli to'p uzatishlarni amalga oshirishgan (1-jadval).

	+4-1	+2-4	+5-6	+2-4	+3-3	+4	+2-5	45	0,50
	+3-2	+1-1	+6-6	+2-5	+1-3	+3	+3-2	37	0,55
10.	+4-1	+2-3	+4-2	+1-3	+2-4	+5	+3-3	37	0,49
	+46-13	+23-29	+64-57	+28-29	+18-23	+32-1	+27-22	410	0,60

To'p uzatishlar-Yonga to'p uzatishlar o'rtacha o'yin davomida 59 marotaba qo'llanilgan. Ulardan 46 tasi to'g'ri bajarilgan bo'lib, 13 ta to'p uzatish noto'g'ri bajarilgan. Samaradorlik koeffitsienti 0,87% ni tashkil qilgan.

Oldinga to'p uzatishlar o'rtacha o'yin davomida 52 marotaba amalga oshirilgan. Samaradorlik koeffitsienti 0,56% tashkil etdi. Ko'pgina urinishlar mo'ljalga aniq etib bormagan bo'lib, 52 ta to'p uzatishdan 23 ta to'p uzatish aniq o'yinchiga etib bormagan.

Harakatdagi o'yinchiga to'p uzatish-Harakatdagi o'yinchiga (oldinga) to'p uzatishlar. 121 marotaba bu uzatishlar foydalanilgan va ularning 64 tasi aniq amalga oshirilib, 57 tasi noaniq amalga oshirilgan. Samaradorlik koeffitsienti 0,44% ni tashkil etdi.

To'pni olib yurish-O'rtacha har o'yinda bu texnik harakatda gandbolchilar 32 marotaba foydalanishgan. Bu ko'rsatkichni nisbatan me'yoriy ko'rsatkichlar atrofida hisoblasa bo'ladi.

Raqibni aldab o'tish-Gandbolchilar bu texnik harakatni o'yin davomida 41 marotaba o'z raqibini aldab o'tish uchun foydalanishgan va ulardan 18 urinish samarali yakun topgan, 23 ta urinish esa noaniq amalga oshirilgan. Samaradorlik koeffitsienti 0,55% tashkil etdi. Bu texnik usulni

amalga oshirishda gandbolchilardan bir qancha tayyorgarlik sifatlarini rivojlanganligini talab qilinadi. Gandbolchi yaxshi jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lishi, tezlik kuch sifatlarini yaxshi rivojlanganligiga va dribblinga ega bo'lishi ahamiyatli hisoblanadi.

Darvoza tomon zarba berish-Gandbolchilar o'yin davomida o'rtacha 49 ta texnik-taktik harakat amalga oshirishgan. 27 marotaba urinishlar samarali yakunlangan. 22 ta urinishlar esa harakatlar noaniq yakunlangan. Samaradorlik koeffitsienti 0,60% ni tashkil qildi.

Xulosalar. Maxsus adabiyotlar shuni ko'rsatdiki, gandbolchilarni musobaqa faoliyatini nazorat qilish gandbolchilarni tayorlash jarayonida muxim o'rin egallaydi. Individual texnik-taktik harakatlarni baholash bilan birga, gandbolchilar tezlik-kuch sifatlarini, maxsus chaqqonligini, chidamkorligini, taktik o'ylashlarini va texnik xartaraflamalik qobiliyatlarini aniqlasa bo'ladi. Taxlil natijalariga asoslanib, gandbolchini turli tayyorgarlik tomonlariga maqsadli ta'sir etsa bo'ladi.

Yosh gandbolchilarni musobaqa faoliyatini o'rganish jarayonida, ular tomonidan bajariladigan bir qancha texnik harakatlar kuzatildi va olingan natijalar tahlil qilindi.

ADABIYOTLAR

1. A.K.Karimov "Sport pedagogik mahoratini oshirish" (Gandbol).O'quv qo'llanma; Lesson press. Toshkent2022y.
2. A.Karimov, Sh.Ernazarova; Psychological training of handball players; WARSAW, POLAND Wydawnictwo Naukowe "iScience" 2020
3. D.Karimov, A.Karimov; Issues including national girls in sports schools; WARSAW, POLAND Wydawnictwo Naukowe "iScience" 2020
4. Karimov Abdulla, Ernazarova Sharifa; General physical training of handball players; WARSAW, POLAND Wydawnictwo Naukowe "iScience" 2020
5. Каримов А.К. "12-15 ёшли гандболчи дарвозабонларнинг мусобақа фаолиятидаги техник ва тактик ҳаракатлари самарадорлигини ошириш" Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириў.2021й
6. A.Karimov "Tactical preparation of the handball goalkeeper" "Issues of the development of physical education and mass sport in the life of our people during the period of socio-economic changes in the renovating Uzbekistan" 2022 year 26-27 may



UDK: 159.923.2:618.1

Umida LATIPOVA,

Ma'mun unuversiteti "Psixologiyik xizmat" ilmiy-o'quv tadqiqot markazi boshlig'i, PhD, dotsent

<https://orcid.org/0009-0005-1699-3531>

E-mail: ulatipova933@gmail.com

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent A.Abdumannotov taqrizi asosida

REPRODUKTIV SALOMATLIGIDA MUAMMOSI BOR AYOLLARNING EMOTSIONAL HOLATINI "SAN" METODIKASI ASOSIDA BAHOLASH

Annotatsiya

Ushbu maqolada reproduktiv salomatligida muammosi bor ayollarning emotsional holatini "SAN" (o'z-o'zini his qilish, faollik, kayfiyat) metodikasi asosida baholash natijalari bayon etiladi. Tadqiqotda sog'ligida muammosi bor va shartli sog'lom ayollar guruhlarini o'rtasida emotsional farqlar aniqlanib, ularning psixologik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Reproductive salomatlik, emotsional holat, o'z-o'zini his qilish, faollik, kayfiyat, "SAN" metodikasi.

ОЦЕНКА ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ ЖЕНЩИН С ПРОБЛЕМАМИ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ НА ОСНОВЕ МЕТОДИКИ «САН»

Аннотация

В данной статье представлены результаты оценки эмоционального состояния женщин с нарушениями репродуктивного здоровья на основе методики «САН» (самочувствие, активность, настроение). В исследовании были выявлены эмоциональные различия между группами женщин с нарушениями здоровья и условно здоровыми, а также проведен анализ их психологических особенностей.

Ключевые слова: репродуктивное здоровье, эмоциональное состояние, самочувствие, активность, настроение, методика «САН».

ASSESSMENT OF THE EMOTIONAL STATE OF WOMEN WITH REPRODUCTIVE HEALTH PROBLEMS BASED ON THE "SAN" METHODOLOGY

Annotation

This article presents the results of assessing the emotional state of women with reproductive health issues using the "SAN" methodology (well-being, activity, mood). The study revealed emotional differences between groups of women with health problems and conditionally healthy individuals, along with an analysis of their psychological characteristics.

Key words: reproductive health, emotional state, well-being, activity, mood, "SAN" methodology.

Kirish. Reproductive yoshdagi ayollar salomatligining psixologik komponenti, xususan emotsional holatining barqarorligi, ularning umumiy hayot sifatiga, ijtimoiy faolligiga va oilaviy munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, reproduktiv sog'ligida muammo bo'lgan ayollar orasida depressiv kayfiyat, xavotir, stress va psixiye emotsional zo'riqish holatlari yuqori kuzatiladi. Shu sababli, ushbu guruh ayollarda emotsional holatni aniq psixodiagnostik vositalar orqali baholash zarurdir.

Bir qator rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, Farbiy Yevropa, AQSh, Yaponiyada o'tgan asrning 70-yillarida aholi salomatligining keskin yomonlashuvi tufayli vujudga kelgan jiddiy vaziyatdan chiqish uchun aholining turmush tarzini o'zgartirish lozim degan xulosaga kelinib, mamlakatlar aholisi o'rtasida ommaviy sog'Momlashtirish ishlarini rivojlantirishga kirishildi. Biroq sog'Mom turmush tarzini shakllantirishdek murakkab masalaning echimini topishda tarixiy yondoshish, ayniqsa, Sharq va Markaziy Osiyo xalqlari o'rtirgan boy tajribani hamda vatandoshlarimiz bo'lmish ulug' allomalar qoldirgan ilmiy me'rosni o'rganish va ulardan foydalanish ham muhim ahamiyatga egadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ayollarning reproduktiv salomatligi bilan bog'liq psixologik holatlarni o'rganish bugungi kunda xalqaro va milliy ilmiy tadqiqotlarda muhim o'rin egallamoqda. Reproductive tizimdagi buzilishlar nafaqat fiziologik, balki psixologik beqarorlik, emotsional zo'riqish, tashvish va depressiv holatlar bilan ham kechadi.

Shuning uchun ayollarning emotsional holatini baholashda biopsixosotsial yondashuv muhim o'rin tutadi [2].

Ayollar salomatligi ko'p jihatdan erkaklar sog'lig'idan farq qiladi. Ayollar salomatligi bu aholi salomatligining bir qismi bo'lib, bu yerda sog'liqni saqlash Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan „nafaqat kasallik yoki nogironlikning yo'qligi, balki to'liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy farovonlik holati“ deb ta'riflanadi. Ko'pincha oddiygina ayollarning reproduktiv salomatligi sifatida qaraladigan bu tushunchani ko'plab guruhlar ayollarning umumiy salomatligiga kengroq ta'rifni qo'llab-quvvatlaydilar. Bu tushuncha „ayollar salomatligi“ sifatida yaxshiroq va kengroq ifodalanishi kerak degan fikrlar ilgari suriladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu nomutanosibliklar yanada kuchaymoqda, bunday mamlakatlarda sog'lig'i xavf va tajribani o'z ichiga olgan ayollar yanada noqulay ahvolda qolishadi.

Ayollarning sog'lig'i va kasalliklari erkaklardan o'ziga xos biologik, ijtimoiy va xulq-atvor sharoitlari tufayli farqlanadi.

Biologik farqlar fenotipdan hujayragacha o'zgarib turadi va kasallik rivojlanishi uchun noyob xavflarni ko'rsatadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) salomatlikni „nafaqat kasallik yoki nogironlikning yo'qligi emas, balki to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati“ deb ta'riflaydi. Ayollar salomatligi butun aholi salomatligi demakdir.

Ayolning sog'lig'i „bo'shliqlari bo'lgan quroq ko'rpa“ deb ta'riflangan. Ko'pgina ayollar salomatligi masalalari ularning reproduktiv salomatligi, jumladan, ona va bola salomatligi, reproduktiv va ko'krak sog'lig'i, endokrin (gormonal) salomatlik, jumladan hayz ko'rish, tug'ilish jarayonini nazorat qilish va menopauza bilan bog'liq bo'lsa-da, ayollar salomatligini kengroq tushunish uchun ayollar salomatligining barcha jihatlarini o'rganib chiqish kerak bo'ladi.

Hissiyot tushunchasiga adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi jumladan; A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» darsligida hissiyot – kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan kichik munosabatdir. M.Vohidovning «Bolalar psixologiyasi» o'quv qo'llanmasida hissiyot deb – tashqi olamdagi narsa va hodisalarga bo'lgan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishga aytiladi. Q.Turg'unov muallifligidagi lug'atda hissiyot-shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida kelib chiqadigan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalardan iborat. Professor E.G'oziyev muallifligidagi «Umumiy psixologiya» darsligida hissiyot odamda, tirik mavjudotlar miyasida, ya'ni shaxslarning ehtiyojlarini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi obyektlarga nisbatan uning munosabatlarini aks ettirish ma'nosida qo'llaniladi.

O'zbekistonda ushbu sohaga oid ilmiy izlanishlar turli yo'nalishlarda olib borilgan. Jumladan, Z.R. Ibodullaev o'zining «Tibbiyot psixologiyasi» asarida bemorlarning ruhiy holatini chuqur tahlil qilib, ularni sog'ayish jarayonida psixoterapevtik yondashuvlar muhimligini asoslab bergan [2]. Shuningdek, D.A. Urazbaeva «Klinik psixologiya» darsligida kasalliklar fonda yuzaga keladigan psixologik muammolar, ayollarda uchraydigan emotsional nomutanosibliklar va ularni korreksiya qilish metodlarini yoritgan [3]. Psixologiya fanining asosiy nazariy masalalari bo'yicha V.M. Karimova tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar asosida shaxsiy emotsional holatni aniqlashda diagnostik metodikalarining

ahamiyati alohida ta'kidlangan [4]. Bundan tashqari, Z.T. Nishanova va hammualliflar tomonidan yozilgan «Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya» darsligida inson psixikasining yosh davrlar bo'yicha o'zgarishi, ayollarda psixoemotsional reaktivlik va stressga chidamlilik darajasi atroflicha yoritilgan[5].

Tadqiqotda emotsional holatlarni baholashda SAN metodikasi qo'llanildi. Ushbu metodika sog'liq (S), faollik (A) va kayfiyat (N) kabi muhim ko'rsatkichlarni o'lchaydi. Metodikaning konseptual asoslari A.G. Shmelyov tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, zamonaviy psixodiagnostik vosita sifatida keng qo'llaniladi[1]. Amaliy jihatdan esa ushbu metodikadan foydalanish va uni shifobaxsh yondashuvlar bilan bog'lashda Ibodullaev Z.R. asaridagi tibbiy psixologik tushunchalar metodikaga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi[2].

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, ayollarning reproduktiv bosqichida yuzaga keladigan emotsional o'zgarishlarni baholashda SAN metodikasi qisqa vaqt ichida diagnostik ma'lumot olish, subyektiv holatni ob'ektivlashtirish va holatni monitoring qilish imkonini beradi. Bunda tibbiy psixologik nazariy asoslar (Ibodullaev Z.R.) va psixometrik diagnostika (Shmelyov A.G.) o'zaro metodologik uyg'unlik hosil qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda kuzatish, SAN so'rovnomasi (o'z-o'zini his qilish, faollik, kayfiyat) V.A.Dochkin, N.A.Lavrentyeva, V.B.Sharay va M.P.Miroshnikov tomonidan ishlab chiqilgan va statistik tahlil uchun Mann–Whitney U testi qo'llanildi. Tadqiqotda jami 406 nafar ayol ishtirok etdi. Ulardan 110 nafari reproduktiv sog'ligida buzilishi aniqlangan bo'lsa, 296 nafari shartli sog'lom ayollar guruhini tashkil etdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotda sog'lom va reproduktiv sog'ligida muammosi bor ayollar ishtirok etdi (n=406), ularning emotsional, psixologik va fiziologik holatlari bir nechta validlangan metodikalar yordamida baholandi. Tahlil natijalari Manni–Uitni U mezonini asosida statistik jihatdan ishonchli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. SAN metodikasi natijalarini tahlil qilganda ishonchli darajada tafovutlar borligi aniqlandi.

1-jadval.

SAN metodikasi natijalari (Manni Uitni mezon n=406)

Shkalalar	Holati	N	O'rta rang	U	P
O'z-o'zini his qilish	Kasalligi bor	110	143,41	9670,00	0,003**
	Sog'lom	296	225,83		
	Jami:	406			
Faollik	Kasal	110	184,70	14212,00	0,048**
	Sog	296	210,49		
	Jami:	406			
Kayfiyat	Kasal	110	159,83	11476,00	0,01**
	Sog	296	219,73		
	Jami:	406			

Izoh: **p<0,01; *p<0,05

O'z-o'zini his qilish shakalasida ahamiyatli darjada farqlar borligi ma'lum bo'ldi (U=9670,00; p<0,01). Sog'lom shaxslarda kasalligi bor shaxslar nisbat o'z-o'zini his qilish yuqori chiqdi.

Faollik shakalasida ahamiyatli darjada farqlar borligi ma'lum bo'ldi (U=14212,00; p<0,01). Sog'lom shaxslarda kasalligi bor shaxslar nisbat faollik yuqori chiqdi.

Kayfiyat shakalasida ahamiyatli darjada farqlar borligi ma'lum bo'ldi (U=11476,00; p<0,01). Sog'lom shaxslarda kasalligi bor shaxslar nisbat kayfiyat yaxshi chiqdi.

SAN metodikasi asosida o'tkazilgan tahlillar natijalariga ko'ra, reproduktiv salomatligida muammosi bor ayollar va sog'lom ayollar o'rtasida emotsional holat ko'rsatkichlarida ishonchli darajada tafovutlar aniqlangan. Xususan, o'z-o'zini his qilish (U=9670,00; p<0,01), faollik (U=14212,00; p<0,01) va kayfiyat (U=11476,00; p<0,01)

shkalalarida sog'lom shaxslar foydasiga sezilarli ustunlik kuzatildi. Bu holat reproduktiv salomatligida muammo bo'lgan ayollarda psixoemotsional beqarorlik, past hayotiy faollik va salbiy hissiy fon ustun ekanini ko'rsatadi. Olingan natijalar ushbu guruh bilan psixologik profilaktika va korreksiya ishlash zarurligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Shunday qilib, SAN metodikasining amaliy tatbiqi nafaqat emotsional o'zgarishlarni aniqlash, balki tibbiy-psixologik yondashuv asosida individual psixokorreksiya strategiyalarini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa ayollar salomatligini saqlash va psixoemotsional barqarorlikni ta'minlashda samarali vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot natijalariga ko'ra, reproduktiv sog'ligida muammosi bor ayollarda o'z-o'zini his qilish, faollik va kayfiyat ko'rsatkichlari ishtirok etgan sog'lom ayollarnikiga qaraganda

ancha past bo'lib, bu holat psixokorreksion va profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqishda e'tiborga olinishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Шмелев А.Г. Психодиагностика эмоциональных состояний. – М.: МГУ 2003.
2. Ibodullaev Z.R. Tibbiyot psixologiyasi. – Toshkent, 2020. – 380 b.
3. Urazbaeva D.A. Klinik psixologiya. – Toshkent, 2024. – 212 b.
4. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: Sharq, 2002. – 205 b.
5. Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. – 600 b.
6. K.Mahmudov. Yuqumli kasalliklar epidemiologiyasi va parazitologiya. -T., 2008.
7. Y.Asadov. Ruhiiy holatlar diagnostikasi va korreksiyasi -T., 2001.



UDK: 821.112.22

Nargiza MANNANOVA,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti
E-mail:nargizamannanova7@gmail.com

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti F.Eshnazarova taqrizi asosida

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION BOSHQARISHNING TA'LIM MUHITINI YARATISH VA SHAKLLANTIRISH

Аннотация

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimida innovatsion boshqaruvning ahamiyati, ta'lim muhitini yaratish va shakllantirishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan strategiyalar yondashuvlar tahlil qilinadi. Ta'lim muassasalarida innovatsion boshqaruvning joriy etilishi, nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki yoshlarning intellektual va shaxsiy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. Maqolada, shuningdek, innovatsion boshqaruvning ta'lim tizimidagi samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan boshqaruvga oid yangiliklar, shuningdek, ularning amalga oshirilishi uchun muhim shart-sharoitlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Boshqaruv, innovatsiya, ekspert, jamoatchilik, strategiya, kadr, takt, muassasa, rahbar, innovatsion ta'lim.

СОЗДАНИЕ И ФОРМИРОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ ИННОВАЦИОННОГО УПРАВЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье анализируется важность инновационного управления в системе общего среднего образования, стратегии и подходы, которые необходимо реализовать при создании и формировании образовательной среды. Внедрение инновационного менеджмента в образовательных учреждениях в значительной степени способствует не только повышению качества образования, но и интеллектуальному и личностному развитию молодежи. В статье также рассматриваются управленческие инновации, необходимые для повышения эффективности инновационного менеджмента в системе образования, а также важные предпосылки их реализации.

Ключевые слова: Менеджмент, инновации, эксперт, общественность, стратегия, персонал, такт, институт, лидер, инновационное образование.

CREATING AND SHAPING AN EDUCATIONAL ENVIRONMENT OF INNOVATION MANAGEMENT IN THE GENERAL SECONDARY EDUCATION SYSTEM

Annotation

This article analyzes the importance of innovative management in the system of general secondary education, strategies and approaches that need to be implemented in creating and shaping the educational environment. The introduction of innovative management in educational institutions significantly contributes not only to improving the quality of education, but also to the intellectual and personal development of young people. The article also discusses managerial innovations necessary to improve the effectiveness of innovation management in the education system, as well as important prerequisites for their implementation.

Key words: Management, innovation, expert, public, strategy, personnel, tact, institute, leader, innovative education.

Kirish. "Bir o'ylab ko'raylik dunyodagi rivojlangan davlatlar qanday qilib yuksak taraqqiyotga va turmush farovonligiga erishmoqda" [1] natijada, jamiyatdayuz berayotgan jadalozgarishlar, ilm-fan va texnologiyalar rivoji, global integratsiya jarayonlari ta'lim tizimiga yangicha yondashuvlar va samarali boshqaruv usullarini joriy etishni talab qilmoqda. O'zbekistonning ta'lim tizimi, ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim sohasida sifat va samaradorlikni oshirish borasida muhim o'zgarishlar olib borilmoqda. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishda innovatsion boshqaruvning o'rni beqiyosdir. Innovatsion boshqaruvning ta'lim tizimiga joriy etilishi, nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki ularga zarur bo'lgan shaxsiy va ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari boshqaruvida nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va ularni boshqarish balki subyektlar uchun zaruriy sharoitlar yaratish ularni faol rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish, samaradorlikni baholash shuningdek moddiy-texnik bazasini yaratish kabi bir qator vazifalar sanab o'tiladi"[2].

Innovatsion boshqaruvning ta'lim muhitini yaratishdagi roli juda katta.

Ta'lim muhitini shakllantirish nafaqat o'qitish metodlari va texnologiyalari, balki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, jamiyatning ta'limga bo'lgan e'tibori, shuningdek, ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimining samaradorligi bilan bog'liqdir.

Bugungi kunda ta'lim muhitini yaxshilash uchun innovatsion boshqaruvning yangi yondashuvlari, usullari va strategiyalari zarur. Bu esa, o'quv jarayonida interaktiv va individual yondashuvlarni qo'llash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, hamda o'qitishning samaradorligini oshirishga qaratilgan yangicha boshqaruv modellari ishlab chiqishni anglatadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida innovatsion boshqaruvning ta'lim muhitini yaratish va shakllantirish masalasi bugungi kun ta'limining eng dolzarb masalalaridan biridir. Ammo innovatsion boshqaruv, yangi pedagogik metodlar, texnologiyalar va boshqaruv yondashuvlarini ta'lim tizimiga joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi.

(Matn juda katta hajmli bo'lgani uchun uni to'liq ko'chirishning o'rniga, uni hujjat ko'rinishida tayyorlab berishim yoki parcha-parcha tahlil qilib berishim mumkin.)

Agar xohlasangiz, matn Word/PDF fayl ko'rinishida tozalangan shaklda olish yoki qismlarga bo'lib tahrir qildirish mumkin. Qanday yordam berishimni xohlaysiz?

Shuningdek, o'quvchilar vaota-onalar bilan aloqa muammolariham mavjud bo'lib, ba'zidaota-onalar vao'quvchilar yangi metodlarni qabul qilmasligi yoki ularga ishonmasligi mumkin. O'quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olish, ular bilan doimiyaloqada bo'lish vaota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, innovatsion boshqaruvni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu jarayon, o'qituvchi vao'quvchi o'rtasidagi samarali aloqani o'rnatishni, yangi pedagogik metodlarni o'qitishning samarali tizimiga aylantirishni talab etadi. Shuningdek "ta'lim tashkiloti rahbarlari boshqaruv faoliyatini innovatsion yo'nalishlari bo'yicha o'z funksional vazifalarni amalga oshirishda tizimli yondashuvni tatbiq etishi muhim ahamiyatga ega"[4].

Shu o'rinda ushbu masalaning bir qancha yechimlarini ham ko'rsatib o'tish zarur. "Davlat va jamiyat hayotini yangilash, rivojlantirish, uning ta'lim tizimini modernizatsiyalash, bu tizimni mazmun va tuzilish jihatdan yangilash orqali amalga oshiriladi"[5]. Ular quyidagilarni tashkil etadi. Innovatsion boshqaruv uchun zarur bo'lgan resurslar, xususan, axborot texnologiyalari, o'qituvchilarni qayta tayyorlash vayangi pedagogik metodikalarni joriy etish borasida davlat tomonidan moliyaviy va tashkilotchilik yordamini kuchaytirish. O'qituvchilar va rahbarlar uchun innovatsion boshqaruv bo'yicha treninglar va seminarlar tashkil etish, shuningdek, ilmiy-pedagogik jamoalarning hamkorligini yo'lga qo'yish. Ta'lim muassasalaridayangiliklarga nisbatan ijobiy qarashni shakllantirish uchun o'quvchilar, o'qituvchilar va rahbarlar o'rtasida o'zgarishlarga tayyorlikni rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlanmalar ishlab chiqish kabilarni yechim sifatida taqdim etish mumkin. "Boshqarish jarayoniga innovatsion tuzilishga ega bo'lgan murakkab pedagogik tizim sifatida yondashish"[6] boshqaruv jarayonida nechog'lik innovatsiyalar muhimligini ko'rsatadi.

Shu o'rinda innovatsion boshqaruvning ta'lim muhitini shakllantirishdagi roli ham beqiyosligini takidlash joizdir. Innovatsion boshqaruv, ta'lim tizimining barcha komponentlari o'rtasida muvofiqlikni ta'minlab, ta'lim muhitini shakllantiradi. Bu jarayonda ta'lim muassasalaridao'qitishning sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etish, shuningdek, ularga zarur bo'lgan ijtimoiy va shaxsiy ko'nikmalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Innovatsion boshqaruvning asosiy maqsadi – ta'lim muhitini ishlab chiqish, o'quvchilarning shaxsiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, ta'lim jarayonidayangi pedagogik va texnologik yondashuvlarni tatbiq etishdir. Shu jarayonda umumiy o'rta ta'lim tizimida innovatsion boshqaruvning ta'lim muhitini yaratishdagi afzalliklarni ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu afzalliklar, ta'lim jarayonini yanada samarali va zamonaviy qilishgayordam beradi.

Quyida innovatsion boshqaruvning ta'lim muhitini yaratishda asosiy afzalliklari keltirilgan: Yuqori sifatli ta'limni ta'minlash yani innovatsion boshqaruv yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi, bu esa o'quvchilarga yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratadi.

Tahlil va natijalar. Tezkor adaptatsiya va moslashuvchanlik. Innovatsion boshqaruv tizimi boshqaruv muhitini tezda yangilash va xodimlarni ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa ta'lim jarayonining o'zgaruvchan talablariga moslashishgayordam

beradi. Agil boshqaruv yondashuvi, xodimlarnio'zgaruvchan ehtiyojlariga tezda javob berishga imkon beradi, bu esa ta'lim sifatini doimiy ravishdayaxshilashga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida texnologiyalardan samarali foydalanish, innovatsion boshqaruv raqamli texnologiyalarni ta'limda samarali qo'llashga imkon beradi. Masalan, onlayn boshqaruv, interaktiv platformalar, sun'iy intellekt tizimlari va boshqa raqamli vositalar orqali ta'lim jarayoni optimallashtiriladi.

O'qituvchilarning malakasini oshirish, innovatsion boshqaruv usullari orqali o'qituvchilarning malakasini doimiy ravishda oshirish imkoniyatlari yaratiladi. O'qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirib, ta'lim sifatini yanadayaxshilashga hissa qo'shadilar. Jamiyatda ta'limning ijtimoiy roli va ahamiyatini oshirish. Innovatsion boshqaruv ta'limning ijtimoiy rolini kuchaytiradi. Jamiyatda ta'limni rivojlantirish orqali, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shiladi.

Ta'lim tizimidagi yangiliklar jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarga mos ravishda rivojlanadi. Samarali resurslar boshqaruvi, innovatsion boshqaruv tizimi resurslarni samarali boshqarish imkoniyatlarini yaratadi. Ta'lim resurslari (o'quv materiallari, texnologiyalar, inson resurslari) yanada oqilona taqsimlanib, ta'lim tizimining samaradorligi oshadi. Innovatsion yondashuv orqali moliyaviy va resurslarni taqsimlash tizimi optimallashtiriladi, bu esa ta'limning sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassasalarida innovatsiyalarni tatbiq etilishi albatta kelajakda boshqaruv tizimiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi va boshqaruvda shaffoflikni ta'minlaydi.

Xulosa. Xulosa o'rinda shuni takidlash joizki, umumiy o'rta ta'lim tizimida innovatsion boshqaruvning ta'lim muhitini yaratish va shakllantirishdagi roli nihoyatda muhimdir. Innovatsion boshqaruv ta'lim jarayonining sifatini yaxshilash, o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularning ijodiy va intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlar ta'lim tizimigayangicha qarashlar, metodlar va texnologiyalarni joriy etishga imkon yaratadi, bu esa ta'lim muassasalarining samaradorligini oshiradi.

Ta'lim muhitini shakllantirishda innovatsion boshqaruvning asosiy omillari texnologik yangiliklar, pedagogik yondashuvlar, boshqaruv tizimi va ijtimoiy-madaniy muhitni o'z ichiga oladi. Ta'lim tizimidagi barcha resurslarni samarali boshqarish, o'qituvchilarni innovatsion yondashuvlarga o'rgatish va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish zarurdir. Shuningdek, ta'lim tizimining o'zgarishga qarshiligi, resurslar yetishmasligi va boshqaruv jarayonlaridagi noaniqliklarni bartaraf etish uchun tizimli ishlanmalar ishlab chiqish lozim. "Pedagogik innovatsiyalar generatsiyalashasosida kasbiy kompetentlikni oshirib boradi"[7].

Innovatsion boshqaruvning ta'lim muhitini yaratishdagi ahamiyati nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Ta'lim muassasalari, har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirish uchun, rivojlanish yo'lidan borish kerak" [8]. Boshqaruvning innovatsion metodlarini joriy etish, o'quvchilarni nafaqat bilim, balki ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar bilan ham ta'minlaydi.

Shunday qilib, umumiy o'rta ta'limda innovatsion boshqaruvning samarali amalga oshirilishi, hamda ushbu jarayonga innovatsion yondashuvlar asosida boshqarish globallashtirish jarayonidagi ta'lim muhitiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rishimiz mumkin. Innovatsion boshqaruv ta'limni yanada sifatli, raqobatbardosh va barqaror qilishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyotlar strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 211 b.
2. Xo'jaqulov, B. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida strategik boshqaruvni takomillashtirish: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 11 b.

3. Matnazarova, M. B. Oliy ta'lim muassasalari pedagogik kadrlarining kasbiy komponentligini uzluksiz rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 9 b.
4. Safarov, R., Musayeva, U., Yusupova, F., Nurjanova, R. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi, muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. – Toshkent: Fan, 2005. – 9 b.
5. Po'latov, Sh. Ta'lim menejmenti yoxud ta'lim tashkilotini ilmiy-metodik boshqarishga innovatsion yondashuv: O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2022. – 219 b.
6. Shlyaxer, A. Jahon miqyosidagi ta'lim. – Toshkent: Zamin, 2022. – 314 b.
7. Xakimova, D. X. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, [yil ko'rsatilmagan]. – 85 b.
8. Qurboni, V. Sh., Seytxalilov, E. Ta'lim sifatini boshqarish. – Toshkent, 2006. – 129 b.



UDK:14.12.1

Гулзода МАННОБОВА,
Базовый докторант Ферганский государственный университет
E-mail:mannobovaguli@gmail.com
ORCID-uid: 0009-0003-4495-9790

На основании рецензии д.ф.н М.Маматова

РОЛЬ СВОБОДЫ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ В «ОБЩЕСТВЕННОМ ДОГОВОРЕ» ЖАН-ЖАКА РУССО

Annotation

В статье рассматривается критика Руссо формального образования и его внимание к обучению, ориентированному на ребенка, подчеркивая их актуальность для современных дискуссий об образовательной реформе, студенческой автономии и целостном развитии. Кроме того, в ней рассматриваются расхождения между концепцией Руссо «негативного образования» (снижение общественного участия во врожденном развитии ребенка) и требованиями современных стандартизированных образовательных структур. В этой статье иллюстрируется непреходящее значение «Общественного договора», связывая философские открытия Руссо с современными вызовами, включая образовательное неравенство, коммерциализацию обучения и эрозию индивидуальности в массовом образовании. В ней утверждается, что точка зрения Руссо выступает за критическую переоценку институционализированного образования и требует более сострадательной, ориентированной на студента методологии, которая соответствует требованиям 21-го века.

Ключевые слова: Руссо, Общественный договор, образование, естественное развитие, свобода, обучение ориентированное на ребенка, современная педагогика, государство, общество, человек, образовательная реформа.

JAN-JAK RUSSONING "IJTIMOIY SHARTNOMA" ASARIDA SHAXS KAMOLOTIDAGI ERKINLIKNING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqola Russoning rasmiy ta'limni tanqid qilishini va uning bolalarga yo'naltirilgan ta'limga e'tiborini ko'rib chiqadi va ularning ta'lim islohoti, o'quvchilarning mustaqilligi va yaxlit rivojlanishi haqidagi zamonaviy munozaralarga aloqadorligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u Russoning "salbiy ta'lim" kontsepsiyasi (bolaning tug'ma rivojlanishida jamoatchilik ishtirokini kamaytirish) va zamonaviy standartlashtirilgan ta'lim tuzilmalari talablari o'rtasidagi tafovutlarni o'rganadi. Ushbu maqola Russoning falsafiy qarashlarini ta'limdagi tengsizlik, ta'limning tijoratlashuvi va ommaviy ta'limda individuallikning eroziyasi kabi zamonaviy muammolar bilan bog'lash orqali "Ijtimoiy shartnoma" ning doimiy ahamiyatini ko'rsatadi. Unda ta'kidlanishicha, Russoning istiqboli institutsional ta'limni tanqidiy qayta baholash tarafdori va 21-asr talablariga javob beradigan yanada mehr-oqibatli, talabalarga yo'naltirilgan metodologiyani talab qiladi.

Kalit so'zlar: Russo, Ijtimoiy shartnoma, ta'lim, tabiiy rivojlanish, erkinlik, bolaga yo'naltirilgan ta'lim, zamonaviy pedagogika, davlat, jamiyat, inson, ta'lim islohoti.

THE ROLE OF FREEDOM IN THE DEVELOPMENT OF PERSONALITY IN THE "SOCIAL CONTRACT" BY JEAN-JACQUES ROUSSEAU

Annotation

The article discusses how Rousseau's critique of formal education and his emphasis on child-centered learning resonate with today's debates on educational reform, student autonomy, and holistic development. Additionally, it explores the contradictions between Rousseau's ideal of "negative education" (minimizing societal interference in a child's natural growth) and the demands of modern standardized education systems. By connecting Rousseau's philosophical insights to current issues such as inequality in education, the commercialization of learning, and the loss of individuality in mass schooling, this article demonstrates the enduring value of "The Social Contract" in rethinking educational paradigms. It argues that Rousseau's vision encourages a critical reassessment of institutionalized education and calls for a more humane, student-focused approach in line with the needs of the 21st century.

Keywords: Rousseau, The Social Contract, education, natural development, freedom, child-centered learning, modern pedagogy, state, society, people, educational reform.

Введение. «Общественный договор» — это политический трактат, который оказал существенное влияние на мышление философов XVIII века. Он считается одним из самых значительных произведений Жан-Жака Руссо. В этом конкретном научном труде французский философ проводит контраст между произвольной природой абсолютной монархии и концепцией народного суверенитета, а также принципами буржуазно-демократической республики. Концепция общественного договора, разработанная Руссо, была подвержена влиянию древних демократий. Этот философ

выступал за правление народа, а не правительство короля. Произведения Руссо может служить иллюстрацией полностью рационалистического и абстрактного подхода к обществу, который был характерен для мышления людей того времени. Произведения Руссо были написаны в период, когда общество с опасением относилось к множеству существующих форм правления, а также к государственной церкви и самим социальным нормам. Руссо, убежденный в естественной свободе человека и оправданности общества, ставил под сомнение правомерность власти и размышлял о возможности

создания общества, состоящего из свободных и равных в правах людей. В своих произведениях Руссо изображал общество, существовавшее до установления его структуры, цивилизацию, лишенную политических институтов и социальных конвенций. Любая уже существующая власть, согласно его философии, должна быть оправдана естественным правом; в противном случае она должна быть чрезвычайно хорошо обоснована в глазах общества. В результате утраты естественной свободы человека в обществе возникает вопрос о необходимости социального договора. Это связано с тем, что для восстановления этой свободы, а также для создания законов, которые должны соблюдаться всеми членами общества, необходим социальный договор. Согласно Руссо, создание общественного договора можно понимать как установление суверенитета через коллективную волю всех членов общества. Этот суверенитет выражается в создании правительства и законов. С другой стороны, правительство не стоит над волей общества; скорее, оно является инструментом, который используется для осуществления воли общества. Одним из наиболее важных аспектов является концепция демократии через общественный договор. Руссо выступал за создание общественного договора, в котором каждый член общества обязуется быть частью суверенитета и уважать только те законы, в разработке которых он лично участвовал.

Методы. Основные методы, которые можно использовать для освещения этой темы:

1. Критический анализ литературы: проанализировать произведения Руссо («Общественный договор») и его философию воспитания через первоисточники.

2. Историко-систематический метод: изучить историческую эволюцию идей Руссо и их влияние на современные системы образования.

3. Социально-философский анализ: интерпретировать отношения общества и личности в «Общественном договоре» в контексте современной образовательной политики.

4. Сравнительный анализ: выявить сходства и различия между идеями Руссо и другими педагогическими теориями (например, прагматизмом Дьюи, социальным конструктивизмом Выготского).

5. Полевые исследования: эмпирически изучить влияние идей Руссо на практическое образование. 6. Статистический анализ (количественный анализ): оценить эффективность школ, реализующих принципы Руссо, с помощью конкретных показателей.

Обсуждение. «Общественный договор» Жан-Жака Руссо (1762) является основополагающим трудом в области политической философии и по-прежнему влияет на современные дискуссии о целях и структуре современного образования. Его влияние прослеживается во многих фундаментальных аспектах современной образовательной теории и практики.

Общественный договор и образование: фундаментальные концепции

Руссо утверждает, что легитимная политическая власть проистекает из общественного договора, добровольно заключенного отдельными лицами, которые соглашаются создать коллективную «общую волю» для общего блага. Он опасался, что общество и его институты, включая образование, могут подрывать присущую им свободу и индивидуальность, если не будут тщательно организованы[1].

Руссо утверждал, что цель образования выходит за рамки простой передачи знаний; она заключается в воспитании граждан, способных гармонично сочетать

индивидуальную свободу с общественными обязанностями. Он утверждал, что образование должно способствовать развитию разума, добродетели и активного участия в общественной жизни и образование играет важную роль в формировании гражданской идентичности. Жан-Жак Руссо обращает внимание на связь между образованием и гражданской идентичностью. Согласно Руссо, образование должно играть ключевую роль в формировании вертикали чувства принадлежности к обществу. Примерное образование, которое предлагается в Главе IV книги, включает элементы патриотического и нравственного воспитания, развития чувства солидарности и участия в жизни общества. Это помогает гражданам осознать свою роль в обществе и принять ответственность за его благополучие. Образование стимулирует не только интеллектуальное развитие, но и формирует ценности, нормы поведения и чувство ответственности перед обществом. Таким образом, образование служит основой для формирования гражданской идентичности и благополучного общества.

Значение для современных проблем образования

1. Индивидуальность против конформизма

Руссо оспаривал представление о том, что образование должно только воспроизводить существующие конвенции. Он пропагандировал развитие индивидуальности, творчества и самовыражения — принципы, лежащие в основе современных дискуссий об индивидуализированном и ориентированном на студента обучении[2]. Современные системы образования по-прежнему борются с необходимостью согласования стандартизированных учебных программ и экзаменов с необходимостью развития индивидуальных способностей и интересов каждого учащегося.

2. Образование как общественное благо

Концепция Руссо об образовании как средстве воспитания информированных, активных граждан поддерживает современные утверждения о том, что образование следует рассматривать как право человека и общественное достояние, а не как простой товар[3]. Эта точка зрения особенно актуальна в свете неолиберальных тенденций, которые подчеркивают рыночную конкуренцию и личный успех в ущерб сотрудничеству, равенству и общественному благосостоянию.

3. Гражданское образование и социальная сплоченность

Руссо утверждал, что образование должно подготовить людей к участию в «общем волеизъявлении» — коллективном принятии решений, жизненно важным для демократии [4]. В настоящее время усиливаются требования к образовательным учреждениям по развитию гражданской активности, социальной сплоченности и активной гражданственности, особенно в условиях все более разнообразных и фрагментированных сообществ.

4. Оценка традиционного образования

Руссо критиковал традиционное, негибкое образование, считая, что оно сдерживает естественное развитие и любознательность за счет заучивания и строгой дисциплины. Его продвижение опытного, практического и всестороннего образования послужило мотивацией для альтернативных образовательных движений (например, Монтессори, Вальдорф) и продолжает влиять на изменения, направленные на повышение значимости и актуальности обучения [5].

Неравенство в образовании и социальный договор

Концепция Руссо о том, что все члены общества должны иметь равный интерес в социальном договоре, лежит в основе аргументов в пользу всеобщего и равного доступа к высококачественному образованию. Это вызвало дискуссии об ответственности правительства за

обеспечение прав на образование и борьбу с системным неравенством [6].

Согласование свободы и общественных обязательств

Акцент Руссо на согласовании индивидуальной свободы с общественными обязанностями актуален в диалогах о способности образования воспитывать критическое мышление и этическое поведение в сложных сообществах. Его наблюдения побуждают педагогов помогать ученикам примирять личные амбиции с требованиями общества — борьба, которая остается фундаментальным аспектом современного образования [7]. Один из первых тезисов заключается в том, что по сути, люди рождаются свободными, но везде они в цепях. Тезис Руссо о том, что люди рождаются свободными, но ограничиваются обществом и его нормами, по-прежнему актуален. Мы часто наблюдаем, что люди сталкиваются с различными ограничениями и нормами, которые формируются в обществе. Но на данный момент, в современных демократических обществах стараются уравновесить свободу каждого

индивидуума с учетом потребностей и интересов общества в целом.

Заключение. «Общественный договор» Руссо продолжает влиять на образовательную мысль и политику, поскольку:

-подчеркивает важность развития личностей, способных примирить личную свободу с общественными обязательствами.

-вдохновляет движения за студентоцентричное, целостное и равноправное образование.

-предоставляя основу для понимания образования как общественного блага, необходимого для демократии и социальной справедливости.

Поскольку современные системы образования борются с проблемами неравенства, стандартизации, гражданской пассивности и целей школьного образования, идеи Руссо остаются важным ресурсом для переосмысления образования с целью удовлетворения потребностей как отдельных людей, так и общества в целом.

ЛИТЕРАТУРА

1. Iskandarova K. Rousseau's influence on modern educational thought. Volume 2, Issue 6, June – 2024 ISSN (E): 2938-3803
2. Tienda M. (2017) Thirteenth Annual *Brown Lecture in Education Research: Public Education and the Social Contract: Restoring the Promise in an Age of Diversity and Division*. Educ Res. 2017 Aug-Sep;46(6):271-283. doi: 10.3102/0013189x17725499. Epub 2017 Aug 20. PMID:28890549
3. Williams, D.L., 2014, *Rousseau's Social Contract*, Cambridge: Cambridge University Press.
4. Bertram, C., 2004, *Rousseau and The Social Contract*, London: Routledge.
5. Pouwels, J. (2023). Infinite avoidance and splendid isolation: Rousseau and the use of conflicts in education. *International Journal of Social Pedagogy*, 12(1): 14. DOI: <https://doi.org/10.14324/111.444.ijsp.2023.v12.x.014>.
6. Dent, N. J. H. *Rousseau*. New York: Routledge, 2005. An overview of the entire range of Rousseau's philosophy, paying particular attention to the theories of democracy and freedom outlined in *The Social Contract*. Explains Rousseau's concept of the general will.
7. Council of Europe. (2015). Teaching controversial issues: Teaching controversial issues through education for democratic citizenship and human rights (EDC/HRE) – Training pack for teachers. Accessed 14 August 2023. <https://edoc.coe.int/en/human-rights-democratic-citizenship-and-interculturalism/7738-teaching-controversial-issues.html>.



UDK:28-19(5)(091)

Dilorom MO'MINJONOVA,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tayanch doktoranti
E-mail:mdilorom1998@gmail.com

Dotsent, PhD O.Ernazarov taqrizi asosida

SHARQDA MUSULMON DINSHUNOSLIGI RIVOJLANISH TARIXI

Annotatsiya

Mazkur maqolada musulmon Sharqida dinshunoslik fanining shakllanishi va tarixiy taraqqiyot bosqichlari tahlil qilinadi. Qur'on va hadis asosida boshlangan dastlabki apologetik yondashuvlar, IX–XII asrlarda ilm-fan, falsafa va qiyosiy tahlil asosida rivojlanib, mustaqil ilmiy soha sifatida shakllangani ilmiy asosda yoritilgan. Beruniy, Shahristoniy, Ibn Hazm, Abul Maoliy Ubaydulloh kabi mutafakkirlarning asarlari musulmon dinshunosligi rivojida tutgan o'rni tahlil etiladi. XIX asrda modernizmning musulmon tafakkuriga ta'siri, G'arb tanqidlariga ilmiy javob berish, dinlararo muloqotdagi o'zgarishlar muhim bosqich sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Sharq dinshunosligi, qiyosiy dinshunoslik, musulmon mutafakkirlari, apologetika, modernizm, Beruniy, Shahristoniy, Ibn Hazm, Abul Maoliy, "Bayan al-Adyan", tafsir, manbashunoslik, ilohiyot.

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ МУСУЛЬМАНСКОГО РЕЛИГИОВЕДЕНИЯ НА ВОСТОКЕ

Аннотация

В данной статье анализируются этапы становления и исторического развития науки о религии в мусульманском Востоке. Показано, как первоначальные апологетические подходы, основанные на Коране и хадисах, в IX–XII веках трансформировались в научную дисциплину благодаря философским и сравнительным исследованиям. Особое внимание уделяется вкладу таких мыслителей, как аль-Бируни, Шахрестани, Ибн Хазм, Абу-ль-Маалий Ubaydullaх. XIX век рассматривается как эпоха модернизма, когда мусульманские ученые начали научно отвечать на критику Запада и развивать межрелигиозный диалог. В статье использованы источниковедческий, историко-типологический и сравнительный методы, позволяющие выявить закономерности формирования мусульманской религиоведческой мысли. Эти подходы служат важной теоретической основой для современных религиозных исследований и диалога между религиями.

Ключевые слова: восточное религиоведение, сравнительное религиоведение, мусульманские мыслители, апологетика, модернизм, аль-Бируни, Шахрестани, Ибн Хазм, Абу-ль-Маалий, «Баян аль-адьян», классификация, тафсир, источниковедение, ислам и другие религии, теология.

THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF MUSLIM RELIGIOUS STUDIES IN THE EAST

Annotation

This article analyzes the historical stages of the development of religious studies in the Muslim East. It highlights how early apologetic approaches based on the Qur'an and hadith evolved into a distinct scientific discipline in the 9th–12th centuries through philosophical and comparative inquiry. The contributions of thinkers such as al-Biruni, Shahristani, Ibn Hazm, and Abu'l-Ma'ali Ubaydullaх are thoroughly examined. The 19th century is presented as a turning point during the age of modernism, when Muslim scholars began to respond academically to Western critiques and promoted interreligious dialogue. The study applies source analysis, historical-typological, and comparative methodologies to explore the intellectual foundations of Islamic religious studies. These approaches serve as a theoretical basis for modern interfaith dialogue and comparative religion.

Key words: Eastern religious studies, comparative religion, Muslim thinkers, apologetics, modernism, al-Biruni, Shahristani, Ibn Hazm, Abu'l-Ma'ali, Bayan al-Adyan, classification, tafsir, source studies, Islam and other religions, theology.

Kirish. Islom sivilizatsiyasi shakllangan ilk asrlardan oq, diniy bilimlarni chuqur o'rganish va izchil ilmiy asosda tizimlashtirish musulmon jamiyatlarining eng asosiy ilmiy faoliyatlaridan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, musulmon Sharqida islom aqidasi, tafsir, hadis, fiqh, kalom bilan birgalikda islomdan boshqa dinlarning manbalarini o'rganish mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanib, o'ziga xos rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Bu jarayon faqatgina diniy matnlarni talqin qilish bilan chegaralanmay, balki falsafa, mantiq, tilshunoslik va tarixshunoslik bilan ham uzviy aloqada rivojlanib borgan. G'arbda dinshunoslikka oid tadqiqotlar XVIII-XIX asrlarda paydo bo'lgan bo'lsa, musulmon olimlari tomonidan bu kabi izlanishlar VII asr o'rtalarida boshlangan edi. Musulmon dinshunosligining shakllanishida Basra, Kufa, Bag'dod, Xuroson, Buxoro, Samarqand, Xiva, Qohira kabi ilmiy markazlar muhim rol o'ynagan. Bu hududlarda yashagan

olimlar diniy masalalarni nafaqat an'anaviy nuqtayi nazardan, balki analitik va falsafiy jihatdan ham o'rganishga harakat qilganlar. Islom dini asoslarining ilmiy asosda bayon etilishi, ilohiyot ilmining mustahkamlanishi, boshqa din va mafkuralarga nisbatan yondashuvlarning shakllanishi aynan shu muhitda yuz bergan. Sharqda musulmonlar tomonidan islomdan boshqa dinlarni o'rganish bir necha tarixiy davrlarda amalga oshirildi: 1. VII-VIII asrlarda Qur'on va hadislarga asoslangan holda, ibrohimiylar dinlarning manbalari qiyosiy tadqiq etildi. 2. VIII-IX asrlar ilmiy qiziqish davri bo'lib xizmat qildi. Abbosiylar xalifaligi davrida yunon, suryoniy, yahudiy, nasroniy va hind manbalari arab tiliga tarjima qilindi. 3. IX-XII asrlar dinlarni tizimli o'rganish ularni tasniflash, tahlil qilish bosqichi hisoblandi. 4. XII-XIV asrlar sharq musulmon dunyosida tasavvufiy yuksalish davriga to'g'ri keldi. 5. XIX asrdan boshlab islom dini moderniz bilan

yuzlashdi va bu davrdan boshlab, tadqiqotlar obyektivlik asosida qiyos usulida yozilgan asarlar va fikrlar uyg'unligiga erishildi [1]. Dinlararo muloqot orqali, xolis fikrlar asosida dinlarni tadqiq etib, jamiyatga tanlov erkinligini yaratib berdi. Bu bosqich bugungi kunga qadar davom etib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sharq musulmon olimlari tomonidan o'rta asrlarda yaratilgan diniy-adabiy merosda dinlarni qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan asarlar alohida ilmiy yo'nalishni shakllantirgan. Ushbu an'anani ifodalovchi muhim manbalar quyidagi mutafakkirlar tomonidan tadqiq etilgan: Shahristoniy, Ibn Hazm Andalusiy, Abu Rayhon Beruniy, Abul Maoliy Ubaydulloh, Ibn Hazm, Abdulqodir Bag'dodiy, Ibn Nadim, Said ibn Abdulmalik Habib, Abul Mash'ar al Balxiy. Mazkur manbalar orqali o'rta asr Sharqida musulmon olimlarining boshqa dinlarga nisbatan ilmiy, mantiqiy, ba'zan apologetik, lekin tobora tizimlashgan yondashuvi kuzatiladi. Krachkovskiy Ignatiy Yulianovich "Arab adabiyoti", Klimov Boris Nikolayevich "Dinshunoslik", Belyayev Leonid Alekseyevich "Musulmon madaniyati va O'rta Osiyo diniy tafakkuri", Petrushevskiy Ilya Pavlovich "VII-XV asrlarda Eronda islom", Vasilyev Leonid Sergeyevich "Sharq dinlari tarixi", Fazlur Rahmon "Islom va modernizm", John L. Esposito "Islom", Marshall Hodson "Islom tafakkuri", Oliver Leman "Qur'on ensiklopediya" asarlarida musulmon mutafakkirlari tomonidan tadqiq etilgan asarlar va uning bugungi kundagi ahamiyati haqida batafsil yoritib bergan. Ushbu mualliflarning asarlari nafaqat musulmon diniy tafakkurining o'tmishdagi tarixiy shakllanishini tushunish, balki zamonaviy dinlararo muloqot, dinshunoslik metodologiyasi va Sharq falsafasi uchun muhim nazariy asoslarni taqdim etadi. Bugungi kunda bu asarlar musulmon ilmiy merosini jahon dinshunoslik kontekstida baholash va yangi yondashuvlar ishlab chiqishda asosiy nazariy manba sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy tadqiqotda Sharqda musulmon dinshunosligi rivojlanish bosqichlarining tarixiy va nazariy asoslarini tahlil qilish maqsadida kompleks yondashuv asosida metodologik yondashuvlar qo'llanildi: Tarixiy-tipologik metod – Sharqda musulmon dinshunoslik tafakkurining bosqichma-bosqich shakllanishi, rivojlanishi va davriy xususiyatlari aniqlanib, ularning o'zaro bog'liqligi va umumiy evolyutsion yo'nalishi tahlil qilindi. Qiyos metodi – islom dini doirasidagi va boshqa dinlarga oid diniy-madaniy yondashuvlar o'zaro qiyoslandi. Manbashunoslik metodi – o'rta asr musulmon olimlari tomonidan yozilgan arab tilidagi asosiy asarlar asosiy manba sifatida o'rganildi. Ularning tili, mazmuni, kontekstual o'rni va tarixiy ahamiyati manbashunoslik tamoyillari asosida tahlil qilindi. Konstruktiv tahliliy metod – o'rganilgan tarixiy va nazariy dalillar asosida Sharq dinshunosligi rivojining ichki qonuniyatlari, intellektual merosi va uning bugungi davrdagi ilmiy ahamiyatini ochib berishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar. Ilk islomiy asrlarda musulmonlar tomonidan boshqa dinlarga bo'lgan munosabat, asosan, Qur'on va sunnat doirasida shakllangan bo'lib, bu yondashuv ilohiy vahiy asosidagi baholovchi xarakterga ega edi. VII–VIII asrlarda yahudiylar va nasroniylar Islom doirasida ahli kitoblar bilan bo'lgan muloqotlar (xususan, Madina yahudiy qabilalari va Najron nasroniylari bilan) ijtimoiy, siyosiy va dini asoslarga tayangan. Ushbu davrda boshqa dinlarga oid tasavvurlar ko'proq apologetik va polemik uslubda namoyon bo'lgan, ya'ni musulmon olimlari boshqa dinlarning e'tiqodiy asoslarini tanqidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqqanlar. Ilk bosqich musulmon dinshunosligining shakllanishida asosiy konseptual poydevor bo'lib, keyingi asrlarda yuzaga kelgan ilmiy, falsafiy va taqqoslamali yondashuvlar uchun tayanch bo'lib xizmat qilgan. Qur'onning o'zida yahudiy va nasroniylarning e'tiqodiy xatolari, tarixiy chekinishlari, yozma manbalaridagi (Tavrot va Injil) o'zgarishlar haqida aniq

tanqidiy yondashuv mavjud. Bu yondashuv Qur'on tomonidan ilgari surilgan "tahrif" (manbalarni o'zgartirish) konsepsiyasiga asoslanadi. Shu tariqa, islom dini o'zini ibrohimiyan an'ananing davomi deb e'lon qilgan holda, avvalgi dinlarning muqaddas matnlarini tanqidiy baholash va ularni Qur'on asosida qayta tushuntirishni yo'lga qo'ygan. Bu holatni musulmon olimi Fazlur Rahman quyidagicha izohlaydi: "Qur'on avvalgi vahiy bilan o'zaro munosabatda bo'lgan holda, o'zining tanqidiy yondashuvi orqali ularni tekshirib chiqadi va yangicha ilohiy axborotni taklif etadi" [6]. VII asrning oxiri va VIII asr boshlarida musulmon tafsirchilari va kalom ilmi vakillari islom dini pozitsiyalarini rivojlantirib, yahudiy va nasroniylar e'tiqodini ilohiy birlik (tashhid) nuqtai nazaridan tahlil qilganlar. Shuningdek, hadis rivoyatlarida ham yahudiy va nasroniylarga oid bilimlar isroiliyotlardan tafsirda foydalanilgan bo'lib, bu holat musulmon olimlarining o'z dinidan tashqaridagi diniy matnlar bilan tanishuvga bo'lgan ehtiyojini ko'rsatadi. Taniqli sharqshunos Jacques Waardenburg bu holatni quyidagicha izohlaydi: "Ilk islom tafakkuri doirasida boshqa dinlarga nisbatan shakllangan qiziqish apologetik xarakterga ega bo'lsa-da, bu holat musulmonlarning diniy tafsir doirasini kengaytirishga bo'lgan intilishidan dalolat beradi" [14].

IX–XII asrlar islom madaniyatining ilmiy-falsafiy yuksalish davri bo'lib, aynan shu davrda boshqa dinlarga nisbatan ilmiy va qiyosiy yondashuv shakllandi. Musulmon olimlari bu davrda nafaqat islomdagi firqalar, balki yahudiylar, nasroniylar, zardushtiylar, moniylar, hind dinlari kabi e'tiqod tizimlarini ham tahlil qilishga urinib, qiyosiy dinshunoslikning ilk poydevorini yaratdilar. Bu metodologik ikki yo'nalish asarlar tarkibida uyg'unlashib, diniy tafakkurning chuqurlashuviga xizmat qilgan. "Hindiston" asari orqali Beruniy hinduizm, buddizm, braxmanizm singari dinlarni obyektiv, etnografik va tafsilotli tarzda tahlil qilgan. Bu asar islom ilm-fani tarixida birinchi ilmiy-antropologik yondashuv namunasidir. Abul Maoliy Ubaydulloh "Bayan al-Adyan" asari boshqa dinlarga oid qiyosiy va soddalashtirilgan tasnifiy yondashuv bilan ajralib turadi. Asarda islomdan tashqari yahudiylar, nasroniylar, zardushtiylar, manixeylik, hinduizm kabi dinlar haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan. U diniy bag'rikenglik ruhida, xalq uchun tushunarli tilda yozilgan bo'lib, ilmiy dinshunoslikning ommaboplashgan shakliga misoldir. Abdulkarim Shahrastaniy (1086–1153) "Al-Milal va an-Nihal" asarida muallif islomdagi firqalar bilan bir qatorda yahudiylar, nasroniylar, braxmanizm, majusiylar, manixeylik kabi dinlarni tizimli ravishda tasniflaydi va ularning asosiy aqidaviy farqlarini aniqlaydi. Uning yondashuvi haqida E.J. Sharpe quyidagicha yozadi: "Shahrastaniy dinlar tarixiga oid yozilgan ilk ensiklopedik tabiatdagi asarlardan birini yaratdi va boshqa dinlarga nisbatan ham tavsifiy, ham munozaraviy yondashuvni uyg'unlashtirdi" [11]. Andaluslik faqih va alloma Ibn Hazm "Al-Fisal fi al-milal wa al-ahva va an-nihal" asarida yahudiylar va nasroniylarni tahlil qilgan. Franz Rosensal bu borada quyidagicha fikr bildiradi:

"Ibn Hazmning yondashuvi aniq apologetik xarakterga ega bo'lsa-da, uning dalillari chuqur mantig'iy asosga ega va polemik uslubda qiyosiy tahlil beradi" [13]. "Al-Farq bayn al-firoq" asarida Abdulqodir Bog'dodiy islomdagi firqalarni aqidaviy asosda tasniflagina qolmay, yahudiy va nasroniylar orasidagi e'tiqodiy tafovutlar haqida ham tahliliy mulohazalar bildiradi. Bu asar qiyosiy taftish doirasidagi ichki islomiy va tashqi diniy tizimlarni tahlil qilishda muhim qadam bo'lgan. Ibn Nadim "Al-fihrist" asarida diniy-falsafiy maktablar, mualliflar, manbalar va ularning qarashlarini ensiklopedik tarzda sanab o'tadi. Mazkur asarda yunon, hind, nasroniy, yahudiy va manixeylikka oid yozma manbalar ro'yxati va ularning mazmuni qisqacha ko'rsatilgan. Bu, musulmon

olimlarining boshqa dinlarning manbaviy asarlari bilan bilvosita tanish bo'lganini ko'rsatadi.

XIX asr musulmon dunyosi uchun keskin tarixiy burilish davri bo'ldi. Bu davr nafaqat G'arb imperiazmi va nasroniy missionerligining bosimi ostida kechgan, balki musulmon intellektual muhitida chuqur o'zgarishlarni yuzaga keltirgan modernizm davri sifatida tarixda muhim o'rin tutadi. Aynan shu asrda musulmon olimlari din, fan, tarix va ijtimoiy fikr sohalarida yangi usullar va metodlarni ishlab chiqishga harakat qildilar. Bu yondashuvlar, ayniqsa, dinshunoslik tadqiqotlarida o'z ifodasini topdi. Modernizm davri musulmon olimlarini ikki asosiy yo'nalishda faoliyat yuritishga undadi: birinchisi - G'arb tanqidlariga qarshi turish va islomni himoya qilish (apologetika), ikkinchisi esa - zamonaviy ilm-fan, tarixiy tafakkur va tanqidiy tafsir metodlariga tayanib, boshqa dinlarni qiyosiy o'rganish va tahlil qilish. Bu ikki yo'nalish o'zaro bog'liq bo'lib, yangi shakllangan diniy-falsafiy tafakkurning asosini tashkil etdi. Rahmatulloh Kaironaviyning "Izhār al-Ḥaqq" asari apologetik-polemik uslubdagi eng mashhur namunadir [16]. Unda Injil matnlari, xristian aqidalari, xususan Uchlik (Trinitet) doktrinasi tanqidiy tahlil qilinadi. Muallif G'arb ilmi va matnshunosligidan foydalangan holda, islomni ilmiy asosda himoya qilishga uringan.

Kaironaviy G'arbda shakllangan tanqidiy metodlarini o'z asarida qo'llagan musulmonlardan biridir. Modernizm davrining eng muhim xususiyati shundaki, musulmon olimlari dinshunoslikka faqat aqidaviy jihatdan emas, balki ijtimoiy, tarixiy va madaniy kontekstda ham yondasha boshladilar. Bu esa dinshunoslikni nafaqat apologetik faoliyat sifatida, balki keng ilmiy soha sifatida shakllantirishga imkon berdi. XIX asr dinshunosligi keyingi musulmon olimlari uchun zamonaviy ilm-fan bilan integratsiyalashgan intellektual asosni yaratdi.

Xulosa. Sharqda musulmon dinshunosligining shakllanishi va taraqqiyoti VII asrdan boshlab bugungi kungacha davom etayotgan uzviy va murakkab jarayon sifatida baholanadi. Ilk bosqichlarda Qur'on va hadis asosida ibrohimiylar dinlarga apologetik yondashuv ustuvor bo'lgan bo'lsa, IX–XII asrlarda ilm-fan, falsafa va mantiqqa asoslangan qiyosiy tadqiqotlar dinshunoslikni alohida ilmiy soha sifatida shakllantirdi. Shahristoniy, Ibn Hazm, Beruniy, Abul Ma'aliy kabi mutafakkirlar tomonidan yaratilgan asarlar bugungi zamonaviy dinshunoslik fanining poydevorini tashkil etgan. XIX asrda modernizm ta'sirida musulmon olimlari G'arb tanqidlariga ilmiy asosda javob berishga intildilar, bu esa dinlararo muloqot va obyektiv yondashuvni kuchaytirdi.

ADABIYOTLAR

1. Ahmed, Akbar S. *Journey into America: The Challenge of Islam*. Brookings Institution Press, 2010.
2. Albert, Iskandar. "Al-Razi." *Encyclopedia of the History of Science, Technology, and Medicine in Non-Western Cultures* (2nd ed.). Springer (2006): 155–156.
3. Eric, J. Sharpe. *Comparative Religion: A History*. New York: Charles Scribner's Sons, 1975.
4. Hitti, Philip K. *History of the Arabs from Earliest to the Present*. London: The Macmillan Press, 1974.
5. Lawrence, Bruce B. "Al-Biruni's Approach to the Comparative Study of Indian Culture." in *Biruni Symposium*. Calcutta: Iran Society, (1951): 27–47.
6. Rahman, F. (1980). *Major Themes of the Qur'an*. Chicago: University of Chicago Press.
7. Khalifah, M. H. (1976). *A Philosophical-Theological Analysis of Modernism in Contemporary Islam*. Cairo: Al-Azhar University Press.
8. Aasi, G. H. (1999). *Muslim Understanding of Other Religions: An Analytical Study*. Islamabad: Islamic Research Institute.
9. Khan, A. H. (1990). *Muslim Engagement with Other Religions: A Historical Perspective*. *Islamic Studies*, 29(1), 35–50.
10. de la Saussaye, P. D. Ch. (1891). *Lehrbuch der Religionsgeschichte [A Handbook of the History of Religions]*. Leipzig: O.R. Reissland.
11. Sharpe, E. J. (1986). *Comparative Religion: A History*. London: Duckworth.
12. Klein, W. (2005). *Abu Rayhan al-Biruni and the Beginnings of Comparative Religion*. *Journal of Islamic Studies*, 16(1), 45–60.
13. Rosenthal, F. *The Classical Heritage in Islam*. – London: Routledge and Kegan Paul, 1976. – 259 p.
14. Waardenburg, J. *Muslim Perceptions of Other Religions: A Historical Survey*. – Oxford: Oxford University Press, 1999. – 370 p.
15. Sharpe, E. J. *Comparative Religion: A History*. – London: Duckworth, 1986. – 248 p.
16. Klein, W. *Muslimische Religionswissenschaft im Mittelalter: Zwischen Polemik und Objektivität // Islamwissenschaftliche Studien*. – Berlin: Klaus Schwarz Verlag, 2005. – S. 45–60.
17. Khan, A. H. *Theological Perspectives in Islamic Comparative Religion // Islamic Studies*. – 1990. – Vol. 29, №1. – P. 35–50.



UDC: 005.953:331.101.3

Muhabbatxon MIRSOLIYEVA,

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi

Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi bo'lim boshlig'i

Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

E-mail: muhabbat2310@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, professor A.Akramov taqrizi asosida

YANGI TARAQQIYOT DAVRIDA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI

Аннотация

Ushbu maqolada yangi taraqqiyot davrida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanish jarayonlari tufayli ta'lim sifatini, kadrlar kompetentligining mazmuni va ahamiyati qayta qaralib, kasbiy kompetensiyalar transformatsiyasiga bo'lgan ehtiyoj oshgani tahlil qilinadi. Muallif kompetensiyalar tushunchasining mohiyatini, ularning zamonaviy mehnat bozoridagi ahamiyatini yoritadi. Shuningdek, raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashda ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar, o'quv dasturlarining kompetensiyaga yo'naltirilganligi, uzluksiz ta'lim va qayta tayyorlash mexanizmlari haqida fikr yuritiladi. Maqolada kompetensiyalar transformatsiyasining yo'nalishlari va ularni shakllantirishda davlat ijtimoiy buyurtmasi, ish beruvchilar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kasbiy kompetentlik, kelajak kompetensiyalari, kompetensiyalar modeli, kompetensiyalar transformatsiyasi, kreativlik, innovatsiya.

ТРАНСФОРМАЦИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ПЕРИОД НОВОГО ЭТАПА РАЗВИТИЯ

Аннотация

В данной статье анализируется необходимость трансформации профессиональных компетенций в условиях нового этапа развития, характеризующегося социально-экономическими изменениями, цифровой трансформацией и процессами инновационного развития. Автор раскрывает сущность понятия компетенций и их значимость на современном рынке труда. Также рассматриваются изменения в системе образования, направленные на подготовку конкурентоспособных специалистов, акцентируется внимание на ориентированных на компетенции учебных программах, механизмах непрерывного образования и переподготовки. В статье подчёркивается важность сотрудничества между государственным социальным заказом, работодателями и образовательными учреждениями в формировании и трансформации компетенций.

Ключевые слова: компетенции, профессиональная компетентность, компетенции будущего, модель компетенций, трансформация компетенций, креативность, инновации.

TRANSFORMATION OF COMPETENCIES IN THE NEW DEVELOPMENT ERA

Annotation

This article analyzes the growing need for the transformation of professional competencies in the new stage of development, marked by socio-economic changes, digital transformation, and innovative progress. The author explores the essence of competencies and their importance in the modern labor market. The article also discusses changes in the education system aimed at training competitive professionals, focusing on competency-based curricula, mechanisms of lifelong learning, and retraining. The significance of collaboration between public social demand, employers, and educational institutions in shaping and transforming competencies is emphasized.

Keywords: competence, professional competency, future skills, competency model, transformation of competencies, creativity, innovation.

Kirish. Bizga ma'lumki, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim tizimi islohotlari ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanib, bu borada raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan[1]. Shu bilan birga, bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika rivojlanishi bo'lajak mutaxassislarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish borasida xalqaro miqyosidagi yangi tendensiyalarning yuzaga keltirmoqda. Jumladan, Industriya 5.0, Yapon modeli bo'lgan "Jamiyat-Obshestvo 5.0", Ta'lim 4.0, Universitet 4.0 kabi qator o'ziga transformatsion modellar, yangi paradigmalar, HECI (Humanity, Ethics, Creativity, Imagination-insoniy qadriyatlar, etik tamoyillar, kreativlik va tasavvur uyg'unligi) konsepsiyasi kabi yangi tendensiyalar maydonga chiqmoqda.

Xalqaro tajribalar tahlilidan ma'lumki, mamlakatning Global innovatsion indeks reytingidagi o'rni fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, inson kapitali va kadrlar salohiyatini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai-nazardan, bugungi kunda milliy va xalqaro maydonda oliy ta'limni xalqarolashtirish, globallashuvi va transformatsiyasi asosida ta'lim sifatini oshirish, kadrlar kompetentligini rivojlantirish va boshqarishning (HRM) zamonaviy ekotizimlarini yaratish, ularda mehnat bozoridagi o'zgaruvchan tendensiyalarga tezkor moslashish imkonini beruvchi metakompetensiyalar (soft skills)ni qaror toptirishni innovatsion iqtisodiyot ("innovation-driven economy")ning strategik yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Bu rivojlanish dinamikasi o'z navbatida universitetlarning ta'lim va tadqiqotlar sifati, shuningdek,

bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayoni va standartlari mazkur global tendensiyalar bilan qanchalik bog'liq yoki bugungi kun mutaxassislari 2030-50 yilga borib ishlab chiqarish va mehnat bozori talablariga javob beradimi degan savollarni keltirib chiqaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi ilmiy-texnologik taraqqiyot, ta'lim, fan va ishlab chiqarish cohasidagi innovatsiyalar transferining faollashuvi kadrlar kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmuni va tuzilmasini tadqiq etishga nisbatan zamonaviy metodologik yondashuvlarga asoslangan ilmiy izlanishlarga zarurat ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim tizimida kadrlar salohiyatini oshirish va ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda sohadagi zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar transferi asosida ta'lim mazmuni va o'qitish sifatini takomillashtirish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, ta'limga kompetentli yondashuvni rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar, izohli lug'atlarda "kompetentlik" tushunchasi turlicha tahlil qilinadi:

- aniq bir vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarning yig'indisi;

- belgilangan talablarga muvofiq aniq bir yo'nalishdagi lavozim vazifalarini amalga oshirish;

- mutaxassisning ish samaradorligini belgilovchi mezon va boshq.

Mazmunan esa, "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi.

Jumladan, YUNESKONing xalqaro loyihalari va hujjatlarida mutaxassislarning uchun zaruriy tayanch kompetensiyalar tizimi sifatida quyidagilar keltiriladi:

- tayanch kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyat sohasidagi savodxonlik va boshq.);

- AKT sohasidagi kompetentlik (axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi tayanch kompetensiyalar, media kompetensiyalar, texnologik madaniyat va boshq.);

- kommunikativ kompetentlik;

- ijtimoiy kompetentlik (guruhda ishlay olish, muloqotchanlik, tolerantlik, madaniyatlararo muloqot, gender kompetentlik va boshq.);

- shaxsiy kompetentlik (motivatsiya, empatiya, o'zini hurmat qilish, muammolarni hal eta olish, ijodkorlik qobiliyati, tanqidiy fikrlash, o'zgarishlarni boshqara olish va boshq.) [8].

2020 yilda Davosda bo'lib o'tgan Butunjahon iqtisodiy forumida Kelajak ko'nikmalari-to'g'risida to'xtalinar ekan, shunday fikr muhokamaga tashlanadi, ya'ni biz hali o'zimiz aniq tasavvurga ega bo'lmagan kelajak uchun mutaxassislarni tayyorlayabmiz! Mazkur jarayonlarda ta'limning asosiy vazifasi - mutaxassisni mana shu noaniqliklilik va tebranishlarni to'g'ri qabul qilgan holda, faollik ko'rsatish va rivojlanishiga yordam beradigan ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir [8]. Aynan mana shu forumda tadqiqotchi va ekspertlar tomonidan, 2030 yilgacha eng talabgor bo'lgan 15 ta kelajak ko'nikmalari, kompetensiyalarlar taklif etildi, ya'ni tahliliy va tanqidiy fikrlash, barqarorlik, kreativlik, liderlik, stresslarga bardoshlilik, tizimli tahlil, ishonтира olish, muammoga kompleks yondashish, xizmatlarga yo'nalganlik, emotsional intellekt, kommunikatsiya, o'z o'zini boshqarish, fuqarolik kabi kompetensiyalardir.

"Skolkovo" Moskva boshqaruv maktabi tomonidan olib borilgan «Forsayt kompetensiyalar 2030» ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida texnologik rivojlanishlarning boshqaruv

modellarini o'zgartirishga nisbatan ta'siri, davlatning zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislarga bo'lgan ijtimoiy buyurtmasining rivojlanishi, mehnat bozoridagi malakali mutaxassislarga bo'lgan raqobatning ortishi hamda oliy ta'limning xalqaro standartlarga muvofiq lashtirish borasidagi zaruratlarning kadrlar kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmuni va formatlarini innovatsion yondashuvlar asosida o'zgartirish zaruratini keltirib chiqarganligi xulosalanadi. Shu bilan birga, Skolkovo Innovatsion Markazi (Rossiya Federatsiyasi) tomonidan yaratilgan "Atlas novix professiy-3.0" (2021 yil)da ekologik tafakkur, vaqtni boshqarish, badiiy ijodkorlik qobiliyati, loyihalarni boshqarish, komandada ishlash, tarmoqlararo kommunikatsiya, emotsional intellekt, tanqidiy fikrlash kabi 11 ta kelajak ko'nikmalari keltirib o'tiladi [4].

Amerikalik tadqiqotchi Richard Boyatzis (Boyatzis) o'zining ilmiy izlanishlarida kasbiy kompetentligining muhim tarkibiy qismi sifatida emotsional intellekt bilan bog'liq kompetentlikni keltiradi [5].

Emotsional intellekt (kompetensiya) shaxsning barqaror ruhiy holatini ta'minlovchi, kognitiv qobiliyatlardan maksimal tarzda foydalanib, yuqori samarali natijaga olib keluvchi sifat sanaladi. Richard Boyatzis mutaxassisning emotsional kompetentligi bu uning o'zi hamda jamoadagi samarali ish faoliyatini tashkil etishda axborotlarni emotsional qabul qilish, anglash va foydalanish borasidagi kompetentlik darajasi, bir so'z bilan aytganda emotsional kompetentlik aql bilan boshqarish va yo'naltirish sifatida izohlaydi.

Aila Paaso va Kati Korento kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning muhim jihatlari sifatida amaliy ish tajribasi; kasbiy bilim va ko'nikmalari hamda mutaxassisning o'z-o'zini shaxsiy va kasbiy rivojlantirib borishga yo'naltirilgan uzluksiz ta'limi bilan bog'liq holda tavsiflaydi. Indoneziyalik olim Adnan Hakim esa "kasbiy kompetentlik - bu biror kishining ma'lum bir faoliyat turini bajara olishidagi bilimi, dunyoqarashi, malaka va ko'nikmalariga asoslangan ish talablariga muvofiq qobiliyatidir", deb izohlaydi [6].

Xorijiy tajribalar hamda ilmiy izlanishlar tahlillariga tayangan holda, kompetensiyalar transformatsiyasi ham o'z navbatida rivojlanib boruvchi jarayon ekanligini xulosaladik va buni quyidagi modellarini taklif etdik.

Tadqiqot metodologiyasi. Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etilishida ularning kasbiy tayyorgarligi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan malaka talablari asosidagi kompetensiyalar tizimini belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, malaka talablari - mutaxassisning o'z kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun bilim, ko'nikma va malakalari hamda tayyorgarlik darajasi va mahoratiga qo'yiladigan talablar tizimidir.

Bu jarayonlarda, bo'lajak mutaxassis shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy kasbiy-malaka talablaridan kelib chiqib, kasbiy kompetensiyalar mazmuni quyidagi aspektlar bilan bog'liq holda baholanishiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq sanaladi:

- metodologik - ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadi, tamoyillari, konuniyatlari, ta'limotlari, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning shakl, metod va vositalari xususidagi tayanch kompetensiyalar;

- texnologik - o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish, rejalashtirish va o'qitishning shakl, metod va didaktik vositalarini to'g'ri tanlash, o'quvchilarning bilish motivatsiyasini shakllantirish, aniq ta'lim sharoitida pedagogik vazifalarni, vaziyatlarni yecha olish, rejalashtirilgan o'quv-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan xususiy kompetensiyalar;

- innovatsion - pedagogik va boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish, o'qitish va tarbiyalashning yangicha shakl, metod va vositalarini yaratish bilan bog'liq metakompetensiyalar.

Bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish va uning samarali boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishda davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, shuningdek, ish beruvchilar hamda ta'lim xizmatlari iste'molchilari (OTM, talabalar, ota-onalar, jamoatchilik)ning ehtiyojlari va takliflaridan kelib chiqqan holda kompetensiyalar tizimini belgilash muhim o'rin tutadi.

Tadqiqot doirasida olib borilgan onlayn so'rovlar natijasida ish beruvchilar tomonidan bo'lajak mutaxassislardagi tahliliy-ijodiy fikrlash, muammo yechimiga qaratilgan optimal qarorlar qabul qilish, vaqt menejmenti, axborotlarni interpretatsiyalash va sohaga yo'naltirish, loyihalarni boshqarish, tarmoqlararo kommunikatsiya, tadbirkorlik, moslashuvchanlik kabi kompetensiyalarga ustuvorlik berilgan. Shu bilan birga, aksariyat mutaxassislari (57,4%) ish stajidan qat'iy nazar, o'z kasbiy bilim va ko'nikmalarini innovatsion talablarga muvofiq yangilab borishga ehtiyoj sezishi aniqlandi.

Tahlil va natijalar. Amalga oshirilgan ilmiy-pedagogik tahlil va empirik tadqiqot natijasida kasbiy kompetentlikni transformatsiyasi quyidagi yo'nalishlarda kechishi aniqlandi: a) davlatning ijtimoiy buyurtmami, ish beruvchilarning talab va takliflari hamda malaka talablari asosidagi tayanch-boshlang'ich kompetensiyalar tizimining shakllanishi;

b) mutaxassislari kasbiy faoliyati natijalari samaradorligini aniqlash va takomillashtirish strategiyalarini belgilashga yo'naltirilgan diagnostik tizim asosida kasbiy kompetentlikning mavjud rivojlanish darajasini malaka talablariga muvofiqligini baholash hamda natijalar interpretatsiyasi asosida individual kasbiy-rivojlanish ehtiyojlarni aniqlashtirish;

v) innovatsion yondashuvlar va ilg'or xorijiy tajribalarning o'zaro integratsiyasiga asoslangan, sohaga yo'naltirilgan yangi kompetensiyalar tarkibi, mazmunini belgilash, takomillashtirish; kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi dasturlar va resurslar sifatini oshirish, ularning moslashuvchanligiga alohida e'tibor qaratish.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, yangi taraqqiyot davrida mutaxassislari kasbiy kompetentligi transformatsiyasining zaruriy pedagogik shart-sharoitlari quyidagicha belgilandi:

Tashkiliy sharoit. Bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi bevosita shakllar bilan birga bilvosita ta'lim shakllari asosidagi mustaqil o'z-o'zini kasbiy-shaxsiy rivojlantirish natijalarining baholanishiga alohida e'tibor qaratish.

Mazmunli sharoit. Ma'lumki, ta'lim mazmuni mutaxassis o'zlashtirishi lozim bo'lgan kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarining oldindan loyihalashtirilgan tizimi bo'lib, bunda DTS, malaka talablari, o'quv rejalar, takomillashtirilgan ta'lim dasturlari, raqamli ta'lim texnologiyalari asosidagi o'quv-metodik majmualar, ilmiy va o'quv-metodik ishlanmalar, multimedia ishlanmalari, nazorat vositalari: ijodiy pedagogik topshiriqlar, keyslar, ijodiy topshiriqlar, mutaxassislik yo'nalishlari bilan bog'langan o'quv-tadqiqotchilik loyiha ishlari alohida o'rin tutadi.

Texnologik sharoit. Bo'lajak mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda hamkorlikdagi munosabatlarga imkoniyat yaratuvchi o'qitishning innovatsion shakl, metod va vositalarini amaliyotga keng tatbiq etish, bu borada professor-o'qituvchilarning kasbiy mahorat darajasini oshirish. Bunda muammoli o'qitish, o'yinli texnologiyalar (rolli-ishchan o'yinlar, tadbirkorlik o'yinlari), trening, video-treninglar, muammoli seminarlar, mahorat darslari, tyutorlik, fasilitatorlik, pedagogik muammoli vaziyatlarni yechish va tahlil qilish, "Keys-stadi", kichik guruhlarda o'qitish, mikro-darslar, ijodiy tadqiqotchilik metodlari, o'quv loyhalari, autotreninglarni tashkil etish va o'tkazish metodikasining ishlab chiqilishiga alohida e'tibor qaratish.

Refleksiv sharoit. Yaratilgan didaktik shart-sharoitlarning natijaviy-mahsuli sifatida kasbiy kompetentlikning sifat darajasi indikatorlari kvalimetriyasi va monitoringiga xizmat qiluvchi, shuningdek mutaxassislarining faoliyat natijalaridan qoniqish hissi va o'z faoliyatini baholay olishi uchun zaruriy sharoitlarning yaratilishiga alohida e'tibor qaratish.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish mumkinki, fan va texnologiyalar taraqqiyotining bugungi davrida mutaxassislardagi kasbiy kompetentlikni asosida samarali faoliyat yuritishni ta'minlovchi zamonaviy kasbiy ko'nikma va kompetensiyalarni rivojlantirish, ulardagi raqamli texnologiyalar bilan ishlash, soha amaliyotiga tatbiq etish, ilmiy-tadqiqotchilik, kreativlik ko'nikmalarini takomillashtirish, shu bilan birga, ularning ehtiyojlariga moslashuvchan, ijodiy yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, sohada kelajak kompetensiyalarini belgilash va ularni rivojlantirishning istiqbol yo'nalishlarini prognozlashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi Forsayt markazlar faoliyatini keng yo'lga qo'yish hamda uning natijalari asosida bo'lajak mutaxassislarining zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning innovatsion metodologiyasini belgilash maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. «Ўзбекистон - 2030» стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 11.09.2023 йилдаги ПФ-158-сон.
2. Атлас новых профессий. Московская школа управления «СКОЛКОВО» М.-2021.-168 с.
3. Друкер, Питер, Ф. Задачи менеджмента в XXI веке.: Пер. с англ.: – М.: Издательский дом «Вильямс», 2004. – 272 с.
4. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
5. Adnan Hakim. Contribution of Competence Teacher (Pedagogical, Personality, Professional Competence and Social) On the Performance of Learning. The International Journal Of Engineering And Science (IJES) || Volume || 4 || Issue || 2 || Pages || PP.01-12|| 2015 ||.
6. Мирсолиева М.Т. Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг касбий компетентлигини ривожлантириш механизmlарини такомиллаштириш. Монография. – Тошкент, «Фан ва технологиялар», 2019. – 120 б.
7. Кудрявцева Е.И. Компетенция и менеджмент: компетенции в менеджменте, компетенции менеджеров, менеджмент компетенции. Монография. Санкт Петербург.: 2012-340 с.
8. <https://iite.unesco.org/ru/>.
9. <https://www.uil.unesco.org/ru>.



Zuhra MO'MINXO'JAYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi
E-mail: zmuminxujayeve@gmail.com

Psixologiya fanlari doktori, professor X.Abdusamatov taqrizi ostida

SUN'IY INTELLEKT MUAMMOSI: PSIXOLOGIK JIHATLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada sun'iy intellekt muammosining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi va muhandislik psixologiyasi, ergonomika sohalaridagi dolzarb yo'nalishlar va umumiy psixologiya qisqa tahlil qilinadi. Insoniyat sivilizatsiyasining texnogen muhitida vujudga kelgan sun'iy intellekt tizimlari va texnologiyalarini yaratishda, inson bilan tartibga solingan evolyutsion muhit o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlash masalalari hisobga olinishi zarurati haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Postklassik psixologiya va murakkab o'z-o'zini tashkillashtirilgan tizimlar falsafasi doirasida ushbu sohalarida konseptual apparatdan foydalanish bilan bog'liq istiqbolli tadqiqot yo'nalishlari va muammolar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: intellekt, sun'iy intellekt, postklassik psixologiya, o'z-o'zini tashkillashtirish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОБЛЕМЫ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация

В данной статье кратко анализируются возникновение и история развития проблемы искусственного интеллекта, а также актуальные направления в инженерной психологии, эргономике и общей психологии. Отмечается необходимость учета взаимодействия между человеком и регулируемой эволюционной средой при создании систем и технологий искусственного интеллекта, возникших в техногенной среде человеческой цивилизации. В рамках постклассической психологии и философии сложных самоорганизующихся систем рассматриваются перспективные направления исследований и проблемы, связанные с использованием понятийного аппарата в этих областях.

Ключевые слова: интеллект, искусственный интеллект, постклассическая психология, самоорганизация.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE PROBLEM OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Annotation

In this article, the emergence and historical development of the artificial intelligence problem, as well as current trends in engineering psychology, ergonomics, and general psychology, are briefly analyzed. The discussion highlights the necessity of considering the interaction between humans and the regulated evolutionary environment in the creation of artificial intelligence systems and technologies that have emerged within the technogenic environment of human civilization. Within the frameworks of postclassical psychology and the philosophy of complex self-organizing systems, the article explores promising research directions and challenges related to the use of conceptual apparatus in these fields.

Key words: intellect, artificial intelligence, postclassical psychology, self-organization.

Kirish. Intellekt (keyingi o'rinlarda – tabiiy intellekt) tushunchasini ilk bor psixologik kategoriya sifatida Frensis Galton o'z ishlarnalarida qo'llagan. U intellekt tushunchasini insonlar o'rtasidagi bilimdonlikdagi farqlarni genetik meros orqali o'tishini asoslab berishda qo'llagan. Psixologik nuqtai nazardan intellekt tushunchasi (lotincha “intellectus” – bilish, tushunish, aql) inson tafakkurining dunyoni aql bilan idrok etish qobiliyatlarini, aqlni barcha ko'rinishlari va shakllarida ifoda etadi. Juda keng talqin qilinganligi sababli, bu atama rasmiy jihatdan aniq belgilanmagan va turli fan sohalarida – falsafa, biologiya, fiziologiya, sotsiologiya, psixologiya va bugungi kunda muhandislikda – har xil talqin etiladi.

Bugungi texnologik sivilizatsiyada murakkab obyektlar – boshqariluvchi mashinalar, mexanizmlar, robototexnika tizimlari va avtonom robotlarni yaratishda eng ommaviy psixologik va texnik tushunchalardan biri bu “intellekt” hamda uning texnik analogi – “sun'iy intellekt” hisoblanadi. Hozirgi kunda “aqli algoritmlar”, “aqli shahar”, “aqli chang”, “dasturlashtiriluvchi modda”, “sürü tizimlari”, sensor tarmoqlar, kibernetika tizimlari, narsalar interneti, o'z tajribasiga asoslanib o'z-o'zini o'rganuvchi quqilmalar, moslashuvchan interfeyslar va “miya-kompyuter” interfeyslari kabi tushunchalar keng muhokama qilinmoqda. Metaforik ma'noda sun'iy intellekt – bu kibernetik texnik tizimning aqli

hisoblanadi. “Intellekt” tushunchasi allaqachon psixologiya chegarasidan chiqib ketgan. Bu atamaning turli sohalarida mashhur, lekin ko'pchilik “intellekt”ning aynan nima ekanligini aniq bilmaydi turib, hammayoqda faol ishlatishadi. G'arb adabiyotlarida “intellekt” ko'pincha kengroq tushuncha bo'lib, u mahalliy ilmiy doirada “aql” tushunchasiga yaqin talqin etiladi. Muhandislik psixologiyasi va ergonomikadagi “intellekt” kategoriyasi texnikadan psixologiya faniga yo'naltirilgan yangi g'oyalar va tushunchalarga bo'lgan ehtiyoj bilan aloqador hisoblanadi. Bu kategorianing konvergent xarakteri ayniqsa “sun'iy intellekt” tushunchasida yaqqol ko'rinadi, u inson, jamiyat va texnogen muhit evolyutsiyasi masalalarini bir makonda birlashtiradi.

Intellekt: klassik qarashlar. Klassik psixologiyada qobiliyatlar, intellekt va ularni o'lchash muammolari bo'yicha asosiy ilmiy natijalar G.Y. Ayzenk, R. Amtxauer, B.G. Ananyev, A. Bine, N. Bostrom, D. Veksler, Ch. Gardner, D. Gilford, E.A. Golubeva, V.N. Drujinina, D.N. Zavalishina, T. Kelli, R. Kettell, J. Piaje, K.K. Platonov, J. Raven, S.L. Rubinshteyn, T. Simon, Ch. Spirmen, R.J. Sternberg, B.M. Teplov, L. Terstoun, O.K. Tixomirov, J. Tompson, R.L. Torndayk, va V. Shtern singari olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Ular tomonidan ilgari surilgan "aql vositalari" konseptual modellar asosida hozirgi zamonaviy psixodiagnostika nazariyasi va amaliyoti shakllantirildi, bu esa ta'lim, kasbiy saralash, maslahat berish va tarbiya sohalarida keng qo'llanilmoqda.

"Intellekt" tushunchasining turli xil ta'riflari mavjud bo'lib, har bir muallif uni erkin talqin qilishi va bu murakkab hodisaning ma'lum jihatlarini o'zicha belgilashi mumkin. Eng sodda va aniq ta'riflardan biri - klassik psixologiyaning testologik yo'nalishida E. Boring tomonidan taklif qilingan: "Intellekt - bu aql testlari bilan o'lchanadigan narsadir."

G.Y. Ayzenkning fikricha, intellekt tushunchasining kamida uchta tubdan farqlanuvchi konsepsiyasi mavjud: biologik intellekt, psixometrik intellekt va ijtimoiy intellekt. Ulardan har biri boshqalarisiz to'liq ta'riflanmaydi [1].

Intellektning ko'p turliligi nazariyasi muallifi Hovard Gardner intellektni quyidagicha ta'riflaydi: "muayyan madaniy sharoit yoki ijtimoiy muhitda vazifalarni hal qilish yoki mahsulotlar yaratish qobiliyati hisoblanadi". U yettita asosiy intellektual qobiliyatni ajratib ko'rsatadi:

Verbal intellekt – nutq yaratish qobiliyati; fonetika (tovushlar), sintaksis (grammatika), semantika (ma'no) va pragmatika (nutqni amaliy qo'llash) mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

Musiqiy intellekt – ritmik tovushlar ketma-ketligini anglab olish va ular orqali muloqot qilish qobiliyati; ohang, ritm va tembrni sezish imkoniyatini o'z ichiga oladi.

Mantiqiy-matematik intellekt - obyektlar yoki harakatlar o'rtasidagi aloqalarni ularning bevosita mavjudligisiz tushunish; bu abstrakt tafakkurni ifodalaydi.

Fazoviy intellekt - ko'rinayotgan muhitni aniq idrok etish, uni modifikatsiya qilish va tasavvurda qayta tiklash.

Jismoniy-kinestetik intellekt - butun tanani muammolarni hal qilish yoki mahsulotlar yaratishda faol ishlata olish; mayda va yirik motorik harakatlar ustidan nazorat.

Ichki (intrapersonal) intellekt - shaxsning o'z his-tuyg'ulari, niyatlari va motivlarini anglab yetish qobiliyati.

Shaxslararo (interpersonal) intellekt - atrofdagilarni tushunish, ularning his-tuyg'ulari, qarashlari va niyatlarini ajrata olish qobiliyati.

Keyinchalik Gardner bu ro'yxatga ekzistensial va naturlistik intellektlarni ham qo'shdi. Bular insonning mavjudot sifatida o'z holatini anglash, intuitiv idrok, tafakkur va metakognitsiya, inson va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni tushunish imkonini beradi [2].

Joy Paul Gilford tomonidan ilgari surilgan kubik ko'p omilli model divergent tafakkurga asoslanib, mustaqil intellektual qobiliyatlarning mavjudligini ko'rsatadi. Bu modelda intellekt 120 omildan iborat bo'lgan uch o'lchovli tizim - intellekt strukturasi sifatida tasvirlanadi [3].

R. Sternberg esa intellektni "atrof-muhitga moslashish, unga ta'sir ko'rsatish va uni o'zgartirish qobiliyati" sifatida talqin etadi [4].

Bu tushunchalar inson tafakkurining tabiiy shakliga, ya'ni insonning sub'ektiv haqiqatida shakllanuvchi bilimga mos keladi. Bu sun'iy intellektdan farqli bo'lib, u axborotni bevosita algoritmik tarzda qayta ishlaydi.

Garchi muhandislikda "sun'iy intellekt" yo'nalishi gullab-yashnayotgan bo'lsa-da, psixologiyada "intellekt"ga bo'lgan qiziqish nisbatan erta so'nib qolgan. Bu bosqichda psixologlar ko'proq intellekt testlariga e'tibor qaratishgan, keyinchalik esa e'tibor bilish uslublari [5] va xususiy intellektual qobiliyatlarga [6] qaratilgan.

Bugungi kunda bu tushunchaning boshqa fanlarga - xususan pedagogika va muhandislik sohalariga kirib kelishi, ko'p hollarda "samaradorlik" atamasining o'rmini bosayotganini ko'rsatadi. Texnikada samarali tizim bu - "aqlli" tizim, ya'ni sun'iy intellektga ega tizimdir.

This article analyzes the issues related to the formation and development of students' creative competence in the process of teaching the subject “Electricity and Magnetism”. Based on scientific research, it highlights modern pedagogical approaches, innovative teaching methods, and the effective use of information technologies applied in this area. In particular, the research conducted by scholars from foreign countries, the Commonwealth of Independent States, and our Republic has been studied. The results of the existing scientific approaches are examined, their effectiveness is analytically evaluated, and their impact on developing students' independent thinking and problem-solving skills is demonstrated.

Key words: Electricity and Magnetism, creative competence, pedagogical technology, information technologies, innovative teaching methods.

**АНАЛИЗ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ РАБОТ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ТВОРЧЕСКОЙ
КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА 'ЭЛЕКТРИЧЕСТВО И МАГНЕТИЗМ' НА
ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

Аннотация

В данной статье проанализированы вопросы формирования и развития креативной компетентности студентов в процессе преподавания предмета «Электричество и магнетизм». На основе научных исследований раскрываются современные педагогические подходы, инновационные методы обучения и возможности эффективного использования информационных технологий в данном направлении. В частности, изучены научные исследования учёных зарубежных стран и нашей Республики. Рассмотрены результаты существующих научных подходов, дана аналитическая оценка их эффективности, а также показано их влияние на развитие у студентов навыков самостоятельного мышления и решения проблем.

Ключевые слова: электричество и магнетизм, креативная компетентность, педагогические технологии, информационные технологии, инновационные методы обучения.

Kirish. Bugungi kunda ta‘lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish, ta‘lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o‘quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo‘naltirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, sohada yechimini topmagan qator masalalar fizika sohasidagi ta‘lim sifati va ilmiy tadqiqot samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Buning natijasi o‘laroq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida

2021-yilda Fizika fanini o‘rganishni ustuvor yo‘nalish etib belgilashlari ushbu soha mutaxassislari oldiga yanada mas‘uliyatli vazifalar qo‘ydi. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032 “Fizika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan.

Xususan, “Elektr va magnetizm” fanini samarali o‘qitishda pedagogik hamda axborot texnologiyalarining integratsiyasi orqali talabani ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu jarayonda interaktiv metodlar, raqamli simulatsiyalar, onlayn laboratoriyalar, multimedia vositalari va tarmoqlashtirilgan

o'quv muhitlari orqali talabalarning darsga jalb qilinishi, o'rganilgan bilimni yangi sharoitda qo'llash malakasi, ya'ni kreativ kompetentligini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli, so'nggi yillarda dunyo bo'yicha ko'plab olimlar ushbu yo'nalishda chuqur ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borib, kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqmoqda.

Talabalarning kreativ kompetentligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari, "kreativlik", "ixtirochilik", "yaratuvchanlik" va "kompetentlik" kabi tushunchalarning mazmun va mohiyatini organish va tadqiq qilish, shakllantirish, rivojlantirish masalalariga oid ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, xorijiy olimlardan Mihaly Csikszentmihalyi (AQSH) "Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention" mavzusidagi tadqiqot ishida talabalarning kreativ kompetentligini psixologik nuqtai nazardan izohlagan hamda "Aniq maqsad+Zudlikdagi fikr-mulohaza+Qiyinchilik=Ko'nikma" – Flow qonuniyatini ochib bergan [1].

John Dewey (AQSH) "Experience and Education" mavzusidagi tadqiqot ishida amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish modeli orqali talaba ijodkorligini rivojlantirishni asoslagan [2].

Seymour Papert (AQSH) "Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas" mavzusidagi tadqiqot ishida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda talabalarni faol va kreativ o'rganishga yo'naltirganini ta'kidlab o'tgan [3].

MDH olimlaridan I.S.Bekesheva "Формирование креативной компетентности будущих бакалавров-учителей в процессе обучения математике на основе специального комплекса заданий" mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotida kreativ kompetentlik bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasining muhim tarkibiy qismi ekanligi, bo'lajak bakalavr-o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini amalga oshirishda hayotiy va kasbiy vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishning aniq matematik usullaridan foydalanish talablari, bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish darajalarini (past, o'rta, yuqori) Blum taksonomiyasi asosida tasniflanishi hamda bo'lajak bakalavr-o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish mezonlarining to'liqlik darajasiga qarab 3 dan 5 ballgacha bo'lgan shkala bo'yicha baholash maqsadga muvofiqligi e'tirof etib o'tilgan [4].

O.Ye.Levenko "Формирование у школьников умения понимать условия физических задач в процессе их решения" mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotida zamonaviy ta'lim sharoitida fizikaga doir masalalarni yechishda tushunish qobiliyatini shakllantirish muammosining holatini tahlil qilish natijalari, o'quvchilarda fizikaga doir masalalarni yechishda qiyinchiliklarga duch kelish sabablari analiz qilingan va bu sabablar quyidagilar ekanligi aniqlangan: 1) terminlarni bilmasliklari va asosiy tushunchalarni tahlil qila olmasliklari, 2) masala shartining mohiyatini tushunmaslik va unga mos fizik qonuniyatlarini qo'llay olmaslik, 3) masala shartida berilgan rasm, sxema, grafiklarni izohlay olmasliklari. Bunday kamchiliklarni bartaf etish uchun o'quvchilarning tushunish qobiliyatlarini shakllantiradigan metodikalar ishlab chiqilganligi keltirib o'tilgan [5].

Respublikamiz olimlaridan G.N.Ibragimovning "Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish" mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotida talabarlarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning umumkasbiy va sohaga yo'naltirilgan kognitiv, ijtimoiy kompetensiyalarga yo'naltirilgan faoliyati tuzilmasi komponentlari aniqlashtirilganligi, interfaol ta'lim muhitida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning integrallashtirilgan metodik tizimi, reproduktiv, ijodiy izlanish va novatorlik bosqichlari mazmuni, shuningdek

jarayon samaradorligini baholashning prognostik metodikasi ishlab chiqilganligi e'tirof etilgan [6].

M.A.Tilakovning "VIII-IX sinf o'quvchilarida sinfdan tashqari mashg'ulotlarda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari" mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotida yuqori sinf o'quvchilarining kreativ (muammoning nostandart yechimini topish, insonning tafakkur, muloqot faoliyatidan ijodiy imkoniyati, qobiliyati) qobiliyatlari (tizimli harakatlar, tahlil, sintez, ijodiy ifodalash, umumlashtirish, xulosalash) interfaol (guruhda ishlash, rolli o'yinlar, klaster va boshqalar) usullar vositasida rivojlantirishning ichki (avtogen, refleksiya) va tashqi (innovatsion ta'lim muhiti) sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida takomillashtirilgan hamda o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan didaktik topshiriqlarni bajarish metodlari (variantlarni tanlash, tizimli operator, ixtirochilik masalalarini yechish algoritmlarini qo'llash) interfaol ta'lim texnologiyalari (tarixiy atamalar zanjiri, klaster, BBB) asosida takomillashtirilgan [7].

U.A.Eshqurvatovning "Talabalarning muhandislik kasbiga oid kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari (Yo'l muhandisligi ta'lim yo'nalishi misolida)" mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotida muhandislar tayyorlash ta'lim jarayonida boshlang'ich kurslardan boshlab talabalarning muhandislik kasbiga oid kreativ qobiliyatlari bo'yicha bilim va malakalarini rivojlantiruvchi takomillashtirilgan integrativ yondashuv asosida transformatsiyalash orqali muhandislik fanlarini o'zlashtirishning o'quv didaktik vositalarining ishlab chiqilganligi hamda talabalarning muhandislik kasbiga oid kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish mazmuni hamda pedagogik jarayon natijaviy komponentlari multipredmetlilik va yaxlitlik tamoyillariga ustuvorlik berish asosida faoliyatli o'quv modeli tarmoqlarini aniqlashtirish asosida takomillashtirilganligi ko'rsatib o'tilgan [8].

T.O.Buzrukovning "Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida fizikadan masalalar yechish asosida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish" 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika) ixtisosligidan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiya tadqiqotida fizikadan masalalar yechish asosida o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini shakllantirishning tashkiliy-metodik aspektlari dars va laboratoriya mashg'ulotlari integratsiyasiga asoslangan eksperimental masalalarni qayta aloqali muhitda produktivlik darajalarda qo'llash asosida ochib berilgan, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida ko'p funksiyali fizik masalalarni oson yechish va hayotda moddiy dunyoning umumiy qonuniyatlaridan foydalanish ko'nikmalarini hamda induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish qobiliyatlarini ijobiy dinamikada rivojlantirishga qaratilgan nostandart muammoli vaziyatlarni individual yo'naltirilgan o'quv muhitida differensial adaptatsiyada qo'llash asosida takomillashtirilgan [9].

M.A.Eshmirzayevaning "Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish (Elektromagnetizm bo'limi misolida)" mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotida fizikaning elektromagnetizm bo'limini o'qitish bilan bog'liq ilmiy-metodik muammolarni (ilmiylik, mantiqiylik, ko'rgazmalilik tamoyillariga rioya qilish, maqsadga yo'naltirishni tashkil qilish, individual tajribani qo'llash, ijtimoiy-tarixiy tajriba bilan moslashtirish) tahlil qilish, o'qitish jarayonida shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali talabalar kasbiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari va omillari aniqlanganligi e'tirof etib o'tilgan [10].

Hozirgi kunda pedagogik va axborot texnologiyalarning o'rni ta'lim jarayonini samarali, interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishda nihoyatda muhim hisoblanadi. Bu texnologiyalar nafaqat darslarni visual va audio materiallar bilan boyitishga, balki talabalar bilan

mustaqil ishlashga, ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga ham imkon beradi. Ushbu texnologiyalardan foydalanib ko'plab olimlarimiz tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Xorijiy olimlardan Eric Mazur (Harvard University) "Peer Instruction: A User's Manual" mavzusidagi tadqiqot ishida "Peer Instruction" metodikasini ishlab chiqqan. O'qituvchilarga an'anaviy ma'ruza usulini interaktiv, talabaga yo'naltirilgan metodga aylantirish uchun amaliy ko'rsatmalar bergan hamda fizika kurslari, xususan elektr va magnetizm bo'limlarini o'rgatishda qanday qilib talabalarni faol jalb qilish mumkinligi ko'rsatilgan. Eric Mazur'ning "Peer Instruction" metodikasi: talabani markazga qo'yadi, interaktivlik va fikrlashni chuqurlashtiradi, ayniqsa elektr va magnetizm kabi tushunishga og'ir bo'lgan bo'limlarda kreativ kompetentligini samarali tarzda rivojlantiradi [11].

Marina Milner-Bolotin "The Effect of Interactive Lecture Experiments on Student Academic Achievement and Attitudes Towards Physics" mavzusidagi tadqiqot ishida interaktiv ma'ruza tajribalari orqali talabalarining yutuqlari va fizika faniga bo'lgan munosabatlari o'rganilgan. Natijada, interaktiv yondashuvlar talabalarining o'zlashtirish darajasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan. Milner-Bolotin o'z tadqiqotida talabalarni dars jarayoniga faol jalb qilish uchun interaktiv metodlarni, jumladan, "Clicker" texnologiyasini qo'llashni tavsiya qiladi [12].

Respublikamiz olimlaridan S.Q.Qahhorovning "O'rta maktab fizika ta'limining davriylik texnologiyasi" 13.00.02 – fizika o'qitish nazariyasi va uslubiyati ixtisosligidan pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya tadqiqotida ta'lim davriyligi qonuniyati alohida tadqiqot predmeti sifatida ajratilib, fizika ta'limi davrlari uslubiy jihatdan tavsiflangan. Shu bilan birga, fizika ta'limi davrlarini o'zaro farq qilish tahlil qilingan hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika ta'limini davriy boshqarish, fizikadan o'quv materialini imkon darajasida to'liq o'zlashtirishga yo'naltiruvchi texnologiya ishlab chiqilgan [13].

G.E.Karlibayevaning "Innovatsion ta'lim texnologiyalari sharoitida fizika o'qituvchisining metodik tayyorgarligini shakllantirish" mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotida bo'lajak fizika o'qituvchisi metodik tayyorgarligini shakllantirishning nazariy asoslari aniqlangan, fizika o'qituvchisi metodik tayyorgarligini shakllantirishning uslubiy jihatlari ishlab chiqilgan hamda mazkur jarayonni tashkil etish va samaradorlikka erishishning metodik yo'llari belgilangan [14].

M.B.Dusmuratovning "Oliy ta'limda elektrodinamikani o'qitishni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish" 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika) ixtisosligidan pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiya tadqiqotida elektrodinamika bo'limida elektr maydonlarni tavsiflovchi operatorlarga oid nazariy va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha amaliy va mantiqiy elementlarni integratsiyalash asosida takomillashtirilgan dasturiy metodik

taminot ishlab chiqilib, elektrodinamikaga oid hodisa va jarayonlarni fazoviy tasvirini koordinatalar sistemasida hosil qilishda elektron dasturiy vositalardan Maple va Delphi dasturlarining imkoniyati va talabalarining ularidan foydalanish qulayligi takomillashtirilgan bo'lib, ushbu bo'limga oid zaryadlar sistemasining elektr maydoni va ekvapotensial sirtlari, toklar sistemasini magnit maydoni, kondensatorlardagi zaryadlanish va razryadlanish jarayoni kabi mavzularni o'qitish metodikasi zamonaviy axborot texnologiyalarni qo'llagan holda, masalalarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirish takomillashtirilgan [15].

M.F.Atoyevaning "Elektromagnetizm bo'limini o'qitishni davriylik texnologiyasi asosida takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotida "Elektromagnetizm" bo'limini o'qitish jarayonida davriylik texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari tezkor diagnostika (o'quvchilarning fizikaviy bilimlarini egallash, mustaqil laboratoriya ishlarini bajarish, masalalar yechish qobiliyatlari) natijasiga ko'ra elektr va magnit hodisalarni ifodalovchi o'quv elementlarini guruhlash asosida takomillashtirilganligi hamda fanlararo va o'quv mavzulari o'rtasidagi tayanch tushunchalarning aloqadorlik ko'rsatkichlari asosida o'quv jarayonini davriylashtirish mezonlari (takrorlash, taqqoslash, tanlash, tartiblash, uzviylik) aniqlashtirilganligi ko'rsatib o'tilgan [16].

O.N.Sultonovning "Fizikadan o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish metodikasi (fizikadan masalalar yechish to'garagi misolida)" 13.00.02 – ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika) ixtisosligi bo'yicha pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya tadqiqotida fizikani o'qitish jarayonida o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish, boshqarish va takomillashtirish bilan bog'liq uslubiy shart-sharoitlar aniqlanganligi hamda darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyati samaradorligini va amaliy ahamiyatini oshirishga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqilganligi keltirib o'tilgan [17].

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, "Elektr va magnetizm" fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarda kreativ fikrlashni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'rganilgan ilmiy-tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar, masalalarni modelashtirish, virtual laboratoriyalar va raqamli ta'lim platformalari talabalarining fan bo'yicha chuqur bilim olishini ta'minlash barobarida, ularning muammoli vaziyatlarga yangicha yondashish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Pedagogik jarayonga axborot texnologiyalarini integratsiyalash orqali nafaqat talabalarining bilim darajasini oshirish, balki ularning mustaqil izlanishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish mumkinligi aniqlandi. Bundan tashqari, kreativ kompetentligini rivojlantirish – bu faqatgina fanni o'zlashtirish emas, balki talabaning ilmiy, texnologik va ijtimoiy jarayonlarga faol, innovatsion yondasha olish salohiyatini shakllantirishdir.

ADABIYOTLAR

1. Mihaly Csikszentmihalyi (AQSH). Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention. 1996.
2. John Dewey (AQSH). Experience and Education. 1938.
3. Seymour Papert (AQSH). Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. 1980.
4. Бекешева И.С. Формирование креативной компетентности будущих бакалавров-учителей в процессе обучения математике на основе специального комплекса заданий: Автореф. ... д-ра пед. наук. – Красноярск. 2017.
5. Левенко О.Е. Формирование у школьников умения понимать условия физических задач в процессе их решения: Автореф. ... д-ра пед. наук. – Екатеринбург. 2017.
6. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: Ped.fan. ... fals. d-ri (PhD) ... dis. – Toshkent: TDP. 2017. – 8-9 b.
7. Tilakova M.A. VIII-IX sinf o'quvchilarida sinfdan tashqari mashg'ulotlarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari: Ped.fan. ... fals. d-ri (PhD) ... dis. – Chirchiq: CHDPI. 2019. – 6-7 b.

8. Eshquvvatov U.A. Talabalarning muhadislik kasbiga oid kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari (Yo'l muhandisligi ta'lim yo'nalishi misolida): Ped.fan. ... fals. d-ri (PhD) ... dis. – Toshkent: TDPU. 2017. – 8-9 b.
9. Buzrukov T.O. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida fizikadan masalalar yechish asosida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish: Ped.fan. ... fals. d-ri (PhD) ... dis. – Termiz: TDU. 2023. – 8 b.
10. Eshmirzayeva M.A. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish (Elektromagnetizm bo'limi misolida): Ped.fan. ... fals. d-ri (PhD) ... dis. – Samarqand. 2019. – 7 b.
11. Eric Mazur. "Peer Instruction: A User's Manual". 1997.
12. Marina Milner-Bolotin. The Effect of Interactive Lecture Experiments on Student Academic Achievement and Attitudes Towards Physics. 2009.
13. Qahhorov S.Q. O'rta maktab fizika ta'limining davriylik texnologiyasi: Ped. fan. d-ri (DSc) ... dis. – Buxoro: BuxDU. 2006. – 12 b.
14. Karlibayeva G.E. Innovatsion ta'lim texnologiyalari sharoitida fizika o'qituvchisining metodik tayyorgarligini shakllantirish: Ped.fan. nomzodi dis. – Toshkent. 2012. – 10 b.
15. Dusmuratov M.B. Oliy ta'limda elektrodinamikani o'qitishni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish: Ped. fan. dok. (DSc) ...dis. – Chirchiq: CHDPI. 2021. – 29 b.
16. Atoyevaning M.F. Elektromagnetizm bo'limini o'qitishni davriylik texnologiyasi asosida takomillashtirish: Ped.fan. ... fals. d-ri (PhD) ... dis. – Toshkent: BuxDU. 2018. – 7-8 b.
17. Sultonova O'.N. Fizikadan o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish metodikasi (fizikadan masalalar yechish to'garagi misolida): Ped.fan. nomzodi dis. – Toshkent: TDPU. 2007. – 9 b.



Nodira NORMATOVA,
Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail:nodirasuyundikovna@gmail.com

Professor O'.Tilavov taqrizi asosida

EKOLOGIK INQIROZ GNOSKOLOGIYASINING TRANSCENDENTAL VA EMPIRIK TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy global ekologik inqiroz sabablari, uning falsafiy asoslari, transscendental va empirik yondashuvlar sintezi orqali tahlil qilingan. Tadqiqotda ekologik inqirozning ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatlarini, shuningdek, inson va tabiat munosabatlarining falsafiy asoslari o'rganilgan. Muallif ekologik inqirozni ma'naviy-axloqiy, texnogen va ijtimoiy omillar nuqtai nazaridan tahlil qilib, ekologik muammolarni hal etishda kompleks yondashuvning zarurligini asoslab bergan.

Kalit so'zlar: ekologik inqiroz, gnoseologiya, transscendental yondashuv, empirik yondashuv, texnogen sivilizatsiya, ekologik ong, tabiat va jamiyat munosabatlari, barqaror rivojlanish.

ТРАНСЦЕНДЕНТАЛЬНЫЙ И ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГНОСЕОЛОГИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО КРИЗИСА

Аннотация

В статье анализируются причины современного глобального экологического кризиса, его философские основы через синтез трансцендентального и эмпирического подходов. В исследовании рассматриваются онтологические, гносеологические и аксиологические аспекты экологического кризиса, а также философские основы отношений между человеком и природой. Автор анализирует экологический кризис с точки зрения духовно-нравственных, техногенных и социальных факторов, обосновывая необходимость комплексного подхода в решении экологических проблем.

Ключевые слова: экологический кризис, гносеология, трансцендентальный подход, эмпирический подход, техногенная цивилизация, экологическое сознание, отношения природы и общества, устойчивое развитие.

TRANSCENDENTAL AND EMPIRICAL ANALYSIS OF THE GNOSSEOLOGY OF ENVIRONMENTAL CRISIS

Annotation

This article analyzes the causes of the modern global ecological crisis and its philosophical foundations through a synthesis of transcendental and empirical approaches. The study examines the ontological, epistemological, and axiological aspects of the ecological crisis, as well as the philosophical foundations of the relationship between humans and nature. The author analyzes the ecological crisis from the perspective of spiritual-moral, technogenic, and social factors, substantiating the necessity of a comprehensive approach in solving environmental problems.

Key words: ecological crisis, epistemology, transcendental approach, empirical approach, technogenic civilization, ecological consciousness, nature-society relations, sustainable development.

Kirish. Zamonaviy dunyoda ekologik inqiroz nafaqat tabiiy-ilmiy, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Ekologik inqirozning gnoseologik jihatlarini tadqiq etish, uning mohiyatini anglash va echimlarini topishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ekologik muammolarni bilish va anglashning o'ziga xos xususiyatlari, inson va tabiat o'rtasidagi murakkab munosabatlarning bilish nazariyasi nuqtai nazaridan tahlili alohida o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish nafaqat bir davlat yoki mintaq, balki butun sayyoramiz, butun insoniyat uchun dolzarb masalaga aylandi. Shu bois biz "yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqishimiz kerak"[1].

Maqolaning dolzarbligi shundaki, ekologik inqiroz gnoseologiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili orqali insoniyat oldida turgan global ekologik muammolarning mohiyatini chuqurroq anglash, ularning echimlarini topish yo'llarini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa o'z navbatida, barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy global ekologik inqiroz muammosini falsafiy jihatdan tahlil qilish XXI asrning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib, bu muammoning ko'p qirrali tabiati uni faqat bir yoqlama o'rganish bilan cheklanib qolmaslikni taqozo etadi.

O'zbekistonlik faylasuf olim S. Mamashokirovning qayd etishicha, "So'nggi yarim asr davomida ekologik inqirozning turli aspektlari - falsafiy asoslari, axloqiy qirralari, huquqiy mexanizmlari, siyosiy yo'nalishlari, iqtisodiy oqibatlar va estetik jihatlar chuqur ilmiy tadqiqotlar predmetiga aylandi. Zamonaviy ilmiy paradigma doirasida bu sohada integrallashgan yondashuvlar shakllanmoqda, bu esa turli yo'nalishlarning kesishuv nuqtalarida yangi tadqiqot maydonlarini ochib bermoqda"[2,3].

Rossiyalik tadqiqotchi Ye.N. Xoxrinaning qarashlarida ekologik inqiroz masalasi zamonaviy sivilizatsiyaning eng muhim muammosi sifatida ko'rib chiqiladi. Uning fikricha, bu jarayon XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tezlashdi va XXI asrga kelib, insoniyat oldidagi eng katta tahdidlardan biriga aylandi[4]. Xoxrinaning konsepsiyasida jamiyat rivojlanishining texnogen xarakteri alohida o'rin tutadi. U texnogen sivilizatsiyani tabiatga nisbatan agressiv, iste'molchilik munosabatiga asoslangan tizim sifatida tavsiflaydi.

Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi masalalarida samarali tadqiqotlar olib borgan N.N. Moiseev ekologik inqirozni tadqiq etishda tizimli yondashuvni qo'llagan etakchi olimlardan

biri hisoblanadi. Uning fikricha, "ekologik muammolarni faqat tabiiy fanlar yoki faqat ijtimoiy fanlar doirasida o'rganish etarli emas, bu masala kompleks yondashuvni talab etadi"[5]. Moiseev tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tubdan qayta ko'rib chiqish zarurligini ilmiy asoslab bergan.

Nemis faylasufi V. Xeslening ekologik inqirozni ma'naviy-axloqiy inqiroz bilan bog'lab o'rganishi zamonaviy ekologik falsafada yangi yo'nalishni boshlab berdi. Olimning fikricha, "ekologik inqiroz - bu avvalo insoniyatning ma'naviy-axloqiy inqirozining tabiiy oqibatidir"[6].

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda ekologik inqiroz gnoseologiyasini o'rganishda transsendental va empirik yondashuvlar sintezi metodologik asos sifatida tanlangan. Transsendental yondashuv inson va tabiat munosabatlarining birlamchi shartlarini, insonning tabiatga bo'lgan munosabatining ontologik va gnoseologik asoslarini ochib beradi. Bu yondashuv orqali ekologik inqirozning ma'naviy-axloqiy ildizlarini, insonning tabiatga nisbatan munosabatidagi fundamental xatolarni aniqlash mumkin.

Empirik yondashuv esa real voqelikdagi ekologik muammolarni, ularning konkret ko'rinishlarini o'rganish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va amaliy echimlar topish imkonini beradi. Ikki yondashuvning sintezi ekologik inqirozning chuqur ildizlarini va uning ko'p qirrali tabiatini tushinishda yangi imkoniyatlar ochadi. Bu sintez nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlaydi, abstrakt falsafiy mulohazalar bilan konkret empirik dalillarni birlashtiradi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, germenetik usul va kontent-tahlil metodlaridan foydalanilgan. Bu metodlar ekologik inqirozning turli jihatlarini har tomonlama o'rganish imkonini beradi.

Ekologik inqiroz gnoseologiyasining transsendental tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy insonning tabiatga nisbatan munosabati Dekart davridan boshlangan sub'ekt-ob'ekt dixotomiyasi asosida shakllangan. Bu yondashuvda tabiat inson aqli bilan bilish, o'rganish va o'zlashtirish uchun ob'ekt sifatida qaratiladi. Natijada inson tabiatdan ajralib, unga hukmronlik qiluvchi mavjudot maqomiga ko'tariladi. Bu gnoseologik asosning oqibati o'laroq, tabiat resurs manbai, inson ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida qabul qilinadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, ekologik inqirozning transsendental asoslaridan biri - bu "progress" tushunchasining texnogen sivilizatsiya doirasida talqin etilishidir. Zamonaviy jamiyatda progress asosan moddiy-texnik taraqqiyot, iste'mol hajmining oshishi va tabiiy resurslarning intensiv o'zlashtirilishi bilan o'lchanadi. Bu yondashuv tabiat bilan uyg'un munosabatlarni emas, balki uning ustidan texnik nazoratni o'rnatishni maqsad qilib qo'yadi. Natijada insoniyat tabiatdan begonalashadi, uni faqat o'zlashtirish ob'ekti sifatida ko'radi.

Empirik ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi 50 yil davomida global iqlim o'zgarishi, biologik xilmaxillikning kamayishi, tabiiy resurslarning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi ekologik muammolar tobora keskinlashmoqda. Jahon meteorologiya tashkilotining

ma'lumotlariga ko'ra, 1880 yildan 2020 yilgacha global harorat 1,2°C ga ko'tarilgan, bu esa iqlim o'zgarishining tezlashayotganini ko'rsatadi. Turli mamlakatlarda o'tkazilgan tadqiqotlar ekologik inqirozning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy oqibatlari tobora sezilarli bo'lib borayotganini tasdiqlamoqda.

Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko'ra, ekologik inqirozning gnoseologik asoslaridan yana biri - bu dunyoni bilishda reduksionistik yondashuvning ustunligidir. Bu yondashuvda murakkab tabiiy tizimlar soddalashtirilib, ularning ayrim qismlari o'rganiladi, natijada tabiiy jarayonlarning yaxlitligi va o'zaro bog'liqligi e'tibordan chetda qoladi. Bunday reduksionizm tabiiy tizimlarning muvozanatini buzishga olib keladi, chunki inson faoliyati tabiiy jarayonlarning umumiy mantig'ini hisobga olmaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekologik inqirozning eng muhim gnoseologik sabablaridan biri - bu fanning qadriyatlardan ajratilishi, bilimning etik jihatdan neytral deb hisoblanishidir. Zamonaviy ilmiy paradigmadagi fakt va qadriyat qat'iy ajratilgan, bilish jarayoni etik mas'uliyatdan xoli deb qaratiladi. Natijada, ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonida insonning tabiatga nisbatan mas'uliyati ikkinchi darajali masalaga aylanadi.

Ekologik inqiroz gnoseologiyasining transsendental va empirik tahlili orqali olingan natijalar ekologik muammolarni hal etishda kompleks yondashuvning zarurligini ko'rsatadi. Bu yondashuv nafaqat texnik-texnologik echimlarni, balki insonning tabiatga nisbatan munosabatini o'zgartirishni, yangi ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirishni ham o'z ichiga olishi kerak.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, zamonaviy global ekologik inqiroz sharoitida transsendental va empirik yondashuvlarning sintezi muammoning ham nazariy-falsafiy, ham amaliy jihatlarini to'liq qamrab olish imkonini beradi. Bu ikki yo'nalishning uyg'unlashuvi ekologik muammolarni kompleks o'rganish va samarali echimlar topish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Transsendental tahlil ekologik inqirozning ontologik, gnoseologik va aksiologik asoslarini ochib beradi. U inson va tabiat munosabatlarining aprior shartlarini aniqlash, insonning tabiatga bo'lgan munosabatining fundamental asoslarini tushunish imkonini yaratadi.

Empirik tadqiqotlar ekologik inqirozning real ko'rinishlarini aniq faktlar, raqamlar va statistik ma'lumotlar orqali namoyon etadi. Bu yondashuv orqali ekologik muammolarning haqiqiy ko'lamini, rivojlanish dinamikasi va oqibatlarini ob'ektiv baholash mumkin bo'ladi.

Transsendental va empirik yondashuvlar sintezi ekologik inqirozning kelib chiqish sabablarini har tomonlama tahlil qilish, uning ma'naviy-axloqiy ildizlarini va moddiy-texnik omillarini birga o'rganish imkonini beradi. Zamonaviy ekologik inqirozni tadqiq etishda transsendental va empirik yondashuvlarning uyg'unligi nafaqat nazariy, balki katta amaliy ahamiyatga ega. Bu sintez insoniyat va tabiat o'rtasidagi muvozanatni qayta tiklashning ilmiy asoslangan yo'llarini topishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 29.12.2020 // "Халқ сўзи" газетаси, 2020 йил 30 декабрь.
2. Мамашокиров С., Усмонов Э. Баркарор таракқиётнинг экологик ҳавфсизлик масалалари. Т.: «Фан», 2009.
3. Мамашокиров С. Ваҳимами ёки ҳақиқат. Т.: "Иқтисод-молия" 2012.
4. Хохрина Е.Н. Философско-методологические проблемы выживания человечества в условиях развития глобального экологического кризиса. Самара; 2001.
5. Моисеев Н.Н. Взаимодействие природы и общества: глобальные проблемы. Вестн РАН. 1998;68(2):167-70.
6. Моисеев Н.Н. Человек и ноосфера. М.: Молодая гвардия, 1990.
7. Хесле В. Кризис индивидуальной и коллективной идентичности. Вопросы философии. 1994;(4):112-23.
8. Brown L.R., Wolf Y.U. Rethinking the Future. State of the World. 1988.



UDK: 378.2.811.161.1(075.8)

Khilola OTAKHONOVA,
Senior lecturer of Uzbek State University of World Languages
E-mail: akhmadqizi1980@mail.ru

Based on the review of D.Pulatova, associate Professor, International School of Finance and Technology

IMPROVING STUDENTS' WORK WITH MEDIA TEXTS BASED ON THE LINGUACULTURAL APPROACH

Annotation

This article explores the potential of using media texts to enhance students' learning outcomes through the application of the linguacultural approach. The linguacultural approach emphasizes the integration of language and culture in the process of language acquisition, and media texts serve as a powerful tool for fostering both linguistic and cultural competence. By analyzing various forms of media texts, such as films, advertisements, and social media, the study demonstrates how these resources can be used effectively in educational contexts to improve students' understanding of language in cultural contexts. The findings show that media texts provide a rich, authentic environment for language learners to develop critical thinking and intercultural awareness. The study also presents practical recommendations for integrating media texts into language learning curricula.

Key words: linguacultural approach, media texts, language learning, cultural competence, language acquisition, education

УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ С МЕДИА ТЕКСТАМИ НА ОСНОВАНИИ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация

В этой статье рассматривается потенциал использования медиатекстов для улучшения результатов обучения студентов посредством применения лингвокультурного подхода. Лингвокультурный подход подчеркивает интеграцию языка и культуры в процесс освоения языка, а медиатексты служат мощным инструментом для развития как языковой, так и культурной компетентности. Анализируя различные формы медиатекстов, такие как фильмы, реклама и социальные сети, исследование демонстрирует, как эти ресурсы могут эффективно использоваться в образовательных контекстах для улучшения понимания студентами языка в культурных контекстах. Результаты показывают, что медиатексты предоставляют богатую, аутентичную среду для изучающих язык, чтобы развивать критическое мышление и межкультурную осведомленность. В исследовании также представлены практические рекомендации по интеграции медиатекстов в учебные программы по изучению языка.

Ключевые слова: лингвокультурологический подход, медиатексты, изучение языка, культурная компетентность, усвоение языка, образование

TALABALARNING MEDIA-MATNLAR BILAN ISHLASHINI LINGVISTIK MADANIYATGA ASOSLANGAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqola lingvamadaniy yondashuvni qo'llash orqali talabalarning ta'lim natijalarini yaxshilash uchun media matnlaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganadi. Lingvamadaniy yondashuv tilni o'zlashtirish jarayonida til va madaniyatning integratsiyalashuviga urg'u beradi va media matnlar ham til, ham madaniy kompetentsiyani rivojlantirish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Filmlar, reklamalar va ijtimoiy tarmoqlar kabi media matnlarning turli shakllarini tahlil qilish orqali tadqiqot ushbu resurslardan o'quvchilarning madaniy kontekstlarda til haqidagi tushunchalarini yaxshilash uchun ta'lim sharoitlarida qanday samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, media matnlari til o'rganuvchilar uchun tanqidiy fikrlash va madaniyatlararo xabardorlikni rivojlantirish uchun boy, haqiqiy muhitni ta'minlaydi. Tadqiqot shuningdek, media matnlarni til o'rganish o'quv dasturlariga integratsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: lingvomadaniy yondashuv, media matnlar, til o'rganish, madaniy kompetentsiya, tilni o'zlashtirish, ta'lim.

Introduction. In the digital age, media texts - such as films, television programs, social media content, and online articles - have become integral to daily life, profoundly influencing communication and information dissemination. Recognizing the educational potential of these media, educators are increasingly integrating them into language learning curricula to enhance both linguistic proficiency and cultural understanding. This integration aligns with the linguacultural approach, which emphasizes the interplay between language and culture in the learning process. The linguacultural approach posits that language acquisition is deeply intertwined with cultural context, suggesting that effective language learning involves understanding the cultural nuances embedded within the language. By incorporating media texts, educators can provide students with authentic linguistic experiences that reflect real-world usage

and cultural subtleties. This method not only aids in language comprehension but also fosters intercultural competence, preparing students to navigate diverse cultural landscapes.

Recent studies underscore the effectiveness of this approach. For instance, research published in the Journal of Educational Technology & Society highlights that engagement with digital media, including videos and interactive platforms, significantly enhances language skills by providing contextual learning experiences [1]. Similarly, a study in the International Journal of Instruction found that integrating media texts into language instruction improves students' motivation and engagement, leading to better learning outcomes[2].

Furthermore, the proliferation of misinformation and the need for critical media literacy have prompted educational institutions to focus on teaching students how to critically analyze media content. A report from Teen Vogue notes that

schools are increasingly incorporating media literacy education to equip students with the skills to discern credible information, thereby enhancing their critical thinking abilities[3].

In the context of Uzbekistan, the integration of media texts into language education is particularly pertinent. The country's rich cultural heritage and the growing emphasis on learning foreign languages necessitate approaches that bridge linguistic skills with cultural understanding. By adopting the linguacultural approach, educators can create a more immersive and contextually relevant learning environment, thereby improving students' language proficiency and cultural awareness.

Literature review. The intersection of language learning and culture has long been a subject of academic interest, and the linguacultural approach - an educational framework that integrates both language and cultural understanding - has gained significant attention in recent years. This approach highlights the fact that language is inherently tied to culture, and effective language acquisition requires students to comprehend the cultural contexts in which the language is used. In this review, we explore various studies that demonstrate the effectiveness of the linguacultural approach, particularly through the use of media texts in language learning.

One of the foundational works in this area is by Claire Kramsch, who has extensively written about the relationship between language and culture in foreign language education. In her book *Context and Culture in Language Teaching*, Kramsch argues that language is not merely a system of grammar and vocabulary but also a reflection of the culture and social practices of its speakers[4]. Kramsch suggests that exposing students to cultural contexts through authentic materials, such as media texts, allows for deeper language comprehension and a more nuanced understanding of how language functions in everyday life [4].

In more recent research, Bai et al. demonstrate the value of digital media in language education. Their study, published in the *Journal of Educational Technology & Society*, found that students exposed to digital media such as films, podcasts, and videos showed significant improvement in both language acquisition and cultural competence. The study highlights how media texts provide a rich, immersive environment for language learners, where they can not only hear native speakers but also gain insights into social norms, values, and practices associated with the language. According to Bai et al., media texts also offer students a way to connect language learning with real-world issues, making the learning process more engaging and relevant.

Another important contribution comes from Liddicoat and Scarino, who discuss intercultural language teaching in their book *Intercultural Language Teaching and Learning*. They emphasize the role of media in fostering intercultural awareness, arguing that media texts are crucial in helping students understand how language varies across different cultural contexts. By incorporating media texts, language learners can experience language in authentic cultural settings, which enhances their ability to communicate appropriately in different social environments. Liddicoat and Scarino's work underscores that language learners need to develop not only linguistic skills but also an awareness of cultural norms and values to communicate effectively [5].

Research methodology. This study uses a mixed-methods approach to examine the role of Continuing Professional Development (CPD) and reflective practices in language teaching. Both qualitative and quantitative data are collected to provide a comprehensive view of the impact of these practices on teaching effectiveness.

Surveys: A structured questionnaire is used to gather quantitative data on the frequency and types of CPD activities teachers engage in, as well as their reflective practices. The survey also assesses the perceived impact of these practices on teaching quality and student outcomes.

Interviews: Semi-structured interviews are conducted with language teachers to explore their experiences with CPD and reflective practices. The interviews aim to identify specific benefits, challenges, and insights related to these practices, as well as their influence on teaching strategies.

Analysis and results. The analysis of the data collected from classroom observations, instructor interviews, and student surveys indicates that the integration of media texts into language learning significantly enhances both linguistic proficiency and cultural awareness. The results demonstrate a clear positive impact on students' motivation, engagement, and understanding of cultural contexts, supporting the effectiveness of the linguacultural approach. Classroom observations revealed that students in the experimental group, who engaged with media texts, were more active in class discussions and showed a greater ability to identify linguistic nuances, such as slang, idiomatic expressions, and cultural references. For example, students watching films in the target language demonstrated improved listening comprehension and pronunciation, as well as an increased ability to use new vocabulary in context. A key finding was that students often related media content to real-world scenarios, which allowed them to practice language use in a more authentic setting.

Instructor interviews further supported these findings, with teachers noting that students exposed to media texts were more likely to retain vocabulary and cultural knowledge. One instructor commented, "When students watch a movie or listen to a podcast, they not only learn words but also understand the social and cultural background of their usage. This deepens their connection with the language". In contrast, instructors teaching the control group, which used traditional textbooks, reported that students struggled to apply vocabulary in real-life contexts and showed less interest in lessons.

The instructors emphasized that the dynamic, real-world nature of media materials contributed significantly to student engagement. Student surveys reinforced these results, with 80% of students in the experimental group reporting higher levels of motivation and satisfaction compared to the control group. Many students stated that media texts, such as films and social media content, made learning feel more relatable and enjoyable. One survey respondent said, "Watching TV shows and listening to music in the language makes me feel like I'm actually learning how people speak, not just memorizing words from a textbook".

Additionally, 75% of students felt that media texts helped them understand cultural aspects of the language more effectively than traditional lessons. Further evidence of the positive impact of media texts in language learning can be found in broader research on the topic. For example, a study in the *Journal of Educational Technology & Society* found that students who engaged with media in their language courses exhibited improved comprehension and retention of cultural nuances, supporting the findings of this study.

Additionally, the increasing use of media literacy in educational settings, as noted in a *Teen Vogue* article, underscores the importance of critical media consumption, which can enhance both language skills and cultural competence [7].

Moreover, the success stories of language learners highlighted in a *Guardian* article, such as those who learned Danish by watching TV shows, illustrate the broader trend of using media for language acquisition[7].

These stories echo the experiences of students in this study, who reported a more natural and enjoyable language learning experience through exposure to media.

Table-1

Study	Findings	Source
Comparative Study on Social Media and Language Learning Apps	Baicizhan, a language-learning app, was found to be more effective than social media apps like QQ and WeChat in vocabulary learning.	PMC10225041
Social Media in Language Learning: Benefits and Challenges	Utilizing social media in language learning enhances reading, writing, and vocabulary skills.	ResearchGate
Digital Media as Language and Literacy Learning Spaces	Digital media practices in multilingual families support language and literacy development.	Taylor & Francis Online
Effects of New Media on English Language Learning Motivation	New media tools like Facebook, blogs, wikis, Google Docs, and YouTube positively influence English language learners' motivation.	ERIC
Social Media and Psychology of Language Learning	Telegram-based instruction improved learners' anxiety management and accelerated engagement in language learning.	PMC10163658
Learning Across Media in a Second Language	Learning from videos in a second language is associated with better learning performance compared to text-based learning.	SpringerLink
Students' Perspectives on Mass Media Influence on Learning	Incorporating mass media into English learning improves language proficiency and increases motivation and engagement.	Redfame

These studies collectively highlight the positive impact of integrating media texts – such as social media platforms, language-learning apps, and digital content - on language learning outcomes. They demonstrate that media integration enhances vocabulary acquisition, reading and writing skills, learner motivation, and overall engagement in the learning process.

Additionally, exposure to multimedia content supports the development of cultural understanding and literacy skills, reinforcing the effectiveness of the linguacultural approach in language education.

Conclusion. This study confirms the positive impact of integrating media texts into language learning based on the linguacultural approach. By using films, social media, podcasts, and other digital content, students demonstrated greater engagement, improved vocabulary retention, and enhanced cultural understanding. Media texts not only provide

an authentic learning environment but also offer opportunities for students to connect language learning with real-world experiences.

The findings indicate that students exposed to media-based lessons showed a deeper understanding of both linguistic features and cultural contexts, which are crucial for effective communication in a globalized world. Instructors reported that media texts fostered a more interactive and dynamic classroom atmosphere, helping learners retain new vocabulary and apply it in practical settings.

Amaliy san'at. Markaziy Osiyo tarixchilari o'z asarlarida ajoyib to'quvchilik namunalari, gilamlar, metaldan yasalgan san'at buyumlari haqida ma'lumot berganlar. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati san'atida dekor, naqsh, turmush jihozlarini bezash mahorati ulkan rol o'ynagan. Markaziy Osiyo xalqlari gilamlar tayyorlashni tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, XII asrdan bir qancha asrlar muqaddam boshlashgan. Metal buyumlar yaratish san'ati bundan ham qadimiy bo'lib, uning rivojiga sosoniylar madaniyati kuchli ta'sir ko'rsatgan. Sankt-Peterburgdagi Ermetaj muzeyida saqlanayotgan qadimiy likopchalardan birida gilam ustida chordona qilib o'tirgan qirol tasvirlangan. IX-X asrlarda idish buyumlar kumushdan tayyorlanardi. Keyinchalik kumush o'rnini bronza egallaydi. Shamdonlar, tamakidonlar, ko'za idishlar haykaltaroshlik unsurlari bilan bronzadan yasaldi. Yana shuningdek, Markaziy Osiyo hunarmandlarining yog'ochdan yaratgan ijod namunalari ham e'tiborimizni tortmay qolmaydi. Masjidlardagi minglab eshiklar, mehroblar, ustunlar hunarmandlarning yog'ochga o'yib ishlangan nafis naqshlari bilan bezatildi[10]. Hukmdorlarning ko'rkam kiyimlarini (liboslarini) yaratgan kashtado'zlar, etikdo'zlar, chevarlarning mehnat namunalari taqsiinga sazovordir. Bu yodgorliklar, bu san'at namunalari bugungi kunda ham inson ko'zini quvontiradi.

Islom dini Markaziy Osiyoda keng tarqalgandan keyin ilm-fan taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etgan va ko'plab jahonga mashhur aniq fanlar olimlari, tarixchilar, tilshunoslar, adib va shoirlar yetishib chiqqani va bular jahon fan va madaniyatiga ulkan hissa qo'shganlarini juda yaxshi bilamiz. Markaziy Osiyolik din olimlari Islom dinini o'rganish, Qur'on va Hadislarni talqin qilish va ommaga yetkazib berish sohasida arablar qila olmagan ishlarni bajardilar va Islom olamini hayratda qoldirdilar. Markaziy Osiyoda bunyod etilgan butun arxitektura va san'at obidalar Islom dini tufayligina buyod etilgan, buni hech kim inkor eta olmaydi, Rossiya va Yevropa mamlakatlarida esa nasoro dini tufayli cherkovlar vujudga kelgan.

Markaziy Osiyodagi Islom bilan bog'liq bo'lgan arxitektura va san'at obidalar XX asrgacha bunyod etildi va xalq ularni imkon boricha avaylab, ilm dargohi, ziyoratgoh, muqaddas joy deb saqlab keldi. Masjidlarda ibodat qilingan bo'lsa, madrasalarda bir yo'la uch tilda (arabcha, forsiy va o'zbek) ta'lim olib zamonasining ilg'or ziyolilari bo'lib yetishdilar. Masjid, madrasa va maqbaralar haqida qisqacha ma'lumot bermoqchimiz.

Masjid. Masjid arabcha "sajada" (egilish, itoat etish, sajda qilib yuzini yerga tekkanish) so'zidan olingan bo'lib, "sajda qilinadigan, ibodat qilinadigan joy" ma'nosini bildiradi. Masjidlar diniy targ'bot vazifasini o'tagan bo'lsa ham, ularda boshqa turli masalalar ham hal etilgan: oilaviy mojarolarni hal etish, urushganlarni yarashtirib qo'yish, ba'zi nojo'ya ish qilganlarni to'g'ri yo'lga solish kabi.

Madrasa. Arabcha "darasa" (o'rganmoq) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, joy nomi, ya'ni dars oladigan, o'qiladigan joy. Madrasalar musulmonlarning o'rta va oliy o'quv yurti. Madrasalar musulmon olamida diniy inshootlar sifatida X-XI asrlarda paydo bo'lgan. Markaziy Osiyoda qo'sh madrasalar qurish ham paydo bo'ldi: Samarqandda Ulug'bek va SHerdor, Buxorodagi Modarixon va Abdullaxon madrasalari kabi.

Maqbara. Qabr ustiga qurilgan yodgorlik binosi, movzoley. Markaziy Osiyodagi majusiylar, buddistlar, nasroniylar qabrlariga qurilgan arxitektura yodgorliklari oddiy ko'rinishga ega. Lekin Islom dini ta'sirida vujudga kelgan maqbaralar hashamatli, murakkab imoratlar sifatida taraqqiy etdi. Oktabr to'ntarishidan keyin Markaziy Osiyoda masjid, madrasa va maqbaralar qurish tamoman to'xtadi. Dinga nisbatan noto'g'ri siyosat olib borish tufayli xalq arxitekturasi yodgorliklari bo'lgan bir qancha masjid, madrasalar buzib yuborildi. Lekin mustaqilligimiz sharofati bilan ko'plab maqbaralar tiklanib, qayta ta'mirlandi va yangi zamonaviy ko'rinishga ega bo'lgan masjidlar qurilmoqda.

Xulosa. Islom dini Markaziy Osiyo xalqlari san'atiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Me'moriy yodgorliklar, xattotlik asarlari, amaliy san'at namunalari islom estetikasi va ma'naviyati mujassam. Ushbu obidalar nafaqat diniy qadriyatlar, balki xalqning madaniy yodgorliklari sifatida ham katta tarixiy ahamiyatga ega. Bu obidalarni o'rganish — islom madaniyatining buyukligini anglash demakdir. Xulosa qilib aytganimizda, Markaziy Osiyoda bunyod etilgan bu obidalar shubhasiz Islom dinining kirib kelishi va bu o'lkada keng tarqalishi bilan amalga oshdi desak adashmagan bo'lamiz. Yuqorida keltirilgan Islom obidalar Markaziy Osiyoda Islom diniga bo'lgan kuchli e'tiqod va shu yerdan yetishib chiqqan olim, mutafakkirlarga hurmat va ehtirom belgisi sifatida bunyod etilgan.

ADABIYOTLAR

1. Ислам Энциклопедия. -Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2004, 117 бет.
2. Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислам маданияти. -Т.: "Шарк", 2005, 324 бет.
3. ЎЗМЭ 5 том. -Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2003, 499 бет.
4. Чистякова Т.А. Ўша асар, стр. 151.
5. Бартольд В.В. Сочинения VI. Работы по истории ислама и Арабского Халифата. -М.: Издательство «Наука», 1966, стр. 162.
6. Чистякова Т.А. Арабский халифат. -М.: Издательство «Учпедгиз», 1962, стр. 153.
7. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ. 4 жилд. -Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1997, 72 бет.
8. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. -Т.: "Фан" нашриёти, 1971, 3 бет.
9. Раджиддинов М. "Аждодлардан қолган буюк мерос". "Имом ал-Бухорий сабоқлари", 2006, 4 сон, 283 бет.
10. Чистякова Т.А. Арабский халифат. -М.: Издательство «Учпедгиз», 1962, стр. 156.



Ismail SAIFNAZAROV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, falsafa fanlari doktori
E-mail: profis48_48@mail.ru

THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE DEVELOPMENT ON NATIONAL VALUES

Annotation

In the modern world, the rapid development of artificial intelligence technologies is affecting almost all areas of our lives. These technologies are not only radically changing the economy, medicine, education and industry, but also have a significant impact on the system of culture and national values. National values are the historical, cultural and spiritual heritage of a people, their formation is carried out through traditions, customs, language, art and spiritual and moral principles passed down from generation to generation for centuries. Artificial intelligence creates opportunities to preserve, develop or, conversely, change these values.

Key words: artificial intelligence, culture, national values, digitization, education, language, cultural heritage, works of art, young generation.

ВЛИЯНИЕ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ

Аннотация

В современном мире стремительное развитие технологий искусственного интеллекта затрагивает практически все сферы нашей жизни. Эти технологии не только кардинально меняют экономику, медицину, образование и промышленность, но и оказывают существенное влияние на систему культуры и национальных ценностей. Национальные ценности являются историческим, культурным и духовным наследием народа, их формирование осуществляется через традиции, обычаи, язык, искусство и духовно-нравственные принципы, передаваемые из поколения в поколение на протяжении веков. Искусственный интеллект создает возможности для сохранения, развития или, наоборот, изменения этих ценностей.

Ключевые слова: искусственный интеллект, культура, национальные ценности, цифровизация, образование, язык, культурное наследие, произведения искусства, молодое поколение.

SUN'IY INTELLEKT RIVOJINING MILLIY QADRIYATLARGA TA'SIRI

Annotatsiya

Zamonaviy dunyoda sun'iy intellekt texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi hayotimizning deyarli barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu texnologiyalar nafaqat iqtisodiyot, tibbiyot, ta'lim va sanoat sohalarini tubdan o'zgartirmoqda, balki madaniyat va milliy qadriyatlar tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Milliy qadriyatlar - bir xalqning tarixiy, madaniy va ma'naviy merosi bo'lib, ularning shakllanishi asrlar davomida avlodlardan avlodga uzatilgan an'analar, urf-odatlar, til, san'at va ma'naviy-axloqiy tamoyillar orqali amalga oshadi. Sun'iy intellekt esa ushbu qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish yoki aksincha, ularni o'zgartirish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, madaniyat, milliy qadriyatlar, raqamlashtirish, ta'lim, til, madaniy meros, san'at asarlari, yosh avlod.

Kirish. Sun'iy intellekt va milliy qadriyatlar mavzusi zamonaviy dunyoda katta ahamiyat kasb etmoqda. Texnologik taraqqiyot inson hayotining barcha jabhalariga chuqur ta'sir ko'rsatib, yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellektning rivojlanishi milliy madaniyat, an'analar va qadriyatlar tizimiga qanday ta'sir qilishi, ularni saqlash va rivojlantirishda qanday rol o'ynashi haqida dolzarb savollarni yuzaga keltirmoqda. Milliy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy tajribasi, madaniy merosi, urf-odatlar va axloqiy tamoyillaridir, ular jamiyatning o'zligini belgilaydi va avlodlardan avlodga o'tadi. Sun'iy intellekt esa global miqyosda keng qo'llanilishi bilan milliy madaniyatlarining o'ziga xosligini saqlash va rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin. Shu bilan birga, texnologiyaning tezkor o'sishi va uning madaniyatga ta'siri ba'zan milliy qadriyatlarning yo'qolishiga, madaniy identifikatsiyaning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun sun'iy intellektning milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvi, ularni hurmat qilish va saqlash masalalari bugungi kunning muhim vazifalaridan biriga aylangan. Ushbu mavzu doirasida sun'iy intellekt va milliy qadriyatlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish, ularning o'zaro ta'sirini aniqlash va kelajakda qanday yo'nalishda rivojlantirish mumkinligini tahlil qilish zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sun'iy intellekt bu - insonning mantiqiy va ijodiy funksiyalarini bajaruvchi intellektual sun'iy tizim deganidir. YA'ni bu atama orqali turli yo'nalish va maqsadlarga qarab ishlab chiqilgan, insonning aql salohiyatini o'zida namoyon etuvchi robot yoki qurilmadir. Ko'pchiligimizning hayolimizga robot deganda so'zlaydigan, buyruqlarni bajaruvchi, biror ko'nikmaga moslashtirilgan mashinani tushunamiz. Sun'iy intellekt sohasidagi tezkor rivojlanish bugungi kunda nafaqat texnologik yangiliklarga, balki ijtimoiy, madaniy va ma'naviy sohalariga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, milliy qadriyatlar va madaniyatni saqlash, rivojlantirish nuqtai nazaridan sun'iy intellektning o'rni va roli juda muhimdir.

Mamadaliyev N. va Amirov J. sun'iy intellekt texnologiyalarining inson hayoti va jamiyatdagi o'rni haqida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ular sun'iy intellektning milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ta'kidlaydilar. Shuningdek, sun'iy intellekt ta'lim va madaniyat sohalarida milliy qadriyatlarni targ'ib qilishdagi samaradorligi haqida ma'lumotlar berganlar[1]

Xudoyberdiyev A. "Sun'iy intellektni rivojlantirish – yangi O'zbekiston milliy taraqqiyotining asosi" nomli ilmiy maqolasida sun'iy intellektning milliy taraqqiyotdagi o'rni va uning milliy qadriyatlar bilan uyg'unligi haqida fikr yuritiladi

va milliy qadriyatlarini sun'iy intellekt yordamida saqlash va ularni yangi avlodga yetkazishning yangi usullarini taklif qiladi[2].

Qodirov S. "Sun'iy intellekt va adabiy ta'lim" nomli ilmiy tadqiqotlarida sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida milliy adabiyotlarni o'rganish va o'qitish metodlari tahlil qilinadi. U, milliy til va adabiyotning sun'iy intellekt orqali rivojlanishiga katta e'tibor beradi[3].

Muhokama. Sun'iy intellektning milliy qadriyatlarga ijobiy ta'siri bir necha asosiy yo'nalishda ko'rinadi. Avvalo, bu texnologiyalar madaniy merosni saqlash va targ'ib qilishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Masalan, raqamlashtirish va tahlil qilish vositalari yordamida qadimiy qo'lyozmalar, san'at asarlari, tarixiy hujjatlar va madaniy obidalar raqamli formatga o'tkazilib, ularni keng jamoatchilikka taqdim etish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa milliy madaniyatni global miqyosda tanitish va uni yosh avlodga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi tillarni qayta tiklash va rivojlantirish tizimlari, masalan, tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari, milliy tillarning saqlanishiga xizmat qiladi. Bu esa tilning yo'qolib ketishining oldini olish va milliy o'zlikni saqlashga yordam beradi. Biroq, sun'iy intellektning milliy qadriyatlarga ta'siri faqat ijobiy jihatlari bilan cheklanmaydi. Globalizatsiya jarayonlari va texnologik taraqqiyot natijasida sun'iy intellekt asosida yaratilgan kontent ko'pincha xalqaro standartlar va madaniyatlar asosida shakllanadi. Natijada, milliy madaniyatlarining o'ziga xosligi va noyoblighi kamayishi, ularning o'rnini global madaniyatning umumiy tendensiyalari egallashi xavfi yuzaga keladi. Bu holat milliy qadriyatlarining erkin rivojlanishiga to'sqinlik qilishi, ularning sun'iy ravishda standartlashtirilishi va soddalashtirilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, sun'iy intellekt texnologiyalarini yaratishda va qo'llashda milliy madaniyat va qadriyatlarni himoya qilish, ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus strategiyalar ishlab chiqish zarur. Sun'iy intellektning madaniyat sohasidagi yana bir muhim ta'siri - bu ijodiy jarayonlarni avtomatlashtirish va yangi ijodiy imkoniyatlarni yaratishdir. Sun'iy intellekt yordamida musiqiy, badiiy, adabiy va boshqa san'at asarlari yaratilmoqda, bu esa madaniyatning yangi shakllarini paydo qilmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon milliy madaniyatning an'anaviy shakllariga yangi qarashlar kiritish, ularni zamonaviylashtirish imkonini beradi. Lekin bu jarayon ba'zan madaniyatning asl mohiyatini yo'qotish xavfini ham tug'diradi, chunki sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan mahsulotlar insoniy tajriba va hissiyotlarning chuqurligidan mahrum bo'lishi mumkin. Shu sababli, milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishda inson omilining o'rnini saqlanib qolishi, texnologiyalar inson ijodining yordamchisi sifatida ishlatilishi muhimdir.

Tadqiqot natijalar. Milliy qadriyatlarga ta'sir ko'rsatishda sun'iy intellektning ta'lim sohasidagi roli ham katta ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida milliy tarix, til va madaniyatni o'rgatishda interfaol va individual yondashuvlar joriy etilmoqda. Bu esa yosh avlodning milliy o'zligini mustahkamlashga, ularni o'z madaniyatiga hurmat bilan qarashga o'rgatishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan ta'lim resurslari milliy qadriyatlarni yanada kengroq auditoriyaga yetkazish imkonini beradi. Biroq, ta'limda texnologiyalardan noto'g'ri foydalanish milliy qadriyatlarni noto'g'ri talqin qilish yoki ularni chetga surish xavfini ham tug'diradi, shuning uchun ta'lim jarayonida madaniy kontekstni hisobga olish zarur[4].

Sun'iy intellekt milliy qadriyatlarining ommaviy axborot vositalarida aks etishida ham muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida yaratilgan kontent va media mahsulotlari milliy madaniyatni targ'ib qilishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga,

bu texnologiyalar yordamida noto'g'ri yoki manipulyativ axborot tarqatish xavfi ham mavjud. Bu esa milliy qadriyatlarining buzilishiga, ijtimoiy birdamlik va milliy o'zlikning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, sun'iy intellekt texnologiyalarini axborot maydonida mas'uliyatli va ehtiyotkorlik bilan qo'llash zarur. Sun'iy intellekt milliy qadriyatlarni himoya qilishda ham muhim vosita bo'lishi mumkin. Masalan, madaniy meros obyektlarini monitoring qilish, ularni noqonuniy olib chiqilishining oldini olish, madaniy va tarixiy obidalarini saqlash uchun sun'iy intellektning kuzatuv va tahlil qilish imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Bu esa milliy madaniyatning jismoniy va ma'naviy boyliklarini saqlashda yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi milliy xavfsizlik va madaniy suverenitetni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi[5].

Sun'iy intellekt milliy qadriyatlarni saqlashda birinchi navbatda madaniy merosni raqamlashtirish va saqlash imkoniyatini yaratadi. Qadimiy qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar, madaniy yodgorliklar va san'at asarlari raqamli formatga o'tkazish orqali ularni uzoq vaqt davomida saqlash mumkin bo'ladi. Bu jarayon nafaqat madaniy merosni yo'qotilishdan himoya qiladi, balki uni keng jamoatchilikka taqdim etishda ham katta yordam beradi. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida raqamlashtirilgan materiallarni tezkor va samarali tarzda qidirish, tahlil qilish, tarjima qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Natijada, milliy madaniyatning noyob namunalarini saqlab qolish va ularni yangi avlodlarga yetkazish osonlashadi. Sun'iy intellekt milliy tilni rivojlantirish va saqlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Ona tilimiz milliy qadriyatlarining eng asosiy ko'rsatkichi bo'lib, uning saqlanishi millatning o'zligini saqlashga xizmat qiladi. Sun'iy intellekt asosida yaratilgan til o'rgatish dasturlari, tarjimonlar, nutq tanib olish tizimlari ona tilining rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Bu texnologiyalar yordamida tilni o'rganish jarayoni interaktiv va qiziqarli bo'lib, yosh avlodni ona tiliga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi tilni qayta ishlash tizimlari yordamida milliy tilni avtomatik ravishda to'g'rilash, yangilash va rivojlantirish imkoniyatlari yaratilmoqda. Madaniy an'analar va urf-odatlarini saqlashda ham sun'iy intellektning o'rnini katta. Masalan, xalq og'zaki ijodini, qo'shiqlarini, raqslarini, bayram marosimlarini raqamli shaklda saqlash va tahlil qilish mumkin. Bu jarayon milliy madaniyatning boyligini saqlab qolish va uni keng jamoatchilikka yetkazishda samarali vosita hisoblanadi. Sun'iy intellekt yordamida madaniy tadbirlarni virtual muhitda tashkil etish, yoshlarni milliy qadriyatlar bilan tanishtirish imkoniyati oshmoqda. Shu tariqa, an'anaviy madaniyat yangi texnologiyalar yordamida yanada kengroq auditoriyaga yetkaziladi. Sun'iy intellekt milliy qadriyatlarni saqlashda ta'lim tizimida ham muhim rol o'ynaydi. Milliy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishning eng samarali yo'li bu ta'limdir. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida milliy madaniyat, tarix, til va urf-odatlarini o'rgatishga mo'ljallangan interaktiv darsliklar, o'quv dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bu dasturlar yordamida ta'lim jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo'ladi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan testlar va baholash tizimlari o'quvchilarning bilim darajasini aniq va tezkor baholash imkonini beradi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Sun'iy intellektning milliy qadriyatlarga ta'siri faqat ijobiy jihatlarga ega emas. Texnologiyaning noto'g'ri qo'llanilishi madaniy stereotiplarni buzish, noto'g'ri axborot tarqatish, milliy qadriyatlarni pastga tushirish kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Globalizatsiya jarayonida xorijiy madaniyat elementlarining keng tarqalishi milliy qadriyatlarining sustlashishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, sun'iy intellektni rivojlantirishda axloqiy va madaniy

meyorlarni hisobga olish, milliy qadriyatlarni himoya qilish uchun maxsus mexanizmlar yaratish zarur. Davlat siyosati milliy qadriyatlarni saqlashda sun'iy intellektning samarali qo'llanilishida muhim ahamiyatga ega. Davlat tomonidan sun'iy intellekt texnologiyalarini milliy madaniyatni asrab-avaylash, tilni rivojlantirish, tarixiy merosni saqlash maqsadida qo'llashga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Shu bilan birga, sun'iy intellekt sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, milliy qadriyatlar asosida axloqiy kodekslar ishlab chiqish zarur. Bu esa texnologiyaning ijtimoiy va ma'naviy sohalariga salbiy ta'sirini kamaytirishga yordam beradi. Sun'iy intellektning madaniy merosni saqlashdagi imkoniyatlari kengayib borar ekan, uning inson hayotidagi o'rnini ham chuqur anglash zarur. Sun'iy intellekt insonning ijodiy salohiyatini oshirish, madaniy boyliklarni yangicha shakllarda ifodalash imkonini beradi. Masalan, Sun'iy intellekt yordamida yangi san'at asarlarini yaratish, milliy motivlarga asoslangan virtual muhitlarni tashkil etish mumkin. Bu esa milliy madaniyatning zamonaviy shakllarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlarni saqlashda sun'iy intellektning yana bir muhim yo'nalishi – axborot xavfsizligi va madaniy kontentni himoya qilishdir. Internet va raqamli platformalarda madaniy kontentning noqonuniy nusxalanishi, buzilishi milliy qadriyatlarning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan xavfsizlik tizimlari madaniy merosni himoya qilishda samarali vosita hisoblanadi. Bu texnologiyalar yordamida madaniy kontentni monitoring qilish, noqonuniy tarqatishni aniqlash va oldini olish mumkin. Sun'iy intellekt milliy qadriyatlarni saqlashda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Turli mamlakatlarning madaniy merosini raqamlashtirish, saqlash va targ'ib qilish bo'yicha tajriba almashish, birgalikda loyiha va dasturlar yaratish milliy qadriyatlarning global miqyosda tan olinishiga xizmat qiladi. Bu esa millatlarning o'zaro hurmat va do'stlik rishtalarini mustahkamlashga yordam beradi. Yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida

tarbiyalashda sun'iy intellektning roli katta. Yoshlar zamonaviy texnologiyalar bilan birga o'sib kelayotganligi sababli, ularni milliy madaniyatga qiziqirish uchun sun'iy intellekt asosidagi innovatsion usullarni qo'llash zarur. Virtual haqiqat, interaktiv o'yinlar, raqamli muzeylar kabi vositalar yoshlarni milliy qadriyatlar bilan tanishtirishda samarali bo'lishi mumkin. Bu esa milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Sun'iy intellekt milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamlashtirish, tilni rivojlantirish, madaniy merosni himoya qilish, ta'lim tizimini takomillashtirish kabi yo'nalishlarda Sun'iy intellekt texnologiyalari milliy qadriyatlarning yangi avlodga yetkazilishida muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, texnologiyaning salbiy oqibatlarini oldini olish, axloqiy va madaniy meyorlarni hisobga olish zarur. Milliy qadriyatlarni saqlashda sun'iy intellektning roli yanada oshishi uchun davlat, jamiyat va ilm-fan sohalarida o'zaro hamkorlikda ishlashi lozim. Faqat shu yo'l bilan milliy qadriyatlar yangi texnologiyalar davrida ham saqlanib qoladi va rivojlanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt milliy qadriyatlarga ta'sir ko'rsatishda ikki tomonlama yuzaga ega. U madaniyatni saqlash, rivojlantirish va targ'ib qilishda yangi imkoniyatlar yaratadi, shu bilan birga, milliy o'zlikning zaiflashishi, madaniy noyoblikning yo'qolishi kabi xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va qo'llashda milliy qadriyatlarni himoya qilish, ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishda inson omilining o'zni saqlanib qolishi, texnologiyalar inson ijodining yordamchisi sifatida ishlatilishi muhimdir. Faqat shu yo'l bilan sun'iy intellektning milliy qadriyatlar sohasidagi salbiy ta'sirlarini kamaytirish va ijobiy imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Mamadaliyev N., Amirov J. "Sun'iy intellekt va uning inson hayotiga ta'siri" - "O'zbekiston Ta'lim NASHRI", Toshkent viloyati, 2023. - 250-b
2. Xudoyberdiyev A. "Sun'iy intellektni rivojlantirish – yangi O'zbekiston milliy taraqqiyotining asosi" - "Ilm-Fan Nashriyoti", Samarqand viloyati, 2022. - 148-b
3. Qodirov S. "Sun'iy intellekt va adabiy ta'lim" - "Ziyo Nashr", Farg'ona viloyati, 2024. -213-b
4. Rahmonov B. "Sun'iy intellektning afzalliklari va qo'llanilish sohalariga nazar" - "Innovatsion Nashriyot", Namangan viloyati, 2023. -198-b
5. Islomov D. "Sun'iy intellekt – inson tabiiy idrokining mahsuli" - "Adabiyot va Fan", Andijon viloyati, 2023. -147-b
6. Tursunov M. "Milliy qadriyatlar va zamonaviy texnologiyalar: sun'iy intellekt nuqtai nazaridan" - "Texnologiya Nashri", Buxoro viloyati, 2022.- 235-b
7. Karimova N. "Sun'iy intellekt va madaniy merosni saqlash" - "Madaniyat Nashriyoti", Qashqadaryo viloyati, 2023. -219-b
8. Yusupov O. "Sun'iy intellekt va milliy identifikatsiya muammolari" - "Ilmiy Nashr", Namangan viloyati, 2024. -265-b
9. Davronov A. "Texnologiya va milliy qadriyatlar: sun'iy intellektning ijtimoiy ta'siri" - "Toshkent Davlat Universiteti Nashriyoti", Toshkent shahri, 2023. 290-b
10. Normatov S. "Sun'iy intellekt va axloqiy qadriyatlar: zamonaviy yondashuvlar" - "Zamonaviy Ilm Nashriyoti", Navoiy viloyati, 2024. - 276-b



UDK: 159.9.072.42

Xalida SALAXIDINOVA,
Associate Professor of the Andijan Branch of Kokand University, PhD
E-mail: xolidasalaxidinova@mail.com

Rewiew d.p.s X.Ruhiyeva

THE FORMATION OF INTEREST IN DRAWING IN PRESCHOOL CHILDREN AS A DEVELOPMENTAL FACTOR

Annotation

This article comprehensively discusses the role and importance of developing an interest in fine arts in preschool children as a means of satisfying their aesthetic needs.

Key words: Preschool age, children, satisfaction of aesthetic needs, fine arts, visual activity, cognitive processes.

ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕРЕСА К РИСОВАНИЮ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ

Аннотация

В данной статье подробно раскрывается роль и значение формирования интереса к изобразительному искусству у детей дошкольного возраста как средства удовлетворения их эстетических потребностей.

Ключевые слова: Дошкольный возраст, дети, удовлетворение эстетических потребностей, изобразительное искусство, изобразительная деятельность, познавательные процессы.

THE FORMATION OF INTEREST IN DRAWING IN PRESCHOOL CHILDREN AS A DEVELOPMENTAL FACTOR

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ularning estetik ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida tasviriy san'atga qiziqishni rivojlantirishning o'rni va ahamiyati har tomonlama ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, bolalar, estetik ehtiyojlarni qondirish, tasviriy san'at, tasviriy faoliyat, kognitiv jarayonlar.

Introduction. The issue of implementing person-centered learning is gaining importance as one of the most important and pressing issues in contemporary psychology today[1]. As a result, the need to develop recommendations based on the process of studying and analyzing the formation, development, and improvement of preschool children's interest in the visual arts through the creation of mechanisms for satisfying their aesthetic needs arises. "It is impossible to bring a well-rounded person to adulthood without instilling a sense of beauty" [8], R. Tagore was absolutely right.

It is known that preschool age is the "golden time" for the development of various abilities of a child, including the period of aesthetic "hearing" of a person, which provides an opportunity to get acquainted with the treasures of the human soul.

Based on the analysis of the formation of interests in a child in preschool age, it is possible to educate a child capable of solving life tasks at different stages of childhood, creative, enterprising and independent. Preschool age is a period of rapid development of imagination, figurative forms of thinking, curiosity, active orientation, and cognitive processes - knowledge, skills, experience, and all personal qualities acquired in childhood provide the child with the opportunity to understand the world around him, and these qualities develop rapidly.

Purpose: We are studying the psychological characteristics of the formation of interest in fine arts in preschool children. In our opinion, one of the vital tasks facing our educators in this area should be directed to the following psychological processes:

- to form a conscious attitude to drawing in preschool children during classes (because the child is not just a draws,

the motives for drawing in a child are considered to be largely unintelligible);

-to form skills and abilities in the visual arts in children (the above goal can be achieved through a process of regular and gradually organized classes)[6];

-developing children's abilities and talents, making drawing a daily necessity for them, etc. (the attention paid by the educator motivates the children)[5].

The main factor that creates interest in the visual arts in preschool children is their aesthetic needs, and satisfying these needs is of great importance in the idea of satisfying them. The most necessary condition for the creative process in children is the presence of their interests, and it is precisely through the process of drawing that the foundation is created for the formation of such psychological qualities as attention, memory, thinking, imagination, and creative thinking.

In his book "Child Psychology and Experimental Pedagogy," psychologist E. Claparede discussed the methodological foundations of interest, motives, needs, the characteristics of children's thinking, and the laws of development, and gave a comprehensive definition of interest [4]. - Interest is a person's attitude to a certain thing or event that is valuable and pleasant for him. This directly embodies the inherent qualities of a person. Interest helps in the conscious, thorough, stable, and comprehensive assimilation of knowledge, in the formation of skills and abilities, in the development of personal abilities, intelligence, and intelligence, and in a more complete understanding of the world. Interest serves as a source of aspiration, activity, internal motivation, and the realization of needs in a person. Interest is expressed in a person's selective attitude to the

world, in making his own decisions, in self-control, in the obstacles that arise in his striving for a goal. Interests are personal and social, direct and indirect, broad and narrow, stable and stable. Interest includes inquisitiveness, curiosity, and knowledge.

As psychologists have found, cognitive interest is manifested in a child's desire to learn new things, to learn about the properties, characteristics of objects, and incomprehensible facts about real events, to study their essence, and to discover connections and relationships. It has been proven that the basis of cognitive interest is active mental activity. Under the influence of cognitive interest, a child is able to concentrate longer and more steadily, and demonstrates independence in solving intellectual or practical problems.

Research objectives. Among the problems of psychology today, one of the leading and intensively studied is the problem of talent and creativity. The ideas of purposeful development of a creative personality have been put forward by many scientists around the world. Creative process and psychological aspects of creativity B.G. Anan'ev, R. Arnheim, D.B. Bogoyavlensky, M.A. Vollach, J.S. Vygotsky, J. Gilford, V.N. Druzhinin, N. Kagan, A. Yu. Kazirev, A.N. Leontev, A.N. Luk, A. Maslow, S. Mednik, Ya. A. Panomarev, K. Rogers, I. M. Roza, S. L. Rubinstein, R. Stenberg, E. P. Torrens, V. S. It is covered in the works of Yurkevich et al [3].

However, children's interest in the visual arts develops on the basis of unexpressed motives, which are not derived from the external environment, but from the need for self-expression, or from external factors [8].

Interest as a motivation for visual activity Ye.A. Flerina, N.P. Sakulina, T.S. Komarova, T.G. Kazakova, G.G. The Grigorievs set the task of educating a well-rounded, creative person capable of innovative activity. And they come to the conclusion that in order to implement this task, first of all, it is necessary to form the necessary conditions for creativity in the child. It is emphasized that such methods and techniques should be used that help arouse children's interest in the activity, bring about a positive emotional attitude to such activity.

Methodology and research methods. Motives are at the center of interest. A motive is an impulse to act in response to a need, and a child's motivational sphere begins to develop at the beginning of preschool age. However, the behavior of a preschool child is still not much different from the behavior of older children: he acts mainly under the influence of situational emotions and desires based on various reasons [7].

From this it follows that it is necessary to create positive conditions for the formation of stable motives. To form motivation for visual activity, it is necessary, first of all, to arouse and strengthen interest in this activity. As educators and psychologists confirm, interest in drawing appears in children at an early age. The main thing is to support and encourage this interest, contribute to its strengthening, and not to extinguish children's curiosity, desire to learn new and interesting things.

-Based on the results of the conducted research, it can be concluded that the motives for fine arts in preschool boys are higher than in girls.

- Age characteristics are of particular importance in the development of fine arts motives in preschool children. That is, as children grow older, their motives for visual arts also develop.

- The lack of pedagogical and psychological knowledge among parents that could direct the child to visual activity serves as an "obstacle" to the successful implementation of any drawing activity in children.

- It has been proven that without systematic and sequential training, preschool children cannot develop motives for fine arts.

- Children who do not choose a place for drawing have higher motives for fine arts.

Visual activity begins at an early age and continues to develop in preschool children. N.P. Sakulina emphasizes that the first drawings appear when adults give the child paper and pencil, the same thing applies to modeling [7].

Results. If conditions are created in time for the manifestation and development of interest in drawing in children, it becomes a bright and fruitful means of self-expression and development of the child. Through the development of activity, the child himself grows, is formed and develops.

G.G. Grigoryeva emphasizes that the development of visual activity is closely related to the development of the general motivational-needs sphere of the child's personality, and the process of a child's mastery of drawing is the process of becoming a child as a subject of this activity. At the same time, subject-object relations are realized in the process of perceiving depicted objects and embodying them in images, as well as in the process of personalizing activity through subject-subject relations. This occurs on the basis of the development of activity motives [5].

From this we can conclude that with the correct interaction of adults with a child, cognitive interest arises. As psychologists have found, cognitive interest is manifested in the child's desire to learn new things, to learn incomprehensible things about the properties, properties of objects, real phenomena, to study their essence, to find connections and relationships between them. It has been proven that the basis of cognitive interest is active mental activity. Under the influence of cognitive interest, a child is able to concentrate attention longer and more stably, and demonstrates independence in solving intellectual or practical problems.

G.G. Grigoreva identified the stages of development of a child's interest in visual activity in the early stages:

1. The baby's clear interest in visual material and cognitive actions with it. This stage, according to the scientist, should, first of all, ensure the baby's freedom to move with various materials, maintain his interest in "experimenting" with these materials.

2. The child's interest in the actions of adults with materials. Interest in actions with materials, based on the need to imitate adults, communicate with them.

3. The child's interest in the trace left on paper and the emergence of an associative image. This stage includes previous work with children: acquaintance with others, observations, looking at pictures, objects.

4. The emergence of the first ideas, the child's independent decision to draw, mold, and pattern something.


5. The manifestation of children's interest in the objective world in the content of artistic activity [5].

By the end of the third year of life, the child shows a keen interest in visual activity, and understands that by drawing, modeling, and sculpting, he can embody any composition in himself [2]. With regular use of the material, he masters the elementary techniques of working with pencils, brushes, paints, clay and plasticine under the guidance of adults. The child's movements with the materials are very free, bold, confident and, most importantly, this process is joyful for the child. He can draw anything he wants, confidently and independently, with the belief that he can do it without any effort. It is necessary to support and develop this feeling in the child in every possible way, as this is an important condition for the formation of greater independence, and the child's ability to express himself creatively in the activity of drawing [3].

Discussion. Based on the interests of educators and parents, children naturally develop an interest in a certain type

of activity. The formation of interest also depends on the child's environment: these are, first of all, the conditions created by the educator in the group: the necessary material, introducing children to the visual arts, expanding the

opportunities for working in small groups based on conducting circle work, and organizing small groups, individual work with children, and independent artistic activity based on the child's desire to engage in this activity.



The formation of interest in the visual arts in preschool children serves their all-round development. A preschool child may not have a specific motive for visual activity; however, every child has a need for self-expression, a desire to influence others with their artistic image. Such a child evaluates the drawing as something he himself has drawn, and, having not actually drawn it, expects an appropriate attitude from adults. Preschool children do not really understand that adults are not satisfied with their drawing. For adults, their drawings may be very simple and funny, but for children this is generally not important. After all, he is very happy to draw, while others may not understand anything. The child embodies his feelings and thoughts through his drawing and expects appropriate sympathy.

The main goal of our scientific research was to find an answer to the question of what is the level of school readiness in children with a high interest in the visual arts or, conversely, in children with a low interest in the visual arts. The positive correlation between the methods showed that children with a high interest in the visual arts were also at an "ideal" level of school readiness. We can explain this process by the development of attention, memory, thinking, imagination, speech, creative thinking, and logical reasoning in children engaged in visual activities. The following can be called psychological preparation for school.

- ☐ motivation;
- ☐ intellectual (with);
- ☐ strong will;
- ☐ communicative.

These components are an important component of school readiness, which is important for the child's educational activity. External characteristics are associated with extrinsic motivation, for example, "I want to draw very beautifully." The child's intrinsic motivation is associated with the desire to learn, to learn.

Conclusions. Our observations show that if a child can draw beautifully, his self-confidence will be strengthened. When drawing, the influence on cognitive processes is significant, and in the process of drawing, the child develops the skills of focusing attention on an object. In the process of drawing, memory develops, drawing can develop thinking and imagination, and the child can develop morally.

Thus, we can see that by involving preschool children in visual activities, it is possible to increase their level of readiness for school, satisfy their aesthetic needs, and develop their creative thinking.

- Based on the results of the conducted research, it can be concluded that the motives for fine arts in preschool boys are higher than in girls.

- Age characteristics are of particular importance in the development of fine arts motives in preschool children. That is, as children grow older, their motives for visual arts also develop.

- The lack of pedagogical and psychological knowledge among parents that could direct the child to visual activity serves as an "obstacle" to the successful implementation of any drawing activity in children.

REFERENCES

1. Akramova F.A. Pedagogical psychology. Text of lectures. Tashkent 2005.
2. Ghaziev E.G. Psychology of ontogenesis. - T.: Publisher, 2010. - 360 p.
3. Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN PRESCHOOL CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(3), 438-442.
4. Haliljonovna, S. H. (2020). Psychological aspects of the formation of fine art motives in preschool children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(4), 169-173.
5. Салахидинова, Х. Х. (2019). Взаимосвязь поощрения и наказания в воспитании детей. Наука и образование сегодня, (11 (46)), 78-79.
6. Salakhidinova, K. (2024). Psychological Features of the Formation of Fine Arts Motives in Preschool Children. SPAST Reports, 1(1).
7. Salakhidinova, K. H. (2024). The importance of the social environment in the formation of motiv in visual arts in preschool children. active researcher, 1(2), 21-27.
8. Salahidinova, H. (2021, November). Motivation problem in preschool children. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 147-150).



Mukarram SAMANDAROVA,
Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: baxti_9400@gmail.ru

Professor O'. Tilavov taqrizi asosida

TEXNOGEN SIVILIZATSIYA SHAROITIDA JAVOBGARLIK ETIKASI: GANS YONAS KONSEPSIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada nemis-amerikalik faylasuf Gans Yonasning texnogen sivilizatsiya sharoitida axloqiy javobgarlik konsepsiyasi tahlil qilingan. Zamonaviy texnik-texnologik taraqqiyot sharoitida javobgarlik kategoriyasining falsafiy-axloqiy ahamiyati va uning bugungi kun axloqiy muammolarini hal qilishdagi roli ochib berilgan. Yonasning "javobgarlik prinsipi" ning nazariy asoslari hamda uning kelajak avlodlar oldidagi ma'naviy mas'uliyat tushunchasi yoritilgan. Maqolada shuningdek, olimlar va ilmiy faoliyatning javobgarligi masalasi muhokama qilingan. Muallif Yonasning «xavf evristikasi» va «tabiiy holizm» konsepsiyalarining zamonaviy bioetika va ekologik etika sohalaridagi ahamiyatini ko'rsatib bergan.

Kalit so'zlar: javobgarlik etikasi, Gans Yonas, texnogen sivilizatsiya, javobgarlik prinsipi, xavf evristikasi, tabiiy holizm, kelajak avlodlar, ilmiy javobgarlik, bioetika, ekologik etika.

ЭТИКА ОТВЕТСТВЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОГЕННОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ ГАНСА ЙОНАСА

Аннотация

В данной статье анализируется концепция нравственной ответственности немецко-американского философа Ганса Йонаса в условиях техногенной цивилизации. Раскрывается философско-этическое значение категории ответственности в условиях современного технико-технологического прогресса и ее роль в решении нравственных проблем сегодняшнего дня. Освещаются теоретические основы «принципа ответственности» Йонаса и его понимание моральной ответственности перед будущими поколениями. В статье также обсуждается вопрос ответственности ученых и научной деятельности. Автор показывает значимость концепций «эвристики страха» и «природного холизма» Йонаса для современных областей биоэтики и экологической этики.

Ключевые слова: этика ответственности, Ганс Йонас, техногенная цивилизация, принцип ответственности, эвристика страха, природный холизм, будущие поколения, научная ответственность, биоэтика, экологическая этика.

ETHICS OF RESPONSIBILITY IN THE CONDITIONS OF TECHNOGENIC CIVILIZATION OF HANS JONAS

Annotation

This article analyzes the concept of moral responsibility of the German-American philosopher Hans Jonas in the conditions of technogenic civilization. The philosophical and ethical significance of the category of responsibility in the context of modern technical and technological progress and its role in solving moral problems of today are revealed. The theoretical foundations of Jonas's «principle of responsibility» and his understanding of moral responsibility to future generations are highlighted. The article also discusses the responsibility of scientists and scientific activities. The author shows the significance of Jonas's concepts of «heuristics of fear» and «natural holism» for modern fields of bioethics and environmental ethics.

Key words: ethics of responsibility, Hans Jonas, technogenic civilization, principle of responsibility, heuristics of fear, natural holism, future generations, scientific responsibility, bioethics, environmental ethics.

Kirish. XX asming ikkinchi yarmidan boshlab insoniyatning texnogen sivilizatsiya sharoitidagi faoliyati natijalari jamiyat oldiga muhim axloqiy muammolarni qo'ydi. Fan-texnika taraqqiyoti, biotexnologiyalar, genetik muhandislik va boshqa sohalaridagi yutuqlar inson hayoti va tabiat bilan bog'liq jarayonlarni tubdan o'zgartirib yuborish imkoniyatlarini yaratdi. Ayni paytda bu kabi imkoniyatlar nafaqat qulaylik va farovonlik, balki tabiat va insoniyat hayotiga nisbatan jiddiy xavflarni ham keltirib chiqardi. Shu bois ham zamonaviy faylasuflar oldida texnogen sivilizatsiya sharoitida axloqiy muammolarni hal qilish, jumladan, javobgarlik masalasini qayta ko'rib chiqish zarurati paydo bo'ldi.

Texnogen sivilizatsiya sharoitida axloqiy javobgarlik masalasini chuqur tahlil qilgan mutafakkirlardan biri nemis-amerikalik faylasuf Gans Yonas (1903-1993) bo'ldi. Uning 1979 yilda nashr etilgan «Javobgarlik prinsipi. Texnogen sivilizatsiya sharoitida axloq tajribasi» nomli asari zamonaviy etika ilmda muhim voqea bo'ldi. Bu asarda Yonas an'anaviy etikadan farqli ravishda yangi - javobgarlik etikasini shakllantirish zarurligini asoslab berdi.

Gans Yonasning nazariy merosini o'rganish va uning javobgarlik etikasi konsepsiyasini tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy texnologiyalar va globallashuv sharoitida insoniyat oldida turgan axloqiy muammolarni hal qilishda Yonas taklif qilgan yondashuvlar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Gans Yonasning javobgarlik etikasi konsepsiyasi ko'plab faylasuflarning e'tiborini qozongan va bu borada qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili quyidagi olimlarning fikrlarini o'z ichiga oladi.

P.A. Gadzikurbanova Gans Yonasning javobgarlik etikasini texnogen sivilizatsiya kontekstida tahlil qilar ekan, shunday yozadi: «Yonasning texnogen sivilizatsiya sharoitida axloqiy javobgarlik konsepsiyasi an'anaviy etikadan farq qiluvchi yangi yondashuvni taklif etadi. Uning fikricha, zamonaviy texnologik taraqqiyot insoniyat oldida mutlaqo yangi axloqiy muammolarni qo'yadi, bu esa yangi axloqiy prinsiplarni shakllantirishni talab qiladi» [1].

Aristotelning axloqiy qarashlarini tahlil qilgan F.X. Kessidi esa javobgarlik kategoriyasining tarixiy rivojlanishiga e'tibor qaratadi: «Aristotelning axloqiy nazariyasida javobgarlik masalasi fazilat va iroda erkinligi bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Inson o'z xatti-harakatlari uchun javobgar bo'lishi uchun o'z ixtiyori bilan harakat qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak» [2].

O'z navbatida, X. Arendt inson faoliyatining zamonaviy sharoitlardagi o'zgarishlarini tahlil qilar ekan, quyidagilarni ta'kidlaydi: «Inson faoliyatining miqyosi va ta'sir kuchi o'zgarishi bilan javobgarlik doirasi ham kengayadi. Bugungi kunda inson faoliyati nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlarga ham ta'sir ko'rsatadi» [3].

E. Agassi fan va texnikaning axloqiy o'lchovini tahlil qilib, shunday xulosaga keladi: «Ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarining tabiat va inson hayotiga ta'siri ortib borishi bilan olimlar va ilmiy jamiyatning javobgarligi masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda» [4].

Tarixiy voqealar yosh o'quvshilar o'zlashtira oladigan axloqiy saboqlarning boy manbasini beradi. Maxatma Gandi, Martin Lyuter King, Nelson Mandela kabi tarixiy shaxslarni o'rganish talabalarga qat'iyatlik, zo'ravonliksiz qarshilik ko'rsatish va adolatga intilish haqida o'rgatadi. G'arb olimlari bu tarixiy shaxslarning axloqiy tarbiyadagi ahamiyatini tez-tez ta'kidlab kelishgan. Masalan, amerikalik faylasuf Marta Nussbaum o'zining o'z kitoblarida tarixiy ta'lim yempatiya va axloqiy fikrlashni rivojlantiradi, deb ta'kidlaydi. U har tomonlama axloqiy kompasni rivojlantirish ushuni talabalar turli xil tarixiy istiqbollarga dush kelishlari kerakligini ta'kidlaydi. Fuqarolik huquqlari harakati kabi harakatlarni o'rganish orqali talabalar axloqiy yetakshilik, ijtimoiy adolat va zulmga qarshi turishning ahamiyati haqida bilib olishadi. Xuddi shunday, tarixshi Xovard Zinn o'zining "Amerika Qo'shma Shtatlari xalqlari tarixi" asarida marginallashgan jamoalarning kurashlarini yoritib beruvshi tarixiy yondashuvni yoqlaydi. Zinning fikrish, tarixni turli nuqtai nazardan tushunish talabalarda adolat va axloqiy mas'uliyatni shuqurroq his qilish imkonini beradi. Uning ishi tarix nafaqat o'tmish yozuvi, balki axloqiy ong va tanqidiy ongni shakllantirish vositasi yekanligini ko'rsatadi.

Tarixiy falsafaning axloqiy taraqqiyotga ta'siri

Tarix falsafasi talabalarning axloqiy rivojlanishini bir nesha jihatdan shakllantirishda muhim rol o'ynaydi:

Axloqiy mulohazalarni rag'batlantirish: Tarixni o'rganish orqali talabalar tarixiy shaxslar dush keladigan axloqiy dilemmalarga dush kelishadi. Bu ularni urush, mustamlakashilik va inson huquqlari kabi mavzularda fikr yuritishga undaydi, ularning axloqiy fikrlashlarini rivojlantirishga yordam beradi. undan tashqari Suqrotning o'z-o'zini tekshirish va fazilatga intilishni ta'kidladi. Uning so'roq qilish usuli o'quvshilarga axloqiy dilemmalarni tahlil qilish va shaxsiy yaxshilik va noto'g'rilik hissini rivojlantirishga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Tarixiy tahlil talabalardan manbalarni baholashni, bir neshta nuqtai nazarlarni ko'rib shiqishni va harakatlarning oqibatlarini baholashni talab qiladi. Bu jarayon ularning zamonaviy jamiyatdagi axloqiy muammolar haqida tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Yempatiyani rivojlantirish: Turli tarixiy sharoitlarda odamlarning kurashlari va tajribalarini tushunish yempatiyani rivojlantiradi. Nussbaum kabi g'arb olimlari rahm-shafqat va axloqiy sezgirlikni rivojlantirishda tarixiy rivoyatlarning muhimligini ta'kidlaydilar.

Fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish: Tarixni bilish fuqarolik burshi tuyg'usini, jamiyat hayotida faol ishtirok yetish muhimligini singdiradi. Dyui kabi faylasuflarning ta'kidlashisha,

tarixiy ta'lim talabalarni o'z jamoalariga ijobiy hissa qo'shadigan mas'uliyatli fuqarolar bo'lishga tayyorlashi kerak.

Axloqiy shakllantirishda ta'limning roli

Tarixiy falsafani o'quv dasturiga kiritish axloqiy pok o'quvshilarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga yega. Maktablar va universitetlar o'quvshilarga falsafiy tamoyillarni real hayotda qo'llashda yordam berish ushuni axloqiy munozaralar, falsafiy bahslar va tarixdan amaliy tadqiqotlarni o'z ishiga olishi kerak.

Tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish: Tarix falsafasi o'quvshilarni tanqidiy fikrlashga va o'z harakatlarining axloqiy jihatlarini baholashga o'rgatadi.

Axloqiy qarorlar qabul qilishga o'rgatish: O'tmish faylasuflaridan saboq olish orqali talabalar axloqiy jihatdan to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradilar.

Xarakterni rivojlantirishga ko'maklashish: falsafiy axloq qoidalari bilan tanishish o'quvshilarning shaxsiyatini shakllantiradi, halollik, yempatiya va ijtimoiy mas'uliyatni rag'batlantiradi.

Qiyinshiliklar va mulohazalar

Axloqiy taraqqiyot ushuni tarixiy falsafani o'rgatish o'zining ahamiyatiga qaramay, muayyan muammolarga dush keladi. Asosiy masalalardan biri tarixiy rivoyatlarning noxolis yoki tanlab olish imkoniyatidir. Mishel Fuko kabi g'arb olimlari tarixni ko'pinsha hokimiyatdagi tomonidan yozilishini tanqid qilib, hukmron mafkuralarga mos keladigan axloqiy saboqlarni shakllantirdilar. Buni hal qilish ushuni o'qituvshilar tarixiy ta'lim turli nuqtai nazarlar va tanqidiy munozaralarni o'z ishiga olishini ta'minlashi kerak. Yana bir qiyinshilik - talabalarning faolligi. Ko'pgina yosh talabalar tarixni mavhum yoki shaxsiy tajribalaridan uzilgan deb bilishlari mumkin. Bunga qarshi turish ushuni o'qituvshilar tarixiy darslarni o'zaro bog'lash va ta'sirsharoq qilish ushuni munozaralar, rolli o'yinlar va multimedia resurslari kabi interfaol o'qitish usullarini qo'llashlari mumkin.

Xulosa. Yoshlarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda tarixiy falsafa muhim rol o'ynaydi. Tarixiy hikoyalar va falsafiy mulohazalar bilan shug'ullanib, o'quvshilarda axloqiy ong, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, ijtimoiy mas'uliyat hissi rivojlanadi. Kant, Hegel, Dyui, Nussbaum va Zinn kabi g'arb olimlarining hissalar tarix va axloq o'rtasidagi shuqur bog'liqlikni ko'rsatadi. Muammolar mavjud bo'lsa-da, samarali tarix ta'limi jamiyatda axloqiy va mas'uliyatli shaxslarni tarbiyalash ushuni kushli vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Talabalarning axloqiy rivojlanishida tarix falsafasi ajralmas hisoblanadi. O'tmishdagi axloqiy tamoyillarni o'rganish orqali talabalar o'zlarining xatti-harakatlari va qarorlariga ta'sir qiluvshi kushli axloqiy asosni rivojlantiradilar. Ta'lim muassasalari axloqiy jihatdan mas'uliyatli va axloqiy ongli shaxslarning kamolotini ta'minlash ushuni tarixiy falsafaga ustuvor ahamiyat berishlari kerak. Falsafiy ta'limotlarning ta'limga integratsiyalashuvi adolatli va yezgu jamiyat qurish yo'lidagi muhim qadamdir.

ADABIYOTLAR

1. Зиммель Г. Проблемы философии истории //Философия и общество. – 1997. – №. 1. – С. 244-253.
2. Kant, I. "2010. Idea of a universal history with a cosmopolitan purpose of view." The Cosmopolitanism Reader. Polity Press, Cambridge (1784): 17-26.
3. Lemon M. C. Hegel's Philosophy of History //Philosophy of History. – Routledge, 2003. – С. 217-253.
4. Dewey J. The Later Works of John Dewey, Volume 12, 1925-1953: 1938, Logic: The Theory of Inquiry. – Siu Press, 2008. – T. 12.
5. Waks, Leonard J. "Cosmopolitan education and its discontents." Philosophy of Education Archive (2010): 253-262.
6. Zinn, Howard. "A People's History of the United States. 1980." Nord Amerikakunnskap. Noram 2321.4321 (1995): 31-54.
7. Ikramovna S. N. Talabalarda kasbiy refleksiya va tanqidiy fikrlash: yuksalishning asosiy omillari //Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlar. – 2025. – T. 7. – №. 76. – С. 117-121.
8. Пискунова Е. В. Социальное партнерство: гражданская ответственность и возможность развития //Universum: Вестник герценовского университета. – 2011. – №. 2. – С. 30-34.
9. Foucault, Michel. Power: the essential works of Michel Foucault 1954-1984. Penguin UK, 2019.



UDK: 82-94(575.1)

Fazliddin TOJIYEV,
Toshkent davlat transport universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: Todjiyev95@gmail.com
ORCID: 0009-0001-0088-8316

Falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent S. Sultanov taqrizi asosida

SO'FI OLLOYOR HAYOTIGA OID MANBALARNING TOPONOMIK TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada Tasavvuf ta'limotining XVII-XVIII asrdagi yirik namoyandalardan biri bo'lgan So'fi Olloyor tarjimai holi, hayot yo'li toponomik jihatidan o'rganildi. Undan tashqari, oila a'zolarining ijtimoiy holati, bugungi kundaki avlodlari, ustozlari va uning tasavvuf yo'liga qadam qo'yishi haqida ma'lumotlar berilgan. Dastavval, ushbu maqolada, tasavvufning mazmun mohiyati, paydo bo'lishi, rivojlanish bosqich nazaryalari, tasavvufning alohida ta'limot sifatida ajralib chiqishi hamda Markaziy Osiyoda tasavvufning XII asrgacha ham mavjudligi bo'yicha qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. Maqolada So'fi Olloyor ilmiy me'rosini o'rgangan hamda izlanish olib borgan olimlarning ma'lumotlari to'plandi va tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, zohidlik, So'fi Olloyor, toponomiya, tariqat, Sabot ul-ojizin, Tazkirayi Abdulmatlab Fahmiy.

TOPONYMIC ANALYSIS OF SOURCES RELATED TO THE LIFE OF SUFI OLLOYOR

Abstract. The article examines the biography and life path of Sufi Olloyor, one of the prominent representatives of Sufi teachings in the 17th-18th centuries, from a toponymic perspective. Additionally, it provides information on the social status of his family members, their present-day descendants, his teachers, and his entry into the path of Sufism. The article begins with a brief overview of the essence of Sufism, its emergence, theories of developmental stages, the establishment of Sufism as a distinct doctrine, and its presence in Central Asia until the 12th century. The study also compiles and analyzes information from scholars who have studied and researched Sufi Olloyor's scholarly heritage.

Key words: Sufism, asceticism, Sufi Olloyor, toponymy, tariqat, Sabot ul-ojizin, "Tazkirayi Abdulmatlab Fahmiy".

ТОПОНИМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИСТОЧНИКОВ О ЖИЗНИ СУФИ ОЛЛОЯРА

Аннотация

В статье с топонимической точки зрения исследованы биография и жизненный путь Суфи Аллаяра, одного из крупнейших представителей суфийского учения XVII-XVIII веков. Кроме того, представлена информация о социальном положении членов его семьи, современных потомках, наставниках и вступлении Суфи Аллаяра на путь суфизма. Прежде всего, в этой статье приводится краткая информация о сущности суфизма, его возникновении, теориях этапов развития, выделении суфизма как отдельного учения и его существовании в Центральной Азии до XII века. В статье собраны и проанализированы данные ученых, изучавших научное наследие Суфи Аллаяра и проводивших исследования в этой области.

Ключевые слова: Тасаввuf, аскетизм, Суфи Аллаяр, топонимия, тарикат, Сабот уль-аджизин, "Тазкирай Абдулматлаб Фахми".

Kirish. Tasavvuf bu – nafs tarbiyasi, Alloh va bandalari o'rtasini ruhiy jihatdan bog'lovchi vositadir. Dastlab u zohidlik ko'rinishida yuzaga keldi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v) davrlaridanoq tarkidunyochilik, zohidlik yo'lini tutgan Abu Dardo, Abu Zarr, Huzayfa (vafotlari VII asrning ikkinchi yarmi) kabi sahobalarlarni ko'rishimiz mumkin.

Islomda hadisshunoslik, qur'onshunoslik, fiqh ta'limotining alohida ajralgani kabi, asketizmning alohida shakllanishi ham VIII asrning o'rtalari va IX asrning boshlariga tegishlidir. Islomda fiqh ilmi musulmonlarning zohiriy xatti harakatini belgilab beruvchi ta'limot bo'lsa, tasavvuf ta'limoti esa, musulmonlarning botiniy xatti harakatlarini belgilab beruvchi ta'limotga aylandi. Markaziy Osiyoga XII asrda tasavvufning "Xojagon-naqshbandiya" tariqati kirib keldi. Mahalliy tasavvufshunos olimlarning ko'pchiligi ushbu davrdan tasavvufning kirib kelganligini aytib o'tishgan. Ammo manbashunos olim Komiljon Rahimov o'z ilmiy izlanishlarida XII asrgacha ham Markaziy Osiyoda tasavvuf maktabi shakllanganligi haqida quyidagi ma'lumotlarni berib o'tgan: "Hakim Termiziy asarlaridan tashqari yana sakkiz so'fiy muallif tomonidan tasavvufga bag'ishlangan to'qqiz asar - Abdulloh ibn Muborakning (118/736 - 181/797) "Kitob az-zuhd", Bishr Marvaziyning

(vaf. 227/841) "Kitob at-tasavvuf", Varroq Termiziyning (vaf. 280/893) "Al-Olim va-l-mutaallim", Ali G'ashidiyning (vaf. 320/933) "Ar-Radd ala ahl al-havo", Ahmad Nasafiyning (vaf. 331/943) "Al-Lu'luyotu fi-z-zuhd", Kalobody Buxoriyning (305/917 - 385/995) "At-Ta'arruf li-mazhab ahl at-tasavvuf", Tohir Buxoriyning (vaf. 406/1016) "Az-Zuhd va-t-tazkir" va "Uyun ul-majo-lis va surur ud-doris" hamda Mustamliy Buxoriyning (vaf. 434/1043) "Sharh at-Ta'arruf li-mazhab at-tasavvuf" asarlari yaratilganligi to'g'risida ma'lumot berilgan. Ushbu asarlar VIII - XI asrlarda boshqa so'fiylik maktablaridan ajralib turadigan mustaqil Markaziy Osiyo so'fiylik maktabi mavjudligini va boshqa ayrim tasavvuf tariqatlaridan farqli ravishda, ilmiy-nazariy jihatga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda So'fi Olloyor nomi Sharq-u G'arbda birdek mashhur. Manbalarda So'fi Olloyor haqida yozgan bir muallif "Abu Hanifayi vaqt ast" ("O'z zamonasining Abu Hanifasi, ya'ni Imomi A'zami"), – deb baholagan.

So'fi Olloyorning tavallud yili hamda joyi haqida turli xil ma'lumotlar keltirilgan. Olimning hayotini o'rganishda toponomikaning ahamiyati yuqoriligin quyidagi manbalardan aniqlab olishimiz mumkin. Bekmurodovning

“Kattaqo'rg'onning qisqacha tarixi” kitobida olimni 1644-yil dunyoga kelgan deb aytilgan. Bu ma'lumot I.Suvonqulovning kitobida ham o'z tasdiqini topgan. “XVII asr tasavvuf ilmining bilimdoni va shoir So'fi Olloyor (1644-1724) Samarqandning Kattaqo'rg'on bекligiga qarashli Minglar qishlog'ida tavallud topgan”. Ammo bu fikrga qarshi o'laroq Malik Elmurodovning “Kattaqo'rg'on tarixi: kecha va bugun” kitobida olimni Minglar qishlog'ida emas, balki, O'tarchi qishlog'ida tug'ilgan deb ma'lumot keltiradi. U Kattaqo'rg'on shahri ichidan o'qib o'tuvchi Narxipay daryosi qirg'og'idagi Saripultepa qishlog'iga tutash joyda joylashgan. Olimning Minglar qishlog'ida tug'ilganligi haqida Samarqandda chop etilgan “Zafarnoma” gazetasida shunday ma'lumot keltiriladi: Maqola nomi “U minglarda tug'ilgan” deb nomlangan. Ammo I.Suvonqulovning fikriga ko'ra, bu maqola olimning nomini abadiylashtirish masalasi uchun muhim ro'l o'ynagan.

So'fi Olloyorning minglar qishlog'ida tug'ilganligi haqidagi xabar Salohiddin Olimning maqolasida ham o'z ifodasini topgan. Unda shunday keltiriladi: “Mazkur tabarruk kitob (Sobotul o'jizin) muallifi fozil shoir So'fi Allohoydur. Qabilasi – Samarqand atrofida mingiya degan ziroatvorliklari (dehqonchilik) bilan mashhur o'zbek qabilasiga mansubdur. Valodati – mingiyalar jamoasi tobe So'fi guzarida XI asr xijriyning sulsi avvallarida, ya'ni hijriy 1133 (milodiy 1756) - yilda dunyoga kelmushdur. Bobosi – Temur ismli solih, taqvodor bir zotdur. Bu kishi o'zbekzoda o'zbek, turk o'g'li, turk ekanligi ismidan ham op-ochiq bilinib turibdur. Ammo “Murod ul-orifin” kitobida otasining ismini Ollohquli deb yozilmishdur. Tahsili - ibtidoiy maktabni ota-onasi qoshida tamomlab, Buxoroga o'qig'oni kelganda, Yoshi o'ng'a to'lg'on erdi. Buxoroda zamonig'a ko'ra ulum-funun kasb etdi. O'n besh yil turli ilmlar bilan mashg'ul bo'ldi. Nihoyat tahsildan forig' bo'lg'ondan so'ngra, Buxoro shahrining bojxonasiga ma'mur bo'lib tayinlandi”. Ammo bu maqolada keltirilgan olimning 1756-yilda vafot etgan degan ma'lumoti haqiqatdan ancha yiroqdir. Chunki, hijriy 1133-yilni milodiy yilga aylantirilganda, 1721-yil kelib chiqadi. O'zFA Sharq qo'lyozmalari to'plamida “Tazkirayi faxmiy” asari haqida fikr yuritilgan. Asarda “So'fi Ollohyor Samarqandiy hijriy 1136 (milodiy 1723) –yil vafot etgan”. 2005-yilda bo'lib o'tgan xalqaro anjumanda olimlar So'fi Olloyorning tug'ilgan va vafoti haqida ko'plab oydinliklar kiritilib, 1663-yil tavalludi, 1721-yilni vafot etgan kuni deb e'tirof etishgan.

XX asrgacha yozilgan ayrim tazkiralarda “So'fi Olloyor Miyonkol vohasidandir” degan ta'kidlar mavjud. Tarixdan Miyonkol vohasiga Samarqand va Buxoro oralig'idagi, aniqrog'i, bugungi Karmana, Narpay, Kattaqo'rg'on va Ishtixon tumanlarining Zarafshon atrofida joylashgan erlari kirganligi ma'lum. Keyingi yillarda olimlar Abdumutallib Faxmiyning “Tazkirayi Abdulmatlab Fahmiy” asariga tayanib, shoiming biografiyasini quyidagicha belgilashdi: “Sofi Olloyor Samarqandiy shayxi dilafro'z So'fi Navro'zning taniqli xalifalaridan. Hol ibtidosida sipoh bo'lgan. Otasini Olloquli va inisini Farhod otaliq deytilar. Ular o'zbeklarning Samarqand va Buxoro Miyonkolidagi xitoyi qabilasining boshliqlaridan bo'lganlar. Farhodbiy Abulfayzxon davrida Samarqandda hokim va amirlik mansablariga erishgan. So'fi Olloyor shayx Navro'zga irodad va inobat qilgandan so'ng unga zohir va botin ilmlari eshiklari ochildi. Xosu avomga maqbul bo'ldi. Olimlar va amirlar uning suhbatiga oshiqdilar. Miyonkoldan Hisorning Dehinav tomoniga ketdi. Mavlono Zohid Vaxshivoriyning fayzosorli mozoridan yuqoriroqdagi Vaxshivor qishlog'iga bordi. U erda xonaqoh va uy qurdi. Uning qutlug' qadamidan o'sha mintaqani ilonlar tark etdilar. O'sha yerda 1136/1724-yilda dunyodan o'tdi”. Inoyatullo Suvonqulovning ma'lumotiga ko'ra Abdumutallib Faxmiyning “Tazkirayi Abdulmatlab Fahmiy” asari O'zRFA SHI qo'lyozmalar fondidagi 2331–1 inventar raqami ostida saqlanadi.

So'fi Olloyorning Farhod Otaliq va Ollonazarbiy ismli akalari bo'lgan. Farhod otaliq Buxoro xonligida Buxoro amirlaridan biri bo'lgan, keyinchalik Samarqand va Miyonkol hokimligi vazifalarida ishlab, Kattaqo'rg'on shahrini qurilishi va nomlanishi So'fi Olloyor va akalarning nomi bilan bog'liq. Farhod otaliq Shahrisabz va Xorazm hokimlari bilan birgalikda xonlikga qarshi bosh ko'targanda, xon ularni bostirib zindonband qiladi. Farhod otaliq do'stlari ko'magida zindondan ozod etilib, Hindiston tomonga qochirilib so'ng Haj safariga chiqib, Iskandariyada vafot etib qabri o'sha yerda degan rivoyatlar mavjud.

Ikkinchi akalari Ollonazarbiy ham o'qimishli kishi bo'lib, o'z davrining amaldorlaridan biri bo'lgan.

So'fi Olloyor hayotining keyingi yillarini (1710-1721) hozirgi Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi (hozirgi Oltinsoy tumani) Katta Vaxshivor qishlog'ida o'tkazib 90 yoshlarida shu joyda vafot etgan va dafn etilgan. Qabrlari Katta Vaxshivorda joylashgan.

Olim yashagan Katta Vaxshivor qishlog'ining mashhurligi So'fi Olloyor hazratlarining nomi bilan bogliq. So'fi Olloyor bu qishloqni obodonlashtirib, Qorabuloq nomi bilan ataluvchi buloqdan chiqqan suvni qishloqqa olib kelib, 1713 - yilda xalq hashari usulida masjid qurib ishga tushuradi. Bu masjid bugungi kunda ham xalqqa xizmat qilmoqda.

Tahlil va natijalar. Olimlarning ta'kidlashlaricha, Sayyid Muhammad ibn Oxund Qozi Kamol tomonidan yozilgan “Tuhfat ul-ahbob” asarida 1696-yillardan boshlab So'fi Olloyor haqidagi ma'lumotlar tarixiy manbalarga kirib kela boshlaydi. Ularga asosan, So'fi Olloyor Hoji Muhammad Habibulloh va Xalifa Navro'z Keshiy xizmatiga kelib, tariqat yo'liga kiradi. U shayx qo'lida 12 yil tahsil oladi. Sharq mamlakatlarida mashhur olim, karomatlar ko'rsataoluvchi valiy darajasiga ko'tariladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan shu holat aniq bo'ladi, dastlab, olim shayxlar qishlog'ida ta'lim olib, so'ngra 12 yoshida Buxoroga borib Jo'ybor madrasida o'qishni davom ettiradi. So'fi Olloyor o'zining iqtidori, qobiliyati, donoligi tufayli madrasani imtiyozli tugatib, Buxoro xonining e'tiboriga tushadi, maqto'v yorlig'i bilan mukofotlanib, 25 yoshida xonlikning bojxona-soliq to'raligi lavozimiga tayinlanadi. Bu lavozimda halol va fidoiylik bilan ishlab xonlik xazinasini boyitishga munosib hissa qo'shadi. Xonning maqto'v va mukofotlariga sazovor bo'ladi, lekin oddiy fuqarolarning qiyinchiliklarini, xonlikdagi ba'zi mansab ahlining nohaqliklarini ko'rib o'z vazifasidan voz kechib, umrbod taqvo yo'lini tutishga ahd qiladi. Nihoyat tasavvuf yo'lini tanlab, zuxdu ibodatga berilib ketadi. Usha davrning ulug' olimi, shayx Habibulloh qo'lida 12 yil tahsil olib, tariqat sirlarini o'rganib, o'zi ham shayxlik (So'fiylik) darajasiga yetadi. Xalqqa shariat va tasavvuf ta'limotini tushuntirish maqsadida Tojikiston va Uzbekistonning shahar va qishloqlariga (Panjikent, Urgut, Shahrisabz, G'uzor, Dehqonobod, Boysun, Sherobod, Qabadiyon, Qorategin, Hisor, Denov va boshqa joylarga) safar qilib, u yerlarda bir necha yillar yashab tolibi ilmu irfonlarga shariat va tariqat ahkomlaridan ta'lim beradi.

So'fi Olloyor keyingi “Maxzanul mute'in”, “Murodul orifin”, “Sabotul o'jizin” kabi asarlarini 1700 – 1724 -yillar oralig'ida yozgan. Shu davrlarda Kattaqo'rg'on, Samarqand, Buxoro, Cho'nqaymish, Kesh, Nasaf, Qoratikan kabi shahar va mavzelarda qisqa muddat istiqomat qilgan. Umrining oxirgi damlarini Vaxshivor qishlog'ida kechirib, 1724-yili shu qishloqda olamdan o'tgan.

Tojiddin Elchirul tomonidan “Sabot ul-ojizin”ga yozilgan sharhida quyidagicha keltiriladi: “Aytmishlar, Olloyorning o'g'li Muhammad Sodiq degan erdi. Buxoroda tug'ilinish erdi. Yigirma yettiga to'lg'onda Samarqandga ketdi. Olloyor Buxoroda qoldi”. Lekin olimlar bu ma'lumotlar

ishonchsiz ekanligini aytib, aslida o'g'illarining ismi Muhammad Siddiq bo'lganligini aytishgan.

So'fi Olloyorning Muhammad Siddiq, Maqsudali ismli uch o'gli va Omina, Halima, Bibioysha, Azima ismli to'rt qizi bo'lgan. Ammo Orzibekovning "O'zbek adabiyoti tarixi" kitobida biron boshqacha ma'lumot berilgan. "Allomaning bir o'g'li va ikki qizi bo'lib, ularning qadamjolari Samarqand viloyati Pstdarg'om tumanining Cho'nqaymish qishlog'idadir". Tojiddin Elchirul So'fi Olloyorning farzandlari yashagan makonlari haqida ma'lumot beribgina qolmay, balki, olimning xalqiy sifatini ham ko'rsatib ketgan: "Uni uzun bo'ylik, qo'y ko'zlik, jayron soqollik demishlar".

So'fi Olloyorning avlodlari Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yashamoqdalar. So'fi Olloyorning faqatgina Muhammad Siddiq ismli o'g'illari haqida qisman ma'lumot bo'lib, uning shajarasi quyidagicha:

So'fi Olloyor (1663-1724);

O'g'illari Muhammad Siddiq (1674-1765);

U kishining o'g'illari Xo'jayi Kalon (1725-1814);

U kishining o'g'illari Eshonxo'ja . (1775-1866);

U kishining o'g'illari Xalilxon (1835-1908);

U kishining o'g'illari Umarxon (1895-1986);

U kishining o'g'illari Muzaffarxon (1944);

U kishining o'g'illari Hikmatilloxon (1969);

U kishining o'g'illari Shahzodxon (1996).

Bu ma'lumotlar, qisman ba'zi bir manbalardan, qisman xalq orasidagi rivoyatlardan olingan bo'lib, o'sha davr

tasdig'idan o'tgan (muhr bosilgan) shajaraga ega emas. Shajaraning Umarxon eshonbobodan yuqorisidagi tug'ilgan yillari taxminiy qo'yilgan.

Xulosa va takliflar. XVII – XVIII asrlarda Movarounnahrda yirik tasavvuf namoyandalari yetishib chiqdi. Shular jumlasidan: Markaziy Osiyo Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi, turkiy tasavvuf adabiyotining mashhur vakillaridan biri, mutasavvif shoir, adib sifatida Turkiston xalqdari o'rtasida yuksak hurmat-e'tibor qozongan shaxs So'fi Olloyordir.

Keyingi yillarda olim hayotini o'rganishga bo'lgan qiziqishlar tobora ortib bormoqda. Ushbu maqolada So'fi Olloyor tarjimai holi bilan bog'liq ma'lumotlar toponim jihatdan o'rganildi. Bugungi kunda masjidlar, ziyoratgohlar olimning nomi bilan bog'liq. Mutasavvif olimning tug'ilgan maskanlari, safar qilgan shahar va qishloqlari toponomik jihatdan tahlil qilindi. Og'zaki va yozma ma'lumotlar tarixiy-manbaviy asosda yoritildi. So'fi Olloyor tarjimai holi manbalari qiyosiy o'rganilgan. Qolaversa, tarjimai holni aniq holda tiklashda ilmiy mezon – tarixiy haqiqat. Tarixiy haqiqatni ochib berishda esa, toponomikaning o'rni muhim. Ko'pgina ilmiy ishlar hamda maqolalarda olimning hayoti va tug'ilgan yili borasida turli xil manbalar mavjud. Aksariyat manbalarda aniq ma'lumotlar keltirilmagan. O'ylaymizki, toponim jihatdan o'rganilgan olimning hayoti haqida ushbu maqolada qisman ma'lumotlar berildi.

ADABIYOTLAR

1. Rahimov K. "Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta'limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar)". Akademnashr –T.; 2020. – B.
2. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti –T.; 2006. – B. 32,72.
3. Boysoatov M. "Sabot ul-ojizin" hikoyatlarining manbalari va matniy tadqiqi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.
4. Bekmurodov I. "Kataqo'rg'onning qisqacha tarixi". Samarqand,"Zarafshon" nashriyoti. 1993-yil. B- 57.
5. Suvonqulov I. So'fi Olloyor, O'zbekiston buyuk allomalar yurti. Ma'naviyat . Movarounnahr, T.; - 2010, 379- b.
6. Elmurodov M. "Kattaqo'rg'on tarixi: kecha va bugun". Samarqand;- 1994. 35-bet.
7. Hasanov K, Bahodirov I. "U minglarda tug'ilgan". Zarafshon gazetasi. Samarqand;- -1993.
8. Suvonqulov I. "So'fi Ollohyor va uning adabiy an'analari". Dissertasiya. T.; -1997. 58-bet.
9. Hoji Abdulloh, Andijoniy M. So'fi Ollohyor: G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar. T.; 1994. -B. 285-295.
10. Abdumutallib Faxmiy. Tazkirai Faxmiy. Qo'lyozma. O'zR FA SHI fondi. Inv. № 2331/I.74v. – 174 v.
11. To'plam. Halqapo ilmiy anjuman materiallari. Tehron-Toshkent, 2005,42- 43-bet.
12. Rashid Zohid. "Tarixiy manbalarda So'fi Olloyor tarjimai holi", "Sharq yulduzi" jurnali, 2018 yil, 9-son.
13. Rashid Zohid. "So'fi Ollohyor: Sabotul ojizin" sharhi. "Turon zamin ziyo". T.; - 2015. 14-bet.Nusratullo Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova. O'zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asrning yarmi). T.; - 2020. B-192.
14. Zohid R., So'fi Olloyor. Adabiyot ko'zgusi, T., 1996;
15. Turkistoniy S, So'fi Olloyor. G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar, T., 1994;
16. Baratova N., So'fi Olloyorning badiiy-ma'naviy qarashlari, Samarqand, 2002.
17. Maslak un-Myttaqin. Movarounnahr.T.; -2007.
18. Valixo'jayev B. Miyonqol adabiy muhitida So'fi Olloyorning mavqeyi. "Muloqot" jurnali, 1996, 3-son.



UDK: 821.112.22

Dilbar TOSHEVA,
Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD
E-mail: maftuna@mail.ru

PhD, dotsent M.Omonova taqrizi asosida

KOMPLEKS ELEKTRON O'QUV LUG'ATLARINI TUZISH USULLARI VA ULARDAN FOYDALANISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolaning maqsadi ma'lum bir sohadagi bir qator fanlardan to'liq elektron o'quv lug'atini yaratish zarurligini asoslash, uning ta'lim makonida tutgan o'rnini ko'rsatish, to'ldirish tamoyillari va xususiyatlaridan iborat. Tadqiqotning ahamiyati shundaki, unda kompleks o'quv elektron lug'atning mikro va makro tuzilmasi batafsil tavsiflangan, elektron lug'atning qog'oz analogiga nisbatan afzalliklarini bayon qilgan.

Kalit so'zlar: antonimlik, elektron o'quv lug'ati, lug'atni tahrirlash usullari, lug'atga kirish, lug'atning makro va mikro tuzilishi, dominant tushunchalar.

МЕТОДЫ СОЗДАНИЯ КОМПЛЕКСНЫХ ЭЛЕКТРОННЫХ УЧЕБНЫХ СЛОВАРЕЙ И ОСНОВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

Аннотация

Цель статьи – обосновать необходимость создания полноценного электронного учебного словаря по ряду дисциплин заданной области, показать его место в образовательном пространстве, принципы и особенности его комплектации. Значимость исследования заключается в том, что в нем подробно описана микро- и макроструктура комплексного учебного электронного словаря, обозначены преимущества электронного словаря перед его бумажным аналогом.

Ключевые слова: антонимия, электронный учебный словарь, методы редактирования словаря, словарная статья, макро- и микроструктура словаря, доминантные понятия.

APPROACHES TO THE COMPILATION OF COMPLEX ELECTRONIC EDUCATIONAL DICTIONARY AND KEY ASPECTS OF THEIR PRACTICAL APPLICATION

Annotation

The purpose of the article is to justify the need to create a complete electronic educational dictionary in a number of disciplines in a given field, to show its place in the educational space, the principles and features of its completion. The significance of the study is that it describes in detail the micro and macro structure of a complex educational electronic dictionary, and outlines the advantages of an electronic dictionary over its paper analogue.

Key words: antonymy, electronic educational dictionary, dictionary editing methods, dictionary entry, macro and micro structure of the dictionary, dominant concepts.

Kirish. O'quv izohli lug'atlar tilni o'rganishda va undan foydalanishda muhim vositadir. Ular so'zlarning ma'nolari, talaffuzi, grammatik shakllari va kontekstda qo'llanishini aniq va tushunarli tarzda tushuntiradi. Lug'atlarning asosiy funksiyalari ilmiy, o'quv va amaliy til sohasida yuksak samaradorlikka erishish uchun zarurdir. Zamonaviy ta'lim makonining asosiy tendentsiyasi bo'lajak mutaxassislarda tizimli tafakkur va uning asosida insoniyat hayoti davomida global muammolarni individual idrok etishni ifodalovchi dunyoqarashni shakllantirishdir. Mahalliy olimlarning fikriga ko'ra, bilimlarning mustahkam tizimini yaratish faqat predmet obrazini to'liq yaratish, uning faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan asosiy aloqalarni, o'zaro bog'liqliklarni ajratib ko'rsatish, o'quv materialini qayta qurishni talab qiladigan integral xususiyatlarni shakllantirish, shu bilan birga uni kompleks to'plash mumkin. Bunday qayta tashkil etish fanlararo aloqalarni o'rnatishga yordam beradi, asosiy tayyorgarlikni kuchaytiradi va ma'lum bir fanda o'z-o'zidan o'zlashtirilgan va qayta tiklangan, boshqa fanlarni o'rganish jarayonida talaba tomonidan yangi darajada foydalanishi mumkin bo'lgan tarkibning asosiy qismini ajratishga yordam beradi [5]. O'quv jarayonida fanlararo muvofiqlashtirishni tashkil etishning dolzarbligini hisobga olib, olimlar va o'qituvchilar har bir

kursni o'rganishni talabalarga taklif etilayotgan bilimlarning integrativ xususiyatini anglab etish imkonini beradigan asosiy tushunchalar taqdimoti bilan boshlashni maslahat berishadi [5, b. 166]. Shuning uchun, har bir fan uchun (yoki undan ham yaxshiroq - bir nechta o'zaro bog'liq bo'lgan mavzular uchun) ta'lim tezaurusini yaratish juda muhim, unda asosiy tushunchalarni ajratib ko'rsatish, shuningdek, iloji bo'lsa, ularning o'zaro bog'liqligi va bo'ysunishini aniqlash kerak. Dastlabki darslardagi o'quv materialining bunday tasviri talabani yo'naltiradi, unga yangi va allaqachon ma'lum bo'lgan faktlarni izchil to'liq ma'lumotlar tizimida birlashtirish imkoniyatini beradi, olingan bilimlar bilan taqqoslash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi va har qanday hodisani o'rganishga tizimli yondashuvni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'quv izohli lug'atlarning asosiy funksiyalarini aniqlash uchun lug'atshunoslik va tilshunoslik adabiyotlari tahlil qilindi. Lug'atlarning funksiyalarini so'z ta'rifi, kontekstual tushuntirish, grammatik va stilistik ko'rsatkichlar bilan ta'minlash orqali o'rganildi. Ukrainada ko'plab maxsus maqsadli va tor tarmoqli lug'atlar, xususan, o'quv, ma'lumotnomalar va amaliy nashrlar nashr etilganiga qaramay, ayrim fan sohalari terminologik asoslash

muammosi hali ham o'z yechimini topmagan. Xususan, E.Kupriyanov [3] dissertatsiya tadqiqotida belgilab berilgan antonimik, grammatik, oreografik, orfografik, tarjima, sinonimik, mavzuli, izohli va hokazo. Glossariylar va pedagoglar orasida eng mashhurlari elektron lug'atlar bo'lib, bunga bir qator ob'ektiv omillar sabab bo'ladi. Avvalo, elektron lug'at ta'rif uchun turli xil illyustratsiyalar berishda, shuningdek, atama yoki uning xorijiy analogini qidirishni bir necha soniyagacha qisqartirishda ancha katta imkoniyatlarga ega. Elektron lug'atlarning asosiy afzalliklari qatorida biz uning interaktivligini ham nomlagan bo'lardik, bu esa boshqa foydalanuvchilar tomonidan tahrirlanishi yoki kengaytirilishi mumkin bo'lgan bunday lingvistik konstruksiyalarni yaratish qobiliyatini anglatadi. Elektron lug'atlarni hayotiy sanoat texnologiyasi sifatida yaratish va ulardan foydalanishning turli jihatlarini ko'plab maqolalarda o'rganilgan. Olimlar mavzuning lingvistik jihatlarini ko'rib chiqdilar: Elektron lug'atlar uchun texnologik-dasturiy yechimlar faol ishlab chiqilmoqda [12], [20].

Tadqiqot metodologiyasi. Elektron lug'atlarni rivojlantirishning muhim yo'nalishi Web2 texnologiyasidan foydalanish - elektronni hamkorlikda boyitishdir [16], [18]. Texnik lug'atni aniqlash muammolari [13; 19] tekshirildi. Shu bilan birga, elektron lug'atni kasbiy xarita sifatida yaratish masalasini ko'tarish qiziq [11]. Shuning uchun maqolaning maqsadi ma'lum bir sohadagi bir qator fanlardan to'liq o'quv elektron lug'at yaratish zarurligini asoslash, uning ta'lim makonidagi o'rmini ko'rsatish, ta'lim jarayonlarida to'plash tamoyillari va xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy universitetlarda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari bilan tanishish o'qituvchi va talaba reproduktiv tizimning qat'iy chegaralarida (ma'ruza va seminarlar) hali ham birga yashaydi, degan fikrni oqlaydi. Bunday sharoitda o'qituvchi o'quv jarayoniga ijodiy tadqiqot usullarini kiriti olmaydi va talaba, aslida, o'zining ijodiy va ilmiy salohiyatini namoyish etish imkoniyatidan mahrum bo'ladi, chunki u faqat "tayyor bilimlarni" oladi va ko'paytiradi. Ushbu muammoni hal qilish olimlar tomonidan [8], [14], [17] integratsion kurslarni o'qitishda nazarda tutilgan bo'lib, ular fikrlash jarayonini rag'batlantiradigan va ijodkorlikni faollashtiradigan, umuman dunyo va xususan, kelajak kasbi haqida to'liq tasavvur hosil qiladigan shaxslararo aloqalarga asoslanishi kerak.

Mening fikrimcha, birinchi qadam predmetning kontseptual asosini aniqlashdan iborat bo'lib, uning elementlari «uning mazmunidagi asosiy fikrlarni aks ettiradi» [5, 166-bet] va shunday guruhlangan va taqdim etilganki, talaba fan bilan tanishganida uning «o'rnatilganligini» zamonaviy dunyo misolida tasvirlashi mumkin. Odessa Milliy Politehnika Universitetining gumanitar fakultetida tahsil olgan "Amaliy jurnalistika" va "Kompleks jurnalistika" o'z mohiyatiga ko'ra integrativ kurslardir, chunki ularni o'zlashtirish uchun talaba bir-biriga bog'liq bo'lmagan va bir-biriga bog'liq bo'lmagan ko'plab fanlardan bilimga ega bo'lishi kerak, masalan: aloqa nazariyasi, ijtimoiy muloqot,

nazariya va jurnalistika tarixi, amaliy nutq madaniyati, tilshunoslik va adabiyotshunoslik asoslari. Birinchi darslardan boshlab universal elektron lug'atdan foydalanish talabalarga fan bo'yicha ular o'rgana boshlagan ba'zi atamalar ularga allaqachon tanish ekanligini tushunishlariga yordam beradi. Kursni bunday idrok etish talaba uchun psixologik qulaylik yaratadi va uni boshqa muammoli masalalarni hal qilishga yo'naltiradi, shu bilan birga, yaxshi tashkil etilgan, fanlararo konseptual apparat turli xil o'quv va tadqiqot muammolarini hal qilish uchun asos bo'ladi.

Binobarin, elektron lug'atga bo'lgan ehtiyoj e'tirozlariga sabab bo'lmaydi. Shuning uchun uni tuzish usullari va qo'llanish o'ziga xosligi haqida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Taklif etilayotgan lug'at turini aniqlashda men leksikografik nashrlarning umume'tirof etilgan tasnifiga tayandim [1], [2], [4], [10]. Ta'kidlaymanki, asosiy atamalar to'plangan, kurs bo'limlari bo'yicha aniq tuzilgan va fanlar mazmunini aks ettiruvchi atamalar ro'yxati ko'rinishida taqdim etilgan lug'atni tezaurus deb atash mumkin ("leksikaning kontseptual farqlanishiga ega bo'lgan lug'at"). Unga asoslanib, ushbu leksikografik asarning taqdim etilgan versiyasi endi lug'at-tezaurus deb nomlanadi, bu mening fikrimcha, materialni to'liq, mantiqiy, aniq tuzilgan tizim sifatida o'zlashtirishga yordam beradi va shu tariqa jurnalistikaning asosiy tamoyillarini, shu sohadagi yutuq va muammolarni, zamonaviy dunyo madaniyatining bir qismi va insoniyat mavjud bo'lgan tarkibiy qismi sifatida o'rganishga yordam beradi. Menimcha, lug'at tarjima qilinishi kerak, chunki zamonaviy milliy ta'lim va ilm-fan dunyo miqyosida bilimlarni tarqatish jarayoni bilan shug'ullanishga harakat qilmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, biz keng qamrovli ta'lim elektron degan xulosaga kelishimiz mumkin resurs sifatida tuzilgan ma'lum bir fan sohasi (yoki tegishli fanlar uchun) uchun lug'at o'quvchilarga dunyoning zamonaviy ilmiy manzarasini tizimlilik va birligida tushunishga yordam berishi kerak. Mantiqiy va tematik printsiplarga asoslanib, bunday lug'at aniq tuzilgan bo'lishi, ierarxik tarzda tartibga solinishi kerak, masalan, leksik-semantik guruhlar doirasidagi umumlashtirish darajasiga qarab: asosiy atamalar (dominantlar) ma'lum bir mavzu sohasida asosiy tarkib agenti bo'lib xizmat qiladi va ularga bo'ysunadigan boshqa birliklar (dominantlarning subdominantlarini to'liq ochib beradi). Ushbu leksikografik asarning universalligini atamaning ta'rifi, imlo va talaffuz qoidalari, bir necha tillarga tarjimai kabi turli jihatlar bilan yoritib berish orqali ko'rsatish mumkin. Shuningdek, lug'atlarni yaratishda gamifikasiyaning turli jihatlarini, ularning ochiq manbalardan doimiy yangilanib turishini va ochiq ma'lumotlardan foydalanishni o'rganish istiqbolli. Mening fikrimcha, bunday urinish fanlarni yaqinlashtirish va ta'limga integratsiyalashgan usullarni joriy etish yo'lidagi qadam bo'ladi. Shu bilan birga, odamlar va atrof-muhit o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etadi.

ADABIYOTLAR

1. Педагогика и психология высшей школы: учеб. пособие для студентов и аспирантов вузов, слушателей ФПК и слушателей послевузовской психолого-педагогической пере-подготовки преподавателей вузов / М. В. Буланова-Топоркова и др. Ростов н/Д : Феникс, 2002. 544 с.
2. Капранов Я. В. Типологічна класово-видова організація лексикографічних джерел. Проблеми семантики, прагматики та когнітивної лінгвістики. 2014. Вип. 25, С. 183–198. URL :http://nbuv.gov.ua/UJRN/psptkl_2014_25_19 (дата звернення: 28.11.2019).
3. Купріянов С. В. Українська термінологічна підсистема «Гідротурбіни» як об'єкт комп'ютерного словника : автореф. дис. на здобуття наук. ступеня канд. філол. Наук : спец. 10.02.01 «Українська мова», Харків: Харківський нац. ун-т ім. В. Н. Каразіна, 2011. 20 с.
4. Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура : монография. М.: КомКнига, 2006. 256 с.
5. Гринев С. В. Основы лексикографического описания терминологии : автореф. дис. на соискание ученой степени доктора филол. Наук : спец. 10.02.04 «Германские языки». М.: МГУ, 1990. 43 с..

6. Селіванова О. А. Сучасна лінгвістика: термінологічна енциклопедія. Полтава: Довкілля-К, 2006. 716 с.
7. Словник журналіста : терміни, мас-медіа, постаті / Ю. М. Бідзіля та інші. Ужгород: Закарпаття, 2007. 220 с.
8. Собко Я. М. Теоретичні та методичні основи інтегративних курсів у професійно-технічній освіті : монографія. Львів. 2006. 332 с.
9. Шевченко Л. І., Дергач Д. В., Сизонов Д. Ю. Медіалінгвістика: словник термінів і понять. Вид. 2-ге, випр. і доп. К.: ВПЦ «Київський університет», 2014. 380 с.
10. A Practical Guide to Lexicography, Terminology and Lexicography Research and Practice / Sterkenburg P. V. ed. Amsterdam, Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2003. XII. 459 p.
11. Atkins B. T. S. Putting lexicography on the professional map: Training needs and qualifications of career lexicographers. EURALEX '92 Proceedings. Tampere : Tampereen Yliopisto, 1992. C. 519.
12. Chijiwa H., Isoe T. Electronic dictionary and information displaying method, incorporating rotating highlight styles : U.S. Patent. No. 6,085,204. 4 Jul 2000.
13. Chung T. M., Nation P. Identifying technical vocabulary. System 32.2. 2004. P. 251–263.
14. Cooper L. Orrell J., Bowden M. Work integrated learning: A guide to practice. Routledge. 240 p.
15. Dziemianko A. Paper or electronic? The role of dictionary form in language reception, production and the retention of meaning and collocations. In International Journal of Lexicography. 2010. № 23 (3). P. 257–273.
16. Integrated E-Learning: Implications for Pedagogy, Technology and Organization / Jochems W. et al. Routledge. 2004. 207 p.
17. Kwary D.A. A hybrid method for determining technical vocabulary. System, 39.2. 2011. P. 175–185.
18. Levy M. Electronic dictionary and language interpreter : U.S. Patent. No. 4,158, 236. 12 Jun. 1979.
19. Maki W. S., McKinley L. N. Thompson A. G. Semantic distance norms computed from an electronic dictionary (WordNet). In Behavior Research Methods, Instruments, & Computers. 2004. Aug.; № 36(3), 2004. P. 421–431.
20. Penteroudakis J. E., Richardson S. Creating an electronic dictionary using source dictionary entry keys: U.S. Patent. No. 6,651,220. 18 Nov. 2003.



UDK: 314.7(510):1

Элдор ТУХТАБАЕВ,

Докторант Ташкентский государственный транспортный университета
E-mail: e868838@gmail.com

По отзыву д.ф.д Дж. Раматова

BORDER AS AN ILLUSION: THE PHILOSOPHY OF CHINESE MIGRATION IN THE GLOBAL WORLD

Annotation

Chinese migration blurs borders, influencing the economy, culture, and society. Historically, Chinese diasporas have created transnational networks. The philosophy of Daoism and Confucianism explains their adaptability. Modern technologies enhance migrants' global influence. Borders are transforming into dynamic constructs. Chinese migration reshapes perceptions of citizenship and identity.

Key words: Migration processes, philosophy of migration, deterritorialization, social structures, integration, transformation, flexible citizenship, cultural exchange, economic expansion, digital mobility.

CHEGARARILLYUZIYA SIFATIDA: GLOBAL DUNYODA XITOIY MIGRATSIYASI FALSAFASI

Annotatsiya

Xitoy migratsiyasi chegaratushunchasini mavxumlashtiradi, iqtisodiyot, madaniyat va jamiyatga ta'sir ko'rsatadi. Tarixan xitoy diasporalari transmilliy tarmoqlar yaratgan. Daoizm va Konfutsiychilik falsafasi ularning moslashuvchanligini tushuntiradi. Zamonaviy texnologiyalar migrantlarning global ta'sirini kuchaytiradi. Chegaralar dinamik tuzilmalarga aylanmoqda. Xitoy migratsiyasi fuqarolik va identifikatsiya haqidagi tasavvurlarni o'zgartirmoqda.

Kalit so'zlar. Migratsiya jarayonlari, migratsiya falsafasi, deterritorializatsiya, ijtimoiy tuzilmalar, integratsiya, transformatsiya, moslashuvchan fuqarolik, madaniy almashinuv, iqtisodiy ekspansiya, raqamli mobillik.

ГРАНИЦА КАК ИЛЛЮЗИЯ: ФИЛОСОФИЯ КИТАЙСКОЙ МИГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНОМ МИРЕ

Аннотация

Китайская миграция размывает границы, влияя на экономику, культуру и общество. Исторически китайские диаспоры создавали транснациональные сети. Философия даосизма и конфуцианства объясняет их адаптивность. Современные технологии усиливают глобальное влияние мигрантов. Границы превращаются в динамические конструкции. Китайская миграция меняет представления о гражданстве и идентичности.

Ключевые слова: Миграционные процессы, философия миграции, детерриториализация, социальные структуры, интеграция, трансформация, гибкое гражданство, культурный обмен, экономическая экспансия, цифровая мобильность.

Ввод. В данной статье исследуется философский аспект китайской миграции, её влияние на мировую экономику, культуру и общество, а также переосмысление границ как таковых. Мы рассматриваем миграцию не только как физическое перемещение людей, но и как феномен, связанный с изменением идентичности, адаптацией и трансформацией социальных структур. Китайские диаспоры служат примером того, как границы теряют своё традиционное значение, становясь скорее символическими, чем реальными. Исторический опыт китайских мигрантов, их способность к интеграции без утраты самобытности, а также философские взгляды на перемещение и принадлежность делают этот процесс особенно интересным для анализа в контексте глобального мира.

Границы представляют собой не только физические разграничения территорий, но и социальные, политические и философские конструкции, формирующиеся в зависимости от исторического контекста и культурных представлений. В условиях глобализации традиционные границы теряют свою жёсткость, превращаясь в пористые пространства взаимодействия, где происходит обмен идеями, капиталами, технологиями и людьми. Китайская миграция служит ярким примером того, как мобильность может преодолевать национальные, этнические и культурные барьеры, формируя новые модели существования.

Анализ литературы по теме. Китайская философская традиция, глубоко укоренённая в концепциях даосизма, конфуцианства и буддизма, предлагает уникальный взгляд на природу границ и движение людей. Даосская идея потока (流, liú), сформулированная Лао-цзы в Дао Дэ Цзине, утверждает, «Что движение — естественное состояние бытия, а попытки его искусственного ограничения ведут к застою и разрушению». «Вода, как символ потока, проникает через любые преграды, адаптируется к окружающей среде и, в конечном итоге, трансформирует её». Этот принцип применим к китайской миграции: несмотря на жёсткие иммиграционные режимы, политические барьеры и культурные различия, китайские мигранты продолжают находить пути для перемещения и интеграции в разные общества, изменяя их структуру и экономику.

Даосская гибкость противопоставляется конфуцианскому акценту на стабильность и социальную иерархию. «Конфуцианство рассматривает границы прежде всего в социальном смысле — как систему обязательств, ролей и моральных норм, которые регулируют отношения между людьми». Однако в условиях миграции эти традиционные социальные границы подвергаются переосмыслению. Исследования Жоу и Линя показывают, что китайские мигранты создают сети поддержки, «Основанные на принципах взаимовыручки (关系, guānxi)», что позволяет им

адаптироваться даже в условиях культурной и социальной изоляции. Эти сети служат своеобразными «невидимыми границами», которые регулируют поведение мигрантов, заменяя традиционные национальные барьеры горизонтальными связями внутри диаспоры.

В западной философии концепция границы также претерпела значительную эволюцию. Если классическая политическая теория, начиная от Гоббса и заканчивая Вебером, который рассматривал «Границы как ключевой элемент суверенного государства», то постмодернистская мысль подвергла это представление критике. Жиль Делёз и Феликс Гваттари вводят понятие «Детерриториализации - процесса разрушения фиксированных пространств и идентичностей под воздействием капиталистических и миграционных потоков». В этом контексте китайская миграция иллюстрирует глобальный тренд детерриториализации: китайские мигранты не просто переезжают в другие страны, но и создают гибридные формы идентичности, сочетая элементы китайской и принимающей культуры. Например, в США, Канаде и странах Юго-Восточной Азии сформировались мощные китайские бизнес-общины, работающие в рамках транснациональных сетей, но сохраняющие культурные традиции и связи с родиной.

Современные исследования мобильности социолога Урри «Mobilities» показывают, что границы в условиях глобализации становятся не абсолютными барьерами, а динамическими фильтрами, регулирующими потоки людей, капитала и знаний». Китайская миграция демонстрирует эту тенденцию в полной мере. Например, китайские технологические специалисты, работающие в Кремниевой долине, не просто становятся частью американской экономики, но и способствуют развитию инновационных связей между США и Китаем. Таким образом, китайская миграция превращает границы в точки взаимодействия, а не разделения.

Постмодернистский взгляд на границы как на социальные конструкции также подтверждается исследованиями Зигмунта Баумана который отмечает, что в эпоху глобализации границы становятся всё более иллюзорными: они существуют для одних групп и исчезают для других. Китайские мигранты иллюстрируют этот парадокс: с одной стороны, им приходится сталкиваться с жёсткими визовыми режимами и антииммиграционной риторикой, с другой — их экономическая активность и адаптивные стратегии позволяют им находить лазейки в системе и преодолевать бюрократические барьеры.

Методология исследования. (Research Methodology). В философском смысле китайская миграция подтверждает тезис о том, что границы — это скорее социальные и политические конструкции, чем объективные реальности. Они существуют, пока им придаётся смысл и значение, но могут быть преодолены через экономическое, культурное и технологическое взаимодействие. «Китайская диаспора формирует глобальную сеть, в которой национальные границы теряют свою абсолютную значимость, уступая место гибким формам социальной организации».

Историческая ретроспектива китайской миграции является одной из самых значительных в мировой истории, охватывая тысячелетия и различные формы мобильности. Китайцы мигрировали как по торговым маршрутам, так и в поисках новых возможностей за пределами своей родины. «Уже в эпоху династии Хань (206 г. до н. э. – 220 г. н. э.) китайские торговцы и дипломаты устанавливали связи с Центральной Азией, Индией, Персией и Ближним Востоком». «Великий шёлковый путь служил не только торговым маршрутом,

но и каналом культурного обмена, способствуя распространению китайской культуры и технологий». Китайские купцы основывали поселения вдоль этого пути, формируя первые китайские общины за пределами родины.

Параллельно развивались морские маршруты, такие как «Китайско-Южноазиатский морской путь», способствовали распространению китайской культуры в Юго-Восточной Азии». «Уже в средние века китайские торговые поселения появились в современных Вьетнаме, Таиланде, Малайзии, Индонезии и на Филиппинах, что привело к формированию влиятельных китайских диаспор», сыгравших значительную роль в экономике и культуре региона.

Key words: national-cultural values, transformation, community sustainability, jadids, heritage, socio-philosophical analysis, enlightenment, national identity, reform, spirituality.

УСТОЙЧИВОСТЬ ОБЩЕСТВА ЧЕРЕЗ ТРАНСФОРМАЦИЮ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ НАСЛЕДИЯ ДЖАДИДОВ

Аннотация

В этой статье социально-философский анализ вопроса о достижении стабильности общества посредством трансформации национально-культурных ценностей с точки зрения наследия джадидов обосновывается тем, что идеи джадидов о сохранении национальной идентичности, продвижении просвещения и проведении социальных реформ имеют важное значение для устойчивого развития общества. Также проанализировано значение наследия джадидов для современного Нового Узбекистана, пути сохранения и развития национальных ценностей, достижения духовного подъема.

Ключевые слова: национально-культурные ценности, трансформация, стабильность общества, джадиды, наследие, социально-философский анализ, просвещение, национальная идентичность, реформы, духовность.

Kirish. O'zbekiston bugungi kunda o'zining taraqqiyot yo'lida jadal o'zgarishlar va yangilanishlarni boshidan kechirmoqda. Bu jarayonlarda milliy-madaniy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish, ularning transformatsiyasi orqali jamiyat barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Zero, qadriyatlar jamiyatning ma'naviy negizi, millatning o'zligini belgilovchi omildir.

O'zbek xalqining milliy-madaniy merosi boy va rang-barang bo'lib, unda jadidlar harakati alohida o'rin tutadi. Jadidlar o'z davrida jamiyatni modernizatsiya qilish, ma'rifatni yoyish va milliy o'zlikni saqlash g'oyalarini ilgari surganlar. Ularning merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, aksincha, jamiyatni barqaror rivojlantirish, milliy qadriyatlarni asrash va ma'naviy yuksalishga erishishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot ishida jadidlarning g'oyalari va faoliyatini o'rganish orqali zamonaviy O'zbekiston uchun ularning ahamiyatini ochib berish, milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish yo'llarini ko'rsatish maqsad qilib olingan. Zero, jadidlar merosini chuqur anglash va undan oqilona

foydalanish orqali biz jamiyatimizning barqaror kelajagini ta'minlashimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Hech bir xalq begona qoliqlar, begona andozalar asosida emin-erkin yashab, taraqqiy etib olmaydi, umuman olganda, «odamzod birovning bo'yiga qarab o'ziga to'n bichmaydi». Har bir xonadonning o'z tartib-qoidalarini bo'lganidek, har bir yurt, har bir millat hayotini tashkil etishning ham o'z andoza-o'lchovlari, qonun-qoidalarini bo'ladi. Ular o'sha yurtning tabiiy-jug'rofiy shart-sharoiti, tarixiy tajribasi, milliy fe'l-atvori bilan bog'liq tarzda shakllanadi. Jumladan, milliy ma'naviyat soxasidagi yangilanish ham, modernizatsiyalash jarayoni ham tarixiy tajriba, milliy ma'naviy merosimiz asosida shakllanib boradi. O'zbek xalqi o'zining buyuk miliy-ma'naviy merosiga ega. Unda ajdodlarimizning bebaho ma'naviyati jamlangan. Ma'naviy qadriyatlar inqilobiy tarzda shakllanadigan hodisa emas, u jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi. Har bir avlod vakillari qadriyatlarni qaytadan yaratmaydi, balki mavjud tarixiy-ma'naviy merosga tayanadi. «Tarixiy merosni asrab-avaylash,

o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir»[1].

Modernizatsiya jarayonida milliy urf-odatlar ham faqat milliy emas, boshqa xalqlar hayotidagi urf-odatlarining ma'qul, jozibali bo'lib ko'ringan ayrim jihatlari milliy urf-odatlariga kirib kelishi va qabul qilinishi mumkin. Har qanday milliy an'analarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xos jihatlari, ma'lum bir urf-odatlarining qabul qilinishi jarayonida integratsiyalashuv hodisasi sodir bo'ladi. Buni insonlarning tafakkur va hayot tarzi, tashqi qiyofasi, muloqot madaniyati, qo'yingki ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida guvohi bo'lishimiz mumkin. Ammo milliy madaniyatlar orasidagi integratsiya jarayonidagi umumiy qonuniyat negizida, avvalo millat o'z mentalitetidan uzoqlashmasligi, aksincha milliy qadriyatlarda milliy-madaniy jihatlarni o'zida namoyon etishi darkor. Demak mazkur qonuniyat jahon integratsiyalashuvi jarayonida milliy madaniyatning yanada rivojlanishi va zamonaviy tus olishiga xizmat qiladi.

Kishilik jamiyati – qadriyatlar olamidani iboratdir. Qadriyat inson ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda uning xarakteri, dunyoqarashi, e'tiqodi, ishonchi, intilish darajasini belgilaydigan qiymat, o'lchovdir. Har bir tarixiy davrda jamiyatning rivojlanishi jarayonida turli xil omillar ta'siri ostida o'zgarishlarga duch keladigan muayyan qadriyat belgilari mavjud. O'tish davrlari bunda saralash rolini o'ynaydi, bu avvalgi me'yorlarni va jamiyatda o'rnatilgan ayrim qonun – qoidalarni bekor qiladi yoki turli sabablarga ko'ra eskirgan, o'z ahamiyatini yo'qotgandek ko'ringanlarini qayta takomillash-tiradi. Keyin esa yangi qadriyat ko'rinishlari paydo bo'ladi. Aytish joizki, davrlar mobaynida, qadriyatlar o'zgarib, takomillashib boradi. Taraqqiyot jarayonida qadriyatlarga oid ta'limotlar sayqallanib rivojlanib boradi. Avvalo, «qadriyat» tushunchasini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish tadqiqotning yorqin mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.

Qadim zamonlardan to hozirgi kungacha bu tushuncha ko'plab mutafakkirlar tomonidan o'rganilgan, ular o'zlarining turlicha ta'riflarini bildirishgan. «Qadriyat bu voqeikdagi muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha»[2]. Ushbu ta'rif qadriyatlarining mohiyatini chuqur va keng qamrovli tushunishga imkon beradi. Qadriyatlar real hayotda mavjud bo'lgan hodisalarning insoniyat, jamiyat va shaxs uchun ahamiyatini belgilovchi mezonlardir. Ular umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy va madaniy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Qadriyatlar falsafa, sotsiologiya va aksiologiya kabi fanlar tomonidan o'rganiladi.

«Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilmog'i lozim. Tabiat va jamiyat hodisalari inson faoliyati tufayli, uning ehtiyojlarini qondirish natijasida qadriyat sirasiga kiritiladi»[3]. Olamga qadriyatli munosabat shakllanishi har bir kishining yetuk inson sifatida voyaga yetishi jarayonining tarkibiy qismidir. Kishi kamolot sari borar ekan o'zini anglaydi, umr, vaqt, davr va boshqalarning haqiqiy qadrini tushunib yetib boradi. Bu foni dunyoning o'tkinchiligi, umrning mazmuni, yashashning maqsadi, odamni dunyoga kelib bajaradigan, qila oladigan amallarini, olamning abadiyligi qarshisidagi lahzalar qadriga yetishni o'rgana boradi. Bu esa mazkur kishida aksiologik munosabat shakllanishining shaxsiy jarayonini anglatadi.

Qadriyatlarining eng muhim jihati shundaki, u o'tmish bilan bugunni, bugun bilan kelajakni bog'laydigan asosiy vosita rolini bajaradi. Hayot rivojlanib borarkan, qadriyat ham takomillashib, mukammallashaveradi. Qadriyat ham vaqtlar o'tgan sari o'zgarishi, bugun milliy qadriyat sifatida tan

olingan qadriyatlar, yillar o'tib o'z ahamiyatini yo'qotishi, o'rnini boshqasi egallashi mumkin. Qizig'i shundaki, deb yozadi faylasuf olim A.Begmatov: «taraqqiyotning har bir bosqichida marosimlar tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlarning ko'pchiligini «milliy qadriyatlarimizga zid», «milliy axloqimizga to'g'ri kelmaydigan» hodisalar sifatida baholalar edi. Oradan biroz vaqt o'tgach esa ular milliy urf-odat sifatida baholana boshlangan. Masalan, XX asrning 50-yillarida kelin-kuyovning to'y bazmida ishtirok etayotgan mehmonlar oldida yonma-yon o'tirishlari «milliy qadriyatlarimizga mos kelmaydigan» hodisa deyilib, jiddiy qarshilikka duch kelgan edi. 70-yillarga kelib esa, bu oddiy bir xol va milliy urf-odatga aylanib qoldi»[4]. Odatlanish esa, inson tabiatiga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, jadidlar dabdabali to'ylarga qarshi bo'lishgan. Ular ushbu harajatlarni zarur ehtiyojlar xususan, ta'lim-tarbiyaga qaratish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlashgan.

Qadriyatlarini insonlar yaratadi, boyitib boradi va avloddan avlodga o'tgan sari yangilanib boradi. «Qadriyatlar muayyan millat va xalqlarning shonli va musibatli o'tmishi, tarixiy – madaniy tajribalari, saboqlari, shod va baxtiyor damrlarining ifodasi sifatida namoyon bo'lsa, urf – odatlar, rasm – rusum va marosimlar turmush tarzining shakliy ko'rinishlari sifatida xalq hayotining ma'naviy negizlarini tashkil etadi»[5]. Muayyan qadriyatlarini barqaror qilish butun xalq, millat, davlat yoki qavmlarni bir muddat yoki uzoq vaqtga qadar aniq maqsadlar yo'lida birlashtiradi, ular faoliyatining yo'nalishini belgilaydi[6].

Xalqimizning asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelayotgan Vatanga muhabbat, ajdodlar ruhiga hurmat, o'zidan kattalarga ehtirom, kichiklarga izzat ko'rsatish, ota-onani hurmat qilish, ularning ko'ziga tik boqmaslik, keksalarni qadrlash, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, ehson qilish, hayo va andisha, oilani muqaddas deb bilish, muhtojlarga ko'mak berish kabi ko'plab insoniy fazilatlar milliy qadriyatimiz asosini tashkil etadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev alohida takidlab o'tganidek, «XX asr boshlarida vatanparvar jadid bobolarimiz ma'rifatparvarlik faollariga tayanib xalqimizni qoloqlikdan taraqqiyot yo'liga olib chiqish, uni dunyoviy bilimlar va ilg'or kasblar bilan qurollantirish, erkinlik, adolat va tenglik, ma'rifat va milliy o'ziga xoslikni mustahkam qaror toptirish, qadimiy madaniyatimiz va tilimizni rivojlantirishni o'z hayotining ma'no-mazmuni deb bilganlar»[7].

Jadidlarning konseptual g'oyalari hozirgi o'zgarishlar amaliyotining ma'naviy darakchisi, bugungi kundagi strategiya va keng qamrovli islohotlarning genetic asosi bo'lib xizmat qiladi. Chunki ular siyosiy dasturlarida umuminsoniy xususiyatlarni tarannum etuvchi, erk va ozodlik, adolat va mustaqillik g'oyalarini olg'a surdi. Bu esa jadidlarning mustaqilligimiz uchun g'oyaviy asos bo'la oladigan tashabbuslaridan darakdir.

Bugungi kunda jadid falsafasiga xos ayni shu jihatlari, ya'ni davr da'vatiga nisbatan hozir javoblik, xalq tafakkurini va hayotini yangilash, bu yo'lda ilm-ma'rifatning kuchi va ta'sirini oshirish hamda zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan yangi avlodni shakllantirish zarurati zimmamizdagi o'tkir mas'uliyat, eng muhim vazifaga aylandi.

Jadid falsafasida shu asosda asrlardavomida sayqal topgan sharqona qadriyatlar, xalqimizning ma'naviy qiyofasi, tafakkuri va tur mush tarzi, mentaliteti, urf-odat va an'analari, bag'rikenglik tamoyillari, barqarorlik va bunyodkorlikka intilish kabi xususiyatlarini ifodalaydigan falsafiy tamoyillar, tushuncha va kategoriyalar tizimi ham o'z aksini topgan[8].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot milliy-madaniy qadriyatlar transformatsiyasi orqali jamiyat barqarorligini ta'minlashda jadidlar merosining ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida analiz va sintez, tarixiy-falsafiy tahlil va

metodologik yondashuvlardan foydalanilgan. Ushbu metodologik yondashuvlar kombinatsiyasi tadqiqotning ishonchligi, ob'ektivligi va asosligini ta'minlashga yordam beradi. Tadqiqot natijalari milliy qadriyatlarni rivojlantirish, jamiyat barqarorligini mustahkamlash va ma'naviy yuksalishga erishish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy-madaniy qadriyatlar transformatsiyasi orqali jamiyat barqarorligini ta'minlashda jadidlar merosi muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidlar o'z davrida milliy o'zlikni saqlash, ma'rifatni targ'ib qilish va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyati bilan jamiyatning taraqqiyotiga katta hissa qo'shganlar.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, jadidlarning g'oyalari, xususan:

-Ma'rifatparvarlik: Jadidlar jamiyatni ma'rifatli qilish, ilm-fanni rivojlantirish va xalqni o'qitishga katta e'tibor qaratganlar. Bu g'oya bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish, yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va intellektual salohiyatni oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

-Milliy o'zlikni saqlash: Jadidlar milliy til, madaniyat va an'analarni asrashga intilganlar. Bu g'oya globalizatsiya sharoitida milliy o'zlikni yo'qotmaslik, milliy madaniy merosni saqlash va rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

-Ijtimoiy adolat: Jadidlar jamiyatda adolatni o'rnatish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va har bir fuqaroning huquqlarini ta'minlashga harakat qilganlar. Bu g'oya bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, O'zbekistonda ijtimoiy siyosatni takomillashtirish, kambag'allikni kamaytirish va aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish uchun muhim ahamiyatga ega.

-Taraqqiyparvarlik: Jadidlar jamiyatni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiyotni rivojlantirishga intilganlar. Bu g'oya bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, tadqiqot natijalari jadidlar merosini o'rganish va ommalashtirish, ularning g'oyalarini yosh avlodga yetkazish va bu borada ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va madaniyat markazlarining rolini oshirish zarurligini ko'rsatdi.

Muhokama jarayonida shuni ta'kidlash kerakki, jadidlar merosi mukammal emas va ularning g'oyalarida ham ayrim kamchiliklar bo'lishi mumkin. Biroq, jadidlarning jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi beqiyosdir va ularning merosidan bugungi kunda ham oqilona foydalanish jamiyatimizning barqaror kelajagini ta'minlashga xizmat qiladi.

Jadidlar merosini o'rganish va uning asosiy g'oyalarini zamonaviy sharoitga moslashtirish orqali biz milliy qadriyatlarimizni saqlash, jamiyatimizni ma'naviy jihatdan boyitish va barqaror taraqqiyotga erishishimiz mumkin. Prezident tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" tamoyili aynan jadidlarning maqsadlariga uyg'un keladi. Yangi O'zbekistonni barpo etishda jadidchilik harakatining ijtimoiy, ma'naviy va innovatsion g'oyalari bebaho ahamiyatga ega. Ularning ilg'or qarashlari bugungi rivojlanish jarayonida muhim yo'nalishlar sifatida namoyon bo'lib, ta'lim, ma'rifat, texnologiya va milliy uyg'unish tamoyillariga asoslanadi.

Xulosa. Jadidlar harakati O'zbekiston tarixida milliy o'zlikni anglash, ma'rifatni yoyish va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan muhim bosqich bo'lgan. Tadqiqot davomida jadidlarning ma'rifatparvarlik, milliy o'zlikni saqlash, ijtimoiy adolat va taraqqiyparvarlik g'oyalari bugungi kunda ham dolzarbligini ko'rsatildi. Bu g'oyalar O'zbekistonda ta'lim, madaniyat, ijtimoiy siyosat va iqtisodiyot sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar uchun ilmiy asos bo'lishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijalari jadidlar merosini o'rganish va ommalashtirish, ularning g'oyalarini yosh avlodga yetkazish, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va madaniyat markazlarining rolini oshirish zarurligini ko'rsatdi. Jadidlar merosini o'rganish va uning asosiy g'oyalarini zamonaviy sharoitga moslashtirish orqali milliy qadriyatlarimizni saqlash, jamiyatimizni ma'naviy jihatdan boyitish va barqaror taraqqiyotga erishish mumkin.

Milliy-madaniy qadriyatlar va jadidlar merosini o'rganish bo'yicha keyingi ilmiy izlanishlar uchun zamin yaratadi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan davlat organlari, ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari jamiyatni barqaror rivojlantirish, milliy qadriyatlarni asrash va ma'naviy yuksalishga erishish bo'yicha siyosat va dasturlarni ishlab chiqishda foydalanishlari mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Saodat yo'li. – Toshkent: Ta'lim, 2016. –B.37.
2. Falsafa. Qomusiy lug'at. -Toshkent, 2004. -B.858.
3. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. –B.13.
4. Ochilova B. Milliy ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. -Toshkent: Istiqlof, 2009. –B.120.
5. Aminova D.X. Globallashuv sharoitida madaniyatlararo integratsiya va smesey madaniyatni takomillashtirish muammolari (Misr Arab Respublikasi misolida): siyos. fan. nom. ... dis. – Toshkent, 2010. –B.85.
6. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004. -B.19.
7. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston – T: "O'zbekiston" nashriyoti, 2024. –B.35.
8. Nazarov Q. Jadid falsafasi //“Yangi O'zbekiston” gazetasi, 2024 yil 16 yanvar, 11-son.



UDK: 371.20

Kumush XAMRAKULOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: silver_uzb@list.ru

O'zXIA professori, p.f.n Z.Kasimova tahriri asosida

PEDAGOGICAL VIEWS OF ABDULLA AVLONIY

Annotation

In the article, the researcher, based on various materials, attempts to reveal the scientific significance of the pedagogical views of the educational scientist and enlightener Abdulla Avloni. It also shows the factors that influenced Avloni's enlightening activities on his pedagogical views.

Key words: upbringing, education, "Turkish Gulistan or Morality", "Turkiston" theater troupe, "Jamiyati Khayriya" charitable organization, "new method" schools.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ АБДУЛЛЫ АВЛОНИЯ

Аннотация

В статье исследователь на основе различных материалов пытается раскрыть научное значение педагогических взглядов ученого-педагога и просветителя Абдуллы Авлонии, а также показывает факторы, повлиявшие на просветительскую деятельность Авлонии на его педагогические взгляды.

Ключевые слова: воспитание, образование, «Турецкий Гулистан или Нравственность», театральная труппа «Туркистон», благотворительная организация «Джамияти Хайрия», «новометодные» школы.

ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Annotatsiya

Maqolada tadqiqotchi turli xarakterdagi materiallar asosida pedagog olim, ma'rifatparvar Abdulla Avloniyni pedagogik qarashlarining ilmiy ahamiyatini ochib berishga harakat qiladi. Unda Avloniyni ma'rifatparvarlik faoliyatining pedagogik qarashlariga ta'sir qilishi omillari ham ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, ta'lim, "Turkiy Guliston yoxud axloq", "Turkiston" teatr truppasi, "Jamiyati xayriya" nomli xayriya tashkiloti, "yangi usul" maktablari.

Kirish. "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan Abdulla Avloniy fikri o'zbek ma'naviy-ma'rifiy tafakkurida tub burilish yasagan. Bu g'oya nafaqat pedagogik nazariyaning, balki millat istiqbolini belgilovchi strategik yondashuvning mohiyatini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ushbu fikrni har bir maktab binosida yozib qo'yish kerakligi haqida bildirgan taklifi Avloniyni ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmaganini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Abdulla Avloniy 1878-yilda Toshkentda tavallud topgan va 1934-yil 25-avgustda shu shaharda vafot etgan. U 56 yoshida Botkin ko'chasidagi qabristonga dafn etilgan. Sovet hukumatining qatag'on siyosatiga duch kelmagan, "xalq dushmani" deb e'lon qilinmagan bo'lsa-da, uning ijodi uzoq vaqt, ayniqsa 1966-yilgacha ilmiy jihatdan o'rganilmagan va asarlari chop etilmagan. Uning pedagogik va adabiy merosini qayta tiklashga XX asrning ikkinchi yarmida adabiyotshunos olim Begali Qosimov boshchilik qilgan. Taniqli olim, jadidshunos Begali Qosimov Avloniy ijodining gumanistik tomoniga e'tibor qaratib, XX asr boshidagi Turkiston zaminidagi maorif sohasidagi eng muhim namoyondalardan biri sifatida ta'riflaydi [2]. B.Qosimov "Abdulla Avloniy" nomli monografiyasini yaratib, uning hayoti va ijodini tizimli ravishda yoritgan.

Abdulla Avloniy ma'rifati ahamiyati to'g'risida filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karimov o'zining "Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabi dur..." yoxud Abdulla Avloniy ma'rifati" nomli maqolasida alohida to'xtalib o'tib, Abdulla Avloniydek adiblar ijodiga ham aynan bugun ibrat

nazari bilan qarash lozim [3], degan xulosani beradi. Shuningdek, Abdulla Avloniy pedagogik qarashlarining ahamiyatiga adabiyotshunos Olim Oltinbek yuqori baho beradi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. 1968-yilda Toshkent shahrida Avloniy sharafiga yodgorlik uy-muzeyi tashkil etildi. Hozirgi kunda Toshkent shahrida uning nomi bilan atalgan ko'cha, ikki mahalla, madaniyat uyi hamda milliy tadqiqot instituti mavjud bo'lib, ular Avloniyni ilmiy va ma'rifiy merosini abadiylashtirishga xizmat qiladi. 2019-yilda "Avloniy" nomli badiiy-hujjatli film premyerasi bo'lib o'tdi. Filmida uning Afg'onistondagi diplomatik missiyalari tasvirlangan. Shuningdek, shoiri Muhammad Ali o'zining 1979-yilda yozilgan "Boqiy dunyo" she'riy romanida Avloniy obrazini jonlantirgan. Toshkentdagi Adiblar xiyobonida Abdulla Avloniy haykali o'rnatilgan.

Abdulla Avloniy (1878–1934) XX asr boshlarida shakllangan o'zbek jadidchilik harakatining yirik vakili, ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist va jamoat arbobi sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan. U o'z faoliyatini o'zbek jamiyatida ilm-fan, ma'rifat va axloqiy qadriyatlarni yuksaltirishga bag'ishladi. Avloniy arab, fors va rus tillarini mukammal egallagan holda, Sharq mutafakkirlari va G'arb klassiklarining asarlarini chuqur o'rgandi. Ayniqsa, rus pedagogikasi namoyandalari – Lev Tolstoy va Konstantin Ushinskiy asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan holda, xalq ongiga ta'lim va tarbiyaning zamonaviy tamoyillarini olib kirishga harakat qilgan.

1906-yilda "Taraqqiy", 1907-yilda "Shuhrat" va 1908-yilda "Osiyo" nomli gazetalarni nashr etgan [4]. Bu bosma nashrlar orqali u xalqni ilmga, ma'rifatga da'vat etdi. Shu

bilan birga, Avloniy faoliyatidagi matbuot — faqat axborot vositasi emas, balki milliy o'zlikni uyg'otish, ijtimoiy tanqid va ma'naviy islohot platformasi bo'lib xizmat qildi. Jadidchilik harakati doirasida u Toshkentda tashkil etilgan yangi usul maktablarining faol ishtirokchisiga aylandi, pedagogik faoliyat orqali yosh avlod tafakkurini shakllantirishni bosh maqsad sifatida ilgari surdi.

Avloniy o'zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” (1913) asarida pedagogikaning to'rt asosiy jihatini — jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik tarbiyani tizimli ravishda bayon etadi. U shaxsning to'laqonli shakllanishi uchun har tomonlama rivojlanish zarurligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv zamonaviy ta'lim nazariyalarida ilgari surilayotgan holistik (butunlikka asoslangan) ta'lim konsepsiyasiga yaqin turadi. Avloniy uchun ta'lim nafaqat bilim berish vositasi, balki insonni jamiyatga foydali, axloqan pok, vatanparvar va ongli shaxs sifatida tarbiyalashning poydevori edi.

Shu bilan birga, Avloniy tabiiy fanlar - kimyo, geografiya, fizika va astronomiyani maktablarda o'qitish taklifini ilgari surgan ilk mutafakkirlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu tashabbus diniy ta'lim doirasidan chiqib, ilmiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan strategik qadamlardan biri bo'ldi. U ilm-fan va dunyoviy bilimlar orqali insoniyat taraqqiyotini ta'minlash mumkinligini anglagan edi.

Abdulla Avloniy faoliyati o'zbek pedagogik tafakkurida nazariy va amaliy asoslarni uyg'unlashtira olgan yondashuv sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi. U ilm-fan va ma'naviyat uyg'unligini milliy taraqqiyotning asosiy sharti sifatida talqin qilgan. Uning ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari va amaliy faoliyati zamonaviy O'zbekistonning ta'lim tizimi uchun ham o'rnak bo'la oladi. Shu boisdan, Avloniyning merosi nafaqat tarixiy xotira sifatida, balki ilmiy-pedagogik asos sifatida o'rganilishi va amaliyotda qo'llanilishi zarurdir.

Abdulla Avloniy o'z faoliyatini zamonaviy va ilg'or g'oyalarni xalq ongiga singdirish, milliy o'zlikni uyg'otish va ijtimoiy islohotlar sari yo'naltirishga bag'ishlagan. U buni, eng avvalo, maktab tizimi orqali amalga oshirishga intildi. 1908-yilda Toshkent shahrining Mirobod mahallasida yangi usuldagi maktab ochib, bu maskanda ona tili va adabiyot fanlaridan bevosita dars bera boshladi. Avloniy uchun maktab — faqat bilim berish maskani emas, balki jamiyatni yangilovchi, tafakkurni o'zgartiruvchi muhim institut edi.

U 1909-yilda “Jamiyati xayriya” nomli xayriya tashkilotini tuzib, yetim bolalarga ta'lim berishni yo'lga qo'ydi. Shu yili “Adabiyot yoxud milliy she'rlar” nomli to'rt qismdan iborat she'riy to'plamining birinchi juz'ini chop ettirdi. Bu asarlar orqali u xalqni milliy o'zlik, Vatan tuyg'usi, ma'naviy uyg'onish ruhida tarbiyalashga intildi.

1912-yilda Toshkentning Degrez mahallasida ochgan ikki sinfli maktabi esa o'zining mazmuni va yondashuvi bilan an'anaviy maktabxonalaridan farq qildi. Bu dargohda diniy fanlar bilan birga dunyoviy fanlar ham o'qitilgan bo'lib, bu yondashuv o'sha davr uchun innovatsion xususiyat kasb etgan. Shu tariqa Avloniy ta'lim mazmunini tubdan yangilashga urindi.

U maktablar uchun darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashni ham o'z zimmasiga oldi. 1911-yilda “Birinci muallim”, 1912-yilda “Ikkinchi muallim”, 1913-yilda “Turkiy guliston yoxud axloq”, 1915-yilda “Maktab gulistoni”, 1917-yilda “Mardikorlar ashuvlasi” kabi muhim asarlarni nashr ettirdi [5]. Bu darsliklar o'zbek maktab pedagogikasi taraqqiyotining ilk poydevorlarini belgilab berdi.

Avloniy o'z faoliyatida faqatgina ta'lim bilan cheklanib qolmadi. U Munavvarqori, Muhammadjon Podshoxo'jayev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Nizomiddin Xo'jayev, Shokirjon Rahimiy kabi jadid ma'rifatchilari bilan hamkorlikda 1914-yilda “Nashriyot” va 1916-yilda “Maktab” shirkatlarini tashkil etdi. Bu shirkatlar milliy matbuot va darsliklar nashrida muhim rol o'ynadi.

Avloniy xalq ongini uyg'otish vositasi sifatida teatr san'atidan ham keng foydalandi. U 1913-yilda “Turkiston” teatr truppasini tashkil etishda faol qatnashib, sahna asarlarini tarjima qilish, sahnalashtirish va xalq orasida namoyish etish orqali ijtimoiy tanqid va islohot g'oyalarini yoydi. 1910–1916-yillar oralig'ida sahnalashtirgan asarlari Toshkent, Farg'ona, Andijon, Qo'qon, Xo'jand kabi shaharlarda namoyish etilgan. Bu asarlarda o'sha davr Turkiston jamiyatining ijtimoiy muammolari, milliy uyg'onish istagi, adolat va ozodlik g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Avloniy truppasida Mannon Uyg'ur kabi san'atkorlar tarbiya topgan bo'lsa, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Ozarbayjon dramaturglari Uzayr Hojibekov va Ruhullo bilan hamkorlik uning faoliyat doirasining xalqaro miqyosga chiqqanini ko'rsatadi.

Ammo 1917-yilgi Oktyabr inqilobidan keyingi voqealiklar Avloniyning umidlarini puchga chiqardi. Xalq erkinligi, adolat va taraqqiyot yo'lidagi orzulari amalga oshmayotgani uning ijodida tushkun kayfiyatlar, ichki iztirob va ruhiy keskinlik sifatida aks etdi.

Tahlil va natijalar. Avloniy faoliyati o'zbek jamiyatini zamonaviylashtirish, xalq tafakkurini uyg'otish va milliy ta'lim asoslarini yaratish yo'lida amaliy harakatlarning yorqin namunasidir. Uning tajribalari bugungi ta'lim islohotlari uchun boy tarixiy-pedagogik meros bo'lib xizmat qiladi.

Abdulla Avloniy XX asr boshlaridagi o'zbek ijtimoiy-ma'naviy hayotining yetuk vakillaridan biri bo'lib, matbuot, diplomatiya, ta'lim va pedagogika sohalarida serqirra faoliyat yuritgan ma'rifatparvardir. Uning xizmatlari xalqni uyg'otish, savodxonlikni oshirish va milliy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu boradagi faoliyati aniq tarixiy faktlar bilan tasdiqlanadi.

1917-yilda Avloniy “Turon” nomli gazetasini nashr etishga kirishdi. Bu gazeta o'zbek matbuot tarixida siyosiy va ijtimoiy muammolarni keng va dadil yoritgan nashr sifatida alohida o'rin tutadi. Unda milliy uyg'onish, erkinlik, taraqqiyot, ijtimoiy adolat kabi mavzular ko'tarildi. Keyingi yili, 1918-yilda, u “Ishtirokiyun” gazetasining tashkil etilishida faol qatnashdi va muharrirlik vazifasini bajarib, bu gazeta orqali jadidchilik g'oyalari va xalqning ogohliligini oshirishga xizmat qildi.

1919–1920-yillarda Avloniy Sovet hokimiyatining Afg'onistondagi siyosiy vakili va konsuli sifatida xalqaro diplomatik maydonda ham faoliyat yuritdi. Shu bilan birga, Afg'oniston Xalq Ta'limi vaziri lavozimida ishlagan. Bu faoliyati Avloniyning xalqaro aloqalar, ta'lim diplomatiyasi va madaniy almashinuv yo'lidagi xizmatlarini ko'rsatadi. 1921-yilda esa u “Kasabachilik harakati” jurnalining bosh muharriri sifatida mehnatkashlar manfaatini ifoda etgan ijtimoiy-publististik maqolalarni keng yoydi.

Avloniy 1921-yildan boshlab o'z diqqat-e'tiborini xalq ta'limi sohasiga qaratdi. U maktablar tashkil etdi, xotin-qizlar uchun alohida ta'lim muassasalari ochdi, xalqni savodxon qilish harakatiga bosh-qosh bo'ldi. 1923–1924-yillarda Eski shahardagi xotin-qizlar va erkaklar uchun mo'ljallangan maorif bilim yurtlarida mudir bo'lib ishladi. 1924–1929-yillarda Toshkentdagi harbiy maktabda dars berdi. 1930–1934-yillarda esa O'rta Osiyo davlat universitetida (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) til va adabiyot kafedrasini mudiri va professor sifatida faoliyat yuritdi. Bu davrda u o'quvchilarga mo'ljallangan ilk zamonaviy o'quv qo'llanmalaridan biri — “Adabiyot xrestomatiyasi”ni tuzdi va 1933-yilda nashr ettirdi. Mazkur xrestomatiya o'zbek maktablarining 7-sinf o'quvchilari uchun tayyorlangan bo'lib, milliy adabiy merosni yosh avlodga yetkazishning ilk amaliy namunasi sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi.

Avloniy faoliyati mustamlaka sharoitida milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy faollikni kuchaytirish va xalqni ilm-

ma'rifatga chorlash g'oyalari bilan yo'g'rilgan bo'lib, bugungi ta'lim tizimi va ma'naviy qadriyatlar asoslarini shakllantirishda muhim tarixiy va ilmiy manba sifatida qadrlanadi [6].

Abdulla Avloniy — o'zbek milliy pedagogikasi va ma'rifatparvarlik harakatining asoschilaridan biridir. U 1895-yildan boshlab Hijron, Nabil, Indamas, Shuhrat, Tangriquli, Surayyo, Shapaloq, Chol, Ab, Chig'aboy, Abdulhaq kabi ko'plab taxalluslar bilan ilmiy va tanqidiy maqolalar, shuningdek, 4000 misradan ortiq she'rlar yozgan. Uning asarlari ilm-ma'rifat, axloq va milliy tarbiya masalalariga bag'ishlangan.

Avloniy o'zbek pedagogika tarixida birinchi bo'lib pedagogikani "bola tarbiyasining fanidir" deb ta'riflagan. U tarbiyani shaxs kamoloti va jamiyat ravnaqi uchun asosiy omil deb bilgan va uni to'rt yo'nalishga ajratgan:

Tarbiyaning zamoni – Tarbiya bolalikdan boshlanishi zarur. Bu jarayonga ota-ona, muallim, jamiyat va davlat birgalikda mas'ul bo'lishi lozim. Avloniy bu borada shunday deydi: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir."

Badan tarbiyasi – Jismoniy sog'lomlik inson salomatligi va faoliyatining asosi.

Fikr tarbiyasi – Aqlni shakllantirish, tafakkurni o'stirish va ongni rivojlantirish orqali yuksak shaxsni tarbiyalash.

Axloq tarbiyasi – Insoniy fazilatlar, ma'naviyat va odob-axloq mezonlariga amal qilish orqali komil insonni shakllantirish.

Avloniy tarbiyani nafaqat shaxsiy, balki milliy va ijtimoiy mas'uliyat deb hisoblagan. Uningcha, har bir xalqning taraqqiyoti, har qanday davlatning qudrati – avlodlar tarbiyasiga bevosita bog'liqdir.

Adib ilm va aqlni insonni yuksaltiruvchi eng oliy ne'mat deb hisoblaydi. U insonni boshqa jonzorlardan aql va so'z orqali ajratgan Allohning ne'mati deb biladi. Shuning uchun ham: "Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir," – deya ta'kidlaydi [7].

Avloniy jaholatni insoniyatning eng xavfli dushmani deb hisoblaydi. Uning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "Jaholat" va "Aqsoni jaholat" boblari mavjud bo'lib, unda nodonlik va ilmsizlik yomon xulqlarning ildizi sifatida talqin etiladi. Unga ko'ra, jaholat insonni ham dunyo, ham oxirat saodatidan mahrum qiladi.

Avloniy tarbiya jarayonini keng qamrovda tushunadi: u oiladan boshlanib, bog'cha, maktab va jamoatchilik muhitida davom etadi. Uning pedagogik qarashlari zamonaviy ta'lim tizimi uchun ham dolzarb bo'lib, har tomonlama barkamol avlodni shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Abdulla Avloniy o'zbek pedagogik tafakkurining shakllanishida muhim o'rin tutgan mutafakkirdir. Uning tarbiya va ta'lim sohasidagi g'oyalari XX asr boshidagi milliy uyg'onish davri pedagogikasini belgilab berdi. Avloniyning asarlari bugungi kunda ham pedagogik jarayonni interaktivlik, o'quvchi faolligi, o'zaro hurmat va axloqiy tarbiya tamoyillari asosida tashkil etishda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Avloniy ta'limni faqat bilim berish bilan cheklamaydi. U ta'limni inson shaxsiyatini shakllantirish, axloqiy barkamollikka yetaklovchi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarning ajralmas qismi deb qaraydi. Uning fikricha, ta'lim-tarbiya – bu milliy taraqqiyotning strategik paydevoridir.

Adib insoniyat taraqqiyotining eng katta g'ovlaridan biri sifatida jaholatni tilga oladi. U jaholatni ikki shaklda tahlil qiladi:

Jahli bosit – bu inson biror narsa haqida bilmasligini tan oladi, o'rganishga tayyor bo'ladi. Bunday holatni bilim va tarbiya orqali bartaraf etish mumkin.

Jahli murakkab – bu inson o'z bilimsizligini bilmaydi yoki inkor etadi. Bunday hollarda tarbiya jarayoni murakkablik kasb etadi.

Avloniy o'z asarlarida ilm, aql va axloqni insonni kamolga yetkazuvchi uch asosiy tayanch deb biladi. Unga ko'ra, ilm-fan va tafakkur insonni hayvoniy tabiatdan ajratadi, uni jamiyat uchun foydali va mas'uliyatli shaxsga aylantiradi.

Shuningdek, Avloniy tarbiyani umuminsoniy va milliy qadriyatlar bilan uyg'unlikda olib borish zarurligini ta'kidlaydi. U tarbiyani quyidagi asosiy yo'nalishlarga ajratgan:

Badan tarbiyasi

Fikr tarbiyasi

Axloqiy tarbiya

Zamon tarbiyasi (ya'ni tarbiyani erta yoshdan boshlash zarurati)

Bu toifalarning har biri pedagogik faoliyatda mustahkam nazariy asos va amaliy yo'nalish sifatida qaralishi mumkin.

Avloniy tomonidan ilgari surilgan g'oyalar hozirgi kunda zamonaviy pedagogika konsepsiyalarining, xususan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, inkluziv tarbiya va muammoli o'qitish metodlarining tarixiy ildizlarini aniqlashda muhim manba vazifasini bajaradi.

Avloniy pedagogik qarashlarida tarbiya va ma'rifatga alohida e'tibor qaratilgan. U pedagogikani mustaqil fan sifatida ta'riflab, bola tarbiyasini milliy va ijtimoiy muammo deb bilgan. Uning fikricha, tarbiya to'rt asosiy bo'limga bo'linadi: tarbiyaning zamoni, badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasi. U yoshlikdan boshlab tarbiyaga kirishish, bunda ota-ona, o'qituvchi va davlat vakillarining faol ishtirok etishini ta'kidlagan. "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir," deb ta'kidlagan Avloniy.

U tarbiyani shaxsiy ish emas, balki milliy, ijtimoiy muammo sifatida ko'radi. Har bir xalqning taraqqiyoti va davlatlarning qudrati avlodlarning sifatli tarbiyasiga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlaydi. Avloniy pedagogik nazariyalarida aql va ilmning o'rni katta, insonni aqlli va ilmi bo'lish orqali ikki dunyo saodatiga erishish mumkinligi ta'kidlanadi. U jaholatni insoniyatning eng katta dushmani deb ataydi va uni ikki turga bo'lib ko'radi: oddiy jaholat (jahli bosit) va murakkab jaholat (jahli murakkab). Oddiy jaholat — nodonlik va bilmaslik bo'lib, bunday insonlarni ta'lim va tarbiya orqali to'g'rilash mumkin. Avloniy jaholatga qarshi kurashish uchun ta'lim-tarbiya tizimini mustahkamlash zarurligini aytadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarga kelindi:

Abdulla Avloniy ijtimoiy-pedagogik qarashlariga XX asr boshlaridagi tarixiy-siyosiy jarayonlar kuchli ta'sir ko'rsatgan;

Ma'rifatparvar olim ma'naviy tarbiya masalasiga jadidchilikning eng muhim masalalaridan biri sifatida yondashgan;

"Turkiy guliston yoxud axloq" asari Turkiston o'lkasidagi ijtimoiy-pedagogik fikr taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi;

Avloniyning fikr va axloq tarbiyasi, shuningdek, vatanparvarlik haqidagi fikr-mulohazalari muhim ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kun O'zbekiston ijtimoiy pedagogikasida ham dolzarb masala hisoblanadi.

Abdulla Avloniy merosi zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimlari uchun muhim manba hisoblanadi. Uning pedagogik fikrlari bugungi kunda ham yoshlarni ma'naviy, intellektual va axloqiy rivojlantirishda dolzarbdir. Ko'plab olim va ziyolilar fikricha, agar XX asr boshlarida jadid ma'rifatparvarlari, xususan Avloniy kabi arboblarning faoliyatiga keng imkoniyatlar

berilganda, O'zbekiston "Uchinchi Renessans" davrini boshdan kechirgan bo'lar edi.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev maktablarda qanday shior bo'lishi lozimligini aytdi / <http://m.xabar.uz/uz/talim/shavkat-mirziyoyev-maktablarda-qanday>
2. Қосимов Б. Абдулла Авлоний, Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: "Маънавият", 1998. 76-бет.
3. Karimov Bahodir. "Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabitur..." yoxud Abdulla Avloniy ma'rifati. / <https://jadid-media.uz/ilmsiz-inson-mevasiz-daraxt-kabitur-yoxud-abdulla-avloniy-marifati/>
4. Маънавият юлдузлари: (Марказий Осиёлик машхур сиймолар, алломалар, адиблар) // Масъул муҳаррир: М.М. Хайруллаев /. – Тўлдирилган қайта нашр. – Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 1999. 365-бет.
5. Oltinbek Olim. Jadidlar. Abdulla Avloniy [Matn]: risola. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. 44-bet.
6. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. (Qayta ishlangan II nashr). – Toshkent: "Sharq", 2004. 145-bet.
7. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. 2-jild. // Tahrir hay'ati: N. Karimov va boshq.; To'plovchi: B. Qosimov; Izohlar va lug'atni O. To'laboyev tuzgan /. – T.: "Ma'naviyat", 2006. 39-bet.



UDK:371.03.11

Umida XIDIROVA,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: umidaxidirova@mail.ru

PhD L.Korayeva taqrizi asosida

JAHONDA TALABA-YOSHLARNING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH MADANIYATINING TARIXIY SHAKLLANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada talaba-yoshlarning axborotlar bilan ishlash madaniyatining shakllanishi va evolyutsiyasi global tarixiy kontekstda tahlil etiladi. Tadqiqot metodi sifatida aksiologik-genealogik yondashuv, sivilizatsion komparativistika hamda metakognitiv diskurs-analizdan foydalanildi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), infokommunikatsion kompetensiya, media-semiotik landshaft, algoritmik filtratsiya va big data analitika singari ilmiy tushunchalarni ko'rsatib, antik davrdan metaversifikatsiya jarayonigacha bo'lgan axborot madaniyati transformatsiyalari o'rganildi. Xulosa tariqasida, zamonaviy talaba-yoshlar uchun axborot etikasi, krossover kompetentlik va refleksiv kontent-kuryatsiya ko'nikmalari ustuvor ahamiyatga egaligi isbotlab berildi.

Kalit so'zlar: axborot madaniyati, infokommunikatsiya kompetensiyasi, metakognitiv monitoring, media-semiotika, big data, algoritmik filtr, talaba-yoshlar, digital literacy, kontent-kuryatsiya, metaversifikatsiya.

THE HISTORICAL FORMATION OF STUDENTS' INFORMATION CULTURE IN THE WORLD

Annotation

This article analyzes the formation and evolution of students' information culture within a global historical context. The research employs axiological-genealogical methodology, civilizational comparativism, and metacognitive discourse analysis. By addressing scientific concepts such as information and communication technologies (ICT), infocommunicative competence, media semiotic landscape, algorithmic filtering, and big data analytics, the study explores the transformations of information culture from the ancient era to the process of metaversification. The study concludes that, for modern students, information ethics, crossover competence, and reflexive content curation skills are of paramount importance.

Key words: information culture, infocommunicative competence, metacognitive monitoring, media semiotics, big data, algorithmic filtering, students, digital literacy, content curation, metaversification.

ИСТОРИЧЕСКОЕ ФОРМИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ В МИРЕ

Аннотация

В данной статье анализируются формирование и эволюция информационной культуры студенческой молодежи в глобальном историческом контексте. В качестве исследовательского метода используются аксиолого-генеалогический подход, цивилизационная компаративистика и метакогнитивный дискурс-анализ. Через призму таких научных понятий, как информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), инфокоммуникационная компетентность, медиа-семиотический ландшафт, алгоритмическая фильтрация и аналитика больших данных, исследуются трансформации информационной культуры от античности до процессов метаверсификации. В качестве вывода обоснована приоритетность информационной этики, кроссверной компетентности и навыков рефлексивной курирования контента для современной студенческой молодежи.

Ключевые слова: информационная культура, инфокоммуникационная компетентность, метакогнитивный мониторинг, медиа-семиотика, большие данные, алгоритмическая фильтрация, студенческая молодежь, цифровая грамотность, курирование контента, метаверсификация.

XXI asrda «axborotlar bilan ishlash madaniyati» akademik diskursda trans-distiplinar kontseptusga aylandi. UNESCO[4] hisobotida qayd etilishicha, axborotlar bilan ishlashning kognitiv, etik va instrumental aspektlari raqamli transformatsiya jarayonida fundamental rol o'ynaydi. Talaba - yoshlar - global innovatsion ekotizimning dreyveri sifatida - mazkur jarayonning eng sezgir subyekti sanaladi. Shu bois axborotlar bilan ishlash madaniyatining tarixiy genezisi va u orqali shakllangan kompetensiyalarni sistemali o'rganish dolzarb ilmiy - amaliy masaladir.

Maqolada aksiologik, evolyutsion, sivilizatsion va kompetensiyaga yo'naltirilgan paradigmalardan integrativ foydalanildi[3]. Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Axborot madaniyati (information culture) - jamiyat a'zolarining axborotni izlash, tahlil qilish, baholash, uzatish va saqlashga oid aksial qadriyatlar yig'indisi;

Infokommunikatsiya kompetensiyasi - informatsion, kommunikativ va medial savodxonlik birlikligi;

Metakognitiv monitoring - shaxsning o'z kognitiv jarayonlarini nazorat qilishi va refleksiv baholashi;

Media-semiotik landshaft - turli kod, belgi va diskurslar kontekstida axborotlar almashinuvi muhiti;

Algoritmik filtratsiya - sun'iy intellekt asosida dinamik kontent seleksiyasi;

Big data analitika - hajmi va xilma - xilligi yuqori axborotlarning statistik-prediktiv tahlili;

Metaversifikatsiya - fizika va raqamli fazolar sinteziga yo'naltirilgan integratsion jarayon.

Talaba-yoshlarning axborot bilan ishlash madaniyati evolyutsiyasi.

Antik davr va O'rta asrlar. Aleksandriya kutubxonasi (III asr mil. av.) - ilmiy tafakkur va aksial tekstualitet markazi bo'lib, talabalar (o'sha davr talqinida «filarkeion»)da mnemonik strategiyalar va retorik metodlardan foydalangan holda axborotlarni strukturaviy tizimlashtirishni talab qildi[1].

Guttenberg inqilobi va Modern davr. XV asr oxirida ksilografik reproduksiya o'rniga qo'movchi bosma texnologiyaning joriy etilishi axborotlarni massoviy replikasiya qilinishiga zamin yaratdi. Universitetlar kutubxonalarida kard katalog tizimlari bilan birga, talabalar uchun bibliografik orientatsiya darsliklari paydo bo'ldi.

XX asr: Kutubxonachilik paradigmalardan raqamli savodxonlikka Shannon-Weaver modeli kommunikatsiyaning entropiya koeffitsientini kiritib, talabalar axborotlarni kodlash-dekodlashdagi diskret holatlarni tahlil qilishga o'rgatildi. 1960-yillardan boshlab PLATO va ARPANET platformalari e-o'qitish (e-learning) uchun yangi epistemik makonlar yaratdi.[2]

Post-raqamli davr va metaversifikatsiya Raqamli konsyumerizm iqtisodida Web 3.0, immersiv VR/AR interfeyslari hamda blokcheyn-validatsiya qilinuvchi ta'limiy credentiallar talaba-yoshlar axborot madaniyatida tokenizatsiyalash va gibrid identifikatsiya tendensiyalarini yuzaga keltirdi[7].

OECD ma'lumotlariga ko'ra, o'quvchilarning o'rtacha ko'rgazmali axborot bilan ishlash indeksi 2018 yilda 474 ballni, 2023 yilda esa 497 ballni tashkil etdi, bu esa 4,9%lik o'sishni bildiradi. Shuningdek, ICILS natijalari talabalar orasida algoritmik fikrlash kompetensiyasi 0,35 standart deviasiya bilan oshganini ko'rsatadi[5].

Scopus bazasida 2000-2024 yillar oralig'ida «information culture students» kalit iborasi bo'yicha 6312 maqola indekslangan, ularning 42%ida «digital literacy», 18%ida «algorithmic bias» atamallari uchraydi, bu esa tadqiqotning aksent markazini ko'rsatadi.

Talaba-yoshlar axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirishda uch bosqichli model taklif etiladi: (1)kognitiv konstruktivizm — axborotlarni izlash va baholash, (2)aksiologik-etika moduli — deontik me'yorlar va plagiat profilaktikasi, (3)metasistemal integratsiya — sun'iy intellekt yordamida kontent-kuryatsiya va personalizatsiya. Shuningdek, «infodemiologiya» nuqtai nazaridan dezinformatsiya pandemiyasi xavflari aniqlanib, mediatsion kuratsiya strategiyalari (factchecking, open peer-review) zarurligi isbotlandi[6].

Talabalar va yoshlarda axborot madaniyatining tarixiy shakllanishi quyidagicha tavsiflanadi:

Raqamli davrgacha bo'lgan davr (XX asrgacha). Ilk ta'lim tizimlari Axborot og'zaki shaklda yoki qo'lyozmalar orqali uzatilgan. Ta'lim faqatgina boy va zodagon tabaqaga tegishli bo'lgan. Aleksandriya, Bag'dod kabi kutubxonalar axborot markazi bo'lib xizmat qilgan.

Bosmaxona ixtiro qilinishi (XV asr). 1440 yilda Gutenberg bosmaxonasi axborotga kirishni inqilobiy tarzda o'zgartirdi. Kitoblar ommaviylashdi va keng qatlamlar uchun mavjud bo'ldi. Ta'lim asta-sekin keng ommaga yoyila boshladi.

Ma'rifatparvarlik va sanoat inqilobi (XVIII–XIX asrlar). Davlat maktablari va umumiy ta'lim tizimlari paydo bo'ldi. Gazeta va jurnallar keng tarqalib, jamoatchilik fikrini shakllantirdi. Dastlabki axborot savodxonligi shakllana boshladi.

XX asr: Ommaviy axborot vositalari va zamonaviy ta'lim. 1900-yillar boshi Maktab ta'limi jahon miqyosida kengaydi. Radio va kino yoshlarga axborot yetkazishda muhim vosita bo'ldi. 1945-yildan keyingi davr UNESCO va

boshqa tashkilotlar ta'lim islohotlarini ilgari surdi. Axborotshunoslik ilmiy soha sifatida shakllandi. Televizor yangi axborot olish manbai bo'lib xizmat qildi. 1980–1990-yillar: Axborot asrining boshlanishi, kompyuterlar va internet yoshlarga axborotni mustaqil ravishda izlab topish imkonini berdi. Maktab va oliy ta'limda raqamli savodxonlik o'qitila boshlandi. Kutubxonalar multimedia markazlariga aylandi.

XXI asr: Raqamli jamiyat va axborot madaniyati. Internet inqilobi Internet va smartfonlar yoshlarda keng tarqaldi. Ijtimoiy tarmoqlar axborot almashish uslubini o'zgartirdi. «Raqamli avlod» shakllandi – texnologiyani tabiiy qabul qiladigan yoshlar. Ta'lim texnologiyalari (EdTech) Onlayn ta'lim platformalari (Coursera, Khan Academy) orqali bilim olish qulaylashdi. Raqamli ko'nikmalar o'quv dasturlarining ajralmas qismiga aylandi. Yoshlarda axborotni izlash, baholash, ishlatish va baham ko'rish madaniyati shakllandi. Global ong va raqamli fuqarolik mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash va raqamli odob-axloqqa e'tibor kuchaydi. Soxta xabarlar, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va kiberzo'rvonlik muammolari yuzaga chiqdi. Global tarmoqlar orqali madaniy almashinuv kuchaydi.

Hozirgi zamon tendensiyalari va istiqbollar. Sun'iy intellekt: Talabalar aqlli tizimlar bilan muloqotda (masalan, ChatGPT). Gibrid ta'lim: An'anaviy va onlayn ta'lim uyg'unlashmoqda. Umrbod o'rganish: Yoshlardan o'z bilimlarini doimiy yangilab borish kutilmoqda. Global hamkorlik: Yoshlarga xalqaro tadqiqotlar, ixtirolar va loyihalarda ishtirok etish imkoniyati yaratilmoqda.

Tadqiqot talaba-yoshlarning axborot bilan ishlash madaniyati tarixan konteks-sensitiv jarayon bo'lib, antik retorik traditsiyalardan to metaversifikatsiya ekotizimigacha uzluksiz evolyutsiyani kechirganini namoyon etdi. Zamonaviy bosqichda krossover kompetentlik, big data analitika va algoritmik etik muammolar fundamental ahamiyat kasb etmoqda. O'quv jarayonida metakognitiv monitoringni kuchaytirish, kontent-kuryatsiyani avtomatlashtirish va media-semiotik muzokara texnikalarini joriy etish axborot bilan ishlash madaniyatini barqaror rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari sirasiga kiradi.

2022–2024 yillar davomida 12 mamlakatda o'tkazilgan QS Digital Learners Survey natijalariga ko'ra, talabalar orasida eng ko'p foydalaniladigan axborot manbalari sifatida YouTube (87%), Google Scholar (72%) va ijtimoiy tarmoqlardagi fan bloglari (65%) ko'rsatildi, 64% respondentlar sun'iy intellekt asosidagi tavsiya algoritmlarining o'z bilim olish doiralarini toraytirayotganini bildirgan (filter bubble fenomeni); 53% talaba esa SI yordamida yozilgan matnlarni tanib olishda qiynalishini bildirgan, bu esa «algoritmik tanqidiy fikrlash» kompetensiyasining zaifligini ko'rsatadi.

Zamonaviy ta'lim olamida «krossover kompetensiya» - ya'ni, bir necha sohaga oid bilim va malakalarni uyg'unlashtirishga qodirlik - asosiy ijtimoiy kapitalga aylanmoqda[9]. Ayniqsa, «intermedia navigatsiya» - foydalanuvchining bir vaqtning o'zida turli tipdagi axborot manbalari (ilmiy maqola, podkast, blog, videoma'ruza) o'rtasida oqilona yo'nalish topa olishi - talabalar orasida strategik axborot kompetensiyasining markaziy ko'rinishiga aylandi.

Raqamli inklyuziya (digital inclusion) siyosatlari kontekstida talaba-yoshlar orasida epistemik inklyuzivlik tushunchasi shakllanmoqda. Bu - ijtimoiy, madaniy yoki iqtisodiy jihatdan cheklangan guruhlarining ham axborot ekotizimida to'laqonli ishtirokini anglatadi. Shu bilan birga, media-antropologik tadqiqotlar axborotlar iste'moli faqat texnologik emas, balki madaniy va semantik jihatdan ham chegaralanishini ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. L.Casson. Libraries in the Ancient World. Yale University Press.
2. C.Shannon, W.Weaver. The Mathematical Theory of Communication. University of Illinois Press.
3. E. Morin. La Méthode: La connaissance de la connaissance. Seuil.
4. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum. Paris.
5. OECD. PISA 2023 Results. Paris.
6. G.Eysenbach. "Infodemiology and Infoveillance". Journal of Medical Internet Research
7. S. Konomi. "Metaverse-Driven Education: Tokenization and Identity". Education Futures, 35(2), 145-162.
8. A. Giddens. Modernity and Self-Identity. Polity Press.
9. L. Floridi. The Fourth Revolution: How the Infosphere Is Reshaping Human Reality. Oxford University Press.
10. C. Lankshear, M. Knobel. New Literacies. Open University Press.
11. S. Zuboff. The Age of Surveillance Capitalism. PublicAffairs.
12. T. Anderson. The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press.
13. D. Delgado-Bernal. "Cultural Media's Semiotic Impact on Student Engagement". Journal of Educational Technology, 42(4), 512-528.
14. M. Weideman. "Algorithmic Bias in Academic Search Engines". Information Research, 27(3).
15. D. E. Alvermann. "Metacognitive Strategies in Digital Text Reading". Reading Research Quarterly, 53(2), 191-205.



UDK:371.03.1

Baxora XODJAYOROVA,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi, PhD
Fazilat KUCHKAROVA,
Zarmed Universiteti (Samarqand kampusi) dotsenti, PhD
E-mail: baxora@gmail.com

ITSBMQTMOI dotsenti S.Yaxyoyeva taqrizi asosida

TA'LIM VOSITASI ASOSIDA TALABALARNING MULOQOTLARINI RIVOJLANTIRISH

Аннотация

Maqolada zamonaviy talablar asosida zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolari bo'yicha ta'lim vositalaridan foydalanish orqali talabalarning muloqot jarayonlarini faollashtirish masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, axborot texnologiyalari, interfaol metod, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

РАЗВИТИЕ СТУДЕНЧЕСКИХ КОММУНИКАЦИЙ НА ОСНОВЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ

Аннотация

В статье представлены проблемы использования информационно-коммуникационных технологий в подготовке педагогов, а также вопросы изготовления электронных учебников и виртуальных стендов по общетехническим дисциплинам.

Ключевые слова: коммуникация, информационные технологии, интерактивный метод, информационно-коммуникационные технологии.

DEVELOPING STUDENT COMMUNICATIONS BASED ON EDUCATIONAL MEDIA

Annotation

The article presents the problems of using information and communication technologies in the training of teachers, as well as the issues of making electronic textbooks and virtual stands for general technical disciplines.

Key words: communication, information technologies, interactive methods, information and communication technologies.

Kirish. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z nutq va ma'ruzalarida alohida ta'kidlaydilar. Bugungi shiddatkor hayot odamlar bilan bemalol muloqot qila oladigan, yaxshini yomondan ajrata oladigan, hayotning pastu - baland ko'chalarida aql - zakovat bilan to'g'ri yo'lni topishga qodir bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab qilmoqda.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, talabalarni muloqot texnikasini rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Shaxsning yetukligi uning o'z o'ziga va boshqalarga, tabiat va jamiyatga oqilona munosabatida, muloqotida namoyon bo'ladi.

Insonning tani uchun salomatligi qanchalik zarur bo'lsa, uning ruhiyati, qalbi uchun esa ezgulik, oqilonalik, axloq – odoblilik, muloqotga kirishuvchilik shunchalik muhimdir. Inson aqlan va axloqan tobora boyib o'z oldiga oliyjanob maqsadlar qo'ya oladi. Shaxs muloqotda kamol topadi va kasbiy mahoratni ham egallaydi. Shu jihatdan olganda ta'lim-tarbiya jarayonida ko'rish, eshitish sezgilari, idroklari xamda turli ruhiy jarayonlar: xotira, tasavvur, tafakkur, xayolni talab qiladigan ko'nikma-malakalarni shakllantiradigan usul va metodlardan foydalanish o'rindir. Bundan o'quvchi ta'lim-tarbiya jarayonida ishtirok etib, axloqiy tushunchalar-bilim va ko'nikmalarni hosil qiladi, natijada u ta'lim-tarbiya jarayonining kuzatuvchisi emas, balki uning faol ishtirokchisiga aylanadi. Shunday ekan axborotlar shiddati va yangiliklar oqimi tobora kundalik hayotimizning ajralmas bo'lagiga aylanib bormoqda. Bu esa o'z o'rnida har bir shaxsdan fikriy yetuklikni, to'g'ri mushohada yurita olishni, axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi. Ayniqsa bu jarayon jamiyatning sezilarli qismini

tashkil etuvchi yoshlar ongi va shu o'rinda keskin burilishlar, yangicha qarashlarni vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Ta'lim mazmunini takomillashtirish, integratsiyalash, axborot texnologiyalariga asoslanilgan ta'limni tashkil etish esa ana shunday tezkor davr taqozosidir. Sog'lom fikr yurituvchi va ma'naviy jihatdan mukammal, aqlan yetuk, fikran teran, rivojlangan shaxsni tarbiyalash ta'limda yosh xususiyatlariga e'tiborli bo'lish, o'qitishda ta'limning barcha bo'g'inlar aro aloqadorligini ta'min etish va shaxs ongi, tafakkurida yangicha g'oya, tasavvurlarni shakllanishiga imkon beruvchi zamonaviy faol usullardan foydalanishni talab etadi. Oliy ta'limdagi ijtimoiy, gumanitar fanlar doirasida ta'limni noan'anaviy usullarini qo'llanilishi talaba yoshlarni ijodiy tafakkurini shakllanishida, muloqot imkonini kengayishida, voqea-hodisalarga nisbatan baholashlari va qarashlarini shakllanishida va yana shuningdek, dars jarayonida vujudga kelgan qizg'in munozara va mantiqiy yechimlarni bevosita ishtirokchisi sifatida o'z faoliyatidan psixologik qoniqish hissini vujudga kelishida muhim ahamiyatga ega. [1,9bb]

Tahlil va natijalar. Zero, qanchalik ta'lim jarayonidagi berilayotgan yangi ma'lumotlar talabadagi mavjud tasavvurlar va tajribalarga uyg'unlashgan bo'lsa, uni idrok etish, bilish jarayonlari orqali tahlil qilish va baholash faollashadi. 1-2-kurs talabalarida abstrakt tafakkur, mantiqiy fikrlash, tanqidiy baholash, qiyoslab tahlil qilish imkonini yunada takomillashtirishda "Muammoli o'qitish", "Aqliy hujum", "Individual o'qitish" kabi turli subyektiv faollikni talab etuvchi usullar orqali ta'limni tashkil etilishi yuqori samarali ahamiyatga ega. Shuningdek, ta'limni eng so'nggi internet xabarlaridan foydalanilgan va turli slaydlar ko'rinishida tashkil etilishi talabalarda ijodiy tafakkurni, ichki faollikni,

erkin muloqotga kirishish, o'z xulqini boshqarish imkonini shakllantiribgina qolmay, muloqot madaniyati va saviyasini o'zlashtirishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shaxs ma'naviyati, ruhiy olami ko'rinishlari uning muloqoti orqali namoyon bo'ladi. Sir emaski, bugungi kunda yoshlarni muloqot saviyasi, madaniyati, muloqot orqali hissiy holatlarini bayon eta olish imkoniyatida ko'pol nuqsonlar ko'zga tashlanadi. Bu muammo yechimi esa ularni ta'lim jarayonida o'z ustida ishlashlarini tashkil etish, o'zga shaxslarni va o'zini o'zgalar qarashlari (refleksiya) bilan baholay olishlarini yuzaga keltirish orqali hal etish mumkin. Bu esa keng dunyoqarashni, boy ma'lumotlar zaxirasini, turli axborotlar tizimidan foydalana olishlarini taqozo etadi. Bundan tashqari ta'limda individual xususiyatlarni e'tiborga olgan holda va ichki imkoniyatlarga ko'ra turli usullarni qo'llanilishi, talabalarni turli vaziyatlarda faollik ko'rsatishlarini talab etilishi ulardagi ochilmay qolgan imkoniyatlarni, zabt etilmagan yangi qirralarni kashf etilishiga turtki bo'ladi. Mana shunday shaxs bilish jarayonlarini o'zaro uyg'unligini, va faolligini talab etadigan usullardan biri bo'lgan «Aqliy hujum» usuli mantiqiy fikrlashni, xotira, diqqat, idrok, xayol, nutq jarayonlari uzviyligini, tafakkur tezligi va nutqiy mahoratni mukammal darajasini namoyon etishni talab qiladi. Bundan tashqari hal etilayotgan muammo yechimiga qadar turli yondashishlar, ta'riflar keng qamrovli fikr yuritishga, o'z aqliy salohiyatini qay darajada ekanligini baholay olishga sharoit yaratadi. Psixologik nuqtai nazardan, shaxs o'z qobiliyatlari va imkonlarini qay darajada adekvat baholay olishi uni jamiyatda faollik ko'rsatishiga, shaxslararo munosabatlar tizimiga oson kirisha olishiga, ichki salohiyatidan oqilona, samarali foydalana olishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari bir xillikka yo'g'rilgan ta'lim mazmuni shaxs xotirasida kam qo'zg'olishlar hosil qiladi, tasavvurlar tizimida assosiativ bog'lanishlar uzviyligi faol bo'lmaydi. Ta'limdagi ma'lumotlar tizimi qanchalik yangi bo'lib, innovation texnologiyalar asosida yoritilgan tarzda uzatilsa o'zlashtirish jarayonida sifat darajasini oshishiga olib keladi. Ta'limda iloji boricha vizual vositalar, slaydlar asosida o'qitishni tashkil etilishi aniq, mavhumliklarsiz, mavjud bilimlar bilan bog'langan mustahkam tasavvurlar tizimida o'rin olgan tushunchalarni hosil bo'lishiga olib keladi. Interfaol usullardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish ham shaxs faolligini ta'minlovchi, o'ziga nisbatan talabchanlikni oshiruvchi, bevosita o'zini vaziyatni faol ishtirokchisi sifatida erkin idrok qilishiga, mavjud nuqson va kamchiliklarini to'g'rilashiga ta'sir etuvchi omil bo'lib xizmat qiladi.[2,38-39b].

Bunda esa ta'limni multimedia ko'rinishida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ta'limda qanchalik murakkab bilish jarayonlarini ishtiroki talab etilishiga erishilsa, talaba shaxsini yashirin bo'lgan ichki imkoniyatlari, qobiliyat qirralari namoyon bo'ladi. Bevosita ta'lim jarayonida talaba o'zi ham ta'lim mazmunini yorituvchi sifatida faollik ko'rsatishi, muammoni ifodalashda izlanishi o'zlashtirish darajasini yuqori saviyaga ko'tarilishiga olib keladi.

Talaba shaxsini barkamol ma'naviyruhiy olami mukammalligini, teran intellektual salohiyatini shakllantirish, yetuk kamolot egasi qilib tarbiyalash avvalo ta'lim jarayonida belgilanadigan aniq maqsadlar bilan baholanadi [3,93b].

Taraqqiyot sari yuz tutib borayotgan bugungi axborotlar asri ertangi kun yoshlaridan turli muammoli vaziyatlarda o'zini-o'zi to'g'ri baholay oladigan, mustaqil fikriga ega bo'lgan, aqliy va ruhiy imkoniyatlaridan yuksak sa'y-harakatlar yo'lida foydalana oladigan ijobiy xususiyatlar sohibi bo'lishni taqozo etmoqda. Bu esa to'g'ri tashkil etilgan ta'sirchan, innovation ta'lim hamda o'qitish jarayonida tarkib topib boradigan insoniy sifatlar, axloqiy xususiyatlar, ko'nikmaga aylanib boradigan ijodiy faollik darajasi bilan belgilanadi. Yuqoridagi metodlardan to'g'ri va unumli foydalanish o'qituvchining malaka, mahorat, ijodkorligi,

izlanuvchanligiga bog'liq bo'ladi. Mana shunday shaxs bilish jarayonlarini o'zaro uyg'unligini, va faolligini talab etadigan usullardan biri bo'lgan «Aqliy hujum» usuli mantiqiy fikrlashni, xotira, diqqat, idrok, xayol, nutq jarayonlari uzviyligini, tafakkur tezligi va nutqiy mahoratni mukammal darajasini namoyon etishni talab qiladi. Bundan tashqari hal etilayotgan muammo yechimiga qadar turli yondashishlar, ta'riflar keng qamrovli fikr yuritishga, o'z aqliy salohiyatini qay darajada ekanligini baholay olishga sharoit yaratadi. Psixologik nuqtai nazardan, shaxs o'z qobiliyatlari va imkonlarini qay darajada adekvat baholay olishi uni jamiyatda faollik ko'rsatishiga, shaxslararo munosabatlar tizimiga oson kirisha olishiga, ichki salohiyatidan oqilona, samarali foydalana olishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari bir xillikka yo'g'rilgan ta'lim mazmuni shaxs xotirasida kam qo'zg'olishlar hosil qiladi, tasavvurlar tizimida assosiativ bog'lanishlar uzviyligi faol bo'lmaydi. Ta'limdagi ma'lumotlar tizimi qanchalik yangi bo'lib, innovation texnologiyalar asosida yoritilgan tarzda uzatilsa o'zlashtirish jarayonida sifat darajasini oshishiga olib keladi. Ta'limda iloji boricha vizual vositalar, slaydlar asosida o'qitishni tashkil etilishi aniq, mavhumliklarsiz, mavjud bilimlar bilan bog'langan mustahkam tasavvurlar tizimida o'rin olgan tushunchalarni hosil bo'lishiga olib keladi. - Interfaol usullardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish ham shaxs faolligini ta'minlovchi, o'ziga nisbatan talabchanlikni oshiruvchi, bevosita o'zini vaziyatni faol ishtirokchisi sifatida erkin idrok qilishiga, mavjud nuqson va kamchiliklarini to'g'rilashiga ta'sir etuvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Bunda esa ta'limni multimedia ko'rinishida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ta'limda qanchalik murakkab bilish jarayonlarini ishtiroki talab etilishiga erishilsa, talaba shaxsini yashirin bo'lgan ichki imkoniyatlari, qobiliyat qirralari namoyon bo'ladi. Bevosita ta'lim jarayonida talaba o'zi ham ta'lim mazmunini yorituvchi sifatida faollik ko'rsatishi, muammoni ifodalashda izlanishi o'zlashtirish darajasini yuqori saviyaga ko'tarilishiga olib keladi.

Talabalarni muloqotlarini faollashtirishga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishda quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni belgilab beradi. - Jumladan;

- Jahon andozalarga asoslangan kommunikativ texnologiyalarni takomillashtirish;
- talabalar muloqotlarini faollashtirishda milliy va ilg'or xorijiy tajribaning o'zaro uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan didaktik ta'minotini ishlab chiqish;
- muloqot jarayonida yuzaga keladigan manipulyativ xulq-atvorni bartaraf etishning profilaktik texnologiyalarini takomillashtirish;
- talabalarni samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning mezonlari hamda verbal va nonverbal muloqot vositalarining axloqiy-estetik xususiyatlarini aniqlash;
- talabalarni samarali muloqotga tayyorlashning aniq maqsadga yo'naltirilgan lokal moduli texnologiyasini ishlab chiqish;
- talabalarni muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlash modelini ishlab chiqish va uning tashkiliy-texnologik va natijaviy-reflektiv komponentlarini takomillashtirish;
- talabalarni muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning aksiologik va akmeologik imkoniyatlarini ochib berish;
- talabalarni muloqotga tayyorlashga doir ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Talabalardagi kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida interfaol ta'lim jarayoni ahamiyatli sanaladi. Interfaol ta'lim ta'lim oluvchini bilish faoliyatini Faollashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonini

o'zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan "subyekt subyekt" munosabatlariga asoslangan o'qitish metodlari tizimidir. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash va milliy innovasion vva undagi o'qitish jarayonini takomillashtirish maqsadida rivojlangan davlatlarning ta'lim sohasidagi islohotlari tahlil qilinib, shunga ko'ra ta'lim tizimini modernizatsiyalash uning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilib olib borildi. Dunyo ta'limi oldida turgan global vazifalarning hal qilinishida yechimini kutayotgan muammolar: oliy ta'lim tizimining tahlili, vazifalari, maqsadlarini o'rganish va kerakli tavsiyalar yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, ta'lim sohasi bilan shug'ullanuvchi barcha muassasalarining hozirgi kundagi asosiy vazifalari ta'limni tashkil etish, uning sifatini yuqori darajaga ko'tarish, boshqarish, moliyalashtirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish kabi masalalarning hal qilinishiga qaratilgan.

Oliy ta'limni isloh qilish muammolarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimi alohida tarmoq sifatida e'tirof etilmoqda. Natijada turli konsepsiya va qarashlar kelib chiqmoqda, masalan yirik oliy ta'lim muassasalarining o'rtacharoqlariga nisbatan munosabati, ta'limga bo'lgan tarmoqlarning munosabatlari, hududiy ta'lim muassasalarining o'zlari haqidagi yuqori fikrlari kabi ziddiyatlar mavjud. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash ijtimoiy, iqtisodiy muammolardan ajralgan holda, tarmoq muammo sifatida qaralmasligi lozim. Ta'lim sohasida hozircha o'z yechimini topmagan muammolardan biri ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv tizimi tomonidan oliy ta'lim muassasalarining ba'zi mutaxassisliklar bo'yicha yetarli darajada kadrlar tayyorlab berayotganiga qaramay, hozirga qadar ushbu mutaxassislarga nisbatan ish beruvchilar tomonidan talabning yuqori ekanidir. Tahliliy materiallarga tayanib shuni ta'kidlash joizki, zamonaviy oliy ta'lim tizimi yoshlarni mafkuraviy tarbiyalashga, ta'lim mazmunini va tashkiliy tuzilishini takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Yetuk

mutaxassisni ta'lim muassasalari tarbiyalab bera olmaydi, yetuk mutaxassis darajasiga erishish uchun bitiruvchi ma'lum amaliyot davri va sinov bosqichlarini o'tashi zarur. Bu o'rinda oliy ta'lim muassasalarida o'qish davridayoq mehnat faoliyatini boshlab yuborgan tahsil oluvchilarni alohida hisobga olish kerak, chunki ular har xil davlat va nodavlat tashkilotlarida ishlab, amaliyotdagi faoliyatini o'quv dasturlari bilan solishtirish imkoniyatiga egadir, natijada tahsil oluvchi o'qitayotgan fanlar majmuasidan, fan dasturlaridan ayrim hollarda qoniqish hosil qilmaydi va dasturlarga o'zgartirishlar kiritish kerak deb hisoblaydi. Bu esa, o'z navbatida oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilariga noqulayliklar tug'dirishi ham mumkin, chunki erkin bozor munosabatlari davrida har xil mulkchilikka ega bo'lgan korxonalarning o'z qiziqishlaridan kelib chiqib olib borayotgan faoliyat doirasini fan dasturlarida qamrab olish qiyin va maqsadga muvofiq emas. Shu bilan birga, ta'lim tizimini takomillashtirish ta'limning uzviyligini hisobga olgan holda ya'ni, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasasi, umumiy axborot vositalari, masofaviy ta'lim olishni ham nazarda tutib, bir butun shaklda taraqqiy ettirilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda ta'lim muassasalarda faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar oldiga talaba - yoshlarni ma'naviy dunyosini boyitish, ularning ongiga milliy g'oya asoslarini singdirish, vatanparvarlik hissin tarbiyalash, o'tmish va buyuk kelajak haqida fikrlash, u bilan faxrlanish hissin, yangicha tafakkurni shakllantirish bilan birgalikda ularni faol, zamonaviy muloqot madaniyatiga o'rgatish vazifasi turganligini va kasb ta'limi islohotlarini amalga oshirishda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini oshirishda muloqotning samarali yo'llarini ishlab chiqish va ta'lim-tarbiya jarayonida mahorat bilan qo'llay olish har bir oliy ta'lim pedagoglarining oldiga qo'ygan buyuk maqsadiga aylanishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. E. G'oziyev Muloqot psixologiyasi. T.: Universitet, 2000 y
2. B. Xusanov, V. G'ulomov Muomala madaniyati Darslik – T.: "Iqtisod – Moliya" 2009 yil
3. O.Po'latova "The Peculiarity of Communication in Human Relations". Eastern European Scientific Journal. Ausgabe 02/2020 92-94 betlar
4. Мухитдинова Ф. Новый этап реформирования подготовки юридических кадров. Review of law sciences 2 (1), 2017
5. Идеи и учения к концепции духовно-нравственного воспитания подрастающего поколения в Узбекистане ФА Мухитдинова, СС Агзамходжаева Евразийский союз ученых, 2019
6. Проблемы власти и управления в трудах восточных мыслителей ФА Мухитдинова, ХМ Мухаммедов Высшая школа, 35-38, 2015 Д
7. 4. www.auris-verlag.de



UDK: 740

G'ofur XOLMO'MINOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: kholmuminovgofur@gmail.com.

F.f.d. M.Yoqubova taqrizi asosida

METHODS AND TOOLS OF MATCHING KNOWLEDGE AND BELIEFS IN THE MODERN INFORMATION SOCIETY

Annotation

The 21st century is a century of algorithms, information and rapid development. At present, it is impossible to imagine the development of production without information. The information space has a significant impact on society. Therefore, information becomes a priority in the relations between faiths, political processes, community management, the organization of scientific research, education, advocacy.

For this reason, the philosophical and methodological analysis of the correct and rational use of information and the Internet by young people is very relevant today.

Key words: information, technology, democracy, technology, structured information, information war, awareness, Internet, power.

МЕТОДЫ И ИНСТРУМЕНТЫ СООТВЕТСТВИЯ ЗНАНИЙ И УБЕЖДЕНИЙ В СОВРЕМЕННОМ ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

XXI век – век алгоритмов, информации и стремительного развития. В настоящее время невозможно представить развитие производства без информации. Информационное пространство оказывает значительное влияние на общество. Поэтому информация становится приоритетом в отношениях между конфессиями, политическими процессами, общественным управлением, организацией научных исследований, образования, адвокатуры.

По этой причине философско-методологический анализ правильного и рационального использования молодежью информации и Интернета сегодня очень актуален.

Ключевые слова: информация, технологии, демократия, технологии, структурированная информация, информационная война, осведомленность, интернет, власть.

ZAMONAVIY AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA BILIM VA E'TIQODNI MUVOFIQLASHTIRISH USUL VA VOSITALARI

Annotatsiya

XXI asr algoritmlashtirish, axborotlashtirish va tezkor rivojlanish asridir. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarishning rivojlanishini axborotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Axborot maydoni jamiyat hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun axborot inmonlar o'rtasidagi aloqalar, siyosiy jarayonlar, jamiyatni boshqarish, ilmiy tadqiqotlarni, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil qilish, targ'ibot-tashviqot ishlarida ustivor g'oyaga aylanadi.

Shu sababdan yoshlarning axborot va internetdan to'g'iri va oqilana foydalanishning falsafiy metodologik tahlili bugungi kunda o'ta dolzarb hisoblanadi.

Kalit so'zlar: axborot, texnologiya, demokratiya, texnika, strukturalashgan axbort, axborot urushi, ongi, internet, avtoritet.

Kirish. Bugungi kunda xayotimizning turli sohalarida axborot kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelishi va jadal rivojlanish yo'liga o'tishi jamiyatimizga ijobiy ta'sir qilmoqda. Natijada insoniyat axborotlashish sohasida inkilobiy o'zgarishlar davrini boshidan kechirmokda. Dunyoda umumiy axborotlashgan hamjamiyat shakllanmoqda. Bu o'zgarishlar asosini axborotlashtirish, telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari konferensiyasi negizida axborotni uzatish va iste'molchiga etkazib berishning eng zamonaviy va samarali vositalari dunyoga kelayotganini tashkil etadi. Oqibatda XXI asr – axborotlashgan jamiyat asri deb e'tirof etilmoqda.

Axborotlashgan jamiyat texnogen sivilizatsiya rivojlanishining muayyan bosqichidir. Texnogen sivilizatsiyaning o'zi kishilik tarixining ancha keyingi mahsuli bo'lib, u XV-XVII asrlarda Evropada shakllana boshladi. Bu sivilizatsiya G'arb sivilizatsiyasi degan nomni olib, mazkur sivilizatsiya tarixining keyingi davrida ijtimoiy hayotning rivojlanish sur'atini jadallashtirdi, ekstensiv rivojlanish o'rni

intensiv rivojlanish egalladi, innovatsiyalarning o'zi boylikka aylandi. Bu sivilizatsiya ikki bosqichdan – industrial va postindustrial yoki axborot bosqichlaridan o'tdi. Fan yordamida texnika va texnologiyaning rivojlanishi odamlar hayoti va faoliyatining muhim negiziga aylandi [1]. Texnogen sivilizatsiyaning ilk bosqichida dunyoni o'zgartirish, tabiatni inson tomonidan bo'ysundirish g'oyasi etakchilik qilgan bo'lib, insonning faol o'zgartiruvchi faoliyati mana shu g'oyani ro'yobga chiqarishga yo'naltirildi. Insonning fan va texnika yordamida tabiatni bo'ysundirishi g'oyasi umumiy e'tirof etildi. F. Bekon o'zining «Yangi Atlantida» asarida insonning tabiat ustidan hukmronligini kengaytirishni jamiyatning maqsadi deb e'lon qildi [2]. Bu maqsad uzoq vaqt mobaynida texnogen sivilizatsiya paradigmasi bo'lib qoldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi paytda axborot hajmi va kirib borishi jihatidan insoniyatning bitmas-tuganmas strategik zahirasiga aylanmoqda. Bu ob'ektiv ravishda shunga olib keldiki, uchinski ming yillik ostonasida jamoaviy, umumjahon tafakkuri hayratlanarli darajada

o'smoqda. Xususan mazkur maqolada, Shermuxamedova N. Sotsialno-filosofskie aspekti formirovaniya stilya nauchnogo i ego metodologicheskoe enachenie. Dis...d-ra filos.nauk

Shuningdek, Yoqubova M. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari. Uslubiy qo'llanmalarida mavzu bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Industrial jamiyat – yirik mashinali ishlab chiqarishning rivojlanishiga, mazkur ishlab chiqarish hajmi tinimsiz o'sib borishiga, uning ekstensiv rivojlanishiga, tabiiy boyliklarning o'zlashtirilishiga asoslangan. Ishlab chiqarishning ekstensiv rivojlanishi chegaralari aniqlanishiga qarab yangi iqtisodiy-ijtimoiy tuzilishga o'tish, bilim va tabiatga nisbatan yangicha munosabatda bo'lish zaruriyati yuzaga keladi. Texnologiya sivilizatsiyaning yangi bosqichiga o'tish shu bilan belgilanadi. Bu o'tish davri o'zgarishlar tezligining oshishi, ularning radikal va global xususiyatga ega bo'lishi, texnologiyalar, iqtisodiyot, ijtimoiy-siyosiy tuzilish aralash xususiyat kasb etishi, jamiyatning barcha sohalarida bir-birini kuchaytiruvchi inqirozlar sodir bo'lishi bilan tavsiflanadi. Buning natijasida axborot jamiyatining ilk kurtaklari o'z shakllanishining dastlabki bosqichlarida industrial jamiyat tartib-tamoyillari negizida rivojlanadi. Aralash texnologiya, iqtisodiyot, madaniyat va h.k. vujudga keladi. Faqat shundan keyin industrial jamiyat o'zining sifat jihatidan yangi mazmunini shakllantiradi [3].

Postindustrial jamiyat industrial jamiyatning tadrijiy rivojlanishi va o'zgarishi jarayonida yuzaga kelgan ijtimoiy shakl sifatida tushunila boshlandi. Bu g'oya XIX asr o'rtalarida O.Kont, J.Mil, A.Sen-Simon va boshqa sotsiolog va iqtisodchilarning asarlarida ilgari surildi. Ular jamiyat hayoti va faoliyati texnologiyasi negizida ijtimoiy rivojlanishning alohida bosqichlarini qayd etdilar. XX asrning 20-yillarida Londonda jamiyat kelajagini postindustrial sivilizatsiya deb ta'riflagan birinchi asar nashr etildi. 70-yillarning boshlarida R.Aron, U.Rostou va boshqalarning yagona industrial jamiyat konsepsiyasi o'rnini garvardlik sotsiolog D.Bell va boshqa futurologlarning postindustrial jamiyat konsepsiyasi egalladi. Iqtisod ko'p jihatdan xizmat ko'rsatishga asoslanadigan, jamiyatning professional va texnik tabaqalari etakchilik qila boshlaydigan, nazariy bilim birinchi o'rinda turadigan, modellar tuzish, tizimlarni tahlil qilishga yo'naltirilgan intellektual faoliyat yuksak darajada rivojlanadigan va o'zini o'zi qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lgan jamiyat «postindustrial jamiyat» deb atala boshlandi [4].

Tarixiy taraqqiyot tajribasidan ma'lumki, inson o'zi yashayotgan tabiiy ijtimoiy muhitni o'zgartirishi uchun hamisha yangi ma'lumotlarga ehtiyoj sezadi. Boshqacha aytganda, insonga o'zining tabiiy ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun yangi axborot va bilimlar zarur bo'ladi. SHuning uchun ham inson bilimlari doimo o'zgarib turuvchi, dinamik xususiyatga ega.

XX asr oxirida bir qancha sabablarga ko'ra axborotning ijtimoiy ahamiyati keskin ortdi. Odamlarning axborotga bo'lgan ehtiyojlari oshdi va axborot ommaviy mahsulotga aylandi. Axborot bozori yuzaga keldi, unda axborot tovar sifatida sotila boshlandi. Axborot muhim ijtimoiy kuchga aylanib, unga ega bo'lganlar hokimiyatga ham ega bo'la boshladilar. Ijtimoiy o'zgarishlar yanada jadalroq tus olgan sharoitda bu o'zgarishlarga o'z vaqtida moslashish yoki ularga javob berish uchun sodir bo'layotgan o'zgarishlar haqidagi axborotga ehtiyoj keskin ortadi. Axborotga bo'lgan ehtiyojlar tomonga yalpi talabning siljishi sodir bo'ladi. Masalan, 1994 yilda jahonda tovar ishlab chiqarish 3,5% ga, telekommunikatsiya uskunalari sotish esa 20% ga o'sdi. 2004 yilga borib rivojlangan mamlakatlarda ish joylarining 60% axborot ishlab chiqarish va ayirboshlash bilan bog'liq bo'ladi. Axborot bozorida tuzilgan bitimlar hajmi yiliga 20%

dan o'sib bormoqda va tez orada o'z hajmiga ko'ra neft sanoati va energetikadan oshib ketadi [5].

Axborot xizmatlari sohasida aholining 50% dan ortig'i band bo'lsa, bunday jamiyatni axborot jamiyati deb atash mumkin. Ayrim mualliflarning fikricha, «axborot jamiyati» atamasi Yaponiyada paydo bo'lganiga qaramay, axborot jamiyati bosqichiga AQSH 1974 yilda qadam qo'ygan. Rossiya bu yo'nalishda dastlabki qadamlarni tashlamoqda.

Axborotlashgan jamiyat deganda bilim, axborot va axborot texnikasi asosiy rol o'ynaydigan jamiyat tushuniladi. Axborotlashgan jamiyat bu shunday jamiyatki, unda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish eng avvalo axborotni ishlab chiqarish, unga ishlov berish, uni saqlash va jamiyat a'zolari orasida tarqatishga bog'liq bo'ladi. «Biz XXI asrga qadam qo'ymoqdamiz. Tirik mavjudot organizmida nerv to'qimalari qancha ko'p bo'lsa, bu asrda sivilizatsiya organizmida ham elektronika shuncha ko'p bo'ladi... Agar hisoblash texnikasi lozim darajada rivojlanmasa, biz «yo'naltirilgan rivojlanish» davriga qadam qo'yishga umid qila olmaymiz», deb qayd etadi N.N. Moiseev [6].

Ilmiy – falsafiy konsepsiyalarda axborot va bilimning metodologik xarakteriga alohida e'tibor beriladi. Zero, ular haqiqatni ratsional bilishga qaratilgan tadqiqot usullari va vositalarini izlab topishga yordam beradigan faoliyat mezonlaridir. Lekin ular o'z holicha insonning bilish darajasiga to'liq o'zgarish olib kirmaydi. Buning uchun mavjud axborotning gnoseologik va epistemologik chegarasini aniqlashga to'g'ri keladi. Ya'ni axborot va bilimning tadqiqot doirasi ma'lum ob'ektlarini haddan tashqari tor yoki keng ma'noda tahlil qilishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham bunday ilmiy demarkatsiyalar buzilishining oldini olish katta metodologik ahamiyatga ega [7].

Axborot va bilim inson omilining barcha sohalarida namoyon bo'layotgan jihatlari bilan ham ajralib turishi muhim ilmiy-falsafiy masalalardan biridir. «Axborot» – bilimga bo'ysunuvchi tushuncha bo'lib, bilimni boyitadi va o'zgartiradi. Inson ijtimoiy turmushining taraqqiyoti negizida bilim yotadi, ya'ni bilim ijtimoiy tajribani harakatlantiradi. Demak, «axborot tevarak-atrofdagi turli xil manbalardan to'plangan omillar bo'lib, bilimlarni qayta izhor qilish [8]», hamdir

Bilim o'z taraqqiyotining dastlabki bosqichida anglash holatini bosib o'tadi. Bilimning ma'no va mohiyatini anglab etmasdan turib, uni tushunib bo'lmaydi. Xuddi shuning uchun ham anglab olingan bilim o'z taraqqiyotining ikkinchi bosqichida tushunish holatiga kiradi. Inson bilimlarining ma'no va mohiyatini anglab etgach, uning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi borasida fikr yuritadi. Inson tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar, ularning moddiy va ma'naviy ehtiyojlariga, manfaatlariga, xoxish istaklariga qisqacha aytganda, hayotiy mo'ljallariga mos tushsa. Kishida ushbu bilimlarni turmushga tatbiq etish istagi paydo bo'ladi.

Epistemologik nuqtai nazardan esa bilim ob'ektiv ma'noga ega bo'lib haqiqatning mohiyatini ochib berishga yordam beradi. Bunda bilim to'g'ri tanlanib, ezgu maqsad sari yo'naltirilsa, ob'ektiv ma'no-mazsun kasb etadi. Shuning uchun ham bilim bilan faoliyatning o'zaro bog'liqlik munosabatlari ko'pchilik falsafiy qarashlarning diqqat markazida turadi. G'azzoliy bu xususida shunday degan edi: «Bilim – ildizlarning ildizidir, chunki nima qilmoq kerakligi haqida bilim olgandan so'nggina faoliyat o'z shaklini oladi [9].»

Axborotlashgan jamiyatda yangi bilimni olish usuli hisoblash texnikasini qo'llashga asoslangandir. Zamonaviy fanning metodlari (usullari) hajmi jihatdan juda katta bo'lgan ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi, yangi (kuzatish, eksperiment, modelashtirishga asoslanmagan) yondoshuvlar qo'llaniladi. Alohida faktlarni izlash o'rniga korrelyatsiyalarni, tendensiyalarni o'rnatish uchun ma'lumotlar bazasi qo'llanadi,

ilmiy ma'lumotlar informatsion operatsiyalar orqali olinadi. Demak, yangi axborotlashgan jamiyatda ishlab chiqarishning manbai bilimni to'plash texnologiyalari, axborotni qayta ishlash va simbolik kommunikatsiyalarga bog'liq.

Hozirgi vaqtda bilimning muhimligi va zarurligi, axborotlashgan jamiyatni barpo etish haqidagi konsepsiyalarda o'z aksini topgan. Bilimni egallash voqelikni sub'ektiv o'zlashtirish bilan bog'liq. M.Polanining ta'kidlashicha, "his-tuyg'ular orqali olinadigan axborot ong orqali o'tadigan axborotga qaraganda nisbatan boydir" [10].

Tahlil va natijalar. Zamonaviy dunyoda mamlakatning rivojlanishi axborot va bilimning innovatsiya va tatbiq etish o'rtasida muloqotni amalga oshiradigan va axborotni qayta ishlaydigan bilim va moslamalarning yuzaga kelishiga nisbatan qo'llashi bilan belgilanadi. O'z navbatida bilim sub'ekt tomonidan, shaxsiy mulohaza asosida shakllantiriladi.

Bilimning eng yuqori darajalari, odatda, sarf qilingan birlikka nisbatan mahsulotning yaxshilangan va ko'tarilgan darajasini beradi. Bilim va e'tiqod axborotni zamonaviy ishlab chiqarish texnologik funksiyalarini tavsiflaydi. Bilim va e'tiqod uyg'unligi - ishlab chiqarishning manbaini ham tashkil etadi.

Bilim mavjudligining shakllari: bevosita shaxsiy va bevosita jamoaviydir. Ilmiy bilim mavjudligining shakllari individual ko'nikmalar, o'quvlar, xotiralar va shu kabilarning mavjudlik shakllaridan farq qiladi. Bularning ikkinchisi shaxsdan, uning o'ziga xosligidan ajralmasdir, birinchisi esa individual ongda emas, balki jamoat ongida, birinchi navbatda muayyan ilmiy hamjamiyat ongida mavjud bo'ladi.

Bilim va e'tiqod uyg'unligi, faqatgina aniq odamlar, shaxslar tomonidan olinishi mumkin va bu shaxs qanchalik orginal (mukammal) bo'lsa, fan va madaniyatga shunchalik katta hissa qo'shishi mumkin. Shu sababli ijod jarayonini hech qachon shakllantirib bo'lmaydi, hech qanday mashina tirik odamning, ayniqsa, olim, tadqiqotchining o'rmini bosa olmaydi.

O'ta shaxsiylashtirilgan axborotdan bilim olish mumkin. "Sub'ektning bilish faolligi ekplikatsiyaga oid va implitsitiv elementlar bilan belgilanadi. Bilimning imlitsit elementi axborotning shakllantirilishiga tegishli bo'lmagan ortiqcha bilim mantiqiy shaklining zaruriy asosidir. Tushunarli ifodalangan bilim kodlashtiriladi, aniq bo'lmagan, yashirin, implitsit bilim esa sub'ektning mulki hisoblanadi" [11].

ADABIYOTLAR

1. Yoqubova M. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari. / Uslubiy qo'llanma. -T.:StarPoligraf, 2008, -22 bet
2. Bekon F. Novaya Atlantida -S.: Nauka, 1999, S-56
3. Yoqubova M. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari. / Uslubiy qo'llanma. -T.:StarPoligraf, 2008, -25 bet
4. Sharifxo'jaev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi -T.:Sharq, 2003. - 148 bet
5. Moiseev N.N. Chelovek i noosfera. -M.: 1990, S-198
6. Abdullaeva M. Va boshqalar Milliy g'oya va fanning metodologik muammolari - T.: "Falsafa va huquq instituti" nashriyoti, 2009. - 80 bet
7. Davronov Z. Ilmiy ijod metodologiyasi. -T.:Iqtisod-moliya, 2007, - 180 bet
8. Polani M. Lichnostnye znaniya. -M., 1985, S.9
9. Abdullaeva M. va boshqalar Milliy g'oya va fanning metodologik muammolari - T.: "Falsafa va huquq instituti" nashriyoti, 2009. - 86 bet
10. Исмаилов, А. 3. Холмұминов, Ғ.Б. (2020). Ўзбекистон Республикасида ҳуқуқий давлат барпо этишининг тарихий-назарий илдиэлари. Proceedings of Global Technovation- An International Multidisciplinary Conference. Hosted from Samsun, Turkey 31 October 2020. 93-96 бетлар.
11. Исмаилов, А. 3. (2019). Давлатнинг келиб чиқиши тўғрисидаги тарихий назарияларда маданий омилларнинг устуворлиги масалалари. "Фалсафа ва ҳуқуқ" журнали, №1. 79-81 бетлар.
12. Ziyadillaevich, I.A., & Bobonazarovich, G.K. (2020). The origin of the state and the implementation of legal statehood ideas on the territory of uzbekistan. epra International Journal of Multidisciplinary Research, 6(10), 520-524.
13. Тохир Равшанбекович Суннатов. Ахлоқ ва маънавият бирлиги жомий талкинида 4-48 бетлар
14. Hojiyev R.B., Xolmo'minov G.B., Sharipov M.L. (2020) Raising a harmoniously developed generation is a priority of democratic reforms in uzbekistan. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 5, Part II ISSN 2056-5852.
15. Ғ.Б. Холмұминов. Замонавий ахборотлашган жамиятда билим ва эътиқодни мувофиқлаштириш усул ва воситалари, 346-353

Axborot unga ehtiyoj, talab paydo bo'lganidagina bilimga aylanadi. Shuningdek, axborotlashtirilgan jamiyat tarkibiy jihatdan bilim talablari natijalaridan iboratdir. Bilim va axborot o'zaro dialektik aloqadorlikka ega. Ya'ni bilim - bilim bo'lishi uchun avval axborotga aylanishi kerak. Bu jarayonda axborot bilimni tasodif shaklida qayta yuzaga keltiradi. Agar axborotdan to'la-to'kis shaxsiylashtirilgan bilim sifatida foydalanilsa, bilimga ketgan xarajatlar uning natijasini sira oqlamaydi. Ba'zan arziyas axborotlar nihoyatda ulkan hajmdagi bilimlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Masalan, ilmiy ijod jarayonidagi ba'zi evristik qarashlarni aynan e'tibordan chetda qolgan axborotlarning ta'siri tufayli yuzaga kelgan. Demak, biz hozirgi ijtimoiy kontekstda "o'zgarishlar - bilimdir", deb izohlasak maqsadga muvofiq bo'ladi. Texnologiyalarni oziqlantiruvchi bilimlarning tobora tezlik bilan o'zlashtirilishi tub o'zgarishlarning shiddatidan darak beradi.

Hozirgi axborotlashtirish jarayonlarida bilim, e'tiqod, axborot, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati ancha oshmoqda. Zamonamizda yuz berayotgan kompyuterlashtirish, kompyuter texnologiyalari fikrlash bosqichlarining imkoniyatlarini kengaytiradi, esda saqlashdan ozod qilgani uchun miyaga dam berib, ijodiy parvozga yo'l oladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, axborot mahsuloti deganda bilimlarning turli jabhalari, ma'lumotlar, san'at asarlari va an'anaviy yo'l bilan yoki elektron texnika yordamida olingan boshqa axborot shakllari tushuniladi. Bulardan ko'rinadiki, intellektual mehnat vakillarining faoliyati ko'p jihatdan ular oladigan axborotning mazmuni, aniqligi va o'z vaqtidaligiga bog'liq. Ayni shu sohada axborotni bilimlar yaratilish va ulardan foydalanish joylariga etkazishda axborot texnologiyalari katta xizmatchi kuch bo'lib, u ikkita tashkil etuvchi qismdan axborot va ko'ngil ochishdan iborat. Demak, odamlar uchun axborotni taqdim etish sur'ati mavjud bo'lib, u qanchalik shiddatli bo'lsa, tushunish, anglash shunchalik qiyinlashadi.

Shunday qilib, jamiyatni axborotlashtirish jarayonida axborot texnologiyasi va axborotdan foydalanish progressiv rivojlanib boradi. Buning negizida jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarida o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatiladi.



UDK: [372.8:78(480)]

Malika XUDAYBERGENOVA,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tayanch doktoranti
E-mail: maaliikhudaibergenova@mail.ru

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti professori, p.f.d I.Qudratov taqrizi asosida

FINLAND'S EXPERIENCE IN THE FIELD OF MUSIC EDUCATION: AN ANALYSIS OF PEDAGOGICAL APPROACHES

Annotation

In the Finnish educational model, student-centeredness, creative approaches, game-based teaching, and high standards for teacher qualifications are highly developed. This article analyzes the fundamental principles of the Finnish music education system, its pedagogical approaches, and advanced practices in fostering musical literacy through these methods.

Key words: Finland, music education, musical literacy, pedagogical model, student-centeredness, creativity, methodology.

ОПЫТ ФИНЛЯНДИИ В СФЕРЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: АНАЛИЗ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ

Аннотация

В финской модели образования высоко развиты требования к ориентированности на учащегося, творческому подходу, обучению через игру и квалификации преподавателей. В данной статье анализируются основные принципы и педагогические подходы системы музыкального образования Финляндии, а также передовой опыт формирования музыкальной грамотности с их помощью.

Ключевые слова: Финляндия, музыкальное образование, музыкальная грамотность, педагогическая модель, ориентированность на ученика, творчество, методика.

MUSIQA TA'LIMI SOHASIDA FINLYANDIYA TAJRIBASI: PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING TAHLILI

Annotatsiya

Fin ta'lim modelida o'quvchi markazlilik, ijodiy yondashuv, o'yin asosida o'qitish va ustozlar malakasiga bo'lgan talablar yuqori darajada rivojlangan. Ushbu maqolada Finlyandiya musiqa ta'limi tizimining asosiy tamoyillari, pedagogik yondashuvlari va ular orqali musiqiy savodxonlikni shakllantirishdagi ilg'or tajribalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Finlyandiya, musiqa ta'limi, musiqa savodxonligi, pedagogik model, o'quvchi markazlilik, ijodkorlik, metodika.

Kirish. Bugungi globallashuv va texnologik rivojlanish sharoitida san'at va musiqa ta'limining jamiyatda tutgan o'rni qayta baholanmoqda. Ilg'or davlatlarda, xususan Finlyandiya musiqa ta'limi nafaqat madaniy, balki intellektual rivojlanish vositasi sifatida qaralmoqda. Fin ta'lim tizimi, o'zining demokratik, o'quvchi markazli va ijodkorlikni rivojlantiruvchi yondashuvi bilan jahon miqyosida e'tirof etilgan.

Ushbu maqola doirasida, Finlyandiya tajribasi asosida O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa savodxonligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar o'rganilmoqda. Shu bois maqolada Finlyandiya tajribasini tahlil qilish orqali samarali jihatlarni ajratib olish va mahalliy sharoitga moslashtirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Xo'sh, Finlyandiya ta'lim tizimi haqida qanday ma'lumotlarga egamiz? Biz asosan Finlyandiya ta'lim tizimi deganda, albatta PISA[1] (inglizcha — Programme for International Student Assessment) — turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dasturi ko'z oldimizga keladi. Finlar ushbu xalqaro dasturda bir necha yillardan buyon peshqadamdir. Bundan tashqari Finlyandiya ta'lim tizimida musiqa darslariga e'tibor kuchli. Sababi finlar aniq fanlarni o'zlashtirishda musiqaning roli katta ekanligini allaqachon tan olishgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xususan, so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqa odamlarga ko'p jihatdan ta'sir qiladi va kundalik hayotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi (Mitchell 2012; Saarikallio 2011).[2] Musiqa hissiy ta'sirga ega, diqqatni jamlash va dam olishga yordam beradi

hamda ijtimoiy yaqinlikni yaratadi (Hairo-Lax va Muukkonen 2013). Juvonen (2009) maktablarda musiqani o'qitishning qanday amalga oshirilishiga qarab, barcha uchun mazmunli va qiziqarli mazmun taklif etuvchi ko'p qirrali fan sifatida ko'radi. Bundan tashqari, Xayro-Laks va Muukkonen (2013) o'rta maktab yoshidagi o'quvchilar uchun musiqani ko'p jihatdan boyitadigan tajriba sifatida baholaydilar. Masalan, musiqa hissiy holatlarni nazorat qilishga va umuman olganda, ayniqsa o'smirlik davrida his-tuyg'ularni ozod qilishga yordam beradi (Saarikallio 2007, 17-18, 37-38). Shu sababli, u maktablardagi yoshlar uchun ham muhim vosita bo'lishi mumkin (masalan, Hairo-Lax va Muukkonen 2013; Juvonen, Lehtonen, Ruismäki 2016; Numminen 2005, 57-60; Honkonen 2018 ga qarang).

Tadqiqot metodologiyasi. Finlyandiya ta'lim tizimi quyidagi asosiy prinsiplarga tayangan:

Barchaga teng imkoniyatlar: ijtimoiy maqomidan qat'i nazar, barcha bolalar sifatli ta'lim oladi.

Ustozlarning nufuzi: Finlandiyada ustozlik kasbi eng obro'li kasblardan biri hisoblanadi. O'qituvchilar ilmiy darajali mutaxassislar bo'lib, pedagogik erkinlikka ega.

Moslashuvchan dasturlar: Har bir maktab o'zining lokal ehtiyojlariga mos dastur ishlab chiqish huquqiga ega.

O'quvchi markazlilik: ta'lim jarayoni o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari va qiziqishlariga yo'naltirilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Finlyandiya musiqa ta'limi tizimi san'atni har bir bola uchun ochiq va foydali qiluvchi modelga ega. Quyidagi jihatlar diqqatga sazovor:

Ijodiy yondashuv: Fin o'qituvchilari bolalarga nota o'qishni o'rgatishdan avval, ularni musiqani "tuyish"ga, eshitish, takrorlash, ijod qilishga undaydi.

Metodik yondashuvlar: Orff Schulwerk, Dalcroze eurhythmics va Kodály metodlari Fin musiqa ta'limida keng qo'llaniladi. Bu usullar orqali o'quvchilarda ritm, harakat va eshitish asosida musiqiy bilimlar shakllanadi.

Kompozitsiya huquqi: Finlandiyada "Har bir bolada kompozitsiya qilish huquqi bor" degan pedagogik tamoyil mavjud. Bu orqali ijodiy fikrlash, o'z ifodasini topish kabi ko'nikmalar shakllantiriladi.

Guruhda ishlash: sinf ichida hamkorlikda musiqiy loyihalar tayyorlash, musobaqalar va improvizatsiyalar o'tkaziladi.

Fin ta'lim tizimida musiqa savodxonligiga kompleks yondashiladi. Unda:

Solfedjio, nota o'qish, xonandalik, ritmik mashqlar bir butun sifatida qaraladi.

Vizual va audial yondashuvlar sintez qilinadi. Masalan, musiqa chizmalari, ranglar orqali notalarni anglash.

Raqamli texnologiyalar: musiqiy ilovalar, kompyuter dasturlari yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini mustahkamlashadi.

Ammo shu bilan birgalikda bugungi Finlandiya musiqa ta'lim tizimida ham o'ziga yarasha muammo va kamchiliklar mavjud. Xususan "Finlyandiya umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi uchun eng katta imkoniyat boshlang'ich maktabda, ya'ni dastlabki olti sinfda mavjud, chunki bu davrdan keyin musiqa darslari miqdori kamayadi. Shubhasiz, keng qamrovli pedagogik va musiqiy ko'nikmalarsiz asosiy o'quv dasturida belgilangan mazmunni o'qitish imkonsizdir. Musiqani to'g'ri o'qitishni xohlaydigan

har qanday finlyandiyalik sinf o'qituvchisi ham mohir pedagog, ham musiqachi bo'lishi shart". (Tereska, 2003; Vesioja, 2006 tadqiqotlari ham buni tasdiqlaydi). "Ko'pchilik fin talaba-o'qituvchilari musiqani faqat maktabda o'rganishgan. Ularning aksariyati birorta ham musiqa asbobini chala olmaydi va qo'shiq aytishdan cho'chiydi. O'qituvchilik tayyorgarligiga qabul qilish imtihonlari nomzodlarning musiqa qobiliyatlarini hech qanday tarzda tekshirmaydi. Finlyandiya universitetlarida musiqa ta'limining hajmi va sifati turlicha. Bu jihatdan Joensuu universiteti o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha tipik misol hisoblanadi. Joensuu'dagi sinf o'qituvchiligi ta'limi dasturida faqat 5 kredit (45 daqiqadan 80 ta dars) majburiy musiqa va musiqa ta'limi fanlarini hamda ba'zi tanlov fanlarini o'z ichiga oladi. Majburiy o'quv dasturiga o'n ikkita 45 daqiqalik pianino darslari kiritilgan". (Mikko Anttila, Kurybos erdvös 07:8-14.)

Xulosa va takliflar.

Finlyandiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, musiqa ta'limini samarali tashkil etish uchun:

O'quv dasturlarini moslashtirish va ijodiy metodlarni joriy etish kerak;

O'qituvchilarning metodik va texnologik tayyorgarligini oshirish muhim;

Har bir bola uchun musiqiy ifoda imkoniyatini yaratish zarur.

O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu yondashuvlar bosqichma-bosqich joriy etilsa, bu nafaqat musiqa fanining o'zlashtirilishini, balki bolalarning umumiy estetik, madaniy va ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. O'zbekiston musiqa ta'lim tizimining Finlyandiya musiqa ta'lim tizimidan farqlarini qisqacha ushbu jadvalda ko'rishimiz mumkin:

Aspekt	O'zbekiston	Finlyandiya
Ta'lim yondashuvi	Markazlashgan, nazariy asoslangan	Moslashuvchan, o'quvchiga yo'naltirilgan
Ijro va yaratuvchanlik	Kamroq rivojlangan	Keng rivojlangan, ijodiy imkoniyatlar ko'p
Infratuzilma	Cheklangan (asbob va texnologiya yetishmaydi)	Yuqori darajada, zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan
O'qituvchi roli	Bilim beruvchi	Yo'lboshchi va ilhomlantiruvchi mentor
Texnologiya qo'llanilishi	Juda kam	Faol qo'llaniladi (dasturlar, studiyalar)
Fanlararo integratsiya	Kam uchraydi	Keng tarqalgan, boshqa fanlar bilan bog'liq

ADABIYOTLAR

- OECD (2019). Education Policy Outlook: Finland.
- Anttila, M.(2007). Challenges for Music Studies in Class Teacher Education in Finland. <https://www.ceeol.com/search/article-detail?id=127041>
- Väkevä, L., & Westerlund, H. (2007). The "method" of democracy in music education. Action, Criticism, and Theory for Music Education, 6(4), 96–108.Finnish National Agency for Education (2016). Core Curriculum for Basic Education.
- Malika Xudaybergenova O'zbekiston ta'lim tizimida musiqa o'qitishning shakllanish bosqichlari va tavsifi. 2024/10/15. News of the NUUZ [PDF]journalsnuu.uz
- Malika Xudaybergenova O'zbekistonda musiqa savodxonligi darslari samaradorligini oshirishda Finlyandiya tajribasidan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari. 2024/12/20 Nordic_Press.



UDK:37.02

Gullola XUJANIYOZOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: g.khujaniyozova@gmail.com

NavDKTU dotsenti U.Bazarova taqrizi asosida

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA IQTISODIY JARAYONLARNI MATEMATIK MODELASHTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolada raqamlashtirish sharoitida iqtisodiy jarayonlarni matematik modelashtirishning dolzarbligi va ahamiyati, shu jumladan raqamli texnologiyalarning iqtisodiy modellarni yaratish va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirishdagi roli, shuningdek, turli iqtisodiy jarayonlarni (masalan, ishlab chiqarish, iste'mol, investitsiya, inflatsiya, bandlik) matematik modelashtirish usullari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: matematik modelashtirish, iqtisodiy jarayonlarning matematik modeli, raqamli resurslar.

МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Аннотация

В данной статье анализируются актуальность и значение математического моделирования экономических процессов в условиях цифровизации, в том числе роль цифровых технологий в расширении возможностей построения и анализа экономических моделей, а также методы математического моделирования различных экономических процессов (например, производства, потребления, инвестиций, инфляции, занятости).

Ключевые слова: математическое моделирование, математическая модель экономических процессов, цифровые ресурсы.

MATHEMATICAL MODELING OF ECONOMIC PROCESSES IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION

Annotation

This article analyzes the relevance and importance of mathematical modeling of economic processes in the context of digitization, including the role of digital technologies in expanding the possibilities of creating and analyzing economic models, as well as methods of mathematical modeling of various economic processes (for example, production, consumption, investment, inflation, employment).

Key words: mathematical modeling, mathematical model of economic processes, digital resources.

Kirish. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy faoliyatga raqamli-matematik tayyorgarligi tizimi raqamlashtirishning global tendensiyasini hisobga olgan holda takomillashtirishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga ko'ra ishlab chiqilgan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida "maktabgacha, o'rta va oliy ta'lim tizimi uchun elektron ta'lim resurslarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ichki va jahon ta'lim resurslaridan foydalanishni ta'minlash" tadbirini amalga oshirish belgilangan [1].

Kasbiy sohadagi masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan raqamli kompetensiyalarga ega iqtisodchining kasbiy tayyorgarligi uning matematik ta'limi bilan uzviy bog'liq. Bo'lajak iqtisodchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda talabalarning iqtisodiy jarayonlarni o'rganish va matematik modelashtirish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish muhim. Kasbiy sohadagi masalalarining yechimi aniq matematik modellarni qurish va murakkab matematik hisoblarni bajarish bilan aniqlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda bo'lajak iqtisodchilarni tayyorlashda matematik ta'limda qator muammolar mavjud. Jumladan, iqtisodiy jarayonlarning matematik modellarni o'rganish uchun o'quv vaqti kamligi (o'quv vaqti matematik nazariyani o'rganishga va

mustahkamlashga sarflanadi), bu muammo matematik fanlar soatlarini qisqartirish bilan yana murakkablashadi.

Bizning fikrimizcha, raqamli ta'lim resurslari yuqoridagi muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Ye.V.Kleyenovning talqinida matematik fanlarni o'qitish amaliyotiga raqamlashtirishni joriy etish deganda kompyuter vositalari, internet resurslari va dasturiy ta'minotdan foydalanishga asoslangan pedagogik texnologiyalarni qo'llash tushuniladi [3].

Tadqiqotchilar G.V.Makotrova [5] va K.S.Itinson., V.M.Chirkova [2] matematik konsepsiyalarni tushunishni yaxshilash uchun video darslar, interaktiv topshiriqlar va virtual laboratoriyalar kabi elektron o'quv materiallarini yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha pedagogik strategiyalarni tahlil qiladilar.

Matematikani oqitishda raqamli resurslarni qo'llash bir qator imkoniyatlarni beradi:

1) murakkab matematik masalalarni yechish imkoniyati (nafaqat javoblarni, balki batafsil qadamma-qadam yechimni olish);

2) matematik tushunchalarni vizuallashtirish (interfaol vizuallashtirish orqali murakkab matematik tushunchalarni o'rganish va tushunish imkoniyati);

3) matematik modelashtirishni o'qitish (kelajakdagi kasbiy faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalarni matematik modelashtirish, modellarni tadqiq qilishda raqamli resurslardan foydalanish imkoniyati);

4) grafiklarni chizish (funksiya parametrlarining o'zgarishi va ushbu parametrlarning grafik o'zgarishlariga ta'sirini kuzatish imkoniyati).

Ko'pgina olimlarning ta'kidlashicha, zamonaviy sharoitda matematikani o'qitishning muhim qismi kompyuterli algebra tizimlaridan foydalanish hisoblanadi.

A.A.Kitmanov hamuallifligidagi maqolada o'qitish metodlarini samarali integratsiyalash uchun matematika va informatika fanlarining keng sohalarida vizuallashtirishni yaratish va topshiriqlar tayyorlash uchun qulay va tushunarli vositalarga ega SageMath kompyuterli algebra tizimining imkoniyatlari ko'rib chiqiladi [4]. Murakkab oraliq hisoblashlarni va funksiya grafigini chizishni bajarish uchun olimlar Photomath mobil ilovasida aks ettirilgan matematik kalkulyatordan foydalanishni taklif qilishdi [7]. Ushbu ilova foydalanuvchiga muammoning yechimini bosqichma-bosqich vizuallashtirishni ta'minlaydi, shuningdek yechim algoritmining har bir bosqichi bilan bog'liq batafsil tushuntirishlarni namoyish etadi. Shuning uchun talabalar Photomathdan materialni o'zlashtirish, joriy darslarga tayyorgarlik ko'rish va hokazolar uchun qo'shimcha vosita sifatida foydalanishlari mumkin.

T.P.Mxatshva ta'kidlaganidek, Desmos grafik kalkulyatori yordamida amaliy masalalarni yechish talabalar tomonidan matematik tahlilning asosiy tushunchalarini yaxshiroq tushinishga yordam beradi [6].

Matematik hisoblashlarni amalga oshirish uchun qulay vositalar to'plami sun'iy intellektga asoslangan Wolfram Alpha dasturi tomonidan taqdim etilgan. Matematikani o'qitish jarayonida Wolfram Alphaning foydalanish fan bo'yicha amaliy va mustaqil ta'lim vazifalarini bajarish uchun raqamli vositalar, shuningdek ma'ruza darslarida o'quv materiallarini vizuallashtirish vositasi sifatida dolzarbdir.

Funksiya grafigini yasash uchun biz grafik yasashlarni ta'minlaydigan har qanday raqamli vositadan foydalanishimiz mumkin (kompyuter matematikasi tizimlari, grafik kalkulatorlar, mobil ilovalar va boshqalar).

Biz matematika o'qitishda bo'lajak iqtisodchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim komponenti iqtisodiy jarayonlarning matematik modellari tadqiq qilishda raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatini ko'rib chiqamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda va tegishli qarorlarni qabul qilishda imitatsion tadqiqotlar ayniqsa muhim rol o'ynaydi, uning asosiy xususiyati eksperiment o'tkazishdir, lekin obyekt bilan emas, balki uning matematik modeli bilan va tajriba kompyuter yordamida amalga oshiriladi.

Natijalar va muhokama. O'qitishning kasbiy faoliyatga yo'naltirilganlik kontekstida matematikaning turli bo'limlarini o'rganishda maqsadga muvofiq iqtisodiy jarayonlarning matematik modellari misollar va modellarni tadqiq qilishda raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatini ko'rib chiqamiz (1-jadval).

1-jadval

Fan bo'limlari va mavzulari	Iqtisodiy jarayonlarning matematik modellari	Raqamli vositalar	Talaba faoliyati
Chiziqli algebra	Ko'p tarmoqli iqtisodiyotda Leontev modeli	MS Excel, Mathcad, Maple, Mathematica, Wolfram Alpha	Yalpi mahsulot hajmi vektori va yakuniy mahsulot hajmlari vektori o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda (matritsalar ustida amallar bajarish, teskari matritsani topish, matritsaviy tenglamalarni yechish) raqamli resurslarni qo'llaydi.
	Xalqaro savdo modeli	MS Excel, Mathcad, Maple, Mathematica, Wolfram Alpha	Balanslangan savdo uchun mamlakatlarning milliy daromadlari nisbatini aniqlashda (matritsaning xos vektori va xos qiymatini topish, matritsaviy tenglamalar sistemasi yechish) raqamli resurslarni qo'llaydi.
Chiziqli tenglamalar sistemasi	Ikki sektorli ishlab chiqarish modeli	Wolfram Alpha, Mathcad, Desmos grafik kalkulyator	Berilgan xomashyo zahirasi ishlatib, mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmini aniqlash (grafik usul, Gauss, Kramer, matritsalar usullari) raqamli resurslarni qo'llaydi.
Chiziqli dasturlash	Ishlab chiqarishda resurslardan optimal foydalanish masalasi	MS Excel, Mathcad, Maple, Mathematica, Wolfram Alpha, Python	Mavjud resurslardan foydalangan holda korxonaning umumiy daromadini maksimallashtirish;
	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda yer, suv va boshqa resurslardan optimal foydalanish masalasi		fermer xo'jaligi daromadini maksimallashtirish;
	Optimal reklamani tanlash masalasi		sotiladigan mahsulot miqdorini maksimallashtirish;
	Optimal ovqatlanish rejasini aniqlash (diyet) masalasi		sanoatda optimal aralashmalar tayyorlash, aholi uchun iste'mol savatining optimal tarkibini aniqlash;
	Optimal aralashma tayyorlash masalasi		sanoat korxonalari, mebel fabrikalari va tikuv fabrikalarida turli o'lchovdagi materiallardan undan kichik o'lchovlardagi turli xomaki mahsulotlar tayyorlashda chiqindilarni minimallashtirishda (chiziqli dasturlash masalasini yechish, berilgan masala va unga ikkilangan masala yechimi, iqtisodiy talqini) raqamli resurslarni foydalanadi.
	Chiqindilarni minimallashtiruvchi optimal bichish masalasi		Masalan, talaba Mathcad dasturida o'rnatilgan funksiyalar Maximize, Minimize va "Given-Find" mantiqiy blokidan foydalanib, ushbu blokning kirish parametrlarini o'zgartirib, turli xil chegaraviy shartlarda maksimal daromadni, minimal harajatni topadi.
Matematik analizga kirish	Transport masalasi	MS Excel, Mathcad, Maple, Mathematica, Wolfram Alpha	Bir jinsli yuk tashishning eng tejamli rejasini topish, mutaxassislarni ish o'rinlariga optimal taqsimlashda (transport masalasini yechish) raqamli resurslarni qo'llaydi.
	Mutaxassislarni ish o'rinlariga optimal taqsimlash masalasi		
	Bozorning to'rsimon modeli	MS Excel, Mathcad, Maple, Wolfram Alpha, Desmos grafik kalkulyator	Talab va taklif funksiyalarining grafigini yasash, bozorning muvozanat bahosini aniqlashda (bir koordinatalar sistemasida funksiyalarining grafigini yasash, kesishish nuqtasini topish, tenglamalar sistemasini yechish) raqamli resurslarni foydalanadi.
Bir o'zgaruvchili funksiya ekstremumi	Oddiy foizlar	MS Excel	Kreditning qarzdorga ma'lum miqdordagi pulni qarzga berganligi oqibatida oladigan daromadini hisoblash (arifmetik amallar bajarish, foizlarni hisoblash, arifmetik progressiya va geometrik progressiyaning n ta hadi yug'indisi) raqamli resurslarni foydalanadi.
	Murakkab foizlar	Mathcad, Maple, Mathematica, Wolfram Alpha	
Bir o'zgaruvchili funksiya ekstremumi	Foizlarning uzluksiz hisoblanishi modeli		
	Firma foydasini maksimallashtirish	MS Excel, Mathcad, Maple, Mathematica, Wolfram Alpha	Ishlab chiqarishning optimal darajasini va unda erishiladigan foydani aniqlashda (hosila yordamida funksiya maksimumini aniqlash) raqamli resurslarni foydalanadi.
Aniq integral	Korxonalarni soliqqa tortishni optimallashtirish	MS Excel, Mathcad, Maple, Mathematica, Wolfram Alpha	Sotilgan mahsulot birligiga qo'yilgan soliqning optimal darajasini va korxonaning undan erishiladigan foydasi aniqlashda (hosila yordamida funksiya maksimumini aniqlash) raqamli resurslarni foydalanadi.
	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi modeli	Mathcad, Maple, Mathematica, Wolfram Alpha	$[0; T]$ vaqt oralig'ida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini aniqlashda (aniq integralni hisoblash) raqamli resurslarni qo'llaydi.

	Pul oqimini diskontirlash modeli	Mathcad, Maple, Mathematica, Wolfram Alpha	Kapital mablag'larning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda (aniq integralni hisoblash) raqamli resurslarni qo'llaydi.
	Moddiy harajatlarni prognozlashtirish modeli	Mathcad, Maple, Mathematica, Wolfram Alpha	Moddiy harajatlarni prognozlashtirish oid masalalarni yeshishda turli murakkab figuralar, yuzalarni topish uchun (aniq integralni hisoblash) raqamli resurslarni qo'llaydi.
	Aholi guruhlarini o'rtasida daromadlarni taqsimlash modeli	Mathcad, Maple, Mathematica, Wolfram Alpha	Lorens egri chizig'i yordamida aholi daromadini taqsimlashda tengsizlik darajasini aniqlash uchun Djini ko'effitsiyentini hisoblashda (aniq integralni hisoblash, egri chiziqli trapetsiya yuzini topish) raqamli resurslarni qo'llaydi.
O'zgaruvchilari ajraladigan birinchi tartibli differensial tenglamalar	Tabiiy o'sish modellari	Mathcad, Maple, Mathlab, Mathematica, Wolfram Alpha	Ma'lum bir iqtisodiy ko'rsatkich (eng kam omillarni hisobga olgan)ning dinamikasini tavsiflashda (o'zgaruvchilari ajraladigan birinchi tartibli differensial tenglamani yechish) raqamli resurslarni qo'llaydi.
Birinchi tartibli chiziqli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamalar	Iqtisodiy o'sishning klassik modeli va uning modifikatsiyalari (Xarrod-Domar modeli)	Mathcad, Maple, Mathlab, Mathematica, Wolfram Alpha	Yalpi milliy daromad dinamikasini tavsiflaydigan iqtisodiy o'sishning klassik modeli va Xarrod-Domar modeli (milliy daromad iste'molga mutanosib ravishda o'sadi)ni o'rganishda (birinchi tartibli chiziqli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamani yechish) raqamli resurslarni qo'llaydi.
O'zgarmas ko'effitsiyentli birinchi tartibli chiziqli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamalar	Keynsning dinamik modeli	Mathcad, Maple, Mathlab, Mathematica, Wolfram Alpha	Keynsning dinamik modeli iqtisodiy o'sishning klassik modelini biroz takomillashtirish sifatida qaraladi va uni o'rganishda (o'zgarmas ko'effitsiyentli birinchi tartibli chiziqli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamalarni yechish) raqamli resurslarni qo'llaydi.
Differensial tenglamalar sistemasi	Kapital o'sishining neoklassik modeli	Mathcad, Maple, Mathlab, Mathematica, Wolfram Alpha	Mablag'larning chiqib ketishi va mehnat resurslarining yetishmasligini hisobga oladigan iqtisodiy o'sishning neoklassik modeli; umumiy iste'molga va ilmiy-texnik taraqqiyotning iqtisodiy o'sishga ta'siriga asoslangan R. Solou modelini o'rganishda (differensial tenglamalar sistemasini yechish) raqamli resurslarni qo'llaydi.
	Solou modeli		
O'zgarmas ko'effitsiyentli ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglamalar	Bozorning dinamik modeli: narxlar o'zgarishi tempini hisobga oladigan bozor modeli	Mathcad, Maple, Mathlab, Mathematica, Wolfram Alpha	Muvozanat narxini va narxlar dinamikasi funksiyasining umumiy shaklini, vaqt o'tishi bilan narx o'zgarishi tendentsiyasini aniqlashda (o'zgarmas ko'effitsiyentli ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglamani yechish) raqamli resurslarni qo'llaydi.
Diskret tasodifiy miqdorlar	Alohida olingan operatsiyaning riskini baholash	MS Excel Mathcad, Maple, Mathlab, Wolfram Alpha	Kutilayotgan o'rtacha daromadni, operatsiya riskini bahosini aniqlashda (diskret tasodifiy miqdorning matematik kutilishi, dispersiyasi, o'rtacha kvadratik chetlanishini topish) raqamli resurslarni qo'llaydi.
Uzluksiz tasodifiy miqdorlar	Uzluksiz daromad uchun riskni hisoblash	MS Excel Mathcad, Maple, Mathlab, Wolfram Alpha	Uzluksiz daromadli operatsiyaning kutiladigan o'rtacha daromadini va daromadning o'rtacha daromaddan chetlanishini hisoblash; operatsiyaning riskini hisoblashda (tasodifiy miqdorning matematik kutilishini dispersiyasini topish) raqamli resurslarni qo'llaydi.
To'la ehtimol. Bayes formulasi	Kredit riski	Mathcad, Maple, Mathlab, Wolfram Alpha	Olingan qarzni qaytmasligi bilan bog'liq bo'lgan risk kredit riski aniqlash uchun (hodisaning to'la ehtimol topish) raqamli resurslarni qo'llaydi.
Muavr Laplasning integral teoremasi	Depozit riski	Mathcad, Maple, Mathlab, Wolfram Alpha	Jismoniy shaxslar tomonidan banklarning depozit hisobiga qo'yilgan mablag'larni muddatidan oldin qaytib oladigan mijozlar soni k ning ($k_1 \leq k \leq k_2$) intervaldagi qiymatlarni qabul qilish ehtimolligi aniqlash uchun (Laplasning integral teoremasi) raqamli resurslarni qo'llaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, matematik modellashtirish metodidan foydalanishni qo'llab-quvvatlovchi raqamli vositalar bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy

tayyorgarligining raqamli komponentlarini rivojlantirishda alohida rol o'ynaydi hamda kelajakda yetuk mutaxassis sifatida shakllanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son Farmoni.
2. Итинсон К.С., Чиркова В.М. Обзор платформ электронного обучения: инструменты, преимущества, недостатки // Балтийский гуманитарный журнал. – 2021. – Т. 10. – № 3 (36). – С. 194–197.
3. Клейменова Е.В. Технология вариативного обучения студентов вуза в условиях цифровизации образовательной среды / Е.В. Клейменова // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Проблемы высшего образования. – 2019. – №2. – С. 32–34.
4. Кытманов А.А. Системы научных вычислений как инструмент синергии в математическом образовании инженера / А.А. Кытманов, В.А. Лазарева, С.А. Тихомиров // Ярославский педагогический вестник. – 2016. – № 6. – С. 157–163.
5. Макотрова, Г. В. Проектирование электронных учебных пособий для исследовательского обучения школьников / Г. В. Макотрова // Отечественная и зарубежная педагогика. – 2021. – Т. 1. – № 1(74). – С. 58–74.
6. Mkhatshwa T.P. Best practices for teaching the concept of the derivative Lessons from experienced calculus instructors / T.P. Mkhatshwa// Eurasia Journal of Mathematics, Science and Technology Education. – 2024. – No.20 (4), em. 2426. – DOI: <https://doi.org/10.29333/ejmste/14380>
7. Тутынина О.И. Использование приложения PhotoMath и других онлайн-калькуляторов в преподавании высшей математики / О.И. Тутынина, А.А. Беспалько, Н.В. Сочнева, И.Д. Камскова // Современные наукоемкие технологии. – 2024. – №2. – С. 74–79. – DOI 10.17513/snt.39936



Sanjar CHORIYEV,
Qarshi davlat universiteti professori, f.f.d
Sherali XOLOV,
Qarshi davlat universiteti tadqiqodchisi
E-mail: Sherali.holov@mail.ru

QarDU professori, f.f.d G. Bekpo 'latova taqrizi asosida

GLOBAL ECONOMIC CHANGES OCCURRING WORLDWIDE AND THEIR IMPACT ON SOCIAL PROCESSES IN UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the impact of global economic development trends on processes in Uzbekistan and examines their influence on Uzbek processes in detail. The article will analyze the concept of economic development and its philosophical content, explore the meaning of the concept of the global economy, and investigate the relationship between globalization and the economy of Uzbekistan. Additionally, the article will analyze the prospects of the global economy and its positive and negative effects on Uzbekistan's economy. Practical recommendations will be provided to mitigate the negative consequences of globalization.

Key words: global economic changes, social processes, Uzbekistan, philosophical analysis, economy, population's living standards, employment, education, healthcare, culture.

ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ, ПРОИСХОДЯЩИЕ В МИРЕ, И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИАЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.

Аннотация

В данной статье анализируется влияние тенденций глобального экономического развития на процессы в Узбекистане, а также подробно рассматривается их воздействие на узбекские процессы. В статье будет проанализировано понятие экономического развития и его философское содержание, исследовано содержание понятия глобальной экономики, а также взаимосвязь между глобализацией и экономикой Узбекистана. Также в статье будет проведен анализ перспектив глобальной экономики и их положительного и отрицательного влияния на экономику Узбекистана. Будут предложены практические рекомендации по смягчению негативных последствий глобализации.

Ключевые слова: глобальные экономические изменения, социальные процессы, Узбекистан, философский анализ, экономика, уровень жизни населения, занятость, образование, здравоохранение, культура.

JAHONDA YUZ BERAYOTGAN GLOBAL IQTISODIY O'ZGARISHLAR VA ULARNING O'ZBEKISTONDAGI IJTIMOIIY JARAYONLARGA TA'SIRI

Аннотация

Ushbu maqolada global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalarining O'zbekistondagi jarayonlarga ta'siri tahlil qilinadi va ularning O'zbekistondagi jarayonlarga ta'siri atroflicha o'rganiladi. Maqolada iqtisodiy taraqqiyot tushunchasi, uning falsafiy mazmuni tahlil qilinadi, global iqtisodiyot tushunchasining mazmuni, globallashuv va O'zbekiston iqtisodiyoti o'rtasidagi aloqadorlik o'rganiladi. Maqolada global iqtisodiyotning istiqbollari, O'zbekiston iqtisodiyotiga ijobiy va salbiy ta'sirlari tahlil qilinadi. Globallashuvning salbiy oqibatlarini yumshatish bo'yicha amaliy takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: global iqtisodiy o'zgarishlar, ijtimoiy jarayonlar, O'zbekiston, falsafiy tahlil, iqtisodiyot, aholi turmush darajasi, bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat.

Kirish. Jahon iqtisodiyoti globalizatsiya, texnologik taraqqiyot, iqlim o'zgarishi va demografik o'zgarishlar kabi omillar ta'sirida tez sur'atlar bilan o'zgarmoqda. Ushbu global iqtisodiy o'zgarishlar barcha mamlakatlarga, shu jumladan O'zbekistonga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston iqtisodiyoti global iqtisodiyotning bir qismi sifatida ushbu o'zgarishlardan chetda qolishi mumkin emas. Shuning uchun, jahonda ro'y berayotgan global iqtisodiy o'zgarishlarning mohiyatini, tendensiyalarini va ularning O'zbekistondagi ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

XXI asr – global o'zgarishlar asri bo'lib, jahon iqtisodiyoti globalizatsiya, texnologik taraqqiyot va iqlim o'zgarishi kabi omillar ta'sirida misli ko'rilmagan darajada o'zgarmoqda. Ushbu o'zgarishlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy sohalarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston, global iqtisodiyotning ajralmas qismi sifatida, ushbu o'zgarishlardan chetda qolishi mumkin emas.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti global bozorga integratsiyalashuvi orqali yangi imkoniyatlarga ega bo'lmoqda, biroq global raqobat, texnologik o'zgarishlar va iqlim o'zgarishi kabi muammolarga ham duch kelmoqda.

Global o'zgarishlar sharoitida O'zbekistonning ijtimoiy barqarorligini ta'minlash muhim vazifa bo'lib, bu aholi turmush darajasi, bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash va milliy madaniyat kabi sohalarga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi - global iqtisodiy o'zgarishlarning O'zbekistondagi ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini falsafiy tahlil qilish va ushbu ta'sirni yumshatish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzu doirasida jahonda ko'plab olimlar ilmiy mushohadalar qilganlar. Jumladan, Amerikalik olim Shumpeter birinchi marta iqtisodiy taraqqiyot tushunchasini fanga kiritgan. F.Bergsten, L.Brayan, A.O'Sullivan, G.Roland, O.Farrell, St.M.Sheffrin kabi olimlar o'z asarlarida iqtisodiy

taraqqiyotning ahamiyatini tahlil qiladilar, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlaridan U.Ayubov, I.Vladimirova, J.Djumayeva, Ye.Kamishanchenko, V.Krivoshcheyeva, L.Krilova, G.Machavariani, V.Pospelova, P.Probin, Y.Rastopchina, A.Ribinets kabi olimlar o'z ilmiy asarlarini global iqtisodiyot haqidagi qarashlarini aks ettiradilar, O'zbekistonlik olimlardan I.Karimov, X.Abulkasimov, B.Aliyev, I.Avvalboyev, A.Huseynova, N.Batirova, S.Choriyev, G.Bekmurodova, O.G'aybullayev, N.Ziyadullayev, G.Zoxirova, A.Qodirjonov, N.Mahmudov, Z.Nurov, B.Omonov, M.Rajabova, M.Xajiyeva, A.Shirinov, M.Rashidov, M.Saidrasulova, J.Fayzullayev, A.Eshatayevlarning asarlarida ham global iqtisodiyot tushunchasi, uning iqtisodiy ahamiyati atroflicha o'rganiladi. Biroq adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning birortasidasida ham masalning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rganilmaydi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot mantig'i avvalo, asosiy tushuncha mazmuni va hajmini aniqlab olishni taqozo qiladi. Buning uchun "iqtisodiyot" va "taraqqiyot" tushunchalari ta'rifiga murojaat qilsak. Ensiklopediyalarda "iqtisodiyot" tushunchasining quyidagi uch ma'nosi keltiriladi:

"1) kishilar tomonidan mehnatni qo'llagan holda inson uchun zaruriy bo'lgan ne'matlar, hayot sharoitlari va vositalarini yaratish orqali tirikchilikni ta'minlash, ehtiyojlarni qondirishda foydalaniladigan xo'jalik, vositalar, obyektlar, jarayonlar majmuidir. Ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimot, iste'mol sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni qamraydi;

2) muayyan mamlakatning milliy xalq xo'jaligi yoki uning bir tarmog'i (transport iqtisodiyoti, qishloq xo'jalik iqtisodiyoti va boshqalar);

3) xo'jalikning u yoki bu tarmog'ini, mintaq xo'jaligini, ishlab chiqarishni tashkil etish usullari va shakllarini, shuningdek, ishlab chiqarishni boshqarishni o'rganadigan iqtisodiyot fanlari (sanoat iqtisodiyoti, savdo iqtisodiyoti va boshqalar)" [1]. Tadqiqot obyekti milliy iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lgani bois ushbu ta'riflarning birinchisini asos sifatida qabul qilamiz.

Har qanday mamlakatning iqtisodiyoti bir necha sektorlardan tarkib topadi. P.Samuelsan va U.Nordhaus o'z asarida bu sektorlarni quyidagicha tasniflaydi:

"birlamchi sektor – tabiiy resurslarni qazib olish hamda qishloq xo'jaligi faoliyatlarini o'z ichiga oladi (masalan, qishloq xo'jaligi, baliqchilik, to'qimachilik);

ikkilamchi sektor – sanoat va ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi (masalan, mashinasozlik, qurilish, oziq-ovqat ishlab chiqarish);

uchlamchi sektor – xizmat ko'rsatish sohasi (masalan, savdo, transport, ta'lim, sog'liqni saqlash);

to'rtlamchi sektor – bilim va texnologiyaga asoslangan iqtisodiyot (masalan, IT sohasi, tadqiqot va innovatsiyalar)" [2].

"Bugungi mamlakatlarning iqtisodiyotlari turli shakllarga egaligi bilan ham xarakterlanadi. Ko'plab mamlakatlarda xususiy mulkchilikka asoslangan hamda mahsulotlar va xizmatlarni bozor mexanizmlari asosida taqsimlashga ixtisoslashgan bozor iqtisodiyoti hukm suradi. Ayrim yurtlarda markazlashtirilgan iqtisodiyot saqlanib qolgan bo'lib, unda iqtisodiy faoliyat davlat tomonidan rejalashtiriladi va nazorat qilinadi. Turkum diyorlarda aralash iqtisodiyot elementlari ko'zga tashlanadi: bunday vaziyatda bozor iqtisodiyoti elementlari davlatning iqtisodiy faoliyatini tartibga solish funksiyalari bilan uyg'unlashib ketadi" [3].

Ilmiy manbalarda "taraqqiyot" tushunchasi falsafaning asosiy kategoriyalari turkumiga kiritiladi hamda atroflicha tavsiflanadi. Shunday manbalardan birida taraqqiyot uch xususiyatga ega murakkab, serqirra, ko'p bosqichli jarayon sifatida ta'riflanadi: Birinchidan, taraqqiyot, eng avvalo, tizimdagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Ikkinchidan, taraqqiyot

tizimdagi takrorlanmas, qaytarilmas o'zgarishlar bilan bog'liq. Uchinchidan, taraqqiyot ma'lum yo'nalishga ega bo'lgan sifatli o'zgarishlar bilan bog'liq [4]. Tilga olingan uch xususiyat "taraqqiyot" kategoriyasini ta'riflash imkonini beradi. Shunday qilib, taraqqiyot - sistemadagi takrorlanmas, ma'lum yo'nalishga ega bo'lgan sifatli o'zgarishlardir [5]. Tushunchaning mazkur ta'rifini mulohazalarimizning dastlabki nazariy-metodologik asosi sifatida qabul qilamiz.

Taraqqiyot o'ta murakkab va muayyan qonunlar asosida kechadigan jarayondir. Bu jarayon nemis klassik falsafasida ayniqsa tizimli ifodalab berilgan. Xususan, I. Kant "taraqqiyot" tushunchasini Quyosh sistemasiga nisbatan qo'llar ekan, olamning sifatli o'zgarishi haqidagi yangicha qarashlarga asos soldi. G. Gegel esa ilk bor taraqqiyot haqidagi yaxlit konsepsiyani ishlab chiqdi. Dialektika nomini olgan ushbu konsepsiya nafaqat yangi taraqqiyot modellari shakllanishiga zamin hozirladi, balki barcha zamonaviy konsepsiyalarning ham nazariy-metodologik asosini tashkil etdi [5].

G.Gegelnin qarashlari keyinchalik turli falsafiy maktablar tomonidan yanada takomillashdi. Bu qarashlar XIX asrda taraqqiyotning uch asosiy konsepsiyasi yuzaga kelishiga sabab bo'ldi:

1. Taraqqiyotning gradualistik konsepsiyasi. Ushbu konsepsiya muallifi G.Spenser butun tabiatni bosqichma-bosqich evolyutsiya mahsulati sifatida talqin etdi.

2. Taraqqiyotning naturalistik konsepsiyasi. Uning asoschisi Ch.Darvin taraqqiyot va evolyutsiya g'oyalari biologiya predmetiga nisbatangina ishlatdi.

3. Taraqqiyotning dialektik-materialistik konsepsiyasi. Mazkur model mualliflari K. Marks, F.Engels va V.Lenin taraqqiyotni materiyaning sifatli o'zgarishi pozitsiyasidan ta'riflaydi [5].

Tadqiqotning natijasi "iqtisodiyot" va "taraqqiyot" falsafiy tushunchalarining mazmuni sintezi "iqtisodiy taraqqiyot" kategoriyasi ta'rifini ifodalash imkonini bergan. Ushbu tushunchalardan xulosa qilsak, iqtisodiy taraqqiyot moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratishda qo'llaniladigan xo'jaliklar, vositalar, obyektlardagi, ular vositasida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimot, iste'mol munosabatlaridagi takrorlanmas, ma'lum yo'nalishga ega bo'lgan sifatli o'zgarishlarni ifodalovchi kategoriyadir.

"Iqtisodiy taraqqiyot" tushunchasini ilmiy muomalaga amerikalik iqtisodchi, siyosatshunos va sotsiolog olim Yozef Aloiz Shumpeter kiritgan. U avval Venada, so'ngra Berlin va Londonda tahsil olgan olim, keyinchalik Ko'hna qit'adagi taloto'plar tufayli AQShga ko'chib o'tishga majbur bo'ldi va ilmiy izlanishlarini shu mamlakatda davom ettirdi. AQShda olim ijodi yuqori e'tirofga sazovor bo'ldi – u Garvard universiteti professori lavozimi bilan bir qatorda 1940-1941 yillarda mamlakat iqtisodiy jamiyati prezidenti, urushdan keyingi yillarda esa Amerika iqtisodiy Assotsiatsiyasi prezidenti sifatida mehnat qildi [6]. Olim qator terminlarning "kashfiyotchisi" sanaladi. Masalan, u iqtisodiyot nazariyasini "bunyodkor vayronkorlik" [7], siyosatshunoslikni esa "elitar demokratiya" [8] tushunchasi bilan boyitdi.

"Iqtisodiy taraqqiyot" olim taklif etgan ana shunday tushunchalardan yana biri hisoblanadi. Ushbu tushunchani Y.Shumpeter iqtisodiy ravnaqni oddiy iqtisodiy o'sishdan tafovutlash maqsadida qo'llaydi. Olim o'zining "Iqtisodiy taraqqiyot nazariyasi" nomli kitobida iqtisodiy taraqqiyot oddiy iqtisodiy o'sishdan tubdan farq qilishini yorqin misol yordamida tasvirlab beradi. Masalan, deydi u, son-sanoqiz pochta aravalarini bir qator qilib qo'yib chiqishingiz mumkin, biroq buning bilan u temir yo'l transportiga aylanib qolmaydi. Iqtisodiy o'sish bir xildagi mahsulot va xizmatlarning (shu jumladan pochta aravalarining) shunchaki miqdoriy ko'payishidir, xolos. Bundan farqli o'laroq, iqtisodiy taraqqiyot ishlab chiqarishdagi, mahsulotlardagi,

xizmatlardagi, boshqaruvdagi, nihoyat, butun iqtisodiyotdagi sifatini o'zgarishlaridir [9].

Xulosa va takliflar. Jahon moliya tizimida yuzaga kelayotgan global xatarlar yildan yilga oshib bormoqda, jumladan savdo urushlari, import bojlari, eksport bojlari, monopollashuv jarayonlari buning yaqqol misoli bo'la oladi. Globallashuv qator ijobiy foydalari, jumladan, erkin savdo tizimi, xalqaro savdoni oshirsada, mamlakatlar o'rtidagi axborot resurslarini kuchaytirsa, bir qator kamchiliklari ham mavjud. Masalan, rivojlangan davlatlarda ish o'rinlari keskin kamayib ketadi, chunki kata-katta kompaniyalar o'z ofislarini dunyoning mehnat resurslari arzon bo'lgan davlatlariga olib chiqib ketadi. Yana bir ayanchli ahvollaridan biri shuki, atrof muhitning buzilishiga olib keladi, sababiki, yangidan yangi

tashkil etilayotgan zavod va fabrikalar, kichik va o'rta biznes subyektlari tabiatga yetkazadigan zararlari oshib boradi. Shundan kelib chiqib, quyidagi takliflarni o'rinli deb topamiz:

- Milliy iqtisodiyotni tubdan diversifikatsiya qilish kerak;
- Yangidan yangi ish o'rinlarini yaratish;
- Ta'lim tizimini isloh qilish;
- Tibbiy xizmatlarni modernizatsiya qilish;
- Milliy kaloritetimizni yemirilib ketishini oldini olish.

Ushbu takliflarni amalga oshirish O'zbekistonda yangi va yangi ish o'rinlarini shakllantiradi, kengaytirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantiradi, mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga chiqishiga imkon yaratadi, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirib beradi, dunyoning rivojlangan davlatlar qatoriga chiqishiga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Назаров К. Жаҳон фалсафаси қомуси. Ж.1.- Т.: Ўзб.файл. миллий жам. нашр.- Маънавият, 2019.- Б.547.
2. Samuelson P. A., Nordhaus W. D. Economics (19th Edition)-. New York: McGraw-Hill, 2010. –P.38.
3. Mankiw N. G. Principles of Economics (8th Edition).- Boston: Cengage Learning, 2018. –P.42.
4. Чориев С. Онтология.- Қарши: Фан ва таълим, 2021. - Б.102.
5. Чориев С. Онтология.- Қарши: Фан ва таълим, 2021. - Б.103.
6. Чориев С. Онтология.- Қарши: Фан ва таълим, 2021.- Б.103.
7. Чориев С. Онтология.- Қарши: Фан ва таълим, 2021.- Б.103.
8. Allen R. L. Opening Doors: The Life and Work of Joseph Schumpeter. - N.J.: Transaction Publishers, 1991.-P-17
9. Jahon banki. (2023). Global iqtisodiy istiqbollar. Vashington, DC: Jahon banki. (World Bank. (2023). Global Economic Prospects. Washington, DC: World Bank.)
10. Xalqaro valyuta fondi. (2023). Jahon iqtisodiyoti ko'rinishi: Noyabr 2023 yangilanishi. Vashington, DC: Xalqaro valyuta fondi. (International Monetary Fund. (2023). World Economic Outlook Update: November 2023. Washington, DC: International Monetary Fund.)
11. Mirziyoyev, Sh. M. (2022). Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni PF-6079. (2020). 2020–2023-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi to'g'risida.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2024). 2024-2030 yillarga mo'ljallangan iqtisodiyotni rivojlantirish dasturi.
14. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. (2023). O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari. Toshkent.
15. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). Why nations fail: The origins of power, prosperity, and poverty. New York: Crown Business.
16. Stiglitz, J. E. (2002). Globalization and its discontents. New York: W. W. Norton & Company.



UDK:371.03.

Nafisa SHUKUROVA,
O'z-Fin ped instituti tayanch doktoranti
E-mail:shkurovanafisa525@gmail.com

Professor Z.Boltayev taqrizi asosida

13–14 YOSHLI 400 METR MASOFAGA YUGURUVCHILARNING START TEZLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada 13-14 yoshli yengil atletikachilarning 400 metr masofaga yugurishda start tezligini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Tajriba asosida start bosqichidagi tezlikni shakllantirish va takomillashtirishda texnika, kuch va koordinatsiya mashqlari muhim omil ekanini isbotlandi. Tadqiqot natijalari asosida yosh sportchilarni tayyorlashda samarali bo'lgan mashg'ulot tizimi ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: 400 metr yugurish, start tezligi, yengil atletika, yosh sportchilar, tayyorgarlik, texnika, kuch mashqlari.

INCREASING THE STARTING SPEED OF 13-14 YEAR OLD 400 METER RUNNERS

Annotation

This article analyzes scientific and methodological approaches aimed at increasing the starting speed of 13-14 year old track and field athletes in the 400-meter run. Based on experience, it has been proven that technique, strength and coordination exercises are an important factor in the formation and improvement of speed in the starting phase. Based on the results of the study, an effective training system for preparing young athletes has been developed.

Key words: 400-meter run, starting speed, athletics, young athletes, preparation, technique, strength exercises.

УВЕЛИЧЕНИЕ СТАРТОВОЙ СКОРОСТИ 13–14-ЛЕТНИХ БЕГУНОВ НА 400 МЕТРОВ

Аннотация

В данной статье анализируются научно-методические подходы, направленные на повышение стартовой скорости легкоатлетов 13-14 лет в беге на 400 метров. На основе опыта доказано, что техника, силовые и координационные упражнения являются важным фактором формирования и совершенствования скорости в стартовой фазе. По результатам исследования разработана эффективная система тренировок для подготовки юных спортсменов.

Ключевые слова: бег на 400 метров, стартовая скорость, легкая атлетика, юные спортсмены, подготовка, техника, силовые упражнения.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekistonda sport sohasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlanmoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2022-yil 4-maydagi "Yoshlar orasida sportni keng targ'ib qilish va sport infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-221-son qarori, shuningdek, 2021-yil 13-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi aholisining jismoniy faolligini oshirish strategiyasi to'g'risida"gi PQ-5046-son qarorida yosh avlodning jismoniy tarbiyasi, ayniqsa bolalar sportini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa sportchilarni aynan o'smirlik davridan boshlab ilmiy asoslangan metodikalar orqali tayyorlash zaruratini yuzaga keltiradi. Yengil atletika, xususan, 400 metrga yugurish kabi kombinatsiyalashgan (tezlik va chidamlilik talab qiladigan) sport turlari murakkab texnika va jismoniy tayyorgarlikni talab qiladi. Ayniqsa, yugurishning start bosqichi sportchining umumiy natijasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Startda to'g'ri texnika va kuchning optimal taqsimoti sportchining tezligini oshirish va yugurish davomida samaradorligini saqlab qolishning asosiy omillaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonlik olimlardan professor Z.B. Boltayev o'zining tadqiqotlarida shunday deydi: "Yosh sportchilarda portlovchi kuch va startdagi tezlikni rivojlantirish umumiy yengil atletika tayyorgarligining 30–40 foizini tashkil etadi. Aynan 13–14 yosh – bu jarayonni to'g'ri shakllantirish uchun eng maqbul davrdir" (Boltayev, 2020). Xorijlik mutaxassislar ham bu masalani chuqur o'rgangan. Masalan, amerikalik sportshunos T. Bompao'zining "Training Young Athletes" asarida

quyidagicha ta'kidlaydi: "O'smirlik davri sportchilarning portlovchi kuch va reaksiya tezlik darajasi ularning kelajakdagi sport natijalarining poydevorini belgilaydi. Bu ayniqsa start bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etadi" (Bompa, 2009). Shuningdek, ingliz olimi G.D. Sayersning plyometrik treninglar bo'yicha tadqiqotida yosh sportchilar 6 haftalik maxsus mashg'ulotlar orqali start tezligida 10–15% natija yaxshilanishiga erishgani qayd etiladi (Sayers et al., 2008). Demak, mazkur mavzu respublikamiz sport siyosati, yoshlar salohiyatini rivojlantirish, hamda xalqaro sport maydonlarida yuqori natijalarga erishish nuqtayi nazaridan dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Yengil atletika – inson imkoniyatlarini sinovdan o'tkazuvchi eng qadimiy va ommabop sport turlaridan biridir. Unda har bir bosqich – start, yugurish jarayoni va finish – alohida tayyorgarlikni talab etadi. Ayniqsa, 400 metr masofaga yugurishda start bosqichi muhim rol o'ynaydi. Chunki sportchining dastlabki harakati keyingi tezlik va yurish ritmini belgilaydi. Yosh davrida start texnikasini shakllantirish, asosiy harakat ko'nikmalarini rivojlantirish – yuqori natijalarga erishish kafolatidir.

Tadqiqotning maqsad: 13–14 yoshli sportchilarning 400 metr masofaga yugurishda start tezligini oshirishning samarali usullarini aniqlash.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun qo'yidagi vazifalar amalga oshirildi:

Yosh sportchilar uchun start texnikasining o'ziga xos jihatlari aniqlash.

Tezlik va kuchga yo'naltirilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish.

Tajriba orqali start tezligining o'sishini aniqlash.

Mazkur tadqiqot Samarqand viloyatidagi 3 ta sport maktabida tahsil olayotgan 13–14 yoshdagi o'rta tayyorgarlik darajasiga ega 20 nafar yengil atletikachi o'smirlar ishtirokida o'tkazildi. Tadqiqotda qatnashgan sportchilar ikkiga bo'lindi:

Tajriba guruh – 10 nafar sportchi, ularga yangi mashg'ulotlar tizimi qo'llandi;

Nazorat guruhi – 10 nafar sportchi, ularga oddiy (an'anaviy) mashg'ulotlar tizimi tatbiq etildi.

Tadqiqot 2024-yil sentabr–noyabr oylarida 8 hafta davomida olib borildi. Har bir haftada 3 ta mashg'ulot seansi (dushanba, chorshanba, juma) o'tkazildi. Har bir mashg'ulot 60–75 daqiqa davom etdi.

Tajriba guruhi uchun mashg'ulotlar quyidagi qismlarga asoslanildi:

Hafta	Yo'nalish	Mashq turlari
1–2	Starttexnikasini shakllantirish	Startdan chiqqan holda 10 m, 20 m yugurish; bel holatini to'g'rilash; start pozitsiyalari (past start)
3–4	Portlovchi kuchni rivojlantirish	Plyometrik mashqlar: qiyalikdan sakrash, qadamlar bilan yugurish, "katta qadam bilan sakrash"
5–6	Reaksiya tezligi va bosqichma-bosqich tezlik	Start signali bo'yicha yugurish; 3–5 m to'satdan boshlanadigan yugurish
7–8	Yig'ma texnikani mustahkamlash	30 metrga startdan yugurish; segmentlab yugurish (10+10+10 m); kombinatsiyalangan yuklama

Har mashg'ulotoldidan 10–12 daqiqadavometganumumiysisinmamashqlari (yugurish, cho'zilish) va mashg'ulot yakunida tiklanish mashqlari qo'llanildi.

Start tezligini aniqlash uchun: Professional sport taymerlari (Speedtrap II), fotehujjatli start moslamasi.

Statistik tahlil uchun: Microsoft Excel 2021 va SPSS 25 dasturlari yordamida o'rta qiymatlar, dispersiya va t-testlar hisoblab chiqildi.

30 metrga yugurish vaqti start tezligidagi o'zgarishlar. (3.1.-jadval)

Guruh	Dastlabki natija (sek.)	So'nggi natija (sek.)	Farq	Yaxshilanish %	t-test	p-qiymat
Tajriba	5.62 ± 0.24	4.97 ± 0.21	–0.65	11.6%	5.72	< 0.01
Nazorat	5.60 ± 0.22	5.48 ± 0.20	–0.12	2.1%	1.25	> 0.05

Izoh: tajriba guruhda 8 haftalik mashg'ulotlardan so'ng 30 metrga start yugurish natijasi o'rta 0.65 sekundga yaxshilandi, bu 11.6% o'sishni anglatadi va statistik jihatdan

Portlovchi kuch ko'rsatkichlari (Vertical Jump test) (3.2.-jadval)

Guruh	Dastlabki natija (sm)	So'nggi natija (sm)	Farq	Yaxshilanish %
Tajriba	31.5 ± 3.1	37.2 ± 3.4	+5.7	18.1%
Nazorat	30.9 ± 2.8	32.0 ± 2.9	+1.1	3.5%

Tajriba guruhda plyometrik mashg'ulotlar ta'siri ostida vertical sakrash balandligi 5.7 smga oshib, bu 18% portlovchi kuch o'sishini ko'rsatdi. Bu natija start bosqichida kuchni tez safarbar qilish qobiliyatining o'sganini anglatadi.

Reaksiya tezligidagi o'zgarishlar (start signalga javob vaqti)(3.3.-jadval)

Guruh	Dastlabki reaksiya (sek.)	So'nggi reaksiya (sek.)	Farq	Yaxshilanish %
Tajriba	0.42 ± 0.06	0.34 ± 0.05	–0.08	19%
Nazorat	0.43 ± 0.07	0.40 ± 0.06	–0.03	7%

Reaksiya tezligi tajribaguruhda 0.08 sekundga yaxshilandi (19% yaxshilanish), bu mashg'ulotlar davomida start signaliga javob berish qobiliyati ancha ortganligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 13–14 yoshdagi sportchilarda start bosqichini rivojlantirish bo'yicha mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan plyometrik va tezlikka yo'naltirilgan mashg'ulotlar qisqa muddat ichida ham samarali bo'lishi mumkin. Ayniqsa:

Start yugurish tezligi sezilarli oshdi (11.6%).

Portlovchi kuchda o'sish (18%) yugurishning birinchi bosqichidagi impuls kuchini oshirdi.

Reaksiya va tez qaror qabul qilish qobiliyatining rivojlanishi yuguruvchining chiqish tezligini yaxshiladi. Bu holat ilmiy adabiyotlarda ham o'z tasdig'ini topgan. Jumladan, T. Bomp shunday deydi: "Mashg'ulotlarning kichik intensiv qismi sportchilarda portlovchi harakatlar va reaksiyon javoblar shakllanishida eng samarali metodlardan biridir" (Bompa,

Tadqiqot quyidagi usullar asosida olib borildi:

a) Empirik usullar:

Yugurish testi: startdan 30 metrga yugurish vaqti (sekundlarda) o'lchandi.

Reaksiya va portlovchi kuchni aniqlash testlari: "Vertical Jump Test", "Standing Long Jump".

Mashg'ulotlar kundaligi orqali ishtirokchilarning holati qayd etib borildi.

b) Eksperimental metod:

Tajriba guruhga maxsus tuzilgan mashg'ulot dasturi asosida ta'sir ko'rsatildi va natijalari nazorat guruhi bilan solishtirildi.

Mashg'ulotlar davomida ortiqcha yuklamadan saqlanishga e'tibor qaratildi hamda murabbiylar va sport shifokorlari doimiy nazoratni olib borishdi.

O'qituvchi - bu nafaqat bilim beruvchi, balki har bir harakati, fikri, nutqi, munosabati orqali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi kuchli psixologik figura hisoblanadi. Ayniqsa, talaba yoshlar uchun o'qituvchi shaxsining jamoat oldidagi obro'si, axloqiy prinsiplari, hayotiy qarashlari namunaviy ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, o'qituvchining so'zida baraka, harakatida uyg'unlik, yurish-turishida madaniyat, bilimida chuqurlik bo'lishi talab etiladi. Bunday xususiyatlar orqali o'qituvchi nafaqat dars beradi, balki talabani o'z-o'zini anglashga, o'z qadriyatlarini aniqlashga, jamiyatga foydali shaxs bo'lishga ilhomlantiradi.

Pedagogning ijtimoiy faolligi, adolatga munosabati, mas'uliyatlilik darajasi, Vatanga sadoqati - bevosita talabaning ichki qadriyatlariga ko'chadi. Shunday ekan, har bir o'qituvchi o'zining bevosita ta'sirini anglab, har bir harakatini tarbiyaviy mezon asosida qurmog'i lozim.

Talabalarni yuksak axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalashda faqat oliy ta'lim muassasalari emas, balki oilalar, ommaviy axborot vositalari, madaniyat muassasalari, jamoat tashkilotlari va mahallalar ham birdek javobgardir. Bu institutlar o'zaro hamkorlikda ishlagan taqdirdagina ijtimoiy ma'naviyat bir butun tizim sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Masalan, ota-ona farzandiga adolat, halollik, to'g'rilikni o'rgatmasa, oliy ta'limdagi tarbiya faqat formal tusda qoladi. Yoki televideniya axloqiy me'yordan chetga chiqqan kontent namoyish qilinsa, o'qituvchining ko'p yillik mehnati yo'qqa chiqishi mumkin.

Shuning uchun zamonaviy pedagogika qadriyatlar tarbiyasini individual emas, balki tizimli, ko'p tomonlama, makro-ijtimoiy yondashuv asosida tashkil qilish zarurligini

uqtiradi. Har bir ijtimoiy institut tarbiya siyosatining subyekti sifatida faol harakat qilishi, o'z funksiyasini anglab, bir yo'nalishda ishlashi talab etiladi.

Kelajak avlodni tarbiyalashda asosiy ustunliklardan biri - bu ularda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirishdir. Mustaqil fikrlash, bir qarashda, faqat intellektual jarayon bo'lib tuyulishi mumkin, ammo uning tag-zaminida shaxsiy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy mas'uliyat yotadi. Chunki inson aynan o'z qadriyatlariga tayangan holda hayotiy pozitsiya tanlaydi, muammolarga yondashadi, qaror qabul qiladi.

Talaba shaxsining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish - bu uni doimiy ravishda savol berishga, tanqidiy tahlilga, ko'pvariantli yondashuvlarga ochiq bo'lishga o'rgatish demakdir. Bunday jarayonda o'quvchi faqat bilim oluvchi emas, balki faol mulohazachi, ijtimoiy-huquqiy pozitsiyaga ega shaxsga aylanadi. Bu esa faqat bilim emas, balki qadriyatli fikr egalari jamiyatini shakllantirishning eng barqaror yo'li hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoda insonlar, xususan talabalar har kuni o'z hayotiga oid turli tanlovlar, muammolar va qarorlar bilan duch kelishadi. Bu qarorlar nafaqat ularning shaxsiy manfaatlariga, balki jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy adolat va axloqiy tamoyillarga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, talaba shaxsini tarbiyalashda unga qaror qabul qilishda axloqiy mezonlarga tayanish madaniyatini singdirish muhimdir.

Axloqiy qaror - bu har doim ham qulay va tez yechim emas, balki mas'uliyat, halollik va ongli yondashuvni talab qiladigan yo'ldir. Talabani ushbu yondashuvga odatlantirish esa uni qadriyatlarga asoslangan yashashga o'rgatadi.

Masalan, akademik halollik, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarga nisbatan befarqlikdan voz kechish, ekologik mas'uliyat kabi yo'nalishlar talabani axloqiy qaror qabul qilish madaniyatini namoyon etuvchi muhim mezonlardir.

Bugungi talaba - bu faqat darslarga qatnashuvchi passiv auditor emas, balki jamiyatdagi o'z o'rnini izlayotgan, axborotga boy, ko'p madaniyatli muhitda shakllanayotgan, jahon voqealaridan bexabar bo'lmagan, raqamli tafakkurga ega shaxsdir. U global hodisalarni baholay oladi, zamonaviy muammolarni tahlil qiladi va o'z pozitsiyasini bildirishga intiladi.

Bunday shaxsda qadriyatlar tizimi qat'iy bo'lmashligi mumkin - u hali shakllanmoqda. Lekin ta'lim muassasasining roli ham aynan shundadir: talabani global muammolarga nisbatan ijtimoiy orientatsiyasini belgilab berish, unga mas'uliyatli fuqarolik hissini uyg'otish, universal axloqiy prinsiplarni qadrlashga yo'naltirish. Bu esa tarbiyaning yanada yuksak bosqichga ko'tarilishi, shaxs va jamiyat uyg'unligining mustahkamlanishini ta'minlaydi.

Xulosa va munozara. Kelajak avlodni tarbiyalash - bu oddiy jarayon emas, balki chuqur strategik, ijtimoiy va ma'naviy mas'uliyat talab qiluvchi faoliyatdir. Ayniqsa, talabalarda barqaror axloqiy pozitsiya, milliy o'zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, ma'naviy immunitetni shakllantirish orqali mustahkam jamiyat poydevori barpo etiladi. O'qituvchi bu yo'lda asosiy kalit figuradir. Shu boisdan, pedagogik ta'limda nafaqat kasbiy kompetensiya, balki qadriyatlarni singdirish va namuna bo'lish madaniyati ham markaziy o'rin tutishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. Samadova, S. S. (2022). Milliy g'oya, ma'naviyatning pedagogik asoslari (o'quv qo'llanma). Buxoro: "Durdona" nashriyoti.uniwork.buxdu.uz+1Ренессанс Эду+1
2. Qarshiboyeva, D. B., & Po'latov, J. X. (2022). Milliy qadriyatlarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati. Pedagogik va psixologik muammolar, 2(3), 155–160.СамДУ+2ppmedu.jdpu.uz+2ScienceWeb+2
3. Qurbonova, Z. M. (2023). Talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi tizimini takomillashtirishda Mahmud az-Zamaxshariy ta'limotidan foydalanish ("Atvoq uz-zahab" asari misolida). Tafakkur ziyosi, 2, 98–105.Academia
4. Mamarajabov, S. (2021). Mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsiyalar va xorijiy tajribalar. Arxiv ilmiy tadqiqotlar, 3(1), 45–50.staff.tiiame.uz
5. Mirqosimova, M. (2021). O'quvchilarni kitob o'qishga o'rgatish mexanizmlari. Yoshlar salohiyatini rivojlantirishda gumanitar fanlarning o'рни (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari), 4–6.Ренессанс Эду+2ScienceWeb+2Academia+2
6. Hofstede, G. (2001). Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations (2nd ed.). Thousand Oaks, CA: Sage Publications.



УДК: 37.014.543:005.96

Faxriddin ESANBOBOYEV,

Vazirlik huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: f.esanboboyev@gmail.com

Falsafa fanlari doktori, prof. O'.Tilavov taqrizi asosida

RAHBAR KADRLAR KASBIY KOMPETENTLIGINI UZLUKSIZ RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI VA STRATEGIYASI

Аннотация

Maqolada rahbar kadrlarni kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari va strategik yondashuvlari keltirilgan. Shu bilan birga, tarmoqli o'quv muhitining asosiy ustunliklari to'g'risidagi fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, texnologiya, kasb, uzluksiz ta'lim, rahbar, boshqaruv, pedagogik imkoniyat, o'qituvchi kompetensiyasi, innovatsion texnologiya, strategiya, tarmoq, o'quv muhiti, fikrlash.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ И СТРАТЕГИИ НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ

Аннотация

В статье рассматриваются педагогические возможности и стратегические подходы к непрерывному профессиональному развитию руководящих кадров. Кроме того, изложены мнения об основных преимуществах сетевой образовательной среды.

Ключевые слова: компетенция, технология, профессия, непрерывное образование, руководитель, управление, педагогическая возможность, компетенция учителя, инновационная технология, стратегия, сеть, образовательная среда, мышление.

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES AND STRATEGIES FOR THE CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF MANAGERIAL PERSONNEL

Annotation

The article discusses the pedagogical opportunities and strategic approaches to the continuous professional development of managerial personnel. Additionally, opinions on the key advantages of a networked learning environment are presented.

Keywords: competence, technology, profession, lifelong learning, manager, management, pedagogical opportunity, teacher competence, innovative technology, strategy, network, learning environment, thinking.

Kirish. Oliy ta'lim muassasining rahbari endilikda o'qituvchi va talabalar orasida ko'prik bo'lib xizmat qiluvchi, transformatsion agent vazifasini bajaruvchi shaxs sifatida qaralmoqda. Shu sababli, uning kompetentligini rivojlantirish strategiyasi individual, fleksibilikka asoslangan, o'zaro tajriba almashinuvi va xalqaro standartlarga asoslangan bo'lishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rahbar kadrlar kompetentligini uzluksiz rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik imkoniyatlar mavjud:

I. Ichki institutsional resurslar. Rahbar kadrlar kompetentligini uzluksiz rivojlantirishning eng muhim pedagogik imkoniyatlaridan biri bu – ichki institutsional resurslardan samarali foydalanishdir. Oliy ta'lim muassasalari o'zlarining mavjud inson resurslari, ilmiy-pedagogik salohiyati, material-texnik bazasi va axborot resurslaridan foydalanib, rahbarlar uchun modul asosida tuzilgan kasbiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishi mumkin. Bu jarayon zamonaviy yondashuvlarga asoslanib, qisqa muddatli, intensiv, amaliyotga yo'naltirilgan va reflektiv elementlarni o'z ichiga olgan o'quv shakllarini qamrab oladi.

Masalan, seminar-treninglar, master-klasslar, malaka oshirish kurslari, ichki institutsional konsiliumlar, maslahatlashuv platformalari tashkil etilishi orqali rahbar kadrlar uchun ta'lim, boshqaruv va yetakchilik sohalarida yangi bilimlar beriladi. Shu tarzda, ular quyidagi yo'nalishlarda yangilanadi:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) - raqamli boshqaruv vositalari, elektron hujjat aylanishi, masofaviy boshqaruv mexanizmlari, ta'lim analitikasi tizimlari (LMS, BI dashboardlar, CRM).

Zamonaviy menejment metodlari - Agile, OKR (Objectives and Key Results), Design Thinking, strategik rejalashtirish va tizimli boshqaruv.

Pedagogik liderlik – transformatsion yetakchilik, xizmat qiluvchi liderlik (servant leadership), emotsional intellekt va jamoani ilhomlantirish.

Psixologik-pedagogik yondashuvlar - konfliktologiya, stress-menejment, inklyuziv muhit yaratish, motivatsiya va refleksiya asoslangan yondashuvlar.

Bunday ichki imkoniyatlar yuqoridan majburlangan faoliyat sifatida emas, balki institutsional o'zini-o'zi rivojlantirish mexanizmlarining organik qismi sifatida qaralishi lozim. Ular shaxsiylashtirilgan ta'lim, ya'ni Individual Development Plan (IDP) tamoyiliga asoslangan holda tashkil etilishi mumkin, bu esa rahbarlarning ehtiyojlari, mavjud salohiyati va kasbiy maqsadlariga muvofiq holda o'qitish imkonini beradi[4].

Shuningdek, ichki resurslar doirasida "mahalliy ekspertlik modeli" asosida ishlash, ya'ni muassasa ichidagi ilg'or mutaxassislarni murabbiy sifatida jalb qilish orqali o'quv dasturlarining kontekstual muvofiqligini ta'minlash mumkin deb yozadi K.T. Yarmuxammedov.

Bu yondashuv muassasa madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan o'qituvchilar tajribasidan foydalangan holda, real hayotiy muammolarga yechim topish imkonini beradi.

Xalqaro tajriba ham shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalari o'z ichki imkoniyatlari asosida tashkil etgan "Leadership Academy", "Academic Development Center", "Faculty Learning Community" kabi tuzilmalar orqali rahbarlarning o'zaro tajriba almashinuvi, tanqidiy fikrlashi va professional refleksiyasi kuchayadi [2]. Bunday yondashuvlar ichki o'quv muhitini dinamika bilan to'ldiradi va innovatsiyalarni tabiiy rivoj yo'liga soladi.

II. Tarmoqli o'quv muhitini shakllantirish: raqamli ekotizimda rahbar kadrlar kompetentligini rivojlantirish

Tarmoqli o'quv muhiti – bu raqamli platformalarga asoslangan holda turli geografik hududlarda faoliyat yurituvchi ta'lim subyektlari o'rtasida doimiy o'zaro ta'sir, hamkorlik va bilim almashinuvi imkonini beruvchi pedagogik muhitdir. Bu model, ayniqsa, rahbar kadrlar uchun masofaviy, gibrid va sinxron-asinxron ta'lim shakllarini birlashtirib, kasbiy rivojlanishning muqobil, moslashuvchan va innovatsion yo'lini taqdim etadi.

J.R.Qurbonovning ilmiy izlanishlarida hozirgi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli transformatsiyaning jadal sur'atlarda kechayotgani, "Edu.uz", "Moodle", "Kundalik.uz", Zoom, Google Classroom, UzEdu LMS kabi platformalarning faol integratsiyasi bilan izohlanadi. Bu esa rahbar kadrlarning doimiy o'quv jarayoniga ulangan holda malakasini oshirishini ta'minlaydi deb aytilgan.

Tarmoqli o'quv muhitining asosiy ustunliklari quyidagilardan iborat:

Geografik cheklavlardan xoli bilim olish – viloyatdagi OTM rahbariyati Toshkentdagi yoki xorijdagi ilmiy markazlar bilan bevosita vebinarlar, online workshoplar va virtual mentoring sessiyalari orqali aloqada bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kontekstual moslashuvchanlik – har bir rahbar o'z ta'lim muassasasining ehtiyojlari, muammolari va rivojlanish darajasiga qarab individual o'quv yo'nalishini tanlaydi. Bu "mass customization" tamoyiliga asoslanadi[3].

Ijtimoiy ta'lim tarmoqlari va "peer learning" – rahbarlar o'zaro tajriba almashish orqali real holatlarni muhokama qilishadi, professional tarmoqlar orqali doimiy fikr almashinuvi yuritiladi. Bunday format "o'rganish – qo'llash – baholash – takomillashtirish" tsiklini yaratadi[10].

4. Mentorlik va coaching asosida rivojlanish – xalqaro tajribada keng qo'llanilayotgan "Leadership Learning Circles", "Digital Peer Coaching" kabi yondashuvlar rahbarlar uchun sohada yetakchi mutaxassislar bilan bog'lanish imkonini beradi[5].

Bundan tashqari, O'zbekiston oliy ta'limida "Smart Edu", "Raqamli Universitet" kabi tashabbuslar asosida interaktiv, moslashuvchan va tarmoqli bilim maydonlarini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur muhit rahbarlar o'rtasida tarmoq orqali o'zaro raqobat va hamkorlik uyg'otadi, bu esa ularni doimiy o'sishga majbur qiladi.

Shunday qilib, tarmoqli o'quv muhitini shakllantirish – bu nafaqat texnologik yangilik, balki pedagogik innovatsiya bo'lib, oliy ta'lim muassasasining o'zgaruvchan sharoitga tez moslashish va innovatsion yetakchilikka intilishini kuchaytiradi. Uni joriy etish esa rahbarlarning o'quv motivatsiyasi, tahliliy tafakkuri va professional refleksiyasini oshirishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi.

III. Ilmiy-pedagogik faoliyat bilan integratsiya. Oliy ta'lim muassasalarida rahbarlarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirishda ilmiy-pedagogik faoliyat bilan integratsiya alohida o'rin tutadi. Chunki zamonaviy ta'lim menejmenti nafaqat resurslarni boshqarish, balki ilm-fan orqali ta'limni yangilash, tahliliy qarorlar qabul qilish, tajribaga asoslangan amaliyotlarni shakllantirish va

innovatsion strategiyalarni ishlab chiqishni ham o'z ichiga oladi[7].

Rahbarlarning ilmiy izlanish faoliyatini rag'batlantirish ularning quyidagi kompetensiyalarini rivojlantiradi:

Strategik fikrlash – ilmiy tadqiqotlar olib borish rahbarga aniq muammoni aniqlash, uni tahlil qilish, statistik ma'lumotlar asosida dalillash, alternativ yechimlarni ishlab chiqish va ularning oqibatlarini baholash imkonini beradi[6].

Innovatsion faoliyatga yo'naltirilganlik – ilmiy izlanishlar rahbarni mavjud holatdan qoniqmaslik, yangilik yaratish, pedagogik innovatsiyalarni sinab ko'rish va joriy etishga undaydi. Ayniqsa, amaliy-eksperimental loyihalarda ishtirok etish orqali rahbar o'z muassasasida transformatsion jarayonlarga start bera oladi.

Metodologik savodxonlik – T.M. Sadovnikova talqinida ilmiy ishlanmalarni o'zlashtirish, tadqiqot metodlarini amaliyotda qo'llash, ta'lim sifatini monitoring qilish va sifatli tahlillar asosida qaror qabul qilishda metodologik asoslar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi deb ta'riflanadi.

Shaxsiy va kasbiy refleksiya – ilmiy faoliyat rahbarni o'z qarorlarini qayta ko'rib chiqishga, faoliyat natijalarini baholashga, xatolardan saboq olishga va professional o'sishga majbur qiladi.

Jamoaviy tadqiqotlar va grant loyihalari – rahbarlarning ilmiy loyihalarda ishtiroki ularni xalqaro hamkorlikka, xorijiy tajribalarni o'rganishga, ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga yo'naltiradi. Bu esa global raqobatbardoshlik uchun zarur omildir.

Shu bois, rahbar kadrlarning doktorantura dasturlarida tahsil olishi, xalqaro stajirovkalarda ishtirok etishi, grantlar asosida ilmiy loyihalarda qatnashishi, ilmiy maqola va monografiyalar tayyorlashi zaruriy pedagogik strategiyalardan biridir. Bu faqat ularning shaxsiy rivoji emas, balki muassasaning ilmiy salohiyati va reytingi uchun ham muhimdir.

Bugungi kunda O'zbekistonda "Ilmiy rahbarlar uchun doktorantura maktablari", "Oliy ta'limdagi ilmiy salohiyatni rivojlantirish" dasturlari, Yevropa Ittifoqi bilan qo'shma Erasmus+ loyihalari, DAAD va JICA grantlari rahbarlarni ilmiy-pedagogik faoliyatga keng jalb qilishga xizmat qilmoqda [TATU, 2023].

Shuningdek, "ta'lim va fan birligi" tamoyili asosida rahbarlarning pedagogik faoliyatini ilmiy yondashuv bilan mustahkamlash yo'li orqali universitetda akademik muhit va bilimlar ekotizimi shakllanadi.

Kasbiy kompetentlikni uzluksiz rivojlantirish faqat alohida tadbirlar emas, balki tizimli strategiyaga asoslangan yondashuvni talab qiladi. Quyidagi strategiyalar bu borada samarali yo'nalishlar hisoblanadi:

Akseleratsion model – Zamonaviy oliy ta'lim boshqaruvi shiddat bilan o'zgarayotgan muhit, raqamli transformatsiya, pandemiyadan keyingi global chaqiriqlar va xalqaro reytinglar bosimi ostida tezkor yangilanishni talab qiladi. Shunday sharoitda rahbar kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirish uchun akseleratsion model muqobil va samarali yechim sifatida maydonga chiqmoqda. Akseleratsion model – bu qisqa muddatli, yuqori intensivlikdagi o'quv va rivojlantiruvchi modullar orqali rahbarlarni o'z ish faoliyatida zarur bo'lgan zamonaviy menejment texnologiyalari, tahliliy yondashuvlar, raqamli kompetensiyalar va transformatsion liderlik ko'nikmalariga ega qilishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyadir[8].

Modelning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

Qisqa muddat – katta samaradorlik. 3 kunlik bootcamp, 5 kunlik intensiv kurslar, 10 haftalik mini-MBA kabi formatlar orqali rahbarlar real muammolarga yechim

topishni o'rganadi. Har bir modul amaliy topshiriq, keis tahlili, simulyatsiya va refleksiya elementlarini o'z ichiga oladi

Moslashuvchan mazmun. Kontent rahbarning hozirgi ehtiyojlariga, institutsional strategiyalarga va global tendensiyalarga qarab shakllantiriladi. Misol uchun, raqamli transformatsiya davrida – AKT menejmenti, masofaviy boshqaruv, raqamli xavfsizlik; moliyaviy inqiroz sharoitida – antikrizis boshqaruvi, grant yutuqlari.

Harakatga keltiruvchi o'quv metodlari. Problemali ta'lim, gamifikatsiya, texnologik simulyatsiyalar, "design sprint" yondashuvlari orqali rahbarlar o'z faoliyatini tahlil qilish va yangilashga undaladi [12].

Amaliy natijaga yo'naltirilganlik. Har bir ishtirokchi o'quv yakunida o'z muassasasiga tatbiq etiladigan loyiha,

yechim yoki innovatsion taklif ishlab chiqadi. Bu esa o'quvni formal emas, real natijador jarayonga aylantiradi.

Modulli va kombinatsiyalanuvchan shakllar. Rahbar tanlov asosida "Modul 1: Liderlik va emotsional intellekt", "Modul 2: AKT va raqamli boshqaruv", "Modul 3: Strategik rejalashtirish" kabi yo'nalishlarda qatnashadi. Bunday yondashuv individual rivojlanish trayektoriyasini yaratadi [1].

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida "Rektor maktabi", "Tashabbusli rahbar", "Raqamli universitet" loyihalari asosida ushbu modelga xos elementlar bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Xususan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Liderlik va boshqaruv akademiyasi 2023-yildan boshlab 7 kunlik intensiv modullar asosida malaka oshirishni yo'lga qo'ydi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаева, М.Р. Та'limda metodik kompetensiya: nazariya va amaliyot // Pedagogik innovatsiyalar jurnali. – 2023. – №4. – B. 37–44.
2. Brown, P. Developing Leaders in Higher Education: The Role of Institutional Resources. – London: Routledge, 2018. – 198 p.
3. Zair-Bek, 2019]. Zair-Bek, S.I. Flexible Models of Educational Environment for Lifelong Learning / S.I. Zair-Bek // Russian Education and Society. – 2019. – Vol. 61, No. 2. – P. 12–24.
4. Кутепова, И.Ю. Индивидуализация процесса повышения квалификация управленческих кадров в вузе / И.Ю. Кутепова // Высшее образование в России. – 2021. – № 3. – С. 48–53.
5. Kools, M., & Stoll, L. What Makes a School a Learning Organisation? A Guide for Policy Makers, School Leaders and Teachers / OECD Publishing. – Paris, 2017. – 110 p.
6. Miller, L. Academic Leadership through Research Practice: Case Studies in Higher Education. – London: Palgrave Macmillan, 2021. – 234 p.
7. Пискунова, Е.Г. Научно-исследовательская деятельность как ресурс управленческой компетентности руководителей вузов / Е.Г. Пискунова // Вестник современного образования. – 2020. – №6. – С. 31–36.
8. Романов, В.А. Интенсивное развитие управленческих компетенций в образовании: акселерационные модели / В.А. Романов // Управление образованием. – 2021. – №4. – С. 23–29.
9. Курбонов, Ж.Р. Олий таълимда лидерлик ва трансформация: янги моделлар / Ж.Р. Курбонов. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2021. – 152 б.
10. Хасанова, Н.М. Рақамли таълим муҳитида раҳбар кадрлар тайёрлашнинг педагогик асослари / Н.М. Хасанова. – Тошкент: ТДПУ, 2023. – 128 б.
11. Ярмухамедов, К.Т. Внутривузовские педагогические ресурсы как основа для развития профессиональных компетенций администрации / К.Т. Ярмухамедов. – Ташкент: ТДПУ, 2020. – 122 с.
12. Чернявская, И.Г. Технологии быстрой подготовки лидеров в условиях цифровизации / И.Г. Чернявская. – М.: Просвещение, 2022. – 176 с.



UO'K: 32.01.303

Manzura ESHEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti
E-mail: manzuraesheva@gmail.com

professor Z.B. Boltayev taqrizi asosida

UMUMTA'LIM MAKTABLARINING 6-SINF O'QUVCHILARIGA BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION METODLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining 6-sinf o'quvchilariga biologiya fanini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Xususan, interaktiv usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va loyihaviy faoliyat asosidagi yondashuvlarning samaradorligi yoritiladi. O'quvchilarning biologik tafakkurini rivojlantirish, fanlarga qiziqishini oshirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning roli ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: biologiya, innovatsion metod, 6-sinf, interaktiv usullar, AKT, ta'lim texnologiyalari.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ, ИСПОЛЪЗУЕМЫЕ В ОБУЧЕНИИ БИОЛОГИИ УЧАЩИМИСЯ 6-Х КЛАССОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

Аннотация

В статье анализируются теоретические и практические основы использования инновационных методов в обучении биологии учащихся 6-х классов общеобразовательных школ. В частности, подчеркивается эффективность интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) и проектного подхода. На научной основе анализируется роль современных педагогических технологий в развитии биологического мышления учащихся, повышении их интереса к науке, формировании навыков самостоятельного мышления.

Ключевые слова: биология, инновационный метод, 6-й класс, интерактивные методы, ИКТ, образовательные технологии.

INNOVATIVE METHODS USED IN TEACHING BIOLOGY TO 6TH-GRADE STUDENTS OF GENERAL SCHOOLS

Annotation

This article analyzes the theoretical and practical foundations of using innovative methods in teaching biology to 6th grade students of secondary schools. In particular, the effectiveness of interactive methods, information and communication technologies (ICT) and project-based approaches is highlighted. The role of modern pedagogical technologies in developing students' biological thinking, increasing their interest in science, and forming independent thinking skills is analyzed on a scientific basis.

Key words: biology, innovative method, 6th grade, interactive methods, ICT, educational technologies.

Kirish. Hozirgi davrda O'zbekiston ta'lim tizimi tubdan yangilanib, uning barcha bosqichlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu boradagi islohotlar Prezidentning "Yangi O'zbekiston – maktabdan boshlanadi" tamoyiliga asoslangan holda, umumta'lim maktablarida ilg'or o'qitish metodlarini keng joriy etish orqali amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlarni, jumladan, biologiya fanini innovatsion yondashuvlar asosida o'qitish hozirgi davr ta'limining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Biologiya – bu tabiatning hayotiy hodisalarini, tirik organizmlar tuzilishi va funksiyalarini, ularning yashash muhitiga moslashuvini, ekologik qonuniyatlarni o'rgatuvchi asosiy fanlardan biridir. Shu boisdan, biologiya fanini 6-sinf bosqichidan boshlab o'quvchilarda chuqur tushuncha va tasavvur asosida o'qitish, bu fanga bo'lgan qiziqish va ehtiyojni erta shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy o'qitish usullari bilan cheklanib qolish o'quvchilarda faqat yodlashga asoslangan bilimlarni shakllantiradi, ammo bugungi kunda bilimlarning tez yangilanib borayotganligi, mehnat bozorida tafakkurga ega, tahlil qila oladigan, mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxslar talab etilayotgani, bizdan biologiyani

o'qitishda innovatsion metodlarni faol qo'llashni talab qilmoqda.

Biologiya o'qitishning hozirgi davrda samarali bo'lishi o'quvchilarning o'quv, mehnat va jamoat faoliyatlarida qatnashish uchun zarur bo'lgan biologik bilimlar, ko'nikmalar, malakalarni egallaganliklari bilan belgilanadi. Ular esa o'z navbatida o'quvchilarning tarbiyalanganlik natijasida, dunyoqarashi, e'tiqodi, tabiat, jamiyat va shaxsga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. O'quvchilarning rivojlanish darajasi, qobiliyati, jismoniy va amaliy jihatdan takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoji bilan ifodalanadi.

Xususan, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), loyiha asosidagi yondashuvlar, modellashirish va eksperiment asosida o'qitish kabi ilg'or usullar biologiya fanini nafaqat tushunarli, balki hayotiy tajribaga yaqin, qiziqarli va ijodiy muhitda o'rgatish imkonini beradi. Innovatsion metodlar orqali o'quvchilar kuzatish, solishtirish, umumlashtirish, tahlil qilish kabi ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini egallab boradilar. Biologiya fanining ayniqsa 6-sinfda to'g'ri o'qitilishi – kelgusida yuqori sinflarda fanning murakkab tushunchalarini o'zlashtirish uchun poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli, aynan ushbu bosqichda innovatsion metodlardan to'g'ri foydalanish,

metodik jihatdan asoslangan holda darslarni tashkil qilish muhim nazariy va amaliy masala hisoblanadi. Ushbu maqolada 6-sinf biologiya fanini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanishning afzalliklari, ularning turlari, pedagogik-psixologik asoslari va amaliyotdagi qo'llanilish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu metodlarning o'quvchilarning bilish jarayoniga, fanlarga bo'lgan qiziqishiga va bilimlarni mustahkamlashdagi samaradorligiga ilmiy yondashuv asosida baho beriladi. [1,2].

Tahlil va natijalar. Innovatsion metodlar - bu ta'lim mazmunini o'zlashtirishda an'anaviy usullardan farqli yondashuv bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va ilmiy izlanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, quyidagi metodlar 6-sinf biologiya fanida keng qo'llaniladi:

Interaktiv metodlar (klaster, akvarium, aqliy hujum, savol-javob, jamoaviy ishlari)

AKTdan foydalanish (multimedia prezentatsiyalar, virtual laboratoriyalar, biologik simulyatsiyalar)

Loyihaviy faoliyat (o'quvchilar tomonidan tayyorlangan mini-loyihalar)

Kuzatish va tajriba asosida o'qitish (amaliy mashg'ulotlar, mikroskopik kuzatishlar)

STEAM yondashuvi (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi)

Interaktiv metodlar zamonaviy pedagogikaning eng muhim komponentlaridan biri bo'lib, ular o'quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Bu metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, o'z fikrini asoslash, guruhda ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Biologiya fanida interaktiv metodlarni qo'llash ayniqsa dolzarbdir, chunki bu fan amaliyotga yo'naltirilgan, tahliliy tafakkur va kuzatuvchanlikni talab etadi.

Aqliy hujum, fikrlar kartasi, klaster usuli, Insert texnologiyasi, rolli o'yinlar, debat va akvarium kabi interaktiv usullar 6-sinf o'quvchilari uchun moslashtirilgan holda qo'llanilishi mumkin. Ular yordamida biologik tushunchalar oson, qiziqarli va tushunarli tarzda o'zlashtiriladi. Amaliy misol: "Hujayra tuzilishi va funksiyalari" mavzusida o'quvchilarga hujayra qismlarining vazifalarini klaster usuli orqali tasniflash topshirig'i beriladi. Guruhlarda ishlash jarayonida o'quvchilar har bir qismining roli haqida munozara yuritadilar, ularni funksiyalariga qarab guruhlashadi. Bu orqali ular materialni mantiqiy bog'laydi, tushunchalar o'zaro aloqadorlikda shakllanadi, eslab qolish osonlashadi. [2].

Interaktiv metodlarning yana bir ustunligi – darsda o'quvchi faolligi yuqori bo'lishi, o'z fikrini ochiq ifoda qilish va mulohaza yuritish imkoniyatining mavjudligidir. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning o'qishga nisbatan ijobiy munosabatini mustahkamlaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) biologiya fanini o'qitishda ta'lim jarayonini vizuallashtirish, individual yondashuv asosida o'quvchini faol ishtirokchiga aylantirish, interfaol muhitda bilim olish imkonini yaratish kabi bir qator afzalliklarga ega. Ayniqsa, o'simlik va hayvonot olamining xilma-xilligini, hujayraning mikroskopik tuzilishini, biologik jarayonlarning dinamikasini ko'rsatishda AKT vositalari beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Multimedia darslar, virtual laboratoriyalar, interaktiv testlar, 3D modellar, biologik simulyatorlar orqali o'quvchilar murakkab biologik jarayonlarni chuqurroq va ko'rgazmali tarzda o'rganadilar. Bu vositalar ularning biologik tushunchalarni shakllantirishida katta rol o'ynaydi. [3].

Amaliy qo'llanma: "Zamin biologiyasi" platformasi yoki shunga o'xshash mahalliy va xorijiy AKT resurslaridan foydalangan holda o'quvchilarga fotosintez, nafas olish, modda almashinuvi kabi murakkab mavzular vizual va interaktiv shaklda tushuntiriladi. Shu orqali ekologik

madaniyat, tabiatni asrashga bo'lgan ijtimoiy mas'uliyat ham rivojlanadi. Shuningdek, onlayn viktorinalar, testlar, quizzikabi vositalar orqali dars so'ngida bilimlarni mustahkamlash va baholash samarali tarzda amalga oshiriladi. Bu esa darsning mazmunan boy, texnologik jihatdan zamonaviy va o'quvchi markazli bo'lishini ta'minlaydi.

Loyiha asosida o'qitish biologiya fanida o'quvchilarda nafaqat bilim, balki hayotiy ko'nikmalarni – tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muammoni hal qilish, jamoada ishlash kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu metod o'quvchilarni izlanishga, o'rganishga va o'z atrofidagi biologik muhitni kuzatishga undaydi.

Loyiha faoliyatida o'quvchilar kichik guruhlarda ishlaydilar, mustaqil izlanadilar, o'z natijalarini taqdim etadilar. Bu esa ular orasida liderlik, mas'uliyat va tashabbuskorlik fazilatlarini rivojlantiradi. Loyiha misoli: "Mening bog'imdagi o'simliklar" loyihasida o'quvchilar yashash joylaridagi o'simliklarni o'rganadi, ularning nomlari, yashash muhiti, biologik tuzilishi va ahamiyati haqida foto va video materiallar tayyorlaydi. Dars oxirida esa o'z loyihasini prezentatsiya shaklida taqdim etadi. Ushbu faoliyat orqali o'quvchi ekologik madaniyatni anglaydi, mahalliy flora haqida bilim oladi va biologiyaga bo'lgan amaliy qiziqishi ortadi.

Shuningdek, 6-sinf darajasida quyidagi loyihalar samarali bo'lishi mumkin:

"Uyda parvarish qilinadigan o'simliklar" (o'simliklarning biologik tavsifi va parvarish qoidalari)

"Hayvonlarning yashash muhitiga moslashuvi" (hayvonlar suratlari va moslashuvchilik tahlili)

"Ekologik muhofaza ostidagi hududlar" (yaqin atrofdagi muhofaza qilinadigan tabiiy obyektlar haqida tadqiqot)

Bunday yondashuvlar biologiya fanini ijtimoiy muhit bilan bog'laydi va o'quvchini faqat bilim emas, balki jamiyatga foydali bo'lishga undovchi faol shaxs sifatida shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, umumta'lim maktablarining 6-sinf o'quvchilariga biologiya fanini innovatsion metodlar asosida o'qitish – bu nafaqat pedagogik jarayonni yangilash, balki o'quvchining hayotiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi, chuqur bilim asoslarini yaratish demakdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar – xususan, "Aqliy hujum", "Insert", "Klaster" kabi yondashuvlar o'quvchilarni darsga faol jalb qilish, ularning mavjud bilimlarini faollashtirish va yangi ma'lumotlarni tizimli o'zlashtirish imkonini beradi. Bunday usullar orqali o'quvchilarda fan mazmuniga nisbatan ijobiy qiziqish, o'z fikrini erkin bayon qilish va muloqotda bo'lish ko'nikmalari rivojlanadi.

Shu bilan birga, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) biologiya fanining ko'p jihatdan vizual va modellashtirishga asoslangan tabiiy sababli o'quv materialini chuqurroq va jonliroq tushunishga xizmat qiladi. Virtual mikroskoplar, elektron darsliklar, animatsiyalar, 3D modellar orqali murakkab biologik jarayonlar ko'rgazmali ifodalanib, o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi kengayadi. AKT yordamida ekologik ong va zamonaviy ilmiy tafakkur shakllanadi.

Yana bir samarali yondashuv – loyiha asosida o'qitish bo'lib, bu metod o'quvchilarda fanlararo bog'liqlikni tushunish, amaliy izlanishlar olib borish, guruhda ishlash va taqdimot ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. "Mening bog'imdagi o'simliklar" kabi loyihalar orqali o'quvchilar nafaqat biologik tushunchalarni egallaydilar, balki

atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabat hamda ilmiy izlanishga nisbatan ichki ehtiyojni ham rivojlantiradilar.

Umuman olganda, innovatsion metodlardan foydalanish:

o'quvchilarni bilim olish jarayonining markaziga qo'yadi;

ularning intellektual, ijtimoiy va estetik salohiyatini ochadi;

biologiya fanini hayotga yaqinlashtirib, amaliyot bilan uyg'unlashtiradi;

natijada o'quvchi shaxsini mustaqil, tafakkurli, faollikka tayyor bo'lgan holda shakllantiradi.

Shunday qilib, biologiya fanini 6-sinfda o'qitishda innovatsion yondashuvlar ta'lim sifatini oshirishda, o'quvchilarning fanga nisbatan munosabatini ijobiy shakllantirishda va kelajakda fan-savodli, ekologik madaniyatga ega bo'lgan avlodni tarbiyalashda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Bu yondashuvlar ta'lim islohotlarining amaliy samarasini ta'minlovchi zamonaviy metodik poydevor hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Tuxliyeva R.X., Qodirova G.A. – Biologiya o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.
2. Bahodirov A., To'xtasinov J. – Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent, 2019.
3. Jalolov J.J. – Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2021.
4. Tursunov S. – Biologiya fanini o'qitishda AKTdan foydalanishning samarali usullari // "Pedagogik ta'lim" jurnali, 2023, №2.
5. UNESCO. Teaching and Learning for Sustainable Future. [Online resource].



UDK: 1:18:7.01

Laziz ESHONQULOV,
TDIU Samarqand filiali dotsenti
E-mail: Laziz.eshonqulov.90@mail.ru

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Yaxshilov taqrizi asosida

SHARQ ESTETIKASIDA KULGI SA'NATINING RIVOJLANISH TENGDENSIYALARI

Аннотация

Maqolada Sharq estetikasida kulgi sa'natining rivojlanish tengdentsiyalari, hamda zamonaviy obraz yaratish, kinokomediyaning boshqa san'at turlari bilan uzviy bog'lanishi, badiiy xususiyatlari turli tadqiqot ishlarining alohida obyekt sifatida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: teatr va kino san'ati, hajviylik, estetik tafakkur, go'zallik, xursandchilik, vaqtichog'lik, zavqlanish, maqsad, farovonlik, estetik faoliyat, badiiy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, ijtimoiy-madaniyat, estetik did, hazil, satira.

УРАВНЕНИЯ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВА СМЕХА В ВОСТОЧНОЙ ЭСТЕТИКЕ

Аннотация

В статье изучаются уравнения развития искусства смеха в восточной эстетике, а также создание современных образов, неразрывная связь кинокомедии с другими видами искусства, ее художественные особенности как отдельного объекта различных исследовательских работ.

Ключевые слова: театральное и киноискусство, юмор, эстетическое мышление, красота, радость, досуг, удовольствие, цель, благополучие, эстетическая деятельность, художественные ценности, национальные ценности, социокультура, эстетический вкус, юмор, сатира.

THE DEVELOPMENT EQUATIONS OF THE ART OF LAUGHTER IN EASTERN AESTHETICS

Annotation

The article studies the development equations of the art of laughter in Eastern aesthetics, as well as the creation of modern images, the inextricable connection of film comedy with other types of art, and its artistic features as a separate object of various research works.

Key words: theater and film art, humor, aesthetic thinking, beauty, joy, leisure, pleasure, purpose, well-being, aesthetic activity, artistic values, national values, socio-culture, aesthetic taste, humor, satire.

Kirish. Mamlakatimizda qadimdan shakllanib kelgan bir necha xil sivilizatsiya, madaniyat markazlari bo'lgan. Ularda san'at turli darajada rivojlangan, o'z yo'li orqali taraqqiy etgan. Hukmdorlarni despotik, avtoritar boshqaruvi tufayli (asosan Buxoro amirligida) fikr erkinligi, so'z erkinligi ancha cheklangan. Buni biz A.Erkayevning "Tafakkur erkinligi" [1] risolasida ko'rishimiz mumkin. Rusolada o'zbek teatrshunosligini chuqur o'rgangan M.Rahmonov haqida qiziqarli ma'lumotlar bor. Mazkur tadqiqotchi Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi hududida faoliyat yuritgan xalq teatrlari, dorbozlar, masxarabozlar, qo'g'irchoqbozlar XIX asrda ko'rsatilgan ayrim tomoshalar, intermediyalar haqida so'z yuritgan. Muallifni guvohlik berishicha, Qo'qon xonligi san'atkorlari hatto xon huzurida ko'rsatadigan tomoshalarida ba'zan keskin ijtimoiy-satirik lavhalarni, amaldorlar va ruhoniylarni tanqid qiladigan sahnalarni ko'rsatganlar. Qo'qon madaniy muhiti anchayin erkin san'atida sho'xlik, o'ynoqlik, hajviylik san'ati rivojlangan bo'lgan. Xorazm madaniyatida ham aynan shunday san'atda erkinlik aks etgan.

Adabiyotlar tahlili. Zaminimizda qadimiylilik borasida anchayin uzoq tarixga borib taqaluvchi kichik hajviy janrlardan biri bu "Kulgi- hikoya, maqtovdur" bu janr zamonaviy televideniya, xususan O'zbekiston televideniyesida XX- asrning 60- yillarida o'rin olgan "miniatur"ning yuzaga kelishida asosiy rol o'ynagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Kulgi-hikoya, maqtovdur. Bu atama Farg'ona vodiysida vujudga kelgan bo'lib u Buxoroda pantomima bilan, Xorazmda pantomima, raqs, qo'shiq va usul bilan qo'shib ijro etilgan. Farg'ona qiziqchilarining hikoyalari esa sof so'z san'ati yetakchilik qiladi. "Kulgi-

hikoya"ning shu paytgacha ilmiy adrin olganabiyot va matbuotda „kulgili hikoya“ deb atalishi to'g'ri emas. «Kulgi» so'zi xalq aktyorlari tomonidan hajviy tomosha, ya'ni komediya ma'nosida ishlatiladi. Birinchi yozma komediyalarning «kulku» deb atalishi bejiz emas. Chunonchi, Abdulla Avloniyning «Pinak», «Advokatlik osonmi?», Mannon Uyg'urning «Turkiston tabibi» komediyalari shunday «kulku» deb atalgan. Kulgi- hikoyaning tanqid va muqalliddan farqi shundaki, u bir kishi tomonidan libos hamda pardosiz ijro etiladi.

Taniqli olim M.Muhammedov "Kulgi moyil qiladi, hajv o'ldiradi" degan edi.

Masxara nazariyasi rivojlanishida rus yozuvchisi Saltikov-Shyedrinning fikrlari salmoqli o'rin tutadi. U bo'yoqlarni nihoyat darajada quyuqlashtirib, qiyofa tasvirini o'tkirlashtirishga erishish mumkin va zarur, deydi. Uning fikricha, yozuvchi badiiy asar tasviri chog'ida inson sodir qilgan hodisalarni, agar layoqati, mahorati etarli bo'lsa, amalga oshirishi mumkin bo'lgan voqiyalari, chunonchi, nafaqat ham matnda qahramon so'zlayotgan nutqni emas, balki u oshkora aytmagan va aytgan, lekin o'ylayotgan yoki o'ylashi mumkin bo'lgan fikrlarni ham qamrab olishi kerak. U "Inson qo'llarini yechib tashlang. Unga fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish imkoniyatini bering va ko'z o'ngingizda avvalgidan butunlay boshqa odam turganligini ko'rasiz. Hazilashish, hazil samimiyligi bilan, beozorligi bilan hajviylikning boshqa turlaridan farqlanadi. Kishilar hazilni vaqtida va o'z odamiga qilishni, mavridi kelganda so'z kulminatsiyasini topishni bilishadi. U birinchidan, tanqidiy, ma'lum me'yorlarga asoslangan, ikkinchidan, jamoada tezda

samarasini beradigan hajviylik turidir. Bu yerda estetik voqelik beg'araz kulgi – xush kayfiyatni, samimiylilik – odamiyligni, to'g'rilik – halollikni, hayotiylik – jo'shqinlikni yuzaga chiqaradi.

Kulgi hajvni rivojlanishi borasida Buxoro amirligi san'atida esa ijtimoiy satiradan, tanqididan mutlaqo yiroq, ko'proq ko'ngilochar tomoshalar ko'rsatganlar, Afandi latifalari, turli so'z o'yinlari asosida hajviy lavhalar tayyorlangan. Islom dini va ulamolariga nisbatan tanqidiy fikr bildirish, qoloq an'analar va ruhoniylar qatlamiga, amaldorlarga nisbatan qochirish, askiya qilishga ham jur'at etilmagan. Keng aholi qatlamining ongi, ijtimoiy fikri qozilar, diniy idoralar tomonidan qattiq nazorat qilingan. Satira unsurlari bilan boyigan tomoshalar qariyb ko'rsatilmagan.

Yuqoridagi risolada aytilishcha, Qo'qon va Xiva xonliklarida Buxoro amirligiga nisbatan tafakkur erkinligi bir muncha rivojlangan bo'lgan. "Amirlik aholisi orasida askiyabozlik Qo'qon xonligi aholisi orasidagiga nisbatan kamroq tarqalgan. Qo'qon xonligi hududida yashagan Yusufjon qiziq Shakarjonovning eslashicha, 1897 yili Buxoro amiri Turkiston general-gubernatoriga xat yozib, farg'onalik san'atkorlarni chaqirtiradi. Amir tomoshalarda qozi va ulamolarni tanqid qiladigan kulgililik janrlarini ko'rsatishga rozilik bermaydi. Shunda tashrif buyurgan farg'onalik san'atkorlar askiya aytishni lozim topadilar. Askia aytib boshlanadi, lekin uni hech kim tushunmaydi. Amir tevaragidagi amaldorlar askiyani tushunmaydilar" [2]. Har bir hududning madaniyatini tarkibiy qismi bo'lgan san'at rivojlanishi uchun erkinlik, ochiqlik va ozodlik zarur. Agar san'at ma'lum siyosiy tuzum va mafkura bosimi ostida rivojlantirilsa, unda u marginal ko'rinishdagi qolipga tushadi, rang-barangligini yo'qotadi.

Tahlil va natijalar. Insonning kognitiv faoliyatining natijasi bo'lgan san'at mohiyatan ma'lum mafkurani aks ettiradi. "Kognitiv jarayon mavjud shakllangan ijtimoiy, axloqiy, estetik, siyosiy tasavvur, ideal, qarashlarga nimanidir qo'shadi, o'zgartiradi, yangilaydi va boyitadi. Ijodkor kognitiv faoliyatini o'z estetik ideali asosida rivojlantirish uchun uni ijtimoiy-siyosiy ideal talablari bilan moslashtiradi, sosial mobillik asosida natija ko'rsatadi" [3]. Hajv va kulgi zamirida haqiqat, adolat va tinchlik turadi. Hajviylik va uning turlari estetika ilmiida tragediya (fojiaiylik)ga qarama-qarshi yaratilgan bo'lib, u kishilarni g'am, qayg'udan forig'lantirish, ko'ngil ochish yo'li sifatida paydo bo'lgan. Dastlab bu xalq ijodiyotida yaqqol ko'zga tashlangan. Buni xalq donishmandligining mahsuli desa mubolag'a bo'lmaydi. Xalqning ichidan chiqqan ijodkorlar o'z qo'shiqlari orasida kishini kulgisini keltirar darajadagi hajv elementlarini qo'shishlari tinglovchilarga dastlab tabassum ulashib, ular o'z kamchiliklari yoki yaqinlarining illatlari fosh bo'layotganligini anglashgan va ma'lum xulosalarga kelishgan.

Komediyaning otasi bo'lgan Aristofan komediyalari "folklor janriga yaqin bo'lib, bayram, xalq o'yinlari, masxarabozlik, muqallidlik, qiziqchilik marosimlaridagi kulgili holatlarni bir voqea atrofida birlashtirish orqali p'yesa shakliga keltiradi. Aristofan ijtimoiy ahamiyatga molik mavzuni siyosat bilan bog'lashga intiladi. Siyosat va adolat, siyosat va tinchlik, siyosat va boylik, siyosat qashshoqlik, siyosat va demokratiya g'oyalari" [4] muallifning asarlarida ustuvor bo'lganini ko'rish mumkin. Ilk komediyalarda urush va tinchlik mavzusi bosh mavzu bo'lgan. Xalqchil bo'lgan bu ijod turi xalqqa tinchlik bering tamoyili ostida siyosatchilarni hajv ob'yektiga aylantiradi. Klassik komediyalarda uchraydigan hajviylik turlari o'z davrida xalqqa demokratik tafakkurni shakllantirishga, o'tmishdagi ijtimoiy voqelikdan xulosa qilishga va yangi bilimga o'tishga undagan. O'sha davr asarlarida qahramonlar qiyofasi mohirona tanlanib, kulgi ob'yekti va kulish sharti o'ratasida simmetrik birlikni yaratgan. Bir vaqtni o'zida hazil-mutoyiba, qochirish, so'z

o'yinlari, zaxarxanda gaplar tiniq va o'ynoqi so'zlar tinglovchi auditoriyasiga huzur bag'sh qilgan. Aslida, "kulgi – asarga bir libos; uning zamirida jamiyatning og'ir nuqsonlari yuki – shaxs tarbiyasi muammolari mujassamdirlar" [5].

Ijtimoiy voqelikka tanqidiy ko'z bilan qarash har doim ham natija bervermaydi. Shuning uchun ijtimoiy aynigan guruhlar va kishilar ustidan kulish, hajv qilish orqali ijtimoiy illatlar fosh qilingan. Hozirgi kunda ham hajviylik san'ati teatr va televideniya va ijtimoiy tarmoqlarda ma'lum ma'noda rivojlantirilmoqda. Ularni asosiy kulgi ostiga olingan ob'yekti juda ham qamrovi tor (oilaviy, er va xotin, qiz va yigit) va kulgi zamirida haqiqat asosiy maqsad qilib olinmaydi. Yoshlar demokratik tafakkurini shakllantirishda hajviylik tanqidchilikni, adolatni, tinchlikni, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashni maqsad qilib olmog'i dardkor.

Hozirgi kunda O'zbekistonda tegishli idoralardan lisenziya olib yakkaxon yoki guruh bo'lib ishlaydigan hajviy ko'rsatuvlar ko'paymoqda. Ularni ko'paygani ijtimoiy muammolarni birin-ketin tanqidga uchrashi, kishilarda shu muammolarni bartaraf etishni huquqiy va qonuniy yo'lini izlashga da'vat etmoqda. Masalan, qiziqchi Avaz Oxun o'z chiqishlarida qator ijtimoiy illatlar ustidan kulgili repertuarlar tayyorlab xalqni beg'araz kulgi bilan bahramand qilib kelmoqda. Yoshlarni estetik didi pasayib ketayotganligi, g'irromlik, ko'z bo'yamachilik, bilimsizlik ortib borayotganligini o'z chiqishlarida kulgi vositasida yetkazib bermoqda. Bu ma'lum ma'noda xalqning ayniqsa, yoshlarning estetik didini shakllanishiga, hozir javoblikka va zakiylikka olib keladi. Undan tashqari bir qator "Million", "Dizayn", "Qalpoq", "Sho'rdanak", "Shapaloq", "Qah-qaha", "Ledi shou" singari jamoaviy kulgi guruhlari ham borki, ularda ham ayrim o'tkir ijtimoiy muammolar bilan birga yoshlarning fikrini ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga zarba beruvchi qochiriqlar ham, chiqishlari ham yo'q emas.

Demokratiya milliy qadriyatlarini hurmat qilish va uni mustahkamlashni maqsad qilib oladi, lekin uni yo'q qilishni emas. Demokratik tafakkurning asosiy belgisi erkinlik, insonparvarlik, shaxs va jamiyatning manfaatlari uyg'unlashuvi, shaxs tanlovini joriy etish, inson qadrini yuksaltirishdir. Demak, shaxs tafakkurida demokratiya elementlarini olib kiradigan hajviylik komediya, satira, yumor, ironiya turlari bir vaqtning o'zida ham estetik didni o'stirish, ham haqiqiy fojiiya va kulgining ma'nosini anglatish kabi konstruktiv vazifani bajaradi.

Demokratik tafakkurning eng asosiy xususiyatlaridan biri uning ijodkorligi va tanqidiy ruhda ekanligidir. "Erkin tafakkur har qanday fikrni ko'r-ko'rona qabul qilmaydi. Uni tahlil elagidan o'tkazadi, ma'qul kelmasa, inkor etadi. Zaif, bo'sh, o'z nazarida xato yoki biryoqlama jihatlarni tanqid qiladi. U shunchaki o'zga fikrni ma'quullash yoki tanqid qilish bilan cheklanib qolmaydi, balki uni rivojlantirishga, o'zini qiziqtiradigan hodisalar bilan bog'lashga harakat qiladi". Aynan yoshlarni faolligini va mustaqilligini ta'minlaydigan jihati shunda. Kulgi ob'yektiga olib chiqilayotgan ijtimoiy hodisa yoki illat birinchi poetik bo'yoqlarga bo'yaladi, assimetrik holatiga olib kelinadi va nihoyat G'arbga xos metod bo'yicha karikatura tayyorlansa, sharqqa, xususan, o'zbek milliy an'analardan kelib chiqib intermediya, felyeton yoki kulgi ustalari tomonidan latifa tarzida xalqqa yetkaziladi. Ya'ni faollik va to'siqlarga qarshi tanqid, ijod va erkinlik tarzida amalga oshadi.

Jamiyatda kishilar tashkil qilgan ijtimoiy voqelik (masalan, korupsion holatlar), hodisa, kishilarning nojo'ya xatti-harakatlari hamma umume'tirof etgan ijobiy-axloqiy talablarga zid bo'lsa, qarama-qarshi kelib to'qnashsa, hajv, kulgini ob'yektiga aylanadi. Insondagi tug'ma axloqiy mohiyatning qo'pol buzilishi natijasida beorlik, laganbardorlik, munofiqlik, sansalorlik illatlari hajviy obrazlarga aylanadi va uni maksimal xunuk, fojiaiy badiiy

tasvirlar orqali asar qahramoniga aylantiradi. Bu holat estetikadagi ideal talablar asosida mukammal holatga olib kelinadi.

Xulosa. Hajviylikning estetik talablari va ularning demokratik tafakkurga ta'sirini qo'yidagi talablar asosida qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, kulgili voqelikni o'z xususiyatidan kelib chiqib, tilshunoslik qoidalariga amal qilgan holda so'z va ma'noning assimetrik tuzilishini (so'z qisqa ma'nosi keng) o'zida aks ettirishi kerak;

ikkinchidan, agar askiya aytishuv yoki ikki kishini so'z uyini shaklida bo'lsa, unda badiiy-estetik va poetik talablar kelib chiqishi, so'zlar badiiy bo'yoqdor so'zlar bilan bezalishi va sirli bo'lishi kerak;

uchinchidan, kulgili ko'rsatuvlarda asosan yoshlarning so'z boyligini oshiradigan, ma'naviyatini yuksaltiradigan, tafakkurini charxlaydigan qiziqarli mavzularni tanlash, uni yoritishda mavzuga doir lingvistik birliklarni, tushunchalar va atamalarni qo'llash zarur.

ADABIYOTLAR

1. Эркаев А. Тафаккур эркинлиги. Т.: “Маънавият” 2007, 131 бет.
2. Самадов А.Р., Эргашева М.Шахс эстетик идеалини шаклланиши ва ривожланиши муаммолари. Монография. Тошкент, Навруз. 2021 192-бет.
3. Махмуд Ж. Комедиянинг отаси// Театр. №2 2021. 14-бет.
4. Рахимова Ч. Кулги замирида ҳақиқат // Театр. №2 2021. 29-бет.
5. Қодиров М. “Ўзбек театри тарихи”(XVIII – XX асрлар).Т.: 2003 йил. “IJOD DUNYOSI”150-151 бетлар
6. Султонов О. Кулги ҳақида.... кулишиб. Тошкент: Янги аср авлоди, 2002, 29-30-бетлар
7. Сычев А.А. Природа смеха или Философия комического – Саранск: Изд-во Мордов. ун-та, 2003. – С.78.
8. Oydin Yo'ldosheva Siz nega kulayapsiz maqolasi Jadid adabiy, ilmiy –ma'rifiy va ijtimoiy gazeta 2024-yil № 8



UDK:101.4

Farrux YULDASHEV,
Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: f.yuldashev@gmail.com

FarDu professori M.Mamatov taqrizi asosida

EKZISTENSIAL FALSAFADA INSON FAOLIYATI VA ERKINLIGI UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolada inson faoliyatining ekzistensial xususiyatlari o'rganilgan bo'lib, ushbu jarayonda ekzistensial falsafada insonning mavjudligi, uning erkinligi, mustaqil qaror qabul qilishi, ixtiyori va axloqiy tanlovi kabi masalalarning namoyon bo'lishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekzistensiya, mavjudlik, inson, faoliyat, ixtiyor erkinligi, ekzistensial falsafa, maqsad, manfaat, ehtiyoj, taraqqiyot, o'zgarish, dunyoqarash.

ЧЕЛОВЕЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И СВОБОДА В ЭКЗИСТЕНЦИАЛЬНОЙ ФИЛОСОФИИ И ИХ ХАРАКТЕРИСТИКИ

Аннотация

В статье изучаются экзистенциальные характеристики человеческой деятельности, и в этом процессе выделяется проявление таких вопросов, как человеческое существование, свобода, самостоятельное принятие решений, свобода воли и моральный выбор в экзистенциальной философии.

Ключевые слова: существование, бытие, человек, деятельность, свободная воля, экзистенциальная философия, цель, польза, потребность, развитие, изменение, мировоззрение.

HUMAN ACTIVITY AND FREEDOM IN EXISTENTIAL PHILOSOPHY AND THEIR CHARACTERISTICS

Annotation

The article studies the existential characteristics of human activity, and in this process, the manifestation of such issues as human existence, freedom, independent decision-making, free will and moral choice in existential philosophy is highlighted.

Key words: existence, being, man, activity, free will, existential philosophy, purpose, benefit, need, development, change, worldview.

Kirish. Insoniyat taraqqiyotida har bir davr an'anaviy falsafiy muammolarni ilgari surgan va ularni o'z davri dunyoqarashi ta'sirida hal qilishga harakat qilgan. Falsafa tarixini yangi shoxchalari paydo bo'ladigan daraxtga qiyoslash mumkin, har bir shox o'z shakliga va yaproqlarining rangiga ega bo'lib, ular boshqalarini takrorlamaydi. Biroq daraxt shoxlari kabi falsafiy yo'nalishlar qancha ko'p bo'lmasin, ularda umumiy ildiz - inson va olamning o'zaro aloqadorligi, inson va jamiyat hayotining uzviyligi birlashtiradi. Ushbu umumiy ildiz inson madaniyatining dunyoqarashli asosi sifatida falsafaning ahamiyatini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Yangicha taraqqiyot yo'li mamlakatimizda fan rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Fanning barcha sohalaridagi kabi falsafada tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Zero, eng qadimiy rivojlanish tarixiga ega bo'lgan falsafa o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, nafaqat anglash, balki ularga munosabat bildirishni shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi nafaqat umumiy ma'naviy muhitning, balki har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o'zgarishi hamdir. Shu ma'noda ekzistensial falsafa, unda insonning o'rni, mavjudligi, qanday yashashi kabi masalalar XX asr falsafiy yo'nalishlarni o'zida birlashtirdi va o'tmish tajribasiga tayangan holda, olam va odam masalasiga juda murakab ijtimoiy siyosiy vaziyatda ziddiyatli, yangi falsafiy qarashlar shakllantirdi. Ekzistensial falsafada inson erkinligi, iroda, intilishi "hayot falsafasi"ning mazmuni kelib chiqadi[1].

Insonning ruhiy borlig'i, irodasi, hokimiyatga intilish to'g'risidagi g'oyalari XX asr ijtimoiy hayotida katta rol o'ynaydi, hozirgi kungacha ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Inson ruhiyati, dunyoqarashi, ma'naviy dunyosida orzu qilish har doim alohida o'ringa ega. Orzu qilish insonga xos bo'lib, dunyoda orzuni cheki-chagarasi yo'q tushuncha sifatida talqin etish mumkin. Yaxshi yashash, to'kin-sochinlik, farovonlikda hayot kechirish, birovdan kam bo'lmaslikka intilish, bu dunyoda yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy ne'matlarga ega bo'lish istagi har birimizni tinimsiz o'z tafakkurimizni charxlash, mehnat qilish, ijod bilan shug'ullanishga undaydi.

Aslida, hayotning mazmuni ham shundami? Ammo, biz ko'pincha e'tibor bermaydigan, kundalik quvonch va tashvishlar og'ushida ba'zan unutib qo'yadigan qator muhim qadriyatlar borki, ularning qadri, ahamiyati hamma narsadan ustun. Bu - insonning ozodligi, erkinligi, o'ziga ixtiyoriyligi masalasidir. Insoniyat paydo bo'lgandan beri erkinlikka intiladi. Biz erkinlik deganda asosan shaxsning fikr erkinligi, so'z erkinligi, vijdon erkinligini tushunamiz. O'z xaq-huquqlarini taniydigan, shu bilan birga o'z manfaatlarini mamlakat va millat manfaatlarini bilan uyg'unlashtirish imkoniga ega bo'lgan shaxs, aslida erkin, ozod insondir. Yana bir narsaga e'tibor berish lozimki, tom ma'nodagi erkin shaxs mustaqillikka erishgan, hur diyarda, ozod mamlakatdagina shakllanishi mumkin. Shu ma'noda, erkin shaxs va mustaqil davlat tushunchalarini egizak holda tushunish mumkin.

Ekzistensializm (lotincha *existentia* — borliq) 20-asrning inson borlig'ining o'ziga xosligiga qaratilgan falsafiy oqim bo'lib, u shaxsiyat va falsafiy antropologiya bilan

parallel ravishda rivojlanib, insonning o'z mohiyatini yengishi va hissiy tabiatning chuqurligiga urg'u berish g'oyasi bilan ajralib turardi. Ekzistensializmning asosiy g'oyalari:

-Erkinlik va mas'uliyat. Inson tanlash erkinligiga ega va o'z harakatlari va oqibatlari uchun to'liq javobgardir.

-Borliqning absurdligi. Dunyo obyektiv ma'nodan mahrum bo'lib, inson o'z hayotida ma'no topishga yoki yaratishga harakat qilib, borliqning absurdligiga duch keladi.

-Ekzistensial tashvish. Erkinlikni anglash va oldindan belgilangan ma'noning yo'qligi odamda tashvish va noaniqlikni his qiladi.

-Haqiqiylik. Jamiyat tomonidan o'rnatilgan meyorlarga rioya qilishdan ko'ra, o'z e'tiqodi va qadriyatlariga muvofiq yashash istagi. Ushbu masalalarni jamiyatda ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Ekzistensializmning asosiy vakillari bo'lmish Jan-Pol Sartre, Martin Xaydegger, Soren Kierkegaard, Albert Kamyu, Nikola Abbagnanolar ekzistensializmning gumanizm sifatida talqin etgan, borliq va inson mavjudligi masalalarini o'rgangan, shaxsiy tanlov va e'tiqodga e'tibor qaratganlar. Ushbu olimlar 20-asr adabiyoti, san'ati va psixologiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, inson erkinligi, mas'uliyatini chuqurroq anglash va hayot mazmunini izlashga yordam berdilar[2].

Insoniyatning mavjudligi - bu inson mavjudligining ma'nosi, tabiati va maqsadi haqidagi falsafiy va metafizik savol. Bu atama, ayniqsa, ekzistensializm, inson mavjudligini berilgan narsa deb qaraydigan, lekin asl ma'nodan mahrum bo'lgan falsafiy maktabda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni shaxs o'zi belgilashi kerak. Inson mavjudligining asosiy jihatlari:

1. Hayotning mazmuni - insoniyatning oldindan belgilangan maqsadi bormi yoki biz o'zimiz ma'no yaratamizmi?

2. Erkinlik va mas'uliyat - odamlar o'z tanlovlari erkindir, lekin bu erkinlik oqibatlari uchun javobgarlikni yuklaydi.

3. Absurdlik va cheklilik - insonning ma'noga bo'lgan intilishining Olamning ma'nosizligi bilan to'qnashuvi (Sartre, Kamyu).

4. Ijtimoiy borliq - borliqning shakllanishida jamiyat, madaniyat va tarixning roli.

5. Insoniyatning kelajagi - texnologik taraqqiyot, sun'iy intellekt, mumkin. Hayotning mavjudligi falsafiy savol, hayotning mavjudligi haqiqati, uning mohiyati va mazmuni. Ushbu kontsepsiyani turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish mumkin. Falsafiy qarash sifatida Ekzistensialistlar (Xaydegger, Sartre, Kamyu) hayotning o'zi asl ma'nodan mahrum, uni mazmun bilan to'ldirishga faqat inson qodir, deb hisoblagan. Ma'no va absurdlik - hayot olamning ma'nosizligi bilan to'qnashadi. (Kamyu: "Sizif haqidagi afsona") [3].

Borliq va yo'qlik - hayot doimiy shakllanish, tanlash va o'z chekliligini anglashdir (Sartre). Haqiqiylik o'rnatilgan meyorlar bo'yicha emas, balki "haqiqiy" yashashning ahamiyatidir (Xaydegger). Ilmiy qarash Ilmiy nuqtai nazardan hayot biologik hodisadir, lekin uning kelib chiqishi sirlicha qolmoqda. Mavjudlik va o'lim sifatida ekzistensializm hayot tugashga mahkum, lekin bu uni mazmunli qilishi, hayotning kelajagi raqamli boqiylik, sun'iy intellekt, transhumanizmlar talqin etiladi.

O'zbek falsafasidagi ekzistensial savollarni o'zlikni, hayotning ma'nosini va insonning dunyodagi o'rni izlash bilan bog'liq qadimiy an'alar va zamonaviy muammolar o'rtasidagi dialog sifatida ko'rish mumkin. O'zbek madaniy kontekstida bu masalalar islom dinining boy merosi, so'fiylik va adabiy an'alar, shuningdek, sovet va postsovet tajribasining o'ziga xos xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Tarixiy ildizlar va an'alar tasavvuf va islomiy tafakkur an'anaviy o'zbek dunyosida falsafiy izlanishlar so'fiylik

an'analari bilan chambarchas bog'liq. Xoja Ahmad Yassaviy kabi so'fiy shoir va mutafakkirlar botiniy izlanish, xayollarni yengish, mutlaq bilan birlikka intilish g'oyalarini she'r va masallar orqali yetkazgan. Bu g'oyalar allaqachon ekzistensial xarakterga ega bo'lgan savollarni tug'dirdi. Haqiqiy "men" nima, xayollar dunyosida haqiqiylikni qanday topish va moddiy va ma'naviy o'rtasidagi uyg'unlikni qanday topish mumkin. Qolaversa Adabiy merosni Alisher Navoiy kabi mumtoz ijodkorlar ijodida inson taqdiri, tanlash erkinligi va ma'naviyat yo'li haqidagi mulohaza elementlari mavjud bo'lib, ularni an'anaviy o'zbek tafakkuridagi ekzistensial masalalarning ko'rinishi sifatida talqin qilish mumkin.

Ta'kidlash kerakki, qarshilik va ichki tug'yonlar kurashi natijasida o'zbek ekzistensiyasida mustaqil qarash shakllandi. Mafkuraviy tazyiqlarga qaramay, ko'plab yozuvchi va shoirlar ekzistensial masalalarga o'z munosabatini ramziy ma'no va metafora orqali ifodaladilar, bu esa keyinchalik postsovet davrida bu mavzularni erkinroq muhokama qilish uchun zamin yaratdi. Zamonaviy tendensiyalar va ekzistensial qayta fikrlash mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekistonda an'anaviy madaniyat va falsafaga qiziqish uyg'ondi. Zamonaviy mutafakkirlar o'zlik, ma'naviy o'zini o'zi belgilash va madaniy meros masalalariga murojaat qilib, ularni globallashtirish va texnologik taraqqiyot kontekstida qayta ko'rib chiqadilar. Bu erda ekzistensial muammolar an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy dunyo muammolari o'rtasidagi muvozanatni izlashda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek falsafasidagi zamonaviy munozaralarda ko'pincha shaxsiy javobgarlik, tanlash erkinligi, ongli yashash zarurati mavzulari ko'rib chiqiladi. Bu savollar odamlar doimo o'zgarib turadigan dunyoda qanday ma'no topadi degan umumiy ekzistensial savolga javob beradi. Haqiqiylikni qidirishda zamonaviy jamiyatning jadal madaniy va iqtisodiy rivojlanishi sharoitida ko'plab ziyolilar haqiqiylik masalasini ko'taradilar. Bu milliy o'ziga xoslikni saqlashga ham, har bir insonning ekzistensial tanlovi hayotning markaziy elementiga aylangan global hamjamiyatga integratsiyaga taalluqlidir.

Natijalar va muhokama. Ekzistensial muammolar an'anaviy qadriyatlarni qayta ko'rib chiqishga, san'at, adabiyot va jamoatchilik ongida yangi yo'llarni topishga yordam beradi. Bu yo'nalishdagi falsafiy tadqiqotlar avlodlar va turli madaniy an'alar o'rtasidagi muloqotga yordam beradi. O'zbek falsafasida mavjudlik qadimiy ma'naviy an'alar va zamon talablarining murakkab uyg'unligidir. Bu nafaqat hayotning individual mazmuni masalasi, balki tarixiy merosni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga qodir bo'lgan jamoaviy o'ziga xoslikni izlashdir. Agar siz zamonaviy o'zbek faylasuflarining aniq asarlari yoki nomlari bilan qiziqsangiz, mintaqa tafakkuridagi postsovet o'zgarishlariga bag'ishlangan nashrlar va tadqiqotlarni o'rganishingiz mumkin.

O'zbek falsafasida mavjudlik - an'anaviy Sharq falsafiy yo'nalishlarini ham, zamonaviy ekzistensial g'oyalar ta'sirini ham o'z ichiga oluvchi qiziqarli va ko'p qatlamli mavzu. An'anaviy falsafiy asoslar tarixan o'zbek falsafasi islom tafakkuri, so'fiylik va o'rta asr Sharq falsafasi bilan chambarchas bog'langan. Mintaqaning buyuk mutafakkirlari - Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshbandlar - borliq, bilim va baxt masalalarini, borliq tabiati, ruhning o'lmasligi va insonning ongi va mohiyati o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi g'oyalarini, she'riyatda ekzistensial mavzular aks-sadosi uyg'unlashgan muhabbat, ozodlik, inson taqdiri va ichki tanlov masalalarini o'rganganlar. 20-asrda, ayniqsa, SSSR parchalanganidan keyin o'zbek falsafasi ko'proq shaxs, erkinlik va o'zlikni anglash masalalariga e'tibor qaratib boshladi. Ba'zi asosiy fikrlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

- Erkinlik va mas'uliyatni mustaqillikka erishgandan so'ng faylasuflar va yozuvchilar yangi jamiyatda shaxsning o'rni haqida fikr yuritib boshladilar.

- O'ziga xoslik va ekzistensial inqiroz – an'anaviy madaniyatning globallashuv bilan to'qnashuvi hayotning mazmuni va milliy o'ziga xoslik haqida falsafiy mulohazalarni keltirib chiqaradi.

- Ma'naviyatning o'rni – G'arb ekzistensializmidan farqli o'laroq, o'zbek tafakkuri ma'naviyat bilan chuqur aloqada bo'lib, insonni dunyoga "tashlab qo'yilgan" (Xaydeggerdagidek) emas, balki maqsadi bor deb qaraydi.

O'zbek falsafasidagi ekzistensial mavzular ham an'anaviy Sharq tushunchalari (tasavvuf, islom ilohiyotshunosligi) orqali ham, shaxs, erkinlik va o'zlikni anglash haqidagi zamonaviy qarashlar orqali ham namoyon bo'ladi. O'zbek tafakkuri G'arb ekzistensializmi kabi borliq ma'nosini inkor etmaydi, aksincha, ma'no izlashni ma'naviy ildizlar, tarixiy meros bilan bog'laydi. Ekzistensializm, 20-asrning falsafiy harakati, insonning mutlaq erkinligi va dunyodan begonalashuv g'oyasini o'rganadi, uning qarorlari uchun shaxsning to'liq javobgarligini ta'kidlaydi[4]. Bu harakat adabiyot va san'atga sezilarli ta'sir ko'rsatib, teatr, musiqa va kinoda namoyon bo'ldi[5]. Ekzistensializm falsafasi daosizm va qadimgi yunon falsafasi bilan bir qatorda tafakkur tarixidagi asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi[6]. N.A.ning asarlari bilan ifodalangan rus ekzistensializmiga alohida e'tibor beriladi. Berdyayeva, L.I.Shestova va M.M. Yevropa faylasuflari bilan ijodiy muloqot olib borgan Baxtin (Beschtnova, 2022). Ekzistensializm axloqiy meyorlar bilan cheklanmagan holda borliq va tanlash erkinligi haqidagi chuqur savollarni o'rganish orqali inson mavjudligi sirini tushuntirishga intiladi (Efremova, 2009; Besschetnova, 2022). Bugungi kunda borliq va borliqning ontologik tushunchalarining ma'nosini ularni ekzistensializm taklif qilgan borliq tushunchasi bilan bog'lamay turib tushinish mumkin emas. Zamonaviy falsafada ontologiyaga, birinchi navbatda, antropontologiya sifatida qarash kerak. Bugungi kunda inson barcha ontologik muammolarni ko'rib chiqish markaziga aylanadi.

Ekzistensializm falsafasi asoschisi Syuren Kerkegor shunday savolni qo'ydi: nima uchun falsafa yashash, borliq, materiya, Xudo, ruh, ongning imkoniyatlari va cheklanganligi kabi ko'p savollarni o'rganadiyu, lekin insonga uning ichki olami, kayfiyati kabi hayotiga taalluqli bo'lgan masalalarga deyarli e'tibor bermaydi? Kerkegor insonga e'tibor qaratib, uning kichik muammolari, faqat unga ma'lum bo'lgan haqiqatni topish haqidagi, insonga o'z ichki tanlashi, o'z «Men»ini topishda yordam berishi bilan bog'liq masalalarni o'rganadi[7]. Ekzistensializm tomonidan ko'rib chiqiladigan asosiy muammolar. Ekzistensializm falsafaning bir yo'nalishi sifatida XX asrning o'rtalarida dunyoga keldi, XX asrning 20-70-yillariga kelib G'arbiy Yevropada, ayniqsa, ommaviylik kasb etadi. Ekzistensializmning XX asrda rivojlanishi va

dolzarbligining sababi nima? Birinchi va ikkinchi Jahon urushlari va ulardan avvalgi yoki keyingi yillarda, ular o'rtasidagi yillardagi iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy inqirozlar.

Ekzistensializm falsafiy oqimi shular jumlasidandir. Daniyalik faylasuf Kerkegor (1813-1855 y.) insonni taxlil qilish maqsadida «ekzistensiya» tushunchasini kiritdi. Insonni, uning ichki dunyosini bilishga ilmiy metodni qo'llab bo'lmaydi. Yashash bu – «ichki dunyo». Yashash – ichki dunyo insoning betakrorligini ko'rsatadi. Yashash deganda Kerkegor mavjudlik tomon borishni tushunadi va uni uch bosqichdan iborat, deb biladi:

-Birinchi bosqich – estetik bosqich.

-Ikkinchisi - ahloqiy bosqich.

-Uchinchisi – diniy ekzistensiya.

Birinchi bosqich zaminida yashash, chuqur-halovatga qiziqish, inson extiyojini qondirish yotadi. Bunda yashash yo'lini tanlash eng oddiy shaklda bo'ladi, chunki obyekt inson his-tuyg'ularini qondirish asosida tanlanadi. Ikkinchi, axloqiy bosqichda inson o'zini-o'zi anglaydi, o'z ma'suliyatini his qiladi. Yashashning xaqiqiy ma'nosini inson uchun – diniy bosqichda his qila oladi. Inson azob chekish evaziga yashayotganini biladi. Kerkegor fikricha ekzistensiya deganda inson borlig'ining mavjudlik usuli, mohiyati emas, balki inson shaxsining bilib bo'lmaydigan, takrorlanmas holatlari nazarda tutiladi. Uning ekzistensialistik qarashlari «yoki-yoki», «Qo'rquv va titroq», «o'lim kasali» asarlarida bayon etilgan[8]. Ekzistensializm falsafasida inson muammosiga o'ziga xos yondashuv aks etgan. Agar klassik falsafada insonning mohiyati aql-zakovati asosida talqin qilingan bo'lsa, bu yo'nalishda inson erki haqida fikr yuritiladi.

XIX asrning noklassik falsafasiga inson muammosini olib kirishda mashhur nemis faylasufi Nitsshening (1844-1900 y.) o'rni katta. U xalq ya'ni barkamol inson to'g'risidagi qarashlarni ilgari suradi. Nitsshe fikricha, inson bolasida xoliqlik va maxluqlik bor butun holda uyushadi. Nitsshe inson chinakkam komillik darajasiga ko'tarilmog'i uchun avvalo mahluqlarga xos qiliqlardan xoli bo'lmog'i darkor, deb hisoblaydi[9]. **Xulosa.** Xulosa qilib aytganda inson aqli, hayotning ma'nosi, ular o'rtasidagi aloqadorlik, inson tafakkurini ezgulikka, taraqqiyotga va baxtli hayotga yo'naltirish ekzistensiyaning bosh maqsadiga aylanishi zarur. Ushbu jarayonlarni ta'kidlab, ekzistensiya inson mavjudligining asosi, erkinlik, mustqil fikrlar ularning chuqurligi va o'ta o'ziga xosligini e'tirof etib, ularning har biri yaxlit ekzistensial falsafiy fikrlari bilan ilohiy kuchga, insondagi ruhiy kuchga tayanish, insonparvarlik g'oyalarini yuqoriga ko'tarish bosh maqsadga qaratdik. Ekzistensializm klassiklari asarlari tahlili zamonaviy ekzistensializmning dolzarb muammolarini ochib beradi, borliqning obyektiv shakli muammolarini muvaffaqiyatli hal etish, inson nima uchun dunyoga keladi, nima uchun yashaydi, o'zidan nimalarni qoldiradi. Mana shu masalalar ustida doim mushohada olib borish talab etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Жан Поль Сартр. Сила мысли. Пограничные состояния «Алисторус» 2024 стр. -9.
2. Махаматов Т.М., Маматов М.А., Пулатова Д.А. Глобальное экзистенциальное пространство //Век глобализации. №3(47), 2023. С.116-126
3. Камю А. Миф о Сизифе /Сумерки богов. – Москва: Политиздат, 1989. С. 225.
4. Yarchev va boshq., O'zbek falsafasi shakllanishi. 2023.
5. K.Efremova Ekzistensial jarayonlar 2009.
6. A.Vlasova Diniy ekzistensializm 2021.
7. Кьеркегор С. Страх и трепет /пер. с дат. – Москва: ТЕРА-Книжный клуб. 1998. С.23
8. Фалсафа. Қомусий лугат. – Т., «Шарк», 2004 й., 214-бет.
9. Ницше Ф. Антихристианин / Сумерки богов. – М.: Политиздат, 1989. С.17-93.



UDK: 371.146

Sevara YUSUPOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: maftuna@mail.ru

PhD, dotsent N.Saitqulov taqrizi asosida

NOGIRONLIK FENOMININI TADQIQ ETISHGA QARATILGAN SOTSIOLOGIK YONDASHUVLARNING TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada nogironlik fenomenini sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilishga doir ilmiy yondashuvlar yoritilgan. Xususan, nogironlikni biologik nuqson emas, balki ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin etuvchi zamonaviy paradigmalarga e'tibor qaratilgan. Maqolada strukturaviy funksionalizm, interaksionizm, konflikt nazariyalari, etiketlash yondashuvi kabi yirik sotsiologik maktablarning nogironlikka bo'lgan munosabati tahlil qilinadi. Nogiron shaxslarni jamiyatdagi to'liq ishtirokchilarga aylantirish yo'lidagi sotsiologik yondashuvlarning afzallik va zaif tomonlari baholanadi.

Kalit so'zlar: nogironlik, sotsiologik yondashuvlar, stigma, inklyuziya, etiketlash, ijtimoiy konstruksiya, diskriminatsiya.

АНАЛИЗ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ К ИЗУЧЕНИЮ ФЕНОМЕНА ИНВАЛИДНОСТИ

Аннотация

В данной статье освещаются научные подходы к анализу феномена инвалидности с социологической точки зрения. Особое внимание уделяется современным парадигмам, рассматривающим инвалидность не как биологический дефект, а как социальную конструкцию. В статье анализируются позиции крупных социологических школ, таких как структуралистский функционализм, интеракционизм, теория конфликта, теория стигматизации. Оцениваются сильные и слабые стороны социологических подходов, направленных на интеграцию лиц с инвалидностью в общественную жизнь на равных правах.

Ключевые слова: инвалидность, социологические подходы, stigma, инклюзия, стигматизация, социальная конструкция, дискриминация.

ANALYSIS OF SOCIOLOGICAL APPROACHES TO THE STUDY OF THE DISABILITY PHENOMENON

Annotation

This article highlights scientific approaches to analyzing the phenomenon of disability from a sociological perspective. Special attention is given to modern paradigms that interpret disability not as a biological defect, but as a social construct. The article analyzes the views of major sociological schools such as structural functionalism, interactionism, conflict theory, and labeling theory. The strengths and weaknesses of sociological approaches aimed at integrating persons with disabilities into society as full participants are assessed.

Key words: disability, sociological approaches, stigma, inclusion, labeling, social construct, discrimination.

Kirish. Zamonaviy sotsiologiya inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni o'rganish jarayonida, ijtimoiy tenglik, inklyuzivlik va adolat mezonlariga asoslangan yangi nazariy yondashuvlarni ilgari surmoqda. Shu nuqtai nazardan, nogironlik masalasi ham bugungi kunda tibbiy yoki biologik cheklov doirasidan chiqib, ijtimoiy muammo, ijtimoiy konstruksiya va hattoki siyosiy pozitsiya sifatida talqin qilinmoqda.

Nogironlik fenomeni uzoq yillar davomida sog'liq bilan bog'liq alohida holat sifatida ko'rib chiqilgan. Bu yondashuvda nogironlikni aniqlash, baholash va uni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar tibbiy modellar asosida shakllangan. Biroq, 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab inson huquqlari, ijtimoiy inklyuziya va teng imkoniyatlar g'oyasining kuchayishi natijasida sotsiologik nazariyalar ushbu fenomenni yangicha - ijtimoiy munosabatlar, stigma, rol o'ynash, ijtimoiy strukturaviy to'siqlar kontekstida tahlil qilishga intila boshladi.

Bugungi kunda nogironlikka sotsiologik yondashuvlar orqali qarash nogiron shaxslarni passiv yordam oluvchi emas, balki faol ijtimoiy subyekt sifatida talqin qilish imkonini bermoqda. Bu esa o'z navbatida nafaqat nogironlarning o'z-o'zini anglashiga, balki jamiyat tomonidan ularni qabul qilish,

ularga teng imkoniyatlar yaratish, mavjud to'siq va stereotiplarni yengishga olib keladi.

Adabiyotlar sharhi. G'ulomovning fikricha, nogironlik faqat individual nuqson emas, balki jamiyat tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy cheklovlar tizimidir [1]. U "Sotsiologiya: nazariya va amaliyot" asarida nogironlikni ijtimoiy institutlar, norma va qadriyatlar bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Muallif nogironlarni jamiyatda teng huquqli subyekt sifatida qabul qilinishi zarurligini ta'kidlab, nogironlik fenomeniga strukturaviy funksionalizm va etiketlash nazariyalari asosida yondashadi. Unga ko'ra, jamiyatdagi nogironlikni baholash me'yorlari ko'pincha nogironlarning jamiyatdagi haqiqiy o'rnini emas, balki ular haqidagi stereotiplar va stigma asosida shakllanadi.

Beckerning ta'kidlashicha, nogironlik - bu jamiyat tomonidan "normadan chetlaganlik" sifatida belgilangan holatdir [2]. U o'zining "Outsiders: Studies in the Sociology of Deviance" asarida etiketlash nazariyasini ilgari surib, nogironlikni jamiyat tomonidan qo'yilgan ijtimoiy yorliq deb baholaydi. Becker nogironlar stigmalangan ijtimoiy guruh sifatida turli noaniq qarorlar, ajratish va kamsitishlarga duch kelishini ilmiy asoslar bilan ko'rsatadi. Uningcha, nogiron shaxslarning ijtimoiy identiteti ularga jamiyat tomonidan berilgan yorliqlarga qarab shakllanadi.

Muminovning fikricha, O'zbekistonda nogironlikka nisbatan ijtimoiy stigma hanuzgacha mavjud bo'lib, bu holat ularning jamiyat hayotida to'liq ishtirok etishiga to'sqinlik qilmoqda [3]. U "Nogironlik va ijtimoiy stigma: sotsiologik tahlil" maqolasida nogironlar taqdirini belgilovchi asosiy omil bu – ijtimoiy munosabatlar va ommaviy ongda mavjud bo'lgan stereotiplar ekanligini ta'kidlaydi. Muminov, xususan, nogironlik masalasida sotsiologik yondashuvlarni o'zbek jamiyati kontekstida qo'llash zarurligini urg'ulaydi va ijtimoiy transformatsiya orqali nogironlik haqidagi tushunchalarni yangilash lozimligini aytadi.

Parsonsning fikricha, nogironlik jamiyatning funksional muvozanatini buzadigan omil sifatida qaraladi. "The Social System" asarida u jamiyatdagi har bir a'zo o'ziga xos ijtimoiy rolni bajarishi kerak, deya ta'kidlaydi [4]. Nogiron shaxs esa, uning nazarida, ba'zan o'zining ijtimoiy rolini bajarish imkoniyatidan mahrum bo'lib, ijtimoiy tizimda muvozanatsizlik yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Garchi Parsons nogironlikni to'g'ridan-to'g'ri stigmalangan hodisa sifatida ko'rib chiqmasa-da, uning nazariyasida nogironlikni ijtimoiy tizimdagi cheklovli roldagi pozitsiya sifatida baholash mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.

Sotsiologiyada nogironlik masalasiga nisbatan bir necha asosiy yondashuv mavjud bo'lib, ularning har biri jamiyatdagi nogiron insonlarning o'rni, muammolari va imkoniyatlarini turli burchakdan tahlil qiladi. Bu yondashuvlar orasida tibbiy modelga qarshi qo'yilgan ijtimoiy model markaziy o'rinni egallaydi.

Birinci yondashuv – strukturaviy funksionalizm nazariyasidir. Ushbu yondashuvga ko'ra, har bir jamiyat o'zining muvozanatli holatini saqlab turuvchi ijtimoiy institutlarga ega. Nogironlik esa jamiyatdagi normativlik me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan holat sifatida ko'riladi. Funktsionalistlar nogiron kishilarni mehnat bozorida kamroq ishtirok etadigan, ishlab chiqarish quvvatiga hissa qo'sha olmaydigan guruh sifatida tasvirlashga moyil bo'lishgan. Bu esa nogironlikni "ijtimoiy deviantlik" sifatida talqin qilish xavfini tug'dirgan. Shunga qaramay, bu nazariya nogironlikning ijtimoiy natijalarini tizimli tahlil qilishda foydali bo'lgan.

Ikkinchi yondashuv – etiketlash (labelling theory) yondashuvi bo'lib, u nogironlikni ijtimoiy stigmatizatsiya jarayonining mahsuli deb tushuntiradi. Bu nazariyaga ko'ra, nogironlik biologik emas, balki jamiyat tomonidan berilgan "etiketka" (nogiron, chala, ojiz va h.k.) orqali shakllanadi. Nogiron shaxs o'ziga berilgan ijtimoiy yorliq orqali o'zini kamsitilgan, to'liq ishtirok eta olmaydigan shaxs deb his qiladi. Bu esa o'z navbatida, ularning ijtimoiy hayotdagi passivligiga, o'zini o'zi baholash darajasining pasayishiga olib keladi. Mazkur yondashuv jamiyatning nogironlarga nisbatan stereotip va stigma orqali qanday nohaq tuzumlar yaratishini ochib beradi.

Uchinchi yondashuv – symbolic interactionism (ramziy interaksionizm) deb ataladi. Bu yondashuv nogironlikni shaxslar o'rtasidagi kundalik ijtimoiy munosabatlar kontekstida ko'radi. Nogiron insonlar va atrofdegilarning o'zaro interaktsiyasi, har bir holatdagi belgilanish, muomala uslubi, hissiyotlar va kutilmalar nogironlikni qanday "yaratilgan" ijtimoiy holatga aylantirishini o'rganadi. Ramziy interaksionistlar nogiron insonlarning o'ziga nisbatan qanday ijtimoiy identitet hosil qilishi, ularning jamiyatdagi maqomi va o'zaro muloqotini yoritadi. Bu yondashuv ijtimoiy munosabatlarni mikroanaliz orqali tushunishga xizmat qiladi.

To'rtinchi yondashuv – konflikt nazariyasi bo'lib, u nogironlikni kuch va resurslar uchun kurash kontekstida ko'radi. Bu nazariyaga ko'ra, nogiron shaxslar jamiyatdagi kuch va resurslardan teng foydalanish imkoniga ega emas,

chunki iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tizimlar ularni istisno qiladi. Nogironlar ko'pincha quyi ijtimoiy tabaqada qolib ketishadi, ularning ta'lim, sog'liqni saqlash va ishga joylashishdagi imkoniyatlari cheklanadi. Bu yondashuv nogironlik muammosini tizimli diskriminatsiya natijasi sifatida ko'rsatib beradi va ularni jamiyatda kuchliroq subyektga aylantirish yo'llarini izlaydi.

Yana bir dolzarb yondashuv – bu ijtimoiy konstruktivizm yondashuvidir. Bu yondashuv nogironlikni ijtimoiy munosabatlar, madaniy kontekst va jamiyat tomonidan yaratilgan normalar natijasi deb qaraydi. Ya'ni nogironlik - bu faqat biologik holat emas, balki atrof-muhit, arxitektura, qonunchilik, transport tizimi kabi omillar natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy cheklovdir. Shu asosda "inklyuziv jamiyat" g'oyasi ilgari suriladi. Bu g'oyaga ko'ra, nogironlar uchun imkoniyatlar yaratish emas, balki mavjud to'siqlarni olib tashlash asosiy maqsad bo'lishi kerak.

Zamonaviy sotsiologik yondashuvlar nogiron shaxslarni nafaqat passiv yordam oluvchi sifatida, balki o'z hayotini mustaqil tarzda boshqarishga qodir, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida ko'rish tarafdori. Bu holat inklyuziv ta'lim, mehnatga jalb etish, siyosiy vakillik kabi yo'nalishlarda amaliyotda o'z ifodasini topmoqda.

Natijalar. Sotsiologik yondashuvlar nogironlik masalasini nafaqat individual muammo, balki keng ijtimoiy, siyosiy va madaniy strukturalar kontekstida o'rganishga imkon beradi. Aynan mana shu nuqtai nazar nogironlikni "jamiyat va nogiron shaxs o'rtasidagi murakkab munosabatlar majmuasi" sifatida talqin etishni ilgari suradi. So'nggi yillarda nogironlikni o'rganishga yo'naltirilgan yondashuvlar postmodernizm, feministik sotsiologiya, madaniy tahlil maktablari, neo-marxistik yondashuvlar asosida yanada boyidi va murakkab tus oldi.

Postmodern sotsiologik nazariyalar nogironlikni individual tajriba, shaxsiy identitet va madaniy diskurslar orqali tahlil qiladi. Ushbu yondashuvlarga ko'ra, nogironlik yagona, mutlaq, barcha uchun bir xilda kechadigan holat emas, balki har bir nogiron insonning o'ziga xos ijtimoiy va madaniy kontekstda shakllanuvchi holatidir. Shu bois, postmodern yondashuvlar umumlashtirishdan ko'ra, har bir shaxs tajribasini individual darajada tahlil qilishga intiladi. Bu esa nogironlikni shaxsiy tarixlar, madaniy muloqotlar va ijtimoiy identifikatsiya orqali tushunishga yo'l ochadi.

Feministik sotsiologiya nogironlikni gender nuqtai nazaridan o'rganadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nogiron ayollar ko'pincha ikki karra diskriminatsiyaga duch kelishadi: ular nafaqat nogironligi sababli, balki ayol sifatida jamiyatda kamsitiladi. Ushbu yondashuv nogironlik va gender rollari o'rtasidagi kesishuvni tahlil qilishga intiladi. Shuningdek, nogiron ayollarning sog'liqni saqlash, onalik, reproduktiv huquqlar va zo'ravonlikka uchrash xavfi masalalari alohida ko'rib chiqiladi. Bu yondashuv orqali nogironlikni erkaklar va ayollar hayotida qanday farqli kechishi, ijtimoiy institutlar bu farqni qanday kuchaytirishi tahlil qilinadi.

Neo-marxistik yondashuv nogironlikni iqtisodiy tengsizlik, sinfiy struktura va mehnat bozoridagi ekspluatatsiya orqali izohlaydi. Bu nazariyaga ko'ra, kapitalistik jamiyat nogiron insonlarni ishlab chiqarish jarayonidan chetlashtiradi, ularni foydasiz ishchi kuchi sifatida qaraydi. Buning natijasida nogironlar ijtimoiy himoyaga, minimal pensiya yoki nafaqa tizimlariga qaram bo'lib qoladi. Neo-marxistik olimlar nogironlikni nafaqat ijtimoiy, balki siyosiy kurash obyektini sifatida ko'radilar. Ular nogironlar huquqlari uchun harakatlarni ijtimoiy tenglik harakatining bir qismi sifatida ko'rib, ularni sinfiy tengsizlikka qarshi kurashning ajralmas bo'lagi sifatida talqin qilishadi.

Shu o'rinda madaniy sotsiologiya nogironlikni jamiyatdagi ramzlar, belgilar, til va diskurslar orqali tushuntirishga harakat qiladi. Bu yondashuvga ko'ra,

ommaviy axborot vositalarida, adabiyotda, kinoda yoki san'atda nogironlik qanday tasvirlangan bo'lsa, jamiyatning unga nisbatan munosabati ham shunga mos shakllanadi. Masalan, nogironlikni fojea, bechoralik yoki qat'iyat timsoli sifatida ko'rsatish, bu insonlarni asl holatidan yiroqlashtirib, sun'iy ijtimoiy rolga jamlab qo'yadi. Madaniy sotsiologlar nogironlik haqidagi stereotipik tasvirlarning muqobil variantlarini ishlab chiqish, nogiron insonlar tomonidan yaratilgan ijtimoiy san'at, ommaviy madaniyat va madaniy islohotlar orqali ijtimoiy ongni o'zgartirish zarurligini ta'kidlaydilar.

Yana bir zamonaviy konsepsiya bu - "tanani siyosilashtirish" yondashuvi bo'lib, u nogironlikni tananing normalik standartlariga mos kelmasligi asosida jamiyat tomonidan siyosiy jarayonga aylantirilgan deb izohlaydi. Bunda nogiron tananing ijtimoiy hayotdan chetlashtirilishi, jamoat joylariga kira olmasligi, axborot texnologiyalaridan foydalanish imkonining cheklanishi - bularning barchasi tanani boshqarish va cheklashning shakli sifatida baholanadi. Bu yondashuv nogironlarning hayotdagi muammolarini biotibbiy emas, balki ijtimoiy normalar va siyosiy qarorlar natijasi deb tushuntiradi.

Sotsiologik tahlilning yana bir zamonaviy usuli - bu "kesishuvchanlik" (intersectionality) yondashuvidir. Ushbu yondashuv nogironlikning boshqa ijtimoiy identifikatorlar - jins, millat, yosh, ijtimoiy sinf, jinsiy orientatsiya kabi ko'plab omillar bilan kesishishini ko'rsatadi. Masalan, yosh nogiron ayol va qari erkak nogiron shaxslar hayotidagi sotsial muammolar bir-biridan tubdan farq qiladi. Bu esa bir yoqlama emas, balki ko'p o'lchovli tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Kesishuvchanlik nogironlikni kontekstual, murakkab, dinamik va o'zgaruvchan ijtimoiy holat sifatida baholashga yo'l ochadi.

Umuman olganda, zamonaviy sotsiologik yondashuvlar nogironlikni jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan, ijtimoiy jihatdan belgilangan, muayyan kuch tuzilmalari orqali mustahkamlangan ijtimoiy konstruktsiya

sifatida talqin etadi. Ular nafaqat muammoni tasvirlash, balki nogironlikni ijtimoiy inklyuziya, tenglik va insoniy qadr-qimmat asosida qayta shakllantirish yo'llarini ham ko'rsatadi.

Xulosa va munozara. Yuqorida keltirilgan sotsiologik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nogironlikni faqat individual yoki tibbiy muammo sifatida tushunish yetarli emas. Aksincha, bu holat jamiyat tomonidan yaratilgan va mustahkamlangan ijtimoiy konstruktsiya sifatida mavjud bo'lib, unga nisbatan yondashuvlar ham tizimli va ko'p qirrali bo'lishi zarur. Sotsiologik nazariyalar nogironlikni ijtimoiy o'zgarishlar, muvozanat buzilishi, stigma, kuchlar kurashi, identitet shakllanishi va madaniy ma'no kontekstida tahlil qilishga yo'naltirilgan. Strukturaviy funksionalizm nogironlikni ijtimoiy tizimdagi funksional nomuvofiqlik sifatida ko'rsa, etiketlash nazariyasi bu holatni jamiyat tomonidan belgilangan ijtimoiy yorliqlar mahsuli sifatida talqin qiladi. Konflikt nazariyalari esa nogironlarning jamiyatdagi resurslarga teng bo'lmagan kirish imkoniyatiga ega ekanini ko'rsatadi va bu masalani ijtimoiy adolatsizlik bilan bog'laydi. Feministik va postmodern yondashuvlar nogironlikning kesishuvchan (intersectional) tabiatini ochib beradi, ya'ni nogironlik boshqa ijtimoiy holatlar - jins, sinf, millat va yosh bilan uyg'unlashgan murakkab holat sifatida o'rganiladi. Shu nuqtai nazardan, nogironlikni o'rganishda sotsiologik yondashuvlardan foydalanish jamiyatdagi chuqur ildiz otgan stigma va diskriminatsiyani tan olish, ularni bartaraf etish, shuningdek, ijtimoiy siyosatni insoniylik, tenglik va inklyuzivlik tamoyillari asosida shakllantirish imkonini beradi. Bu esa nafaqat nogironlar uchun, balki butun jamiyat uchun adolatli va barqaror taraqqiyot zaminini yaratadi. Xulosa qilib aytganda, sotsiologik yondashuvlar nogironlikka oid muammolarni chuqurroq anglashga, jamiyatdagi mavjud muvozanatsizlikni tahlil qilishga va nogiron shaxslarni faol ijtimoiy hayotga jalb etish yo'llarini belgilashga xizmat qiladi. Ularning ilmiy va amaliy salohiyati nogironlikka doir siyosat va ijtimoiy yondashuvlarni tubdan yangilashga asos bo'la oladi.

ADABIYOTLAR

1. G'ulomov, Q., Qosimov, M. (2020). Sotsiologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Becker, H. (2013). Outsiders: Studies in the Sociology of Deviance. Nyu-York: The Free Press. (Tarjimasi asosida)
3. Muminov, B. (2021). "Nogironlik va ijtimoiy stigma: sotsiologik tahlil", Ijtimoiy fanlar jurnali, №2, 44-50-betlar.
4. Parsons, T. (2011). The Social System. Glencoe: Free Press. (Tafsiriy tahlillar orqali qo'llanilgan)
5. YUNESKO (2018). Nogironlik va inklyuziv jamiyat tamoyillari bo'yicha qo'llanma. Toshkent: O'zbekiston vakolatxonasi.